TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAR BOYJIYEV
MURZA
G‘APAROV

87



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAR BOYJIYEV
MURZA G‘APAROV





“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)
M 26

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Zuhriddin Isomiddinov, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Mansur Jumayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-4-8
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

QIRG‘IZ ELINING IKKI ULUG‘ ADIBI

Qirg‘iz adabiyotining dolg‘ali XX asr ikkinchi yarmidagi peshqadam vakillari haqida so‘z ketganda, shubhasiz, jahonning mashhur nosirlari safidan munosib o‘rin egallagan, adabiyot osmonida yulduz bo‘lib porlagan, o‘zbek kitobxonlarining sevimli adibiga aylangan Chingiz Aytmatov siymosi ko‘z oldimizda “yarq” etib paydo bo‘ladi. Ayni paytda, e’tirof etish joiz, bu davrda yon qo‘shnimiz bo‘lgan qirg‘izlar adabiyotida yana bir qator iste’dodli qalamkashlar o‘z asarlari bilan dovruq qozonishdi. Mazkur to‘plamda shu davr adabiyotining yorqin vakillari, o‘ziga xos “urush adabiyoti” namoyandalari Mar Boyjiyev va Murza G‘aparov ijodidan ayrim namunalar jamlangan.

Mar Boyjiyev 1935-yili Jalolobod shahrida, o‘qituvchi va yozuvchi oilasida tug‘ilgan. Qirg‘iz davlat universitetini tugatgach, Moskvadagi Oliy ssenariychilar kursida ham tahsil olgan.

Uning asarlari rus va qirg‘iz tillarida tez-tez nashr qilinib turadi. Mar Boyjiyevning qalamiga mansub “Bahs” (Duel) pyesasi Rossiya, Polsha, Bolgariya, GDR, Vengriya, Chexoslovakiya, Avstriya va boshqa mamlakatlardagi teatrlar sahnasida namoyish qilingan.

Mar Boyjiyev haqida gap ketganda uni taniqli publitsist, nosir, dramaturg, kino va teatr rejissori, adabiyotshunos sifatida tilga olishadi. Albatta, ijod sohasida bu qadar keng qamrovli bo‘lish oson emas. Ammo taniqli ijodkor bu sohalarning hammasida o‘zidan o‘chmas iz qoldira olganligi haqiqat.

Qirg‘iz xalq yozuvchisi, respublika Milliy kinoakademiyasi akademigi, faxriy professor, yanada faxriy “Manas ordeni” bilan taqdirlangan Mar Boyjiyev 1990–1995-yillarda Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi deputati sifatida mamlakat ilk Konstitutsiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan.

Mar Boyjiyev qirg‘iz nasri va dramaturgiyasi asoschilaridan biriga aylangan yozuvchi va taniqli jamoat arbobi, o‘tgan asrning

30-yillariga qadar baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda ijro etib kelingan “Manas” epopeyasini qog‘ozga ko‘chirish jarayoniga boshqosh bo‘lgan, Qur’on bilimdoni Tashim Boyjiyevning farzandi. Afsuski, qatag‘on mashinasi shunday odamni ham ayab o‘tirmadi — 1950-yili u burjua millatchiligida ayblandi va 10 yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. T.Boyjiyev Qarag‘anda lagerlaridan birida ikki yillik azob-uqubatlardan so‘ng vafot etdi. Garchand ota 1955-yili oqlangan bo‘lsa-da, yosh Mar Boyjiyevning qalbida bunday adolatsizlik qoldirgan og‘ir jarohat keyinroq uning ko‘plab asarlarida aks etdi.

Taqdir zarbalariga qarshi borishda o‘zida kuch topa olgan adib otasining ruhini shod etaroq, 2008-yili “Manas”ning ruscha bayonini amalga oshirdi.

Darhaqiqat, yana bir e’tiborli jihati, Mar Boyjiyev — Aytmatov kabi — “zullisonayn” adib: qirg‘iz va rus tillarida birday yozadi. Ehtimol mana shu omil ham sobiq sho‘ro davrida uning asarlari qaysidir ma’noda tezroq tarqalishiga, ko‘proq o‘quvchilar qo‘liga yetib borishiga turtki bo‘lgandir. Biroq, shaksiz, bu o‘rinda eng bosh omil - adib iste’dodi, uning o‘z bitiklari orqali o‘quvchilarga ayta olgan zalvarli gaplari, fikrlaridir.

O‘zbek o‘quvchilari Mar Boyjiyevni, avvalo, dramaturg sifatida kashf etishdi. Uning “Duel” pyesasi qisqa vaqt ichida juda mashhur bo‘lib ketdi. Katta hayot ostonasida turgan yosh qizning kechinmalariga asoslangan asar avvalo o‘z samimiyati, inson qalbi haqidagi o‘ziga xos mungli qo‘shig‘i bilan o‘quvchilar va tomoshabinlar muhabbatiga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, ehtimol. Tan olish joiz, M. Boyjiyevning dramatik asarlari baayni qissa yoinki roman singari shavq bilan o‘qiladi. Bir qarashda oddiygina tuyulgan dialoglar va monologlar mutolaasi jarayonida beixtiyor adib qalamga olgan qahramonlar o‘z fe’l-atvorlari, iztiroblari, qayg‘uli va yorqin kechinmalari bilan ko‘z oldingizda paydo bo‘ladi-qoladi.

O‘rni kelib qoldi, yana bir dalolatni qayd etib o‘tish joiz: Mar Boyjiyevning pyesalari dunyoning 274 teatrida sahnalashtirilgan! Hazil gapmi bu! Bemalol Ginnes rekordlar kitobiga kiritilsa arziydigan ko‘rsatkich. Bular orasida yurtimiz teatrlari ham borligi quvonarli hol, albatta.

Umuman olganda, Mar Boyjiyev ijodi, ayniqsa uning drama va ssenariylari O‘zbekiston bilan bevosita bog‘liq. Birgina misol. 1978-yili “O‘zbekfilm” kinostudiyasida rejissor Qamara Kamolova Mar Boyjiyev ssenariy muallifi bo‘lgan “O‘zgalar baxti” filmini suratga oldi.

Darvoqe, Mar Boyjiyevning o‘zi rejissor sifatida “Ahmoqlar poyezdi” filmini suratga olgan, N.Ostrovskiyning “Sepsiz qiz” pyesasi asosida esa “Sepsiz qizning to‘yi” nomli teatrning ikki janri — drama va opera birlashtirilgan sahna asarini tomoshabinlar hukmiga havola etgan.

Endi mazkur muallifning qo‘lingizdagi kitobga jamlangan hikoya va qissalari haqida muxtasar. Eng avvalo, ularda “urush ko‘rgan avlodning” alamli va dardli ruhiyati sezilib turishiga e’tibor qarating. Zero, “Mening oltin baliqcham”, “Tabassum”, “Mening nonim”, “O‘g‘ri xotin”, “Jinoyat va jazo yoxud qizil quloqlar”, “Suluv” hikoyalarida, “Birovning baxti”, “Kuz yomg‘iri”, “So‘qmoq” qissalarida aynan urush va uning butun dahshati, ayanchli oqibatlari qahramonlar hayotidagi taloto‘plar, evrilishlarning bevosita yoxud bilvosita sababchisi bo‘lib gavdalanadi. Mazkur asarlar beixtiyor urushga qarshi nafrat bilan to‘lgan qalbning izhorlari ham bo‘lib tuyuladi. Deylik, “Mening oltin baliqcham” hikoyasida yozuvchi urush yillarining dahshatli fojialarini ro‘y-rost tasvirlar ekan, qahramon o‘smir Turusbek tilidan “oyim aslida yomon ayol bo‘lmagan, urush yillaridagi muhtojlik uni bag‘ritosh qilib qo‘ygan”, deydi. Qarang, qonli urush ketmoqda, ikki o‘spirinning qalbida esa otashin muhabbat alangasi paydo bo‘ldi. Yozuvchi mahorati bilan qog‘ozga to‘kilgan ko‘ngil manzaralariga e’tibor bering: “O‘shanda men shu soatda hamma joy ham xuddi bu yerdagiday tinch, osoyishta emasligi, qayerdadir zambarak o‘qi dahshatli portlab, odamlarning yostig‘ini quritayotganini o‘ylaganmikinman, esimda yo‘q. Esimda yo‘g‘-u, lekin qalbim yashash, orzu qila olish sevinchi bilan to‘lib-toshgandi, tong otishi bilan qishloq chetidagi uy oldiga boraman, uning qo‘ng‘iroqday kulgisini eshitaman, mehribon, xumor ko‘zlariga to‘yib boqaman, deb orzu qilish baxtidan sarxush edim... Ha, hayot go‘zal! Ana, mening yulduzim, mening taqdirim — u shunday yonginamda, qo‘limni uzatsam yetadi...” Afsuski, ham-

masi oshiq dil istagiday bo‘lmaydi. Urush olis ovuldagi ma’sum chechak — navnihol Zayraning hayotiga changal soladi. Demak, har qancha uzoqda bo‘lmagin, urushdan, uning yovuz changalidan qochib qutulib bo‘lmas ekan.

Nazarimda, aynan shu bugungi, murakkab davrimizda bunday asarlar qayta-qayta o‘qilishi lozim. Ha, urushdan qochib qutulib bo‘lmaydi. Urush o‘z nomi bilan urush. Demak, asl Insonning vazifasi – urush bo‘lishiga aslo va aslo yo‘l qo‘ymaslik. Bugungi kunimiz uchun naqadar dolzarb chaqiriq...

Bu 2021-yilning oktabr oyida, 86 yoshida vafot etgan ulug‘ adibning bizni yana bir bor hushyorlikka, ogohlikka chaqirig‘iday bo‘lib yangraydi.

Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Murza G‘aparov — qirg‘iz kitobxonlarining ardoqli adiblaridan biri. U o‘zining zamondoshlari Ashim Jaqipbekov, Mar Boyjiyev, Kengash Jusupovlar bilan bir safda turgan holda, qardosh qirg‘iz adabiyotida hikoyachilik janrini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shgan. M. G‘aparov 1936-yilda O‘sh viloyatining Novqat tumanidagi Nuyg‘ut qishlog‘ida tug‘ilgan. Murza og‘a atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatov bilan birgalikda ko‘p yillar “Qirg‘izfilm” kinostudiyasida ishlab, qator kinofilmlar ham yaratgan. Murza G‘aparovning “Mehmon” deb nomlangan birinchi kitobi 1963-yilda nashr etilgan. Adibning “Bir shingil uzum”, “Arslonbob tomonlarda”, “Qorako‘lning g‘ozlari”, “G‘aroyib Orol”, “Qizil beda”, “Yovvoyi o‘rdaklar” singari qator kitoblari qirg‘iz, rus va qardosh tillarda bosilib chiqqan.

Murza og‘aning o‘ziga xos jozibaga ega asarlari tilimizga ko‘p o‘girilgan, jurnallarimizda chop etilgan, turli adabiy saytlarimizda yoritilgan. Bu bejiz emas, albatta. M.G‘aparov hikoya-qissalari qahramonlari dunyosi o‘quvchini o‘ziga maftun etadi. Ayni paytda, bu asarlarda bir dramatik vaziyat ikkinchisi bilan juda tez almashinadi. Qahramonlar uchun tanlash muammosi, xatar ehtimoli har qadamda bo‘y ko‘rsatib turadi. Aynan mana shunday nozik tasvirlar adib asarlari qahramonlari o‘quvchining ko‘z oldida yozuvchi izmidagi qo‘g‘irchoq emas, haqiqiy tirik inson bo‘lib gavdalanishiga xizmat qiladi.

Manbalardan ma'lum, Murza G'aparov poytaxtda universitetni bitirganidan so'ng Pomirda o'qituvchi bo'lib ishlagan. Mazkur to'plamda e'tiboringizga havola etilayotgan "Murg'obliklar" qissasi aynan Pomir maktablaridan birida o'z faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchi haqida ekanligi bejiz emas, albatta. O'zbek o'quvchilariga yaxshi tanish, "Jahon adabiyoti" jurnalida chop etilgan bu go'zal muhabbat qissasi yana bir bor M. G'aparovning o'ziga xos yozuvchilik uslubini ko'z-ko'zlaydi.

Umuman, Murza G'aparovning ijodi, uning tilga sayqal berish uslubi, qahramonlarini biri ikkinchisidan murakkab hayot sinovlarida toblash mahorati adabiy tanqidchilik tomonidan e'tirof etilgan. Balki shu sabablidir, qirg'iz adabiyotshunoslari orasida yozuvchi haqida "hech kimdan nusxa ko'chirmaydi" degan haqli e'tirof keng tarqalgan.

Kichkina qishloqning kichkina maktabi, qishloqning ajabtovur odamlari haqida hikoya qiluvchi "Murg'obliklar" qissasi ham jonli, hayotiy obrazlari bilan esda qoladi. Deylik, "E-e, bacha, men boradigan yerga "Volga" emas, tanking ham bora olmaydi", deya uyiga... qo'tosga minib boradigan cho'pon-deputat Maman; qishloq maktabida otilgan yovvoyi hayvonlardan tulumlar tayyorlab, kattagina muzey tashkil qilgan Mamit; keksaligini balog'atga yetayotgan qizini qo'riqlashga sarflayotgan yotoqxona komendanti; pok sevgisi yo'lida hech nimani pisand qilmaydigan Oysha... Albatta, bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin, biroq, mutolaa zavqiga xalal bermaylik degan andishada bu harakatimizni cheklab turamiz.

To'g'risini aytsam, o'zimga M. G'aparovning "Boychechak" hikoyasi ham rosa manzur bo'lgan. Nazarimda, abadiy haqiqat, ya'ni "Go'zallik dunyoni qutqaradi" aksiomasi shu asarda yana bir bor o'z isbotini topganday.

Hikoya xotimasiga e'tibor bering: "Kiyaz anchagacha yum-yum yig'ladi. Yig'lagan sayin qalbi muloyimlashib, ko'ksidagi tuman tarqab, o'zini yengil his qila boshladi. Uch kun deganda zoriqtirib kelgan bu ko'z yoshidan g'oyat sevindi. Qurib qolgan qudug'i ochilib, unda yana suv paydo bo'layotganday edi.

Demak, hali kech emas ekan..."

Qarang, bo‘lg‘usi olim Kiyazning yum-yum yig‘lashiga, yig‘lagan sayin qalbi muloyimlashishiga qabristonda bexosdan uzib olib, cho‘ntagiga solib qo‘ygan bittagina boychechak sabab bo‘ldi. Boychechak. Tirik hayot. Axir hikoyadagi boychechak aslini olganda go‘zallikning, komillikning timsoli emasmi? Mana shu go‘zallikdan larzaga tushmadimi qahramon qalbi?.. Hikoya umidbaxsh “Demak, hali kech emas ekan...” jumlasi bilan yakunlanadi. Favqulodda mazmundor nihoya. Demakki, hali qalb go‘zallikni his etar ekan, hali go‘zallikdan qalbi muloyimlasharkan, demak, hali kech emas. Demak bugunimizga, ertangi kunimizga ishonch aralashgan umid bilan qarasak bo‘ladi...

Nazarimda, siz aziz o‘quvchilar qo‘liga yetib borgan ushbu to‘plamda o‘quvchi yuragiga hayratlar olib kiradigan, qalbini alg‘ov-dalg‘ov etib tashlaydigan asarlar anchagina. Bunday bitiklarni o‘qish saodati nasib etgani uchun zahmatkash tarjimonlarimiz, kitob noshirlari hamda ushbu ezgu ishga hissa qo‘shgan boshqa tashkilotchilardan minnatdor bo‘lsak arziydi.

Abduqayum Yo‘ldosh,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

MAR BOYJIYEV





QISSALAR

KUZ YOMG‘IRI

Tahririyatning keksa, tajribali mashinistkasi Oysha opa sira kutilmaganda qo‘pol xatolar qiladigan bo‘lib qoldi — harflarni, ba’zida esa butun-butun so‘zlarni tushirib qoldirardi. Avvaliga buni shunchaki bir tasodif deb o‘ylashdi, lekin bora-bora tez-tez takrorlanadigan bo‘ldi. U xatoni ko‘rib qolib, asabiylashar, deyarli yozib bo‘lingan sahifani mashinkadan olardi-da, yonidagi savatga tashlardi, keyin yangidan boshlardi, lekin matnning yarmiga yetmasidanoq, bir harfning o‘rniga boshqasini yozganini payqab qolardi.

Hademay birinchi sahifada ketadigan jiddiy materiallarni unga, katta harf teruvchiga emas, ishlayotganiga atigi uch yil bo‘lgan Gulsunga beradigan bo‘lishdi. Gulsun dam-badam yordam so‘rab murojaat qilar, tajribali Oysha opa unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatar, maslahatlar berardi. Keksa ayol alamzada bo‘lib qoldi. Aftidan, Gulsun buni sezar, vaziyatni sal bo‘lsayam yumshatishga urinardi: bolalari haqida qiziq-qiziq, kulgili voqealarni gapirib berar yoki qo‘lyozmalardan birontasini olib, Oysha opaga uzatarkan: “E, yo‘q, bu mening qo‘limdan kelmaydi!” — derdi.

Chetdan qaraganda, ikki ayol inoq, ahil ishlashayotganday ko‘rinardi-yu, lekin “Mashbyuro” deb atalmish bu kichkinagina xonada vaziyat kundan kunga keskinlasha bordi.

Bir kuni ishga barvaqt kelgan Oysha Gulsunning bir maqolani o‘qib o‘tirganini payqab qoldi. Buni kecha kechqurun u yozgan edi. Deyarli har bir betida qalam bilan tuzatilgan, o‘chirib qayta yozilgan, ustma-ust urilganidan yirtilib ketgan joylar shunday ko‘zga tashlanardi.

Oysha o‘z joyiga indamay o‘tdi-da, boshini ko‘tarmasdan uzoq ishladi. Uning ozg‘in, dag‘al barmoqlari nihoyatda tez va aniq ishlardi, harflar ustida yengil o‘rmalardi.

— Uh, charchadim! — dedi birdan Oysha opa.

— Siz ishbay ishlardingiz-a? — deb so‘radi Gulsun, bosishda davom etarkan.

— Nima qilaman ishbay ishlab? So‘qqabosh kampirga ko‘p narsa kerak deysanmi? Ish charchatib qo‘ydi, har kuni bir xil ish: chiqillatganing-chiqillatgan. “Uch nusxa ko‘chiring!” — deyishadi, keyin yana chiqillatishga tushasan. Shu tovush hamma yoqdan eshitilayotganday bo‘ladi. Poyezd g‘ildiraklaridan ham, musiqa sadolaridan ham go‘yo shu mashinka ovozi taralayotganday bo‘ladi.

Yosh mashinistka ishini bosib bo‘ldi, u bu kamgap ayolning bunchalik kuyib-pishib gapirishini birinchi bor ko‘rishi edi.

— Siz dam olishingiz kerak, — dedi Gulsun achinib.

— Ha, o‘zimam o‘ylab yuribman, fursat yetdi. Yoshim ham bir joyga borib qoldi, — deb dag‘al javob qildi Oysha opa, klavish ham uning ovoziga hamohang dag‘al chiqillay boshladi...

Yosh ayol unga, ovuldami yo dengiz bo‘yidami dam oling, deb shunchaki maslahat bermoqchi edi, lekin keksa ayol buni o‘zicha tushunib xafa bo‘ldi...

— Meni noto‘g‘ri tushundingiz, Oysha opa, — deb o‘zini oqlamoqchi bo‘ldi Gulsun.

— E, nima farqi bor, — alamli kulimsiradi Oysha opa.

— Qaynanam oltmishga chiqdi, haliyam ishlaydi, chiqillatgani-chiqillatgan.

Oysha opa hech nima demadi. Hozir uning ta’bi xira edi, Gulsun uning ortiq g‘ashiga tekkisi kelmadi. Buning ustiga, keksa ayol yoshlarning maslahat berishini hecham yoqtirmaydi.

Mashinkalar bir-biriga jo‘r bo‘lib, tinimsiz chiqillardi, birdan ikkovi ham jimib qolsa, devor soatining bir me’yordagi chiqillashi eshitilardi.

Mana, soatning sarg‘ish kapgiri bir silkindi. “Benn! Benn! Benn!” — degan ovoz tarqaldi xona ichida. Ovqat mahali bo‘libdi. Gulsun so‘zni oxirigacha ham yozmay, bosishni to‘xtatdi, kichkina oynasini ochdi-da, lablariga pomada surtdi, stoldan bir shisha kefir, yana o‘rog‘liq narsa oldi-da, Oysha opaning sahifani tugatishini kutib turdi. Lekin keksa mashinistka go‘yo soat bongini eshitmaganday edi.

— Oysha opa, ovqat mahali bo‘ldi-yu, — dedi sekin Gulsun.

— Bor, boraver, jonginam, sening yosh bolalaring bor! — deb ishlashda davom etdi.

Gulsun yelkasini qisdi-da, chiqib ketdi.

Oysha yosh muxbir olib kelib bergan sahifalarni deyarli klavishlarga qaramasdan qaytadan ko‘chirib chiqdi-da, keyin muharrirning oldiga ketdi.

Oysha kirganida muharrir ko‘k piyoz solib pishirilgan, lekin sovib qolgan gumma yeb, grankalarni tuzatib o‘tirardi. U boshini ko‘tardi, ayol stol ustiga arizasini qo‘ydi, unda sog‘lig‘i yomonlashgani uchun pensiyaga chiqishga ruxsat so‘ragan edi.

— Balki “Goluboy Issik-Kul”ga yoki Qrimga borarsiz. Moskva yaqinida ham yaxshi dam olish uylari bor. O‘rmon, toza havo. Hozir kasaba uyushmasiga qo‘ng‘iroq qilib, nimasi borligini bilaman, — deb gap boshladi muharrir.

— Yo‘q, ovora bo‘lmang, Ahmadbek, g‘amxo‘rligingiz uchun rahmat. Endi dam olmasam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. Axir, quyoshning botishini to‘xtatib bo‘larmidi?

Muharrir tasalli bergani zarur so‘zlarni qidirayotganida Oysha opa qaytadan ko‘chirib bosgan maqolasini qoldirishni ham unutib, kabinetdan chiqib ketdi.

* * *

Tahririyatning kichkina zalida muharrirdan tortib, texnik xodimlar — Liza xola bilan Zuruxon opagacha — hamma xodimlar yig‘ilishdi. Ko‘k movut yopilgan stol ustiga gul, tort, har xil shirinliklar, shampan vinosi, yozuv mashinkasi qo‘yilgandi.

Muharrir Oysha Musayevna bilan uzoq yillar birga ishlashganlari, sobiq hamkasblarini unutmay, tahririyatga tez-tez kelib turishi xususida qisqacha gapirdi. Shundan keyin unga mashinkani sovg‘a qilishdi. Reportorlardan bittasi fotoapparatni ikki marta shiqillatib suratga oldi. Yig‘ilganlar qarsak chalishdi. Oysha sovg‘ani olarkan, ko‘zlarida yosh g‘iltilladi, minnatdorchilik bildirdi. Shampan vinosini ochishdi, ayolga sihat-salomatlik, uzoq umr tilashib ichishdi, keyin uni muharrir mashinasida uyiga olib borib qo‘yishdi. Ertasi kuni gazetada “Xayr, omon bo‘ling, Oysha opa!” degan sarlavha

bilan juda samimiy yozilgan kichkinagina lavha bosilib chiqdi. Shu kundan boshlab Oysha ishga kelmay qo'ydi.

Endi hech qayoqqa shoshilmasa bo'ladi, har kuni ertalab bir vaqtda turishi, avtobus bekatiga borishi kerak emas, degan fikrga birinchi kunlari sira ko'nikolmay yurdi. To'g'ri, odatiga ko'ra bir necha bor barvaqt o'rnidan turdi, dam-badam soatiga qararkan, shosha-pisha kiyindi, nonushta qildi, keyin boradigan yeri yo'qligi birdan esiga tushib, divanga o'tirib qoldi, shu alpozda qimir etmay uzoq o'tirdi. Bir kuni esa avtobusda hatto tahririyatgacha bordi, lekin eshik oldida tanish musahhihni uchratib qolgani uchun keyingi bekatda tushdi, kuni bilan shahar aylandi, chunki baribir uyida qiladigan ishi yo'q edi.

Bir-biriga o'xshash xotirjam kunlar boshlandi, uni hech kim bezovta qilmas, uyiga hech kim kelmas, o'zining ham hech kimni ko'rgisi yo'q edi.

* * *

Oysha ko'chada, ermaktalab, bekorchi odamlar orasida eski uyini qanday buzishayotganlariga qarab turardi. Egniga gard yuqmagan, yap-yangi kombinezon kiyib olgan o'n sakkiz yoshlar chamasidagi yigitcha buldozer richagini surdi. Uning ko'rinishi qahrli, hatto dahshatli edi: bu yerga to'plangan bolalarning unga havasi kelayotganini u his etardi, shuning uchun ham gerdayib o'tirardi; mashinani unga birinchi bor ishonib topshirishgani shunday sezilib turardi. Buldozer xuddi sherday uy tomon bostirib bordi; devor oldida bir zum to'xtadi-da, orqasiga tisarildi. Qamish tom tepasida chang-to'zon ko'tarildi, uy bir tomoniga yonboshladi, keyin sekin cho'ka boshladi. Chang burqirab, ko'kka o'rmalardi.

Oysha bu uyga yosh kelinchak bo'lib qadam qo'ygandi, shu uy ostonasida avval eri bilan, keyin o'g'li bilan xayrlashgandi, mana endi bu uyni so'qqabosh kampir bo'lib tark etyapti.

— Ur-ra-a-a! — deb baqirishdi bolalar.

Oysha yig'lardi...

Qani endi u eski uylarni buzmaslikka odamlarni ko'ndira olsa!

Mayli, yangilarini qurishsin, lekin eskilarini buzishning nima keragi bor? Lekin eskini buzmasdan, yangini qurib bo'larkanmi. Ha, bu hayotning o'zgarmas qonuni.

* * *

Oysha "Tinchlik" prospektidan bir xonali uy oldi, lekin oshxonasi bilan yo'lagi umumiy edi, u dastlabki kunlari yangi kvartiraga o'rganolmay yurdi: yarim kechada uyg'onib ketib, qayerdaligini tushunolmasdi, keyin yangi uyda yotganligini eslardi-da, anchagacha uxlay olmay, ko'zlarini ochib yotardi.

Qo'shni ikki xonali uyga Meder Risaliyev oilasi ko'chib kelishdi. O'ttiz yoshlar chamasidagi istarasi issiq bu odam SMUda prorab bo'lib ishlardi. U nihoyatda nazokatli, odobli bo'lib, doimo orasta yurardi, ust-boshiga juda e'tibor berardi. Burul eridan besh yosh kichkina edi; u kuni bo'yi ro'zg'or ishlari bilan band bo'lar, bolalariga qarar, yillar o'tishi bilan barvasta xotin, kattakon oilaga mehribon ona bo'lishi hozirdanoq ko'rinib turardi. Hozircha ikkita qizini: besh yashar Anora bilan uch yoshli Gulnorasini tarbiyalardi. Bolalari kallayi saharlab turib olishib, g'ingshishar, yig'lashar, murabbo so'rashardi, oshxonaga, vannaga chopib kirishar, chopib chiqishardi, zanjirni tortishardi; uyni qiy-chuv, dupur-dupur ovozlar tutib ketardi, bu yoqda unitazga shovullab suv quyilardi.

Dastlabki kunlari qo'shnilar faqat oshxonada ko'rishishardi, lekin bora-bora ikki ayol apoq-chapoq bo'lib ketishdi; Burul kechki ovqatga biror tuzuk narsa pishirsa, qo'shnisiga bir tarelkada chiqarardi, u ham, o'z navbatida, uni quruq qo'ymasdi.

Yangi uyda sovuq suv ham, issiq suv ham bor, gaz va boshqa qulayliklarni aytmaysizmi, Oysha ro'zg'or tashvishlaridan ancha qutulib qoldi. U kech turar, xotirjam nonushta qilar, keyin parkka borib, "Graf Monte-Kristo"ni o'qirdi. Shu ketganicha uyga kechqurun qaytardi.

Ba'zi-ba'zida unikiga Burul kirardi, ular uzoq gaplashib o'tirishardi. Gulnora bilan Anora u yoqdan bu yoqqa chopishar, stoldan nimanidir olishardi. Oyshaning kumush ramkadagi o'g'lining rasmini, bir vaqtlar Qora dengizdan olib kelingan katta chig'anoqni talashishardi. Derazaning qarshisida, devorda osig'liq turgan

rasmni olib bering, deb xarxasha qilishardi. Bu rasmda shimol yog'dusi ostida, qalin muz qatlamini yorib, shiddatli suzib borayotgan muzyorar kema tasvirlangan edi. Rasm ko'proq plakat yoki muqovaga o'xshab ketardi-yu, lekin Oysha uni juda ehtiyot qilardi, ko'zga tashlanadigan joyga osib qo'yardi. Bu rasmni o'g'li bir vaqtlar yig'gan puliga sotib olgandi.

Anora bilan Gulnora eski patefonni ochmoqchi bo'lishardi. Onasi qizlariga tegmanglar deb baqirar, qo'llariga shapatilab urib-urib qo'yardi. Ular bir zumga jimib qolishardi-yu, lekin sal o'tmay yana boshidan boshlashardi.

Burul har xil voqealarni gapirib berishni yaxshi ko'rardi.

Ularning uyida, uchinchi qavatda so'qqabosh bir chol turishini, hamma uni millioner deyishini ham Oysha o'sha Buruldan eshitgandi. Bir zamonlar u sartaroshlik qilgan ekan, hozir pensiyaga chiqibdi, yaqinda zargarlik mollari magazinidan judayam katta pulga antiqa soat xarid qilibdi.

Oysha kulib qo'ya qoldi, ishonmadi. Lekin yakshanba kunlarining birida chol balkonga ikkita kursi olib chiqdi-da, ularning ustiga kattakon soatni qo'ydi — korpusi fil suyagidan ishlangan bo'lib, jimjimador naqshlar solingandi; siferblatining oltin gardishini ikki sevgi ma'budasi ushlab turardi. Chindanam bu zeb-ziynat ancha pul turadiganga o'xshaydi. Lekin chol ertasi kuni bu soatni bolalar bog'chasiga olib bordi-da, mudir ayolga dedi: "Buni musiqa darsi o'tkaziladigan zalga qo'ysangiz. Bolalar dunyoda yaxshi bir odam yashagan ekan, deb yurishsin".

Burul to eshik qo'ng'irog'i jiringlamaguncha gaplashib o'tirardi. Meder kirib kelardi. U ko'pincha kech paytlarda, yana buning ustiga, do'stlarini boshlab kelardi, vaqt allamahal bo'lib qolganiga qaramay, u xotiniga u-bu narsa tayyorlashni buyurardi. Ba'zida eri kelavermaganidan keyin Burul bolalarini olib chiqib ketardi. Kechasi soat ikkilarda qo'ng'iroq chalinardi. Xotini qattiq uxlab qolardi, noiloj eshikni Oysha ochardi. Meder qo'shni ayolga muloyimgina minnatdorchilik bildirib, ichganimni sezmasin deganday yuzini burib nafas chiqarardi. Uning orqasida yana kimningdir qorasi ko'rinardi. Oysha "hechqisi yo'q, hechqisi yo'q", deb odatdagi gapini gapirardi-da, xonasiga kirib ketardi. Oradan biroz vaqt

o‘tgandan keyin qo‘shni xonadan bo‘g‘iq ovoz eshitilardi: avvaliga Meder iltimos qilardi, keyin buyurardi, ayol esa ta’na qilar, zorlanar, entikib yig‘lardi. Anora bilan Gulnora uyg‘onib ketishardi-da, ular ham baravariga yig‘lay boshlashardi. Keyin qizlar jimib qolishardi, aftidan, ularni boshqa xonaga olib chiqib ketishadi shekilli, endi oshxonadan har xil tovush kelardi. Burul ovqat isitardi yoki zakuskaga go‘sht qovurardi, go‘shti bo‘lmasa piyoz to‘g‘rardi-da, ustiga tuz sepib berardi, shundan keyingina g‘ala-g‘ovur bosilardi.

Meder Oyshaga nimasi bilandir eri Mukashni eslatardi. U ham eriga o‘xshab odamovi, doimo ichimdagini top xilidan, uning ko‘nglidagisini, senga munosabatini sira ham bilib bo‘lmasdi. Ha, agar Mukash sal boshqacharoq, aytaylik, sal ochiqroq bo‘lganda, Oysha, hoynahoy, uni tushungan, ko‘ngliga yo‘l topgan, ehtimol, ayriliqning oldini olgan bo‘larmidi...

Ha, ularning baxtiyor, shodiyona kunlari oz bo‘ldimi! Aqalli, o‘g‘lining tug‘ilishini eslasin-a... Professor chaqaloqqa qo‘yilgan dastlabki tashxisni noto‘g‘riga chiqarganida ular qanchalik sevinishgan edilar, ungacha ular bolalarining boshi tepasida o‘tirishib, har qaysisi o‘zicha sezdirmasdan sekin yig‘lab olardi. Mana endi, Mukash, shu kunlarni, o‘shandagi hamma sevinch-u tashvishlarni unutib, shartta boshqa ayolnikiga ketdi-qoldi. Oyshaning o‘ziga, o‘g‘liga xo‘rligi keldi; Mukash katta shaharda o‘qib yurgan kezlari sovuq qish kunlari to‘kkan achchiq-achchiq ko‘z yoshlariga achindi; unga yozgan xatlarida suyub-erkalab aytgan so‘zlariga achindi; unga baxshida etgan sevgisi-yu, nozik his-tuyg‘ulariga achindi. Mukash bularning qadriga yetmadi, unga bevafolik qildi, eng dahshatlisi mana shu edi. Ehtimol, vaqt o‘tishi bilan Oysha Mukashning bu ishiga boshqacha ko‘z bilan qaragan, uni tushungan bo‘larmidi; u yoqda, katta shaharda, ehtimol, juda zerikkan, yolg‘izlikdan siqilgandir, axir u parvarishga, kimningdir g‘amxo‘rlik qilishiga, yonida hamisha sevimli odami borligiga o‘rganib qolgandi-da. U shaharda uchratib qolgan o‘sha ayol ancha ko‘hlik bo‘lib, Mukash uchun o‘zini o‘tgayam, suvgayam urishga tayyor ekanligi shunday sezilib turardi. Ha, uni kechirolmadi. Hademay urush boshlanishini, uning frontga ketishini kim bilibdi deysiz. Mukash bron olishi mumkin edi, lekin u oldingi pozitsiyalarga

yuborishlarini iltimos qildi. Oysha hatto uni kuzatgani vokzalga ham chiqmadi — Mukashning yangi rafiqasi bilan ko'rishishni istamadi, odamlardan ham uyaldi, o'g'liga, sen borgin, dedi, undan issiq qo'lqop berib yubordi...

Urush boshlanmasdan sal oldin u Oyshaning oldiga kelib, kechirim so'radi, o'g'lining oldiga qaytmoqchiligini aytdi, yig'ladi...

— Yo'q, — dedi Oysha, — endi bizga keraging yo'q, bizga bevafolik qilding!

O'shanda Oysha to'g'ri ish qildimi? Axir, eri bosh egib keldi-ku, kechirim so'radi-ku!

Agar urush bo'lmaganida, bu gaplarning hammasi nima bilan tugardi, kim biladi deysiz...

Mukash urushdan keyin o'z jonajon qishlog'iga qaytib keldi. O'g'lining o'lganini urushda yurganidayoq eshitibdi, aftidan, ikkinchi xotini yozib yuborgan. U Oyshaning oldiga kelganida hech nimani so'rab-surishtirmadi, Erkinning o'limi to'g'risida kelgan qoraxatni ko'rsatishini iltimos qildi. Praga yaqinida ko'pchilik bo'lib tushgan suratni uzoq ko'zdan kechirdi, o'g'ilchasining kalta ishtonchada stul ustida o'tirib tushgan rasmini olib ketdi. O'sha kech ikkovi ham churq etishib og'iz ochishmadi. Oysha g'am-g'ussa toshini yolg'iz ko'tarishga allaqachonlar ko'nikib qolgandi. Qosh qorayishi bilan Mukash uyiga ketdi, u yoqda qizi bor edi, qizi u frontga ketganidan keyin tug'ilgandi. O'g'lining o'limi ikki kishini bir-biriga bog'lab turgan rishtani ham uzib yuborgan edi...

Ilgarilari, redaksiya ishi bilan band bo'lgan paytlarida Oysha erini kamdan-kam eslardi, to'g'rirog'i, uni eslamaslikka urinardi, lekin keyingi paytlarda allaqachonlar unutib yuborilgan voqea-hodisalarni negadir tez-tez eslaydigan bo'lib qoldi.

Ehtimol, o'zi ko'rib-bilib turgan yon qo'shnilarining hayoti bunga sabab bo'lgandir. Aslida, Meder saxiy, ko'ngli ochiq, yaxshi odam bo'lsa kerag-u, lekin negadir xotini bilan til topisholmasdi: Burul erining berahmligidan, uni nazar-pisand qilmasligidan noligani noligan edi... Bir kuni Oysha g'ala-g'ovur bosilishini kuta-kuta, axiyri uxlab qoldi. Meder juda kech, allamahalda keldi, Oysha uyqu aralash erkak ovozini, Burulning yig'isini, yana nimaningdir singanini eshitdi. Ertalab ularning uyi kimsasiz, huvullab turganini

ko‘rib, Oysha hayron bo‘ldi; oshxonada ham hech kim ko‘rinmasdi; ayol Burul ertalabdanoq qizlarini olib qayoqqadir ketgan bo‘lishi kerak, deb o‘yladi. Lekin oradan ikki soat o‘tar-o‘tmas Anora kirdi-da, sizni oyim chaqiryapti, dedi.

Burul sholro‘molga o‘ralgan ko‘yi divanda yotganicha yig‘lardi. Oysha kirishi bilan Burul ho‘ngrab yubordi, anchagacha o‘zini bosolmadi: ro‘molining uchi bilan qizarib ketgan burni, ko‘zlari, yuzlarini artardi. Qizlar onasining yonida churq etmay turishardi. Anora ko‘ylagining etagini qo‘liga o‘rardi, Gulnora esa ko‘zlarini javdiratganicha, yuzi pachoq qo‘g‘irchog‘ini ko‘ksiga bosib turardi.

— Yo‘q, ortik chiday olmayman, toqatim toq bo‘ldi! — deb ingranardi Burul.

U, aftidan, qari xotinning unga achinishini, hamdard bo‘lishini juda-juda istardi.

— Boshingni ko‘tar, — dedi Oysha qat’iy, — bo‘ldi, yig‘lama!

Ikkala qizcha ham Oyshaning oldiga kelib, uning pinjiga tiqilishdi.

— Axir, men yig‘lamay, kim yig‘lasin? —dedi Burul.

— Ishga kir, qo‘lingda yaxshi hunaring bor.

— Bolalar-chi?

— Ularga o‘zim qarayman, — dedi Oysha.

Shu kundan boshlab Oysha qizlarga qaray boshladi. U qizlarga bahorga qanday ko‘ylak tikib bersam ekan, deb o‘ylardi. “Bizning bolamiz” degan kitobcha sotib oldi, kechalari o‘qib chiqardi, kerak joylarini yozib olardi. Axir hozir zamon boshqa, Oysha yosh ona bo‘lgan davrlar boshqa edi. Endi bolalar tarbiyasi haqida qalin-qalin kitoblar yozilgan. Qizchalar ertalabdan kechgacha uning xonasida miriqib o‘ynashardi, Oysha bilan kino, sirkka borishardi... Burul tikuv fabrikasiga ishga kirdi.

Oysha pensiya puliga qizchalarga bir juftdan ichki ko‘ylak-ishton, qizil va ko‘k tish cho‘tkalari, sarg‘ish va ko‘k arqon olib berdi. Qiziq, nega endi shu ishlarni u ilgariroq qilmadi!

Dushanba kuni Burul ishga ketdi-yu, kechqurun asabiy bo‘lib qaytdi, mashina oldiga o‘tirganida shoshib, dovdirab qolganini, ko‘ylakning etagini teskari tikib qo‘yganini gapirib berdi. Butun

oila a'zolari oshxonada o'tirishgandi, bolalar qotib-qotib kulishdi, Meder ham kulardi.

Endi Oyshaning ishi boshidan oshib-toshib yotardi: go'shtga bozorga tushardi, sutga navbatda turardi, shirin-shirin ovqatlar pishirardi, qizchalarga ko'z-quloq bo'lardi, parkda soatlab o'tirib, jun paypoq to'qirdi. Kunlar yeldek o'tib borardi, Oysha xiylagina charchardi, shuning uchun ham kechasi qattiq uxlardi. Endi ilgarigiday kechasi bilan mijja qoqmay, derazaga tikilib o'tirishlar yo'q edi. U bu ikki qizchaning kelajagi haqida juda ko'p o'ylardi: u Anoraning mashhur balerina, Gulnoraning shoira bo'lishini juda-juda istardi. Gulnoraning zehni o'tkir — u yolg'on-yashiq gaplarni to'qishga usta edi, qofiyalarni ham qotirib tashlardi. Endi bu keksa ayol uzoq umr ko'rishni istardi, bu bolalarning kim bo'lishini, keyin ularning bolalarining, nevaralarining kim bo'lishini ko'rsam derdi; u umri zoye ketmaganini ko'rishni, shu bilan faxrlanib yurishni istardi: bu ikki mashhur odamni — balerina bilan shoirani xuddi shu Oysha opa tarbiyalab voyaga yetkazgandi.

Uning nazarida hayot unga go'yo qandaydir yangi, mangu va juda ezgu bir narsa hadya qilganday edi. Qizchalar kursi ustida o'tirib suratga tushgan o'sha boladek unga qadrdon bo'lib qolgandi.

Uyining ichi yanayam yorug'lashib ketganday, ho'v derazalardan og'ir pardalar olib tashlanganday edi. Kechqurunlari kulgi ovozi eshitilardi, dam olish kunlari esa ertalabdan magnitofon qo'yilar, magnitofonning shu vaqtgacha jim yotganining boisi, muzika eshitish egalarining esiga ham kelmasdi, boshqa ishlari ko'p edi. Nonushtadan keyin butun oila a'zolari shaharga jo'nashardi, kino yoki sirkka tushishardi, Oysha uyda qolib ovqat tayyorlardi. Ular shahardan zavq-shavqqa to'lib, qorinlari ochqab qaytishardi. Ovqatni ham tinch o'tirib yeyishmasdi. Gulnora bo'lsa hadeb shlapalik kishining sharchalarni yutib, og'zidan tanga chiqarishini yoki cho'chqalarning fokstrotga tansaga tushishini eslardi.

Oysha ularga qarab turib, bir zamonlar bu oilani tanimaganiga, bilmaganiga ishongisi kelmasdi. Uning nazarida Meder uning o'g'li-yu, Burul — kelini, Anora va Gulnora esa uning nevaralari, go'yo u hech qachon yolg'iz bo'lmagan, odamlardan o'zini olib qochmagan, ularni doim sevgan, hamisha ular bilan birga bo'lgan.

“Men shu oilani saqlab qoldim, bolalariga baxtni, quvnoq kulgisini qaytardim”, — deb o‘ylardi Oysha.

* * *

Musibat kutilmaganda yuz berdi.

Bir kuni ertalab Oysha Meder, Burul ikkovining bir-birlari bilan gaplashmayotganlarini payqab qoldi. U o‘zicha, oralaridan shunchaki bir arzimas gap o‘tgandir-da, deb o‘yladi. O‘sha kuni Meder kechasi allamahalda keldi. Eshikni Oysha ochdi, Mederdan gup etib araq hidi keldi. U uzr so‘ragan bo‘lib, allanimalar deb g‘o‘ldiradi-da, uyiga kirib ketdi.

Ertasi kuni ham xuddi shunday bo‘ldi. Oysha aralashishni ep ko‘rmadi-da, Qoraboltadagi dugonasinikiga ketdi, er-xotin yarashib, til topishib ketar, deb juda ishongandi.

Yo‘q, u yanglishgan ekan. Uyiga qaytib kelganida stol ustida yotgan xatga ko‘zi tushdi:

“Oysha opa, sizni kutdik, kelavermaganingizdan keyin noiloj ketdik. Biz Shimolga ketishga qaror qildik. O‘sha yerda ishlab ko‘ramiz, ehtimol, hammasi izga tushib ketar. Kelgunimizcha uyimizda Mederning student ukasi yashab turadi. Xat yozib turamiz. Sizni, bizning mehribon Oysha opamizni bag‘rimizga bosib, o‘pib qolamiz”.

Keksa ayol majolsizgina qo‘llarini tushirdi. O‘sha kechasi mijja qoqmadi, derazaga tikilganicha achchiq-achchiq yig‘ladi...

* * *

Uy ichi xuddi sag‘anaday jimjit edi. Oysha yolg‘iz qoldi. Zerikarli, fayzsiz kunlar birin-ketin o‘taverdi. Tashqarida sarg‘ish yaproqlar sekin yerga uzilib tushib, jon berardi... Kuz shaharga sekin, xotirjam kirib keldi.

Shundayam toza idish-tovoqlar bir necha bor yuvib chiqildi, yuviladigan narsalarning hammasi yuvib bo‘lindi, pollar bo‘yaldi, devorlar oqlandi, holbuki bayramga hali ancha bor edi. Endi bu ayol nima qilishini, qo‘lini nimaga urishini bilmasdi, qiladigan ishning o‘zi yo‘q edi. Kitob o‘qimoqchi bo‘ldi — ko‘zlari toliqdi. Ko‘zi kitobda-yu, xayoli butunlay boshqa narsada ekanligini o‘zi

ham sezib turar edi: u Gulnorani, Anorani va... bir necha yil muqaddam umrida birinchi bor uni buvi, deb chaqirgan o'sha oq-sariq sochli do'mboq qizchani o'ylardi.

Bu voqea ming to'qqiz yuz qirq sakkizinchi yilda bo'lgandi...

Ertalab eshikni birov taqillatdi. Oysha deraza oldiga borib qaradi-da, ostonada ikki kishining qorasini ko'rdi. Ulardan biri novcha, ikkinchisi pakana edi. Fevral sovug'idan derazalarni qirov bosgandi, ularning yuzini ajratib bo'lmasdi.

— Kim?

— Bizlar! Iltimos, oching.

— Kimsizlar?

— Oching, sizga aytadigan gapimiz bor.

— Nima gaplaring bor?

— Erkinning oyisi shu yerda turadimi?

— Ha, shu yerda! — Oysha eshikni lang ochib yubordi.

Eski tivit ro'molga o'ranib olgan yosh juvon kirdi, uch yoshlar chamasidagi qizchani qo'lidan ushlab olgandi.

— Siz kimsiz?

— Bizmi?.. Bu qizcha nevarangiz, — dedi ayol va qizchaning ro'molini yechib qo'ydi.

— Qanaqa nevara?

— O'g'lingizning qizi.

— O'g'lingizning? Axir, o'g'limning o'lganiga necha yillar bo'lib ketdi-yu... U...

Keyin ular choy ichishib, uzoq gaplashib o'tirishdi; qizcha uxlab qoldi. Ayol Erkin xizmat qilgan qism ikki oy burun ularning qishlog'ida turganini gapirib berdi. Ular bir-birlarini sevib qolishgan. Erkin oldingi marraga ketayotib, onasining adresini qoldirgan, xat yozib turaman, deb va'da bergan, lekin yozmagan. Balki xati biror joyda yo'qolib qolgandir, ehtimol, yozishga ham ulgurolmagandir. Fashist o'qidan halok bo'lgan. Bir necha oydan keyin urush ham tugagan, oradan ko'p o'tmay shu qizcha tug'ilgan.

Oysha uxlab yotgan qizchaga diqqat bilan uzoq tikildi, lekin o'ziga tanish biror belgi topolmadi, biroq qoshi, kiprigi qop-qora edi.

Oysha nima qilarini bilmay, boshi qotdi. Ishonsinmi yo ishonmasinmi? Juda ishongisi kelardi-yu, lekin yana kim biladi deysiz,

hayotda nimalar bo'lmaydi? Shunday uyatchan, tortinchoq, odamovi Erkin, yoshgina bola o'zidan katta xotinni birpasda qanday sevib qoldiykin, u bilan turdiykin? Axir, uning qaylig'i bor edi-ku, qiz uni sevardi, kutardi! Yaqinda gazetada bir qallob haqida yozishgandi; u bevalarning oldiga kelarkan, o'lgan eri to'g'risida ba'zi bir narsalarni oldindan bilib olib, qayoqdagi yolg'on-yashiq gaplarni bichib-to'qib, ularning ishonchini qozonarkan-u, uyida yashab qolarkan, keyin payt poylab qo'liga ilingan narsaning hammasini olarkan-u, g'oyib bo'larkan. Oysha bu ayolni shundaylardan deb o'ylamasdi, albatta. Uning gap-so'zlariga qaraganda, Vera Erkinni juda yaxshi biladi.

Ayol qizi bilan Oyshanikiga joylashdi, o'zi zavodga ishga kirdi. U bir kuni odatdagidan kechroq keldi-da, qandaydir bir to'garakka yozilganini aytdi. Oradan bir necha kun o'tganidan keyin u yana ham kech kelib, kinoga tushdim, dedi. Boshqa safar Oysha Verani bir erkak kuzatib qo'yganini payqadi. Oysha shunday bo'lishi tabiiyligini tushunardi, albatta, Verani qizg'anishga haqqi yo'q, uning bitta-yarimta bilan uchrashishiga monelik qilolmaydi, lekin baribir bunga chidolmasdi. Bir kuni chiday olmay so'radi:

— Seni kuzatib qo'yayotgan yigit kim o'zi?

— Bir sexda ishlaymiz, — deb javob berdi Vera.

— U senga uylanmoqchimi?

— Bilmadim...

"Unday bo'lsa, nega sen bilan yetaklashib yuradi?" — deb so'ramoqchi bo'ldi, lekin gapi bo'g'zida qoldi.

Hademay u yigit Verani kuzatmay qo'ydi, uning o'rniga boshqasi paydo bo'ldi — egnida pogonsiz ofitserlar kiteli, ko'ksiga ikkita orden kolodkasini qadab olgandi.

Ana shundan keyin Oysha Vera bilan ochiqchasiga gaplashmoqchi bo'ldi.

— Sen meni to'g'ri tushungin, — deb gap boshladi Oysha, — biz ochiqchasiga gaplashib olishimiz kerak. Sen yoshsan, chiroylisan, o'n gulingdan bir guling ochilgani yo'q, senga to'g'onoq bo'lyapman shekilli. Sen kelajagingni o'ylashing kerak. Biror yaxshi odamni uchratib, u bilan oila qursang hecham xafa bo'lmayman...

Vera hech nima demadi, yig‘lay boshladi. Balki u bu yerga shu Oysha opani deb kelganini tushuntirmoqchi bo‘lgandir (bu Erkinning iltimosi edi), lekin negadir hech nima gapirolmadi. Aftidan, Oysha opaning nimadandir shubhalanayotganini, ko‘nglida bu qizchani nevaram, deb bag‘riga ololmayotganini Vera sezgan edi. Xullas, oradan biroz vaqt o‘tganidan keyin Vera qizini olib jo‘nab ketdi. Xat yozib turaman, deb va’da bergandi, atigi bitta xat yozdi, xatni Toshkentga yaqin bir joydan yuboribdi, xatida fabrikaga ishga kirdim, yotoqxonada turibman, debdi...

* * *

Oysha eski xatlarni qaytadan o‘qib chiqmoqchi bo‘ldi. Ular ko‘p emasdi: sarg‘ayib ketgan bir nechta xat eridan, uchta xat o‘g‘lidan, mana bu bir enlik xat Veradan kelgandi. Mana, birinchi xat, u janubdagi qaysi ham qishloqdan to‘ppa-to‘g‘ri texnikumga kelgandi, Mukash o‘sha yerga ishga ketgandi. Unda ular hali qovushishmagan edi. Mukash ishdagi qiyinchiliklar, yerli xalqning urf-odatlari to‘g‘risida uzundan uzoq yozardi, xatining oxirida atigi bir og‘iz so‘z bo‘lardi: “Kutgin”. Har xil joylardan bir nechta otkritka yubordi, ularda Oyshaning sog‘ligidan tashvishlanib (Oyshaning oy-kuni yaqinlashib qolgandi) yozardi, keyin ikkovining ham: xotini bilan o‘g‘lining sog‘lig‘ini so‘rab-surishtiradigan bo‘ldi. Katta shahardan kelgan xatlar yo‘q edi: Oysha hammasini yirtib tashlagandi, frontdan kelgan bitta xatini saqlab qo‘ygandi...

Oysha xatlarni ko‘zdan kechirib uzoq o‘tirdi, ularni o‘qimasdi, shunchaki harflariga, tanish yozuvga qarab o‘tirardi. Xatlarning mazmunini u yoddan bilardi.

O‘g‘lining xati...

Birinchi xatini yosh bola yozganligi shunday ko‘rinib turardi, pioner lageridan kelgandi: harflari qing‘ir-qiyshiq, bir-biriga mingashib yotardi. Ularning otradi qayiqda sayr qilishgani haqida uch sahifani to‘ldirib hikoya qilgandi. Ikkinchi xatida qo‘li ancha kelib qolgandi. U mobilizatsiya qilinganlarni o‘qitishayotgan shahardan kelgandi. Uchinchi xatini frontdan yozgandi. Keyin qoraxat keldi.

Oysha xatlarni yaxshilab taxladi-da, sellofanga o‘rab, ustidan lenta bilan bog‘ladi, keyin yana yechdi: ularni mashinkada qaytadan

ko‘chirib bosmoqchi bo‘ldi, axir, qog‘oz vaqt o‘tishi bilan sarg‘ayib ketadi-da, ba’zi xatlar qalamda yozilgani uchun harflari o‘chib ketgandi. Oysha mashinkani stol ustiga qo‘ydi, uni paxmoq latta bilan artib chiqdi, eridan kelgan birinchi xatni oldi-da, ochib, tekisladi, eski mis lineykani olib, satrning tagiga qo‘ydi, stulga yaxshilab o‘tirib olib, bosmoqchi bo‘ldi, qarasaki, xat boshidagi so‘zlardan birontasini ham o‘qib bo‘lmaydi. Oysha birinchi so‘zlarni eslay-eslay arang o‘qib chiqdi, barmog‘ini mashinka tugmasiga bosgan edi, tiq etgan tovush eshitildi, lekin harf yozilmadi — lenta eski edi; u yangi lentani qo‘ydi-da, shoshmasdan, harflarni bittadan urib, birinchi so‘zni yozdi: “Jonginam”. Go‘yo kuni bilan ishlagan odamday qo‘llarini horg‘in pastga tushirdi.

U boshini mashinkaning sovuq korpusiga qo‘yganicha anchagacha churq etmay o‘tirdi.

Oysha boshini ko‘targanida xona ichiga qorong‘ilik cho‘kkandi. U balkonning eshigini ochib yubordi. Yengil kuz shabadasi yuziga gup etib urildi, sochlarini to‘zg‘itdi. Yaqindagina yomg‘ir yog‘ib o‘tgandi, uyning tomidan yomg‘ir tomchilari chak-chak tomardi, go‘yo uy ham o‘z bahorini qo‘msab yig‘layotganday edi. Derazalarda birin-ketin chiroq yona boshladi. Pastda asfalt ko‘cha yaltirardi, unda fonarlar shu’lasi aks etardi. Qarshisidagi talabalar yotoqxonasining balkonida bir qiz turardi, eshikning yorqin fonida u xuddi tushda chizilgan suratga o‘xshab ketardi. Musiqa eshitildi. Kuchli bir ovoz kuylardi:

Tug‘yon urmang, hislarim,
Xoksor qalbim, orom ol.

Ovoz tinishi bilan shahar, uylar, asfalt ustida violonchelning mungli sadosi misoli tuman suzib yurardi.

Og‘ir damlar orqada qolur,
Ikkov yana bo‘lurmiz birga.
Lablar bo‘salarda tutashar yana.

Kuy uyquga ketayotgan shaharni, kuz yaproqlarini, tungi sukunat va yolg‘iz yulduzga mahliyo bo‘lib turgan qizni erkalaydi.

“Hoy qizcha, seni u yoqda, oldinda, hayotda nimalar kutyapti? Men ham bir vaqtlar senday edim, men ham yuzimni tong shamoliga tutib, tong yulduzi — Cho‘lpon chiqqunicha o‘tov oldida churq etmasdan turardim. Sening ham toleying menikiday past bo‘lmasmikin? — Oyshaning lablari qaltirab, tomog‘iga bir nima tiqilganday bo‘ldi. — Yo‘q! Yo‘q! Sen bu xo‘rliklarni ko‘rmaysan! Hech qachon! Axir, o‘g‘lim seni deb, sening baxtingni deb halok bo‘ldi! Bunday o‘g‘illardan ozmuncha edimi! Sening mana shunday tura olishing, yulduzlarni tomosha qilishing, o‘z baxt-iqboling haqida o‘ylay olishing...”

E, aytmoqchi, bu fikr-mulohazalarning kimga keragi bor? Balki, urushda kim o‘lib, kim qolgani bu qizni mutlaqo qiziqtirmas? To‘g‘ri, bu qiz ular haqida eshitgan, kitoblarda o‘qigan. Ehtimol, uning uchun bu shunchaki bir avlodning ikkinchi bir avlod bilan almashinishidir. Go‘yo bu gaplar bir zamonlar bo‘lib o‘tganday — bir avlod ketdi-yu, boshqalar keldi. Jaz sadolariga uyqash tarzda birdan sovuq tushdi.

...Shamol Oyshaning oq oralagan sochini to‘zita boshladi. Tomda yirik-yirik sarg‘ish yaproqlar gir-gir aylanardi. Yana yomg‘ir yog‘a boshladi. Qarshisidagi balkondan endi boshqa ovozlar eshitilardi. Qiz g‘oyib bo‘ldi. Oysha uxlashga yotdi. Bo‘lmadi. Tabletka ichdi-da, o‘sha zahoti uxlab qoldi. Uyg‘onsa, katta to‘lin oy derazadan mo‘ralayapti. Vannada suvning jildirashi eshitilardi. Keyin suvning jildirashi ham tindi. Jimjit bo‘lib qoldi. Oysha vannaga kirib, kranni ochib yubordi, yana suv jildirab oqa boshladi, uning jildirashi Oysha tug‘ilib-o‘sgan, bolaligi o‘tgan, dugonalari bilan oyoqyalang chopib yurgan, lolaqizg‘aldoqlar tergan tog‘lardan oqib tushadigan jilg‘alarning ovoziga o‘xshardi. Lolaqizg‘aldoqlar! Ular buncha nozik, mo‘rt bo‘ladi-a? Shuning uchun ham xalqda: “Lolaqizg‘aldoq uzmang — barglari to‘kilib ketadi, qiz boqmang — erga tegib ketadi”, deyishadi-da.

Sovuq tushdi. Kuz oxirlashib qolgandi. Oysha opa o‘zini ancha oldirib qo‘ydi, yana kechalari uyqusi qochadigan bo‘ldi. Vrachga uchradi, tabletka yozib berishdi. Oysha o‘sha tabletkadan bittasini ichdi-da, o‘sha zahoti uxlab qoldi...

Kuz kunlarining birida eshik qo‘ng‘irog‘i jiringlab qoldi, Oysha bir seskanib tushdi-da, xalatini tugmalashni ham unutib, eshik tomon shoshildi. U, Burul qizlari bilan qaytib keldi, deb o‘yladi. Lekin ostonada kulimsiragan Gulsun turardi. Oysha uni hadeganda tanimadi. Gulsun tugmalari katta-katta keng ko‘ylak kiyib olgandi. Juvon ozib ketgandi, katta ko‘zlari porlardi. Yuzi tiniq, toza edi...

— E, Gulsun, kel, kel, qanday shamol uchirdi? Nega ostonada turibsan, ichkariga kir. Kelganing yaxshi bo‘ldi, xari sindirib yuborsammikan?

— Voy, nega endi? — deb so‘radi Gulsun tushunmasdan.

— Ha, xalqimizda shunday gap bor. Kishi biror yaxshi, ezgu ish qilsa, mana shunday deyishadi.

— Ha!.. — Gulsun kulib yubordi.

Oysha oshxonaga kirdi-da, bir minut o‘tar-o‘tmas tarelkada bo‘g‘irsoq olib chiqdi.

— Ha, odam qariganda irimchi bo‘lib qolarkan. Ol, bo‘g‘irsoqdan. Yog‘liqqina, o‘zim pishirganman.

Gulsun po‘rsildoq bo‘g‘irsoqdan bittasini oldi.

— Xo‘sh, qani gapir, turmushing qalay, bolalar-chi? Ha, kelganing juda yaxshi bo‘ldi. Meni unutib yubordilaringmi, deb yurgandim.

Gulsun sumkasidan ikki dona apelsin oldi-da, stol ustiga qo‘ydi:

— Erim Moskvadan olib keluvdi.

— Voy, bunchayam chiroyli-a! Rahmat. Nahotki, Moskvada o‘ssa?

— Yo‘g‘-ey, boshqa yoqdan olib kelgan bo‘lsa kerak. — U Oyshaning kinoyasini tushunmadi.

— Kelganing juda yaxshi bo‘ldi-da. Xo‘sh, qani, yangiliklardan gapir. Redaksiyani boshqa binoga ko‘chirisharkan, deb eshitdim, hali ko‘chib o‘tmadilaringmi?

— Ko‘chib o‘tishayotgandir, — Gulsun yelkasini qisdi.

— Nima, ishga bormayapsanmi?

— Ha... — Gulsun qoshlarini chimirdi. — Sizdan keyin ko‘p o‘tmay men ham ketganman. Kattam birinchi sinfga bordi. Erim

boshqarmada ishlayotuvdi. Dissertatsiyasini himoya qildi. Men uy bekasi bo'lib qoldim. Ha, bolalar bilan bo'lyapman. Agar hammasi ko'ngildagidek bo'lsa, yana farzand ko'ramiz. Ularni qanday eplayman, hayronman, jinni bo'lib qolsam kerak! — Gulsun nima maqsadda kelganini darrov aytishga yuragi betlamadi, o'zini noqulay sezib, kampirning oldiga o'sha zahoti kelmagani uchun ichida o'zini o'zi koyidi. O'shanda kelishish oson bo'lardi.

Oysha Gulsunning niyatini bilib turardi-yu, lekin hech nima demadi.

Juvon bo'lsa tinimsiz gapirardi: hademay issiq suvi, gazi bor uch xonali uy olishlarini gapirib berdi. Katta televizor olishibdi. Xullas, ularnikida hecham zerikmaysan. Gulsun o'zicha men gapni juda o'rniga qo'yyapman, nozik joyidan olyapman, deb o'ylardi.

— Ha, bola boqish, ularni katta qilish osonmas, — deb xotirjam gap boshladi Oysha apelsinning po'stini archarkan, — qo'shnilarim bor edi; ikkovi ham yosh, kelishgan edi, bir tanishim, so'qqabosh kampir bolalarini tarbiyalashga yordam bermoqchi bo'ldi. Bolalariga shunday o'rganib qoldiki, ularsiz turolmasdi... — Oysha anchagacha jim qoldi, keyin negadir tozalangan apelsinni bir chetga qo'ydi-da, ikkinchisini tozalay boshladi. — Ular shartta ko'chib ketishsa bo'ladimi... Kampir o'z bolalaridan yana bir bor ayrilganday bo'ldi... Oldimga tez-tez kelib turadi, bechora yig'lagani yig'lagan...

Gulsun Oysha opaning ko'z yoshlarini artayotganini ko'rdi.

— Axir, bir kampirni deb bu yerda qolisholmaydi-da, boshqa shaharga ketishmoqchi ekan, ketishadi-da...

— Kechirasiz, Oysha opa, ko'nglingizni buzmoqchi emasdim, — dedi Gulsun g'amgin.

Gulsun xayrlashib ketdi, nega kelganini aytishga tili bormadi.

* * *

Quyosh nuri shunday yuziga tushardi, u ko'zlarini qisdi. Birinchi qor yog'di. Qayrag'och shoxlari qor yukidan egilib yotardi. O'rnidan turgisi kelmasdi, yotaverish ham joniga tekkandi. Ayol derazaga tikilgancha uzoq turib qoldi. Quyosh g'oyib bo'ldi — endi uning nurlari to'q qizil rasmlari bor sochiq tashlab qo'yilgan

karavotning orqasiga tusha boshladi. Soatga qaradi — u to‘xtab qolgandi. Nazarida, derazani sekin taqillatishganday bo‘ldi. Oysha boshini ko‘tarib qaradi — kichkinagina kulrang qushcha qor to‘kib, shoxdan shoxga sakradi, keyin yaxshilab o‘rnashib oldi-da, qanotlarini uzoq silkitdi, boshini sho‘xchan bir-ikki likillatdi-yu, pir etib uchib ketdi.

“Dunyoning ishi qiziq ekan-da”, — deb o‘yladi ayol.

Inson ham misoli bir qush: olamni ko‘rish, sevish-sevilish, iztirob chekish, kulish, yig‘lash, ko‘zlarini qisib quyoshga qarash uchun yo‘qdan bor bo‘ladi, keyin pir etadi-yu, uchadi-ketadi. Tabiatning qudratli, abadiy girdobi oldida, hayot zarurati, muqarrar o‘lim oldida odamlarning arzimas g‘am-tashvishlari, o‘zaro bo‘ladigan munosabatlar, mayda-chuyda ko‘ngilsizliklar, ranj-alamlar nima degan gap! Nega endi u erining qadriga yetmadi, uni kechirmadi? Aftidan, shuning uchunki, u yosh, kuch-g‘ayratga, his-tuyg‘uga to‘la edi, chinakamiga seva olardi, yomon ko‘rsa ham astoydil yomon ko‘rardi! Aytishlaricha, erkak zoti yolg‘iz yashay olmas emish. Balki eri undan ajrab, shaharda bir o‘zi qolganidan keyin yolg‘izlik azobiga chiday olmadi shekilli, o‘sha ayolga intildi, u bechora ayol ham bunga peshvoz chiqdi, buni shunchaki ko‘ngilxushlik uchun qilgani yo‘q, albatta... O‘, qani endi, odam o‘ttiz yoshida ham oltmish yoshidagiday aqlli, dono bo‘lsa!

Oysha negadir tepadagi qo‘shnisi — keksa sartaroshni esladi. U har kuni ertalab eski to‘shagini balkonga olib chiqib osardi, orqasini oftobga berib o‘tirardi, ixrardi-sixrardi, tamaki chekardi, sirlangan krujkada yovg‘on sho‘rva pishirardi, Oyshanikiga choy so‘rab kirardi — bir o‘ziga choy qaynatishga erinardi, qo‘shnilari esa u choyni ham tejaydi, deb o‘ylashardi. Oysha uning bir kuni dog‘ suv so‘rab kirib, aytgan gapini esladi.

— Keling, choyni isitib beray, sovib qoldi, — deb taklif qildi Oysha.

— E! — deb qo‘l siltadi chol. — Baribir emasmi? Hamma qaynoq narsalar ham borib-borib axiyri soviydi-da...

Derazaning tiq etganini eshitib, yana seskanib tushdi — yana o‘sha kulrang qushcha uchib kelgandi. Ayol o‘zicha kulimsirab

qo‘ydi. Qushcha nimasi bilandir Verani eslatardi — Vera ham ishdan kelib, plitaning oldiga o‘tirardi-da, sovqotgan oyoqlarini isitardi, xuddi shu qushchaga o‘xshab tikilardi. Burni ham sal qanqaygan edi. O‘g‘lim u bilan yashabdimi, uni erkalabdimi, demak, Verani sevgan ekan-da. Balki, qizcha chindanam o‘g‘limning qizidir. Boringki, begonadan bo‘lsin! Bola, bola-da. Qizcha hech qachon hech nima bilmasdi, uni o‘z buvim derdi. Veraning ota-onasi ham, qarindosh-urug‘lari ham yo‘q edi — hammalari o‘lib ketgandi, u Oyshaning oldiga kelgandi, Vera ozmuncha yo‘l bosdimi, ne-ne mashaqqatlar bilan bir oy deganda yetib keldi, uni qidirib, so‘rab-surishtirib topdi, demak u o‘z yaqin, qadrdon odamnini qidirgan-da. Bordi-yu, Vera bu yerda boshqa bir odam bilan topishib, o‘zga yurtga ketgan taqdirda ham, qizchani olib qolishi, yalinib-yolvorib bo‘lsayam olib qolishi, uni tarbiyalab katta qilishi, keyin uning bolalarini bag‘riga olishi kerak edi. Nega endi bu haqda u ilgariroq, yigirma yil burun o‘ylamadi, nega endi o‘zidagi allaqanday bir kuchni, soddagina qilib aytganda, bid’atni yenga olmadi? Yoshmidi? O‘g‘lim yo erim qaytib keladi, deb umid qilganmidi? Ha, aftidan, ko‘nglida nimalargadir ishonardi, nimagadir umid qilardi... Axir, shunday bo‘lishi mumkinmi, hayot sog‘lom, yosh yigitni hamma narsadan, hatto kelajagidan ham mahrum etishi mumkinmi? Yo‘q, yo‘q. Aftidan, o‘shanda unga jinday mehribonlik yetishmadi shekilli. U karavotida esankiragan odamday g‘alati bir holatda uzoq o‘tirdi.

Verani, uning qizini qidirib topish kerak. Mana, uning so‘nggi adresi. U Toshkentdan yozgandi. Tikuvchilik fabrikasiga ishga kiribdi. Qizi bilan yotoqxonada turarkan. Ehtimol, endi ketib ham qolgandir. Lekin qandaydir hujjatlari bordir, axir, qayoqqa ketganini aytib ketgandir. Erga tekkan, familiyasini o‘zgartirib, o‘z vataniga qaytib ketgan bo‘lishi ham mumkin. Lekin baribir uni topsa bo‘ladi. Har oyning o‘n uchinchi sanasida yozuvchi Agniya Barto qarindosh-urug‘larni qidirib topishga bag‘ishlangan eshittirish olib boradi. Unga xat yozib yuborish kerak, bir vaqtlar katta xatoga yo‘l qo‘yganingga iqror bo‘lib, kechirim so‘rashing kerak. Xullas, xatni shunday boshlash kerak: “Azizim Agniya Lvovna, sizga bu xatni uzoq Qirg‘izistondan bir ayol yozyapti, umrimda ikki marta katta

xato qildim. O‘tinib so‘rayman, aqalli o‘sha xatoyimning bittasini tuzatishimga yordam bering...” Vera albatta javob beradi, bordi-yu, unga biror gap bo‘lgan bo‘lsa, qizi albatta yozadi. Qari ayol bilan yosh qizcha bir-birlarini topishadi, diydor ko‘rishishadi.

Quyosh ancha ko‘tarilib qolgandi, uning nuri endi surat osilgan devorga tushgandi — suratda kema bahaybat muz xarsanglari oralab, ko‘m-ko‘k suv ko‘ksini yorib oldinga intilardi... Yo‘q. Hayot hali tugaganicha yo‘q! Oyoqqa turib, yurish kerak. Odamlar bilan birga bo‘lish kerak.

Oysha o‘rnidan turdi, muzday suvga yuz-qo‘lini yuvdi, oyna oldiga keldi. Oynadan unga ozg‘in, sochlariga oq oralagan, g‘amgin o‘y-fikrlardan, uyqusizlikdan ancha ezilgan, ko‘zlari ich-ichiga botib ketgan keksa ayol qarab turardi, lekin bu ko‘zlarda bilinar-bilinmas uchqun, hatto qandaydir sho‘xlik bor edi. Oysha tez-tez kiyindi-da, ostonada o‘girilib, suratga yana bir qaradi.

Kema muzlarni yorib, oldinga suzardi.

* * *

Ikki kundan keyin Frunze — Toshkent poyezdi uni bir necha yil muqaddam dastlabki ish kunini boshlagan shaharga olib borardi. Vagon ichi dim edi. Oysha tamburga chiqib, papiros tutatdi. U oxirgi marta poyezdda qachon yurganini eslay olmaydi. Bunga juda ko‘p yillar bo‘ldi, qachonligi ham esida qolmagan, balki yigirma, ehtimol o‘ttiz yil burundir. Qayoqqa ketayotgandi? Nega? Hammasi xotirasidan o‘chib ketgandi.

Ayol tog‘larga, vagon derazalari oldidan lipillab o‘tib turgan butazorlarga suqlanib qarar, undagi mevalar och sariq rangda edi. Sariq rang. Bu ayriliq, ayriliq, ayriliq ramzi — vagon g‘ildiraklari bir ohangda shunday deyayotganday edi. Ayriliq... Oysha hijron azobini ozmuncha tortdimi! Uning odamovi, bemehr bo‘lib qolgani ham shundan emasmikin?

Birinchi bor hijron dardini ko‘p yillar burun, yarim kechada erini katta shaharga o‘qishga jo‘natayotganda his etgandi. Erining do‘stlari bir chekkaga chiqib shivirlashib gaplashib turishgandi. Oysha yuzini Mukashning ko‘ksiga qo‘yib, yig‘lab yuborgandi.

— Voy, nega yig‘laysan-a, nima, meni o‘limga yuboryapsanmi, — dedi Mukash Oyshani yelkasidan quchoqlab.

— Bilmadim-u, lekin ketishingni hecham, hecham istamayman, — dedi u.

— Voy, tentag-ey. Axir tezda qaytaman-u, ozgina o‘qisam, boshliq bo‘laman, hozirgidan ham katta boshliq bo‘laman, — dedi u hazillashib. Lekin Oysha hamon piqillab yig‘lardi.

Poyezd paxta dalalarining yonidan o‘tib borardi. Suvsiz chuqur ariqlar xuddi yer betidagi chandiqlarday qorayib ko‘rinardi. Odamlar to‘da-to‘da bo‘lib va yakka-yakka ishlashardi. Erkaklarning egnida ko‘kragi ochiq oq yaktak, boshlarida do‘ppi, xotin-qizlar guldor ko‘ylak kiyib olishgan. Ular oftobda qoraygan yuzlarini ko‘tarib, poyezd orqasidan uzoq qarab qolishardi, kulib, qo‘llarini silkitishardi.

Vagon g‘ildiraklari — ayri-liq, ayri-liq deb taqillayotgandek...

Eridan deyarli har kuni xat kelardi, hamma narsa to‘g‘risida batafsil hikoya qilardi. Bora-bora xatlar kam keladigan bo‘ldi. Ikkinchi yilning oxiriga kelib, umuman, aloqa uzildi. Oysha uyga behudaga shoshardi — endi pochta yashigi doim bo‘m-bo‘sh bo‘lardi.

Mukash butunlay boshqacha bo‘lib qaytdi: u yoqda, shaharda boshqasini topibdi. Oysha odamovi, badjahl bo‘lib qoldi. Uning nazarida, Mukashga o‘xshab boshqa xotinga ko‘ngil qo‘yish, uylanishga har qanday erkak qodir edi...

Eri frontga ketayotganida Oyshaning vokzalga judayam borgisi, Mukashning ko‘zlariga tikilgisi, ularda allaqanday yangi narsani ko‘rgisi keldi, ehtimol, u bu narsani hech qachon ko‘rmagandir, binobarin tushunmagandir. Lekin ayollik g‘ururi bunga yo‘l qo‘ymadi.

Shunday qilib, Oysha yolg‘iz o‘g‘li bilan qoldi. Oysha boshlang‘ich sinflarga dars berardi, ertadan kechgacha maktabda bo‘lardi. O‘g‘li o‘qishdan kelib o‘tin yorar, pech yoqar, tovada zog‘ora yopardi, kechalari dars tayyorlardi, chang‘ida uchardi, konkini negadir yomon ko‘rardi, do‘stlari esa kechasi-yu kunduzi mashinalarning orqasiga yopishib, ko‘chama-ko‘cha “uchib” yurishardi.

Ona-bola faqat ertalablari, nonushta paytida, yarim kechada ko'rishishardi, kamdan kam gaplashishardi, Mukashdan sira gap ochishmasdi.

Erkin o'ninchi sinfda o'qirdi. Yoshi o'sgan sayin u odamovi, tortinchoq bo'la bordi, ko'p o'qirdi, yurist bo'lishni orzu qilardi. Lekin, ochig'ini aytganda, Oysha o'g'lini yaxshi bilmasdi. Agar uning sinfida birontasi doskaga Buratinoning suratini solsa, siyohdonga so'rg'ich qog'ozni g'ijimlab yoki bo'rni tikib qo'ysa, buni qirq boladan qaysi bittasi qilganini aniq ayta olardi-yu, lekin o'z o'g'lini yaxshi bilmasdi.

Oxirgi yangi yil kechasi yaxshi esida. O'shanda Erkin sinfdoshlari bilan uyga kelgandi. Uch bola va bitta qiz tansa qilishgandi, o'ynab-kulishgandi, soat o'n ikkida yangi yilni piyolalarda choy bilan kutib olishgandi. Ertasiga ertalab Oysha shahar voyenkomatida bo'ldi. Garmon sadolari yangrardi. Odam juda ko'p edi. Ular ashula aytishar, o'yinga tushishar, yig'lashardi, olomon orasida bolalar izg'ib yurishar, "Pap-piross!" — deb ustma-ust qichqirishardi. Oysha ulardan bittasini chaqirdi-da, bir pachka "Svetka" papirosi oldi, ichida yuz dona bor edi, bittasini olib tutatdi.

— Xola, bitta chektiring, — deb iltimos qildi ichganidan yuzi qizarib ketgan yigitcha.

Oysha unga bir necha dona papiros berdi; keyin uning sochlarini qirdirgan shirakayf og'aynilari ham kelishdi. Sal o'tmay pachkada bir dona ham papiros qolmadi.

Odamlar armiyaga chaqirilganlarning oxirgi guruhini olib chiqishlarini kutib turishardi.

— Kelishyapti, kelishyapti! — degan ovozlar eshitildi. Har tomondan hamma voyenkomatning ko'k darvozasi tomon siljidi. Kolonna ko'rindi. Oldinda kichik leytenant borardi. U juda orasta, shineli ham o'ziga quyib qo'ygandek, shuning uchun ham kolonnada ketayotgan yigitlardan kattaroq ko'rinardi, holbuki uning o'zi ham o'shalar bilan bir yoshda edi. Armiyaga ketayotgan yigitlar ishchilar kiyadigan paxtalik, eski paltolar, yozgi kepkalar kiyib olishgandi, — aftidan, ular Toshkentda kiyim-kechak olamiz, deb umid qilishardi.

Kolonna vokzalga qarab yo‘l oldi. Kuzatgani kelganlar uning orqasidan otildi, kattagina odamlar oqimi paydo bo‘ldi, kampirlarning ko‘zyoshini, juvonlarning hiqillab yig‘lashini, chollarning ma’yusligini ko‘rmagan odam, bularni bayram ishtirokchilari deb o‘ylashi mumkin edi. Yigitlar qo‘pol, qaltis hazillashar, jo‘rttaga qiyqirishib kulishar, o‘zlarining hech nimadan qo‘rqmasliklarini, urushga o‘ynab-kulib ketayotganliklarini ko‘rsatishmoqchi bo‘lishardi.

Erkin o‘ng tomonda, eng chekkada borardi. Oysha ham boshqa ayollarga o‘xshab, o‘g‘lining qo‘lidan ushlagancha ko‘lmak suvlarni ham payqamay yonida indamay qadam tashlardi, faqat o‘qtin-o‘qtin ko‘z yoshini artib qo‘yardi. Erkin esa sekin, eshitilar-eshitilmas qilib: “Qo‘ying, oyi”, derdi va do‘stlariga, yonma-yon ketayotgan Soniyaga gunohkorona qarab qo‘yardi.

“Bolajonlarim, shirin-shakar, to‘polonchi bolajonlarim. Qayoqqa ketyapsizlar? Qani endi, qo‘limdan kelsa-yu, Gitlerning ko‘zlarini o‘yib olsam! Qo‘zichoqlarim, nuri diydalarim, axir ko‘plaringiz qaytib kelmaysiz, yoki mayib-majruh bo‘lib qaytasiz-u, siz bo‘lsangiz, kulib, hazil-huzul qilayotibsiz! Aqalli kulmalaring. Kulganlaringni ko‘rib, yuragimiz battar eziladi!” — deb o‘ylardi Oysha.

Belorussiya rodnaya,
Ukraina zolotaya,
I nashe schastye molodoye, —

deb past ovozda ashula boshlab yubordi oldinda ketayotganlardan biri.

Mi stalnimi shtikami otstoim? —

deb butun kolonna qo‘shilishdi. Ko‘chaning ikki chetida soqchilarday tizilishib turgan mirzateraklardan chiriy boshlagan kulrang yaproqlar to‘kilardi. Keyin ashulani kolonna bilan yonma-yon kelayotgan odamlar ilib ketishdi. Bu odamlar to‘lqini bahorda toshib, tosh xarsanglarni yumalatib, yo‘lida uchragan, oqishiga xalaqit bergan hamma narsani yemirib-yanchib kelayotgan tog‘ daryosini eslatardi.

Stansiyaga kelishdi. Xayrlasha boshlashdi. Oyshaga bir zum bularning hammasi tushida bo'layotgandek, Erkin hali do'mboqqina bola-yu, qarshisida butunlay boshqa bir yigit turgandek, uni endi ko'rayotgandek tuyuldi. Hammasi tik turar, churq etmas edi.

Stansiyada patefon qo'yishgandi, kimdir oq yo'l tilab, dabdabali nutq so'zladi. Xo'sh, bu nutqning nina keragi bor? Kimga tashviqot qilish kerak? Frontga muddatidan oldin jo'natinglar, deb turib olishgan. Kimni? Mana shu yigitchalarnimi?

Jo'nashga birinchi signal berildi. Odamlar g'imirlashib, tipirchilashib qolishdi, ko'z yoshi qilganlar yana qattiqroq yig'lay boshlashdi, gapirayotganlarning ovozi yana ham balandroq eshitildi, radiodan jangovar marsh sadolari yangray boshladi.

— O'zingga ehtiyot bo'l, o'g'lim. Shamollab qolma... Toshkentda ust-bosh berishadi-a? — deb so'radi onasi garchi buni yaxshi bilsa ham.

— Ha, oyi.

— Xat yozib tur. Mendan xavotir olma, meni o'ylama, o'zingni ehtiyot qil.

Ikkinchi signal yangradi.

— Xo'p, bor! Qolib ketasan.

— Oyi... Xayr, yaxshi qoling... — Erkin shu vaqtgacha yonida indamay turgan Soniya tomonga o'girildi. Ikki yosh bir zum bir-birlariga unsiz tikilib qolishdi.

— Ha, mana, ketyapmiz ham, — dedi Erkin sekin, xuddi pioner lageriga ketayotgan odamday.

Onasi o'girildi-da, o'g'lining chamadonini olib, vagon tomonga ketdi; u o'zicha, yoshlar mendan uyalishyapti shekilli, deb o'yladi. Lekin Erkin Soniyaning yelkasini asta silkitib, uning ingichka kaftini qattiq siqdi-da, vagoni tomon chopib ketdi, odam ko'p, onasi oldida sevgilisini o'pishga botinolmadi.

Jo'nashga oxirgi signal berildi. Erkin o'z vagoniga yetib keldi, kimdir qo'lini uzatib, chiqib olishiga yordamlashdi... Kuzatib chiqqanlar poyezd tomonga otilishdi, hamma bir nima deb qichqirar, ho'ngrab yig'lar, vagondagi yigitlar esa bir-birlarining ustiga yopirilib, o'z qarindosh-urug'larini so'nggi bor ko'rib qolmoqchi bo'lishardi. Nihoyat, parovoz, go'yo bu yigitchalarni olib ketish

malol kelayotganday og‘ir tin oldi, iztirobli qichqirdi... Cho‘yan g‘ildiraklar sekin, erinchoqlik bilan harakatga keldi, bir, ikki, uch aylandi. Yana. Yana. Tezroq! Tezroq! Yanayam ildamroq! Butun perron harakatga keldi, odamlar sostav ketidan chopishdi, u bo‘lsa tobora uzoqlashib borardi. Bolasini ko‘tarib olgan, yoshi qaytgan bir ayol yigitchaning qo‘lidan mahkam ushlaganicha vagon yonida chopib borardi, yig‘lardi, allanimalar derdi.

Oysha ham vagon orqasidan chopdi. U o‘g‘lining kulimsiragan yuzidan bo‘lak hech nimani ko‘rmasdi, boshidan ko‘k durrasi uchib ketdi, kimdir yerdan oldi-da, Oyshaga bergani uning orqasidan chopdi. Oysha vagonga yetay-yetay deb qolganida sostav yurishni tezlatdi. Oysha poyezdni to‘xtatmoqchi bo‘lgan odamday uning orqasidan chopib borardi. Qirg‘izcha telpak kiygan bir yigit oxirida:

— Kutinglar! Qaytib kelamii-iz! — deb qichqirdi.

Uning ovozini parovozning chinqirig‘i bosib ketdi, hamma yoqni tutun qopladi. Kuzatgani chiqqanlar to‘xtashdi, qora tutun ufq ortiga o‘tib yashirinmaguncha ular qimir etmay turishdi.

— Qaytami-i-iz! — shu so‘z Oyshaning quloqlari tagida jaranglardi.

Lekin hammasi qaytib kelmadi...

Bir necha oydan keyin: “O‘g‘lingiz Pragani ozod qilishda qahramonlarcha halok bo‘ldi...” degan dahshatli so‘zlar yozilgan qoraxat keldi.

Bir parcha qog‘oz! To‘g‘ri, qog‘oz oq edi, harflar esa qora edi, lekin Oysha qog‘ozni ham bir umrga qora rangda eslab qoldi...

“U-u-u-u!” — deb gudok berdi teplovoz, qattiq bir silkindi-yu, ayolning xotiralarini bo‘lib yubordi.

Oysha vagonga kirdi. Uning kupesiga oq choyshab osib qo‘yilgandi. Kupedagi qo‘shnisi, Oysha pastki polkani unga bergan homilador ayol chalqancha yotardi, hansirab nafas olardi, salqigan yuzini ter bosgandi...

— Balki hozir stansiyada tushib qolarsiz? — deb so‘radi Oysha.

— Ko‘nmayapti, — dedi eri. — Hechqisi yo‘q, chidayman, deyapti. Ha, Qorasuvgacha to‘xtamasa ham kerak.

Ayol eriga, Oyshaga indamasdan qarab turardi.

— Yaxshi yigit, boring, tamburga chiqib turing, men xotiningiz oldida bo'laman, — dedi Oysha.

Eri kamzulini oldi-da, kupedan chiqib ketdi.

— Shu ahvolda yo'lga chiqib bo'ladimi? — Oysha ayolning yuzini sochiq bilan artdi.

— Bunchalik bo'lishini kim bilibdi deysiz. Yarim oy bor, deyishuvdi... Balki vrachlar yanglishgandir...

— Birinchi farzandingizmi? — deb so'radi Oysha.

— Yo'g'-ey, nimalar deyapsiz, — ayol xijolatomuz jilmaydi, — beshinchisi...

— Voy, yoshingiz nechada, azizim?

— Yaqinda... Yaqinda o'ttizga to'laman.

— Ular bilan qiynalayotgandirsiz?

— Ha, osonmas, albatta... U menga achinadi. O'zi yaxshi, xushfe'l odam, ichmaydi, bolalarni juda yaxshi ko'radi... Birinchi bolamiz o'lgan... Bir yoshga to'lgandi. Shu-shu, bolalarga sira to'ymaydi, tug'aver, deydi. Mayli, yigirmata bo'lmaydimi. Boqishga-ku, qiynalmaymiz-a, lekin har yili qorningni qappaytirib yurishga uyalarkansan...

— Voy, buning nimasi uyat... Bolalar — bu hayotning guli... "Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor", — deb qo'shib qo'ymoqchi edi-yu, lekin indamadi.

— Agar poyezdda tug'ilsa, eski vaqtlardagiday, otini Yo'lchi qo'yamiz-da, — dedi ayol va kulib yubordi.

Oysha yostiqni to'g'rilab, buklangan sochiqni ayolning yelkasi ostiga qo'ydi.

— Hali qancha yuramiz, bilmaysizmi?

— Esimda yo'q... — dedi Oysha. — Hademay kelib qolsak kerak.

Eri kupega kirdi.

— Ha, nega kech qolding... Yana biroz o'tira turmaysanmi? Mendan tashvish tortmagin... — dedi ayol.

— Hechqisi yo'q, hademay Qorasuvga yetamiz... Menga bu yer tuzuk, — deb javob qildi eri.

Kupeda siqilishib qolishdi, Oysha tamburga chiqib ketdi.

Poyezd bepoyon paxta dalalari orasidan o‘tib borardi. Tut daraxtlari uzun soyalar tashlaganday. Ayollar ishdan qaytib kelishardi. Har birining boshida tugun. Kunbotar payt, quyosh ularning nozik chehralarini yoritardi, qad-qomati kelishgan qiz-juvonlar dala o‘rtasidagi yolg‘izoyoq yo‘ldan yengil qadam tashlab, tizilishib borishardi, ular go‘yo chiroyli bir o‘yinni ijro etishayotgandek edi. Oyshaning ularga havasi keldi. Ular kuni bilan dalada ishlashar, hazil-huzul qilishar, kulishar, bitta-yarimtani yomonlashar, biror baqiroq brigadirni kalaka qilishardi, mana endi horib-charchab qaytishyapti, lekin kuni bilan ancha ish qilganlaridan mamnun, ish tugadi, uylariga borib, muzday suvga yuvinib-taranib olishadi, keyin oshgami, biror ovqatga urinishadi, bolalarini, erini, chol-kampirni ovqatlantirishadi, so‘ngra dong qotib uxlashadi. To‘g‘ri, ular uyqusizlik, uzun tunlarni derazaga tikilib, bedor o‘tkazish nimaligini bilishmaydi...

Tambur ancha sovib qoldi, kechki izg‘irin shunday tikka urardiki, Oysha qarshidagi oyna oldiga o‘tdi. Dalalar, odamlar, daraxtlar g‘ir-g‘ir o‘tib turardi. Faqat olis-olislarda ko‘ringan tog‘lar go‘yo poyezdni qo‘yib yuborishni istamaganday uning orqasidan chopib, to‘g‘rirog‘i, suzib kelayotganday bo‘lardi.

...O‘sha qoraxatdan keyin nima bo‘luvdi?

Urush tugadi. Ba’zilar tirik, soppa-sog‘, boshqalar mayib-majruh bo‘lib qaytishdi, nonga navbatda turishganda bitta-yarimta tartibni buzgudek bo‘lsa, tayoqlarini asabiy silkitishardi. Har holda, nima bo‘lganda ham tirik qolganlar bir amallab kunini o‘tkazishardi, yaralarini davolashardi, o‘zlarining eski ishlariga qaytishardi. Oysha o‘g‘lining hech qachon qaytib kelmasligiga hadeganda ishonmay yurdi. To‘g‘risi, mana hozir ham Oysha ishonmasdi, lekin endi u umuman o‘g‘li, eri, oilasi bo‘lganiga ishonmasdi, — go‘yo ular hech qachon bo‘lmaganday edi. Go‘yo bularning hammasini shunchaki ertaklarda eshitgandek, orzu-havas qilgandek, tushida ko‘rgandek tuyulardi, kimdir kelib, uni uyg‘otib yuborgan-u, bularning hammasi yo‘q bo‘lib ketganday. O‘shanda u o‘g‘lining o‘lganiga ishonmagandi, mana endi o‘g‘lining bo‘lganiga ishonmasdi...

Ko‘z o‘ngida birdan qirq bolaning, qirq sho‘x, to‘polonchi bolaning yuzi jonlandi, ularning fe’l-atvori, tabiati va taqdiri go‘yo unga, o‘qituvchi Oysha Musayevnaga bog‘liqdek edi. Har bir dars unga yangi tashvish, yangi quvonch keltirardi. Oysha uyga kelardi, daftarlarni stol ustiga tashlardi, tuflisini yechib, o‘zini divanga otardi-da, qirq daqiqacha yotardi, hech nimani o‘ylamaslikka harakat qilardi. Lekin baribir har xil o‘y-fikrlar tinchlik bermasdi. Yo‘q, yo‘q! Hammasi ko‘ngildagiday bo‘ladi. U qaytib keladi. Atrofda hayot qaynaydi, o‘zining ham orzu-armonlari ko‘p, mana bu qirq bola ham o‘sib-ulg‘ayishib, yaxshi odamlar bo‘lishadi. Ba’zida o‘quvchilarning ota-onalari kelishardi, u bilan suhbatlashishar, maslahatlashishar, yo‘l-yo‘riq olishardi. Oysha qiziq-qiziq voqealarni gapirib berardi, kulardi. Keyin maktab darsligini tuzish bilan band bo‘ldi, u bu darslik ustida keksa o‘qituvchisi bilan birga ishladi.

Yangi direktor kelguniga qadar ish shu zaylda davom etdi; u bugundan boshlab maktabda asosan diplomi bor o‘qituvchilar ishlashi to‘g‘risidagi “gorono”ning yangi buyrug‘ini o‘qib berdi.

— Axir, tajribam bor-ku, bundan tashqari, boshqalar bilan darslik tuzib chiqdim, — deb e’tiroz bildirdi Oysha.

— Men nima ham qila olardim? Instruksiya... — dedi direktor.

Bir haftadan keyin Oysha tahririyatning mashbyurosida ishlay boshladi, paysalga solishmay darrov ishga olishdi.

Poyezd yurishini sekinlatdi, keyin to‘xtadi. Provodnik naycha qilib o‘ralgan bayroqchasini ko‘targanicha tamburga chiqdi.

— Iltimos, vagonga kiring, — dedi u.

— Nima, keldikmi?

— Yo‘q. Razyezd.

Oysha vagonga kirdi. Odamlar chamadonlarini, qoplarini yig‘ishtirardi, kiyinishardi. Kupega osilgan parda hali ham olinmagandi.

— Iltimos, agar malol kelmasa, qarashvorsangiz, kiyinib olsam, — deb iltimos qildi ayol. — Bu yoqning uquvi yo‘qroq, yarim soatdan beri kiyintirolmayapti...

Eri kupedan chiqib ketdi. Oysha ayolni kiyintira boshladi.

— Shu yerda tushmoqchimisizlar?

— Ha. Shaharga yetib borolmaydiganga o‘xshayman. Agar malol kelmasa... narigi chamadonda yangi ko‘ylagim bor.

Oysha ko‘kragida chiroyli to‘ri bor ko‘k ichki ko‘ylakni topdi-da, ayolga uzatdi.

— Mingdan ming rahmat, minnatdorman. Iltimos, mana bu qiyiq ro‘molchani oling. Yap-yangi, o‘ramaganman. Erim sakkizinchi martga sovg‘a qiluvdi, — dedi ayol.

— Voy, nima keragi bor, azizim? O‘zimniki bor-ku.

— E, gap unda emas! — dedi ayol biroz xijolat bo‘lib. — Iltimos, ola qoling. Bizga shuncha yaxshilik qildingiz. Kechalari bilan uxlamay chiqdingiz, menga qaradingiz.

— Yo‘q, rahmat. Har kim ham qo‘lidan kelgancha yordam qiladi-da.

— Siz juda mehribon, ko‘ngilchan ekansiz! Agar yaltiroq desangiz, boshqachasi ham bor.

— Rahmat, shart emas.

— Ha, mayli, aqalli adresingizni ayting. Sal tuzuk bo‘lishim bilan sizlarnikiga kelamiz, bolalarimizga nevaralaringizni unashtirib qo‘yamiz, — deb hazillashdi ayol. Aftidan, ular Frunzeda turishgan bo‘lsa kerak. Qishloqi xotin tanimagan yo‘lovchi keksa ayol bilan bunchalik ochiq gaplashishga, hatto hazillashishga botinolmas edi.

— E, baribir kelmaysizlar. Men uzoqda, tog‘li qishloqda yashayman, — deb javob qildi Oysha.

Kupega nosilka ko‘tarishgan oq xalatli ikki qiz kirdi. Ayolni avaylab yotqizishdi-da, vagondan olib chiqib ketishdi. Oysha ayolning pastki labini tishlaganini payqadi.

— E, xudo, eson-omon qutulsin-da! — beixtiyor shivirladi Oysha.

Poyezd yo‘lida davom etdi. Oysha polkasiga chiqib yotdi, endi kupeda bir o‘zi edi, lekin baribir uxlay olmadi. Haligi yosh juvonning so‘zlari hamon qulog‘i tagida eshitilib turar, uning sal shishgan burni, salqigan yuzi ko‘z oldidan ketmasdi. “Bu ayol baxtli bo‘lsa kerak”, — deb o‘yladi Oysha.

Toshkentda u adashib-uloqib ko‘p qidirmadi. Oysha fabrikani osongina topdi, Vera yozgan yotoqxona ham shunday yonida ekan. Eski uy daftarida Veraning familiyasi yo‘q edi, fabkom arxivini sin-

chiklab ko'rishdi. Ha, ana topildi. Uning surati, uy manzili bor edi. Tikuv sexining sobiq ishchisi — direktor o'rinbosarining oldiga borishdi, suratni ko'rsatishdi, u Verani tanidi, esladi. Birga ishlashgan ekan, qizchasini ham esladi — bog'chaga, keyin musiqa maktab-internatiga o'zi joylashtirib qo'ygan ekan. Vera bu yerda sobiq frontovik, yaxshi bir qozoq yigiti bilan topishib turmush qurgan, undan ikki o'g'il ko'rgan. O'n yil burun erini boshqa ishga yuborishgan, Chimkentga yaqin joydagi aloqa uzelida boshliq bo'lib ishlayapti. Demak, Veraning turmushi yaxshi ekan. Lekin baribir uni topishi kerak! Qolgan umrini sarflasa ham mayli. U yoqda, Vera bilan nevarasi, Erkinning qizi bor.

Poyezd ikki soatlardan keyin jo'naydi, Oysha shahar ko'chalarida biroz aylanmoqchi bo'ldi. Shahar shu qadar o'zgarib ketgan edi. Bir vaqtlar changi chiqib yotgan ko'chalar asfalt qilingandi, tor-tor choyxonalar o'rnida magazinlar, kinoteatrlar, restoranlar, ko'p qavatli uylar qad ko'targandi. Meva va sabzavotlar tog'-tog' qilib uyib tashlangan bozor yonidan o'tayotib, Oysha katta bir qovun xarid qildi, — ehtimol, nevaralari ko'payishib qolgandir.

Kechga borib havo aynidi, tuni bilan yomg'ir yog'ib chiqdi. Kupeda Oyshadan tashqari oppoq soqoli ko'ksiga tushgan, oq ko'ylak kiyib, beliga qiyiqcha bog'lab olgan bir chol bor edi. U churq etmas, faqat o'qtin-o'qtin yo'talib qo'yardi; yonidan qalamtaroshini olib, qip-qizil pomidorni to'rtga bo'lardi-da, tuzsiz, nonsiz yeya boshlardi. Oyshani juda chekkisi kelar, lekin bu nuroniy chol oldida chekishni o'ziga ep ko'rmasdi, tambur sovuq edi, yana u yerga qora korjomali bir to'da shang'i yigitlar to'planib olishgandi, aftidan ular temiryo'l bilim yurtidan bo'lishsa kerak.

Chol yotdi, devor tomonga o'girildi-yu, pishillab uxlab qoldi. Oysha sekin gugurt chaqdi-da, papiros tutatdi... U hozir hech nimani o'ylamay, umrining oxirigacha mana shu tezyurar poyezdda yeldek uchishni istardi.

Yomg'ir tomchilari deraza oynasidan oqib tushardi, uzoq-uzoqlarda chiroqlar miltillar, vagon g'ildiraklari tinimsiz taraqlardi. Vagon g'ichirlardi. Poyezd muz xarsanglari orasida ketayotgan muzyorar kemaday oldinga, yaxshi, oliyjanob odamlar istiqomat qiluvchi kichkina shahar tomon borardi. Ha, yaxshi odamlar. Le-

kin ular buni kechirisharmikin? Ayniqsa, Vera! U, buving yomon, mijg‘ov, bizni ko‘kragimizdan itardi, bizga ishonmadi, deb qiziga yomonlamadimikin? Ha, mayli, nima bo‘lsa-bo‘lar. Ulardan yalinib-yolvorib uzr so‘raydi, kechirmaganlariga qo‘ymaydi, keyin o‘la-o‘lgunicha ulardan ajramaydi. Poyezd kichkina stansiyalarda bir zum to‘xtardi-da, keyin yana yurishini tezlatardi. G‘ildiraklar taqillardi. Chol pishillardi. Yomg‘ir derazani tinimsiz chertardi.

Oysha krujkaga qo‘l cho‘zdi, lekin unda suv yo‘q edi. O‘rnidan turib, suv olib kelishga erindi. U yana papiros tutatdi, derazani sal ochib qo‘ydi. Namchil kuz havosi dimog‘iga gup etib urildi, derazaning shtapel pardalari silkindi. U papirosini chekib bo‘ldi-da, krujkani olib, bak tomonga ketdi.

— Suv ichmoqchimisiz? — deb so‘radi yosh provodnik qozoq qiz ko‘zlarini o‘ynatib.

— Ha, qizim.

— O‘tiring, bizlar bilan choy iching. Suv yo‘q, keyingi stansiyada olamiz.

— “Surpriz” degan tortimiz bor, Moskvaniki, xohlaysizmi? — deb so‘radi ikki yuzi qip-qizil, ko‘k ko‘z, sarg‘ish provodnik ayol.

— Yo‘q, qizlar, rahmat. Krujkaga quyib bera qolinglar, kupemga kirib ichaman.

— Jamolxon, buvimga tortdan kesib ber! — dedi sarg‘ish ayol. — Buni qaylig‘i sovg‘a qilibdi! — deb tushuntirdi va kulib yubordi.

— Ha, bo‘ldi, — dedi qozoq qiz xijolat tortib, keyin tortdan kesdi-da, krujkaga achchiq choy quydi. Oysha qizlarga minnatdorchilik bildirib, kupesiga kirib ketdi.

Buvi... U bu so‘zni nevarasining og‘zidan eshitarmikin? Axir, bir zamonlar shu nevarasi jajjigina qizcha edi, endi o‘zining ham xuddi shunday qizi bo‘lsa kerak.

Poyezd to‘xtadi. Provodnik qiz kirdi.

— Sizning stansiyangiz.

Oysha chamadonini oldi-da, vagondan perronga tushdi.

Qor yog‘ardi, lekin yerga tushishi bilan erib ketardi. Bir chekkada, o‘tish joyida turgan qora shinelli keksa ayol shlagbaumning yo‘l-yo‘l xarisini ko‘tardi, go‘yo u Oyshaga yangi hayot yo‘lini ochayotganday edi.

SO‘QMOQ

Pag‘a-pag‘a yog‘ayotgan qor mudrab, ovul bag‘riga sekin to‘shalardi. Daryo tomondan kelgan qizg‘ish tulki momiqday dumini sudraganicha, ovulni aylanib o‘tdi-da, hovlilarga birma-bir kirib chiqdi.

Atrof suv quyganday jimjit edi, faqat qayerdadir kuchukning ayanchli g‘ingshigani o‘qtin-o‘qtin quloqqa chalinardi. Tulki ko‘chadan dadil yurib keldi- da, katta bir hovli oldida to‘xtadi. Lekin bu yerda uzoq qolish mumkin emasdi: oq salla o‘ragan daraxtlardan, simyog‘ochlardan, hatto qor tagidan turtib chiqib turgan toshlardan ham odam hidi kelardi. Kattakon, muhtasham oq uyda chiroq miltillardi. Tulki oyoqlarini qisib olib, birpas turdi, derazada odam soyasi ko‘rinishi bilan tezda g‘oyib bo‘ldi.

Abilqosim temir kosov bilan pechdagi cho‘g‘ni biroz titkiladi-da, keyin xonasidan sinfga kirdi. Bu yer issiq edi, lekin u o‘zicha, agar hozir pechkaga yana biroz o‘tin tashlamasa, ertalab bolalarning kelishiga sinf sovib ketadi, deb o‘yladi. U pechkaga bir nechta o‘tin tashlab, eshigini yopmasdan kursiga o‘tirdi. O‘tin chirsillab, birpasda yonib ketdi, alanga shu’lasidan devorga kattakon telpakli odamning soyasi tushdi. Abil qosim telpagini olib, qo‘li bilan sochi to‘kila boshlagan boshini siladi, yonidan tamaki xaltachasini oldi, shoshmasdan tamaki o‘radi. O‘tkir tamaki, yorqin olov, tashqarida yog‘ayotgan momiq qor, og‘ir sukunat unda uzoq o‘tmish xotiralarini jonlantirdi...

O‘tmish lavhalari xuddi pechdagi alangaday uning ko‘z oldidan birin-ketin o‘ta boshladi. Ha, hozir bu xona jimjit, qora partalar, yaltirab artilgan doska sukut saqlaydi, lekin ertalab bu yerga bolalar keladi, qiy-chuv ko‘tariladi, partalar sharaqlaydi, eshik tinimsiz g‘iychillab ochilib-yopiladi, tashqaridan sovuq havo kiradi. Ikkinchi darsdan keyin sinf soviy boshlaydi, Abilqosim yana pechga o‘tin tashlaydi...

Keyin...

Bolalardan bittasi shunday deydi:

— Abake, Muhtojbek siyohdonimni ag‘darib yubordi!

— O‘zing-chi, o‘zing kitobimni yirtding-ku! — deb qichqiradi o‘sha Muhtojbek.

— Voy, shumtakalar-ye, nega urishasizlar-a, urishmanglar! Bu yaxshimas,— deb Abilqosim maslahat beradi.

— Xo‘p, Abake, endi urishmaymiz,— qishloq bolalari juda qobil bo‘lishadi, kattalarning gapini ikki qilishmaydi.

...Yoshiga qaramasdan, Abilqosimni qishloqda katta ham, kichik ham Abake deyishadi. Ha, o‘zi ham bu kichraytirib aytilgan ismga o‘rganib, ko‘nikib qolgandi, chunki xuddi erkalab aytilayotganday bo‘lardi, Abilqosim bu ovulga kelganidan beri oradan o‘ttiz yildan ortiq vaqt o‘tibdi. Uning qayerda tug‘ilganini, otasi kimligini bu yerda hech kim bilmaydi. Lekin Abakening o‘zi bu ovulni tug‘ilib-o‘sgan joyim deb yuradi, chunki bolaligidan shu yerda turadi.

Ovul chetidagi pastakkina uyda bir vaqtlar Ziyoda ismli kampir yashardi. U sakkiz bola ko‘rdi, lekin hammasi ham turli yillarda, har xil yoshda o‘lib ketdi. Choli qazo qilganidan keyin Ziyoda kampir so‘qqabosh bo‘lib qoldi. Balki u sigiri bilan ikki echkisini eplay olmagandir, ehtimol yolg‘izlik joniga tekkandir, xullas, kunlardan bir kun qo‘shnisining otida shaharga ketdi. Ikki kundan keyin o‘n uch yashar chamasidagi bolani ergashtirib keldi. Uning ismi Abilqosim edi.

— Bu kimning bolasi?— deb so‘radi qo‘shni xotin.

— E, aylanay, ilgari kimning bolasi bo‘lganini bilmayman-u, lekin endi mening bolam. Xudo kam qilmas. Bola bechora baxtsiz, yolg‘iz ekan, uni o‘zimga o‘g‘il qilib oldim.

Shunday qilib, uning uyida bola paydo bo‘ldi, ko‘ylagi ham, shimi ham uzun edi, oyog‘ida ham Ziyodaning eri bir zamonlar kiyib yurgan katta etik. Bunga hech kim hayron bo‘lmasdi — o‘sha uzoq, yigirmanchi yillarda Abilqosimga o‘xshagan daydi yetim-yesirlarning son-sanog‘i yo‘q edi.

Ziyoda ovuldagilar bilan choy ustida gaplashib o‘tirarkan, o‘zicha mulohaza qilardi:

— O‘zi xunuk bo‘lsa ham juda mehribon, epchil, bir nimani iltimos qilsang hech qachon yo‘q demaydi, darrov bajaradi. Xudoga ming qatla shukurki, qariganimda tangri shunday o‘g‘ilni ato qildi. Kunim bitib, ko‘zim yumilguday bo‘lsa, ro‘zg‘orim qarovsiz qolmaydi, uyimning chirog‘i o‘chmaydi. Agar Xudo o‘z panohida asrab, o‘lmay yursam, uni to‘rt-besh yildan keyin uylantiraman, kelinim ham, nevaralarim ham yonimda bo‘ladi, ey Xudo, ishqilib o‘zing shu kunlarga yetkazgin, — Ziyoda buvi keng oq ko‘ylagining etagi bilan peshanasining terini artdi, keyin achchiq choydan piyolaga quydi-da, ho‘plab-ho‘plab icha boshladi. — Ha, Xudoyam, yaxshini nimadandir siqadi, deganlari to‘g‘ri ekan. Ishqilib, bechoraning qo‘li tuzalib ketsin-da!..

— Qo‘liga nima qilgandi?

Ziyoda kampir piyolasini sal surib qo‘ydi-da, sirli bir ohangda shivirladi:

— O‘ng qo‘li ishlamaydi. Novdaday osilib turadi, kim biladi deysiz, balki bir vaqtlar og‘rigandir yoki bitta-yarimta sho‘rlik yetimchani urgandir, xullas, tirsagi yaxshi egilmaydi. Ko‘rdingizmi? — u hovlida buzoqni bir amallab bog‘layotgan Abilqosimni imlab ko‘rsatdi.

— Voy, bechora-yey... ha, yaxshi bo‘lib ketadi, hali yosh-ku. Ana, Mo‘nqo‘layning kichkinasi bolaligida o‘tirgani o‘tirgan edi, hamma uni yurmaydi, deyishardi, mana endi so‘loqmonday yigit bo‘ldi. Ha, hammasi Xudodan, shifo topishi hech gapmas,— deb qo‘shni xotinlar kampirga tasalli bergan bo‘lishardi.

— Sekin! Kelyapti! E, kel, o‘glim! O‘tir, issiq choydan ichib olgin. Sovuq yegandirsan, qo‘zichog‘im. Oyoqyalang yurma, bobongning etigini kiyib olgin, dedim-ku. Kel, uyalma, ana, bo‘g‘irsoqdan yegin, mana sariyog‘, oppog‘im. Burningni artsang-chi. Aytchi, o‘glim, o‘lganimda yig‘laysanmi, hassakash bo‘lib turasanmi? — deb birdan so‘rab qolardi qari Ziyoda.

— Ha, yig‘layman,— deb bosh silkirdi Abilqosim.

— Voy, aylanay o‘g‘limdan, baraka top, ol, yegin! Ha, baxtli kampir ekanman. Komoloyning echkisi bu yil qisir qoldi, yakshanba kuni bozorga olib borib sotaman, puliga senga yangi kamzul, shim olib beraman, qizlarning og‘zi lang ochilib qolsin... Ol, uyal-

ma, bo‘g‘irsoqdan yegin... Hammasini senga qo‘ydim, xohlasang yegin, yo‘qsa, olib qo‘y, keyin yersan... Ayt-chi, o‘g‘lim, maktabga olib borsam, o‘qiysanmi?

Abilqosim bosh irg‘aydi.

— O‘, bolaginam! To‘g‘ri qilasan! Aqlingga balli! E, tangrim, marhamatingni darig‘ tutma, o‘g‘lim unib-o‘sib odam bo‘lsin, yutuqlarini ko‘rib xursand bo‘lib yuray. E, xudoyim, shu kunlarga yetarmikinman?..

— Xudo xohlasa, omon bo‘lsang ko‘rasan, boybicha, nega ko‘rmas ekansan,— deb qo‘shni xotinlar kampirga dalda berishardi.

— Ey Xudo, qani endi, shu kunlarni ko‘rsam, armonim qolmasdi. Bilmadim, yetolmaydiganga o‘xshayman-da, — derdi Ziyoda kampir xo‘rsinib.

— Voy, nimalar deyapsan, yaxshi niyat qilsang-chi! Xotirjam bo‘l, ko‘rasan, hammasini ko‘rasan. Yaxshi niyat — yorti mol, deganlar,— deb uning ko‘nglini ko‘tarishardi.

— Qorning to‘ydimi, o‘g‘lim? — deb so‘rardi Ziyoda buvi.

Abilqosim bosh irg‘aydi.

— Unday bo‘lsa bor, pechkaga o‘t yoqib yubor, ko‘ylagingni yuvib beray. Ertaga qish boshlanadi. Muallimlar bilan gaplashib qo‘ydim...

Maktab direktori Abilqosimni qo‘lidan yetaklab, olib kirganida, ikkinchi sinfda allaqachon dars boshlangandi.

— Bolalar, Abilqosim sizlar bilan o‘qiydi, u bilan tanishib olinglar, unga yordam beringlar, — dedi direktor.

Sinfdagi bolalar xaxolab kulib yuborishdi.

O‘qituvchi iyagini ishqab, o‘ziyam kulimsirab qo‘ydi, chunki Abilqosim sakkiz-to‘qqiz yashar bolalardangina emas, balki o‘qituvchining o‘zidan ham baland edi. Abilqosim xijolat bo‘lganidan shunday birinchi partaga o‘tira qoldi.

— Menga doska ko‘rinmayapti,— deb g‘ingshidi orqasida o‘tirgan qizcha. Yana kulgi ko‘tarildi.

— Bor, o‘g‘lim, oxirgi partaga borib o‘tir, novcha ekansan. Partaga uchtadan emas, ikkitadan o‘tirishadi, — deb tushuntirdi o‘qituvchi.

Bolalar yana qiqir-qiqir kulishdi.

Abilqosim kichkina, tor partadan bir amallab chiqib oldi-da, oqsoqlanganicha oxirgi parta tomonga qarab yurdi. Hamma jim bo‘lib qoldi.

Direktor chiqib ketdi.

Hademay bolalar Abilqosimga, uning oqsoqlanib yurishiga ham o‘rganib, apoq-chapoq bo‘lib ketishdi, pero, qalamlarini almashtiradigan bo‘lishdi, uning yog‘li patirini, mehribon Ziyoda kampir tikib bergan xaltada olib keladigan tolqonini birgalashib yeyishardi. O‘qituvchi bolaning ancha o‘rganib, ko‘nikib qolganini sezganidan uni doskaga chiqardi:

— Ana, bo‘rni olib yoz: “Kuz keldi — vergul — hosilni yig‘ib olishdi”,— o‘qituvchi diktovka qila boshladi.

Lekin Abilqosim bo‘r ushlagan chap qo‘lini tushirgancha joyida qimir etmay turaverdi.

— Bolalar, hammanglar yozinglar, doskada xato ko‘rsalaring, shovqin-suron qilmay, qo‘llaringni ko‘taringlar. Abilqosim, yozgin: “Kuz keldi — vergul — hosilni yig‘ib olishdi”.

Abilqosim qimir etmadi.

— Ruxsat bering, men yozay! — deb qo‘lini ko‘tardi sho‘x Bekesh.

— Jim, Abilqosimning o‘zi yozadi...

“Kuz keldi — vergul...”

Abilqosim boshini quyi solganicha hamon qoqqan qoziqday serrayib turardi. Bolalar kula boshlashdi.

— Nega yozmayapsan, Abilqosim? Bo‘rni o‘ng qo‘lingga olgin.

— O‘ng qo‘lim bilan yozolmayman.

— Nima, chapaqaymisan?

Bolalar xaxolab kulib yuborishdi.

— Yo‘q.

Endi butun sinf kulardi.

— Xo‘sh, nega yozolmaysan?

— Qo‘limni ko‘tarolmayman...

— Nega?

— Bilmadim...

Bolalar jimib qolishdi.

— Bo‘pti, unday bo‘lsa, chap qo‘ling bilan yozishga urinib ko‘r... “Ku-u-uz keldi...”

— Chap qo‘lim bilan ham yozolmayman...

— Nega endi yozolmaysan?

Abilqosim yerga tikilgancha turardi.

— Yozishni bilmayman.

Sinfda yana gur etib kulgi ko‘tarildi.

— Voy, kap-katta bo‘lib, yozishni bilmasa-ya?—deb hayron bo‘ldi puchuq qiz.

— Yozishni bilmasang ikkinchi sinfda qanday o‘qiysan?

Abilqosim indamadi.

Abilqosim oqsoqlanib, partalar o‘rtasidan o‘tib borarkan, bolalar jimib qolishdi.

— Balki uni birinchi sinfga o‘tkazarmiz? U hatto yozishni ham bilmas ekan, bolalar undan kulishyapti, — dedi o‘qituvchi direktorga.

— Qandoq bo‘larkin-a, noqulayda, yoshi o‘tib qolgan, bo‘ydan ham xudo beribdi. Ziyoda kampir olib keluvdi. Yakka-yu yolg‘iz suyanchig‘im, armonim shu bolam, deydi kampir. Uni o‘qitinglar, odam qilinglar, deydi. Darsdan keyin shug‘ullangin, balki eplab ketar...— deb maslahat berdi direktor.

— Ha, buning ustiga o‘ng qo‘li xuddi shol odamnikiday osilib turadi.

— Chap qo‘li bilan yozishga o‘rgat,— deb maslahat berdi direktor.

Shu kundan boshlab o‘qituvchi Abilqosimni darsdan keyin olib qolib, unga yozishni, o‘qishni o‘rgata boshladi, lekin hisobga borganda ish yurishmadi. O‘qituvchi qancha urinmasin, qanchalik o‘rgatmasin, lekin baribir bolaga hech nimani tushuntirolmadi.

— Muallim, balki boshqa o‘qimasmiz?—dedi bir kuni Abilqosim.

— Bu ikkinchi sinf programmasi, bolalar har qanday masalani xuddi pista chaqqanday birpasda yechib tashlashadi,— deb tushuntirdi o‘qituvchi.

— Bilmadim, muallim, negadir boshim og‘riyapti.

O‘qituvchi bolaga diqqat bilan tikildi-da, uning rost gapirayotganini tushundi.

— Ha, mayli, buguncha yetar. Birpas dam olgin-da, o‘zing yechishga urinib ko‘r.

— Xo‘p bo‘ladi, muallim.

Bir kuni tanaffus paytida sinfda birdan janjal chiqib ketdi. Abilqosim katta etigi bilan bolalardan bittasining oyog‘ini bexosdan bosib oldi, u baqirib yubordi-da, jahl ustida bir-ikki musht tushirib qoldi, keyin negadir o‘zi qo‘rqib ketdi. Lekin Abilqosim uni urmadi, orqasiga tisarildi. Haligi bola buni ko‘rib haddidan oshdi, yana urmoqchi bo‘ldi. Kap-katta bolaning mushtdek boladan qochishi hammaga g‘alati, qiziq tuyuldi. Ikki-uch bola haligi urishqoq bolaga qo‘shilishib, Abilqosimni ho‘l latta, kitoblar bilan ura boshlashdi. Yaxshiyamki, shu payt qo‘ng‘iroq chalinib qoldi-yu, bolalar joy-joylariga tarqalishdi. Abilqosim eng oxirgi partaga borib, gurs etib o‘tirdi-da, xo‘rligi kelib yig‘lab yubordi.

— Voy, anavini qaranglar, yig‘layapti...

— Kap-katta-yu...

— Mushtday boladan kaltak yeb o‘tirsa-ya!

Shu-shu, bolalar Abilqosimni kalaka qiladigan bo‘lib qolishdi, uni xafa qilishgani qilishgan edi, ruchkasini, qalamini sindirishar, daftarlarini yirtishardi, muqovasiga har xil aji-buji narsalarni solib tashlashardi.

Oqsoq Abilqosim o‘zini bolalardan olib qochadigan bo‘lib qoldi. To‘polonchi, sho‘x bolalarga duch kelmay deb maktabga hammadan oldin kelib olardi, tanaffus paytida sinfdan chiqmasdi, darsdan keyin ham uyga pastqam joylardan ketardi.

Lekin o‘qituvchining harakatlari zoye ketmadi. Hademay Abilqosim o‘qishni, yozishni o‘rgandi, hatto uchinchi sinf programmasidagi masalalarni ham yechadigan bo‘ldi. Kim biladi, balki vaqt-soati kelib, u ko‘p narsaga erishgan bo‘larmidi, lekin bir voqea bularning hammasiga chek qo‘ydi, go‘yo bahor quyoshiga intilgan nozik niholni shartta uzib tashlashganday bo‘ldi.

Sinfda Asipa ismli qiz o‘qirdi. U bir kattakon, o‘ziga to‘q oilaning erkatoy qizi edi. Asipa yugurishda, sakrashda o‘g‘il bolalardan qolishmasdi, ularga qo‘shilib oshiq o‘ynardi, lekin yaxshi

o‘qirdi. Maktabga doimo qizil shoyi ko‘ylak, ko‘k baxmal kamzul kiyib kelardi. Kamzulining etaklariga xuddi tumorday eski kumush tangalardan tugma qadab chiqilgandi. Bunday kamzul hech kimda yo‘q edi. Bir kuni chiroyli kamzulini yechib sinfda qoldirdi-da, fizkultura darsiga chiqib ketdi. Qodirbek sinfga kirganida, u yerda Abilqosimdan boshha hech kim yo‘q edi — u fizkultura darsida doim navbatchi bo‘lib qolardi. Abilqosim tashqarida o‘ynab yurgan bolalarni derazadan tomosha qilarkan, o‘zicha sekin kulib qo‘yardi. Qodirbek ho‘l lattani Abilqosimga endi otmoqchi bo‘lib turgandi, birdan ko‘zi Asipaning ko‘k kamzuliga tushib qoldi. Uning kumush tugmachalariga ko‘pdan beri havasi kelib yurardi. Qodirbek kamzul yotgan joygacha emaklab keldi-da, tugmaning bittasini tortdi, lekin u pishiq ip bilan mahkam qilib tikilgandi. Bolalarning o‘yiniga mahliyo bo‘lib qolgan Abilqosim derazadan ko‘zini uzmas, hadeb o‘zicha kulardi. Qodirbek iplarni xuddi quyondek chaynab uzdi-da, tugmalardan ikkitasini qo‘yniga soldi, endi uchinchisiga qo‘l cho‘zganida qo‘ng‘iroq jiringlab qoldi. Qodirbek partasi oldiga emaklab keldi-da, “ku-ku”lab Abilqosimga ho‘l lattani otdi.

Bolalar sinfga gur etib yopirilib kirishdi-da, uylariga ketishga hozirlik ko‘ra boshlashdi.

— Muallim, tugmalarim yo‘g‘-u? — Asipa ko‘k kamzulini ko‘ksiga bosganicha yig‘lab yubordi.

— Kim olibdi? — deb so‘radi muallim.

— Bilmadim, yechib qo‘yganimda bor edi.

— Tugmani kim oldi deyapman?

— Bilmayman.

— Kim navbatchi edi?

— Abilqosim.

— Abilqosim, tugmalarni kim oldi?

— Bilmayman, muallim...

— Balki bitta-yarimta hazillashib olgandir, bolalar?— dedi muallim.— Unday bo‘lsa, qaytarib beringlar!

Jimlik.

— Tugmalar topilmaguncha uyga hech kim ketmaydi.

Bolalar jimib qolishdi.

Birdan doska tomonga kumush tugma yumalab ketdi.

Uning qayerdan tushganini hech kim payqamay qoldi.

— Boshqasi qani? — deb so‘radi muallim qat’iy. Bolalar Abilqosimga tikilib qolishdi.

— Bilmayman.

— Bu tugma qayoqdan tushdi?

— Bilmadim.

— Muallim, bu yerda u yolg‘iz edi... Fizkultura darsida u doim sinfda qoladi...

— Abilqosim, ikkinchisi qani deyapman?

— Bilmayman.

— Keling, cho‘ntaklarini qaraylik, muallim! — dedi kimdir.

— Yo‘q, bolalar, bu yaxshimas. Abilqosim, agar ikkinchisi qayerdaligini bilsang, o‘zing aytgin.

— Bilmayman.

— Asipa, hozircha mana bu tugmani olib turgin, ikkinchisi ham topilib qolar, qo‘y, yig‘lama... Bolalar, sizlarga javob, uylaringga ketinglar. Abilqosim, sen qolasan...

Bolalar ketishdi.

— Abilqosim, tugmani sen oldingmi? — deb so‘radi muallim muloyimlik bilan.

— Yo‘q, muallim...

— Xo‘sh, kim oldi bo‘lmasa?

— Bilmadim, muallim...

— Axir, sinfda bir o‘zing qolganmiding?

Bola indamadi.

— Navbatchi bo‘lib qolgan ekansan, qarashing kerak edi-da.

Abilqosim hech nima demadi.

— Uyat, sinfda eng kattasi sensan-a, bu ishing yaxshimas... Qani ikkinchi tugma?

Abilqosim hamon indamasdi.

— Tugmalarni nima qilasan? Ertaga biznikiga kelgin, bunaqa tangalardan beshtasini beraman...

Abilqosim yengi bilan ko‘z yoshini artdi-da, sinfdan chiqib ketdi. Bog‘dan o‘tayotganida bolalar unga yetib olishdi.

— Tugmani ber! O‘g‘ri! Ber, deyapman! Ularni oyim qadab beruvdi! Bermasang, otamga aytaman! — Asipa uning yoqasidan oldi.

— Menda hech qanaqa tugma yo‘q,— dedi arang Abilqosim.

— Ber! Yashirib qo‘ygansan! Ber! Yo‘qsa, hozir tugmalaringni yulib olaman! — qiz kuchining boricha bolaning yelkasidan tortdi. Abilqosim toyib ketib, yiqilib tushdi, kamzulining tugmalari uzilib, dumalab ketdi.

— Yasha, Asipa, boplading! — deb baqirishdi bolalar.

Bolalarning qo‘llab-quvvatlaganidan taltayib, haddidan oshgan qizcha Abilqosimning kepkasini shartta yulib oldi-da, u bilan do‘pposlay ketdi.

— Tugmalarimni ber, o‘g‘ri! Tugmalarimni ber! Ber, deyapman!

— Ur! Qozir yog‘i bilan tushir! Ha, yasha. Asipa, bo‘sh kelma! Qaranglar, kap-katta yigitni uryapti-ya! — deb gijgijlashardi bolalar.

Abilqosim yotgan yeridan bir amallab turdi-da, kepkasini tortib oldi. U qizchani bir urib ag‘darishib tashlardi-yu, lekin negadir tegmadi. Abilqosim bir turtdi-da, xuddi yaralangan ayiqday oqsoqlanib, uyiga jo‘nab qoldi.

— Sharmanda bo‘ldi! Qiz boladan cho‘chib o‘tirsa-ya! Uyat-e, uyat! Qo‘rqoq! — deb bolalar orqasidan kalaka qilishardi.

Ziyoda buvi istiqboliga chopib chiqdi.

— Voy, Xudoyim! Nima bo‘ldi?

— Oyi! Oyijon! — deb Abilqosim ho‘ngrab yig‘lab yubordi va boshini kampirning ko‘ksiga yashirdi.

— Nima bo‘ldi, nuri diydam? Nima bo‘ldi, yolg‘izim? Nima bo‘ldi, qo‘zichog‘im? Gapir! Seni ranjitganni tirik qo‘ymayman, g‘ajib tashlayman! — deb baqirardi Ziyoda kampir, uning ko‘zlari xuddi bo‘rining ko‘zlariday qahrli, qo‘rqinchli edi.

Abilqosim qaysi onasini nazarda tutganini, Ziyoda kampirnimi yoki o‘z onasini esladimi, kim biladi deysiz, lekin bola o‘ksib yig‘lar, nuqul “oyi”, “oyi”, derdi.

— Kim xafa qildi, aytgin. Balki yetimsan, cho‘loqsan deb mazah qilishgandir? Aytgin, uni sog‘ qo‘ymayman!

— Uni Asipa urdi...— dedi kimdir.

— Bu nima sharmandalik! Boshingning sog‘ joyi qolmabdi-ku! Nima balo, uni jin urganmi? Voy, bolam, yuzing ham rosa shilinib-

di-ku! Qanaqa bebosh qiz ekan! Yur! Ularga ko‘rsatib qo‘yaman! — Kampir o‘g‘lining qo‘lidan shartta ushladi-da, Asipalarning uyiga boshlab ketdi.

— E, aylanay, Batma, bu nimasi? Qizingni tiyib qo‘ysang bo‘lmaydimi! Qara, o‘g‘lim bechorani rosa uribdi-ya. Qizingning bu nogiron bolada nima xusumati bor ekan? Men, bechora, o‘limim oldidan o‘zimga bir suyanchiq topuvdim, butun umidim shundan! Axir, bu yorug‘ dunyoga kelib, men nima orttirdim? Nega bizlarni bunchalik xo‘rlaysizlar? Nima, himoyachimiz, orqa qiladigan odamimiz yo‘qligi uchunmi?

— Bu cho‘loq yetimchangizning o‘zi aybdor. Sizning o‘rningizda bo‘lsam, ishtonini yechib, rosa savalardim. Asipaning ikkita tugmachasini kesib olibdi, o‘zini uribdi, qizim tizzasini ko‘kartirib keldi. Mushtdekkina qizning kap-katta yigitni urishi mumkinmi?

Men qadab bergan ikkinchi kumush tanganiyam topib bersin. Bu tumor edi. Bunaqa o‘g‘ri, olg‘ir bolaning qo‘llarini urib sindirish kerak. Qayoqdagi qalang‘i-qasang‘ilarni topib yurasiz, nima, boshqa ishingiz yo‘qmi o‘zi!

Kampir indamadi, o‘g‘lini yetaklaganicha uyiga ketdi.

— Ha, mayli, xudoga soldim. Tangrim ularni qilmishiga yarasha jazolaydi! — dedi Ziyoda kampir.

Abilqosim ko‘z yoshlarini artib orqasiga shartta o‘girilib qaradi. Lekin kampir uning qo‘lidan mahkam ushlab turardi.

— Qo‘y, bolam, kerak emas. Xudo o‘zi ularni jazosini beradi. Tangrim gunohkorni jazolaydi, gunohsizni oqlaydi. Sen g‘ofil bandasan, jim bo‘l.

Abilqosim yana bir bor o‘girilib qaradi-da, itoatkorona Ziyoda buvining orqasidan oqsoqlanib qadam tashladi.

O‘sha voqeadan keyin bola bir necha kun uyidan chiqmadi, odamlarga ko‘rinmadi. Dushanba kuni kampir, maktabga bor, deganday o‘g‘lining jildiga olma, bo‘g‘irsoq solib berdi.

Abilqosim jildini oldi-da, uyidan chiqdi. Lekin maktabga yaqinlashgan sayin yuragi ezilar, allaqanday bir kuch uni orqaga tortayotganday bo‘lardi. U darsga chopib ketayotgan sinfdoshlarini ko‘rdi-yu, endi maktabga hech qachon qadam qo‘ymasligini bildi.

U soy tomonga burildi, eski qabriston yonidan o‘tdi. Qabristonda buzilgan maqbara cho‘qqayib turardi. Uning qaysi asrda, kimning sha’niga qurilganini hech kim bilmasdi. Maqbaraning oldingi devori uzunasiga darz ketgandi, uning qachon paydo bo‘lganini ham hech kim eslay olmasdi. Yuzga chiqqan qariyalar ham, yosh bolalar ham bu maqbarani faqat shu turishida bilishardi, u o‘pirilgan, cho‘kkan, nuragan edi, darz ketgan joyi uzoqdanoq ko‘rinib turardi. Abilqosim bu yerga tez-tez kelib turardi-yu, lekin o‘sha yorig‘iga e’tibor bermasdi, mana endi u ertalabki quyosh nurida juda vahimali ko‘rinardi.

U daryo bo‘yiga tushdi-da, osmonga tikilganicha tushgacha sohilda cho‘zilib yotdi. Bola biror yaxshi narsa haqida o‘ylashga urinardi, lekin maqbara devoridagi yoriq sira ko‘z o‘ngidan ketmasdi. “Asipani nega urolmadim? Bir turtsam yiqilib tushardi-yu. Lekin u kichkina-da... Ojiz... Yana... chiroyli... Eng chiroyli qiz... Agar boshqa qiz bo‘lganidami... Xo‘sh, tugmalari-chi? Eh, qani endi, u Asipani ana shunday kumush tangalarga ko‘mib tashlasa! Yo‘q, tangalarga emas! Yulduzlarga. Durga!”

Vaqt allaqhachon peshindan og‘ib ketgandi. Bola o‘rnidan turdi, daryo suviga yuz-qo‘lini yuvdi-da, sekin uyiga ketdi.

Ziyoda kampir hech nimani fahmlamadi.

— Voy, oppog‘im, keldingmi? Ovqatlanib olib, belimni bir uqalab qo‘ygin.

Abilqosim ovqatlanib bo‘ldi-da, kampirning belini uqalay boshladi.

— Voy, shirinim, mehribonim! Hammasi ob-havodan, butun a’zoyi badanim zirqirab og‘riyapti. Bugun qanday baho olding?

Abilqosim indamadi...

Kampir saharda bolani uyg‘otdi.

— Turaqol, o‘g‘lim, quyosh ham ancha ko‘tarildi, kech qolasan.

Abilqosim uydan chiqdi-da, yana daryo bo‘yiga tushdi. Suvga uzoq tikilib yotdi — maqbara devoridagi o‘sha qora yoriq yana ko‘z o‘ngida jonlandi.

Kunlar o‘taverdi. Abilqosim maktabga bormadi (har gal daryo bo‘yiga tushardi, kampir har kuni ertalab uni mehribonlik bilan uyg‘otar va maktabga kuzatardi.

— Hoy, nuri diydam, bo‘talog‘im, bor, bora qol. Sen albatta o‘qishing kerak. Axir, sog‘lig‘ing hammanikiday emas. Muchang sog‘ bo‘lsa edi, ketmon choparding, traktor haydarding. O‘qigin, ilm olgin, yo‘qsa, o‘zingni ham boqolmaysan.

Abilqosim kitoblar va yemish solingan jildini indamay olib, uydan chiqardi-da, qabriston yoqalab, daryo bo‘yiga tushardi.

Lekin bu uzoqqa cho‘zilishi mumkin emasdi. Kampir ertami-kechmi hammasini biladi. Abilqosim bor haqiqatni o‘zi gapirib bermoqchi bo‘ldi.

— Oyijon, sizga bir gap aytsam, xafa bo‘lmaysizmi?— deb so‘radi u bir kuni ertalab, kampir uni maktabga kuzatayotganida.

— Gapir, gapir, sendan hech xafa bo‘lganmidim, bolaginam?— Kampir ro‘molining uchini qulog‘i orqasiga surib qo‘ydi-da, kigiz ustiga cho‘kdi.

Lekin shu payt sira kutilmaganda eshik ochilib o‘qituvchi kirib keldi.

— Assalomu alaykum, opa! O‘g‘lingiz nega maktabga bormay qo‘ydi?— deb so‘radi ostonaga qadam qo‘yishi bilan.

Kampir hang-u mang bo‘lib qoldi.

— Nima?

Abilqosim jildini orqasiga yashirdi-da, nima qilishini bilmay qoldi.

— Bormayotganiga bir haftadan oshdi. Bolalar uni daryo bo‘yida ko‘rishibdi.

Kampir indamay, goh o‘g‘liga, goh o‘qituvchiga qarardi.

— Men uni kasaldir deb o‘ylagandim. Lekin menga, u jildini ko‘tarib ko‘chada yuribdi, deyishdi... — deb qo‘shib qo‘ydi o‘qituvchi.

Bola boshini quyi solganicha indamay turardi.

— Chorak tugayapti, u ikkinchi yilga qolishi mumkin, opa! Uning yoshida ikkinchi sinfda ikki yil o‘tirish yaxshimi — kalaka bo‘ladi.

— Axir, bu nima qilganing, bolam? Demak, meni, kampir onangni aldab yurgan ekansan-da? — deb so‘radi Ziyoda kampir.

— Oyijon, meni kechiring! — bola o‘zini uning oyog‘i ostiga otdi.

— Senki, shunday qilganingdan keyin men endi kimga ishonay? — dedi kampir go'yo o'ziga o'zi gapirganday.

— Meni kechiring, oyijon, endi hecham bunday qilmayman,— dedi bola iltijo qilib.

— Nega endi qari onangni xafa qilasan?

— Meni kechiring, oyijon, lekin endi maktabga hecham bormayman. Ularni ko'rishni istamayman, ular menga ishonishmadi... Ular yomon. Bu kunimdan o'lganim yaxshi,— dedi Abilqosim xuddi kattalarday.

Ertasi kuni Abilqosimni butun sinf kelib chaqirdi, lekin u maktabga qadam bosmayman, deb turib oldi.

"Borgisi kelmasa, ilojim qancha? Ishqilib tani-joni sog' bo'lsa, bir kunini ko'rar",— deb Ziyoda kampir taqdirga tan berdi.

Mana hozir ham Abilqosim o'sha maktabda, yoshi o'tib qolganida ikkinchi sinfga kelgan, o'qish-yozishni o'rgangan o'sha maktabda o'tiribdi. Faqat endi u qorovul va o't yoquvchi. Nima qilsin, qismati shu ekan. O'shandan beri oradan qancha yillar o'tdi, qanchadan qancha o'quvchilar bitirib ketdi. Ha, aytmoqchi, maktab direktori ko'p yillar burun uni boshlab kirgan o'sha sinf allaqachon maktabning asbob-uskunalari mboriga aylangandi, u yerda hozir rangi o'ngib, eskirib ketgan sinf doskalari, yirtilgan geografiya xaritalari, chang bosgan, pachoq globuslar saqlanardi. Xom g'ishtdan qurilgan maktabning eski binosi biroz cho'kkandi, tomiga cherepitsa yopilgan ikki qavatli yangi maktab binosi oldida u birdan uchqur, yo'rtoq ot bilan chopishmoqchi bo'lgan, minilaverib ishdan chiqqan qari eshakni eslatardi. Bir vaqtlar mana shu loy tomda ota-onalari o'qishganiga, uning shu atrofda eng katta uy bo'lganiga, bepoyon Jarg'alan vodiysining istagan yeridan xuddi oq yelkanday ko'rinib turganiga bolalarning ishongisi kelmasdi. Mana shu kichkina, endi qiyshayib qolgan eshiklardan necha-necha yigit va qizlar chiqishib, ulkan olam qo'yniga qadam qo'yishgan, frontga jo'naganlar bilan ham xuddi shu maktab hovlisida xayrlashishgan. Birinchi bo'lib, maktab direktori ketgandi. U shu ketganicha qaytib kelmadi, Moskva ostonalarida mangu qoldi. Undan keyin o'qituvchi To'kto'rboy jo'nab ketdi. U ham Pskov yaqinida halok bo'ldi.

Kunlardan bir kun kampir yarim kechada o‘g‘lini chaqirib qoldi. Abilqosim o‘rnidan turdi-da, indamay lampani yoqdi.

— Bolam, nuri diydam, tush ko‘ribman, tushimda ikki kampir: cho‘tir Batmaqan bilan tishlari kemtik Irisbibi meni cho‘miltirayotgan emish. Meni cho‘miltirishayotgan emish-u, o‘zlari bo‘lsa qora baxmal choponimni talashayotganmish. Ha, nachora, kunim bitganga o‘xshaydi, ko‘nglim sezib turibdi... Bugunmi-ertami seni tashlab ketaman. Bu uyning egasi o‘zing bo‘lib qolasan, — Ziyoda kampir juda sekin, xotirjam gapirardi, go‘yo uning bo‘g‘iq ovozi narigi dunyodan eshitilayotganday edi. Abilqosim piqillab yig‘lay boshladi.

— Voy, jonim qoqindiq! Onaginang senga qurbon bo‘lsin. Sen juda rahmdil, yaxshi bolasan. Xudoga ming qatla shukurki, sendan oldin ko‘z yumaman. Umrimning oxirida seni topdim, ha, baxtim bor ekan. Onam menga doim shunday derdi: odamning kim bo‘lib yashaganining ahamiyati yo‘q, eng muhimi, kim bo‘lib o‘lish. Sen hozir yig‘lama, nuri diydam. Ko‘z yoshlaringni asragin, o‘lganimda yig‘larsan. Huv, ana, ko‘rpalar tagida cholimning katta hassasi yotibdi. Jasadimni uydan olib chiqishayotganlarida o‘sha hassani olgin-da, unga tayanib uv tortib yig‘lagin. Mayli, hamma eshitsin, Ziyoda kampirning yolg‘iz emasligini, hassakashi, boshi tepasida yig‘laydigan, bu yorug‘ dunyoda uning qarzini uzadigan odami borligini hamma bilsin. Bo‘talog‘im, o‘zligingni yo‘qotma. Tortgan azob-uqubatlaring, mehribonliging uchun Xudo seni kam qilmaydi, o‘zi yorlaqaydi. Faqat o‘zingni shamollashlardan, yomon ko‘zdan ehtiyot qilgin, doim mana shunday mehribon, oqko‘ngil bo‘lgin, xusumat va yovuzlik ko‘chasidan yurmagin. Ilojimiz qancha? Onadan nogiron tug‘ilibsan. Lekin Xudodan nolimagin, ko‘z yoshi qilmagin. Agar to‘rt muchasi sog‘ odamlarga hasad qilsang, ko‘nglingga yovuzlik in quradi. Xunuk odam yovuz bo‘lmasligi kerak. Bunaqa odamni yer ham yelkasida uzoq ko‘tarib yurmaydi. Mening urug‘imda chiroyli odamlar bo‘lmagan. Hammasi ham pakana, qora, qotma, ozg‘in odamlar edi. “Xunuk odam ichidan nur sochib turishi kerak”. Buvimiz bizga doim shunday derdi. Men ham shu so‘zlarni takrorlayman. Qarib dunyodan ko‘z yumayotganing-

da, sen ham nevaralaringga shunday degin, ular ham bu so‘zlarni boshqalarga yetkazishsin, shuni qattiq tayinlagin...

Ziyoda kampirni butun vodiy dafn qildi. Qo‘shni ovullardan do‘stlari, uzoq qarindoshlari kelishdi, yana ham uzoqroqda yashaydiganlar o‘z vakillarini yuborishdi, kampir biror nimasi bilan mashhur bo‘lgani yoki aslzodalardan bo‘lgani uchun emas, hayotligida kim bo‘lganidan qat’i nazar, marhumning, ayniqsa u qari bo‘lsa, janozasida qatnashish bu yerda ham qarz, ham farz hisoblanadi. Hovliga o‘tov tikishdi, marhumani eng yaqin bo‘lgan urug‘ning vakili — besh kampir yuvdi. Ular Ziyodaning bitta-ikkita kiyimlarini o‘zaro bo‘lib olishdi — kampirlar bu ust-boshlarni kiyib to‘zdirishlari, dugonalari yetolmagan yoshga yetishlari kerak edi. Eski duxoba chopon cho‘tir Batmaqanga tegdi, albatta, chunki u Ziyoda kampirning eng yakin hamsuhbati, yordamchisi edi, ko‘mish marosimida ham yelib-yugurib hammadan ko‘p xizmat qildi.

Marhumaning jasadini yer qa’riga qo‘yib, hamma erkaklar uning go‘riga bir siqimdan tuproq tashlaganlaridan keyin, eski devorlari yorilib ketgan maqbara qoshida yana bir do‘nglik paydo bo‘ldi. Mo‘nqo‘lay amaki Abilqosimni qo‘lidan ushlab, o‘rtaga olib chiqdi-da, ko‘pchilikka murojaat qildi.

— Og‘aynilar, qarindoshlar! — Ziyoda opa qanaqa odam edi? — deb so‘radi.

— Yaxshi odam edi! — degan ovozlar eshitildi har tomondan.

— Agar bitta-yarimtangdan qarzi bo‘lsa yo birortangni ranjitgan, xafa qilgan bo‘lsa, hozir aytinglar, tortinmanglar. Marhuma o‘zidan keyin zurriyot qoldirdi, u hammasini uzadi. Uning yoshligiga, mayibligiga qaramanglar, u erkak, uning aka-ukalari, o‘z urug‘i bor, u ovulimizga farzand bo‘lib keldi, uni yolg‘izlatib qo‘ymaymiz, doim yordam beramiz. Bizning udumimiz shu, — dedi Mo‘nqo‘lay amaki.

— Yo‘q, uning hech kimdan qarzi yo‘q. Hech kimga yomonlik qilganmas! — deb javob qilishdi har tomondan.

— Shunday ekan, uning bu dunyodagi gunohlaridan o‘tamiz, joyi jannatda bo‘lsin! — dedi Mo‘nqo‘lay amaki va serajin, shamolda quruqshab ketgan yuziga fotiha tortdi, qarindosh-urug‘lari ham cho‘qqayib o‘tirishib, kaftlarini yuzlariga tortishdi.

— Go‘ri nurga to‘lsin! Go‘rida tinch yotsin, joyi jannatda bo‘lsin!

Abilqosim bitta-yu bitta sigirini so‘yib xudoyi qilmoqchi edi, lekin oqsoqollar o‘zaro maslahatlashib, so‘ydirishmadi.

— Urush ketyapti. Shu sigirdan boshqa hech nimang yo‘q! — deyishdi unga.

— Axir, sigir uniki edi, nima, o‘zidan ayaymanmi? Arvohi ranjimaydimi?

— Agar sigirni so‘ydirib, go‘shtini yesak, arvohi bizdan ranjiydi, sen esa ochingdan o‘lasan, — deyishdi oqsoqollar.

Har xonadondan pul to‘plashdi: yaqinlaridan, qarindosh-urug‘laridan ko‘proq, sal uzoqroqlaridan kamroq yig‘ishdi, yig‘ilgan pulni ma’rakalarni o‘tkazish uchun Abilqosimga berishdi. Bugundan boshlab Abilqosim bu xonadonning mustaqil egasi hisoblanadi va ovuldagilarning to‘yiga ham, ma’rakalariga ham aralashib, el qatori o‘z hissasini qo‘shadi.

Shunday qilib, Abilqosim uyida bitta o‘zi qoldi, Ziyoda kampirning chirog‘i o‘chmadi.

Abilqosimga kolxozchilarning shaxsiy molini boqishni topshirishdi. Urush davom etardi. Turmush tobora og‘irlashib borardi. Urush arafasidagi ikki yuz sigirdan podada atigi o‘ntacha sigir qolgandi, endi podachining keragi ham yo‘q edi. Shundan keyin uning qo‘liga miltiq berishib, kolxoz g‘alla skladini qo‘riqlashni buyurishdi — bu tinch, beg‘alva ish edi. Abilqosim kunduzi uxlardi, kechasi sklad atrofida aylanib yurardi.

Abilqosimning tengdoshlari o‘sib-ulgayishdi, endi uni xafa qilmaydigan bo‘lishdi, qizlar birin-ketin erga tegib ketishdi. Asipa ham erga tegib, boshqa ovulga ko‘chib ketdi. Kichkintoylar uchun Abilqosim endi boshqa avlod vakili edi, ularning ko‘ziga dilgir, sovuq odam bo‘lib ko‘rinardi. Abilqosimning o‘ng qo‘li, shu-shu, novdaday osilganicha qoldi, o‘ng oyog‘ini sudrab bosardi, yurganida chap oyog‘ining izi to‘g‘ri, o‘ng oyog‘ining izi qiyshiq tushardi. Uning tengqurlaridan ba’zilari urush oxiriga borib frontga ketishdi. Ba’zilar frontdan mayib-majruh bo‘lib qaytishardi, boshqalarning o‘zi kelmay, o‘rniga kaftdek bir parcha qog‘oz kelardi.

* * *

...Asipaning kimga turmushga chiqqanini, qayoqqa ko‘chib ketganini Abilqosim bilmasdi. Urushning ikkinchi yilida ovulda terlama kasali boshlandi. Asipaning onasi bilan otasi bir yilda, ketma-ket o‘ldi. Asipa ularning dafn marosimiga keldi. Keyin ukasi Saparqulni bir-ikki bor yo‘qlagan bo‘ldi. Esida, oxirgi marta kelganida qo‘lida bolasi bor edi. Abilqosim uni ko‘chada uchratib qolguday bo‘lsa, po‘stiniga boshini burkab, skladning orqasiga o‘tib ketardi. Lekin axiri bir kun taqdir ularni uchrashtirdi.

Qish, qalin qor yog‘gandi. Abilqosim odatdagiday katta piymada, po‘stiniga o‘ranib olib, sklad atrofida aylanib yurardi. Ovul uyquda edi. Qor yog‘ardi. Birdan ovul chetida it vovulladi, keyin ikkinchisi, uchinchisi unga jo‘r bo‘ldi... Abilqosim miltig‘ini o‘qtalib, quloq soldi. Hech kim yo‘qday edi. Lekin itlarning vovillashi tobora yaqinroqdan eshitila boshladi. Keyin ko‘chaning o‘rtasida odam sharpasi ko‘rindi. Abilqosim oldinga yurdi.

— Hoy! Kimsan?

— Bu, men, amaki,— ayol kishining ozozi eshitildi.

— Kimsan?

— Asipaman...

— Kim?!

Qorovul indamay qoldi. Ha, bu uning ovozi edi. Asipa yaqinroq keldi.

— Shu zimistonda qayoqdan kelyapsan? — deb so‘radi Abilqosim so‘niq ovozda.

— Mashina tepalikka chiqolmadi, hamma yoq yaxmalak bo‘lib yotibdi, g‘ildiraklari sirpanib ketaverdi. Bola bechora muzlab qoldi. Piyoda ketuvdim, adashib qoldim. Birpas ushlab turing, qo‘l-oyoqlarim muzlab qoldi, bukilmayapti, — ayol unga chaqaloqni uzatdi.

Abilqosim indamay bolani olib bag‘riga bosdi. Bola shu qadar qaltirar ediki, titrog‘i qorovulga ham o‘tdi. Birpas qorong‘ida turishdi.

— Yarim kechada yo‘lga chiqib bo‘ladimi? — dedi nihoyat Abilqosim.

— E, amaki, o‘z ixtiyorimiz bilan chiqibmizmi, noiloj edik... — dedi ayol xo‘rsinib, ro‘molini to‘g‘rilarkan.

— Bilmadingizmi, uyimizda biron kishi bormi?

— Ukang kecha rayonga ketdi shekilli...

Bola isindi shekilli, titrog‘i bosilib, uxlab qoldi.

— Ovul chetida chamadonimni qoldirib ketuvdim, — dedi ayol, — borib olib kelay.

— Adashib qolasan-ku, birga boraylik...

— Sklad-chi?

— E, skladga bir nima bo‘larmidi? Shu sovuqda o‘g‘rilar ham ostona hatlab ko‘chaga chiqmasa kerak, uylarida ko‘milib o‘tirishgandir.

Asipa, tizzasigacha qorga botib, oldinda borardi. Abilqosim bolani po‘stiniga o‘rab, o‘ng‘aysiz ko‘targanicha Asipaning orqasidan oqsoqlanib borardi.

— Sizni ham tashvishga qo‘ydim-a, amaki...

— Yuraver, yuraver, — Abilqosim sekin yelkasiga turtib qo‘ydi.

— Chamadon ham bo‘m-bo‘sh... Bolaning kiyimlaridan bo‘lak hech nima yo‘q. Qo‘llarim sovqotib ketganidan keyin qoldirdim. Uyda bo‘lsa ukamni yuborarman, deb o‘ylovdim. Qo‘shnilarnikida tunarman...

Abilqosim indamadi...

— Yetimcham bu yaxshiligingizni sira-sira unutmaydi, bir kunmas-bir kun qaytaradi. Bola bechora... Otasi uni shu ko‘yi ko‘rmadi, og‘iroyoqligimda urushga ketgandi. Erimning ota-onalari bilan turmoqchi edim, har holda o‘g‘limning o‘z buvasi bor-u deb o‘ylagandim, biroq qaynatam meni o‘zining bir qarindoshiga bermoqchi bo‘ldi. Bolamni oldim-u uydan chiqib ketdim... qosh qorayganda chiquvdik, hademay qorong‘i ham tushdi, yo‘l bo‘yida turibmiz, qani endi bitta mashina olsa-chi, muzlab dalada qolib ketamizmi, deb o‘ylovdim. Chamadon shu yerda bo‘lishi kerak... Balki bitta-yarimtasi ko‘tarib ketdimi? Yo‘q, mana, turibdi! Qorga ko‘milib qolibdi! — dedi Asipa xursand bo‘lib.

— Biz Mo‘nqo‘lay amakinikida tunaymiz. To‘g‘ri, itlari juda qopong‘ich... — dedi Asipa.

— Sizni olib borib qo‘yaman, — dedi Abilqosim.

— Iloyim kam bo‘lmang, amaki, — dedi Asipa.

Ular Mo‘nqo‘lay amakining uyi tomonga qarab ketishdi. Katta piymada Abilqosimning oqsoqlangani sezilmasdi, shuning uchun ham ayol uni tanimadi shekilli, lekin Abilqosim oldinga tushib yurganida Asipaning birdan nafasi ichiga tushib ketdi, to uyga yetgunicha og‘iz ochmadi.

“Nega indamayapti? Nahotki tanib qolgan bo‘lsa?” — Abilqosim sekin o‘girilib qaradi. Ayol boshini quyi solganicha uning izidan kelardi.

Nihoyat Mo‘nqo‘layning uyiga yetib kelishdi. Hovlidagi itlar ularni jon-jahdlari bilan vovullab kutib olishdi. Eshik tambasi shaqillagani eshitildi. Abilqosim uyqusiragan bolani onasiga berdida, orqasiga ham qaramay sklad tomonga oqsoqlanib ketdi. “Tanidimi yo yo‘qmi? Agar tanimasa, nega endi birdan indamay qoldi? Bolani olganidan keyin nega aqalli rahmat demadi? Hatto boshini ham ko‘tarmadi...” — deb o‘ylardi u o‘zicha.

Uchinchi kuni, kechqurun bir bola kosada bo‘za olib keldi.

— Oyim yubordi, mening sog‘lig‘im uchun ichar ekansiz, — dedi bola.

— Oyingning ismi nima?

— Asipa.

Demak, o‘sha kuni uni tanibdi-da.

— Sening isming-chi?

— Nurlan... — deb javob berdi bola.

— Oying yana nima dedi?

— Hech nima demadi: “Sklad oldida o‘tirgan amakingga olib borib ber”, dedi.

— Shumi?

— Ha, shu, — deb javob berdi bola.

— Oyingga “rahmat”, degin. Xo‘pmi?

— Xo‘p. Miltig‘ingni otgani berasanmi?

— Keyin, katta bo‘lganingda beraman.

— Zagizg‘onni otib tushira olasanmi?

— Zag‘izg‘onni otishning nima keragi bor? Yaxshi qush.

— Tog‘am Saparqul qo‘shnimizning itini otib tashladi. Ular urishishdi.

— Nega endi otib tashladi? — deb so‘radi qorovul.

— Qarib qolgani, vovullamagani uchun otib o‘ldirdi.

Uzoqda Saparqul ko‘rindi. U sklad tomonga kelardi.

— Xo‘p, mayli, bor, oyingga “rahmat”, degin, — deb Abilqosim bolani shoshiltirdi, u bolaga bo‘sh kosa bilan ikkita bo‘sh gilza berdi.

Saparqul Asipaning tug‘ishgan ukasi bo‘lib, g‘alla skladining mudiri edi, shuning uchun ham Abilqosim o‘zini negadir noqulay sezdi.

— Ha, polvon, bo‘zadan ichib turibsanmi? — dedi Saparqul, u kosani ko‘rib qoldi shekilli.

— Ha, endi jinday... — Abilqosim mo‘ylovini artdi.

— Bugun skladni qo‘riqlamasang ham bo‘ladi. Revizor kelgan, ertalabgacha tekshirib, g‘allani o‘lchaymiz, bor, yotib uxla,— dedi omborchi.

— Men baribir kechasi uxlayolmayman, balki kerak bo‘lib qolarman? — deb so‘radi qorovul.

— Yo‘q, bor, ketaver! O‘zimiz eplaymiz, — Saparqul skladni ochib, lampani yoqdi.

Qorovul ketishga yuragi betlamay, biroz taraddudlanib turdi. Saparqul hech qachon skladga bunaqa kech kelmasdi.

— Xo‘sh, nega turibsan, ketaver dedim-ku, — dedi asabiy.

Abilqosim miltig‘i bilan po‘stinini olib, uyi tomonga oqsoqlanib ketdi. Uyiga keldi-da, pechkaga o‘t yoqdi, eski etigining yirtiq-yamog‘ini tikdi, xonani yig‘ishtirdi. Vaqt yarim kechadan oshganda jinchiroqni o‘chirdi-da, o‘rniga yotdi, lekin kechasi yotib yurmagani uchun ko‘ziga uyqu kelmadi. Goh qari, mehribon Ziyodani, goh doim kulib turadigan o‘qituvchi To‘qto‘rboyni eslardi, goh kumush tugmali ko‘k kamzulni, goh soch o‘rimi bir qarich kichkina Asipani eslardi. Keyin ko‘z oldiga maqbara devoridagi qora yoriq keldi, so‘ng yer yuzini qoplagan oppoq qor... Asipaning yolg‘iz sharpasi. Uning o‘g‘li. O‘shanda Asipaning bolasi uning qo‘ynida qanday shirin pishillab uxlagandi. Nega u erga tegmaydi? Qanday chiroyli, xushfe’l... Uning tengqurlaridan ko‘plari urushda o‘lib ketdi. Yosh yigit unga uylanmaydi, qari odamga tegmaydi... Hozir xotinlar ko‘p, erkaklar oz...

Abilqosim anchagacha to‘lg‘anib yotdi. U negadir bezovta bo‘laverdi. Nihoyat ortiq chiday olmay, o‘rnidan turib kiyindi-da, ko‘chaga chiqdi. Oydin kecha edi, qayerdadir ot cho‘chib kishnadi, o‘qtin-o‘qtin itlar vovullardi. Bordi-yu, Saparqul tekshirib bo‘lib, skladni qorovulsiz tashlab ketolmay o‘tirgan bo‘lsa-ya?

Abilqosim sklad tomonga yurdi. Po‘stinini yechib tashlagan Saparqul qahraton sovuqda bir polvon yigit bilan bug‘doy solingan qoplarni oy yorug‘ida ot qo‘shilgan chanalarga tashirdi.

— Assalomu alaykum! Hormanglar! — dedi Abilqosim ularga yaqinlashib.

Saparqul boshini ko‘targanicha, serrayib qotib qoldi. Polvon yigit qopning uchini qo‘yib yubordi.

— Kerak bo‘laman, degandim-a. Nima, lampa o‘chib qoldimi? —Abilqosim gugurt chaqdi.

— O‘chir! — deb baqirdi Saparqul va yelkasidagi qopni tashladi-da, ikki sakrab, uning yoniga keldi. Terlagan peshanasidan bug‘ ko‘tarilardi.

— O‘chirgani nimasi? Axir, qorong‘i-ku! — Abilqosim barmog‘i kuyib, gugurt cho‘pini tashladi-da, boshqasini chaqdi.

— O‘chir deyapman senga! — Saparqul uning tomog‘idan xippa bo‘g‘ib, gugurtni tortib oldi-da, o‘zini itarib yubordi. Qorovul bug‘doy uyumi ustiga yiqilib tushdi.

— Bu nimasi? — dedi u shosha-pisha.

Omborchi bilan “revizor” eshikni to‘sib, unga yaqinlashib kela boshladi.

— Bu nima qilganlaring? Sizlarga nima yomonlik qildim? Nima? — Abilqosim orqasiga tisarilib, devorga taqalib qoldi. Ularning o‘zini o‘ldirishmoqchi bo‘layotganlarini fahmladi.

— Xo‘sh, maymoq, orqamdan poylab yuribsanmi?— dedi Sapar xirillab.

— Voy, poylab nima qilaman? Axir, sen omborchisan, kalitlar o‘zingda, hammasiga o‘zing javob berasan... — dedi qorovul yolvorib.

Saparqul qorovulning hech nimadan shubhalanmayotganini fahmladi-da, sherigiga ishora qildi. Polvon sherigi temir lomni bug‘doy uyumi ostiga tashladi.

— E, tentak, sen hazilni tushunmas ekansan-da. O‘tir, gaplashamiz. Bu yoqqa kel! — dedi Saparqul va qandaydir xunuk kulimsiradi.

Abilqosim eshik tomon yurgandi, sherigi uning yo‘lini to‘sdi.

— O‘tir deyapman! Gap bor! — omborchi uning yelkasidan bosib, bug‘doy uyumi ustiga o‘tqazdi.

— Endi quloq sol! Men omborchiman. Shundaymi? Demak, bilganimni qilaman. Shundaymi? — Saparqul bir zum o‘ylanib turdi. — Uyingda bug‘doying ko‘pmi?

— Ozgina bor... Nimaydi?

— Yo‘q, shunchaki so‘rayapman. Xo‘sh, qancha bug‘doying bor?

— Arpam bor, kuzda mehnat kunimga oluvdim. Qishdan bir amallab chiqib olaman,— deb javob berdi qorovul.

— Chiqib olaman, degin? Chiqib olguningcha surobing to‘g‘ri bo‘lib qoladi, ochlikdan shishib ketasan. Qani, ayt-chi, egningdagi kitelni, o‘lgan frisning kitelini kiyib yurganingga qancha bo‘ldi? — deb so‘radi Saparqul.

— Bilmadim, esimda yo‘q. Uni bir frontovikdan sotib oluvdim, — deb qo‘rqa-pisa javob qildi Abilqosim.

— Ha, ana endi o‘zingga kelding! Bitlab, sasib ketgandirsan... Mana bir qop bug‘doy senga, pullagin-u o‘zingga ust-bosh olgin. Axir, yigitsan-u. Sen garchi bor xrom etik kiyib, po‘rim bo‘lib yurishing kerak. Faqir odamday juldur kiyimda yurishingni qara.

— Yo‘g‘-ey. Menga kerakmas... O‘zim bir amallab,— deb gap boshladi Abilqosim.

— Bo‘ldi, ko‘p valdirayverma! Mana bu qopni olgin, o‘zimiz seni chanada olib borib qo‘yamiz! — dedi Saparqul shartta.

— Menga nima keragi bor? Bola-chaqam bo‘lmasa. Chol-kampirim bo‘lmasa. Mehnat kunimga olganim o‘zimga yetadi, — deb e’tiroz bildirdi qorovul.

— Voy, g‘irt nodon, to‘nka ekansan-ku. Yetadi deysanmi, senga yetsa, boshqalarga yetmayapti-da. Axir, to‘yib non yemaganimizga qancha bo‘ldi. To‘g‘rimi? Xalqning ahvolini o‘zing ko‘rib turibsan. Hamma och-yalang‘och, yeyishga ovqati, kiyishga ki-

yimi yo‘q. Urushning padariga la’nat! Gapim to‘g‘rimi? Kecha aktivistlar o‘zaro gaplashib, kelishib olishdi. Faqat og‘iz ochmagin, jim yurgin. Ovulimizda begonalar yo‘q, hammamiz qarindosh-urug‘miz, mana sen ham bizga ini bo‘lding. Skladda kirimga yozilmagan ozgina bug‘doy bor, shuni o‘zaro bo‘lishib olmoqchi bo‘ldik. Agar kunduzi olsak, begonalar ko‘rib qoladi, darrov yetkazishadi, vakil chopib keladi. Hozir u qo‘shni ovulni tekshirayotgan emish. Hamma o‘z ulushini olib bo‘ldi. Gap shu. Bitta sen qolding. Cho‘loq bo‘lganing uchun ulushingni uyingga olib borib bermoqchimiz. Ishonmasang, ana, revizordan so‘ra, — Saparqul “revizor”ga ko‘zini qisib qo‘ydi. — U ham o‘zimizning odam. Gap shu. Tushundingmi?

— Tushundim-u, lekin men olmay qo‘ya qolay, uni Mo‘nqo‘lay amakiga beringlar, uning bolalari ko‘p...

— Nima, qo‘rqyapsanmi? Nima, ko‘pchilikdan, xalqdan ajralib qolmoqchimisan? Yo‘q, bunaqasi ketmaydi, azizim: Qo‘rqmasang ham bo‘laveradi. Xalqnikini xalqqa berish kerak-da. Shundaymi? Biz ham kolxozmiz, demak, bularning hammasi bizniki, demak, xalq mulkini qanday taqsimlashni o‘zimiz bilamiz.

— Tushunib turibman-u, lekin...

— Ha, menam seni tushunib turibman! — deb uning gapini bo‘ldi Saparqul. — Bir chekkada qolib, hammamizni tutib bermoqchimisan? Shundaymi?

— Yo‘g‘-ey... men shunchaki...

Abilqosim revizorning yerdan temirni olganini ham, Saparqulning, shoshmagin, degandek sherigiga ko‘zini qisganini ham payqamadi.

— Agar bir gap bo‘lsa, o‘zim javob beraman. Kalitlar menda edi, so‘rashsa, to‘g‘risini gapiraver, Saparqul bir qop bug‘doy berdi, degin. Mana qog‘oz, qo‘l qo‘ygin, — Saparqul g‘ijimlangan bir varaq oldi-da: “Abilqosim — bir sentner bug‘doy”, deb yozdi. — Qani, kel, qo‘l qo‘y. Mana, ko‘rib qo‘y, men ham, revizor ham qo‘l qo‘yamiz.

Abilqosimga Saparqul biror nojo‘ya, bema’ni ish qilayotganday bo‘lib tuyulmadi. Omborchi o‘qimishli odam edi. Gapni ham

o‘rniga qo‘yadi, kamiga birovni ishontira oladi ham. Lekin qorovulning ko‘ngli biror noxush narsani sezayotganday edi, Saparqul qog‘ozga qo‘l qo‘y, deganida ikkilanib qoldi.

— Qani, og‘ayni, tezroq bo‘l, sovqotib ketdik. Qo‘l qo‘ygin-u bug‘doyingni olib ketaver. Yigit odam hech qachon ikkilanmasligi kerak, — deb shoshirardi “revizor”.

Abilqosim siyohli qalamning uchini ho‘lladi-da, yirik-yirik harflar bilan o‘z nomini yozdi.

— Ha, mana endi, sen ham ro‘yxatga kirding. Endi olmasang ham olgan hisoblanasan. Xatga tushding, o‘tga tushding, degan gap bor. Tushundingmi? Qani, endi ketdik.

Abilqosim og‘iz ochishga ulgurmagan ham ediki, ikkovi qopni shartta ko‘tarib, chanaga qo‘yishdi, chanada o‘ntacha qop bor edi.

— Hozir bir qopini, yo‘q, ikki qopini Mo‘nqo‘lay amakinikiga olib borib tashlaymiz, uning bolalari ko‘p... — dedi revizor.

— Qani, bu yoqqa chiq! Skladni bekitaman! — deb shoshiltirdi Saparqul.

Qorovul skladdan chiqdi. Omborchi eshikka qulf soldi. Chana yo‘lga tushdi. Abilqosim uyiga kelib qarasa, darvozasi oldida bir qop bugdoy yotibdi.

“Agar kolxoz aktivi donni och qolgan kolxozchilarga bo‘lib bermoqchi ekan, demak, Saparqul to‘g‘ri gapiribdi-da. Men qog‘ozga qo‘l qo‘ydim. Demak, hammasi qonuniy bo‘libdi-da. Agar bir qop donni sotsam, ancha-muncha pul bo‘ladi. Asipaning bolasiga kiyim olib beraman. Yetimcha yangi yil oldidan bir xursand bo‘lsin”, — deb o‘yladi Abilqosim va qopni uyiga sudrab olib kirdi.

Yangi kun odatdagiday boshlandi. Tong yorishishi bilan Saparqul keldi-da, go‘yo kechasi hech gap bo‘lmaganday xotirjam skladni ochdi. Hech kim tegirmonga shoshilmas, hech kim bozorga otlanmagandi. Go‘yo bu voqeani butun ovul sir tutayotganday edi.

— Hoy, o‘g‘lim, bu yoqqa kelgin, — qorovul Asipaning o‘g‘lini ko‘rib chaqirdi.

— Oying nima qilyapti?

— Hech nima... — deb javob berdi bola.

— Qayoqqa ketyapsan?

— Batmaqan xolanikiga unga yuborishdi, ugra qilishmoqchi.

— Nega qishda yirtiq botinka kiyib yuribsan?

— Etigim yo‘q. Oyim, ko‘chaga chiqma, shamollab qolasan, deb urishgani urishgan.

— Ha, tushunarli, — dedi Abilqosim xursand bo‘lib.

Bola ketganidan keyin u yerdan cho‘p oldida, uning oyoq izini o‘lchab, Mitka etikdo‘zning oldiga ketdi. Bolaligidan shu yerda yashayotgan, qirg‘iz tilini, bu yerliklarning urf-odatini juda yaxshi biladigan Dmitriy Shestopalni ovuldagilar ana shunday deb atashardi. Uning mallasoch, burunlarida sepkili bor bolalari qirg‘iz maktabida o‘qishardi. Etikdo‘zlik unga ota kasb edi, otasi esa buvasidan o‘rgangandi. Shestopallar avlodi bu yerda salkam yuz yildan buyon yashashardi, ularning qo‘li gul ustaligi butun vodiyga tarqalgandi.

— Mitka, menga etik tikib ber, — dedi Abilqosim uning oppoq qilib oqlangan uyiga kirganidan keyin.

— Razmering qanaqa? — deb so‘radi Shestopal, sur ipni lo‘lilar ignasining teshigidan o‘tkazarkan.

— Menga emas, bolaga. Ko‘n tagcharm qo‘ygin, qo‘njini xromdan emas, cho‘chqa terisidan qilgin, ko‘pga chidaydi, — dedi Abilqosim va etikdo‘zga cho‘pni uzatdi.

— To‘rt pud bug‘doy berasan! — dedi Mitka cho‘pni qolipga o‘lchab ko‘rarkan.

— Ha, mayli. Faqat tezroq tikib ber. Bolaning oyog‘i sovqotyapti, ko‘chaga chiqolmayapti.

— Nima, bolang bormi? — deb so‘radi u hayron bo‘lib.

— Ha... E, yo‘q... jiyanim... Yangi yilga sovg‘a qilmoqchiman.

— Qani, qo‘lingni ber. Kelasi haftaga to‘rt pud bug‘doy olib kelgin-u, etikni olib ketaver, — deb va’da berdi usta.

Chindan ham bir haftadan keyin etikdo‘z eshak qo‘shilgan chanada keldi. U qopni ochdi, ichida quling o‘rgilsin etik yotardi.

— Eh, etikmisan etik! Bunaqa etikda faqat tansaga tushsangda, — dedi etikdo‘z tagcharmini chertarkan.

Abilqosim etikni qo‘liga oldi.

— Xo‘sh, qalay? — deb so‘radi Dmitriy, maqtovni sabrsizlik bilan kutarkan.

— Mixdek! — dedi Abilqosim.

— Tagcharmi ham zo‘r, qalin, spirtlangan, qo‘njlari laklanganday yaltiraydi, — dedi Mitka. — Qani, beradiganingni tezroq ber, bolalarim tishining kirini so‘rib yotishibdi.

— Ko‘ngildagiday qilib tikkaning uchun mana senga yana yarim pud! — dedi qorovul.

Qo‘llarini qo‘llariga qarsillatib urishdi. Mitka bug‘doyni o‘zining qopiga solib oldi-da, tegirmonga ketdi.

Abilqosim etikni qo‘lida uzoq aylantirib, tomosha qildi, keyin stol ustiga qo‘yib, yana uzoq tikildi, o‘ziga o‘zi juda saxiy, ajoyib ko‘rinib ketdi. U bolani shu zahoti chaqirib, oyog‘iga kiydirib qo‘ymoqchi bo‘ldi-yu, lekin hademay yangi yil kelishini eslab, etikni bayramga sovg‘a qilishga shu topda ahd qildi va uni sochiqqa o‘rab, sandiqqa solib qo‘ydi. Keyin uni bir necha bor olib, qo‘lida aylantirib zavqlanib tomosha qildi, o‘zi tagiga nag‘al qoqdi.

Hademay ovulda, rayondan komissiya kelganmish, kolxoz ishlarini tekshirarmish, degan mish-mish tarqaldi. Abilqosim bu gaplarga unchalik parvo qilmadi — har xil tekshiruvlar bo‘laveradi, boshliq bo‘lgandan keyin tekshirishadi-da, deb o‘yladi.

Lekin bir kuni kechqurun kolxoz raisi Toyloqov, ikki begona odam va Saparqul Abilqosimning uyiga kirib kelishdi.

— Qani, og‘ayni, uyingni bir ko‘raylik-chi. Har xil gaplar yuribdi... — dedi Toyloqov.

Kelganlardan bittasi stol yoniga o‘tirdi-da, qog‘ozlarini yozdi.

— Yaqinda Mitriy senga etik tikib berganmish, sen unga to‘rt yarim pud bug‘doy berganmishsan? Shu rostmi? — deb so‘radi Toyloqov.

— Ha, to‘g‘ri, — dedi Abilqosim.

— Xo‘-o‘sh. Qani, etigingni ko‘rsat-chi, — deb so‘radi Toyloqov.

Abilqosim sandiqdan etikni olganida hammalari bir-biriga qarab qo‘ydi.

— Xo‘-o‘-p. Bu bolalar etigi-ku! Sen buni nima qilasan?.. — deb so‘radi Toyloqov.

— Kerak edi-da... — deb javob berdi Abilqosim.

— Sotmoqchimiding? — deb so‘radi Saparqul.

— Yo‘g‘-ey. Haligi... jiyanimning o‘g‘li bor... Shunga sotib oluvdim.

— Nega yolg‘on gapirasan? Senda jiyan nima qilsin? Axir yetimsan, hech kiming yo‘q-ku. Kelgindisan-ku! — dedi Saparqul zaharxandalik bilan.

Abilqosimning boshiga og‘ir bir narsa bilan urishganday bo‘ldi.

— Biz o‘zimiz tekshirib, aniqlab olamiz, o‘rtoq Saparqul... Ayting-chi, grajdanin Abilqosim, etik haqini qaysi bug‘doydan to‘ladingiz? — deb so‘radi notanishlardan biri.

— O‘zimning bug‘doyimdan, — deb sekin javob berdi Abilqosim.

— O‘sha bug‘doydan yana bormi?

— Bor... yarmi turibdi, — dedi Abilqosim chaynalib. Nazarida butun bo‘g‘inlari bo‘shashib ketganday bo‘ldi.

U burchakda turgan qopni ko‘rsatdi.

Hammalari bir-biriga qarab qo‘yishdi. Saparqul tipirchilab qoldi:

— Mana, o‘rtoq boshliq. Ko‘rdingizmi, o‘sha bug‘doyning o‘zi. Ishomasangiz, analizga oling, tekshirib ko‘rasiz. O‘sha Kuban navi, urug‘lik don.

— Yana bormi? — deb xotirjam so‘radi notanish kishi, qo‘liga bir hovuch bug‘doy olib.

— Yo‘q... boshqa yo‘q. Ozgina arpam bor, — dedi Abilqosim sal o‘ziga kelib.

— Boshqa yerto‘lang yo‘qmi? — deb so‘radi kolxoz raisi.

— Yo‘q...

Lekin kelganlar uyni, hovlini, qaznoqni tekshirib ko‘rishdi.

— Siz invalidmisiz? — deb so‘radi begonalardan bittasi.

— Kim biladi, shundaydir-da, — deb javob berdi Abilqosim.

— Qaysi gruppa? — deb so‘radi boshqasi.

— Bilmayman. Vrachlarga bormaganman...

— Mana bu qog‘ozga qo‘l qo‘ying. Bug‘doyingizni analiz uchun olib ketamiz. Esingizda bo‘lsin: ovuldan biror joyga ketishingiz mumkin emas, man qilinadi. Ishga ham chiqmang. Agar

bo‘ysunmasangiz, boshqacha chora ko‘ramiz, ya’ni qamaymiz. Qolgan gaplarni tergovchiga gapirib berasiz, — dedi qog‘ozlarga u-buni yozib o‘tirgan notanish kishi qat’iy bir ohangda. Abilqosim qog‘ozga qo‘l qo‘ydi. Kelganlar qopni, etikni olib chiqib ketishdi.

Abilqosim nima gap bo‘lganiga hadeganda tushuna qolmadi, lekin qandaydir mudhish bir narsa sodir bo‘layotganini ko‘ngli sezib turardi. Biroq ko‘chaga chiqishi bilan nima gapligiga darrov fahmi yetdi, go‘yo zehnini to‘sib turgan qora pardani olib tashlashganday bo‘ldi. Hovliga odam to‘lib ketgandi, hammalari nima haqdadir tortishishar, baqirib-chaqirishardi. Abilqosimni ko‘rishlari bilan jimib qolishdi, go‘yo qip-yalang‘och yoki qonga belanib chiqqanday, hammalari unga tikilishdi.

Oldinda Mo‘nqo‘lay amaki turardi. O‘tgan yili u Abilqosimga tomini tuzatib olsin, deb tekinga ikkita xoda beruvdi. Hozir o‘sha saxiy amaki unga yeb yuborguday bo‘lib qarardi, bergan xodalarini qaytib olib ketishga ham tayyor edi. Uning yonida Ibish xola turardi. U har kuni Abilqosimning sigirini sog‘ib berardi. Ana, Jumali ham turibdi; u o‘tgan yili bahorda omborini qurishga qarashib yuborgandi. Uning ham qosh-qovog‘i osilib ketgandi, hadeb bosh chayqar, esiz, esiz, deb qo‘yardi. Ba’zi-ba’zida suvini olib kelib beradigan kichkina Jaken ham qo‘liga tosh olib, Abilqosimga otishga tayyor edi.

Abilqosim: “Og‘aynilar, azizlar, men aybdor emasman, meni laqillatishdi, boplab qo‘lga tushirishdi!” — deb qichqirmoqchi bo‘lib, oldinga chiqdi-yu, lekin tomog‘iga bir nima tiqilganday bo‘ldi. U tupugini yutib, hech zarur bo‘lmagani holda boshidan telpagini oldi, keyin yana kiydi, so‘ng yana oldi. Odamlar churq etmasdi. Abilqosim qattiq oqsoqlanib, uyiga kirib ketdi.

— Yaramas! — deb qichqirdi kimdir.

G‘ala-g‘ovur ko‘tarildi.

— So‘qqabosh-ku, unga mol-davlatning nima keragi bor, tavba?!

— Bir o‘zi qilmagan, hoynahoy, sherigi bor!

— Yer yutsin bu cho‘loqni! Unga rahmim kelib, u-busiga qarashib o‘tiribman-a, ust-boshini yamab-yasqab berdim-a, voy, iflos-ey.

— Skladni shunga ishonib topshirib o‘tirishibdi-ya!

— Urug‘lik donni o‘g‘irlashga qanday qo‘li bordi-ya?

— E-e, bechora nima qilsin! Hammasiga urush aybdor! Boshqa vaqtda o‘g‘irlik qilarmidi!

— E, gap urushda ekanmi? Axir, odam-ku! Odamgarchiligi qani?!

— U, hammamizni ochdan o‘lib ketsin, degan!

— Iloyo, uni Ziyoda buvining arvohi ursin!

— Aqalli qizarmaydi-ya, kechirim so‘ramaydi-ya!

Bu gaplarning hammasini eshitib turgan Abilqosim uyidan chopib chiqdi:

— Azizlar, men!..

— O‘chir ovozingni, razil!

— Xudoning qarg‘ishiga uchragin!

— Qo‘ynimizda ilon saqlab yurgan ekanmiz!

— Shoshmanglar, mayli, gapirsin!

— Men... meni! Men olmoqchi emasdim! Men...

— Ha, tushunarli! Bug‘doyning o‘zi yurib kelibdi-da.

Olomon kulgi ko‘tardi.

— Yo‘q! Men qog‘ozga qo‘l qo‘ydim.

— U yana qanaqa qog‘ozni gapiryapti?

— Qo‘rqqanidan og‘ziga kelganini gapiryapti-da.

— Men, axir...

— O‘g‘rini uringlar! — deb baqirdi kimdir olomon ichidan.

Bir necha tosh kelib eshikka tegdi, deraza oynalari chil-chil sindi. Abilqosim uyga chopib kirdi-da, eshikni ichidan berkitib oldi. Odamlar hovlida anchagacha turishdi, g‘ovur-g‘uvur qilishdi, o‘g‘rini bo‘ralab so‘kishdi.

— Ha, bo‘ldi, tarqalinglar! Ertaga tergovchining o‘zi tekshirib ko‘radi, aniqlaydi. Toshbo‘ron qilishga hech kimning haqqi yo‘q, — rais Toyloqovning bo‘g‘iq ovozi eshitildi.

Yana derazaning ikki oynasi sinib, chilparchin bo‘ldi. Uyga sovuq havo otilib kirdi. G‘ala-g‘ovur asta-sekin tindi, hamma yoq jimjit bo‘lib qoldi.

Abilqosim xonaning o‘rtasida uzoq o‘tirdi, yig‘ladi. Ziyodaning o‘limidan keyin birinchi bor yig‘lashi edi. Uy ko‘ziga xuddi og‘zi

ochilgan go‘rday xunuk ko‘rinardi, devor oldida ko‘rpalar sochilib yotardi, sandiq ochiq qolgandi, oynasi singan derazadan g‘uvullab shamol kirardi. Nihoyat u o‘ziga o‘zi g‘o‘ldiradi. — Ha, ha!.. — dedi u go‘yo muhim bir qarorga kelganday.

U uydan chiqdi, eshikni yopmadi ham, ombordan arqon olib chiqdi, hovlidagi kattakon daraxt oldiga keldi. Bu sershox qayrag‘och unga negadir doimo Ziyoda kampirni eslatardi. Uning ikkita katta shoxi Ziyoda kampirning yorilgan, quruqshagan qo‘llariga o‘xshardi, po‘stlog‘i ham Ziyoda kampirning yuzidagi ajinlarday tilim-tilim bo‘lib yotardi. “Ha, ha... Mayli, hamma ko‘rsin... hamma” — Abilqosim oqsoqlanib uy tomonga yurdi, o‘limi oldidan bir enlik xat yozib qoldirmoqchi bo‘ldi.

— Kimga yozsamikin? — deb g‘o‘ldiradi u. — Ovuldagilarning hammasigami? Rais Toyloqovgami? Saparqulgami? Balki, boyagi ikki notanish odamga yozarman?

U lampani yoqdi, bir parcha qog‘oz, siyohli qalam qoldig‘ini topdi, keyin beixtiyor shu so‘zlarni yoza boshladi:

“Asipa. Men ablah emasman. Sening kumush tugmalaringni men olmaganman. Xudo oldida, o‘lim oldidan ont ichib aytaman. Meni badnom qilishdi. Men o‘z or-nomusimni, vijdonimni himoya qilolmadim. Bas, yetar! Agar bir yildan keyin, xuddi shu kuni meni eslab, haqimga duo qilsang, u dunyoda sendan minnatdor bo‘laman. O‘g‘lingga yangi yilga sovg‘a tayyorlab qo‘yuvdim, unga berish nasib etmadi. Xayr, alvido! Baxtli bo‘lgin!”

Abilqosim xatni yozib bo‘ldi-da, bir parcha qog‘ozga uzoq tikilib turdi. Keyin negadir yangi yil sovg‘asi haqidagi so‘zlarni o‘chirib tashladi va xatni qaytadan yoza boshladi. Eshik taqillab qoldi.

Abilqosim sapchib tushdi, o‘rnidan turdi-da, eshik oldiga bordi.

— Kim u? — deb so‘radi u biroz jim turgandan keyin.

— Ochgin, Abake, menman!

— Kimsan?

— Sekin, baqirma! Men, Saparqulman.

— Senga nima kerak? Nima, jonimni olgani keldingmi?— deb so‘radi Abake g‘azab bilan.

— Baqirmasang-chi, gaplashib olishimiz kerak, — dedi u xirillagan ovozda.

Abilqosim, bir anglashilmovchilik bo'lgan-u, Saparqul shuni aytmoqchi bo'lib kelgan, deb o'yladi o'zicha. Lampaning piligini sal ko'tardi-da, eshikni ochdi, keyin uyning bir burchagiga borib, indamay o'tirdi. Saparqul kirdi.

— Yeyishga bir nimang bormi? — deb so'radi u va qo'ynidan bir shisha araq oldi.

Abilqosim joyidan jilmadi. Mehmonning o'zi shkafdan bir burda non, tuz, ikkita piyola olib, stol ustiga qo'ydi.

— Kel, avval tomog'imizni bir ho'llab olaylik! — dedi u zo'raki kulimsirab.

Abilqosim o'qrayib qarar, indamasdi. Saparqul o'zini juda g'alati tutardi.

— Sening sog'lig'ing uchun! — omborchi piyolani qo'liga oldi, uni bir ko'tarishda ichmoqchi bo'ldi-yu, lekin Abilqosimning ichmayotganini ko'rib, piyolani yana stol ustiga qo'ydi.

— Ha, mayli, hozir ichging kelmasa, keyinroq icharmiz, — Saparqul piyoladagi araqni yana shishaga quydi. — Sen, maymoq, mendan xafa bo'lmagin. Yaxshisi, aqlli odamlar gapiga quloq sol... Xullas, gap bundog', agar bug'doyni uch kishi o'tirlaganmiz, desang, bu gruppa bo'lib o'g'irlashga kiradi. Tushundingmi? Buning uchun ko'p berishadi. Har birimiz kamida o'n yilga kesilamiz. Hammasi bo'lib o'ttiz yil. Shundaymi? Agar, bir o'zim o'g'irlagandim, desang, ko'pi bilan ikki-uch yil beradi. Bu bir. Ikkinchidan, agar meni qamashsa, sen o'zing qutulib ketolmaysan. Tushundingmi? Bu yoqda bo'lsam, yo'lini topaman, ishonchli odamlarim bor, ular seni bo'shatib olishga yordamlashishadi. Uzoq o'tirmaysan. Bo'shatib olaman. Tushundingmi? — deb so'radi Saparqul va javob kutdi.

— Qog'oz qani? — deb so'radi Abilqosim.

— Qanaqa qog'oz? — deb so'radi u tushunmasdan.

— O'sha, men qo'l qo'ygan qog'oz-da.

— E, tentak, uni xalajoydan qidir, — dedi Saparqul asabiy kulimsirab.

Abilqosimning lablari sal titrab ketdi.

— Qani, kel, bir olaylik! — Saparqul yana araqdan quydi.

Abilqosim burchakka qarab qo'ydi — u yerda miltiq ko'rinmadi, u so'rining tagida edi.

— Sen invalidsan. Shundaymi? Kamida ikkinchi gruppasan, seni sud qilmasliklari ham mumkin. Tushundingmi?

Abilqosim shkafga qarab qo'ydi, qayerdadir katta pichoq yotgan bo'lishi kerak. Qayerda yotganikin?

— O'zing nimjon bo'lsang ham aqling joyida. Hammasini yaxshilab o'ylab ko'r. Kel, shuning uchun bittadan otaylik! Abish, araq ko'ngilni yozadi... — Saparqul piyolani uzatdi. — Iye, nega burningni jiyirasan? — dedi u kulimsirab, yumshoq gapirishga urinib.

Abilqosim veshalka o'rnida ishlatilib turgan yo'g'on yog'och ilgakdan ko'z uzmasdi.

— Bug'doyni senikidan topishganini unutmagin-a. Menikidan bir hovuch ham topisholmadi. Qo'lga tushmagan o'g'ri emas. Meni ilintirolmaysan, senga hech kim ishonmaydi. Shundaymi? Qani, ol, qo'lim tolib ketdi-ku, ichvor! — deb yalina boshladi Saparqul.

— Jo'-o'-na! — deb baqirdi Abilqosim qoni qaynab.

U bir sakrashda burchakka bordi-da, devordagi ilgakni yulib olib, uni Saparqulning boshi tepasida ko'tardi.

— Nima balo, esingni yedingmi? Jinni bo'ldingmi? — qo'lini ko'tarib, boshini berkitgan bo'ldi. Eshik tomonga tisarildi. — Hoy-hoy! Bu nimasi?

— Jo'na deyapman! — deb baqirdi Abilqosim battar darg'azab bo'lib. Ko'zlariga qon to'ldi. Uning vajohatidan qo'rquvlik edi.

— Voy, jinni-ey! Esi past! Axir, maslahatlashgani keluvdim. Axir, seni odam deb keluvdim-a.

— Jo'-o'-na! Qonxo'r!

— Bo'pti, bo'pti, men ketaman. Mana ketyapman! — Saparqul ostonagacha bordi-da, eshikni orqasi bilan ochib, ko'chaga otildi.

— O'l-di-raman!

Ilgak eshikka urilib, ikkiga ajralib ketdi. Abilqosim ilgak sinig'ini oldi-da, xuddi ilon o'ldirayotgan odamday, ostonani asabiy ura boshladi.

— Yo'-o'-qol! Maraz! Yo'qol!

Ilgak parchasi mayda-mayda bo‘lib ketdi. Abilqosim holsizlanib, yerga gurs etib yiqildi.

“O‘, haqiqat! Qayerdasan! Qayerlarda daydib yuribsan? Yer yuzida bormisan o‘zi? Yo yer qa’riga bir umrga ko‘milganmisan?

U birdan kampirning o‘lim oldidan aytgan gaplarini esladi.

“Ey, bechora, sho‘rlik kampir! Meni nega aldading? Yaxshilik, ezgulik odamga o‘zi keladi, deb nega yolg‘on gapirding! Nega menga, chiroyli, kuchli odamlarga havas qilmagin, deding? Nega endi yaxshilik, ezgulikdan bo‘lak narsani bilishimni istamading? Axir, odamlar yovuz-ku. Yovuz va yirtqich. Ular meni yeyishdi. Butun yirtqich to‘dasi bilan kelib yeyishdi, ojiz tanamni parcha-parcha qilishdi, men o‘zimni qimoya qilolmayman. La’nat senday riyokor kampirga! Nega endi meni o‘zingga teng qilding, axir, sen bir chuvalchangsan-ku, yanchib, toptab tashlashlari uchungina yer betiga chiqasan. O, tangrim! Nega meni onamning qornida ekanligimda yoq o‘ldirib qo‘ya qolmading?! Mayib-u majruhlarni, ojizlarni bu dunyoga keltirib nima qilasan? Axir, ularning hammasi sog‘lom, kuchli, shuning uchun ham meni xarob qilishdi. Men ular uchun, ularning yovuzligi, tubanligi, marazligi uchun jonimni, umrimni qurbon qilishim kerak”.

Agar Abilqosimning baqirishlari, o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ularini mabodo aytib berish kerak bo‘lguday bo‘lsa, uning ko‘ngliga ana shu gaplar, to‘g‘rirog‘i, shunga o‘xshash gaplar kelgandi. U xuddi baliqday og‘zini kappa-kappa ochib nafas olar, yuragi goh siqilar, goq orqasiga tortib ketar, goh dukullab ura boshlardi. U yerda qancha yotganini eslay olmaydi, lekin boshini ko‘targanda tong yorishgandi. Derazaning siniq ko‘zidan xonaga uvullab izg‘irin kirmoqda edi. Lampa allaqachon o‘chib qolgandi. Qo‘l-oyoqlari qotib qolgandi. Asipaga yozgan xati shitirlardi. Shishada qolgan araq turardi.

U o‘rnidan turdi-da, pechkaga o‘t yoqdi.

Sovib qolgan pech tutunni yaxshi tortmasdi, achchiq ko‘k tutun ko‘zlarini achishtirar, qo‘llari bilan hech nimani ushlay olmas, muzlab qolgan barmoqlari bukilmasdi. U oynasi singan deraza ko‘zlariga ko‘rpalarini yopdi-da, stol oldiga kelib, piyoladagi araqni bir ko‘tarishda ichdi. Darrov tanasiga issiq yugurdi. Yana bir piyola

ichdi — bunisi avvalgisidan ham achchiq tuyuldi. A'zoyi badani bo'shashib, boshi sal aylanganday bo'ldi.

"Araqni iflos Saparqul olib keldi. Demak, u mendan qo'rqadi!" Abilqosim yarmi bo'sh shishani pechkaga qarsillatib urdi. "Orqa-oldiga qaramay qochib qoldi-ku! — Abilqosim qiqirlab kuldi. — Demak, men bir nima qilishga qodir ekanman-ku. Men Saparqulning rasvosini chiqarishim mumkin. U mening qo'limda, qochib qutulolmaydi, — shirakayf Abilqosim qo'llarini musht qildi. Badani isidi, tomirlarida qon o'ynadi. Qo'ynidan xatni oldi. — Tavba! Buni nega yozdim-a? Shunga xat yozib o'tiribman-a! O'sha yaramasning opasida, ukasidan qolishmaydi. Balki hamma aybni Abilqosimga ag'dar, deb o'sha o'rgatgandir, bolaligida meni urganini esiga solgandir. O'g'irlangan bug'doyni, hoynahoy, ikkovi yashirib qo'yishgan. Voy, firibgar-ey! Bug'doyni olgan kunim o'g'lini oldimga yuborib o'tiribdi-ya..." Keyin yana esiga bir narsa tushib qoldi, xuddi shu kuni o'g'lidan bir kosa bo'za berib yuborgandi. "Aniq. Bo'zaning kayfi yetmagandek, unga miyani aynitadigan bir nima ham sepgan, jodu ham qilgandir! Ha, rosa ahmoq qilishdi! Axir, o'shanda ham u meni o'g'ri qilgandi-da, tugmalarimni sen o'g'irlagansan, degandi-da. Ha, odam o'la-o'lgunicha tuzalmas ekan. Sut bilan kirgan jon bilan chiqarkan. Axir uning dastidan o'qiy olmay qoldim-ku. Uning dastidan cho'pon-u, qorovullikdan nariga o'tolmadim... Nodon ekanman! Ahmoq ekanman! O'limim oldidan unga xat yozib o'tiribman-a! Shoshma, shoshma, nega endi men o'zimni osishim kerak? Nima, esimni yeb qo'yibmanmi? Shoshmalaring, men hali sizlarga kimligimni ko'rsatib qo'yaman! Faqat shu bolangga achinaman-da. U bechorada nima ayb? Ha, mayli, nima bo'lsa bo'lar! Agar ularni qamashsa, bolani olib ketaman, o'zim tarbiyalab, katta qilaman. Ko'zlaringni moshday ochib qo'yaman! — Abilqosim xatni mayda-mayda qilib yirtdi-da, pechkaga tashladi, qog'oz lovullab yonib, qizg'ish alanga uning yuzini yoritdi. — Hammasi uchun qasos olaman! Meni xo'p laqillatdilaring-a... Endi, sen muttaham qutulib bo'psan, albatta sud qilishadi! Sening aybingni isbotlay olmasam, seni mana men o'zim jazolayman! Mayli, shuning uchun ozodlikdan mahrum bo'lsam, o'lib ketsam ham mayli!" — Abilqosim so'ri tagidan ov miltig'ini

oldi, o‘n yil ichida undan biron marta ham otgan emasdi. Sandiqning tagidan bir dona patron topdi. Yaqindan turib otsa, bitta o‘q ham yetadi...

U pechni yopdi, telpagini kiydi, kamarini siqibroq bog‘ladi-da, ko‘chaga chiqdi.

Tonggi g‘ira-shira tumanda, uyqudagi ovul o‘rtasidan yolg‘iz odam oqsoqlanib borardi. Ertalabki izg‘irin yuzini achishtirar, po‘stinini qirov bosgandi, lekin Abilqosim terlab ketgandi. Burun kataklaridan nafas olardi, shamol oldi ochiq po‘stinining etaklarini yulqilardi. “Meni o‘ldirishmoqchi edi! Ha, ko‘ramiz hali... Men osonlikcha jon bermayman! O‘lsam o‘lamanki, haqiqatning tagiga yetmay qo‘ymayman... Mayli, ojiz, gapga no‘noq bo‘lay, lekin men haqiqat uchun o‘laman!” Uning nazarida hamma yovuzliklar, hamma yomonlik shu Saparqul bilan opasidan chiqqanday edi. Mana shularga o‘xshagan odamlar dastidan u yetim qoldi, o‘shalar tufayli nogiron bo‘lib tug‘ildi, mana endi ular bundan nafratlanishyapti, uni jinoyatchiga chiqarishyapti.

Abilqosim eshikni bir tepib ochdi. Qarshisidan chopib chiqqan qora it tumshug‘idan tepki yeb, angillaganicha uyning orqasiga qochib ketdi. U eshikni taqillata boshladi, keyin yelkasi bilan itardi, aftidan, ilgagi uzildi shekilli, eshik birdan lang ochilib ketdi.

— Saparqul! Muttaham! Agar odam bo‘lsang bu yoqqa chiq! — deb baqirdi qorovul.

— Ha, cho‘loq, nima, seni ajal haydab keldimi? — o‘ng tomondagi xonadan Saparqul qo‘lida qamchisi bilan chiqdi, lekin miltiqni ko‘rdi-yu, qo‘lini tushirib, eshik orqasiga yashirindi.

— Bu yoqqa chiq, hozir seni o‘zim sud qilaman. Seni o‘limga hukm etaman! — dedi qorovul xotirjam va lo‘nda-lo‘nda qilib.

— Voy, xudoyim, nima bo‘ldi o‘zi? — qo‘shni xonadan ichki ko‘ylakda Asipa chopib chiqdi. — Nima, jinni bo‘ldingmi, Abilqosim?

— Ha, jinni bo‘ldim! Men ahmoqman! Lekin hammangga ko‘rsatib qo‘yaman! Ukangga ayt: agar it bo‘lmasa, bu yoqqa chiqsin! — deb buyurdi.

— Voy, xudoyim! U g‘irt mast-ku! Bolani qo‘rqitib yubording! — Asipa miltiqqa yopishdi.

Bola battar qichqirib yubordi.

— Qo‘y, opa, ovora bo‘lma. U esini yeb qo‘ygan. Qulog‘iga gap kirmaydi, — dedi Saparqul eshik orqasidan.

— Bu yoqqa chiq, razil! Biqiningdan darcha ochib qo‘yay! Sen bilan o‘zingning tilingda gaplashay, — dedi Abilqosim miltiqni o‘qtalib.

Saparqul eshikni shartta yopdi-da, ko‘chaga o‘qday otilib chiqdi. Abilqosim ayolni turtib o‘tib, uning orqasidan yugurdi.

— O‘ldirdi! O‘ldirdi! — deb baqirdi ayol, o‘zini yerga tashlab, Abilqosimning oyoqlaridan mahkam quchoqlab oldi. — Azizim, jon Abake! Nima bo‘ldi o‘zi, gapirsang-chi? Menga aytgin, jon Abilqosim! Rahm qilgin! O‘ldiradigan bo‘lsang, yaxshisi meni o‘ldirgin!

Abilqosim kim rahm-shafqat so‘rab, kim iltijo qilayotganini go‘yo endi tushunganday edi. U boshini bir silkitdi-da, kafti bilan yuzini siladi.

— Shoshma, Abake! Shoshma! Bolani qo‘rqitib yubording. Nega Saparqulga yaqin yurding? Axir, sen kattasan... Aqlliroqsan. Sen rahmdil, yaxshi odamsan! — Asipa uning tizzasidan quchoqlaganicha hamon yalinib-yolvorardi.

Bola piq-piq yig‘lardi.

Abilqosim miltig‘ini pastga tushirdi.

— Ha, tuzuk, Abake, shunday qilishingni bilardim, yanglishmagan ekanman. Bunaqa yovuz bo‘lish kerakmas. Yaxshisi meni otib o‘ldir, ukamga tegma. U hali yosh, g‘o‘r, nima ko‘ribdi deysan. Men sho‘rpeshana, baxti qaroman, ko‘radiganimni ko‘rib bo‘ldim, na erim bor, na ota-onam? Hech kimga keragim yo‘q! Mayli, u yashasin! Hech narsaga aqli yetmaydi, nodon. Ha, hali es-hushini yig‘ib olar.

Bola Abilqosimning hovridan tushganini ko‘rib, biroz tinchidi.

— Qo‘rqma, cho‘chima, bolam. Bu amaking... Amaking... Ko‘ryapsanmi, sal kayfi oshib qolibdi... Amaking yaxshi odam. Hech nima qilmaydi, undan qo‘rqmagin. Esingdami, u senga pat-

ron bergandi. U seni po‘stiniga o‘rab isitgandi, qo‘ynida uxlab qolganding. Esingdami? — Asipa o‘g‘lini bag‘riga bosdi. Bola dag‘-dag‘ titrar va xo‘rsinib yig‘lardi. — Gapirsang-chi, Abilqosim, nima bo‘ldi? Axir, uning tug‘ishgan opasiman, jigariman-ku... U ham hech nima demaydi, senam miq etmaysan. Oralaringdan bir gap o‘tdimi? — ayol sekin miltiqni olib qo‘ydi. — Uyga kirgin, hammasini yotig‘i bilan gapirib bergin.

Abilqosim jim bo‘lib qoldi, xuddi yosh boladay itoatkorona orqasidan ergashdi. Bola yig‘idan to‘xtadi, yuzini onasining ko‘ksiga yashirdi.

— Bor, o‘g‘lim, yotgin. Amaking bilan gaplashib olishim kerak, qo‘rqma, qo‘zim. Amaking yaxshi odam. U senga yana patron beradi! Bor, uxlagin...

Bola cho‘chib, hadiksirab orqasiga qaray-qaray, boshqa xonaga chiqib ketdi.

— Yorma bor, ichasanmi, Abilqosim?

Abilqosim yo‘q, deganday bosh chayqadi.

— Choy qo‘yaymi? Issiq choy ichsang, ancha o‘zingga kelib qolasan.

— Men mast emasman, — dedi Abilqosim ayolga qaramaslikka urinib. — Qonim qaynab ketdi-da.

— Nega endi ichding? Axir, sog‘lig‘ing nochor-ku...

— Alamimdan ichdim, — dedi Abilqosim go‘yo uzr so‘ragan kishiday.

— Senga ichish hecham mumkinmas, o‘zingni nobud qilasan, — dedi ayol astoydil achinib.

Abilqosim boshini ko‘tardi. Asipa yengil, harir ko‘ylakda, qo‘llarini ko‘ksiga bosib turardi, sochi yoyilib ketgandi. Ko‘zlari-chi, ko‘zlari... ko‘zlarida mehr va ishonch bor edi. Yo‘q, bu ko‘zlarning aldashi, riyokorlik qilishi mumkinmas. Abilqosim o‘girilib oldi.

— Ukang bitta og‘aynisi bilan meni baloga giriftor qildi... Menga hech kim ishonmayapti. Bugun kechasi o‘zimni o‘ldirmoqchi edim. — Abilqosim kafti bilan ko‘z yoshlarini artdi. — Senga xat yozuvdim, keyin yirtib tashladim.

— Menga-ya? Qanaqa xat? — deb so‘radi ayol hayron bo‘lib.

Abilqosim o‘ylamay gapirib qo‘yganini payqadi, buni gapirmasligi kerak edi, lekin vaqt o‘tgandi.

— Hammasiga sen aybdorsan, deb yozuvdim. Tugmangni yozgandim...

Ayol yerga qaradi, aftidan, uzoq bolaligidagi voqea esiga tushdi shekilli.

— Kechasi ukang hamma aybni bo‘yningga olasan, deb meni majbur qildi! Uni o‘ldirishimga sal qoldi. — Abilqosim tobora dadil gapirardi. — Qani ayt-chi, qachongacha meni xo‘rlaysizlar? Axir, men ham odamman-ku. Mening ham yashagim keladi. Nima, o‘tgan ham, ketgan ham turtsin, deb keldimmi bu dunyoga?

Asipa unga hayron bo‘lib qarab turardi. Bir zamonlar yosh-yosh bolalardan, qizlardan kaltak yeb, ovuldagilarga doim kulgi bo‘lib yuradigan o‘sha Abilqosim endi or-nomusdan gapirib o‘tirsa-ya! Ayol uning qarshisida, erkak oldida bir ichki ko‘ylakda turganini endi sezib qoldi. U uyalganidan eski choponni oldi-da, yelkasiga tashlab, darrov o‘ranib oldi. Buni sezgan Abilqosim o‘zini yana ham dadilroq, ishonchliroq his etdi.

— To‘g‘ri, men ham bug‘doy oldim, aybdorman, lekin haqiqat uchun o‘la-o‘lgunimcha kurashaman. Sudda hammasini gapirib beraman. Haqoratlangan or-nomusim uchun qasos olaman.

Abilqosim ayolning yig‘layotganini ko‘rib, indamay qoldi.

— Bu nima ko‘rgilik! Yana musibat! Shu bitta-yu bitta ukamga ishonib, orqa qilib yuruvdim! Endi nima bo‘ladi-a? Qurib ketgur shu bug‘doy qayoqdanam chiqdi-ya! Nahotki o‘g‘lim ikkovimiz mung‘ayib qolsak-a? — Asipa uv tortib yig‘ladi.

Onasining yig‘isini eshitib, Nurlan ichkaridan chiqdi.

— Voy, yetimcham, endi yakka-yu yagona tog‘angdan ham ajraladigan bo‘lding! — derdi u yig‘isini tiyolmay.

Abilqosim dovdirab qoldi. Yetimlik nimaligini, uyda yakka-yolg‘iz qolishning nimaligini hech kim bilmaganda ham u yaxshi bilardi.

— Ey, Xudoyim, onadan namuncha baxtiqaro bo‘lib tugilgan ekanman? Meni hatto qora yer ham o‘z bag‘riga olmayapti... Onajon, meni ham birga olib ketsang bo‘lmasmidi?

Abilqosim yirtiq telpagini bir kiyib, bir yechib, nima qilarini bilmasdi:

— Ha, bo'ldi, bo'ldi... — deb go'ldiradi u va miltig'ini oldi-da, eshik tomonga yurdi.

Ayol uning chiqib ketganini sezmay ham qoldi.

Ovul uyqudan tura boshladi, ba'zi uylarning mo'risidan ko'kimtir tutun buralib-buralib chiqardi, izg'irinli tumanda u yer-bu yerda odamlarning qorasi ko'zga tashlanardi.

Abilqosimdagi boyagi qahr-g'azabdan asar ham qolmagandi, kayfi butunlay tarqab ketdi, undagi nafrat o'ti xuddi dashtdagi jala o'chirgan olovday birdan so'ndi-qoldi. Ayol kishining yig'isi hamon qulog'ida eshitilib turardi. Asipaning bu iflos Saparqulni deb bunchalik kuyib-pishishini kim bilibdi deysiz!..

Abilqosim ketishi bilan Saparqul oshnalari bilan uyga otilib kirdi. Ikkitasining qo'lida tayoq, uchinchisi miltiq ko'tarib olgandi.

— Maymoq qani? — deb so'radi Saparqul oyog'ini tirab turib.

— Bilmayman, chiqib ketdi... — deb javob berdi Asipa.

— U sizga tegdimi, opa? — deb so'radi Saparqulning oshnalaridan biri.

— Yo'q, haddi sig'armidi? — dedi Asipa ko'z yoshlarini artarkan. Ovozida sezilar-sezilmas bir iliqlik, mehribonlik bor edi, lekin kelganlardan birontasi buni eshitmadi, payqamadi, chunki ularning es-hushi boshqa narsada edi.

* * *

Hademay butun vodiyda rayondan tergovchi kelganmish, u cho'loq Abilqosimni (ovulda yana bir Abilqosim bor edi) so'roq qilarmish, Saparqul qochib ketganmish, degan mish-mish tarqaldi. Bir kundan keyin qorovul hamma aybiga iqror bo'lganmish, degan gap chiqib qoldi. Aytishlaricha, bug'doyni uning bir o'zi olgan ekan. Saparqulni topishibdi, u hech qayoqqa qochmagan ekan, Mayrash ismli yosh bir bevaning uyida uch kun rosa aysh-ishrat qilibdi. Qorovul Abilqosimning ishini sudga oshirishibdi. Rayondan militsioner kelganmish.

Qamoqqa olingan Abilqosimni militsioner oldiga solib, olib ketayotganda ovuldagilarning hammasi — yoshi ham, qarisi ham uylaridan chiqishib, jinoyatchiga indamay qarab qolishdi. Abilqosim boshini quyi solganicha ko‘chaning o‘rtasidan borardi. Uning oyoq izlari endigina yog‘gan qor ustida qolardi, bir oyog‘ining izi to‘g‘ri, ikkinchisiniki qiyshiq tushardi. Asipaning uyi ro‘parasiga kelishganda Abilqosim boshini mag‘rur ko‘tardi-da, sezilar-sezilmas kulimsirab qo‘ydi. Lekin Asipa uyda yo‘q edi. Hibsga olingan odam qadamini sekinlatdi.

— To‘xtash mumkinmas, — deb shoshiltirdi militsioner. Abilqosim derazaga yana bir bor qaradi-da, oqsoqlanib yo‘lida davom etdi. Ular ovuldan chiqib ketishdi, eski qabriston, ko‘hna maqbara oldidan o‘tishdi. Maqbara devoridagi yoriq shunday ko‘rinib turardi. Uning nayzasimon cho‘qqisida ola hakka qo‘nib o‘tirardi.

— Xurjuningizni menga bera qoling, — dedi militsioner.

— Rahmat, azizim, o‘zim bir amallab...

— Unday bo‘lsa tezroq yuraylik, u yoqda, tosh yo‘lda mashina kutib turibdi. Yo‘llaring yomon ekan, bu yoqqa kirolmadik, — dedi militsioner.

Abilqosim xurjunini berdi.

— Menga necha yil berisharkin? — deb so‘radi Abilqosim.

— Qilmishingga yarasha olasan-da.

Keyin indamay ketishdi.

Uzoqda, tosh yo‘lda mashina ko‘rindi.

— Sizga kelayotgandir-a? — dedi militsioner o‘girilib. Ovul tomondan bir ayol chopib kelardr. Abilqosim bosh chayqadi. Uning orqasidan kim kelishi mumkin? Lekin ayol hadeb qo‘l siltardi. To‘xtashdi. Bu Asipa edi. U chopib keldi-da, anchagacha gapirolmay turdi. Militsioner odob yuzasidan sal nariroqqa borib turdi.

— Abake... — dedi Asipa hansirab, — ma, yo‘lga olgin, — u tugun uzatdi.

Abilqosimning birdan uning sochini silagisi, hech qachon aytmagan dil so‘zlarini aytgisi keldi. Lekin qo‘li ko‘tarilmadi, aytgani bir so‘z topolmadi. Tomog‘iga bir nima tiqilganday bo‘ldi, ko‘zlariga yosh keldi. Hatto minnatdorchilik bildirishni ham unutgandi. Militsioner kelib tugunni ushlab ko‘rdi:

— Nima bor?

— Tamaki. Ozgina qatlama, — dedi ayol.

Militsioner tugunni Abilqosimga qaytarib berdi.

— Rahmat, ukajon, bu yaxshiligingni sira unutmayman.

Tosh yo'lda turgan mashinadan ko'k shinel kiygan kishi tushdi-da, bular tomonga kela boshladi.

— Kattamiz kelyapti, — dedi militsioner.

— Rahmat senga, Asipa. Meni tushunganing uchun rahmat, — Abilqosim kulimsiramoqchi bo'ldi-yu, lekin o'pkasi to'lib, yuzi bujmayib ketdi. U ayolning kaftini qisdi, keyin qo'yib yubordi-da, oqsoqlanib militsionerning orqasidan yurdi... Asipa qo'lini ko'ksiga bosganicha, uning orqasidan termilib qarab qoldi.

— Xotiningmi? — deb so'radi militsioner.

Abilqosim "yo'q", deganday bosh chayqadi.

— Ha, tushunarli, — militsioner ma'nodor ko'z qisib qo'ydi. — Faqat unga sizni uzoq kutishga to'g'ri keladi-da, — deb qo'shib qo'ydi u achinish bilan. Abilqosim hech nima demadi.

Ular tosh yo'lga chiqishdi-da, mashina oldiga kelishdi. Unda ikki militsioner bilan grajdan kiyimida bir kishi o'tirishardi. Mashina joyidan qo'zg'aldi.

Asipa ovul chekkasida turardi, u shu turishida o'rmon etagida o'sgan yolg'iz qayin daraxtiga o'xshardi. Eski yuk mashinasi taraqa-turuq qilib tepalikka ko'tarildi, keyin pastga tushdi-da, yo'ldan g'izillab ketdi. Ayol jussasi tobora kichrayib, nihoyat butunlay g'oyib bo'ldi...

Abilqosim bug'doyni o'zi olganiga sudda iqror bo'ldi, uni sakkiz yilga kesishdi, mol-mulki musodara qilinadigan bo'ldi.

Bularning hammasi Saparqulga juda g'alati bo'lib ko'rindi. U hademay skladni topshirib, qo'shni ovuldan ish topdi. U Abilqosimni qutqarishga uringani ham yo'q, chunki o'zi qo'lga tushib qolishi mumkin edi.

* * *

Abilqosimning sog'lig'i nochor bo'lgani uchun og'ir ishdan ozod qilib qo'yishdi. U barakni supurib-sidirar, yig'ishtirar, kar-

toshka tozalar, hammomga o‘t yoqardi. U Asipaga bir nechta xat yozdi, lekin bittasini ham jo‘natmadi. Nazarida xatlarning bittasi o‘ta hazin, boshqasi yig‘loqi, uchinchisi juda tetik ruhda yozilgandek edi, go‘yo u o‘z jasoratidan faxrlanayotgandek edi. Abilqosim bu ayolning na achinishini, na rahm-shafqat qilishini, na maqtab gapirishini istardi. U umrida birinchi bor tirik odamga butun o‘y-fikrlari, dardi hasratini to‘kib solmoqchi edi. Abilqosim har bir so‘zini necha bor o‘ylab, aql tarozisiga solib, keyin qog‘ozga tushirardi, so‘ng yozganlarini bir necha marta o‘qib chiqardi, qayeridir ma’qul bo‘lmay, mayda-mayda qilib yirtib tashlardi, yangitdan yozishga o‘tirardi. Mana, nihoyat, xatni oxirigacha yozib bo‘lib, pochta yashigiga tashladi.

“Azizim Asipa, sog‘liqlaring qalay? O‘g‘ling qalay, sog‘lig‘i yaxshimi? Turmushim yomon emas. Qornim to‘q, ustim butun, faqat boshqa joyda emas, qamoqda ekanligimdan qattiq ezilaman, ovulniyam juda sog‘indim. Balki mendan xat kutmagandirsan, lekin biz yana ko‘risharmikinmiz? Senga hammasini gapirib bermoqchiman. O‘sha mash’um voqeaga qadar sening oldingga borolmadim, sen bilan ochiq gaplasholmadim. Asipa! Balki mening o‘rnimda boshqa odam bo‘lsa, u o‘zini allaqachon o‘ldirgan bo‘larmidi, men bo‘lsam yashayapman. Umrimda biror katta ish qilmaganman. Buyuk jasorat ko‘rsatishga qodir emasman. O‘qishni ham uddasidan chiqolmadim. Oilam yo‘q. Mol-dunyo ham orttirmadim, menga keragi ham yo‘q-da. Hayotning katta yo‘liga chiqolmadim. So‘qmoqlarda oqsoqlanib yurdim. Esingdami? Kichkinaligingda kumush tugmalaring yo‘qolib qoluvdi. Ularni men olmagandim, lekin menga hech kim ishonmadi. Qattiq ezildim. Seni yomon ko‘rib qoldim. Lekin oradan bir necha yil o‘tganidan keyin, sovqotgan bolang bilan o‘sha bo‘ronli sovuq tunda uchratganimda, yuragim qinidan chiqib ketguday bo‘ldi. Balki qo‘ynimga yashirib, uygacha olib borgan bolangning issiq nafasi meni ham ilitgandir? Bir-birimizga hecham munosib emasligimizni bilardim, sen chiroylisan, men-chi? Orzum senga biror yaxshilik qilish edi. Keyin haligi voqea yuz berdi. Ukang meni jarga itardi... Tuhmat qildi. Bu umrimda ikkinchi bor tuhmatga uchrashim edi. Men doim odamlarni yaxshi ko‘rardim, ularga ishonardim. Bechora onam, gunohkorni

xudoning o‘zi jazolaydi, halolni yorlaqaydi, ishini o‘nglaydi, deb doim gapirardi. Lekin bildimki, osmonda hech qanday xudo yo‘q, yerda esa har bir odam o‘ziga o‘zi Xudo, o‘zi uchun olishishi, kurashishi kerak ekan. Shuning uchun ham o‘shanda sizlarnikiga miltiq ko‘tarib boruvdim. O‘shanda qo‘pollik qildim, meni kechirgin, jahl chiqqanda aql qochadi, deb bejiz aytishmagan. Lekin men hecham o‘kinmayman, orzum ushaldi. Senga qo‘limdan kelgan yordamimni qildim. Endi xotirjam o‘lsam bo‘ladi. Agar o‘lganim haqidagi xabarni eshitib, ko‘zlaringga yosh olsang, shuning o‘zi men uchun oliy mukofot... Yuborgan tamaking, qovurdog‘ing uchuq mingdan ming rahmat. Tamakingdan chekkanimda ovuldagilar kechqurunlari pechkaga yoqadigan tutatqining hidi dimog‘imga urulganday bo‘ladi. Afsuski, ikki enlik xat yozmading. Lekin nega xat yozmading, deb so‘rashga haqqim bormi?

Senga sog‘liq va baxt-saodat tilab qoluvchi Abilqosim”.

Pirovardida nimalar bo‘lganini Abilqosim oradan ko‘p yillar o‘tgandan keyin bildi...

Asipa bu xatni hech kimga ko‘rsatmadi, o‘zini qanday tutishni, nima qilishni bilmadi. Mana endi, oradan ko‘p yillar o‘tgandan keyin hammasiga tushunganday bo‘ldi. Ilgari u butunlay boshqacha fikrda edi, Abilqosim o‘z jinoyatini, ko‘plashib qilingan o‘g‘irlik deb baholashmasin, degan niyatda hamma aybni o‘z bo‘yniga olgan, deb yurardi, ukasi ham xuddi shu yo‘sinda tushuntirgan edida. Agar shu gaplar bo‘lmaganida Abilqosim Asipaning nazarida bir umrga ojiz, noshud bo‘lib qolardi, bundaylarga faqat achinasan, rahming keladi, xolos. Lekin mana endi, Asipa Abilqosimning “iqror bo‘lishi”ning asl sabablarini bilganidan keyin, uning ko‘z o‘ngida butunlay boshqa bir odam namoyon bo‘ldi. Bunday ish faqat katta qalb egasi, dili ham, qo‘li ham pok odamninggina qo‘lidan keladi. Asipa ukasining Abilqosimni jo‘rttaga, ko‘ra-bila turib qamatganiga ishonardi, Saparqul jazoning o‘zi uchun bu qadar yengil, Abilqosim uchun shu qadar og‘ir bo‘lishini xayoliga ham keltirmagandi, albatta. Asipa, Sapar o‘zi kelib aybiga iqror bo‘lar, miskin, ojiz, himoyasiz bir odamni qutqarar, aqalli biror yo‘lini topib, uning qismatini yengillashtirar, deb kutgandi. Lekin oradan vaqt o‘taverdi, ukasidan darak bo‘lmadi. Uning qayerdali-

gini, nima qilib yurganini hech kim bilmasdi. U beva juvon Mayrashnikida tunab yuribdi, juvonning boshidan oyog'igacha kiyintiribdi, deb gapirishardi. Aftidan, o'g'irlagan bug'doyining pulini o'sha o'ynashiga sarflagan ko'rinadi. Mayrash Saparguldan bo'yida bo'lib qolibdi, degan mish-mishlar ham tarqaldi.

Kuz keldi. G'allani o'rib-yig'ib olishdi. Dasturxonlar to'kin-sochin bo'ladigan payt ham keldi. Mo'nqo'lay chol kenja o'g'lini uylantirdi, katta to'y qildi. Asipa eng yaqin qarindoshi bo'lgani uchun ham dasturxon yasatishga ertalabdan qarashdi, kechqurun, odamlar kela boshlaganida, sekin uyiga ketdi. Birdan eshik ochilib, ostonada Saparqul paydo bo'ldi. U shirakayf edi, egnida yangi ofitserlar kiteli, pogoni yo'q, oyog'ida yangi xrom etik.

— Sen to'yga ketgan bo'lsang kerak, deb o'ylovdim, — dedi u. Jiyanini ko'tarib, yuzidan o'pdi-da, keyin yana yerga tushirib qo'ydi.

— Butun ovul yig'iladi-yu, — dedi opasi past ovozda.

— Yig'ilsa nima bo'pti? — deb so'radi Saparqul hushyor tortib.

— Odamlarning ko'ziga qanday qarayman? — deb so'radi alam bilan opasi.

Saparqul hech nima demadi-da, o'z xonasiga kirib ketdi. U etigini yechib, uyning bir burchagiga ulohtirdi-da, yechinmasdan o'zini karavotga otdi. Anchagacha to'lg'anib yotdi, hech uxlay olmadi, nihoyat o'rnidan turdi-da, Asipaning xonasiga kirdi. Opasi o'g'lining shimini tikib o'tirardi, ko'zlari shishib ketgandi, yig'lagan bo'lsa kerak. Saparqul miq etmay turardi. Asipa boshini ko'tarmasdi.

— Uni baribir qamashardi. Uyidan bug'doy topishdi-ku... — dedi Saparqul, go'yo o'zini oqlagan bo'lib.

— Mening bundan xabarim yo'q, — dedi opasi.

— Unga shuncha yil berishar, deb o'ylamovdim, bir tanish militsioner, ko'pi bilan ikki yil beradi, degandi.

Asipa indamasdi.

— Men kamini to'g'rilardim, to'ldirardim. Kutilmaganda reviziya kelib qoldi-ku... Nima, qamoqqa o'z ixtiyorim bilan borishim kerakmidi. Uni qutqarish qo'limdan kelmaydi, o'zim ilinishim mumkin. Qamalib ketsam, o'g'ling bilan seni kim boqadi?

Asipa qo‘liga ignani sanchib oldi. Ko‘rsatkich barmog‘idan qon chiqdi.

— Bir kunimizni ko‘rardik. Ovuldagilar bizni och qoldirishmas, — dedi u.

— Xo‘sh, nima qil deysan?! — deb so‘radi Saparqul vahimaga tushib.

— Vijdoning buyurganini qil, — deb javob berdi opasi qat’iy.

— Nahot o‘sha cho‘loq daydi senga o‘z tug‘ishgan ukangdan yaqin bo‘lsa?

— Yo‘q, yaqinmas. Lekin u asl odam, — deb sekin javob berdi opasi.

— Ha, shundaymi! Qoyil-ey! U odam-u, men odam emasmanmi? Hademay farzand ko‘raman! — deb baqirdi Saparqul jazavasi tutib. — Mensiz hammang xor-zor bo‘lasan!

— Yo‘q, men ortiq chiday olmayman... Sen qutulib qolganingga xursandsan, u bo‘lsa mardlik qilganidan faxrlanadi, odamlar esa hech nimani bilishmaydi. Bitta men bilaman, hammasini bilaman, hammadan ko‘p azob chekyapman. Ko‘chaga chiqishga uyalaman, hamma menga qarayotganday, shivir-shivir qilishayotganday, qo‘li bilan uyimizni ko‘rsatishayotganday bo‘ladi. Bu kunimdan ko‘ra, o‘zim qamalganim, sakkiz yil o‘tirib chiqqanim ma’qul edi...

— Ha, unday bo‘lsa, bor, hammasini prokurorga gapirib ber! Meni kelib olib ketishsin. Lekin uni darrov bo‘shatadi, deb o‘ylama. Uning ham gunohi og‘ir, osonlikcha qutulolmaydi, — Saparqul stuldan yangi kitelini oldi-da, eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi.

* * *

Asipa ukasini ertalabgacha kutdi. U, ukam mana hozir kirib keladi-yu, o‘z azm-qarorini aytadi, aqalli o‘z qilmishini oqlaydigan asosli dalil-isbotlar keltirib, sal bo‘lsayam meni tinchitadi, tashvishimni yengillashtiradi, deb o‘ylardi. U ukasini bunchalik qo‘pol, surbet deb o‘ylamagandi. Lekin ukasi kelmadi. Keyingi kunlarda ham daragi bo‘lmadi, go‘yo yer qa’riga kirib ketganday edi. Ortiq kutishga toqati qolmadi, bir kuni kechasi Asipa Mayrashnikiga borishga majbur bo‘ldi.

Uyning derazasida chiroq ko‘rinmadi. Asipa derazani sekin taqillatdi.

— Kim u? — deb so‘radi xasta ovozda Mayrashning qaynatasi, Saidvaqqos.

— Menga Mayrash kerak edi, — dedi Asipa qo‘rqa-pisa.

Chol anchagacha ivirsilab yurdi, ihrab-sihradi, boshsa xonaning eshigini ochib, eshitilar-eshitilmas kelinini chaqirdi. U shu qadar sekin chaqirdiki, go‘yo uni uyg‘otib yuborishdan cho‘chiyotganday edi.

— Sizga nima kerak? — deb so‘radi Mayrash uyqu aralash.

— Meni kechirgin, qizim, seni so‘rab kelishdi, — dedi chol aybdor odamday.

— Kim keldi, Saparqulmi? — deb so‘radi ayol seskanib tusharkan.

— Yo‘q. Opasi, — dedi chol xuddi uzr so‘raganday.

— Unga nima kerak ekan? — deb so‘radi Mayrash qo‘rslik bilan.

— Bilmadim, derazaning tagida turibdi, bitta ko‘ylakda...

— Uni haydab yuboring! — deb buyurdi Mayrash.

— Oldiga chiqib, gaplashsang bo‘lardi, balki bir kor-hol bo‘lgandir, — dedi chol qo‘rqa-pisa.

— Mendan nima istaysiz? — Mayrash deraza oldiga keldi.

Asipa shoshib qoldi-yu, lekin shu zahoti o‘zini qo‘lga oldi.

— Meni kechirgin, azizim, sendan bir narsani so‘ragani keluvdim, hozir ukamning qayerdaligini balki sen bilarsan? — qaynatasi eshitmasin, deb sekin so‘radi.

— Ukangizning qayerdaligini men qayoqdan bilay? Bilsam, shunday yuzini shilib olardim! — deb baqirib javob berdi Mayrash.

— Sekinroq, qaynatang eshitib qoladi-ku, har holda, keksa odam,— dedi sekin Asipa.

— Eshitsa-eshitaversin! Ukangiz meni sharmanda-yu sharmisor qilib, o‘zi qochib qoldi. Men tentak unga ishonib o‘tiribman-a, ovulda qornimni qappaytirib yurdim-a, hamma ko‘rdi! Butun urug‘-aymog‘ingizga qirg‘in kelsin. Ming la’nat! Ko‘rarga ko‘zim yo‘q! — deb baqirdi Mayrash jazavaga tushib.

Xonaning bir chetida cholning beso‘naqay qorasi ko‘rindi.

— Hoy, hoy, qizim, tinchlan, o‘zingni bos. Shamollab qolasan. Bor, yotgin, u bilan o‘zim gaplashaman. Axir, bu bechoraning hecham aybi yo‘g‘-u,— dedi chol xotirjam.

— Hech kimni ko‘rgim yo‘q. Hammang razilsan! Hammang, bittang ham odam emassan! Sen ham o‘shalarning birisan! U o‘lganidan keyin uyimga ketaman, desam, nega javob bermading? Nega meni ushlab o‘tiribsan? Bola ko‘rmaganimga, nevaralik bo‘lmaganingga, nima, men aybdormanmi? Bir oy! U bilan atigi bir oy yashadim. Urushgacha bir hafta, urushdan keyin yigirma kun. Gitlerning o‘qidan o‘lish peshanasiga yozilgan ekan, uyga qaytib kelib nima qilardi? Menga javob bering, yo‘qsa, jinni bo‘lib qolaman! Bu g‘am-g‘ussalarga, sharmandalikka men ortiq chiday olmayman. Hammang baloga giriftor bo‘lgaysan! Hammang! Butun ovuling bilan! — ho‘ngrab yig‘lardi Mayrash.

Chol indamay uning qo‘lidan ushladi-da, xuddi yosh bolani yetaklaganday, boshqa xonaga olib kirib ketdi (keksa Saidvaqqosning yakka-yu yagona o‘g‘li frontdan mayib bo‘lib qaytdi-yu, hademay urushda olgan o‘sha jarohatlari tufayli dunyodan o‘tdi). Chol yosh kelini bilan qoldi, uni juda yaxshi ko‘rardi, qizim-qizim, deb erkalardi. Mayrash o‘z ovuliga intilar, chol bo‘lsa, meni yolg‘iz tashlab ketmagin, deb yalinib-yolvorardi. “Oldimda yana bir hafta, yana bir kun bo‘lgin, uch-to‘rt kunlik umrim qoldi”, — deb iltijo qilardi u ko‘zlariga yosh olib. Ha, aytmoqchi, cholning ko‘zlari doim yoshlanib turardi, uning yig‘layotgan-yig‘lamayotganini bilib bo‘lmasdi.

Asipa deraza oldida birpas turdi-da, keyin ketdi. U uyiga yaqinlashganda chol orqasidan yetib oldi.

— Sen kelinimdan xafa bo‘lmagin, uni kechirgin! Mening undan boshqa hech kimim yo‘q. O‘zi yaxshi, meni o‘z otasiday hurmat qiladi, issiq-sovug‘imga qaraydi. Ukang yaxshi ish qilmadi. Ularning turmush qurishini istovdim. Sezsam ham sezmaslikka olib yuruvdim. Turmush qurishar, bola-chaqa qilishar, ovulimizda qolib, oldimga xuddi o‘z qizimday kelib turadi, deb o‘ylovdim, — chol yoshlangan ko‘zlarini yengi bilan artdi.

— Kechirasiz, ota, sizni hecham ranjitmoqchi emasdim, — dedi Asipa eshitilar-eshitilmas qilib, keyin shosha-pisha uyiga kirib ketdi.

Asipa Mayrash va uning qari qaynatasi bilan uchrashganidan keyin butunlay halovatini yo'qotdi, kechasi bilan to'lg'anib, uxlay olmay chiqdi, bir beshikda katta bo'lgan, bir onaning ko'kragini emgan, tug'ishgan ukasining shunday razil, nomard chiqqaniga sira ishongisi kelmasdi. U, ukam shunchaki qo'rqoqlik qilgan yo yoshlik qilib yanglishgan, nima ish qilib qo'yganini, boshqalar ko'ziga yomon ko'rinishini hali ham oxirigacha tushunib yetmagan, deb o'zini o'zi ishontirmoqchi bo'lardi, axiri, hamma aybiga iqror bo'ladi, halol, to'g'ri odamlarday o'zi kelib, qo'lidan kelgan hamma yaxshiligini qiladi, degan umidda edi. Lekin vaqt o'tib borar, ukasidan esa dom-darak yo'q edi. Vaqt o'tgan sayin u tug'ishgan ukasini tobora yomon ko'ra bordi, uzoq-uzoqlarda, begona yurtda, yot, bemehr odamlar orasida qolib ketgan o'sha oromi yo'q majruh odamga mehri ixlosi orta bordi. Nega endi to'g'ri, halol odam azob tortishi kerak? Nega? O'zi uchun kurasholmagani, o'z or-nomusi, pokligini himoya qilolmagani uchunmi? Balki Abilqosim hali o'zligini anglab yetmagandir, o'z qadrini bilmas, shuning uchun ham o'ziga o'zi ayanchli, ojiz ko'rinar? Lekin baribir qachonlardir u bor haqiqatni bilishi kerak-ku!

Asipa Mayrash haqida o'yladi deguncha ukasi ko'ziga battar yomon ko'rinardi. Yosh ayolni, g'am-g'ussadan ko'ngli vayron bo'lgan qari cholni aldashga qanday haddi sig'di?

Saparqul ojiz, unga zarba berishga qodir bo'lmagan odamlarga hukmini o'tkazib, baland kelib yurganini Asipa mana endi tushundi. Bu razillik-ku! Xo'sh, shunday ekan, nega endi yovuzlik, razolat ezgulikdan ustun kelishi, inson ishonchi, orzu-umidi, chuqur, samimiy sevgisi xo'rlanishi, toptalishi kerak? Axir, bunday holda eng yaqin odamingni ham kechirib bo'ladimi? Agar to'g'ri, halol odam o'zgalarning loqaydligi, beparvoligi tufayli qoqilsa, yiqilsa, joniga hech kim ora kirmagani uchun xarob bo'lsa, bunga kim aybdor?!

Asipa bir ishga jazm qildi-yu, lekin anchagacha yuragi dov bermay yurdi, holbuki Abilqosimdan xat olganidayoq bu fikr ko'ngliga

keluvdi. Ayol bu haqda o‘ylamaslikka, bu fikrni miyasidan chiqarib tashlashga urinar, lekin u Asipani hamma yerda ta’qib etar, undan bir zum qochib qutulolmas, hamisha qulog‘ining tagida eshitilib turardi, misoli xira pashshaday g‘ing‘illagani g‘ing‘illagan edi.

Asipa o‘quvchilarning katak daftaridan qo‘shaloq varag‘ini yirtib oldi-da, harflarni dona-dona qilib yoza boshladi:

“O‘rtoq prokuror, akamni bo‘shatishga yordam bering...”

Tong saharda uy oldiga to‘rt g‘ildirakli yengil arava kelib to‘xtadi, unda ikki kishi o‘tirardi.

— Men hozir, tezda chiqaman! — dedi ulardan biri o‘rnidan turarkan.

Bu Saparqul edi.

U uyga kirib, kiyimlarini chamadonga joyladi. Keyin jiyanini o‘pmoqchi bo‘lib boshqa xonaga kirdi. Opasi uxlab yotardi. Asipaning prokurorga yozgan xati stol ustida qolgandi, Saparqul uni o‘qib chiqdi-da, shartta ikkiga bo‘lib, polga tashladi. U avvaliga anchagacha nima qilarini bilmay, taraddudlanib turdi, keyin yerdan xat parchalarini oldi-da, cho‘ntagiga soldi, telpagini bostirib kiyib ko‘chaga chiqdi. Aftidan, u Asipaning yana xuddi shunday xat yozishini fahmladi shekilli... U opasining fe’l-atvorini yaxshi bilardi.

— Ketdik! — dedi u aravada o‘tirgan odamga.

— Shahargami?

— Yo‘q! Mayrashnikiga!

Aravakash tizginni siltadi, arava chang yo‘lda taraqa-turuq qilib yo‘lga tushdi.

Qotmagina, yoqimtoygina, ayol kishidan ko‘ra ko‘proq qiz bolaga o‘xshab ketadigan Mayrash Saparqulning ko‘ksiga otilib, uning bo‘ynidan quchoqladi.

— Keldingmi?! Nega buncha hayallab ketding, qayoqlarda yuribsan! Men, nodon, men tentak, nimalarni o‘ylamadim, nima xayollarga bormadim? Meni kechirgin, kechirgin, jonginam, azizim... — dedi ovozi titrab.

Saparqul hech nima demadi, uni yengilgina ko‘tardi-da, keyin yana yerga tushirib qo‘ydi.

— Sovuq yebsan-ku...

— Kun sovuq, — dedi u qisqagina qilib, keyin telpagini oldi-da, kursiga og‘ir cho‘kdi.

Mayrash uning sovqotgan qo‘llarini ushladi-da, o‘ringa tortdi.

— Hademay tong otadi, — dedi u o‘rnidan turmasdan.

— Nima bo‘pti?

— Quyosh chiqadi-yu...

— Nima, quyoshdan qo‘rqasanmi?

— Ko‘chada odam kutib turibdi.

— Kutsa-kutar, — Mayrash qo‘llari asabiy titrab, Saparqul po‘stinining tugmalarini yecha boshladi.

Saparqul cho‘ntagidan xat parchalarini oldi.

— Bu nima?

— Ustimdan yozibdi. Shunday bo‘lishini biluvdim, — dedi u ma’yus va devorda osig‘lik turgan qog‘oz ramkadagi soldat portretiga qarab qo‘ydi.

— Qaynatang qani? — deb so‘radi u.

— E, qo‘y, uni gapirma! Juda qarib qoldi. Yig‘lagani yig‘lagan. Meni tashlab ketmagin, deydi. Sen ham o‘g‘lim, ham nevaram o‘rnidasan, deydi. Kecha kasalxonaga ketuvdi. Uni yotqizishgan bo‘lsa kerak. Xo‘sh, nega terakday qaqqayib turibsan? — Mayrash uni o‘ziga qattiq tortdi. Saparqul o‘rnidan turdi-da, oyna oldiga keldi. Aravakash arava oldida u yogdan bu yoqqa yurib turardi, qo‘lqopli qo‘llarini bir-biriga urib qo‘yardi.

Mayrash “hm-hm”, dedi-da, lablarini cho‘chchaytirdi.

— Sen xatni o‘qigin, — dedi Saparqul.

— E, xatni boshimga uramanmi! — ayol qo‘lini yostiq tagiga tiqib, xatni oldi-da, uni polga otib yubordi.

— O‘rningga yot. Senga shamollash mumkinmas, — dedi Saparqul.

— Endi mumkin! — deb qo‘rslik bilan javob berdi Mayrash.

Saparqul unga boshdan oyoq razm solib chiqdi-da, Mayrashning yana xushbichim, nozik bo‘lib qolganini endi payqadi.

— Nima ish qilib qo‘yding, tentak? — deb so‘radi u, Mayrashning ozg‘in yelkalaridan ushlab.

— Hech nima. Seni birov yo‘q bo‘lib ketsin, dedimi, — dedi juvon sovuqqina qilib, keyin uning qo‘llarini yelkasidan olib, teskari qarab oldi.

Saparqul xatni oldi, po‘stinini kiyib, telpagini bostirib, ko‘chaga chiqdi. Mayrash eshikning taraqlab yopilganini eshitib, birgina ichki ko‘ylakda uning orqasidan chopdi, yetib oldi-da, Saparqulning etagidan ushladi.

— Yo‘q! Qo‘yib yubormayman! Qilg‘iliqni qilib, meni butun ovulga sharmandayi sharmisor qilib, endi quyon bo‘lmoqchimisan-a? — deb baqirdi Mayrash.

— Ha... — deb Mayrashni yengilgina turtdi-da, chiqib ketdi.

— Ketdik! — deb buyurdi u aravakashga.

— Shahargami? — deb so‘radi u.

— Yo‘q. Prokurorning oldiga, — deb javob qildi Saparqul.

— Nega? — deb so‘radi aravakash hayron bo‘lib.

— Sudda hammasini bilib olasan, — dedi Saparqul xotirjam.

* * *

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay Abilqosimning ishi qaytadan ko‘rildi. Saparqulga o‘z aybini isbotlash aytarli qiyin bo‘lmadi.

Frunzedan chiqqan marshrut avtobusi yarim kechada katta tosh yo‘l yoqasida bir zumga to‘xtadi. Mashinadan kichkina tugun ko‘targan kishi tushdi-da, so‘qmoq yo‘ldan ovul tomonga oqsoqlanib yurib ketdi. U eski qabristonga yetganda to‘xtab qoldi.

Maqbara yog‘och devor bilan o‘rab olingandi, eshigiga qulf solingandi. Abilqosim gugurt chaqib, taxtachadagi yozuvni ajablanib o‘qidi: “Qadimiy yodgorlik. Kirish mumkin emas. Davlat tomonidan muhofaza qilinadi”. Abilqosim ko‘hna maqbara oldida uzoq turdi... Keyin o‘zi yurib o‘rgangan yo‘ldan ovulga ko‘tarildi. Uning uyi joylashgan uchastkada makkajo‘xori poyalari chayqalib turardi, go‘yo bu yerda hech qachon, hech kim yashamaganday edi. faqat azim daraxt ko‘p narsani eslatib turardi. U go‘yo o‘z ovuliga qaytib kelgan sayoq o‘g‘lini quchmoqchi bo‘lganday shoxlarini mehr bilan har tomonga yozdi. Abilqosim qari qayrag‘och oldiga keldi-da, yuzini uning g‘adir-budur tanasiga bosdi. “Sen meni kut-

ganmiding, og‘a?” — deb so‘radi Abilqosim. Go‘yo ming-minglab qo‘ng‘iroqchalar jiringlaganday barglar baravariga shivirlashib javob berishdi.

Abilqosim Asipaning uyi oldiga qanday borib qolganini o‘zi ham bilmay qoldi. Bu yerda deyarli hech nima o‘zgarmagandi, faqat ko‘cha eshigi bir tomonga og‘ib qolgandi. Ha, demak, uyning erkagi yo‘q ekan-da. Derazalar qop-qorong‘i edi. Abilqosim ko‘zlarini yumdi, derazalar yorishib ketganday bo‘ldi. Abilqosim bu uyga kelishga ko‘pdan buyon intilardi... Ehtimol, butun umri bo‘yi intildi. Mana endi yetib kelganida negadir o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Qo‘llari qaltirardi. O‘pkasi to‘lib ketdi. U eshikni taqillatdi.

— Kim u? — deb so‘radi ayol kishi.

Abilqosim turgan joyida qotib qoldi.

Eshik ochildi. Chiroq yarq etib yondi.

Ayol bilan bola ostonada xijolatdan nima qilarini bilmay kulimsirab turgan kishini ko‘rishdi...

— Bu menman... — dedi u.

... Kechasi maktabda yolg‘iz o‘zi o‘tirgan Abilqosim boshini ko‘tardi. Pechkaning olovi o‘chay-o‘chay deb qolgandi. U pechga o‘tin tashladi-da, maktabni berkitib ko‘chaga chiqdi. Pag‘a-pag‘a qor yog‘ardi. Maktab qarshisidagi uyning derazasida chiroq bor edi. U deraza oldiga keldi, oppoq, momiq qorda uning qing‘ir-qiyshiq izlari qoldi.

BIROVNING BAXTI

Tong payti... Issiqko'l vodiysidagi ovul. Uzun, to'g'ri ko'chalar. Mirzateraklar saf tortib turibdi. Usti cherepitsa va shifer bilan yopilgan oppoq, yangi uylarning shunday yonginasida eski, ko'rimsiz loy tomli uylar. Qayerdadir tog' daryosi shovullaydi. Taqachilik do'konidan temirning jarang-jurungi eshitiladi. Halqa-halqa tutun chiqarib traktor tarillaydi. Kimdir skripka gammani chaladi: do-re-mi-fa-sol-la-si-do-o, do-si-la-sol-fa-mi-re-do-o...

Ko'chaning oxirida odamlar uymalashib turishardi. Oppoq soqolli Usmonbek oyoqlari bog'langan bir yashar bolaning qo'lidan ushlab turardi. Ko'chaning narigi boshida bolalar tizilishgan.

Usmonbek qo'l siltadi, bolalar ko'lmak suvni har tomonga sachratib chopib kelishdi.

Marraga yaqin qolganda novcha o'spirin oldinga otilib chiqdi-da, pichoq bilan bolaning oyoqlari bog'langan chilvirni kesib yubordi. Usmonbek bolani baland ko'tarib, qichqirdi:

— Shu bugundan boshlab o'zing yurishing kerak!

U kichkina odamni yerga qo'ydi. Kichkina odam qo'rqa-pisa bir-ikki qadam yurdi-da, yiqilib tushdi, lekin shu zahoti o'rnidan turib dadil yurib ketdi.

Bola yurib borardi. Yonma-yon uning soyasi qadam tashlardi. Mana u yuzini quyoshga o'girdi. Soyasi orqasidan ergashib borardi. Usmonbek xurjunini yechib, bolalarga olma ulasha boshladi.

Bolaning onasi kosadagi bo'g'irsoqni shu yerdagilarga ulashib chiqdi.

Qirg'iz ovulida ba'zida kun mana shunday boshlanadi.

* * *

...Ovul chetida kolxozchilar to'planishdi. Bu yerda montajchilar ham, rayon vakillari ham, radio muxbirlar-u, kino xodimlari ham bor edi. Radioreportor kichkina mikrofonni og'ziga tutib gapirardi:

— Shunday qilib, biz "Yorqin yo'l" kolxozidamiz. Bugun bu yerda katta voqea — elektr shoxobchasining birinchi ustuni o'rnatiladi. Ikki yildan keyin har bir kolxozchi xonadonida Ilich chiroqlari porlaydi...

Taxtalarni qoqib, naridan beri ishlangan minbarga egniga jujuncha kitel, oyog'iga etik kiygan, yoshi anchaga borgan bo'lsa ham hali tetik, baquvvat bir odam ko'tarildi. Odamlar uni qarsaklar bilan kutib olishdi.

— Hozir minbarda kolxoz raisi Abdurahmon Qorag'ulovich Qorag'ulov — xo'jalik tilini yaxshi biladigan odam, urush veterani. U qanchadan qancha yaxshi, ezgu ishlarga bosh-qosh bo'ldi: u kolxoz qurilishiga birinchi g'ishtni qo'yganlardan. Kollektivlashtirishni o'tkazdi. Keling, u kishining gapini eshitaylik, — reportor mikrofonni minbarga yaqin qo'ydi.

— O'rtoqlar! — deb gap boshladi rais lampochkani qo'lida ushlab turarkan. — Hademay ovulimiz hayotida muhim tarixiy voqea sodir bo'ladi. Butun yer kurrasini yoritib turgan kattakon quyoshdan tashqari har bir xonadonning mana bunday kichkina o'z quyoshi bo'ladi! — u lampochkani baland ko'tardi. Lampochka quyosh nurida yaraqlab ketdi.

To'planganlar qarsak chalishdi. Qirg'izlar ta'rif-u tavsifning qadriga yetishadi.

Keksa rejissor Birkin suratga olayotganlarga rahbarlik qilardi. Operator Abdurahmonning mamlakatimizda elektrlashtirishning muhimligi haqida gapirganini, yerda yotgan ustunning oldiga kelganini, kitelini yechib, yenglarini shimarib, montajchilar bilan birga uni ko'targanini, kurak olib, chuqurga birinchi bo'lib tuproq tashlaganini suratga oldi. Hademay ustun tantanali bir vaziyatda ko'mib bo'lindi.

Birkin kinochilarning "Gazik" mashinasi oldiga keldi. Tepsa-tebranmas yosh shofyor boshini mashina ruliga qo'yganicha mudrardi. Birkin bir shisha shampan vinosini oldi. Shofyor stakanlarni olib, barmoqlari bilan u yoq-bu yog'ini artgan bo'ldi. Birkin "juda nodonsan-da", degandek peshanasiga bir urib qo'ydi, keyin o'zi hozirgina o'rnatilgan ustun oldiga chopib ketdi. U shampanni eng chiroyli, yasan-tusangan ayol — Saodatga uzatdi-da, shishani

ustunga urib sindiring, deb tushuntirdi. Saodat uyalganidan dovdirab qoldi, shunday obizamzamni bekorga isrof qilishning nima keragi bor, yaxshisi, ichib qo'ya qolaylik, deb har tomondan maslahat bera boshlashdi.

Nihoyat, shisha urib sindirildi, operator uning chil-chil bo'lib singanini, montajchi Sotqinning bo'ynidagi sim o'rami bilan ustunga chiqqanini suratga oldi. Odamlar chapak chalishdi.

Abdurahmon ro'molchasi bilan peshana terini artdi-da, probirkadan dori olib, tilining tagiga tashladi.

— Validolmi? — deb so'radi kimdir.

— Vitamin, — deb javob qildi u hazilomuz, keyin xuddi yoshlarday qaddini rostladi-da, operatorlarning ishini kulimsirab kuzatib turdi.

* * *

Raisning qabulxonasida yoshgina bir rus ayoli bolasini emizib o'tirardi. Shunday yonida eri — buldozerchi Omon Choriqov o'tiribdi — u barmog'i bilan mashinkani chertardi. Qo'ng'iroq chalindi. Ayol chaqaloqni eriga berdi-da, oppoq, tarang ko'kragini berkitdi, bola chirillab yig'ladi. Ayol rais xonasiga kirib ketdi.

Tamaki hidi dimoqqa urildi. Rais mushtini stolga qo'yar, barmoqlari bilan stolni chertar, kimgadir do'q-po'pisa qilar, kimningdir ta'zirini berar, yetti yillikni oshirib bajaramiz, degandek, gazetani chertib qo'yardi. Kabinetda o'tirganlar miq etishmasdi.

Sekretar ayol chiqdi-da, yig'layotgan bolani qo'liga oldi.

— Malaboy amakini chaqirgin! — dedi u.

Omon pravleniyedan chiqib ketdi. Qorong'i tun edi.

U gulga kirgan olmazor oldiga keldi-da, bog' eshigini osongina ochdi, hovlinin g yuqorisidagi pastak uyni topib, eshigini qoqdi. Bukchaygan, soch-soqoli oppoq bir chol chiqdi.

— Rais chaqiryapti! — dedi Omon.

— Hoy, nodon, o'qimagan cho'pon, axir, bu senga yaylov emas, bog'-ku!

— Qonun chiqqanmish: har oilaga yetti sotix yer berarmish, qolgani kolxozga o'tarkan. Sizning uchastkangiz ikki oilaga yetadi, bitta o'zingiz turasiz, — deb tushuntirdi Omon.

— Xo‘sh, men o‘zimdan keyin odamlarga nima qoldiraman? O‘g‘limni bo‘lsa Gitler o‘ldirdi, — dedi chol.

Omon hech nima demadi, bir zum turdi-da, bog‘ oralab chiqib ketdi. Oppoq olma gullari uning yelkasiga xuddi qor uchqunlariday to‘kilardi.

* * *

Rais bilan pravleniye a’zolari Malaboyning uyi oldida turishardi.

— Malaboy amaki! — Abdurahmon eshikni qoqdi. — Davlat sizni yedirsa-ichirsa, kiyintirsa-yu, siz bo‘lsangiz o‘z huzuringizni o‘ylab, umumiy ishimizga to‘g‘anoq bo‘lsangiz. Bu yoqqa chiqing, yaxshimas...

Eshik ochilib, Malaboy chiqdi.

— Bog‘ingiz yaxshi. Lekin ilojimiz qancha? Rost, mumkin emas, deyishdimi, bizam shunga yuramiz-da. Sizda ortiqcha yer bor. Bordi-yu, tekshiruv kelib qolsa-chi? — rais allaqanday qog‘ozlarni oldi-da, cholga uzatdi. — Mana, ko‘rsatma, biz kichkina odamlarmiz. Nima deyishsa, shuni qilamiz.

Chol go‘yo o‘qimoqchi bo‘lgandek qog‘ozlarii oldi. Kimdir cho‘ntak fonari bilan yoritib turdi.

— Axir bu ishning ko‘pchilikka foydasi tegarkan, har birimiz o‘zimizni emas, ko‘pchilikni, xalqni o‘ylab ish tutishimiz kerak, — dedi Abdurahmon, o‘zicha cholni ko‘ndirdim, deb o‘ylab.

— Men savodsiz bir odamman, — dedi chol, qog‘ozlarni buklab qaytarib berdi-da, uyiga kirib, eshikni berkitdi.

— Buldozer, — dedi Abdurahmon qisqagina qilib. Bog‘ oldiga buldozer kelib, atrofning, odamlarning yuzini yoritdi. Rulda Omon o‘tirardi. Ko‘ksiga qishloq xo‘jalik akademiyasining nishonini taqib olgan yosh agronom yigit o‘chib qolgan papirosining qoldig‘ini chaynardi.

Buldozer dahshatli tarillab, misoli sherday yosh daraxtlarga hamla qila ketdi, lekin oldindagi ingichka, nozik olma ko‘chati oldiga borganda to‘xtab qoldi.

Omon yuzini artdi.

— Ha, qani, yoshlar, boshlanglar! — dedi Abdurahmon.

Po‘lat sher orqasiga sal tisarilib, oldinga zarb bilan otildi. Birinchi olma daraxti qasirlab yerga ag‘darildi, keyin ikkinchisi. Ilk olma gullari yerga xuddi qor uchqunlariday duv to‘kildi. Omon mashinasini to‘xtatdi.

— Ha, bo‘sh kelma! Oramizda molparast bor ekan, kommunizm qurolmaymiz! — deb qichqirdi rais.

Omon mashina kabinasidan tushdi-da, indamay nari ketdi. Abdurahmon uning orqasidan biroz qarab turdi-da, keyin brigadirga rulga o‘zing o‘tir, degandek ishora qildi.

Po‘lat sher bog‘ni yanchishga tushdi. Daraxtlar egilar, qarsillab sinar, yerni o‘pib, vidolashar, qaddini rostlamoqchi bo‘lib tipirchilar, lekin yana ag‘darilardi, unsiz jon berardi. Olma gullari yerga xuddi so‘nggi qorday to‘shalardi.

Agronom bo‘lsa papiros qoldig‘ini chaynaganicha hamon serrayib turardi.

* * *

Ertalab Malaboy uyining oldida o‘tirardi, bog‘ esa oyog‘i ostida payhon bo‘lib yotardi. Faqat uyining oldidagi uch-to‘rt tup yirik olma daraxtlarigina qolgandi. Oldida o‘tirishgan bolalar undan ko‘zlarini uzishmasdi. Buldozer xuddi yovvoyi hayvondek sal narida qornigacha loyga botib yotardi. Aftidan, kechasi mashina yumshoq tuproqqa to‘g‘ri kelgan-u, tiqilib qolgan.

Abdurahmon sekretar qizga buyruqni diktovka qilardi:

— Omon Choriqovning bu ishi keyingi vaqtlarda mehnat intizomini buzuvchilar ancha ko‘payib qolganidan dalolat beradi... Sabotaj... sa-bo-taj va bo‘yin tovlagani uchun Choriqov ishdan chetlatilsin...

Sekretar ayol boshini ko‘tardi — uning yozgisi yo‘q edi.

— Sening Omoning mashinani tashlab ketdi. Ertaga boshqalar ham mana shunday hunar ko‘rsatishlari mumkin, — deb tushuntirdi Abdurahmon.

Ayolning yozgisi yo‘q edi.

— Nima, mashinkaga o‘zim o‘tiraymi? — deb so‘radi rais.

Ayol bir zum o‘ylanib turdi-da, birdan mashinka tugmalarini shatirlatib bosa ketdi. Uning lablari titradi... Mashinka quruq, dag‘al taqillardi.

* * *

Ovuldagilar chopib kelishganda Malaboyning uyi lovullab yona boshlagan edi. Shunday yonidagi katta ikki tup olma daraxti ham yonardi.

Kimdir o‘tni o‘chirmoqchi bo‘lardi.

— O‘zi o‘t qo‘ydi! O‘zi o‘t qo‘ydi-yu, jo‘nab qoldi! — deyishdi bolalar.

Uyning oldiga Abdurahmon keldi. Odamlar o‘tni o‘chirishdan to‘xtab, unga qarashdi. Abdurahmonning ko‘zlarida olov aks etdi. Odamlar churq etishmasdi. Yonayotgan uy chirsillardi. Abdurahmon o‘girildi-da, pravleniye tomonga ketdi. Odamlar uning orqasidan qarab qolishdi. Ularning ko‘zlarida alanga aks etardi.

* * *

Sal bukchaygan, yog‘och chamadon ko‘targan odam dala yo‘lidan ketib borardi. Bu Malaboy edi. “Gazik” mashinasi unga yetib oldi.

— Malaboy amaki, rais chaqiryapti! — deb qichqirdi yosh shofyor.

Chol indamay ketaverdi.

— Qayoqqa ketyapsiz, Malaboy amaki?

— Keksalar yashaydigan bolalar uyiga, — deb javob berdi Malaboy.

“Gazik” yonma-yon borardi.

* * *

Abdurahmon o‘z kabineti derazasi oldida turib, Malaboyning uyiga qaradi. O‘tda kuygan olma daraxtlari qorayib ko‘rinardi. Xaroba tutab yotardi.

— Keksalar yashaydigan bolalar uyiga, degin? Uni bekor qo‘yib yuboribsan, — dedi Abdurahmon o‘zigami, shofyorigami gapirganday.

Yigit yelkasini qisdi-da, chiqib ketdi.

Yuzi zohidlarnikiday nozik, bo'yniga jun sharf o'rab olgan bosh buxgalter kirdi-da, raisga qog'oz uzatdi.

— Superfosfat, — dedi bosh buxgalter.

Abdurahmon qog'ozga qo'l qo'ydi.

— Individual qurilishlar bo'yicha smeta, — dedi bosh buxgalter.

— Bu keyinroq, — dedi Abdurahmon qog'ozni surib.

Bosh buxgalter chiqib ketdi.

Abdurahmon birpas o'tirdi-da, keyin qo'ng'iroqni bosdi, lekin hech kim kirmadi, yana bosdi. Sekretar ayol kirdi, yo'l-yo'lakay ko'z yoshlarini artdi.

— Nima bo'ldi, tinchlikmi, Vera?

— Hech nima...

— Unday bo'lsa nega yig'layapsan?

— Omon uydan ketib qoldi...

— Qayoqqa ketdi?

— Shaharga. — Uning lablari titradi. — Menga, sen cho'risan, dedi. Endi ichkilikka berilib ketadi...

* * *

Medpunktda ko'zlari mehr bilan boquvchi yoqimtoy qiz — Aynur shprislarni qaynatardi. Qabulga siyrak soqolli Qodir chol kelgandi. Boshiga doktorlar shapkachasini kiyib olgan Saodat cholning qo'l bo'g'imlarini ushlab ko'rardi. Chol kar edi, shuning uchun ham go'yo u daryoning narigi sohilida turganday ovozining boricha baqirib gapirishga to'g'ri kelardi.

— Ota, bu yeringiz og'riyaptimi?

Chol bosh irg'adi.

— Bu yeringiz-chi? — Saodat tizzasini ko'rsatdi.

Chol bosh irg'adi.

— Brutselloz, — dedi Saodat.

— Nima? — deb so'radi chol.

— Brutselloz bo'libsiz, ota. Sigirlarda bo'ladi bu kasal.

— Sigirim yo'q, — sekin javob qildi Qodir.

— Sizning kasalingiz sigirlarning sutidan o‘tadi. Brutselloz deyiladi. Anchadan beri og‘riydimi?

— Og‘riydi...

— Ko‘p bo‘ldimi, deb so‘rayapman.

— Oltmish yilcha... — sekin javob qildi chol.

— Demak, revolutsiyadan oldingi kasal deng? — dedi Saodat kulimsirab.

Chol bosh irg‘adi.

— Ota, — Aynur yumshoq, uzun kursini ko‘rsatdi-da, cholni unga yotqizdi. Qodir ihrab-sihrab yotarkan, shprisga qarab-qarab qo‘yardi. Aynur ko‘ylagingizni ko‘taring, deganday ishora qildi. Chol indamay ko‘ylagini ko‘tardi, lekin Aynur, shimingizni yeching, deganida, xuddi ari chaqqan odamday o‘rnidan sapchib turdi:

— Hoy! Hoy! Hoy! — dedi u barmog‘ini do‘laytirib.

— Ota, qo‘rqmang, og‘rimaydi, — deb uni ko‘ndirmoqchi bo‘ldi Saodat.

— Bu nimasi? Bu nimasi? — chol oppoq soqolini ko‘rsatdi.

— Ota, biz mediklarmiz, bizdan uyalmasangiz bo‘ladi. Yo‘qsa, tuzalmaysiz. Mayib bo‘lib qolasiz! — deb qichqirdi Saodat.

— Sening shahardagi qonunlaring bu yerda ketmaydi! Bu yer kasalxonami yo hammommi? Sen qiz, shoshmay tur hali, otangga aytib, bir ta’ziringni berdiray! Topgan o‘yiningni qara-yu! — deb qichqirdi u Aynurga.

— Ana ko‘rdingizmi, hammasi shunaqa, — dedi Aynur ko‘zlariga yosh olib.

— Ha, mayli, orqangizga ukol qilamiz! — deb baqirdi Saodat Aynurga ko‘z qisib qo‘yarkan. Chol tinchidi, yuztuban yotdi. Saodat uning shimini shartta tushirdi-da, chol nima gapligini tushunishga ulgurmasidanoq, Aynur ignani sanchdi.

— Bezorilar! — deb baqirdi chol shimining tugmasini sololmay qiynalarkan. — Bezorilar! Qotillar! — u so‘kina-so‘kina medpunktdan chiqib ketdi.

— Bo‘ldi, ortiq chiday olmayman, Saodat Asanovna, — dedi Aynur ko‘z yoshlarini artarkan.

— Dadilroq bo‘lgin-da. Ishontirgin, talashib tortishgin, urishgin.

Aynur shprisni idishga qo‘ydi.

— Kimni urishish kerak? — ostonada soldatday baquvvat va orasta Qorag‘ulov turardi.

Ayollar uyalib ketishdi, Aynur burnini tortganicha to‘siqning orqasiga o‘tib ketdi.

— Salom, Abdurahmon Qorag‘ulovich! Vaqtida sizni bu yerga arqon bilan ham tortib olib kirolmasdig-a. Doim vaqtim yo‘q, qo‘lim tegmaydi, derdingiz.

— Umrimda bir marta kurortga borib kelmoqchiman. Chakkalarim negadir lo‘qillab og‘riydi, uyqumning ham mazasi yo‘q, nuqul bema’ni tushlar ko‘rib chiqaman. Juda charchagansiz, deyishyapti... — Rais stulga o‘tirdi.

— Yechining, — dedi Saodat qat’iy.

— Yechinish shartmi?

— Bu buyruq.

— Unday bo‘lsa, bo‘ysunamiz, — Abdurahmon beligacha yechinib, ancha baquvvat tanasini ko‘z-ko‘z qildi. Aftidan, u ayol oldida yoshroq ko‘rinish uchun muskullarini jo‘rttaga tarang qilganday edi.

— Xo‘sh, nimadan shikoyat qilasiz? — deb so‘radi Saodat, uning u yoq-bu yog‘ini ko‘rarkan.

— Kolxozchilardan, ular esa mendan...

— Qanaqa tushlar ko‘rasiz? — deb so‘radi Saodat uni uzun, yumshoq kursiga yotqizarkan.

— Tushimda meni sud qilishayotgan bo‘lishadi. Nima uchunligini o‘zim ham bilmayman. Shuni o‘ylab ezilaman. Minbarga qarasam: sudya — o‘zimman. Orqamga o‘girilsam, soqchilar — o‘zimman, sudlanuvchilar kursisida — yana o‘zimman... Sira tushunib bo‘lmaydi, — Abdurahmon kulimsiradi.

— Aynur, kardiogrammaga, — deb buyurdi Saodat va bemorni to‘siq orqasiga olib o‘tdi.

— Iye, yangi apparatura-ku! — dedi rais zavqlanib.

— Uch yil bo‘ldi-yu, — dedi Saodat.

Aynur raisni yotqizdi-da, simlarni ulay boshladi.

— Bu nimadan bo‘ladi? — deb so‘radi Abdurahmon.

— Nima?

— Tushning qaytarilishi-da...

— Odamning holatiga, kayfiyatiga bog‘liq... Balki bir nimadan hayajonlangandirsiz, asabiylashgandirsiz.

— Aytarli hech nima bo‘lgani yo‘q shekilli... Planni oshirib bajardik. Hayfsan berish xavfi yo‘q... — dedi rais.

Lentada ilonizi chiziqlar birin-ketin o‘ta boshladi.

Saodat kardiogrammani diqqat bilan o‘qib chiqdi-da, qog‘ozga allanimalarni yoza boshladi.

Abdurahmon to‘siq orqasidan chiqib, kiyina boshladi, hazillashgan bo‘ldi:

— Xo‘sh, emchilar! Yigitlarning xo‘roziman-a? Uylansam bo‘ladi-a?

Saodat unga jiddiy qarab qo‘ydi. Abdurahmon hushyor tortib, uning oldiga keldi.

— Kurortning sizga foydasi yo‘q, — dedi u.

— Nega endi?

— Sizga ishlash mumkin emas...

— Ishlash?

— Sog‘liq bilan hazillashib bo‘lmaydi! — dedi u.

Abdurahmon ayollarga qaradi. Ular jim turishardi. U birdan bo‘shashib, stulga o‘tirib qoldi.

— Ishdan chiqibmiz-da? — dedi u sekin, keyin o‘rnidan turdi va medpunktdan chiqib, “Gazik” oldiga keldi.

— Sen ketaver, — dedi shofyoriga, keyin o‘zi sekin piyoda ketdi, uning ruhi tushgan, munkayib qolganday edi.

Ostonada turishgan vrach bilan hamshira uning orqasidan qarab qolishdi. U atigi yarim soat avval bu yerga kelgan Abdurahmonga sira-sira o‘xshamasdi.

* * *

Abdurahmon Qorag‘ulov raykom sekretarining kabinetida o‘tirardi. Sochlari oqargan, to‘ladan kelgan sekretar Abdurahmondan chamasi besh yosh kichik edi. Gap-so‘zlaridan ularning anchadan beri suhbatlashib o‘tirishganini payqash qiyin emasdi.

— Ha, xudo odamni yaratibdi-yu, lekin unga zaxira qism tayyorlashni unutibdi-da, — derdi sekretar. — Ko‘ra-bila turib, sog‘liqni ishdan chiqarishning nima keragi bor?

— Bu yog‘i endi pensiyami? — dedi Abdurahmon ma’yus, polga tikilganicha.

— Afsuski, bu kun hammaning boshida bor, birovga oldin, birovga keyin keladi... Biz ishlab bo‘ldik. Endi yoshlar ishlasin, yangi hayotni o‘shalarni deb qurdik, ularniyam sinab ko‘raylik-da...

— Demak, fursat kepti-da? — dedi Abdurahmon eshitilar-eshitilmas.

— Xo‘jalikni ulardan qaysi biriga ishonib topshirsa bo‘ladi, shuni o‘ylab ko‘rish kerak.

Ikki yoshi qaytgan odam jimjit kabinetda, bir-birlariga qarab o‘tirishardi.

— Malaboyning bog‘ini haydattirib, yaxshi ish qilmabsan... — deb qo‘shib qo‘ydi sekretar. — Axir, daraxtlarda nima gunoh...

* * *

Qarsaklar... Qurib bitkazilmay, chala qolgan klubda majlis borardi. Ovuldagilar o‘z raislarini pensiyaga kuzatishardi. Prezidiumda Abdurahmonning bir o‘zi o‘tiribdi. Yosh agronom minbarda turib gapirardi. U, bugun kolxozchilar o‘z raislarini pensiyaga kuzatishayotgani, endi bemalol dam olishga haqqi borligi to‘g‘risida gapirdi. Klub oldiga buldozer kelib, uning so‘zlari eshitilmay qoldi. Buldozer shartta qayrildi-da, pichog‘ini yerga tushirarkan, daraxtchaga tegib ketdi. Abdurahmonga gullab turgan olma daraxti qulaganday bo‘lib tuyuldi.

Notiq hammaning nomidan raisga sog‘lik, baxt-saodat, uzoq umr tiladi, u, aziz Abdurahmon Qorag‘ulovich o‘zlarini hecham safdan chiqqan hisoblamasinlar, chunki u kishi doim biz bilan, odamlar bilan bo‘ladi, uning xizmatlarini hech kim unutmaydi, uning qo‘lidan estafetani olgan yoshlar ishning ko‘zini biladigan, dono murabbiy sifatida u bilan hamisha maslahatlashib turadilar, deb yana ancha gapirdi.

Abdurahmon uning qo‘lini mahkam siqdi, o‘pdi va sopi bug‘u tuyog‘idan ishlangan qamchisini unga sovg‘a qildi. Zalda gulduros

qarsaklar yangradi. Abdurahmonning ko‘z yoshlari ikki yuzidan oqib tushayotganini deyarli hech kim payqamadi. Bir mahalliy shoir o‘z she’rlarini o‘qidi.

U she’rni o‘qib bo‘lib, matnini sobiq raisga topshirdi. Sahnaga bir guruh pionerlar chiqib, Abdurahmonni jo‘r bo‘lib tabriklashdi, bolalardan bittasi uning bo‘yniga galstuk bog‘ladi, Abdurahmon bolani dast ko‘tardi-da, yuzidan o‘pdi. Bola yuzini kafti bilan artib, o‘rtoqlarining oldiga ketdi.

Pionerlar baraban sadolari ostida salut berishib, chiqib ketishdi. Ular har xil kiyinishgan edi. Baravar qadam tashlashmasdi. Bitta bolaning paynog‘i hadeb tushib ketaverdi.

* * *

Abdurahmon devor bilan o‘ralmagan, pastakkina loy tomli uyiga keldi. Kampir onasi ostonada oftobda isinib o‘tirardi. Abdurahmon sovg‘alarini uning oyoqlari tagiga tashladi.

— Pensiyaga kuzatib qo‘yishdi, — dedi u baland ovozda va uyga kirib ketdi.

Kampir hech nima demadi.

* * *

Dala yo‘lida ikki kishi ketib borardi. Bittasi baland bo‘yli, soqolli, jinsi shim va soyaboni keng yengil shlapa kiygan, katta antiqa sumka bilan fotoapparat ko‘tarib olgandi — bu Omon edi. Ikkinchisining millatini ham, yoshini ham bilib bo‘lmasdi. U kichkina chamadon bilan o‘yinchoq ot ko‘tarib olgandi.

— Zo‘r o‘g‘lim bor-da! Ko‘zlari onasinikiday ko‘m-ko‘k, sochi menikiday qop-qora. Endi chopib yuradigan bo‘lgandir, — deb maqtandi Omon.

— Duragaylar doim chiroyli bo‘lishadi, — dedi hamrohi.

— Kim?

— Duragaylar.

Omon qovog‘ini soldi.

— Ya’ni, onasi bu yoqdan, — hamrohi shimol tomonni imlab ko‘rsatdi, — otasi esa u yoqdan bo‘lsa, — hamrohi janub tomonni imlab ko‘rsatdi.

— Odamlar xo‘p g‘alati so‘zlarni o‘ylab topishadi-da, — dedi Omon kulimsirab. — Men, biror mikrobmi deb o‘ylabman. Tumshug‘ingga tushirmoqchi bo‘lib turuvdim!

— Yo‘g‘-e! Yo‘g‘-e! — deb e’tiroz bildirdi hamrohi.

— Verkam ham binoyiday! O‘zgarib ketgandir... Har holda ancha vaqt o‘tdi-yu.

Indamay ketib borishardi. Har biri o‘z o‘yi bilan band edi.

— Menga qara, nega rus ayollari o‘pishishni yaxshi ko‘rishadi-ya? — deb birdan so‘rab qoldi Omon.

Hamrohi, bilmadim, menga to‘g‘ri kelganmas, degandek, yelkasini qisdi.

— Qirg‘iz ayollari-chi? — deb so‘radi u.

Omon yelkasini qisdi.

Ular ovulga kirganlarida, Omon o‘yinchoq otni oldi-da, fotoapparatni hamrohiga berdi. Tevarak-atrof suv quyganday jimjit edi, ko‘chalarda tirik jon ko‘rinmasdi. Ba’zi joylarda baroq itlar mudrab yotardi, kimningdir kichkina bolasi ko‘chaning o‘rtasidan ishtonsiz kelardi. Odamlar dalaga ishga ketishgan. Omon bilan uning hamrohi uy oldiga kelishdi. Eshik berk edi. Omon begona qulfni ushlab ko‘rdi-da, keyin devordan oshib tushdi. Eshik va derazalarga yog‘och qoqib tashlangandi. U birpas turdi-da, derazaning yog‘ochlarini olib tashladi, ichkariga mo‘raladi — odam turmaydigan uyning yoqimsiz zax havosi dimog‘ga urildi.

Ular buyumlarni hovlida qoldirishib, kimsasiz ko‘chadan yurib ketishdi. Magazinning oldiga kelishdi. Magazinda ham hech kim yo‘q edi, faqat Turdixon, qirq yoshlar chamasidagi xushro‘y ayol boshini engashtirgancha cho‘t qoqib o‘tirardi.

— Salom, xola!

Ayol boshini ko‘tardi-da, Omonni tanidi.

— Omon! Qayoqlardan so‘raymiz? — deb qichqirdi.

— Qozog‘istondan. Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirdim... Vera qani, o‘g‘lim-chi? — sekin, ehtiyotlik bilan so‘radi Omon.

Turdixon anchagacha indamadi.

— Ketib qoldi... — dedi u nihoyat. — Seni uylangan, deb gap tarqatishdi. U ishonmadi, erta-yu kech yig‘ladi... Keyin akasini chaqirtirdi-da, Rossiyaga ketib qoldi...

Omon sarosimada edi.

— O‘zing aybdorsan. Nega endi unga xat yozib turmading?! — deb so‘radi Turdixon.

Omon hech nima demay, yelkasini qisib qo‘ya qoldi.

— Araqdan bering! — dedi u to‘satdan va peshtaxtaga pul tashladi.

Ayol bir shisha araq uzatdi, hamrohi shishani ochib, stakanlarga quydi. Ko‘ngli uchun Turdixonga ham uzatdi, lekin u ichmayman, dedi. Omon araqni ichdi, hech nimani gazak qilmadi. Yana quyib ichdi.

Eshik orqasida g‘ala-g‘ovur eshitildi. Magazinga montajchilar yopirilib kirishdi.

— Axir, bu Omon-ku! — dedi kimdir tanib.

— E-e, Omon. Qaytib keldingmi? Tirikmisan?

— Ikki yil qayoqlarda yurding?

— Qara, juda olifta bo‘lib ketibdi-ku!

— Ha. Qaytib keldim, tirikman... — deb shartta javob qildi Omon hammasi bilan birma-bir ko‘rishib chiqarkan. — Hammamizga uch shisha bergin! — u peshtaxtaga o‘n so‘mlik tashladi.

— Omon, hech o‘zgarmabsan, o‘sha-o‘shasan!

— Ha, o‘sha, o‘sha... — deb ma’qulladi Omonga hamroh bo‘lib kelgan kishi, keyin shishani ochdi-da, stakanlarga quydi.

— Sotqin, sen ichmagin! — dedi sotuvchi ayol yosh montajchiga.

— Qo‘ysangiz-chi, Turdixon opa! Ukangiz uylansa ham bo‘ladi, Omon uchun yarim stakan ichsin!

— Ha, ha, ichsin, kap-katta yigit bo‘lib qoldi-ku! — deb boshqalar unga qo‘shilishdi.

Turdixon bosh chayqab qo‘ydi.

— Sening sog‘lig‘ing uchun, Omon!

Ichishdi, birov tuzni, birov konfetni gazak qilishdi.

— Qorag‘ulov hozir pensiyada, — dedi kimdir.

— Ha, kuzatib qo‘ydik, — dedi boshqasi.

— Eshitdim. Kelinglar, ba’zi-ba’zida kech qoladigan haqiqat uchun ichaylik! — deb taklif kiritdi Omon.

— Ha, haqiqat kech qolib yuradi! — deb uning so‘zini ma’qulladi Omonning hamrohi, u yana bittadan quydi.

— Qorag‘ulov bilan hali gaplashib qo‘yaman, — dedi Omon zo‘rma-zo‘raki.

— Qari odamga shafqat qilsang bo‘lardi, — dedi Turdixon ta’na aralash.

— Odam? U meni odam o‘rnida ko‘rdimi, menga shafqat qildimi? Uni deb hamma narsamdan ayrildim. Hammasidan! E-e! — Omon quturgan buqaday boshini sarak-sarak qildi. — Men dehqonman! Kindik qonim shu yerga to‘kilgan, yersiz yashay olmayman, u bo‘lsa nima qildi! A?

— Ha, u dehqon yigit... Kindik qoni to‘kilgan... — dedi hamrohi va uning yelkasiga qoqib qo‘ydi.

— Yangi boshliq ko‘rsa, magazinda ichib yuribsizlar, deydi, menga gap tegadi, — dedi Turdixon jahli chiqib.

— Bir shisha bering, ketamiz, — dedi Omon.

Turdixon araq uzatdi, Omon uni qo‘yniga yashirdi.

— Borib, Qorag‘ulovni tabriklab qo‘yay! E... onangni...

— Aqalli ayollarning oldida so‘kinmasang-chi, — dedi Turdixon.

— Shaharda hamma ruschalab so‘kadi,— deb javob qildi yigit.

— Iye, pulingni olgin-u, shishani qaytarib ber, — dedi Turdixon.

— Qaytarib beraymi, yigitlar? — deb so‘radi u atrofdagilardan.

— Yo‘q, — deb chuvullashdi yigitlar.

Magazinga xaridorlar kira boshladi. Bittasi piymalarni, boshqasi poxol shlapani ushlab ko‘rardi. Bir ayol abajurni ko‘zdan kechira boshladi, chol mexanik ustaraning guvullab ishlashiga quloq soldi. Montajchilar magazindan chiqib ketishdi.

— Sen bormagin, Sotqin, — dedi Turdixon.

Sotqin to‘xtab qoldi. Lekin kimdir uni qo‘ltig‘idan olib, sudray ketdi.

Qotma, novcha Omon oldinda borardi. U hozir dushmanining oldiga borib, uni g‘ajib tashlaydigandek edi. Yaxshigina kayf qilishgan yigitlar uning orqasidan to‘dalashib borishardi.

* * *

Abdurahmon uyining ostonasida o'tirib olib, etigini tuzatardi. Labiga uchta-to'rtta mix qistirib olgandi. Onasi hovlida, oftobda isinib o'tirardi, uzun siyrak sochini tarardi.

Abdurahmon boshini ko'tarib, uyi tomon bir guruh yigitlar kelayotganini ko'rdi. Oldinda Omon kelardi. Abdurahmon o'rnidan turib, uyiga kirib ketmoqchi bo'ldi, lekin vaqt o'tgandi. Yigitlar juda yaqin kelib qolgandi. Abdurahmon o'zidagi sarosimani sezdirgisi kelmay, joyida o'tiraverdi.

Omon uy oldiga keldi-da, ko'cha eshigiga suyandi. Yigitlar shunday orqasiga kelib turishdi. Sotqin ham shu yerda edi. Hammasi jim turardi. Kampir ularga qararkan, biror dahshatli narsa yuz berishini kutardi. Omon shishani oldi-da, og'zidan bir qultum ichdi. Hamma kutardi. Birdan, kutilmaganda Omon ashula ayta boshladi. U xaltani yelkaga tashlab, tog'ma-tog' yurish, maysa ustida yotib, ko'kda suzib yurgan oppoq bulutlarni tomosha qilish, sevganing bilan dala-dashtlarda sayr qilishning gashti haqida kuylardi.

Yigitlar kulib yuborishdi. Abdurahmon o'rnidan turdi. Yigitlar jimib qolishdi. Omon hamon ashula aytar, ko'z yoshlari yonoqlaridan oqib tushardi. U g'irt mast edi.

Sotqin Omonning qo'ltig'idan ushlab, bir chetga olib chiqdi. Yigitlar ularga ergashdi.

Hamisha yolg'izman,
Boshpanam ham yo'q...
A-a! Ovvoraman...

Omon ashula aytarkan, ko'z yoshini kafti bilan artardi.

Yigitlar ketishdi. Kampir uzun, siyrak sochini hamon tarardi. Abdurahmon yuzini kafti bilan siladi-da, etigining o'kchasiga mix qoqa boshladi. Bolg'a taqillardi.

* * *

Saodat medpunktdan qanshariga qizil krest belgisi bor latta bog'langan oq otga minib ketdi.

Aynur derazadan ko'chaga qarab turardi. Orqasida Sotqin turgandi.

— Seni o‘psam maylimi? — deb so‘radi Sotqin.

— Yo‘q.

— Nega?

— Men sterilizatsiya qilinganman.

— Unday bo‘lsa, xayr! — Sotqin chaqiriq xatini unga uzatdi.

— Armiyagami? — qizning yuzidagi soddadillik, yoqimli noz-ishva shu zahoti yo‘qoldi.

— Ona-Vatan chaqiryapti! — dedi Sotqin.

— Nega hadeb kulaverasan? — deb so‘radi Aynur xafa bo‘lib.

— Odamlar frontga ketayotib ham kulishgan, — dedi Sotqin.

Aynur shartta o‘girildi-da, uni quchoqlab oldi.

— Agar ketsang, biz boshqa ko‘rishmaymiz, — dedi Aynur.

— Nega endi?

Aynur boshini quyi soldi.

— Axir, otamning fe’lini bilasan-ku... — dedi qiz.

— Otangning nima daxli bor?

Qiz indamadi.

* * *

Xonada sintetik abajur osilib turardi, uning lampochkasi yonmasdi. Turdixon lampa yorug‘ida, dumaloq stol atrofida o‘tirib cho‘t qoqardi, kunduzi tushgan pulni hisoblardi. Eshikni taqillatishdi, u borib ochdi.

— Abdurahmon Qorag‘ulovich?

U ostonada turardi.

— Qani, kiring, uyga kiring. Choy ham sovib qolgandir, lekin yaxshigina yorma bor, ichasizmi? — Turdixon shoshib qoldi.

Abdurahmon so‘riga o‘tirdi.

— Arag‘ing yo‘qmi? — deb so‘radi u.

— Sizga mumkin emas-ku, — dedi ayol.

— Kim aytdi mumkin emas, deb? Hamma narsa mumkin! — U xafa ko‘rinardi, Omonning kelganidan dili siyoh shekilli.

— Omonni qaytarolmadim, o‘zi ichdi, og‘aynilariga quyib berdi... Ukam ham tentak-da, o‘shalarga qo‘shilib ketdi, — dedi Turdixon.

Abdurahmon qo‘l siltadi, bu haqda gapirishni istamasdi.

Turdixon boshqa xonaga chiqdi, oynaga qarab u yoq-bu yog‘ini tuzatgan bo‘ldi, sochining oqini ro‘moli tagiga yashirdi, piyolada yorma, patnisda bo‘g‘irsoq, yaxna go‘sht olib kirib, hammasini stol ustiga qo‘ydi.

— Araq magazinda, istasangiz, borib olib kelaman...

— Ha, mayli, keragi yo‘q, yaxshisi o‘tir...

Turdixon kigizga o‘tirdi.

— Senga qarab turib hayron bo‘laman, shuncha yildan beri bir o‘zing qanday turasan-a? — dedi u ayolning yuziga qaramasdan.

— O‘zingiz-chi, o‘zingiz qanday turibsiz?

— Menga nima? Men o‘rganib qolganman. Urushda, mehnatda rosa chiniqdim, bu bosh nimalarni ko‘rmadi. Havo bulut bo‘lsa, mazam qochadi, shunisi yomon.

— Suyaklaringiz zirqiraydimi?

— Yo‘q. Ko‘nglim behuzur bo‘ladi... Yuragim siqiladi... Kun uzun, tun undan ham uzun. Ko‘zimni yumdim deguncha tush ko‘raman, tushimda meni sud qilishayotgan bo‘ladi, — u birdan jim bo‘ldi-da, cheka boshladi.

— Ukam bor-ku, — dedi Turdixon eshitilar-eshitilmas qilib.

— E, ukaning yo‘rig‘i boshqa. Meni ham o‘z tug‘gan onam bor. Lekin, baribir... Suyangulik kimingdir bo‘lishi kerak-ku. Bu dunyoda yashashning nima keragi bor?! Bir kuni to‘p etib ko‘zing yumilguday bo‘lsa, yig‘laydigan odaming ham yo‘q... Ilgarilari negadir bu haqda o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Erta-yu kech kolxoz ishi bilan bo‘ldim. Xotinim o‘sha muallim bilan til topishib, ketib qolganida achinganim ham yo‘q, kuyib-pishmadim ham. Axir, xotinim tuppa-tuzuk, kelishgan ayol edi. Ha, ketsa ketibdi-da, dedim. Janjal, gap-so‘z kamroq bo‘ladi. Ishda ham ertadan kechgacha baqirganing-baqirgan, boshing g‘alvadan chiqmaydi, uyga kelsang xotiningdan ta’na eshitasan: “Qayerda eding, oilangni unutib yubording, avval oila, bola-chaqa, keyin ish”, deb joningga tegadi. Xullas, vaqt o‘tganini ham bilmay qolibman.

Ular biroz jim o‘tirishdi.

— Xo‘sh, nega sen shu vaqtgacha er qilmading? — deb so‘rab qoldi u birdan va ko‘zlariga qaradi.

Ayol avvaliga nima deyishini bilmay shoshib qoldi, keyin o‘zini qo‘lga oldi-da, kulimsirab qo‘ydi.

Abdurahmon javob kutardi.

— Nima, bilmasmidingiz? — deb sekin so‘radi ayol.

— Men qayoqdan bilay? Bilsam ham unutibman-da. Men qaysi traktorning qayeri kasalligini, go‘ngni qayerga olib chiqishni bilganman, xolos. Ish bilan bo‘lib, orqada qolib ketibman...

Qayerdadir, uzoq-uzoqlarda xuddi zambarak sadolaridek momaqaldiroq gumburladi.

— Yaxshi odamni uchratolmadim, uchratganimda — baxtim ochilmadi... Oilasi, bola-chaqasi bor edi... Xotini dod-voy ko‘tardi. Siz erini jazoladingiz, o‘qishga yubormadingiz... Ma’naviy nopoklik, oilani buzish. O‘shanda boshqa narsani isbotlab bo‘larmidi. Shuncha shov-shuvdan keyin hatto ota-onam ham meni kechirishmadi. Qari odamlar... Shu-shu, yakka-yolg‘iz... Umr o‘tib ketyapti. Peshanaga yozilgani shu ekan-da...

Tashqarida yomg‘ir yog‘ardi.

— U kim edi?

Ayol unga bir qarab qo‘ydi.

— Mamatqul... Axir, o‘zingiz uni...

— Ha... Esladim, bo‘luvdi, bo‘luvdi... Zamon shunaqa edi...

Eshik taqillab qoldi-yu, Abdurahmon jim bo‘ldi.

Sotqin kirdi, zanjir bilan tirnoqni burchakka tashladi-da, jiqqa ho‘l kamzulini yechdi. Abdurahmonni ko‘rdi-yu, shoshib qoldi, aftidan, ertalab Omon bilan birga uning huzuriga borganini esladi shekilli. U mehmonga bosh irg‘adi-da, boshqa xonaga kirib ketdi. Turdixon tipirchilab qoldi, yana bir lampani yoqib, uning orqasidan kirdi.

— Bugun yana yigirmata abajur sotdim, — dedi Turdixon. — Hammalari sening elektringni kutib yotishibdi. Kerosinni ham olmay qo‘yishdi.

Sotqin miq etmadi. Opasi unga ovqat olib kelib berdi-da, keyin Abdurahmonning oldiga qaytib chiqdi.

— Armiyaga ketyapti, — dedi u. — Seshanba kuni jo‘nashadi. Unashayotgan qizi bilan nikohdan o‘tib qo‘ymoqchi edi, otasi rozi

bo‘lmayapti, to‘ysiz bermayman, deydi. To‘y qilishga vaqtimiz ham, pulimiz ham yo‘q.

Abdurahmon eshik tomonga, Sotqinga qarab qo‘ydi. Yigitcha ma’yus non chaynardi.

— Bir vaqtini topib, oldingga kirib ketarman, — dedi Abdurahmon sekin va o‘rnidan turdi.

— Kiring, bemalol, — dedi ayol.

— Xayr, o‘g‘lim, — dedi Abdurahmon mehr bilan va eshik tomon yurdi.

— Xayr, — Sotqin chaynashdan to‘xtadi, aftidan, Omon bilan uning oldiga borganini yana esladi.

* * *

Ovul ko‘chalaridan birida uy qurilardi. Devori ko‘tarilgandi, derazalari, eshiklari o‘rnatilgandi, faqat tomi hali yopilmagandi. Uyning oldida odamlar to‘planib turishardi. Uy egasi yosh raisni (sobiq agronom) qarshi olib, uning beliga oq sochiq bog‘ladi. Hammalari xodaning oldiga dabdaba bilan kelishdi-da, uni dast ko‘tarishib, uyga yaqin olib borishdi. Besh-oltita yigit xodani tepaga olishga yordamlashdi, uni tomning o‘rtasiga qo‘yishdi.

— Bu uyning chirog‘i hech qachon o‘chmasin! — dedi rais.

— Omin! — deyishdi oqsoqollar va kaftlarini yuzlariga tortishdi.

Hammalari bog‘ga kirishdi, u yerda dasturxon yozilgan bo‘lib, noz-ne’matlar qo‘yilgandi. Abdurahmon uyining ostonasidan marosimni kuzatib turardi, bir vaqtlar sharafli oqsoqollik vazifasini o‘zi o‘taganini esladi. U eski uylardan biriga qarab, o‘zini ko‘z oldiga keltirdi: beliga oq sochiq bog‘lab olgan, “bosh xodani” ko‘tarib borardi. U yangi uyga baxt-saodat tilar, odamlar uning gaplarini takrorlardi. Mana, ikkinchi uy — yana o‘sha gaplar. Uchinchi, to‘rtinchi — ko‘chaning oxirigacha, Malaboyning yonib, kul bo‘lgan olmazorigacha mana shunaqa uylar. Qariyb hamma eski uylarga u birma-bir kirib chiqqan.

Yosh rais Abdurahmonni sezib qoldi-da, uning oldiga bordi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol! Nega endi pravleniyega kelmayapsiz? O‘tgan kuni ham, kecha ham odam yubordim, — deb gap boshladi yosh rais.

— Band edim, — deb javob berdi Abdurahmon.

— Qanday zarur ishingiz bor edi, nima qildingiz?

— Qartayish bilan ovora bo'ldim, — deb javob qildi Abdurahmon.

— Bir donishmand erkakni vaqt qaritadi, degan ekan! — dedi yosh rais xursand bo'lib.

Abdurahmon g'amgin bosh irg'adi.

— Boshqa bir donishmand...— deb gapida davom etdi yosh rais.

— Nega chaqirtiruvding? — deb uning gapini bo'ldi Abdurahmon.

— Bilasizmi, Abdurahmon Qorag'ulovich, biz maslahatlashib, shunday qarorga keldik... O'zingiz bilasiz, kuz — yig'im-terim qizigan palla. Odamlar yetishmaydi. Hademay yog'ingarchilik boshlanadi... Majburiyatimiz katta. O'zingiz yordam bermasangiz bo'lmaydi, maslahatga...

— Ishlab bo'ldim, bizni hisobdan chiqarib qo'ysang ham bo'ladi... — dedi Abdurahmon shartta.

— E, qo'ysangiz-chi, Abdurahmon Qorag'ulovich! Sizni bezovta qilmadik, mayli, dam olsin, o'ziga kelsin, dedik, endi tinch qo'ymaymiz! Studentlar kelishgan, hammasi sho'x-olov yigitlar, ularga qattiqqo'l komandir kerak.

— Nima, men qattiqqo'l ekanmanmi?

— Abdurahmon Qorag'ulovich! — rais qo'llarini yozdi.

— Ularning qaysi tilda gaplashishlarini ham bilmayman. Hozir hamma bilimdon bo'lib ketgan.

— E, nimalar deyapsiz, Abdurahmon Qorag'ulovich! Axir, sizsiz ishimiz bitarmidi? Avlodlar estafetasi-chi?

— Estafeta?

— Bittasi ikkinchisiga chopib yetib olib, qo'lidagi tayoqchani unga beradi. U yana chopib ketadi, — deb tushuntirdi rais kulimsirab.

— Tayoqchani berib, o'zi qoladimi?

— Uzatadi-yu, o'zi qoladi, — deb ma'qulladi rais.

— Bordi-yu, u qolgisi kelmasa-chi, yana chopmoqchi bo'lsachi?

— Uddalagani chopaveradi, — deb hazillashgan bo‘ldi rais.

— Yo‘q. Men eplayolmayman. Kasalman, — dedi Abdurahmon va uyiga kirib ketdi.

Yosh rais bir zum turdi-da, keyin orqasiga qaytdi.

* * *

Abdurahmon xonaga kirganida, oppoq soqolli Sulton chol namat ustida xotirjam, salobat to‘kib o‘tirardi, ko‘rinishidan sipo va dono edi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol! — deb ko‘rishdi Abdurahmon.

Sulton yengilgina bosh irg‘ab qo‘ydi.

— Nima, meni tanimadingizmi? — deb so‘radi Abdurahmon va uning qarshisiga taburetkaga o‘tirdi.

Sulton indamadi. Shubhasiz, u Abdurahmonni tanigandi.

— Gap bundoq, oqsoqol. Yigit armiyaga ketyapti. Zararli eski urf-odatlarni qo‘ying, qishloq sovetida nikohdan o‘tishsin, to‘yni u kelganidan keyin qilamiz.

Sulton miq etmasdi. Abdurahmon nima deyishini, qay yo‘sinda gaplashishni bilmasdi.

— Balki, pulga muhtojdirsiz? Menda ko‘p bo‘lmasa ham ozgina pul bor... — Abdurahmon etigining qo‘njidan bir dasta pul oldi.

— Qani, ayt-chi, Abdurahmon, Sovet hokimiyati baxt haqida orzu qilishga ruxsat beradimi? — deb birdan so‘rab qoldi chol.

Abdurahmon dovdirab qoldi-da, cholga sinovchan nazar bilan qarab qo‘ydi. U trubkasini chekib o‘tirardi, ko‘ngliga yo‘l topish amrimahol edi.

— Xo‘sh, ruxsat beradi, deylik... Nima bo‘pti?

— Gap bundoq, o‘g‘lim, keksa Sulton yakka-yu yagona qizining to‘yida to‘rda xuddi xonlarday savlat to‘kib o‘tirishni o‘n sakkiz yildan beri orzu qiladi, ha, men uchun bu katta baxt...

— Armiyadan qaytib kelsin, to‘yda xon bo‘lib o‘tirasiz...

— O‘lib qolsam-chi?

Abdurahmon bir nima deb javob qilishga ulgurmasidanoq, Sulton yengini shimarib soatiga qaradi (“Volga” markali ayollar soati edi), o‘rnidan turdi-da, joynamozni yozib, namoz o‘qiy boshladi.

Abdurahmon shartta o‘rnidan turdi. Taburetka g‘irchillab, ag‘darilib tushdi. U cholning oldiga shaxdam yurib keldi, uni haqorat qilish, namozini buzish niyati ham yo‘q emasdi. Keyin, ke, qo‘y, deb shashtidan qaytdi.

Sulton namoz o‘qirdi. U allaqanday, tushunib bo‘lmaydigan so‘zlarni pichirlab, boshini goh o‘ngga, goh chapga burardi.

— Asli quloq zotidan-da! — deb to‘ng‘illadi Abdurahmon va xonadan chiqib ketdi.

Abdurahmon qishloqqa yo‘l oldi. Oldinda oq ot qo‘shilgan arava ko‘rindi. Aravakash otni to‘xtatdi.

— Assalomu alaykum, boy aka, Nurli vodiyga qaysi yo‘ldan boriladi? — deb so‘radi u.

Abdurahmon ko‘rsatdi-da, yaqinroq keldi. Aravada murda yotardi, ustiga oq paxmoq adyol yopilgandi.

— Boy aka, arabcha o‘qishni bilasizmi? — deb so‘radi yigit, keyin tugunni yechib, arabcha yozilgan qog‘ozni uzatdi.

“Yovuzlik qilsang, yovuzlik ko‘rasan”, — deb o‘qidi Abdurahmon va xatni qaytarib berdi.

— Bilmas ekansiz-a? — deb so‘radi yigit.

Abdurahmon “yo‘q”, deganday bosh chayqadi.

— Qariyalar uyida o‘ldi. O‘limi oldidan Nurli vodiyga olib borib ko‘minglar, debdi. O‘sha yerda bog‘i qolganmish. Bu xatni yostig‘ining tagidan topishibdi, hech kim o‘qiyolmadi, — deb tushuntirdi yigit otni qamchilab.

* * *

...Malaboyni ikkinchi kuni ko‘mishdi. Bir vaqtlar uning uyi turgan yerga ikki katta o‘tov tikishdi. Bittasi marhum uchun, ikkinchisi mehmonlar uchun mo‘ljallangandi. Odam ko‘p yig‘ildi. Qo‘shni, uzoq ovullardan, rayondan kelishgandi. Butun vodiyda bog‘ yaratgan birdan bir qirg‘iz Malaboyni kim ham tanimasin? Odamlar o‘tovga yaqinlashishlari bilan har xil ohangda uv tortib yig‘lashardi.

— Voy, qadrdonim, jigarim, endi seni qayoqdan topaman?!

Marhum yotgan o‘tov ichidan go‘yanda ayollarning har xil ovozi eshitilardi.

O‘, yakka-yolg‘iz pochchamiz,
Uyingdan uzoqda qazo qilding.
Odamlar senga ko‘p jabr qilishdi,
Sen ham o‘zingni ayamading, —

deb yig‘lardi qarindoshlaridan biri.

— O‘-o‘! E-e! — deb unga boshqa ayollar jo‘r bo‘lishardi. O‘smirlar hassaga tayanganlaricha yig‘lashardi. Ular ichida Omon bilan Sotqin ham bor edi.

— Voy, otaxonimiz! Endi seni qayoqdan topamiz?

Bog‘da, maysa ustida marhumning tengdoshlari davra qurib o‘tirishardi. Ular bemalol choy ichib o‘tirishar, marhum bilan bog‘liq bo‘lgan har xil voqealarni eslashardi.

Abdurahmon yig‘lamadi, boshqalar bilan birga hovliga o‘tib ketdi. Yigitlardan bittasi Abdurahmonga sochiq uzatdi, garchi u yig‘lamagan bo‘lsa ham bo‘yni uzun cho‘yan choynakdan uning qo‘liga suv quydi. Ha, yuz-qo‘lini yuvishga to‘g‘ri keldi. Udum shunday...

Vaqt peshindan og‘ganda o‘tovdan tobutni olib chiqishdi.

— Tozaroq joyga qo‘yinglar! — deb buyurdi Usmonbek.

— Yo‘ldan toza yer bormi, — dedi Sulton.

— To‘g‘ri, to‘g‘ri, — deb uning gapini ma’qullashdi.

Olomon ikki tomonga surilib, yo‘l berdi. Tobutni yo‘lga ko‘ndalang qilib qo‘yishdi. Sulton tilovat qildi, keyin hamma qabriston tomon yo‘l oldi.

Qabr tepasida sarg‘ish to‘zon ko‘tarildi. Abdurahmonning qo‘liga dastasi kalta kurak tushib qoldi, uni bu yerga kim olib kelgani ma’lum emasdi. U kimdir kurakni qo‘ying, demaguncha go‘rga tuproq tashlayverdi. Abdurahmon bir chetga chiqib, ust-boshining changini qoqdi. Unga hech kim e’tibor bermadi. U o‘zini noqulay his etar, bitta-yarimta bilan ikki og‘iz gaplashgisi kelardi, lekin uning atrofidagi odamlar bilan gaplashadigan gapi yo‘q edi. Qabristonning narigi boshida Sotqinni ko‘rib qoldi-da, sekin uning oldiga bordi. Bechora yigitning ust-boshi shu qadar chang ediki, sochi, qoshi, kipriklari ko‘rinmasdi.

— U bilan gaplashdingmi? — deb so‘radi Abdurahmon.

— Sensiz yolg‘iz qolishga qo‘rqaman, deydi, otamdan ham qo‘rqaman, deydi... — dedi Sotqin.

— Ha, mayli, ko‘p tashvish qilaverma. O‘sha qiz bilan o‘zim gaplashib qo‘yaman, — dedi Abdurahmon, qabr tepasida boshqalar bilan birga janoza o‘qiyotgan Sultonga o‘qrayib qarab.

Bu orada qabr tepasida do‘nglik paydo bo‘ldi, Usmonbek o‘rtaga chiqdi.

— Malaboy qanday odam edi? — deb baland ovozda so‘radi u.

— Yaxshi odam edi! — deb javob berishdi unga har tomondan.

— Birovga yomonlik qilganmidi?! — deb so‘radi Usmonbek.

— Yo‘q, — deb javob berishdi unga.

— Balki bitta-yarimtadan qarzi bordir? Tortinmanglar, bo‘lsa, aytinglar, hammasini to‘laymiz. Ha, Malaboyning arvohi norozi bo‘lmasin, uning ruhini o‘ksitib qo‘ymaymiz! — dedi Usmonbek.

— Yo‘q, — deb javob berishdi.

— Ha, arvohi bizdan rozi bo‘lsin! — dedi Usmonbek baland ovozda.

— Ha, rozi bo‘lsin! — deyishdi har tomondan.

Shundan keyin hamma cho‘kkalab o‘tirdi, Sulton tilovat qildi-da, kaftiga uzoq tikildi. Har kim go‘yo bu dunyodan ko‘z yumgan odamning qabri tepasida qo‘lim tozami-yo‘qmi, degandek kaftlariga qarashdi. Keyin hamma baravariga ko‘tarildi-da, motam o‘tovlari tomon yo‘l olishdi, har xil ohangda uv tortib yig‘lashardi, son-sanoqsiz oyoqlar-u tuyoqlardan ko‘tarilgan chang ovul tepasida suzib yurardi.

* * *

Oy yog‘du sochardi. Vodiyni xira tuman pardasi qoplagandi. Ustunlarda sim tortishayotgan Sotqin bilan Petroning qorasi ko‘zga g‘ira-shira tashlanardi.

— Xo‘sh, sen nima deding? — deb baqirdi Petro.

— Sevsang, men bilan yur! Sevmasang, otang bilan qolgin! — dedim.

— U nima dedi?

— Indamadi.

— Demak, sevmas ekan, — deb xulosa chiqardi Petro.

Sotqin sal bo‘lmasa, ustundan qulab tushay dedi. U simni yarmigacha uladi-da, ombirni cho‘ntagiga solib, pastga tusha boshladi.

— Ha, nima bo‘ldi? — baqirdi Petro.

Sotqin qo‘l siltab qo‘ya qoldi.

— Axir, bunaqada hammasini tortishga ulgurmaymiz.

— Boshqalar tortib qo‘yishadi, — deb javob berdi Sotqin. — Men armiyaga jo‘nayapman!

— Men-chi? Nima, men ketmayapmanmi? Axir, hamma ishni o‘zing boshlading-ku! — Petro simni silkitdi.

Sotqin qo‘l siltadi-da, pastga tushaverdi, lekin oq ko‘ylakda dala o‘rtasidan chopib kelayotgan Aynurni ko‘rib qoldi-yu, yana ustunga chiqib, simni ulay boshladi.

Petro burnini tortib, kulimsirab qo‘ydi.

Qiz narigi simyog‘och oldiga yugurib bordi-da, uni quchoqlaganicha yigitlarga qaradi. Sotqin simni sudrab, pastga tushdi va uning oldiga keldi. Lekin qiz boshqa simyog‘ochning oldiga bordi. Sotqin simyog‘ochga chiqdi, tezda simni ulab, qaytib tushdi. Qiz narigi simyog‘ochning oldiga bordi. Yigitlar Aynurning orqasidan simni tortib borishardi.

Ular buzilgan uylarning oldida ishlashardi...

Sotqin ustundan tushdi-da, keyingisining oldiga bordi. Qiz biroz yurdi-da, ikki ustun o‘rtasida to‘xtadi.

— Nega to‘xtab qolding? — deb so‘radi Sotqin.

— U yoqda qandaydir soya bor ekan, — dedi. — Odamga o‘xshab ketadi...

— Bu eski devorning soyasi-ku...

Sotqin uning oldiga keldi. Petro ustundan ehtiyotlik bilan tushdi-da, ketib qoldi.

— Men uydan butunlay ketdim, — dedi qiz.

— Nega endi?

— Erga tegish uchun, — Aynur yig‘lab yubordi.

Keyin ular eski uylarning xarobalari ichida ancha yurishdi. Odamlar bu uylarni yarim asr muqaddam tark etishgandi, ular o‘shanda endi tog‘ma-tog‘ yurmay, suvga yaqinroq joyga kelishga, ekin ekishga qaror qilishgandi.

Oy yog‘dusi Aynurning yuzini yoritardi. Sotqin uni bag‘riga bosib, yuzlaridan o‘pdi. Aynurning ko‘zlaridan yosh oqardi. Yulduzlar xaroba ustida miltillardi.

Hademay tong otadi...

* * *

Abdurahmon o‘rnida yotarkan, marhumning tepasida yig‘laganlarning mungli ovozi qulog‘i tagida hamon jaranglardi:

— Dafn etdik biz seni yerga.
Kindik qoning to‘kildi qayga?
Voydod-ey! Voydod!
Nahorgi ko‘z yoshlarimiz
Senga bo‘lur yodgorlik.
Oqshomgi ko‘z yoshlarimiz
Ta’na bo‘lur bag‘ritoshlarga.
Voydod-ey! Voydod!

U birdan o‘zini pensiyaga qanday kuzatganlarini eslab qoldi. Bolani qanday o‘pgani, u esa yuzini kafti bilan qanday artgani ko‘z oldiga keldi... Abdurahmon dori ichdi. O‘rnidan turib, tashqariga chiqdi. Qarib, munkayib qolgan onasi motam o‘tovlari tomondan kelardi.

— Shuncha yig‘laganlaring yetmaydimi? — deb so‘radi Abdurahmon.

— Bu o‘lim hammaning ham boshida bor, — dedi onasi va uyga kirib ketdi.

Ot tuyoqlarining dupuri eshitildi. Petro yaydoq otni choptirib kelarkan, miltig‘idan ustma-ust o‘q uzardi.

— Hoy odamlar! Eshitmadim demanglar! Sotqin qiz o‘g‘irlab keldi, komsomolcha to‘y bo‘ladi-i!

U yonginalaridan yeldek uchib o‘tdi.

* * *

Sotqinning uyi oldida xotin-qizlar uymalashib turishardi. Ular kelinni kutishardi. Ikki ayol terlab-pishib bo‘g‘irsoq pishirishar, non yopishardi. Hovlining o‘rtasida qorni katta samovarlardan buruqsab tutun chiqardi.

— Kelishyapti! Kelishyapti! — deb chuvullashdi xotin-xalaj.
— Voy! Qaranglar-a, piyoda kelishyapti!
— Do‘st-yorlarsiz kelishyapti, xuddi sayr qilib yurishganday!
— Otasi qo‘ymagan emish, qiz qochib ketibdi!
— Tavba! Hozirgi yoshlarga hayronman!
— E-e! Qoyil-ey!
— Sekin, eshitib qolishadi...

Sotqin bilan Aynur bir-birlarining qo‘lini ushlashib hovliga chiqishdi. Qizning ustidan konfet, qand, bo‘g‘irsoq sochishdi, ayollar maysa ustiga to‘kilgan shirinliklarni terishib, o‘zlaricha “bizniyam to‘yga yetkazsin”, deyishib, cho‘ntaklariga solishardi. Turdixon kelinning peshanasidan o‘pdi, boshiga shoyi ro‘mol tashladi-da, tomog‘ining tagidan bog‘ladi. Ayollar ham kelinning peshanasidan, kampirlar esa kaftidan o‘pishdi.

Aynurni uyga olib kirishdi, go‘shangaga olib o‘tib, atlas bolishga o‘tqazishdi.

Yosh kelinni ko‘rish uchun xonaga erkaklar kira boshlashdi. Aynur erining qarindosh-urug‘lariga egilib salom berardi.

Uy oldiga Abdurahmon keldi. U bir bolani chaqirdi-da, qulog‘iga allanima deb shivirladi. Bola uyga chopib kirdi-da, Turdixonni chaqirib chiqdi.

— Turdish, ma, ol, to‘yda kerak bo‘lib qolar, — Abdurahmon pul tugilgan tugunchani uzatdi-da, darrov qaytib chiqib ketdi. Turdixon minnatdorchilik bildirish ham esidan chiqib, hayron bo‘lganicha, uning orqasidan qarab qoldi.

* * *

To‘y avjiga chiqqandi. Hovlidagi o‘choqlarning hammasidan tutun chiqar, katta qozonlarda go‘sht qaynardi. Shampanskiy, vino, meshlardan qimiz ustma-ust quyilardi. Xonada chollar keksa bir mo‘ysafidning hikoyasini tinglab o‘tirishardi, u o‘rtada o‘tirib olib o‘tgan zamonlar, ota-bobolar haqida so‘zlardi. Boshqa xonada kolxoz buxgalteri shirakayf Misha amaki skripkada sho‘x kuyni chalardi.

Yoshlar bog‘da o‘tirishardi. Bu yerda shu yerlik yigit va qizlar, qishloqqa hasharga kelgan talabalar bor edi.

Uyning oldiga ikki ayol bilan bir erkak kelishdi.

— Qudalar kelishdi! — dedi kimdir.

— To‘y emas, to‘ychiq qilib o‘tirishibdi-ya, benomuslar. Pulidan qochishibdi-da, qizni butun rasm-rusmini qilib olishga qo‘rqishibdi-da! Aldab qo‘lga olishgan! Hozir buning uchun sud qilishadi! — deb baqirardi otda o‘tirgan barvasta Zuura xola g‘azabi toshib. — Otasi adoyi tamom bo‘ldi, uzoqqa bormaydi!

Uydan Turdixon boshliq bir necha ayol chopib chiqishdi.

— Ha, qo‘rqdilaringmi! — deb baqirardi Zuura. — Qizimizni o‘g‘irlashga qo‘rqmadilaring-ku? Hammangni qamattiraman, boplab gazetaga yozaman. Xarajatdan qochdilaring, paytdan foydalanib qoldilaring. Nima, uning onasi bo‘lmasa, himoya qiladigan odami yo‘q, deb o‘yladilaringmi? Qaytarib beringlar!

Turdixon uzangidan ushladi:

— Aylanay, quda, otdan tushing! Bir piyola choyimizdan iching! Xotirjam gaplashib, bir to‘xtamga kelaylik. Qizingiz go‘shangada o‘tiribdi, soppa-sog‘, or-nomusi o‘zida, boshidagi ro‘molini olib tashlash hech gapmas. Qiz o‘z oyog‘i bilan keldi, yaxshi ko‘rib tegdi, uni o‘g‘irlaganimiz yo‘q.

— E! Hali qizingizning o‘zi yigitimizni bo‘yniga osildi ham dersiz? Balki sudda ham xuddi shu gapni aytarsiz? — dedi Zuura shang‘illab.

— Sotqin bilan Aynur oila qurishga, bir yostiqqa bosh qo‘yishga ahd qilishdi. Axir, o‘zingizning erga tekkaningizni bir eslang! Ha, qani, tusha qolinglar, qudag‘aylar, azizlar!

Zuura bilan birga kelgan, uning gapini ma’qullab turgan erkak bilan ayol shoshilishardi.

— Men tushmayman! Qizimizni olib ketaman, militsiya chaqiraman! Shunday pokiza, shunday oqko‘ngil, shunday go‘zal qizni-ya! Uyda otasi qon bo‘lib o‘tirsa-yu! — deb baqirib-chaqirardi Zuura.

— Hoy! Bo‘ldi, bas qil! — deb baqirdi u bilan birga kelgan erkak uyga kirarkan.

Zuura xuddi ovozi o‘chirib qo‘yilgan radiokarnayday, birdan jimib qoldi, otdan tushishga majbur bo‘ldi. Uni uyga qo‘lda ko‘tarishganday olib kirib ketishdi.

* * *

Turdixon eshikni taqillatdi. Abdurahmon chiqdi.

— Bu nimasi, Abdurahmon Qorag'ulovich, hamma to'yda bo'lsa-yu, siz uyda o'tirsangiz? Mehmonlar juda shoshirib qo'yishdi, qudalar kelishdi. Chiqib, mehmonlar bilan gaplashib o'tirasiz, — deb uni ko'ndirmoqchi bo'ldi Turdixon.

— To'y buziladi-da, — dedi u.

— E, qo'ysangiz-chi! O'tgan ishga salavot. Odamlar tushunmaydi deysizmi? Siz ham unuting-da. Qani, turing, ketdik, — Turdixon uni qo'lidan ushlab tortdi. Ayol kishining qo'li tegishi bilan Abdurahmonning ko'zlarida qandaydir iliqlik paydo bo'ldi.

— Yuring, yuring, xudo xayringizni bersin!

Abdurahmon Turdixon bilan yonma-yon ketdi.

* * *

Zuura xola va unga hamroh bo'lib kelganlar uyning to'rida o'tirishardi. Ularning oldiga mevalarni, go'shtni tog' qilib uyib qo'yishgandi.

— Bir chol kelib: "Uni tutinglar, montyorining oldiga ketdi!" — deb qichqirsa bo'ladimi. Men: "Ot beringlar, yetib olaman", dedim, — Zuura xola baland ovozda hikoya qilar va xaxolab kulardi.

Mehmonlar ham kulishardi.

Aynur go'shanga orqasida o'tirib, hamma gapni eshitar, o'zicha kulimsirab qo'yardi. Ikki qizcha unga qarashib, miyig'ida kulishardi.

Abdurahmon kirib kelganida, go'yo unga hech kim e'tibor bermaganday bo'ldi, faqat bir ayol yonidagi ayolni turtib, qara, kim keldi, deganday ko'zi bilan imlab ko'rsatdi.

— To'ylaring baxt keltirsin, qo'sha qaringlar! — dedi Abdurahmon.

— Ha, aytganing kelsin, — deyishdi har tomondan.

Hamma Abdurahmon tomonga qaradi, kimdir o'rnidan turib, joy berdi.

— O', quda! Qayerlarda yuribsan? Bitta-yarimtasi bilan qochib ketdingmi, deb o'ylab o'tiruvdim. Xa-xa! — xaxolab kuldi Zuu-

ra xola. — Kel, yoshlarning baxti uchun bir ichaylik! Ukang bor edi, mana endi singillik ham bo'lding. Nurli vodiydagi eng chiroyli qizni kelin qilding. Qani, quy!

Mehmonlar kulishardi.

Epchil bola shampan vinosidan quydi.

— E-e! Buni vishillatib nima qilasan? Stakani uch tiyin turadi. Ichgandan keyin oqidan, qiz bolaning ko'z yoshiday tiniq, tozasidan ichgin, — deb shang'illab gapirardi Zuura xola. — Aqlli xotinsan-da, Turdi, odamning ko'nglini topa olasan.

Istarasi issiq, do'mboqqina ayol Abdurahmonning yoniga o'tirib, uni mehmon qila boshladi.

Mehmonlar shirakayf bo'lishdi, g'ala-g'ovur boshlandi, hammasi uch-to'rttadan bo'lib olgandi.

Abdurahmon indamay, yeb-ichib o'tirardi.

— Axir, ayol kishi bilan gaplashib o'tiradi-da, — dedi do'mboq ayol kulimsirab. — Yo, gapirishni unutib yuborganmisiz?

— Sho'xlik qilma, — dedi Abdurahmon.

— Ol-a! — bo'sh kelmadi ayol, uning yelkasiga urib, bekordan bekorga xaxolab kulardi. — Haliyam xotinlarga qattiqqo'lmisiz, otaxon? — qiqirlab kuldi.

— Otaxoning nimasi? Men bilan hazillashma! — dedi Abdurahmon muloyimgina.

* * *

Jinsi kiygan qiz bilan soqolli, ko'zoynakli yigit hovlida tvist raqsini o'ynashardi. Ular juda yengil, chiroyli raqs tushishardi.

Uydan xotin-xalaj, chollar chiqa boshladi. Ular tansa tushayotganlarni halqadek o'rab olishdi, musiqa ohangiga mos chapak chalishar, bu g'alati o'yinni ko'rishib, qotib-qotib kulishardi.

Hovliga keksa Qodirni olib chiqishdi. Odamlar tisarilib yo'l berishdi. Qodir tansa qilayotganlarga indamay o'ychan qarab turardi. Akkordeonchi uni ko'rdi-da, chalishdan to'xtadi. Hamma jim bo'lib, oqsoqolga qarashdi.

— Sizdan uyalishyapti! — deb tushuntirishdi unga.

— A? — yaxshi eshitmay so'radi chol.

— Sizdan uyalyapmiz! — baravariga baqirishdi talabalar.

Chol meni uyga olib kiringlar, deganday tirsagini ko‘tardi. Uni uyga olib kirib ketishdi. Kulgi sadolari ostida yana akkordeon ovozi yangradi.

* * *

Abdurahmon kayf qildi. U ayolga qo‘shilib ashula ayta boshladi:

— Charchamasa sira ot koshki,
Qarimasa odamzod koshki.
Yoshligicha qolaversa-yu,
Ham o‘lmasa umrbod koshki.

Boshqa xonada Misha amaki skripkada mungli to‘y kuyini chalardi. Odamlar uni miriqib eshitardi. Kimdir yig‘lardi.

Do‘mboqqina ayol xaxolab kulganicha, bog‘ oralab borardi. Shirakayf Abdurahmon uning orqasidan ketdi.

— Qani, chol, menga yetib ko‘r-chi! Ha, bo‘sh kelma! — ayol xaxolab kulardi.

— Men chol emasman, hammasi bekor gap, yolg‘on gapirishadi...

— Meni buzuq degan senmiding? — deb so‘radi ayol.

— Ha, bo‘ldi, bo‘ldi, — deb g‘o‘ldiradi uning orqasidan borarkan Abdurahmon.

— Bog‘chada ishlashimga nega ruxsat bermading-a? — deb so‘rardi ayol daraxtlarni oralab borarkan.

— Ha, bo‘ldi, bu gaplarni qo‘y! — Abdurahmon uning belidan quchoqlab olmoqchi bo‘ldi.

— Axir, men buzuq xotinman-ku! Demak, senam busiz yashay olmas ekansan-da. Sog‘lig‘ing joyidami o‘zi, a?

— Soppa-sog‘man, ayni qirchillama paytim. Yolg‘on gapirishadi, o‘zlaricha bichib-to‘qishadi, — u endi ushlamoqchi bo‘lganida ayol chap berib, baliqdek lip etib qo‘lidan chiqib ketadi, Abdurahmon ikki marta daraxtni quchoqlab oldi. Ayol xaxolab kulib, yalanglikka chiqdi-da, bedasi o‘rilgan daladan chopib ketdi, lekin sal yurmay qoqilib yiqildi. Abdurahmon unga yetib oldi, o‘ziyam yiqildi-yu, ayolni quchoqladi.

— Axir, bu nimasi? O‘zing chaqirding-ku. Nima, meni hech nimaga yaramaydi, deb o‘ylovdingmi?.. — derdi u hansirab nafas olarkan.

Ayol qo‘llari bilan yuzini berkitib, indamay qoldi. Abdurahmon uning pinjiga kirdi-yu, ayolning yuzi qorakuyaga bulanganini ko‘rdi. O‘zining qo‘llariga qaradi — qo‘llari ham qop-qora edi.

Abdurahmon boshini ko‘tardi-yu, tanasi kuygan olma daraxtini ko‘rdi. Qayerda ekanliklarini u endi fahmladi. Yonayotgan olma daraxtlari ko‘z o‘ngidan birin-ketin o‘ta boshladi.

U o‘rnidan turdi. Ayol nima gap bo‘lganini tushunmadi. U yuzini ochib, Abdurahmonning ketayotganini ko‘rdi.

— Nodon! Qari to‘nka! Tentak! — deb baqirdi ayol orqasidan va ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Qorakuyaga bulangan ko‘z yoshlari yonoqlaridan oqib tushardi.

* * *

Sotqin eshikning ilmog‘ini solib berkitdi-da, xotinini quchoqladi. Ular xona o‘rtasida rang-barang ko‘rpalardan qalin qilib to‘shalgan o‘rinni ko‘rishdi.

Sotqin xotiniga savol nazari bilan qaradi.

— Biz uchun, — deb tushuntirdi u.

Eshik orqasida kimdir qiqirlab kuldi. Sotqin hushyor tortdi.

— Guvohlar, — dedi xotini.

— Yana qanaqa guvohlar?

— Yo‘li shunaqa...

Sotqin ko‘rpalarni xonaning har tomoniga otib tashladi, xotinining qo‘lidan ushlab deraza oldiga olib keldi, romni shartta olib tashladi-da, ko‘chaga chiqishdi.

* * *

Abdurahmon bog‘da, daraxtga suyanganicha o‘tirardi. Shundoqqina yonida bo‘sh shisha yumalab yotardi. Sal narida yigit va qiz o‘pishishardi.

— Qaragin, odam... — deb shivirladi qiz.

— Bog‘ni qo‘riqlab o‘tiribdi, — dedi yigit.

Abdurahmon mast edi. Uning qarshisida it cho‘nqayib o‘tirardi. Misha amaki ko‘chada gandiraklab borardi. U hamon skripkasini chalardi.

Dasht tomonga ketayotgan ikki odam tobora uzoqlashardi.

Elektr simlari g‘uvullardi.

* * *

Tong payti... Sotqin bilan Aynur dashtda sekin odim otardi. Oq parqu bulutlar ularning boshi tepasida suzib yurardi. Sim tortilgan ustunlar ularni kuzatardi. Ular xirmonga kelishdi. Bu yerda ish ayni qizigan payt. Hamma yoqda bug‘doy uyumlari. Kechasi bilan sayr qilib, ko‘ngil yozishgan talabalar endi astoydil ishlashardi. Dimoqqa non hidi urilardi.

Sotqin bilan Aynurni ko‘rishib, hammalari ishini to‘xtatishdi, ura, deb qichqirishdi. Omon oyoq uchida yurib keldi-da, kelin-kuyovning ko‘zlariga uzoq tikildi, keyin Sotqinning boshini siladi. Hammalari kulib yuborishdi.

* * *

Sotqinning darvozasi oldiga ko‘ch-ko‘ron ortilgan arava kelib to‘xtadi. Sulton aravadan tushdi-da, uy tomonga yurdi. Qizining bor narsasi tugilgan tugunchani ko‘tarib olgandi.

Bir vaqtlardagi tik gavdasi endi bukchayib qolgandi, rangi siniq edi. U keksayib, quvvatdan qolgan. Uzun, qora choponining tugmalari solinmagan. U bir zamonlar baquvvat bo‘lgan, endi qanotlari qayrilgan qari burgutni eslatardi. Chol hovlining o‘rtasida to‘xtadi-da, katta to‘y alomatlarini ko‘zdan kechira boshladi. Turdixon uydan chiqdi-yu, Sultonni ko‘rib, shoshib qoldi.

— Nega u menga bunchalik azob beradi? Axir, men ularga yomonlikni ravo ko‘rarmidim? — dedi Sulton sekin.

Turdixon uning qo‘lidan tugunini oldi-da, uyga boshladi.

* * *

Turdixon temirchilik do‘koniga kirib, to‘xtab qoldi.

— Xo‘sh, nega ostonada turib qolding? — deb so‘radi temirchi Mamatqul va uning oldiga keldi.

Turdixon boshini uning ko‘ksiga qo‘ydi-da, yig‘lab yubordi. Nega yig‘layapti? Ehtimol, o‘z bahori ochilmay xazon bo‘lgan yoshligini o‘ylab yig‘layotgandir. Balki butunlay boshqa narsalarni o‘ylab ko‘z yoshi qilayotgandir.

E, ayol kishining nega yig‘layotganini, uning ko‘nglidagini bilib bo‘larkanmi?

Mamatqul uning sochlarini siladi.

Ayol piq-piq yig‘lardi.

— Aynurning otasi kelib ketdi. Qizini kechirdi. — Ayol ko‘z yoshlarini artdi-da, tez chiqib ketdi.

Mamatqul qo‘llarini yozganicha serrayib turib qoldi, go‘yo uning bag‘ridan, quchog‘idan hozir eng aziz, eng muqaddas narsasini yulib olishganday edi.

* * *

Oyog‘idagi ofitserlar etigi tozaligidan yarqirardi. Leytenant Sanjarov armiyaga endi olinganlar safi oldida u yoqdan bu yoqqa yurardi.

Yangi olinganlarning sochlari olingan, egnilaridagi kamzul, ko‘ylaklari, hatto kalta paxtaligi ham eski, qo‘llarida chamadon, rukzak yoki shunchaki qop. Ular orasida Sotqin bilan Petro ham bor.

Hovli past yog‘och devor bilan o‘rab olingan, uning orqasida armiyaga jo‘nayotganlarning do‘stlari, qayliqlari, xotinlari va qarindosh-urug‘lari turishardi. Ular kuzatgani kelishgandi, garmoshka, gitara, qo‘biz ko‘tarib olishgandi.

Lekin hozircha hech kim chalayotgani, ashula aytayotgani yo‘q. Hammaning ko‘zi hovlining o‘rtasida saf tortib turishgan yigitlarda edi.

— Smi-r-no! Bagajni qo‘yinglar! — deb komanda berdi leytenant.

Yigitlar buyumlarini birin-ketin yerga qo‘yishdi.

— Qaytadan!

Yigitlar buyumlarini olishdi-da, yana safga turishdi.

— Bagajni qo‘yinglar!

Yigitlar yana buyumlarini qo‘yishdi.

— Qaytadan! Qani, chamadoningizni menga bering, — leytenant eng chekkada turgan yigitning chamadonini oldi. — Qarang! Bagajni qo‘ying!

Yigitlardan ba’zilari chamadonini qo‘ydi.

— Qaytadan! Men o‘zimga-o‘zim komanda beraman. Bagajni qo‘ying! — leytenant oldinga ikki qadam chiqdi-da, chamadonni qo‘ydi, keyin orqaga ikki qadam yurdi-da, qaddini g‘oz qilib turdi. Mana shunday qilish kerak!

Aynur devor oldida turib, Sotqinning chamadonni yerga qo‘yib olayotganini tomosha qilardi.

— Smi-r-rno! Bagajni qo‘ying!

Leytenant yerga qo‘yilgan buyumlarni ko‘zdan kechirib chiqdi.

— Qaytadan! Buyumlar bir tekisda yotishi kerak.

— Smi-r-rno! Bagajni qo‘-ying!

Yigitlar chamadon va rukzaklarini taxminan bir tekisda qo‘-yishdi.

— Xo‘p. O‘ng qanotda, eng chekkada turgan, uch qadam oldinga — marsh! Krugom! Qaytadan. Krugom deyilganda chap yelka bilan aylanish kerak. Kru-gom!

— Familiyang nima? — deb so‘radi leytenant.

— Pechorin! — deb javob berdi Petro.

— Pechorin! Demak, ortiqcha odamman degin? — deb hazillashgan bo‘ldi leytenant.

Pechorin yelkasini qisib qo‘ydi, aftidan, nega ortiqcha odamligini tushunmadi shekilli. Yigitlar kulishdi.

— Jim! Gap bundoq, Pechorin! Seni boshliq qilib tayinlayman. Pechoringa so‘zsiz itoat qilasiz, bundan buyon u sizning bevosita boshlig‘ingiz. Tushunarlimi?

— Tushunarli, — deb javob berishdi yigitlar.

— Gap shu, Pechorin! Komandani qabul qilib ol! — dedi leytenant.

— Qo‘limdan kelmaydi, — deb iqror bo‘ldi Petro.

— Nima kelmaydi?

— Komanda berish.

— Voy, tentag-ey, — dedi samimiy kulib leytenant. — Bu yer senga kolxoz emas. Armiya! Bu yerda kimni tayinlashsa, shu ko-

mandirlik qiladi. Tushundingmi? Soppa-sog‘san, es-hushing joyida, o‘qish-yozishni bilasan, yana nima kerak? Eng muhimi, sendan qo‘rqishsin, seni hurmat qilishsin. Seni polk maktabiga yuboramiz, o‘rgatib qo‘yishadi. Bor, ishni boshla!

Turdixon olomon ichida turib, ukasidan ko‘zini uzmasdi, Abdurahmon uning shunday yonginasida turardi.

— Mana shu komandir bir vaqtlar qo‘limda hisobchi bo‘lib ishlagandi. Borib, bir gaplashib ko‘ray-chi, zora ikki-uch kunga qoldirsa, — dedi u.

— Koshkiydi, baraka toping! — dedi yalinganday bo‘lib Turdixon.

— Endi menga quloq solinglar! — dedi leytenant ovozini balandlatib. — Frunzega mahalliy vaqt bilan o‘n besh-u nol-nolda jo‘naymiz. Ruxsatsiz hech kim bu yerdan bir qadam jilmasin, tushunarlimi? Savollar bormi? Savollar yo‘q! Besh minut dam olish. Tarqaling!

Garmoshkalar har xil ohangda chala boshladi. Yigitlar gur etib, devor oldiga chopib kelishdi. Odamlar g‘ovur-g‘uvur qilishdi, ashula aytishdi, shishalar paydo bo‘ldi. Kulishardi, xayrlashishardi.

Abdurahmon voyenkomat hovlisiga kirdi.

— Hoy, Bakas, — deb chaqirdi u Sanjarovni.

— E-e, Abdurahmon Qorag‘ulovich! — dedi Sanjarov va uning uzatilgan qo‘lini qisdi.

— Komandirlik qilyapman degin? Esingdami, harbiy bilim yurtiga yuboraman deganimda, bormayman, deb oyog‘ingni tirab turib olganding. Mana endi, binoyiday komandir bo‘libsan, qarabsanki, bugunmi-ertami general! — hazillashdi Abdurahmon.

— Ha, gapniyam olasiz-a! Hali general bo‘lguncha ozmuncha mehnat qilish kerakmi! — hazilni jiddiy qabul qildi Sanjarov. — Bitta yulduzcha qo‘shishlari kerak edi. Aytishlaricha, Moskvada ushlab turishganmish. Tezroq berisha qolsaydi. Bu yangilar bilan juda charchadim. Har yil ahvol shu, bir xil ish...

— Menga qara, Bakas, bir savob ish qilgin, — deb uning gapini bo‘ldi Abdurahmon.

— Nimaydi, Abdurahmon Qorag‘ulovich? — deb so‘radi u ruschalab, garchi to‘g‘ri gapirmasa ham.

— Huv, anavi yigit, Sotqin Mambetov, bizning ovuldan, — u Sotqin va Aynur turgan tomonni ko‘rsatdi, ular devor oldida bir-birlariga tikilishib turishardi. — Shu yigitni aqalli bir kunga qoldirgin.

— Nima, bitta-yarimtasi o‘ldimi? — deb so‘radi Sanjarov qirg‘izchalab.

— Yo‘q. Uylandi.

— Nikoh qog‘ozi bormi? — deb so‘radi Sanjarov.

— Yo‘q, olishga ulgurishmadi. O‘sha kuni qishloq soveti ishlamadi.

— Iloji yo‘q.

— Ikki yil sim tortdi. Bugun kechqurun operatorlar kelib, uni kinoga olishmoqchi edi, — deya uni ko‘ndirmoqchi bo‘ldi Abdurahmon.

— Kolxozning qog‘ozi bormi? — deb so‘radi leytenant yana ruschalab.

— Yo‘q. Menga qog‘ozsiz ham ishonarsan. Javob beraqol, sizlar poyezdda sudralib yurganlaringda, u samolyotda uchib borib oladi.

— Axir, o‘zingiz keksa jangchisiz-u, meni jinoyatga boshlaysiz-a?

— Buning nimasi jinoyat, Bakas?

— Xo‘sh, intizom-chi?

— Soldatga intizomning nima keragi bor?

— Jangovar qobiliyati yuksak bo‘lishi uchun.

— To‘g‘ri. Agar sen soldatning ko‘nglini ko‘tarsang, uning jangovarligi ham oshmaydimi?

— Ustavda bu haqda hech nima deyilmagan, Abdurahmon Qorag‘ulovich!

— Eh, bola, bola, bir kun emas-bir kun tushunarsan, hayot har qanday ustavingdan murakkab, — dedi Abdurahmon.

— Ehtimol. Lekin hozircha tushunib olganimcha yo‘q, — dedi Sanjarov piching aralash va soatiga qarab qo‘ydi.

— Safga turing! — deb qichqirdi Pechorin.

Yigitlar saf chekishdi-da, Pechorin komandasi ostida rayon markazining eng katta ko‘chasidan ketishdi. Kuzatuvchilar ham gur etib ularning orqasidan ergashishdi.

* * *

Aynur saf tortib turgan oq ustunlar yonidan o‘tib, cho‘l oralab kelardi. U sekin, bir-bir qadam tashlab borardi, chunki qoqio‘tning sarg‘ish gullaridan chambarak to‘qirdi. Uzoqda Abdurahmon bilan Turdixonning qorasi g‘ira-shira ko‘rinardi.

— Ko‘pchilik qushlar juft-juft bo‘lib yashaydi, yolg‘iz qoldi deguncha halok bo‘ladi. Inson ham qushga o‘xshaydi: u ko‘kda parvoz qilgisi keladi, lekin hayot uni yerga tushishga majbur etadi. Yolg‘izlik yomon, hech kimning boshiga solmasin, — derdi Abdurahmon.

Ayol yonma-yon borardi, indamasdi.

— Nima, shunday emasmi? — Abdurahmon Turdixonga o‘girildi.

Ayol alamli kulimsiradi.

— Axir, biz unchalik qarib qolganimiz yo‘g‘-u, Turdish. Xudo bersa, farzand ham ko‘ramiz... — dedi u yana gap boshlab.

— Bu gaplarning nima keragi bor? — kulimsiradi u.

— Umr o‘tib ketyapti, — dedi Abdurahmon.

— Men baxtimni qo‘ldan berdim, vaqtni o‘tkazib yubordim, odamlardan, otamdan qo‘rqdim, hammadan... O‘z ishqimni yashirmoqchi bo‘ldim, oqibati nima bo‘ldi? Mana endi birovlar baxtining ushog‘ini terib yuribman... Boshqa bir ayolning baxtini o‘g‘irlashga, yashirinishga majburman. Yillar o‘tib ketdi...

— Bunga hech kim aybdor emas. Turmush... Zamon shunaqa edi. Tushunyapsanmi, zamon...

— Zamon?! Qanaqa zamon? Zamon o‘tib ketdi! Biz qoldig-u! Hamma — tiriklar ham, o‘liklar ham qoldi! — baqirib yubordi ayol.

— Meni aybdor qilyapsanmi? — U Turdixonning yelkasidan ushladi.

— Nega endi aybdor qilarkanman? Hammasiga o‘zim aybdorman. Qo‘rqoqlik qildim. Ha, men o‘z yukimni umrimning oxirigacha olib borishim kerak, — dedi ayol xotirjam.

Birdan Abdurahmonga, uning qarshisida ayol emas, balki dashtdagi eski qabristonlarda bo‘ladigan tosh but turganday bo‘ldi. U ayolni sekin turtdi-da, boshini quyi soldi — bu ayol o‘zi bilan hech qachon birga bo‘lmasligini tushundi.

— U-u-u! Eje-e! — Aynurning ovozi eshitildi. U Turdixonga yetib oldi-yu, sarg‘ish gullardan to‘qilgan chambarakni uning boshiga kiydirdi.

Abdurahmon joyidan qimirlamadi. U yolg‘iz bo‘lgisi keldi. Ayollar u bilan xayrlashishdi.

— Sal bo‘lsa esimdan chiqayozdi, — Turdixon unga kichkina tugun uzatdi — tugunchadagi pul edi.

— Axir, to‘yga deb berdim-u! — Abdurahmon shoshib qoldi.

— Rahmat, Mamatqul, qaytarib ber, dedi.

— Mamatqul buyurdi degin? — Abdurahmon ko‘chaning o‘rtasida turardi. Ayollar ko‘zdan g‘oyib bo‘lganidan keyin u sekin sohil yoqalab ketdi. Daryo suvi jo‘sh urardi. Keyin u yerga bag‘rini berib uzoq yotdi.

* * *

Uzoqda, oldindagi tepalikda bir odam ko‘rindi. U oq ko‘ylakda bo‘lib, yoqasi ochiq edi. U xursand, allaqanday kuyni xirgoyi qilib, qo‘lidagi tayog‘ini o‘ynatganicha Abdurahmonga peshvoz kelardi.

Abdurahmon Omonni darrov tanidi, biroz shoshib qoldi, lekin so‘qmoq yo‘l nihoyatda tor bo‘lib, boshqa tomonga burilishning iloji yo‘q edi.

Ikki odam bir-biriga qarama-qarshi kelardi. Oralaridagi masofa tobora yaqinlashib borardi. Go‘yo, hozir bir gap bo‘ladiganday edi. Mana, ular yuzma-yuz kelishdi... Birdan, kutilmaganda... Omon go‘yo o‘tkinchi bir odamni uchratganday hushtak chalganicha uning yonidan indamay o‘tib ketdi.

Abdurahmon yo‘lida davom etarkan, hushtak ovozining uzoqlashishiga quloq solardi. Hushtak uzildi... Abdurahmon sekin o‘girildi. Omon ham orqasiga qaradi... U kulimsirardi.

— Verkam qaytib kelyapti! Mana, telegramma oldim! — deb qichqirdi Omon.

Abdurahmon miyig‘ida kulib qo‘ydi. U ozgina yurdi-da, to‘xtadi. U Omonni chaqirib gaplashmoqchi bo‘ldi. Lekin yigit uzoqlashib ketgandi. U hamon hushtak chalib borardi. Egnidagi oq ko‘ylagi uzoqdan yelkanga o‘xshab ko‘rinardi.

* * *

Abdurahmon katta yo'ldan borardi. Orqasidan avtomobil signali eshitildi. Mashina chang-to'zon ko'tarib, yonidan g'izillagancha o'tib ketdi. Mashinaning borti singan edi. Uning yoriqlaridan bug'doy to'kilardi. Abdurahmon xirmonga keldi, bu yerda ish qizg'in edi. Talabalar va kolxozchilar — asosan yoshlar — bug'doyni yelpib tozalashar, quritishar va mashinalarga ortishardi. G'alla ortadigan va yuk mashinalaridan yerga don to'kilardi. Abdurahmonga bug'doy hamma yerda xuddi to'kilayotganday, shamol uchirib ketayotganday, oyoq ostida xuddi shag'al kabi g'ichirlayotganday bo'lib tuyulardi. Kimdir otda uning oldiga keldi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol! — deb baqirdi yigit.

Abdurahmon unga qaradi. Ot suvlig'ini tinimsiz chaynar, biqinlari jiqqa ho'l edi, og'zidan ko'pik oqib tushardi.

— Otni namuncha qiynamasang? — deb jiddiy so'radi Abdurahmon salomga alik olish o'rniga. — Bu hayvon bo'lgani bilan sen odamsan-ku...

— Shoshdim-da! — dedi yigit yelkasini qashib.

— Shoshgan bo'lsang, o'zing chopib kelgin edi. Kunning issiqligini ko'ryapsanmi!

Yigit qo'l siltadi, sal nariga bordi-da, otni yana choptirib ketdi.

Abdurahmon chayla oldiga keldi. Chayla oldida bir kampir jun paypoq to'qib o'tirardi. Abdurahmon bir zum turdi-da, xuddi muhim, qat'iy bir qarorga kelgan odamday tez-tez yurib ketdi.

Abdurahmon kolxoz buxgalteriyasiga kirganida bosh buxgalter boshini ko'tarmasdan nimalarnidir cho'tga solib, yozib o'tirardi.

— Salom, Mixail! — deb ko'rishdi Abdurahmon baland ovozda.

— Abdurahmon Qorag'ulovich! — bosh buxgalter o'rnidan turdi.

— Nega qo'rqib ketding? O'tiraver!

— Xo'sh, qanday xizmat bor? — deb so'radi bosh buxgalter.

— Bor-da! — Abdurahmon mug'ambirona mo'ylovini silab qo'ydi. — Ha, hayron bo'lyapsanmi?

— Amerikada shunday qabilalar bormishki, ular ajablanish, hayron bo'lish odamning qadrini tushiradi, deyisharkan, — dedi bosh buxgalter.

— O‘zlari hecham hayron bo‘lishmas ekanmi?

— Hayron bo‘lisharkan, lekin buni sezdirishmas ekan-da!

— Sezdirmas ekan degin? — Abdurahmon buxgalteriyaga ko‘z yugurtirib chiqdi. — Boshqalar qani?

— Bunisi, — dedi bosh buxgalter bo‘sh stollarni ko‘rsatib, — dekretga ketdi. Unisi javob so‘rab ketdi, onasi kasal bo‘lib qolibdi. Bu qaylig‘ini kutib olgani ketdi — institutni tamomlab kelayotganmish.

— Xo‘-o‘-o‘p! Ha, senam qaribsan, soch-soqoling oqarib ketibdi-yu! — Abdurahmon xo‘rsinib qo‘ydi.

— O‘ttizimdayoq sochim oppoq edi. Hozir biroz qoraydi-yu, xina surtib oldim, — dedi bosh buxgalter.

— Namuncha erta endi?

— Ha, bu dunyoda yashashning o‘zi bo‘lmas ekan, — deb javob qildi bosh buxgalter.

— Qani, ayt-chi, Mixail, inson umrining biror hisob-kitobi bormi, uni cho‘tga solib bo‘ladimi? — deb so‘radi Abdurahmon.

— Bo‘ladi, — dedi bosh buxgalter bir zum o‘ylanib turib. — Uning qilgan yaxshiliklarini, ezgu ishlarini hisoblab chiqish kerak! — dedi u cho‘tni qoqib. — Keyin qilgan xato-yu nojo‘ya ishlarini chiqarib tashlash kerak, — u yana cho‘t qoqdi. — Katta-yu kichik tashvishlar, hammasini qo‘shish lozim, so‘ng birinchi miqdordan ikkinchisini chegirib tashlasak, natija chiqadi.

— Bo‘pti, kel, hisoblaylik! — dedi Abdurahmon cho‘tni qo‘liga olib.

— Bu ishni bizdan keyingilar qilishadi, — dedi bosh buxgalter kulimsirab, — o‘shanda yana ham aniq hisoblaydigan asboblar bo‘ladi... — “Hisoblash asboblari”, “katta-yu kichik tashvishlar” ...Ertaga, mana shu bo‘sh lampochkada elektr nuri porlaydi!

— Kolxoz bo‘m-bo‘sh joyda qad ko‘tardi. Shularning hammasini mana shu qo‘llarimiz bilan yaratganmiz! Issiqni ham, sovuqni ham termometr bilan emas, tanam bilan o‘lchab bilganman. O‘zimni o‘ylamaganman, boshqalar uchun yashadim, o‘shalar uchun yangi hayot qurdim! Mana endi, oqibatda aybdor bo‘ldimmi?

— Xo‘sh, nafsilamrini aytganda, kim sizni aybdor qilyapti? — deb so‘radi bosh buxgalter.

— Kim... Hech kim...

— Unday bo‘lsa, gapingizga tushunolmay qoldim, Abdurahmon Qorag‘ulovich.

— Tushunmayapsanmi?.. Hammasini tushunib turibsan-u, iqror bo‘lging yo‘q.

O‘tirishdi. Sukut saqlashdi.

— Siz irodali, kuchli odamsiz, Abdurahmon Qorag‘ulovich. Sizday odam sal shamolga niholday egilsa, unda... — bosh buxgalter bosh chayqab qo‘ydi.

— Xo‘sh, o‘zing-chi, o‘zing? Sen nimaga erishding?! — dedi Abdurahmon biroz ranjib. — Aqllisan, ilming ham joyida, bir umr kichkina bir kolxozda kichkina bir buxgalter bo‘lib o‘tiribsan!

— Aslida, muzikachi bo‘lishim kerak edi, Abdurahmon Qorag‘ulovich. O‘n besh yoshimda Nikolo Paganinining repertuarini chalardim, keyinchalik... tamom... Mana endi skripka o‘rniga mana buni... — bosh buxgalter cho‘tni imlab ko‘rsatdi.

— Ha-a! — dedi Abdurahmon o‘ychan. — Mening peshana terim va skripkang evaziga topilgan barcha narsalarni ular ko‘kka sovurishmasa deb qo‘rqaman...

Abdurahmon chiqib ketdi. Bosh buxgalter ham hayron, ham ko‘ngli g‘ash bo‘lib qoldi.

* * *

Abdurahmon kolxoz raisining oldiga kirdi.

— Abdurahmon Qorag‘ulovich! Ha, yaxshi, axir kelibsizda! — yosh rais o‘rnidan turdi. — O‘tiring. Xo‘sh, kim sizni ko‘ndira oldi?

— Hayot, — deb javob berdi Abdurahmon.

Rais uning bu haziliga qanday javob qilishni bilmadi.

— Kecha raykomdan telefon qilishib, sizni so‘rashdi.

— Nega endi? — hushyor tortdi Abdurahmon.

— Sog‘lig‘ingizni so‘rashdi...

— Faqat sog‘lig‘imni so‘rashdimi? Ha, har holda so‘rab-surishtirishibdi-yu. Ha... Gektaridan qanchadan oldilaring? — deb to‘satdan so‘rab qoldi Abdurahmon.

— O‘ttiz ikkidan. Nimaydi?

— Kamrog‘-u, o‘rtoq rais.

— Hozircha o‘rganyapmiz-da, — dedi rais qo‘llarini yozib.

— Bu o‘qishlaring chamamda cho‘zilib ketdi-yov. Kitobni qishda o‘qish kerak, kuzda xirmon ko‘tarish darkor, — dedi Abdurahmon va stolda yotgan qalin kitobga o‘qrayib qarab qo‘ydi.

— Qo‘limizdan kelganini qilyapmiz, — deb javob berdi rais.

— Menga ish bergin! — dedi birdan Abdurahmon.

— Qanaqa ish? — hayron bo‘ldi rais.

— Xohlagan ishingni.

— Qanday ish berishim mumkin. Studentlarga qo‘yay desam, o‘rinni band qilib qo‘yishdi. Brigadir kerag-u, lekin bu ish sizga og‘irlik qiladi-da, loy, suv kechib... Kutubxonaga qo‘yardim-u, lekin u yerda ishlash uchun bilim kerak-da, — deb mulohaza qilardi rais. — Chaqirganimizda nega kelmadingiz, yo‘q dedingiz?

— Demak, mening keragim yo‘q ekan-da? — deb so‘radi Abdurahmon qosh-qovog‘ini osib.

— Yo‘g‘-ey, nimalar deyapsiz. Keraksiz, albatta... Lekin o‘ylab ko‘rish kerak...

— Xirmonda ishlar rasvo... Hamma yoqda g‘alla to‘kilib yotibdi. Eshitdingmi, “Qizil tong”da qanchayam g‘allani o‘g‘irlab ketishibdi. Nima, endi sizlarga qorovulning ham keragi yo‘qmi?

— Toki nodo‘stlar qurshovida yashayotgan ekanmiz, qorovul kerak, — deb hazillashdi yosh rais.

Elektrostansiyaga odamlar: ovuldagilar, talabalar, muxbirlar, kinooperatorlar, rayon vakillari to‘planishgandi. Yosh rais nutq so‘zladi. U, elektrning mamlakatimizda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi, Nurli vodiyga nur olib kelish uchun qanchadan-qancha mehnat sarf qilinganligi to‘g‘risida gapirdi.

Birkin bilan Vasiliy rubilnikni ishlatishni mashq qilishardi.

* * *

Usmonbek oyoqlari bog‘langan bolani qo‘lidan ushlab turardi. Abdurahmon bolaning oyoqlari bog‘langan chilvirni qirqish uchun qo‘lida qaychisi bilan uning oldiga yugurib ketdi. Xuddi shunday qaychi ushlab olishgan keksa Sulton, Qodir va yana bir necha chol uning orqasidan chopib borishardi. Mana, Abdurahmon chilvirni

qirqib tashladi. Turdixon unga bir piyola qo‘g‘irmoch uzatdi. Abdurahmon bilan chollar yana chopib ketishdi, chunki Usmonbek oldinda yana bir oyoqlari bog‘langan bolani ushlab turardi, undan narida yana, yana. Chollar chopib borisharkan, yo‘l-yo‘lakay chilvirlarni qirqishardi.

Abdurahmon uyg‘onib ketdi. U qo‘lida miltig‘i bilan xirmonda o‘tirardi. Oldida bug‘doy tog‘-tog‘ bo‘lib uyilib yotardi. Har yer-har yerda bug‘doy tozalaydigan mashinalar turardi, yog‘och belkuraklar, xokandozlar, chelaklar, zambillar yumalab yotardi. Aftidan, hamma elektrstansiyada bo‘ladigan mitingga ketishgan edi.

Tevarak-atrof jimjit, qorong‘i edi, birdan... Xirmon elektr nuridan xuddi kunduzgiday yorishib ketdi. U yoqda, uzoq-uzoqlarda, vodiyda ham chiroqlar charaqlab ko‘rindi. Kulgi, quvnoq ovozlar eshitilardi.

Yoshlar bug‘doyni elektr chirog‘i yorug‘ida mashinalarga ortish uchun xirmonga qaytishardi. Abdurahmon telpagini olib, chiroqlarga uzoq tikilib qoldi. Shamol uning oppoq sochini to‘zitib o‘ynardi.

Mashinalar tobora yaqinlashib kelardi.

Bunkerdan bug‘doy tinimsiz tushib turardi...

HIKOYALAR

MENING OLTIN BALIQCHAM

Dadam oqsoq bo‘lgani uchun urushga olishmadi. Uning odamlarga foydasi ham, zarari ham tegmasdi. Ba’zi-ba’zida ichib turardi, lekin janjal qilmas, qaytaga qo‘ydek yuvosh bo‘lib qolardi, meni erkalardi, xaxolab kulardi, kim nima desa xo‘p derdi. Lekin oyim dadamning ichib kelishini yoqtirmas, ko‘chaga haydab chiqarar, dadam ko‘pincha kechki ovqatsiz qolardi. Oilamizda janjal bo‘lib turishini kamdan kam odam bilar, chunki qopag‘on itimiz bo‘lgani uchun eshigimiz doim berk turardi. Dadam o‘z dard-hasratlarini eng yaqin ulfati Mirzabekka to‘kib solardi. Oyim uyda yo‘q paytlari ular bostirmaga kirvolishib otamlashishar, qulog‘imga Mirzabekning gaplari chalinardi:

— Xotinidan qo‘rqqan erkak erkak emas, bildingmi... Agar sening o‘rningda men bo‘lsam bormi... Eh! O‘zim bilardim-a. Qani, quy, endigi safar erkak nimaligini ko‘rsatib qo‘yishing uchun ichaylik.

Shundan so‘ng u xaxolab kular, dadam ham cholning ketidan hiringlay boshlardi.

Mirzabekning pand-nasihatlari ish bermasdi: uyda oyim o‘zini malikadek tutar, dadamni qarg‘ar, mening yuzimga tarsaki tushirib qolardi. Mana endi ulg‘ayganimda tushunyapman: oyim aslida yomon ayol bo‘lmagan, urush yillaridagi muhtojlik uni bag‘ritosh qilib qo‘ygan. Zayrani ko‘rdim deguncha uydagi hamma ko‘ngilsizlikni unutib yuborardim. U ushoqqina, ozg‘in qizcha edi, ikkalamiz bir partada o‘tirardik.

Zayraning dadasi qayerdadir, Volga bo‘ylarida jang qilar, oyisi bo‘lsa, hamqishloqlarini hayratda qoldirib, to‘satdan bir ko‘zi ko‘r do‘konchi Mamit bilan topishib, Qozog‘istonga jo‘navorgandi. Zayra o‘gay otamnikiga o‘lsam ham bormayman, deb buvisi bilan qoldi.

Har kuni sut olib kelish mening zimmamda edi. Oyim meni qayerga yubormasin, negadir ko‘chamizning oxiridagi Zayralar uyiga yo‘l olardim. Alkan buvi sigir sog‘ib bo‘lguncha Zayra ikkovimiz u

yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirardik. Uyga juda xursand bo‘lib qaytardim... Kech kirib, uylardagi yero‘choqlarga o‘t yoqilishi bilan sekingina uydan chiqib Zayrani kuta boshlardim. Gugurt taqchil edi, bir kuni Zayra biznikiga olov so‘rab kirgandi. Atigi bir marta kirdi-yu, o‘shandan keyin uni doimo kutadigan bo‘lib qoldim.

Zayra mendan yosh edi: yettinchi sinfdaligimda u oltinchida o‘qirdi. Ikkala sinf bir xonada dars o‘tar, ikkovimiz bir muallimaning qo‘lida o‘qirdik. Buni “mittilar” sistemasi deyishardi shekilli. Yuqori sinflar alohida-alohida o‘qishardi. Zayra ikkovimiz o‘rta maktabni tugatgandan keyin pedinstitutga kirishni orzu qilardik. Lekin men sakkizinchi sinfdan boshlab biz faqat tanaffuslardagina ko‘rishamiz, degan fikrga sira-sira ko‘nikolmasdim. Oxiri yettinchi sinfda ikki yil o‘qishim kerak, degan xulosaga keldim.

Qishki kanikuldan keyinoq darslarga kechikib kela boshlaganim, ko‘pincha umuman o‘qishga kelmay qolishim, dars tayyorlamaslik, nazorat ishlarida qo‘pol xatolar qilishimning sababini hech kim, hatto Zayra ham bilmasdi. Muallimamiz menga ikki baho qo‘yayotib, hayronman, degandek qo‘llarini yozardi. Direktor meni huzuriga chaqirib, to‘g‘ri yo‘lga solmoqchi ham bo‘ldi; ota-onamga shikoyat qilishdi, necha marta kaltak ham yedim. Hech narsa kor qilmadi, gapimda mahkam turib oldim, xullas, aytganim bo‘ldi — meni yettinchi sinfda qoldirishdi.

Yoz keldi...

Ovulimiz so‘lim, xushmanzara. Yerimiz antiqa, serhosil-u, bir kamchiligimiz, suv yo‘q. Ovulning narigi tomonida anhor oqadi-yu, lekin yozda darrov qurib qoladi, ekinlar qonib suv icholmaydi. Hozir GES ham qurishdi, kanal ham o‘tkazishdi, lekin o‘sha paytlarda suv masalasi og‘ir edi. Qishda qor suvini ichardik, boshqa vaqtlarda daryodan chelaklab suv tashirdik.

Ikki-uch kilometr joydan, toshli so‘qmoq, yo‘ldan suv opkelishning o‘zi bo‘ladimi. Shuning uchun ham uyda chelaklarning taraqa-turug‘ini eshitishim bilanoq juftakni rostlab qolardim. Oyim hayron bo‘lardi:

— Tavba, bu shumtaka qayoqqa yo‘qoldi-ya? Hozirgina shu yerda ivirsib yuruvdi-ku. Nima balo, yer yutdimi, ha, bo‘yning uzilgur-a!

Mabodo qo‘lga tushib qolsam, ming xil bahona qilardim: belim og‘riyapti, oyog‘im lat yegan, yurolmayapman, deb nolirdim, qornimni changallardim, dadam aralashmaguncha o‘zimni har yoqqa tashlayverardim. Ba’zan ish boshqacha bo‘lardi.

Zayraning chelaklari katta yumaloq kosaga o‘xshardi. Chelak ko‘targan Zayra so‘qmoqda ko‘rinishi bilan uyga o‘qday uchardim.

— Oyi, suv olib kelib beraymi?

— Nima, nima deding? Senga bir nima bo‘ldimi o‘zi?

— Keling, yo‘q demang, oyi... Axir suv kerak-ku.

— Kecha urib-so‘kib zo‘rg‘a yuborgandim-u, bugun o‘zgarib qolibsan! Ha, o‘g‘lim, kaltakning foydasi bor. Hozircha suv yetarli, kechqurun olib kelarsan.

Lekin hozir qulog‘imga gap kirmasdi. Chelakdagi suvni qozonlarga birpasda quyib chiqardim-da, jo‘nab qolardim, onam hang-u mang bo‘lganicha qolaverardi. Yalangoyoq ko‘cha changitib, hash-pash deguncha Zayraga yetib olardim.

— Zayrake, qayoqqa ketyapsan? — deb so‘rardim, garchi qayoqqa ketayotganini bilib tursam ham.

— Suvga. O‘zing-chi?

— Men ham... Oyim kir yuvyapti. Birga borsam maylimi?

— Mayli.

Daryo bo‘yiga tushamiz. Bu yerda kulgi, qiy-chuv, shodiyona qiyqiriq avjida: Jarg‘alonda tengqurlarimiz maza qilib cho‘milishadi. Zayrani o‘sha yoqqa taklif qilaman, lekin u negadir g‘alati kulimsirab, bosh chayqaydi.

— Yo‘-o‘q...

Tavba, bu qizlar g‘alati bo‘ladi-da! Ilgarilari, boshlang‘ich maktabda o‘qib yurganimizda Zayra ikkovimiz birga-birga cho‘milardik, hatto oshiq ham o‘ynardik. Endi u judayam o‘zgarib ketibdi. Oshiq o‘ynash u yoqda tursin, boshqalarning oldida men bilan gaplashmaydi ham. Tortinarmikin? Faqat mendan va o‘rtoqlarimdan emas, go‘yo butun dunyodan, borliqdan uyalayotganday. Xullas, tushunolmay qoldim... O‘zimcha xo‘rsinib qo‘yaman: har holda cho‘milsak yomon bo‘lmasdi-da.

Tepalikka chiqib yantoqzor ichiga kirib, bolalarga ko‘rinmay ketamiz, Zayra uchta katta sadaf tugma qadalgan ko‘k baxmal nim-

chasini yechib, obkashining tagiga qo‘yadi. Kalta qora soch o‘rimi oriq yelkalariga tushib turardi.

— Charchading-a?

— Yo‘q, yo‘q... o‘zim, shunday... — U kulimsiramoqchi bo‘ladi. Lekin baribir chelaklarini qo‘lidan olaman.

— Odamlar ko‘rib qolishadi, bu yoqqa ber, — deydi Zayra tashvish aralash.

Men ko‘naman. Qiz bolaning chelaklarini ko‘tarib yurganimni bitta-yarimtasi ko‘rsa, yaxshi emas-da, deb o‘ylayman o‘zimcha. Lekin o‘tkinchilar sal uzoqlashishi bilan yana uning obkashini ko‘tarib olaman. Zayra doim sal oldinda boradi, tik joy kelib qolsa, menga ingichka qoracha qo‘lini cho‘zadi. Biroq bir-ikki qadam yurishimiz bilan qo‘lini yana tortib oladi. Zayraning no‘xatday ziraklariga havasim keladi, ular xuddi oltin baliqchalarday jilolanadi, yaraqlaydi. Oddiy shisha ko‘zli bu ziraklar menga juda nodir, qimmatbaho buyumdek ko‘rinadi. Zayraning yumshoq, mayin soch va kokillariga qo‘limni tekkizgim keladi.

Mana, kuz ham kirdi. O‘rim-yig‘im yaqinda tugadi. Dalalar yalang‘och bo‘lib qoldi. Daryo bo‘ylari ham bo‘m-bo‘sh, holbuki bugun ertalabdanoq kun qiziy boshlagan edi. Zayra ikkovimiz Jarg‘alon bo‘yida birpas turib qoldik: suvga tosh otdik, sohil bo‘yiga suzib kelgan baliqchalarni tutishga urindik. To‘satdan ufqda chaqmoq chaqnadi, go‘yo olovli qamchi ko‘k yuzini tilib o‘tganday bo‘ldi. Ikkovimiz bir seskanib tushdik — bu yilning so‘nggi momaqaldirog‘i sira kutilmaganda gumburlasa bo‘ladimi.

— Ha, qo‘rqib ketding-a? — deya kulib so‘radim; keyingi gumbur-gumburdan o‘zimning ham qulog‘im bitib qolay dedi. Qo‘rquvdan rangi quv o‘chgan Zayra bosh chayqadi.

— Momaqaldiroqning bunchalik guldurashini birinchi bor eshitishim...

— Hechqisi yo‘q, — dedim gerdayib. — Hali juda ko‘p narsalarni ko‘rasan...

Eh, qani endi ko‘k yuzini tilib o‘tayotgan chaqmoqni ham, ko‘kimtir bulut orasidan birdan qalqib chiqqan quyoshni ham, uning ko‘pirib, shovullab oqayotgan Jarg‘alonni o‘z nuriga ko‘mishini ham, tog‘ etaklarini nurafshon etib, so‘ng uzoq-uzoqlarda

ufqqa tutashib ketgan Issiqko'l tomon suzishini ham Zayraning endi hech ko'rolmasligi o'shanda xayolimga kelgan bo'lsa-chi. Eh, qani endi bilsam edi...

Biz ulkan qoya oldiga chopib bordik, uning ostida g'or bor edi. Kolxozchilar u yerdan qum olishardi, yomg'irdan qochib, o'sha yerga kirib o'tirsa bo'lardi. Bo'taloqning ko'z yoshiday yirik yomg'ir tomchilaridan so'qmoqda chang ko'tarilardi. Ilon-iziday buralib ketgan so'qmoq tobora uzayib ketayotgandek bo'lardi. Jala quyardi, chaqmoq chaqib, yer-u ko'kni larzaga solardi. Suv to'la chelaklar yurishimizga xalaqit berardi, o'zimiz ivib ketgandik. G'orga kirishimiz bilan ko'ylagimni yechib, siqib oldim.

— Shamollab qolasan, Zayrake, ko'ylagingni siqib olgin.

Lekin Zayrake ajib kulimsiradi-da, devorga suyandi.

— Sovuq. Kasal bo'lib qolasan, — deb o'zimni ma'qullardim.

— Hechqisi yo'q, — u yana kulimsiradi-da, pastki labini tishladi.

Uning ho'l, sal jingalak soch o'rimi yonoqlariga, peshanasiga yopishib qolgandi, ko'k gulli yengil ko'ylagi esa badaniga yopishib, nozik, xushbichim qomatini tortib turardi. Zayra entikib-entikib nafas olarkan, ko'ksiga beixtiyor ko'zim tushib qoldi... Ko'ksi... Ana shunda hammasiga tushundim. Mo'jiza ro'y bergandi: oldimda yosh qizcha emas, bo'yga yetgan qiz turardi... Bu qiz — yaqindagina qizlar bilan, bolalar bilan oshiq o'ynab yurgan o'sha Zayra edi.

Nazarimda, bolalik o'sha daqiqada tugagandek, o'sha daqiqadan boshlab boshqa bir davr boshlangandek, o'zga bir narsa, allaqanday yangi, ajib bir nima boshlangandek edi... Vujudimni allaqanday g'alati, tushunib bo'lmaydigan sevinch hissi chulg'ab oldi. O'zim bo'lsam, qaqqayib turardim, unga telbalarday tikilib qolgandim. O'shanda nimaga xursand bo'luvdim? Balki Zayraning o'zgarib, katta bo'lib qolganigadir, ehtimol endi o'zim yosh bola emas, balki mustaqil yigit bo'lganimgadir. Bilmadim...

Ko'z qarashimda nimadir Zayrani xijolat qildi, shekilli, u qizarib-bo'zardi-da, iymanibgina qo'llari bilan ko'kragini berkitdi.

— Yur, uyga ketdik... — dedi u.

Men ho‘l ko‘ylagimni uning ozg‘in kiftiga tashladim-da, g‘orga kiraverishda turgan chelaklarga ko‘z qadadim. Ularga devordan loyqa tomchilar tomardi-da, tiniq suvda xuddi ertalabki tumanday sekin tarqalib ketardi.

— Ko‘rdingmi, — bosh irg‘adim men.

— Hozir to‘kib tashlaymiz-da...

— To‘kkaning nimasi? Axir, uydagilarga suv kerak-ku, kutishyapti-ku. Unday bo‘lsa Jarg‘alonga nega keldik?

— Suv kerakmas, — dedi u eshitilar-eshitilmas, keyin o‘girildi-da, boshini quyi solganicha g‘or devoridan mayda toshlarni cho‘qilab ola boshladi. Kichkina ziraklari esa oltin baliqchalarday titrab ketdi. Uyda suv keragidan ham ko‘pligini esladim. Nazarimda Zayra yuragimning gup-gup urishini eshitib turgandek edi. U men tomonga shartta o‘girilib, sho‘xchan, g‘alati nazar tashladi, keyin eshik oldiga bordi-da, kaftidagi toshlarni yomg‘ir tomchilariga tutib turdi.

— Qaragin-a! — yomg‘ir tomchilari toshlarni chertib ularning loyini yuvib tushardi.

— Zayrake, sovqotdingmi? — deb so‘radim bo‘g‘iq ovozda.

— Yo‘q, — dedi u, o‘zi esa dag‘-dag‘ qaltirardi.

Ko‘zlarimiz to‘qnashdi.

— Zayra...

— Turusbek...

Uning ho‘l sochlari chakkamga tegdi. Nazarimda, men ulkan qanot chiqarib, qandaydir noma’lum, sirli bir olamga o‘qday uchib ketayotganday, tevarak-atrofimda chaqmoqlar sho‘x-sho‘x o‘yinga tushayotgandek edi, momaqaldiroq sadosi esa qulog‘imga bu olam sir-asroridan voqif mo‘ysafidlarning o‘lanidek eshitilardi.

Jala yerni ayovsiz savalardi. Tog‘ yonbag‘irlaridan loyqa suvlar jildirab oqib tusha boshladi. G‘or oldida kattagina ko‘lmak hosil bo‘ldi. Biz suv betida to‘satdan paydo bo‘lib, xuddi shunday qo‘qqisdan g‘oyib bo‘layotgan pufakchalarni tomosha qilib turardik.

— E-e-e! — qayoqdandir yuqoridan ovoz keldi-yu, lekin u jala shov-shuviga ko‘milib ketdi.

Zayra qo‘llarini sekin tortib oldi:

— Bizni qidirishyapti...

Men osmondan yerga tushdim. Zayra chopib bordi-da, chelaklarni ag‘darib tashladi, keyin biz qo‘l ushlashib yuqoriga chopib ketdik. Oyoqlarimiz yopishqoq, bilch-bilch loyga botib qolardi, loyqa suvlar biz tomonga qarab tinimsiz oqardi. Tog‘ tepasida qiyalab yog‘ayotgan jala orasida bir necha otliqlarni ko‘rib qoldik.

— Ha, sayoq shumtakalar! — deb koyidi ulardan biri. — Hamma sizlarni daryoga cho‘kib ketdi deb yuribdi-yu! Qani, uyga jo‘nanglar!

Biz ovulgacha chopib keldik-da, keyin uy-uyimizga tarqaldik. Uyda kaltak yeyishim aniq edi, lekin bunga aytarli e’tibor ham bermadim, o‘y-xayollarim o‘sha sovuq g‘orda, Jarg‘alon bo‘ylarida kezardi. Yo‘q, bu kecha uxlay olmasdim! Saharlab turdim-da, otamning duxoba kamzulini kiydim-u, qorong‘ida eshikni paypaslab topdim. Osmon to‘la charaqlagan yulduz. Men osmonga tikilganimcha, qimir etmay turdim. Yulduzlar birin-ketin so‘na boshladi. Faqat tong yulduzi Cho‘lpongina go‘yo kechagi jalada yuvinib olganday tobora yanada yorqin, yana ham fayzli bo‘la borardi. Go‘yo u menga mug‘ambirona va sal xijolat bo‘lib kulimsirayotgandek edi. Zayraga o‘xshab. Mening Zayrakemga o‘xshab.

Olamni tiniq bir sukunat chulg‘ab oldi. Tong havosi nihoyatda sof, yengil edi. Tuproq hidi kelardi, chechaklarning xushbo‘y hidi dimoqqa urilardi. O‘shanda men shu soatda hamma joy ham xuddi bu yerdagiday tinch, osoyishta emasligi, qayerdadir zambarak o‘qi dahshatli portlab, odamlarning yostig‘ini quritayotganini o‘ylaganmikinman, esimda yo‘q. Esimda yo‘g‘-u, lekin qalbim yashash, orzu qila olish sevinchi bilan to‘lib-toshgandi, tong otishi bilan qishloq chetidagi uy oldiga boraman, uning qo‘ng‘iroqday kulgisini eshitaman, mehribon, xumor ko‘zlariga to‘yib boqaman, deb orzu qilish baxtidan sarxush edim... Ha, hayot go‘zal! Ana, mening yulduzim, mening taqdirim — u shunday yonginamda, qo‘limni uzatsam yetadi... Ko‘ppagimizning iliq tili bilan kaftimni yalayotganini endigina payqabman.

— Tur, jo‘na! — qo‘limni kamzulim etagiga artib, itimni bir tepmoqchi bo‘ldim-u, lekin bu fikrimdan qaytib, uning boshini silab, ko‘zlariga tikildim. It tishlarini irjaytirdi.

— Kallayi saharlab sang‘ib yurganing nimasi? Kolxoz o‘rigidan rosa yeb bo‘kkanga o‘xshaysan-a, chopib qolibsan, — deb oyim orqamdan qichqirib qoldi.

Onam doim barvaqt turadi. Men bunchalik tez tong otardi, deb o‘ylamagandim.

— Qiladigan ishing yo‘q-da, tekintomoq, shu isqirt itingdan boshqani bilmaysan, bor, uni bog‘lab qo‘y! Ertaga kir yuvaman, suv yetkazib bermay ko‘r-chi! Bor, otni egarla, otang bozorga tushadi. — U uyga kirdi-da, otamni uyg‘ota boshladi, otam o‘sha kuni Mirzabek bilan rosa ichishib, kechasi bilan xurrak otib chiqqan edi.

Egarni olib keldim, keyin qirchang‘i otimizni yetaklab chiqdim, bu orada Mirzabek ham kelib qoldi.

— Assalomu alaykum, yigit. Xo‘sh, badjahl otang uyg‘ondimi? Bugun bozor kuni, shoshilish kerak, kech qolsak, xotini adabini beradi... He-he-he... — Mirzabek kuldi-yu uyga kirib ketdi.

— Hammasini tushundingmi? — deb takror so‘radi onam. — Bir pachka choy, bir kilogramm tuz, bir kulcha sovun olasan. Ha, eng muhimi, sovun esingdan chiqmasin. Kir yuvmaganimga ikki oy bo‘ldi. Pullarga ichib qo‘yma, bilasan-ku, sotadigan hech nimamiz qolmadi...

— Men birga ketyapman-u, tashvish tortma, — dedi Mirzabek onamga tasalli bergan bo‘lib.

— Hamma balo birga ketayotganligingda-da, — dedi onam po‘ng‘illab.

O‘sha yillari choy, sovun, qand, tuz, lampamoy degani anqoning urug‘i edi. Choy o‘rniga sabzini kuydirib solishardi, lampamoy o‘rniga allanima quyishardi, lampaning portlab ketishi hech gap emasdi, bir kulcha kir sovunning puliga o‘ttiz dona tuxum olsa bo‘lardi.

Otam bilan Mirzabek ertalabki nonushtadan keyin echki terisini, yana mayda-chuyda narsalarni olishib, shaharga jo‘nab ketishdi, onam javray-javray, ularga oq yo‘l tilab qoldi.

Onam ikkovimiz tappi yopishga kirishdik. Men ivigan go‘ngni chelaklarda olib kelib berardim, onam tappi qilib devorga yopardi. Dardi fikrim bu ko‘ngilsiz ishni tezroq tamomlasam-u, qishloq chetiga, Zayra kutib turgan joyga tezroq chopib borsam. Lekin,

odatda, qo‘li qo‘liga tegmaydigan onam xuddi aksiga olganday, imillab ishlardi, hadeb ro‘molini to‘g‘rilab qo‘yar, dam-badam tushib, xalaqit berayotgan yengini shimarib qo‘yishni buyurardi. Men lom-mim demay yenglarini shimarib qo‘yardim yoki go‘ng to‘la chelak oldida toqatsizlanib kutib turardim.

Zayralarning uyi tomonga dam-badam qarardim, lekin ko‘chada hech kim ko‘rinmasdi. Birdan ko‘chaning oxirida yakka odamning bukchaygan gavdasi ko‘rindi. Zayraning buvisi hassa tayanib kelardi. Uni darrov tanidim. U bir-bir qadam bosib kelar, o‘qtin-o‘qtin to‘xtab, quyoshga qarab qo‘yardi, akillab ergashgan itlarni hassasi bilan haydardi.

— Hormanglar, qizim, — deb ko‘rishdi u yonimizdan o‘tib ketayotib, onam bilan. — Ering uydami?

— Yo‘q. Nimaydi?

— Nevaram kecha jalada qolibdi, — kampir burishgan lablarini cho‘pillatdi. — Kechasi bilan yo‘talib chiqdi... hozir o‘t bo‘lib yonyapti. — Alqan buvi yoshlangan ko‘zlarini va sarg‘ish ozg‘in yuzini yengi bilan artdi.

— Mayli, opa, shahardan kelsa, kirib chiqadi, — dedi onam beparvogina va yana o‘z ishini qilaverdi.

Yuragim shuv etib ketdi. Zayrake kasal. Uni hoziroq ko‘rib, ikki og‘iz shirin gap aytishim kerak. Bordi-yu, kasali og‘ir bo‘lsa-chi? Garchi qishloqda otamni hurmat-ehtirom bilan “emchi aka” deb atashsa ham Zayraga nima bilan yordam berishi mumkin? Bilardim, bemorlar otamning aytganlarini so‘zsiz qilishardi; suv desa — suv, moy desa — moy ichishardi. Hamma unga ishonardi. Og‘ziga muqaddas suv olib, tishimni tuzatganidan keyin men ham ishonib qolgandim.

Qosh qoraymaguncha ko‘chaga chiqib ketishning iloji bo‘lmadi: otamning kelishini sabrsizlik bilan kutayotgan onamning jahli chiqar, butun alamini mendan olardi. Kechki ovqat oldidan bir amallab qochib qoldim. Lekin Zayralarning uyi qorong‘i va jimjit edi. Men ularning derazasi tagida uzoq turdim, derazani taqillatmoqchi bo‘lib qo‘limni beixtiyor ko‘tardim-u, lekin yana tushirdim. Ilgari shartta taqillatgan bo‘lardim, xo‘sh, nima qilardi? Ikki

kun oldin ham taqillatardim, lekin bugun yuragim betlamayapti. Shu ko'yi uni ko'rolmadim.

Ertasi kuni yanayam og'ir bo'ldi. Otamdan darak yo'q edi, onamning joni hiqildog'iga keldi. Zayralarning uyi oldiga bir necha marta bordim, hatto Zayraning zaif ovozini boshqalarnikidan ajratdim ham, lekin kirishga yuragim betlamadi: uyda boshqa odamlar bor edi, kalaka qilishadi, deb qo'rqardim. O'shandagi bema'ni ishim, qo'rqoqligim uchun o'zimni sira-sira kechirolmayman. Alqan buvi esa biznikiga ikkinchi bor keldi.

— Kelgani yo'q, — dedi onam horg'in. — Unga nima bo'ldiykin, sira aqlim yetmay qoldi.

Otam bilan Mirzabek kechga yaqin kelishdi. Ular g'irt mast, xunukdan xunuk ishshayishar, ashula aytmoqchi bo'lishardi. Otam darvoza oldida egardan xuddi qopday gup etib ag'darilib tushdi; Mirzabek telpagini uning boshi tagiga qo'ydi-da, o'zi gandiraklaganicha uyi tomonga ketdi. Otam shu zahoti xurrak ota boshladi.

— Tegma, yotgan yerida o'lmaydimi! — dedi onam darg'azab bo'lib. — Uni uyga olib kira ko'rma! Shoshmay tursin, bozor nimaligini unga ertalab ko'rsatib qo'yaman!

Onam yig'lab yubordi. Onamning o'z og'ir qismatidan bitta-yarimtaga hasrat qilgani chiqib ketganidan foydalanib, otamni uyga bir amallab sudrab olib kirdim-da, oyog'idan etigini yechdim.

* * *

Hali tong ham otmagan payt:

— Ket bu uydan, qorangni ko'rmay! — degan qichqiriqdan uyg'onib ketdim. — Boshqalarday frontda o'lganing afzal edi. E, xudoyim, nega urushga kelib-kelib yaxshi odamlarni olib ketishadi-ya. Ket, deyapman, yo'qsa soqolsiz qolasan! — onam yuz-ko'zlari shishib ketgan otamni yoqasidan ushlab silkitardi.

— Meni o'z holimga qo'y. Senga nima yomonlik qildim? — derdi otam jerkib.

— Nima qildim deydi-ya?! Bu ozmi! Kechagi pullar qani? Qani tuz? Sovun-chi? Piyanista, sovun qani, deyapman, javob ber, sovun qani?

— Qanaqa sovun?

— Mirzabek ikkovingiz puliga araq ichgan sovun?

— Biz sovunning puliga ichganimiz yo‘q...

— Zahar ichsalaring bo‘lmasmidi? Qani sovun?

— Unda... Mirzabekda qoldi, — dedi otam mujmal kilib. — Bir bo‘lak sovun.

— Chiqib ket! Sovun topib kelmaguningcha uyga qadam bosma! Bor, sen yaramas ham piyanista otang bilan jo‘na, — onam menga o‘dag‘ayladi. Biz indamay hovliga chiqdik. “Men-ku, mayli-ya, bolaman, — deb o‘ylardim o‘zimcha g‘amgin. — Xo‘sh, otam undan nega qo‘rqadi-ya? Yaxshilab bir tushirsa bo‘lmaydimi!”

Mirzabek peshanasini ho‘l sochiq bilan tang‘ib olib, ihrab-sihrab choy ichardi, uning ham yuz-ko‘zlari otamnikiga o‘xshab shishib ketgandi. O‘zidan ancha yosh, o‘lguday ayyor, uddaburon xotini xotirjam choy quyib, piyolalarda otam ikkovimizga uzatdi.

— Eski oshnangni ertalabdan xursand qilmoqchi bo‘libsanda? — dedi Mirzabek xirillagan ovozda, otamga ko‘zini qisib. — Tinchlikmi o‘zi, Mo‘ke?

Lekin hozir otam hazillashadigan ahvolda emasdi. U og‘ir xo‘rsindi.

— Bizni xudo qahriga oldi... Sovunni olib kel, deydi. Sovunsiz qorangni ko‘rsatma, deydi... Balki, bir ilojini qilarsan-a? Axir xotinimning fe’l-atvori senga ma’lum-ku.

— Hm... Nima qilsak ekan? — keyin qaynoq choydan xo‘rillatib ichdi. — Sovun topib ber deyapti, deysanmi?

— Mabodo topib bersalaring ham juda qimmatga tushadi-da, — dedi Mirzabekning xotini idish-tovoqlarni yig‘ishtirar ekan shunchaki gap orasida.

Yana oraga jimlik cho‘kdi. Shu payt qo‘shnimizning qizchasi chopib kelib qoldi:

— Mo‘ke amaki, Zayraning buvisi sizni kirsin, deyapti. Zayra kasal ekan. Isitmalab yotibdi. Uni tuzating.

— E, ertaga, ertaga. Hozir vaqtim yo‘q, o‘zimning tashvishim boshimdan oshib yotibdi, — dedi otam qo‘llarini silkitib. Men hayron bo‘lib qoldim. Shunday deyishga qanday tili bordi-ya, axir, Zayra, mening Zayram kasal-ku. Yig‘idan o‘zimni zo‘rg‘a tutib tu-

rardim, otamni qanday ko‘ndirishni bilolmay garang edim. Lekin shu payt Mirzabek o‘rnidan sapchib turdi:

— Shoshma-shoshma, Mo‘ke! Ko‘p tashvish qilaverma. Qulog‘ingni ber! — u otamning qulog‘iga allanimalar deb shivirladi. Otam uning so‘zlarini tinglarkan, qon to‘la ko‘zlari sarosimada javdirardi, keyin u bir nimani tushundi shekilli, miyig‘ida kulimsirab, Mirzabekning yelkasiga urib qo‘ydi.

— Kampirga, u hozir keladi, degin, sen-chi, — u menga murojaat qildi. — Bor, onangga ayt, sovun topiladi, de.

— Siz bilan birga kirsam maylimi? — deb so‘radim.

— Senga pishirib qo‘yibdimi? Nima, kasalni qanday davolashlarini ko‘rmaganmisan? Bor, jo‘na!

Ko‘nishga majbur bo‘ldim.

Lekin onamning sovun topiladi, degan gapdan, va’dadan ko‘ngli to‘lmadi; u baribir meni uyga qo‘ymadi. Darvozaning oldida o‘tirishga to‘g‘ri keldi, to‘g‘ri, uzoq o‘tirganim yo‘q. Hademay otam kelib qoldi, qo‘lida qop-qora, yopishqoq bir bo‘lak sovun. Bir yo‘lini qilib, Zayraning ahvoli qalay, deb so‘radim. Otam bir nima deb g‘o‘ldiradi-da, yo‘tala ketdi.

Jarg‘alondan o‘n to‘rt chelak suv tashib keltirdim, qayerim qattiq azob berayotganini, yelkalarimmi yo yuragimmi, o‘zim ham aniq bilmasdim. Har gal g‘or oldidan o‘tganimda, ko‘lmakka ko‘zim tushardi, o‘shanda biz unda pufakchalarning yorilishini tomosha qilgandik, endi u ancha kichrayib qolgandi, xotirjam, tinch edi, yuzimga ho‘l soch tutamlarining tegayotganini his etardim, oltin baliqchalarning titrashini ko‘rib turardim. Uh, tezroq kech kirsaydi, bu la’nati kir tezroq tugasaydi, o‘sha aziz deraza oldiga tezroq borsam-chi! Onam yuvilgan kirlarni yoyishga ulgurmasidanoq men qishloq chetidagi uy tomonga qarab o‘qday otildim. Nima bo‘lganda ham Zayrani bir ko‘rishim kerak edi! Biroz o‘ylab turdim-da, keyin yarmi qulab tushgan devordan oshib, bog‘ga kirdim-u, Alqan buvining chiqib sigir sog‘ishini kutdim. Kampir chiqishi bilan derazasini taqillataman.

Oyoq tovushlari eshitildi, devor yonidan otam o‘tib ketdi. Men lip etib, butalar ichiga yashirindim. Otam Alqan kampirni chaqirib chiqdi-da, qog‘ozga o‘rog‘liq bir nimani unga uzatarkan, dedi:

— Men shu sovunga dam soldim, — u endi shifoli bo‘ldi. — Nevarangizni cho‘miltiring, ikki kundan keyin sog‘ayib ketadi.

Men aniq ko‘rdim, bu otam ertalab onamga bergan kir sovunning olqindisi edi. Kampir olqindiga hayron bo‘lib tikilib qoldi, men bo‘lsam uyalganimdan yerga kirib ketguday holatda edim: o‘rnimdan sapchib turdim-da, orqa-oldimga qaramay uyga chopdim.

— Olqindini ko‘rmadingmi? — deb baqira ketdi onam menga.

— Yo‘q! Balki it yeb qo‘ygandir...

— It yeyishini senga ko‘rsatib qo‘yaman. Qarab tursang bo‘lmasmidi. So‘nadan qochgan buzoqday shataloq otib, chopganing-chopgan. Yana bir kir yuvishga yetarmikin, deb o‘ylovdim. Birpasda ilib ketishibdi-ya. Tavba, hech nimani qarovsiz qoldirib bo‘lmaydi. Qanday kunlarga qoldik o‘zi!

Onamga to‘g‘risini aytganim yo‘q — shundayam o‘g‘irlangan olqindini rosa bir hafta gapirib yurdi, o‘zicha kimlarnidir qarg‘adi. Ertasiga, Zayraning ahvoli og‘irlashgani ma’lum bo‘lishi bilan haqiqat o‘z-o‘zidan ochildi-qoldi: qiz bechora alahsirab yotganmish, hech o‘ziga kelolmayotganmish. Yo‘q, ortiq chidab turolmadim. Zayra ikkovimiz tez-tez uchrashib turadigan o‘sha ostona oldiga qanday borib qolganimni o‘zim ham bilmay qoldim.

Eshikni baland bo‘yli, yoshi anchaga borib qolgan ayol, kolxoz brigadiri ochdi — u Zayralarning uzoq qarindoshi edi. Ayol menga xo‘mrayib, boshdan oyoq razm solib chiqdi-da, sovuqqina so‘radi:

— Senga nima kerak?

— Men birpasga... Uni ko‘rib...

— Ko‘rib? — ayol zaharxandalik bilan kulimsiradi. — Balki boshqacha davolamoqchidirsan? Nima, sovun yetmay qoldimi? Yo uni yana bir cho‘miltiraylikmi? Bechora kampirni shuncha laqillatdilaring, yetar! U, jodugarlar, yuzi qoralar, — u menga mushtini ko‘tarib, po‘pisa qildi, — qiz bechorani o‘ldirmoqchimidilaring?!

— Hoy, Kukuy, kim bilan urishyapsan? — deb so‘radi Alqan buvi horg‘in, bo‘g‘iq ovozda.

— Yana bittasi keldi, o‘sha muttaham emchining o‘g‘li...

Juda bo‘ladiganim bo‘ldi. O‘pkam to‘lib ketdi. Ko‘z yoshimni arang yutib, jo‘nab qoldim, butun urug‘-aymog‘im sha’niga yozilgan qarg‘ish orqamdan anchagacha eshitilib turdi.

Tevarak-atrofga anchagacha talmovsirab, esankirab yurdim, nima qilarimni bilmasdim. Nazarimda, butun a’zoyi badanim muzlab qolganday, yuragim to‘xtab qolganday edi. Mening yulduzcham so‘ndi: oltin baliqchalarim tobora olislar, qorong‘ilik qo‘yniga singib borar, men esam bir nima qilishga ojiz edim.

Kechga yaqin Tepadan vrach keldi. Qishloqda uni oddiygina qilib Krivonos deb atashardi. Aleksey Stepanovich Krivonosov urush yillari ovulma-ovul yurib, bemorlarni davolardi, ukol qilardi, dori-darmon berardi, kiyimlarni, ko‘rpa-yostiqlarni dezinfeksiya qilardi, axiri horib-charchaganidan gandiraklab yurolmay qolardi.

Krivonos Zayraning u yoq-bu yog‘ini tekshirib ko‘rdi-da, Alqan buviga sekin gapirdi:

— Bardam bo‘ling, boybicha. Aqalli bir kun oldin chaqirganlaringda ham...

U Zayraning jindak shamollaganini, keyin nima ham bo‘lib, o‘pkasining ikki tomoni yallig‘langanligini tushuntirib berdi. Alqan buvi yig‘lab yubordi.

O‘sha kuni tongga yaqin Zayra olamdan o‘tdi...

Bunga kim aybdor? Razilona maslahat bergan Mirzabekmi? Ichkilikdan insoniy qiyofasini yo‘qotgan otammi? Onamning fe’l-atvorimi? Nodonlikmi? Yo odamlarning yostig‘ini quritgan urushmi?

Men hech nimani unutolmayman, o‘z oltin baliqchamni unutolmayman. Axir, har kimning ham o‘z oltin baliqchasi bo‘ladi. Usiz... Usiz yashab bo‘larkanmi?

TABASSUM

Tyanshan daralaridan biriga yashiringan, oppoq qor bilan burkangan kichkina bir ovulda, ko‘rimsizgina loy tomli uyda keksa ayol o‘lim to‘shagida yotardi. Uning o‘lim bilan olishayotganiga juda ko‘p vaqt bo‘ldi, qancha bo‘lganini o‘zi ham bilmasdi. Ehtimol, birinchi farzandini tug‘gan kundan, balki ayol bo‘lgan kunidan boshlangandir, kim biladi, balki undan ham avvaldir... Ba’zida unga, allaqachonlar o‘lgandek, katta yorug‘ sag‘anada yotganday tuyulardi; uning derazalaridan yorug‘ tushib turganday, devorlarida shu’lalar o‘ynayotganday, tashqarida esa teraklarning shivir-shiviri eshitilayotgandek bo‘lardi.

Uning ongida o‘tmish bilan bugungi kun, kuz bilan bahor, kun bilan tun aralashib ketgandi. U doim ko‘zlarini yumib yotardi, kimdir choy ichgani chaqirgandagina ochardi.

Kampir boshini ko‘tarib, tarashaday qotib ketgan qo‘llariga qaynoq choy quyilgan piyolani olardi-da (kaftlari issiqni ham, sovuqni ham his etmasdi), icha boshlardi, oldinga tikilib qarardi-yu, lekin piyolasiga nonning yumshoq joyini tashlab turgan qizchani deyarli ko‘rmasdi. Bemor choy ichardi-yu, lekin ichida non borligini sezmasdi, keyin u oriq, sertomir qo‘lini oldinga cho‘zardi. Qizcha boshini engashtirib turardi, kampir g‘adir-budur kafti bilan qizchaning boshini silardi.

— O‘zing ichdingmi ishqilib? — deb so‘rardi kampir.

— Ichdim, — deb javob berardi qizcha.

— Otang keldimi? — deb so‘rardi kampir.

— Keldi...

— Nima opkeldi?

— Go‘sht bilan shirin kulcha.

— Yana tog‘ga chiqib ketdimi?

— Ha, ketdi. Suruvni pastga haydab tushamiz, deydi, komissiya qaytadan sanab chiqarmish.

— Nimasini sanaydi? Qashqirlar yo‘lamadi, o‘lat bo‘lgani yo‘q...

Unga javob bermasa ham bo‘lardi — kampir o‘zi bilan o‘zi gaplashaverardi.

— Onang-chi?

Bu savolga javob berish kerag-u, lekin qizcha indamaydi.

— Onang qani, deb so‘rayapman?

— Shaharda...

— Shaharda. Sen unga xat yozdingmi, yaramas ekansan, dedingmi? — Yozgin! Hatto bo‘ri ham o‘z bolalarini tashlamaydi... Onang yaramas, iflos. O‘yin-kulgini qo‘msab qolgandi. Agar qo‘ynimda zaharli ilonni asrab yurganimni bilganimda, o‘zimni o‘zim chavaqlab tashlardim...

Hozir ham indamasa bo‘ladi. Qizcha piyola, choynak, nonni yig‘ishtirib, shkafga qo‘ydi.

— Shaharni qo‘msab qolganmish. Ko‘ramiz. Ko‘ramiz, shaharda holi nima kecharkin. U yoqda suvniyam pulga sotib olib ichasan... Eh, baxtiqaro, sho‘rpeshana! Ko‘z yumguday bo‘lsam, kim bilan qolasan? — deb so‘rab qolardi kampir to‘satdan.

— Otam bilan...

— Otam bilan... Tog‘ma-tog‘ yurib, qo‘y boqasanmi?

— Boqaman...

— Boqaman? Oyoqlaring yorilib, qiyshiq bo‘lib qoladi, er olmaydi, — deb ogohlantirardi kampir.

— Erga tegmayman.

— Te-ga-san! Tirik mavjudot borki, juft yashaydi. Bola tug‘adi... Otang ham hozircha chidab yuribdi, alami ichida. Sal ko‘nikkanidan keyin boshqasiga uylanadi. Xotini o‘gayligini qilib, seni uradi. Hech kim yoningni olmaydi. Men bo‘lmayman. E sho‘rlik qiz! Bunchalik baxtiqaro bo‘lmasang...

Qizcha uydan chiqib ketdi-da, bir quchoq yog‘och, tezak olib kelib pechkaga tashladi.

— Nima, uyni isitmoqchimisan? — kampir qizning oyoq tovushini eshitib o‘girildi.

— Bo‘ron bo‘larkan.

— Qayoqdan bila qolding?

— Televizorda aytishdi.

— Kim aytdi?

— Chiroyli bir xotin aytdi.

— Chiroyli xotin emish! Chiroyli xotinlarning hammasi yolg'onchi bo'lishadi. Birovlarning erini yaxshi ko'rishadi, yo'ldan urishadi. Hozircha yoshsan — yaxshisan, katta bo'lsang senam aldaysan.

— Aldamayman.

— Al-daysan. Qizligida-ku, hammasi yaxshi bo'lishadi, erga tekkandan keyin nega aynib qolishadi-ya?

Bugun buvisi odatdagidan ko'proq gapirdi, demak, o'zini yaxshiroq sezyapti shekilli.

Qizcha kampirning oldiga bordi-da, boshiga tivit ro'mol o'radi.

— Nega ro'mol o'ratyapsan? Ko'chaga chiqmayman-ku! — dedi kampir ranjib, go'yo ko'chaga chiqib yura oladigan odamday.

— Eshikni ochib qo'yaman, pechka yaxshi tortmayapti, tutun...

— Shamollasam, balki tezroq o'larman...

Lekin qizcha eshikni ochib yuborganidan keyin kampir ko'rpa tagiga kirdi-da, jimib qoldi. Tashqaridan izg'irin otilib kirdi, xonada g'ir-g'ir aylanib, latta-luttalarni silkitib o'ynatdi, tezakning o'tkir hidini taratib yubordi. Kampir ko'rpaning bir uchini sal ko'tarib, nafas olgani boshini chiqardi. Sof, muzday havo burun kataklarini qitiqladi, keyin ko'ksiga o'tdi, bundan kampirning boshi yoqimli aylanib, ko'zlariga yosh keldi. Uni mudroq bosdi...

Qizcha omborxonaga yashirib qo'yilgan yashikni yana esladi. Bir hafta avval ham qizcha mana shunday xonani shamollatish uchun eshikni ochib qo'ygandi, buvisi uxlab qolgandi, shu payt uylarining oldiga bir otliq kelgandi. Bu pochtalyon Botirbek edi.

— Hoy katta qiz! — deb chaqirdi u (yosh qizlarni shunday deb chaqirishardi). — Posilkangni nega olib ketmaysan? Onangdan bo'lsa kerak, — dedi u.

— Buvim ruxsat bermayapti! — deb javob qildi qizcha.

— Bunchalik toshbag'ir bo'lish yaxshimas. Axir, ming qilsayam o'z tug'gan onang-ku, nima, qaytarib yuborarmidik. — Botirbek yashikni berdi-da, jo'nab ketdi.

Qizcha yashikni saroyga olib borib qo‘ydi. Chindanam posilka onasidan edi. Lekin buvisi undan hech nima olmagin, deb qattiq tayinlab qo‘ygandi.

Mana, yashik bir haftadan buyon omborxonada yotibdi...

Qizcha eshikni yopdi-da, oshpichoqni olib, tutantiriq tayyorlay boshladi, lekin es-xayoli o‘sha posilkada edi. Ichida nima borikin? Hoynahoy, shirinlik, kim biladi, chiroyli ko‘ylak yoki Zakennikiday chiroyli charm botinka bordir: tagcharmi silliq, jigarrang, shundoq poshnasining oldiga o‘yib 30 raqami yozilgan. Balki uning ichida o‘zi sira o‘ylamagan, xayoliga keltirmagan narsalar bordir... Axir buvisi qachon o‘ladi, qancha kutish kerak? O‘lgandan keyin hamma yoqdan qarindosh-urug‘lari yopirilib kelishadi, uv tortib yig‘lashadi. Uni qil, buni qil, deyishadi, qo‘ylar so‘yishib, go‘shtini omborxonaga ilib qo‘yishadi, ana shunda posilkani, albatta, ko‘rib qolishadi.

Balki oyisi ham kelar, lekin buvisi oyisiga o‘lganimda kelma, degan. O‘shanda onasi buvisining oyoqlariga bosh urib: “Meni kechiring... meni kechiring... meni kechiring...” — deb iltijo qilgandi. Buvisi ozg‘in qo‘lini ko‘tarib: “Yo‘qol!” — degandi. Onasi, go‘yo xuddi o‘sha so‘zni kutib turgandek, kichkina o‘g‘ilchasini bag‘riga bosganicha uydan otilib chiqib ketgandi, o‘zining va chaqaloqning kiyimlari tugilgan bo‘xchani unutib qoldirgandi. Qizcha bo‘xchani olganicha onasining orqasidan ketma-ket chopib chiqdi, lekin onasi bu payt yon tomonlarida qora katakchalari bor mashinaga o‘tirdi-da, eshigini qarsillatib yopdi. Qizcha mashina orqasidan yugurdi, lekin u uyning orqasiga o‘tib burildi-yu, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Qizcha alamiga chiday olmay uy atrofida gir-gir aylanar, nima qilarini bilmasdi. Axir, tug‘gan onasi uni tashlab ketishi mumkin emas-ku! Keyin ovuldan uzoqda ko‘tarilgan chang-to‘zonni ko‘rdi. Orqasi oftobda yaraqlagan mashina onasini tobora uzoqqa olib ketardi. Qizcha muk tushib, tuproqni changallaganicha ho‘ngrab yig‘lab yubordi. So‘ng uning shaharga ketayotganini ko‘rgani chiqishgan hamqishloqlari qizchani o‘rab olishib, miq etmay turishardi: mayli, yig‘lab-yig‘lab, ko‘nglini bo‘shatib olsin, yengil tortadi. Keyin uni qo‘llarida ko‘tari-

shib uyga olib kirishdi, yengil, shirin turmush deb o‘z bolasini chirillatib tashlab ketgan onani rosa koyishdi...

Otasi kechasi allamahalda, butun ovul uyquga ketganida keldi. U katta beso‘naqay kafti bilan qizining boshini silab, olovga uzoq tikilib qoldi... Buvisi karavotda yotardi, ustma-ust yo‘talardi. U go‘yo kuyovidan xijolat bo‘lib yo‘talayotgandek edi. “Men nima ham qila olardim? Qarib qolgan bo‘lsam, bu yoqda kasallik”, — uning yo‘tali shunday deyayotganday edi. Qizcha negadir o‘sha kuni o‘zini juda yengil, yaxshi his etdi — otasi uni ilgarilari hecham erkalamagan edi, endi u qizidan boshqa aziz kishisi yo‘qligini his etdi. Kuchli odamning butun mehri yolg‘iz unga, qiziga qaratilganini his etish juda ko‘ngilli, yoqimli edi.

...Qizcha pechkani yoqdi. Sovib qolgan choynak darrov yana shig‘illay boshladi. Birdan uning miyasiga shum fikr kelib qoldi. Bordi-yu yashikni ochib, ichidagini ko‘rsa, keyin yana yopib qo‘ysa, nima qiladi?! Buvisi uxlab yotardi, lablarini qimirlatardi, hoynahoy tushida ham bebosh qizini qarg‘ayotgandir. Qizcha omborxonaga lip etib kirdi-da, yashikni olib chiqdi va ehtiyotlik bilan ochdi. Ustida konvertda unga yozilgan xat yotardi. Qiz biroz o‘ylanib turdi-da, axiri konvertni ochdi: “Qizginam! Seni o‘ylasam yurak-bag‘rim ezilib ketadi, qon yig‘layman. Balki senga, onang shaharda yashash uchun seni tashlab ketdi, ehtimol, otang institutni tamomlamagani uchun onang uni tashlab ketdi, deb qulog‘ingga quyishayotgandir? Lekin, aslida, bunday emas, nuri diydam. Ukang Taalaybek bilan birga seniyam olib ketmoqchi edim, lekin otangga rahmim keldi. U yolg‘izlikdan, hasratdan adoyi tamom bo‘ladi, deb o‘yladim. Otang juda yaxshi odam, bu qadar qon qaqshatishga haqqim yo‘q, bunday jazoga loyiq odam emas. Taalaybekka ona ko‘kragi kerak, sen katta bo‘lib qolding, otang, buving bilan yashashing mumkin. Ha, buvingni ham yolg‘iz qoldirib ketolmasdim. Endi otang uning uchun begona odam... Hozir sen kichkinasan, katta bo‘lsang ko‘p narsaga tushunasan, inson umri — bu faqat yashagan yillari emas. Bu, atigi bir soat, bir daqiqa ham bo‘lishi mumkin, sen o‘shanda birdan o‘zingni qushdek his etasan, hamma narsani tashlab, boshing oqqan tomonga uchib ketging keladi. Buving — o‘z onam meni hech qa-

chon tushungan emas, tushunmaydi ham. U butun umri bo‘yi ter to‘kib ishladi. Hayot unga bir burda non uchun kurashdan iborat edi. Uning boshi g‘am-tashvishdan chiqmagan, na dugonalari bilan, na o‘z eri bilan chaqchaqlashib o‘tirgan. Baribir bir qop tezak solingan qopni orqalab borishi kerakligini, pech yoqishini, bolalarini ovqatlantirishini, mast eri bilan g‘ijillashishini sira ham unutmagan. Butun umri bo‘yi bir siqim donni, har bir so‘mni tejab kelgan, boshi muhtojlikdan chiqmagan. Qani endi besh-o‘nta ko‘rpa-yostig‘im bo‘lsa, deb orzu qilgan, lekin uchtadan ortig‘iga erisholmagan. To‘rtinchisini olgunicha, birinchisi yirtilib bo‘lardi. Bir yo‘la o‘n ikkitasini olishga jur’at etolmasdi — ertaga nonga pulimiz qolmaydi deb qo‘rqardi...”

Xat juda uzun edi — daftarning bir necha varag‘i yozib to‘ldirilgan edi. Onasi, hozircha birovlarnikida turganini, hali kvartira ololmaganini, konfet fabrikasida ishlayotganini xabar qilgandi. Qizcha xatning ba’zi joylariga tushunmasa ham oxirigacha o‘qib chiqdi. Onasi xat yozishga usta. Uning muqovasi yaltiroq, qalin daftari bor edi, siyohda gullar rasmini solar, qo‘shiq to‘qirdi. Qizcha bu daftarni necha-necha bor varaqlagan. Garchi undagi har bir so‘zni tushunib tursa-da, lekin hammasining tagida g‘alati bir sir yotganday edi. Xat ham shunga o‘xshab ketardi. Bir qarashda hammasi tushunarlidek tuyulardi-yu, ayni vaqtda ba’zi o‘rinlarini tushunib, anglab bo‘lmasdi. Bir narsa ravshan edi: onasining bu ishi — shunchaki o‘jarlik ham, nodonlik ham emasdi. Bunda qandaydir o‘ta murakkab, chigal ma’no bor. Sababi, onasi qizi oldida o‘zini oqlamas, u na buvisi, na otasi, na ovuldagilar tushunib yetmagan bir narsani tushuntirib berishga urinardi. Balki otasi hammasini tushungandir-u, lekin bir nima qilishga ojizdir.

Shunisi ham ayon ediki, onasi juda kamdan kam, alohida bir sabablarga ko‘ra bo‘ladigan ishni qilgandi.

Onasi turmushimdan juda xursandman, deb yozgandi-yu, lekin, garchi u konfet fabrikasida ishlasa ham, hozir onasiga oson emasligini qizi sezib turardi.

Qizcha xatni yaxshilab bukladi-da, ko‘ylagining ichiga yashirib qo‘ydi. Yashikda konfetlar, issiq paypoq va ichki kiyimlar bor edi. Oq choyshablar alohida o‘ralgan edi. Onasi yozgandi:

“Senga qizil shapkacha sotib oldim, uni keyinroq yuborarman, buving ko‘rib qolsa, shartta olib pechkaga tashlaydi, ko‘ylaging bilan paypog‘ingni kiyib yurgin-u, lekin buving sezmasin. Pul tushsa, senga qora xol-xoli bor oq po‘stin olib beraman. Aytishlaricha, uni yuvsa bo‘larkan. To‘rtta choyshab buvingniki, eski sandiqda yotgan ekan, degin...” Buvisi deyarli ko‘zdan qolganini onasi bilmasdi.

Buvisining choyshablari ishlatilaverganidan, yuvilaverganidan sarg‘ayib ketgani qizchaning esiga tushib qoldi, uxlab yotganida ularni almashtirib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Qizcha uyga kirdi-da, buvisining boshiga oyoq uchida yurib borib, ustidagi ko‘rpa va eski choyshabni sekin oldi. Buvisi allanima deb g‘o‘ldiradi-da, g‘ujanak bo‘lib yotib oldi. Kampir yangi choyshabning hidini sezib, ko‘zlarini ochdi, uni barmoqlari bilan paypaslab ushlab ko‘rdi.

— Hoy, — deb chaqirdi buvisi.

Qizcha javob bermadi.

— Hoy! Bilib turibman, sen shu yerdasan! Choyshabni qayoqdan olding?

— Eski sandiqdan, — deb javob qildi qizcha.

— Eski sandiqdan. Uni o‘zimga asrab qo‘yuvdim-ku.

— O‘zingizga solib berdim-ku.

— Olib qo‘y! O‘lganimda kafanligimga ishlatasan! — dedi buvisi shartta.

Qizchaning ko‘zlari katta ochilib ketdi. Buvisi quzg‘unday ko‘ziga xunuk ko‘rindi: yuzi cho‘zilib, siyrak oq sochi to‘zib ketgandi.

— Ha, nega qaqqayib turibsan? Sandiqqa solib qo‘y. Surpni nega qirqding?

— Hech nimani qirqqanim yo‘q.

Buvisi achchig‘i chiqqan sayin ko‘ziga tobora xunuk ko‘rinardi.

— O‘n metr edi... O‘n besh yil asradim... Hech bo‘lmasa narigi dunyoda toza kiyimda yotay.

Qizcha eski sandiqda bir o‘ram oq surp yotganini esladi. Onasi, bu buvingning sepi, degandi. Qizcha bu sepning to‘yga emas, o‘limga ishlatilishini endi tushungandi. Qizcha sandiqni ochdi-da,

oq dokaga tugib qo‘yilgan o‘sha bir o‘ram surpni olib keldi. Kampir uni paypaslab ko‘rib, “sepining” bus-butun turganligiga qanoat hosil qilgach, ko‘ngli o‘rniga tushdi.

— Shunday desang bo‘lmasmidi. Qirqqanim yo‘q, deysan. Befarosat xotin bo‘lasanmi, deyman-da. — Kampir qizchani bekorga urishganidan biroz o‘ng‘aysizlandi-yu, lekin bunga iqror bo‘lishni istamadi. — Yana qoqqan qoziqday qaqqayib turibsanmi. Joyiga olib borib qo‘y! O‘lganimda to‘yguningcha ko‘rarsan, meni o‘shanga o‘rashadi...

Kampir go‘yo uzoq yashagani, qarigani, endi o‘lishi kerakligi uchun hammadan xafa bo‘lgandek, ko‘ngli qolgandek edi.

Qizcha tugunni sandiqqa solib qo‘ydi. Endi buvisining gapiga quloq solmay, o‘z ishlarini qilishi, haliyam lunjida olib yurgan konfetini miriqib so‘rishi mumkin edi. U sumkasidan katak daftarini, arifmetika kitobini oldi-da, ko‘paytirish bo‘yicha misollarni yechishga kirishdi.

— U yana nima dedi? — to‘satdan so‘rab qoldi kampir.

Qiz seskanib tushdi — nahotki xatni bilib qolgan bo‘lsa? Buvisi karavotda oyoqlarini osiltirib o‘tirardi, endi u butun o‘y-fikrlaring-u qismatingni aytib beradigan keksa jodugar kampirga o‘xshardi. U qiz o‘tirgan tomonga qaradi, qovjiragan lablarini qisib, qizning javobini kutardi.

— Bo‘ron bo‘ladi, dedimi, boshqa hech nima demadimi?

Qizchaning ko‘ngli tinchlandi — buvisi televideniya diktori haqida so‘rayotgandi.

— U: “Qor yog‘adi, sovuq bo‘ladi...” dedi.

— Xudo yo‘q, xudo yo‘q deyishadi-yu! — dedi kampir ensasi qotib, go‘yo birovni masxara qilayotganday, — o‘zlari bo‘lsa, ob-havoni oldindan aytishadi.

— Ob-havoni xudodan so‘rashmaydi.

— Xudodan so‘rashmaydi? Xo‘sh, ularga kim aytarkan? Buvang rahmatli ob-havoni yulduzlarga qarab aytib berardi... Ichmasidan oldin. Ichkilikka mukkasidan ketdi-yu, hech nimani aytolmay qoldi.

Endi buvisi oddiy kampirlarga o‘xshardi. U marhum eri haqida gapirsa, oddiy kampir bo‘lardi-qolardi.

— Hecham bo‘ron bo‘lmaydi! Uning gapi yolg‘on! Hammasi yolg‘onchi...

Buvisi yana javrashga tushdi. U yana ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi, qizcha dars tayyorlashda davom etdi.

— Chiroyli emish, sochi uzunmish! (Diktor qiz haqida.) Chiroyli xotinlarning hammasi nodon bo‘ladi... Ana, onang ham... Iloyo ko‘zlari oqib... Uyam chiroyli edi. Mana, endi shaharda ozib-to‘zib, cho‘p bo‘lib ketgandir. U yoqda olovgayam pul to‘lashing kerak, — kampir yana javray boshladi.

Qizcha ko‘paytirish bo‘yicha misollarni ishlab o‘tirardi. Mo‘rida shamol guvullardi. Havo keskin o‘zgaradiganga o‘xshar, avzoyi buzuq edi. Kampir shamolning guvullashiga quloq solarkan, qizchaning sharpasini ko‘rib turardi.

“...Onasiga o‘xshab, o‘tirib olib, yozgani yozgan. Onasi ham oyoqlarini yig‘ishtirib, mana shu xontaxta atrofida o‘tirishni yaxshi ko‘rardi. Bamaylixotir o‘tiribdi, ertaga o‘ligim tepasida yig‘lashniyam bilmaydi. Hozir unga gapirib bo‘ladimi. Gapiraver, kampirsho, gapiraver, deb tirjayib o‘tiraveradi-da. Bilaman, bularning tili boshqa, dili boshqa. Bu kitob savil ularni yo‘ldan uradi, miyasini achitib yuboradi...”

...Bo‘ron ko‘tariladiganga o‘xshardi. Kuyovidan esa hamon darak yo‘q. Qor bo‘ronida qolib ketmasa go‘rga edi. Unga dardini ochardi. Kuyovi tushunardi. Bugun kampir tush ko‘rdi. Tushida, eri ikkovi biyday daladagi katta pichan g‘arami ustida yotishganmish. Yosh, chiroyli vaqtlari emish. Eri qo‘lini uning yelkasiga qo‘yib, keyin bag‘riga bosib, qattiq quchoqlabdi. Uzun, qora sochi yelkasi bilan bitta bo‘lib yoyilib ketganmish. U yalang‘ochligidan hecham xijolat bo‘lmas emish, uning ko‘zlariga tik boqarmish. Tepalarida shishaday tiniq osmon. Ana, ufqda mitti qo‘sh yulduz ko‘ringanmish. Bular ularning egizak o‘g‘illari — Asan bilan Usen, chopib kelisharmish. (Ular Stalingrad ostonalarida halok bo‘lishgan.) Ular judayam kichkina emish. Ular oq choyshabning ikki uchidan ushlab, chopib kelisharmish, o‘sha choyshabni ota-onasining ustiga yopishib, yana chopib ketisharmish. Ularning dumbalari-yu, maysadan ko‘m-ko‘k tovonlari ko‘rinarmish. Bular, er-xotin esa, quchoqlashib, zangori osmonda bulutlar orasida uchib yurishganmish.

Pastda, yerda ayollar baland ovozda ajoyib qo'shiq aytisharmish. Kampir uyg'onib ketdi-da, garchi hech nimani ko'rmasa-da, shiftga tikilib ancha yotdi. U kuni bitganini bilardi. Asan bilan Usenning yigitlik vaqtidagi yuzlarini eslamoqchi bo'ldi-yu, lekin eslay olmadi. Unutibdi. U uzoq umri davomida shunchalik ko'p o'lim, ba'zida sira kutilmagan o'limlarni ko'rdi, o'limga istagan vaqtida keladigan, istagan eshigini qoqadigan, majburiy va muqarrar bir narsaga ko'nikkanday ko'nikib qolgandi. O'lim unga mangu sukunat, osoyishtalik, bu dunyo g'am-tashvishlaridan xalos etuvchi bir najot bo'lib tuyulardi. Quyosh nuri ko'zlarini qamashtirmaydi. Insonning ko'z yoshi kishi qalbini pora-pora qilmaydi.

Kampir shamol eshikni ochib-yopayotganini, qorni to'zg'itib, tomma-tom izg'ib yurganini eshitib turardi. Bo'ron ko'tarilyapti. Kuyovidan hamon darak yo'q. Nahotki, butun dard-alami ichida ketsa, hech kim, hech qachon hech narsa bilmasa? Ha, aytadigan gapi ko'p. Chorakam bir asr ichida u nimalarni ko'rmadi, ozmuncha dard-alam chekmadi-ku, odamni yaratgan xudoga ham qoyil qolmadim, demoqchi; jonsiz yer va toshlar abadiy, inson esa yashar-yashamas o'limga yuz tutadi — jismi, fikri, qalbi o'limga qarshi-yu, lekin u o'ladi; inson umri hadsiz uzun va qayg'uli. Nima, yolg'onmi? Qiz bola edi, yaxshi odamni uchratsam, unga erga tegsam, deb orzu qilgandi, shunday odamni uchratdi, u bilan turmush qurdi, keyin bilsaki, u umrida oq choyshab nimaligini bilmagan bir semiz xotinnikiga borib yurarkan... O'g'il ko'rishni orzu qilgandi, bir emas, ikkita tug'di, ularni katta qildi — ikkovi ham urushga ketdi... Qiz ko'rsam deb orzu qilgandi, chiroyli qiz tug'ildi, o'sib voyaga yetdi, erga tegdi, bir haftaga Frunzega xolasinikiga borib keldi, qaytib kelganidan keyin, kichkina o'g'ilchasini olib, erini, qizini, kasal onasini tashladi-da, shaharga ketib qoldi — ikki o'rtada oila buzildi. Bu xotin yo aqldan ozgan, yoxud eshakmiya yegan... Xo'sh, keyin-chi, keyin nima bo'ldi? Eri bor edi. U o'ldi (chollar ko'pincha oldin o'ladi). Ertalab pichan o'rishga ketuvdi. Kechqurun jasadini olib kelishdi. Aytishlaricha, ko'p ichib qo'yganmish, miyasiga qon quyilganmish. E, xudoyim! Odamlar bu zahar-zaqqumning nimasiga uchadi-ya! Nahotki, shu achchiq ichimlik bola mehridan, ayol jozibasidan yoqim-

liroq bo'lsa? O'zi umrida og'ziga ichimlik olmagan. Gunohdan qo'rqqanmi? Yo'q. Ayol kishi ichmasligi kerak, vassalom. Urush yillari, eri mehnat armiyasiga ketganda, soldatlarning xotinlari va bevalar bo'za qilishardi, uni o'tirishlarga chaqirishardi, ichishardi, yeyishardi, keyin yig'lashardi. Yashirishning hojati yo'q, ba'zilari erkaklar, hatto o'smirlar bilan uchrashishardi — ko'ngilxushlik qilishardi. Lekin u o'sha o'tirishlarga borsayam, o'zini qattiq tutardi — ayol kishi faqat o'z erini deyishi kerak. U eridan qo'rqardi, hurmat qilardi. O'g'illaridan qoraxat kelganida eri qiz boladay bo'zlab yig'ladi. Odamovi bo'lib qoldi. Bir kun u araq quyib, xotiniga uzatdi: "Ma, ich, yengil tortasan". Ayol piyoladagi araqni labiga olib keldi — balki chindanam ko'ngil g'ashligi yozilar? Burniga yoqimsiz hid gup etib urildi. U araqni stol ustiga qo'ydi. Bu erining so'zini birinchi bor qaytarishi edi. Eri araqni bir o'zi ichdi-da, boshini sarak-sarak qildi.

— Achchiqmi? — so'radi u.

— Achchiq, — deb javob berdi eri.

— Ich, deb kim majbur qilyapti? — so'radi u.

— Gitler, — deb javob berdi u va o'rnidan turib chiqib ketdi.

O'shandan keyin xotini bunaqa savollarni bergani yo'q. Mana, endi kampir o'lim to'shagida yotganida negadir o'sha gapni eslab qoldi. O'shanda eri nega shunday dediykin? Nahotki o'sha zahar-zaqqum ichimlik dardni yengillashtirsa? Urushdan keyin hatto xudojo'y, namozxon chollar ham icha boshlashdi. Pivo spirtli ichimlikka kirmaydi, degan mish-mish tarqaldi, demak, uni ichish gunoh hisoblanmaydi. Pivoni mast bo'lishguncha ichishardi. Hamma ichdi, lekin u og'ziga olmadi.

O'sha kunlarni eslarkan, kampir tomog'i qaqrab ketganini his etdi, tashnalik qiynardi. Tashnalik uni ko'pdan beri, bir necha yildan buyon qiynab kelardi.

Bir kuni eri uni pivo olib kelgani yubordi. U bidonni to'ldirib pivo oldi, dala oralab kelayotganida ichimlik chayqalib idishdan toshib chiqdi. Eri ketmonni tashladi-da, oyoqlarini kerganicha yutoqib icha boshladi. Pivo uning mo'ylovidan oqib, qaqroq yerga tomardi. U, quyoshdan ko'zlarini qisib, eriga qarardi, kekirdagining likillashini ko'rib turardi. Kampir bir yutinib qo'ydi, nazarida

o‘sha ichimlikdan bir qultumi uning tashnaligini bir umrga bosadigandek edi... U eri o‘lganidan keyin bir necha bor pivodan ichib ko‘rmoqchi bo‘ldi-yu, lekin sira yuragi dov bermadi — qizidan, kuyovidan, qo‘ni-qo‘shnilaridan uyalardi... Endi esa unga hammasi baribir edi. E, baribir, bu dunyoda muqaddas narsa qolmadi. Hatto xudoni ham so‘kishadi-yu, lekin buning uchun hech kim jazo tortgani yo‘q. Baribir tanang, fikring, vijdoning, or-nomusing, qo‘rquving, sevging — butun borlig‘ing tuproqqa aylanadi... Nafasi siqila boshladi. Og‘zi, tomog‘i, yuragi misoli o‘t bo‘lib yonardi. Judayam suv ichgisi keldi. Choy so‘rasamikan? Yo‘q. Yo‘q, choy bosolmaydi. Qani endi, aqalli bir qultum pivo bo‘lsa — shunday chanqog‘i bosila qolardi!..

Kampir tarashaday quruq qo‘lini ko‘tardi (u suv ichgisi kelsa shunday qilardi). Qizcha o‘rnidan turib, piyolaga choy quydi. Buvisi kerakmas, degandek qo‘l siltadi. Qizcha piyolani joyiga qo‘ydida, karavot tagidagi tog‘orachani oldinga surib qo‘ydi. Kampir yana qo‘lini siltadi.

— Nima deyapsiz? — deb so‘radi qizcha.

— Pivo.

Qizcha hang-u mang bo‘lib qoldi — buvim alahsirayapti, deb o‘yladi.

— Pul o‘sha yerda, hamyonimda, — dedi kampir.

Yo‘q. Buvisi alahsiragani yo‘q. U odatdagi kasal kampirga o‘xshardi.

— Pivoni nima qilasiz?

— Ichaman.

— Ichaman?

— Bor, opkel.

Qizcha po‘stinini kiyib, chor-nochor pivo olib kelgani ketdi. U ikki shisha pivoni ko‘tarib, qaytib kelganda buvisi ko‘zlarini yumib yotardi.

— Bormi? — deb so‘radi u ko‘zlarini ochmay.

— Bor.

— Sotuvchi ayol nima dedi?

— Otamga olyapman, dedim.

— Barakalla. Isitib yubor.

Qizcha muzday shishalarni pechka ustiga qo‘ydi, keyin yumaloq stol atrofiga o‘tirdi-yu, darsini tayyorlay boshladi. Shishalar terladi, tomchilar shishalar qornidan polga xuddi ko‘z yoshlariday oqib tusha boshladi. Shishalar qizchaning esidan chiqib ketdi. U hisob chiqarib o‘tirardi: olti karra sakkiz — qirq sakkiz, plus o‘n yetti...

— Isitdingmi? — deb so‘radi kampir. U karavotda bukchayib o‘tirardi, shu o‘tirishda yana qari qarg‘aga o‘xshab ketardi.

— A?

— Shishalar qurigan bo‘lsa, demak, isigani...

Qizcha shishalarni ko‘zdan kechirdi — tomchilar qurigandi.

— Namuncha imillaysan?

— Ocholmayapman.

— Bobong tishi bilan ochardi.

Qizcha tishi bilan ochmoqchi bo‘ldi, lekin eplay olmadi. U temir tiqinni ochaman, deb ko‘p urindi, axiri pichoq bilan ochib piyolaga quydi.

Kampir go‘yo choy ichayotgan odamday lablarini cho‘zib, ehtiyotlik bilan bir qultum yutdi — pivo unga biroz taxirdek tuyuldi, piyolani qo‘lida biroz ushlab turdi-da, keyin ko‘zlarini yumib, oxirigacha ichib yubordi. U bo‘sh piyolani uzatib, yostiqqa yonboshladi. Uning qarashlari g‘alati edi, kampir tortgan barcha azob-uqubatlari uchun endi qasos olayotganday, go‘yo umr bo‘yi o‘ylagan rejasini mana endi amalga oshirayotganday edi.

— Yana quy.

Qizcha yana yarim piyola quyib, uning oldiga qo‘ydi.

— Nega qarab turibsan, bor, uxla!

Qizcha daftarlarini yig‘ishtirib, ko‘rpa tagiga kirdi-da, o‘sha zahoti uxlab qoldi...

Kampir go‘yo hech qachon kasal bo‘lmagandek, shunchaki og‘ir ishdan keyin birpas cho‘zilib dam olmoqchi bo‘lgan odamdek o‘zini yengil his etdi, go‘yo u kampir emas, yarim asr burungiday yosh, dilbar ayol edi...

Og‘zidagi kakra mazasi hali ham ketmagandi. Butun a’zoyi badaniga bir yoqimli iliqlik tarqalib, mudroq bosdi.

Eshik tinimsiz g‘ichirlab ochilib-yopilardi. Shamol uvullardi. Tashqarida zimiston tun, qor bo‘roni...

Kampir yana ikki qultum ichdi. U endi ilgarigi yoqimli haroratni his etmadi, lekin qo‘l-oyoqlariga yana kuch to‘lganday bo‘ldi. Nazarida, hozir u dala-dashtga chiqib ketib, sahargacha, tong yulduzi — Cho‘lpon yulduzi chiqquncha yura oladigandek edi; daryo shovullagan, anvoyi gullar hid taratib yotgan o‘sha yerga, bo‘lajak eri bilan qo‘l ushlashib yurgan yerga boradi, ot esa orqalaridan itoatkorona ergashadi; o‘sha yerda ular o‘pishishardi, ot esa iliq qalin labini uning yelkasiga, gul ushlagan qo‘llariga tekkizardi. Keyin ular sohil yoqalab ketishardi, ot esa ko‘zlarini yaltiratib, sohil bo‘yidagi shirali o‘tlarni chimdib, izma-iz borardi... Uyga saharda qaytib kelishardi, bu so‘lim, orombaxsh kechalar haqida hech kim hech narsa bilmas, ular bir afsonaga o‘xshardi. Nega endi, u o‘sha kechalarni ilgarilari eslamasdi? Balki, uning kundalik hayoti, turish-turmushi o‘sha afsonaga mutlaqo o‘xshamas, binobarin ularni qiyos qilishni istamasdi, chunki ko‘rgan-kechirganingni o‘ylasang, dunyo ko‘zingga tor ko‘rinib ketadi. Xo‘sh, u-chi? Nima, u yomon er yo yomon otamidi? Ichardi. Nima bo‘pti, ichadigan bitta umi, hozir hamma ichadi. Ichsayam alamidan ichardi. Demak, ichmasligining iloji yo‘q ekan-da. Xafa qilarmidi? Xo‘sh, nima bo‘pti? Hadeb shirinlik yeyaversang ham me’dangga tegadi. U yerlar, daryo bo‘ylari hozir juda so‘lim. Qarag‘aylar shovullaydi. Gullar muattar hid taratadi. Ular egilib, odamga ta’zim qiladi. Quyosh charaqlab nur sochadi. Ikki tomonga tarvaqaylab o‘sgan qarag‘ay shoxiga o‘tirib olib, pastda suvning ko‘pirib oqishini tomosha qilishing, hech nima haqida o‘ylamasliging mumkin... Eri qalamtaroshda qarag‘ayda qoldirgan belgilar haliyam turganmikan? Ertasiga o‘sha belgilar o‘rnida kahrabo qatron yiltirab ko‘rindi. Eri, qarag‘ay og‘riq azobidan yig‘layapti, dedi. Qarag‘ayning yarasiga otquloq yopishtirib, ustidan bog‘lab qo‘ydik. Yaralarmi? Ular bitib ketadi...

Kampir sekin o‘rnidan turdi. Oyoqlari darmonsizlikdan, qimir etmay yotaverganidan qaltirardi — ikki yildan beri ko‘rpa-to‘shak qilib yotardi. U kiyimlarini paypaslab topdi, boshiga ro‘molini

o‘radi, kiyindi, eshikni ehtiyotlab ochdi-da, qorong‘ilik qo‘yniga sho‘ng‘idi...

Qishloq chetidagi idora oldida fonar chayqalardi. Qor bo‘roni yo‘lni ko‘mib yuborgandi. Uylar oppoq qorga burkangan. Qayerdadir sovuqda qolgan it angilladi.

Kampir gulga kirgan bedazordan borardi. Bolarilar tinimsiz g‘uvullardi. Qizi beda gulining shirasini so‘rishni yaxshi ko‘rardi, beda eri qaytadigan yo‘l yoqasida o‘sardi. Ona-bola uni kutishar va to‘rt tojibargli beda poyalarini izlashardi — dadasi tez keladimi-yo‘qmi, deb fol ochishardi. Qizcha otasining qorasini uzoqdan ko‘riboq, istiqboliga yugurardi va ovozining boricha: “Baxtli bedani men topdim. Men!” — deb qichqirardi. U qizini egarga o‘tqazib olardi. Sal cho‘tir yalpoq yuzida xijolatomuz tabassum paydo bo‘lardi-da, qamchisi bilan xotinini sekin turtib qo‘yardi: “Xo‘sh, qalaysan?” — “Bir navi...” — deb javob berardi xotini va otni tizginidan uyga yetaklab kelardi, keyin ustidan xurjunni olardi. Xurjunda uning uchun, albatta, bir nima bo‘lardi: yaltiroq ko‘ylak yoki chiroyli qiyiq ro‘mol, xullas, yaltiroq bir nima bo‘lardi. U o‘z sevgisini mana shunday ifoda etardi. U qizini o‘pardi-yu, xotini esa uning bo‘sasini o‘z yuzida his etardi. Qizi! U yoqda bechoraning holi nima kechdiykin? Axir, shaharda hamma narsa pulga keladi. Qizining esa ro‘zg‘or ishlariga uquvi yo‘q, tejab-tergashni bilmaydi, oxirgi bir burda nonini beradi-yu, och o‘tiraveradi. Yaxshi turganmikin? Mast-alast erkaklar unga tegajaklik qilishsa kerak. Axir, eri yo‘q-da.

...Arilar tinimsiz g‘uvullardi. Dimoqqa gullagan beda hidi urilardi. U yoqda, qishloq chetida quyosh charaqlab nur sochardi. Beda shu qadar qalin va baland ediki, yurish nihoyatda og‘ir edi... Tashlab ketdimi? Balki kitoblarda shunday qilinglar, deb yozishgandir. Kuyovi-chi? U hali yosh. O‘z baxtini topib oladi! Quyosh ko‘zni qamashtirardi. U tog‘ daryosi xuddi odam qo‘lining ko‘k tomirlariday bepoyon vodiy bo‘ylab taralib, tashna yerga obihayot berayotgan joyga qarab ketdi. O‘sha yerda tarvaqaylab o‘sgan qarag‘ay bor, yarim asr muqaddam bir oshiq yigit uning tanasida belgi qoldirgan. Kampir quyoshning yonidan o‘tib ketdi. Quyosh dam-badam chayqalib, orqada qoldi. Go‘yo kuni bilan boshyalang

dalada pichan o‘rgan odamday qo‘llari, yuzi, bo‘yni qizarib ketgandi, beli zirqirab og‘rirdi. Ayol dam olmoqchi bo‘lib, yerga o‘tirdi. Arilar g‘o‘ng‘illardi. Uni mudroq bosa boshladi. U chalqancha yotdi-da, qo‘llarini yozdi. Osmonda bulutlar karvoni suzib yurardi. Osmon ko‘m-ko‘k, bulutlar oppoq edi. Bulutlar tobora pasayib, parcha-parcha bo‘lib, xuddi oq varaqlarday yerga uchib tushardi. Ko‘p yillar muqaddam, G‘alaba kuni, ovul ustidan samolyot uchib o‘tayotib, varaqalar tashlaganida xuddi shunday bo‘lgandi. Bolalar dalada zir yugurishib, varaqalarni tutishgandi. Ular yerga oppoq bo‘lib to‘shalgan edi. Ayol ot tuyoqlarining dupur-dupurini eshitdi. Ikki o‘g‘li, Asan bilan Usen — askar libosida baravar qadam tashlab kelishardi. Ular katta varaqaning ikki uchidan ushlab olishgandi, keyin u oq choyshabga aylandi. O‘g‘illari choyshabni uning ustiga yopishdi-da, yo‘llarida davom etishdi. “Rahmat, bolalarim!” Ularning orqasidan yana ikki soldat kelardi, ular ham choyshab ko‘tarib olishgandi. Ustiga yopib, o‘tib ketishdi. Keyin yana ustma-ust kelaverishdi. Hammalari ham Asan bilan Usenga o‘xshardi... “Rahmat, baraka topinglar, bolalarim!” Havo isiganday, ko‘ngli biroz ravshan tortganday bo‘ldi. Go‘yo kimningdir baquvvat qo‘llari uni tebratib, allalayotgandek edi. O‘, hayot! Ko‘z yoshlari ikki yuzidan marjonday oqib tushardi. U ko‘zlarini yumdi. Gardishsimon quyosh chayqalib-chayqalib, osmonga uchib chiqib ketdi. Uning yuzida mayin tabassum bir umrga qotib qoldi...

O‘G‘RI XOTIN

— O‘-o‘! O‘-o‘o‘o‘! Ushlanglar uni! Ushlanglar! — deb qichqirardi otliq oq telpagini silkitib. Uning tepakal boshi oftobda yaltirardi.

Kartoshka chopiq qilayotgan maktab bolalari qadlarini rostlashib, qo‘rqib ketgan qo‘zichoqlarday turgan joylarida qotib qolishdi.

— Muallim, kimni ushlaylik? — deb so‘radi qizcha.

Muallim yelkalarini qisib qo‘ya qoldi.

— Bu kim o‘zi? — deb so‘radi u ham o‘z navbatida.

Bolalar bir-birlarining gapini bo‘lishib, bu otliqning kimligini topmoqchi bo‘lishardi. Ba’zilari bu mirob Tashtan amaki, deb baqirishardi, chunki otliq ko‘k choponda edi, boshqalar Baken bobo bo‘lsa kerak, deb o‘ylashdi. Kimdir bu umuman begona odam, dedi, chunki egnidagi choponi Tashtan amakinikiday eski ham, Baken bobonikiday yangi ham emasdi.

Urush yillari xotinlar yamoq solishga shu qadar usta bo‘lib ketishgan ediki, odamlarning egnilaridagi chopon, ko‘ylak va shimlari ola-bula bo‘lib, xuddi geografiya xaritasiga o‘xshab ketardi. Otliq yaqinlashdi, bolalar baravariga bu mirob — Tashtan amaki, deb qichqirib yuborishdi. Eski duxoba choponining ko‘kragidagi oq shoyidan solingan yamoq uzoqdanoq yaltirab ko‘rinardi. Bolalar Tuyg‘un laqabli qulunni ham darrov tanishdi.

— Nega ushlamadilaring?! — deb baqirdi mirob.

— Kimni? — deb so‘radi muallim.

— O‘g‘ri xotinni!

— Qanaqa o‘g‘ri xotinni?

— E-e! — dedi Tashtan qo‘l siltab. — Yo‘g‘on, barzangi xotin! Sochlari uzun, to‘zg‘igan! Har oyog‘i mening belimday keladi!

Muallim shubha aralash ko‘z qisib qo‘ydi: alvasti sochlari yozilgan xotin qiyofasida kelarmish, uni yurishidan bilsa bo‘lar-

kan, chunki u tovonini oldinga qaratib yurarkan, degan rivoyatga ovulliklar orasida hali ham ishonadiganlar bor edi.

— Balki senga shunday ko'ringandir, mirob? — muallim achingansimon kulimsiradi.

Bolalar ham unga achinganday kulib qo'yishdi.

— Agar yolg'on gapirsam, non ursin! Yolg'on gapirsam, onam xotinim bo'lsin! — deb ont icha boshladi u.

— Tsh-sh! Bolalar bor-a! — deb ogohlantirdi muallim, yo'qsa, yanayam xunukroq qilib ont ichishi mumkin edi.

— Esiz, esiz! — deb qo'l siltadi Tashtan amaki. — Men bu yerda odamlar bor ekan, deb yuribman-u, o'quvchi bolalar ekan-da. Bu kitoblarni o'qiganingizdan keyin, sizlar na xudoga ishonasiz, na odamga!

Muallimning jahli chiqib ketdi:

— O'g'ri xotiningiz nimasi? Kuppa-kunduzi o'g'ri xotin nima qiladi? Balki o'quvchi qizdir?

— E, qo'ysangiz-chi! O'quvchi qiz emish. Butun turqidan o'g'riligi ko'rinib turibdi. O'ziyam gumbazdek!

— Nemislar yuborgan josus bo'lsa-chi! — dedi o'quvchilardan biri.

— Josuslik qilib nima qiladi? Axir urush tugadi-yu, — deb javob qildi boshqa o'quvchi.

— Rais opamiz meni oldiga chaqirib: "Ana, kolxozning hamma ariqlari sizga qaraydi-ya", dedi. "Ha, men mirobman", dedim. "Kechirasiz, o'rtoq mirob, siz ariqlarning bo'yida maxsus kiyimda yurmadingiz", deydi. "Ha, men faqat ariq bo'yida emas, suvda ham maxsus kiyimda yurganim yo'q", deyman. U: "Ilojimiz qancha, urush payti edi. Mana endi, siz uchun maxsus etiklar yozdirdik. Suv o'tmaydi. Chet elniki", deydi. "Iltifotingiz uchun rahmat", deyman. "Arzimaydi, yaxshi xodimlarning qadriga yetamiz".

— Shunday dedimi-a? — shunchaki so'radi muallim.

— Ha, endi shunday demoqchi bo'ldi-da. Yaxshi xodimlarni hamma yerda ham hurmat qilishadi. "Eshitdim, — deb gapida davom etadi raisimiz, — otlarni davolash qo'lingizdan kelarkan". "Ha, — deyman men, — qo'limdan keladi". "Gap bundoq, — deydi u, — oqsoq qulun Tuyg'unni oling-da, davolab minib keling".

Rezina etiklarni oldim, qo‘nji uzun, chotinggacha keladi, qaytib bordim-da: “Sizga, Sovet hokimiyatiga kattakon rahmat”, dedim. U bo‘lsa: “Arzimaydi, yaxshi xodimlarni biz...”

— E, bu gaplarni qo‘y, o‘g‘ri xotindan gapirsang-chi! — deb uning so‘zini bo‘ldi muallim quyoshga qarab qo‘yarkan.

— Shoshma, uniyam gapiraman. Xo‘sh, qulunni bugun suvloqqa olib bordim, kecha bedani ko‘p yeb, bo‘kib qolibdi. Harom o‘lib qoldimi, deb qo‘rquvdim. Yo‘q, xayriyat, tuzalib ketdi. Jindak tuz beray, deb uyga olib keldim.

Muallim uning gapiga quloq solmay qo‘ygandi, yana ishga tushib ketgan o‘quvchilarini kuzatardi. U mirobning oldidan ketib, o‘z ishi bilan band bo‘lolmasdi: Tashtan undan ancha katta edi. Muallimning o‘zi bir vaqtlar savodsizlikni tugatish kurslarini, yana allanimani bitirgandi, keyin urushning boshidan oxirigacha bo‘ldi, endi harbiydan, fizkulturadan, chizmachilikdan, nemis tilidan, rus tilidan, hatto geografiyadan dars berardi. Mirob hikoyasini davom ettirar, asosiy gapga hali-veri ko‘chadigan emasdi.

— Bunday qarasam, bostirmada kimdir g‘imirsilab yuribdi. Qo‘shni xotin tutatqiga chiqqandir, deb o‘yladim. Tuyg‘unni bog‘lay boshladim. Orqamga o‘girilib qarasam, bostirmadan bir xotin chopib chiqib, uyning orqasiga o‘tib ketganday bo‘ldi. Ha, tortinchoq, uyatchan kelinlardan bitta-yarimtasidir-da, deb o‘yladim. Bostirmaning orqa tomoniga o‘tdim, yerda tovuqning boshi yotibdi. It olib kelgandir-da, deb o‘yladim. Bunday qarasam, haligi kurk tovuqning boshi. Men tovuqlarimning boshiga siyoh surtib chiqqanman. Qiziq, bu nimasi, deb o‘yladim. Bostirmadan chiqdim. Haligi xotin polizimni kesib o‘tib, dala tomonga chopib ketdi-da, pichan g‘arami orqasiga yashirindi. Tuyg‘unga mindim-u, orqasidan quvib ketdim. G‘aramni ag‘dar-to‘ntar qilib tashladim. Xuddi yerga kirib ketganday edi. Boshqa g‘aram oldiga chopdim. O‘sha yoqdan gumbazday bir xotin chopib chiqib, orqa-oldiga qaramay qochib qolsa bo‘ladimi. Sochlari to‘zg‘igan. Qizil latta bilan bog‘lab olibdi. Ko‘ylagi uzun. Tovonlari yaltirab ko‘rinadi!

— Tovonlari deysanmi? — deb so‘radi muallim biroz hushyor tortib.

— Tovonlari!

— Ha, tushunarli... — muallim yelkasini qashib qo‘ydi.

— Yo tavba! Yana ishonmayapsanmi? Axir, tovonlari hammaning tovoniday edi!

— Xo‘sh, nima bo‘pti?

— Nima bo‘pti emish? Orqasidan shuning uchun quvdim-da. Qulun oqsoqni ko‘p choptirib bo‘lmaydi, o‘lib qolguday bo‘lsa, javob berasan. Uning shu tomonga chopib ketganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim!

— Balki bu yoqqa emasdir?

— Yolg‘on gapirsam, qora yer yutsin!

— Ehtimol, shunday ko‘ringandir.

— E, xudo-yey! — Mirob cho‘ntagidan ko‘k siyoh surtilgan tovuq boshini oldi-da, muallimnnng oyog‘i tagiga tashladi.

Bolalar ularni o‘rab olishib, tovuq boshini ko‘zdan kechira boshlashdi. Nihoyat ishonishganidan xursand bo‘lgan Tashtan, eski ayol ko‘ylagidan yirtib olingan isqirt belbog‘ini cho‘ntagidan oldi-da, muallimga uzatdi.

— Mana! — dedi u.

Bolalardan bir nechtasi suv bo‘yidagi qiyoq orasida izg‘ib yurishardi. Muallim ham ariq bo‘yida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

— Bu yoqqa qarab chopib ketdi. Dumbasining yalt etganini ko‘rib qoldim. Mana bunday keladi! — U qo‘llarini yozib ko‘rsatdi.

— Oqsoqol! O‘quvchi bolalar oldida-ya! — deb muallim unga tanbeh bergan bo‘ldi.

— Mana bunday! — Tashtan ayolning orqasini kichikroq qilib ko‘rsatdi.

Bolalar dala bilan bir bo‘lib yoyilib ketishdi, har bir butaning tagini qarashdi.

— Balki... u... haligiday... yo‘q bo‘lib ketishni bilar-a? — deb so‘radi mirob.

— Bo‘lmagan gap! — deb muallim uning gapini shartta bo‘ldi.

Bolalar xuddi arilarday dalada u yoqdan bu yoqqa chopib yurishardi, muallimining oldiga kelishib, hech qanaqa o‘g‘ri xotinni ko‘rganimiz yo‘q, deyishardi.

— Nahotki shunday tuyulgan bo‘lsa? — deb so‘radi Tashtan qo‘rquv aralash.

— Iye, bo‘lmasa-chi, shunday tuyulgandir-da! — dedi muallim sevinib. — Nima bo‘pti? Topgan gapingni qara-yu! Ko‘rdim, chopib ketdi, sochlari uzun, tovonlari yaltiradi emish! Qulun jonivorni rosa qiynabsan-da — ko‘pirib ketibdi!

— Nega shunday bo‘ldiykin-a? — deb so‘radi mirob hayron bo‘lib.

— Kim biladi deysan! Balki yomon uxlagandirsan! Bitta-yarimtani o‘ylagandirsan.

— Ha, ha, — dedi u bosh irg‘ab. — Kechasi bilan mijja qoqqanim yo‘q, tizzalarim sovuq yeb chiqdi, xotinim borligida bunaqa bo‘lmasdi...

— Ana ko‘rdingmi! Xotiningni haydab yuborib, mana endi qiynalib yuribsan!

— Haydaganim yo‘q! Yigirma yil turdik, farzand ko‘rmadim, tirnoqqa zormiz. Axir, bolasiz uy uymi? Siqilib ketdik. Ichadigan bo‘ldim. Ajralishga qaror qildik. Balki boshqaga tegsa, xudo yorlaqab farzand ko‘rar. Mening ham peshanamga yozgani bordir. Hech o‘ylamagan ish bo‘ldi-da. Nahotki, bu bo‘ydoqlikning oqibati bo‘lsa?

— Mana, masalan, och yotsang, tushingga shilpildoq kiradi-a? To‘g‘rimi?

— To‘g‘ri, — deb qo‘shildi mirob.

— Agar chanqasang — tushingda qimiz ko‘rasan!

— Topding!

— Ba’zida kechasi oyoqlaring ochilib qoladi, tush ko‘rsang, tushingda yalangoyoq yurgan bo‘lasan!

— Nahotki shularning hammasi kitoblarda yozilgan bo‘lsa?

— Bo‘lmasam-chi! Kitob ham “Uyqu va tush ko‘rish” deb ataladi.

— Iltimos, boshqalarga gapirib o‘tirma, xo‘pmi? Kalaka qilishib, ko‘z ochirishmaydi.

— Mayli, — deb rozi bo‘ldi muallim. — Evaziga nima berasan?

— Ma, choponimni olgin, eski bo‘lsayam yamog‘i asl shoyidan.

— Uch chaqirimdan ter hidi keladi-ya! Undan ko‘ra suv ber.

— Navbating kelsa olasan, — dedi Tashtan qat'iy.

— Ha, mayli, senga gap uqtirib bo'larmidi... Bolalar, — deb murojaat qildi u o'quvchilarga, ular anchadan beri o'zlarini ishlayotgan qilib ko'rsatib, aslida kattalarning gapiga quloq solib turishardi. — Bolalar, o'n besh minut tanaffus. Ariqdan suv ichmanglar! Yurakburug'i bo'lasizlar! Tushunarlimi?

— Tushunarli! — deb bolalar baravariga javob berishdi va o'sha zahoti maysa ustiga dumalashdi-da, to'rvalaridan ovqatlarini ola boshlashdi.

Mirob telpagini bostirib kiydi-da, Tuyg'unni ariq bo'yidan yetaklab ketdi. Qulun to'satdan bir tomonga o'zini otdi, Tashtan amaki esa baqirib yubordi-da, qo'llarini silkitdi.

Hamma uning oldiga chopib keldi.

— Ana u! Aytuvdim-u! Ana u!

Ayol ariqda ko'ndalang yotardi. Uning boshi bilan oyoqlari suvdan chiqib turardi. Tanasi suv ichida edi.

U o'likday qimir etmasdi, aftidan, qo'rquvdan tarashaday qotib qolgan bo'lsa kerak.

— Tur o'rningdan, jodugar! — Tashtan qamchisining dastasi bilan turtdi.

Jodugar qimir etmadi.

Mirob ichida kalima keltirdi-da, suvga tushdi. Jodugar o'rnidan turdi-da, ko'ylagining uzun etagini yig'ishtirganicha pastga qarab chopib ketdi. Bolalar qiy-chuv ko'tarishib, orqasidan yugurishdi. Tashtan amaki so'kinib, qoqilib-surinib orqasidan chopib borar, suv yuzida jigarrang pufakchalar qolardi. Muallim yarador oyog'iga oqsoqlanib, hammadan keyin kalovlanib borar, yo'l-yo'lakay buyruq berardi.

— Ko'prikni to'singlar! Ariqdan chiqarmanglar! — Uning jang-u jadallarda chiniqqan odamligi shunday ko'rinib turardi.

Jodugar birdan o'girildi-da, katta oq tishlarini irjaytirganicha to'ppa-to'g'ri Tashtan amakiga qarab kela boshladi. Tashtan amaki beixtiyor orqasiga tisarildi.

— Mirob! Qo'rqmang, men borman! — deb qichqirdi muallim.

Tashtan amaki komandirning ovozini eshitib, o'zini biroz tetik sezdi va qo'llarini yozganicha, asta-sekin jodugarga yaqinlasha

bordi. Bolalar qo‘llariga tayoq, kesak, chiviq olishib, jodugarni qo‘riqlab kelishardi. Ularning ko‘zlari xuddi mushuklarnikiday yaltirardi. Oradagi masofa tobora qisqarib borardi. Jodugar yarim yalang‘och qoracha yelkalarini silkitib, ko‘zlariga qon to‘lgan bo‘riday g‘azab bilan qarardi. Quloqlaridagi yarim oy shaklidagi katta ziraklari yaltirardi. Oltin ziraklar.

— Qo‘lingni ko‘tar! — dedi muallim. Jodugar bosh chayqadi. Ziraklari quyosh nurida yaraqlab ketdi.

— Qurolingni toshpir! — buyurdi muallim.

Ziraklari yaltiradi.

Mirob epchillik qilib, jodugarga sherdek tashlandi-yu, lekin shu zahoti dod-voy qilib, suvga gup etib yiqilib tushdi. Tashtan amaki suvda tipirchilayotganida, jodugar tirishib-tirmashib ariq bo‘yiga chiqib oldi. Bolalardan ikkitasi uning oyog‘iga tashlanishib, tizzalaridan mahkam quchoqlab olishdi. Jodugar yiqildi. Tashtan amaki qamchisini o‘ynatdi.

— Hoy! Hoy! — deb baqirdi muallim.

Lekin Tashtan amaki jodugarni qamchisi bilan bir tushirib qolishga ulgurdi. U yana urmoqchi bo‘lganida muallim chopib keldi-da, qo‘lidan qamchisini tortib oldi.

— Ayol kishini urib bo‘larkanmi! — dedi u.

— Buning nimasi ayol! O‘g‘ri-ku! — deb o‘zinikini ma’qullardi Tashtan amaki.

— Hozir aniqlaymiz, — dedi muallim sovuqqina tosh ustiga o‘tirarkan.

Mirob jodugar tishlagan qo‘lining qonini yalarkan, o‘zicha allanimalar deb to‘ng‘illardi — so‘kinardi.

— Siz kim bo‘lasiz? — deb so‘radi “tergovchi”.

Ayol javob bermadi.

— Xendi xox! Gitler kaput! Xalt! — deb qichqirardi bolalar har tomondan.

Muallim qo‘lini ko‘tardi. Hamma jimib qoldi.

— U o‘g‘ri! Tovug‘imni o‘g‘irladi. Kurk tovug‘imni! Non o‘g‘irladi! Qo‘limni tishlab oldi! Uni shaharga olib borish kerak! Qamash kerak! — derdi Tashtan tutaqib.

— Siz sovet grajdaniga moddiy zarar keltirdingiz, buning ustiga badaniga shikast yetkazdingiz. Biz sizni jinoiy javobgarlikka tortishga majburmiz! — dedi muallim.

Aftidan, o'g'ri ayol hech nimani tushunmayotganday edi.

— Xendi xox! — deb qichqirib yubordi bolalardan bittasi o'zini tutolmay.

Unga po'pisa qilishgandi, bola jim bo'lib qoldi.

— Komandamga quloq solinglar, — muallim o'rnidan turdi. — Favqulodda hodisa munosabati bilan kartoshka chopiq to'xtatiladi!

— Ur-ra! — deb baqirishdi bolalar.

— Jim bo'linglar! Ashim, To'lemush! Ikkoving shu yerda qolib, bo'lgan voqeani brigadirga gapirib berasizlar. Qolganlar uni pravleniyega olib borishadi. Tushunarlimi?

— Tushunarli!

Tashtan ayolning qo'lini bog'ladi-da, Tuyg'unga mindi, bolalarga yaqin kelmalaring, u tishlab olishi mumkin, deb ogohlantirdi-da, oldinda ketdi. Bolalar bilan qizlar xuddi Gulliverni asir olgan liliputlar to'dasiday to'p-to'p bo'lishib, ko'cha changitib, uning orqasidan borishardi. Muallim shamol esayotgan tomondan oqsoqlanib borardi.

Tashtan amakining uyiga o'g'ri tushganini, bisotidagi bor qimmatli buyumlarini o'g'irlab ketganini, egasining o'zini avtomatdan otib yarador qilganini ovuldagilar allaqachon eshitishgandi. Hamma, bu oldingi xotinining ishi bo'lsa kerak, deb taxmin qilardi. O'g'ri ayolni xuddi filday ovul ko'chalaridan olib o'tganlarida chollar, kampirlar, bolalar uylaridan chiqishib to'daga qo'shilishardi, butun bir olomon kolxoz pravleniyesi tomon yo'l oldi, ovul itlari chor atrofdan tinmay akillashardi.

Rais idorada yo'q ekan, brigadirlar ham dalada edi. Lekin hademay kolxozchilar ot-aravalarda, traktorlarda ishdan qayta boshlashdi. O'g'ri ayolni o'rab olishib, unga hozir olib chiqib osishadigan jinoyatchiga qarashganday o'qrayib qarashardi. Tashtan bo'lgan voqeani batafsil, ipidan ignasigacha qayta-qayta gapirib berdi. Har gal gapni, rais yaxshi ishchi sifatida hurmat qilib, Tashtanga rezina

etik bilan oqsoq qulun berganidan, qulun kecha bedani ko‘p yeb qo‘yib, bo‘kib qolganidan boshlardi.

Bolalar ham josus ayolni qanday ushlaganlari, hamma narsani tushunsa ham, lekin biron-bir tilda gapirmaganligi to‘g‘risida o‘z tengqurlariga gapirib berishardi. Bu orada kech kirib, qosh qorayib qoldi, keksalar o‘zaro maslahatlashishib, o‘g‘ri ayolni hozircha qizil burchakka qamab qo‘yishga, ertaga esa militsiyaning qo‘liga topshirishga qaror qilishdi.

Tashtan manfaatdor shaxs bo‘lgani, uyi ikki qadam narida ekanligi uchun o‘g‘rini qo‘riqlab chiqishni unga topshirishdi. O‘g‘ri ayolni shifti past xonaga olib kirishdi. Tuzukroq qulf topisholmaganlaridan keyin eshikning halqalaridan arqon o‘tkazishib, hech kim yecholmaydigan qilib mahkam bog‘lab tashlashdi.

Tashtan uyga qaytib keldi. Bostirmada endi ochib chiqadigan o‘n ikki jo‘ja o‘rnida tuxum po‘chog‘i yotardi — mushuklar allaqachon hammasini tinchitgan edi. Og‘ilga bog‘lab qo‘yilgan buzoq hadeb onasiga talpinardi, so‘lagini oqizib, ayanchli ma’rardi. Uy egasi och Tuyg‘unni tushovlab dalaga qo‘yib yubordi-da, sigirni sog‘moqchi bo‘ldi. Lekin unga o‘rganmagan sigir hadeb tepinib, yaqin yo‘latmasdi. U qo‘shni xotinni chaqirmoqchi ham bo‘ldi, lekin kecha eri, oqsoq Qochqinboyning bo‘za ichib, xotiniga panshaxa olib yugurganini, uyda hamma narsa sochilib yotsa-yu, sen bo‘lsang, birovlarning sigirini sog‘ib yurasan, deb baqirganini esladi-yu, bu fikridan qaytdi. Ko‘nglida yomon dog‘ qoldi. Negaligini o‘zi ham bilmasdi: balki Qochqinboy sal yosh bo‘lgani uchundir, ehtimol beva erkakka, ayniqsa o‘ziga to‘q erkakka hamma erlarning qandaydir havas va shubha bilan qarashgani uchundir. Xullas, mirob, sug‘orish ishlari tugab, yig‘im-terim boshlanishi bilan soqolini qirdirib, Tuyg‘unga kumush yuganchani solib, ustiga oq yopinchiqni yopib, Issiqko‘lning Janubiy sohilidagi Ton qishlog‘iga bormoqchi bo‘ldi. O‘sha qishloqda ayol bobida ko‘p narsani tushunadigan, zukko, eski qadrdon do‘sti Beksulton turardi; u albatta bunga bop, hali ham bola ko‘rishga qodir biron bevani topib beradi...

Tashtan uyiga kirdi, xotinining eski ro‘molini topib, boshiga xuddi xotiniga o‘xshab o‘radi, oldiga peshband tutdi, tog‘ora-

ga kepak soldi, keyin boshini engashtirganicha sigir oldiga keldi. Sigir katta ko'k ko'zlarini javdiratib, tog'oraga bo'ynini cho'zdi. Sigir tog'oradagi kepakni pishillab yeyishga kirishdi, Tashtan esa sog'ishga tushdi. Lekin kepak tugashi bilan sigir yana tipirchilab qoldi, iflos dumini qorniga ura boshladi. Boshqa sog'may, buzoqni yechib yuborishga to'g'ri keldi. Buzoq onasiga o'qday otildi-da, iliq yeliniga yopishdi, sigir esa mehribon ayolday bolasini erkalab, uzun tili bilan uni yalay boshladi.

Tashtan, nega menga farzand bermading, axir, mana shu hayvondan ham marhamatingni ayamading-ku, deb yana xudoga nola qila ketdi.

Uyi hech qachon ko'ziga bunchalik bo'm-bo'sh, befayz ko'rinmagan edi. "Ayol. Ba'zida dadrli, tajang, baqiroq, doimo ham aql bilan ish qilavermaydigan qanday zot bu ayol degani. Lekin naqadar fayzsiz bu olam ularsiz! Naqadar sovuq, xarob bu uy ularsiz! Erkakning qo'lidagi idish-tovoqning taraq-turug'i naqadar yoqimsiz, ko'ngilsiz! Muallim o'taketgan tentak, albatta. Xotinni urish yaxshi emas, deb menga pand-nasihat qildi. O'zi-chi o'zi, urushgacha ichardi ham, qamchi olib xotinini quvlardi ham. Urushdan butunlay boshqa odam bo'lib qaytdi, o'zgardi-qoldi. Ichmaydi. Chekmaydi. Xotinisiz hech qayoqqa bormaydi, ruschani ham suv qilib ichib yuborgan, radioday shatirlatib tashlaydi. Har kuni ertalab uyining atrofida gir aylanib yuguradi, keyin qo'riqchiday bir joyda turib olib, qo'llarini silkitadi, qish kunlari esa ko'kragini qor bilan ishqalaydi, qizarib-bo'zarib ketadi. Mullaning aytganini qil-u, qilganini qilma, deb bekor aytishmas ekanda. Xotinni qo'msaganing uchun ham tushingda nuqul xotinlarni ko'rasan, deydi u. Ha-a! Bu bilag'onlar yolg'onni ham do'ndirishadi..." Tashtan boyagi ko'ngilsiz voqeani unutayozganday edi. O'g'ri xotin derazadan tushib, qochib ketgan yoki bitta-yarimta arqonni yechib, eshikni ochib yuborgan bo'lsa-chi? Axir, qo'riqlashni unga tayinlashgan edi-ku.

Mirob eski qo'shog'iz miltig'ini oldi-da, idora tomonga qarab yurdi. Eshik halqasidagi arqon joyida edi. U qorong'i deraza oldiga keldi-da, gugurt chaqib, cho'pini siniq oyna yorig'iga tiqdi. O'g'ri xotin eski divanda uxlab yotardi, qoracha, baquvvat oyoq-

lari ochilib qolgandi. Gugurt cho‘pi yorug‘ida uning oltin ziragi yaraqlab ko‘rindi.

— Hoy! — sekin taqillatdi u.

Ayol javob bermadi. “Balki o‘lib qolgandir? — to‘satdan Tashtanning miyasiga shu fikr keldi. O‘g‘irlagan nonini yeyishga ulgurmagandir. Bolalar suvda ivigan bo‘lka nonning hammasini olib chiqishdi-yu, o‘sha zahoti yeb qo‘yshidi. O‘lik tovuq-chi, hoynahoy, qochib ketayotganida yo‘qotib qo‘ygan bo‘lsa kerak. Ko‘klam — og‘ir payt, odamlar bisotidagi borini yeb bo‘lishadi-yu, yangi hosil hali yig‘ib olinmagan bo‘ladi. Nima qilsin, ochligidan o‘g‘irlagan-da”.

Tashtan uyiga borib, bir xurmacha sut bilan bir burda non olib keldi.

— Hoy! — u endi qattiqroq taqillatdi. Biroz turdi-da, keyin yana gugurt chaqdi.

Xotin boshini ko‘tardi. Qorong‘ida uning oltin ziraklari, qora ko‘zlari yaltirardi.

Tashtan ovqatni derazaga qo‘ydi-da, o‘zi nariroq ketdi.

O‘g‘ri ayol unga allaqanday tushunarsiz, ohangdor tilda minnatdorchilik bildirib, qorong‘ida ovqatni yedi-da, so‘ngra bo‘sh xurmachani derazaga qo‘yib, indamay qoldi.

Tashtan miltig‘ining og‘zini yerga qaratib, yelkasiga osib oldi-da, ertalabgacha idora atrofida aylanib yurdi, bo‘lib o‘tgan voqeani ipidan ignasigacha esladi, o‘zi, hayoti, ayollar haqida o‘y surdi...

...Oyimxon, har holda, nima deganda ham uy bekasi sifatida yomon emasdi. To‘g‘ri, biroz ming‘ir-ming‘ir edi. Xotinlarning hammasi ham shu-da. Keyingi yillarda juda qiynalib ketdi. Salga ko‘z yoshi qilardi. “Men baxtiqaroman, xastaman, bola ko‘rgim keladi”. Nima, Tashtanning farzand ko‘rgisi yo‘qmi. Shaharga tushishdi. Doktor, er-xotin ikkovi ham soppa-sog‘, bemalol bola ko‘rishlari mumkin, dedi. Oradan yana uch yil o‘tdi. Urush ham tamom bo‘ldi. Lekin hamon zurriyot, merosxo‘r yo‘q. Oxirgi gap esiga tushdi...

— Kel, bir ochiqchasiga gaplashib olaylik, — dedi xotini.

Tashtan uning yoniga o‘tirdi-da, etigini tika boshladi.

Oyimxon, aslida, jizzaki, tajang xotin, salga lovullab ketardi, lekin hozir negadir xotirjam, har so‘zini o‘ylab, salmoqlab gapira boshladi, aftidan, bu suhbatga ancha tayyorlangan ko‘rinardi.

— Meni ko‘p urgansan. Bir kuni o‘lasi qilib kaltaklading, to‘g‘ri, kaltak yemasligim ham mumkin edi, o‘zimdan ham o‘tdi, mendayam ayb bor. Boshimizga tushgan baxtsizlik oramizdagi gina-quduratdan kuchliroq, shuning uchun ham seni kechiraman.

— Hoy! Senga bu aqlli gaplarni kim o‘rgatdi? — deb so‘radi Tashtan hayron bo‘lib.

Lekin xotini gapida davom etdi:

— Ertalab o‘ynab yurgan bolalarga qaraganingda ko‘zlaringda yosh ko‘rdim. Eski zamonlar bo‘lsa — o‘zim senga to‘qol olib berardim, lekin hozir ruxsat berishmaydi.

Eri miq etmas, mum surtilgan ipni chaynab o‘tirardi.

— Ota-onamning oldiga ketaman, o‘z erking o‘zingda. Faqat shoshilma, og‘ir-yengilingga chidaydiganini topgin, u senga faqat farzand tug‘ib bermasin, seni hurmat qilsin, qadringga yetsin. Menga esa duxoba palto, xrom etik, ota-onamga choy bilan biroz shirinlik olib bergin, og‘ziga kuchi yetmaganlar, Tashtan xotinini haydab yuboribdi, deb gap qilishmasin.

Bir necha kundan keyin er-xotin keksa qarindosh-urug‘larini yig‘ishdi, qo‘y so‘yib, osh berishdi-da, ajralishmoqchi ekanliklarini aytishdi. Keksalar har ikkala tomonning arz-holini eshitishdi-da, er-xotin to‘g‘ri ish qilishibdi, degan xulosaga kelishdi, chunki bolasizlik — bu katta baxtsizlik, deb hisoblashdi. Tashtan sigirlaridan bittasini sotdi-da, Oyimxonni boshdan oyoq kiyintirdi, xotinining ota-onalari uchun ancha sovg‘a-salom oldi, bisotidagi borini ikkiga bo‘ldi-da, uni Yetti muguzga kuzatib qo‘ydi.

Xotinining uyidan juda ko‘ngli g‘ash bo‘lib qaytdi. Oyimxon haqida biror nojo‘ya, xunuk gap aytgan odamni u qamchini bilan tilka-pora qilib tashlardi. Lekin undan ajralishga to‘g‘ri keldi — farzand ko‘rish orzusi shu qadar kuchli ediki, bu orzu butun vodiy gullab-yashnab, hamma yoqda hayot gashti hukm surgan paytda yanayam kuchayardi. Hatto go‘yo havoning o‘zida ishqi majoziy, yaralish, tug‘ilish zavqi bong urayotgandek edi: dalalarda ekinlar

endi nish ura boshlagan, daraxtlarda kurtaklar bo‘rtib chiqa boshlagan edi, qoramiqdan nafis qanotli kapalaklar uchib chiqishardi, qushlar sevgi qo‘shig‘ini kuylardi, tomlarda kaptarlar g‘uv-g‘uvlashardi, o‘tzorlarda xushqad biyalar o‘tlab yurishardi, sarpoychan bola-chaqalar ovul ko‘chalariga yopirilib chiqishardi, keksalar oftobda o‘tirishib, ularga mehr bilan qarashardi. U, Tashtan ham, o‘sha yerda, daryo bo‘yida ertadan kechgacha urinib yurardi, vodiyga hayotbaxsh suv taratardi, barcha jonli narsaning chanqog‘ini qondirardi. Uyida esa uni hech kim kutmasdi...

Mana endi, zim-ziyo kechada idora ostonasida yakka-yolg‘iz o‘tirarkan, ha, bu inson, aftidan, o‘z baxtining qadriga yetishni hech qachon o‘rgana olmasa kerak, deb o‘ylardi. To‘g‘ri, bolasizlik — bu katta baxtsizlik, albatta. Lekin oilasiz yashash yaxshimi? Agar, yoningda sen kulsang kulib, sen yig‘lasang yig‘laydigan ayol bo‘lsa, yomonmi, axir, bunga nima yetsin.

Tashtan o‘qlanmagan miltig‘iga suyanganicha ancha o‘tirdi. U eshikning g‘ichirlashidan uyg‘onib ketdi. Ko‘zlari yorug‘ nurdan qamashib ketdi. Quyosh ko‘tarila boshlagan edi.

— Salom, aka! — kolxoz raisasi Mayramxon Umarova ishga kelgandi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol, e, kechirasan, qizim, — deb o‘rnidan turdi Tashtan. — Kecha biz bu yerda bittasini ushladik... Ya’ni, o‘g‘ri xotinni. (U “ya’ni” so‘zini rasmiy odamlar bilan gaplashganda ishlatardi.)

— Xabarim bor, — deb kulimsiradi Mayramxon.

— Uni nima qil deysiz?

— Bilmadim, aka, — deb kulimsiradi yosh juvon.

— Balki so‘roq qilarsiz? — Bordi-yu, haligi... chet el ishpiankasi bo‘lsa-chi.

— Uni so‘roq qilishga haqqimiz yo‘q, aka.

— Kimning haqqi bor?

— Militsiyaning...

— Uni qayoqdan topdik?

— Kimni?

— O‘sha miliysani-da.

— Uni shaharga olib borib, bo‘linmaga topshiring.

— Bordi-yu, uni qamab qo‘yishsa-chi?

— O‘sha yerda tekshirib, aniqlashadi. Brigadirdan arava olib, oborib tashlang...

Bu orada “Qizil uy” oldida hangomatalab kishilar ancha to‘planib qolishgandi. Tashtan hammasini haydab yubordi, o‘g‘ri xotinni olib chiqib, qo‘llarini bog‘ladi, aravaga o‘tqazdi-da, rayon markaziga qarab yo‘l oldi.

Ovul bolalari ularni tosh yo‘lgacha kuzatib qolishdi. Bolalar qiyqirishar, xushtak chalishar, olma po‘choqlarini otishar, aravaga osilishar, o‘g‘ri xotinni masxara qilishar, so‘kishardi. Soqchi, quloqlaringni kesib olaman, deb po‘pisa qilar, qamchisini o‘ynatardi, lekin bolalar tinchiy demasdi — ular Tashtan amakining bolalarni yaxshi ko‘rishini, shunchaki yolg‘ondaka do‘q urayotganini bilishardi. Tosh yo‘lga chiqishlari bilan soqchi aravadan tushdi, cho‘ntagidan bir hovuch oshiq oldi-da, bolalarga ulashib chiqdi va ularni uylariga qaytishga ko‘ndirdi. Arava shag‘al to‘kilgan tosh yo‘ldan taraqa-turuq qilib yurib ketdi.

Quyosh tepaga kelgandi.

Keyin nimalar bo‘lganini hech kim, Tashtandan bo‘lak hech kim bilmadi.

U uyiga juda kech, allamahalda qaytdi, derazasida tuni bilan lampa yonib turdi, mo‘risidan ko‘kish tutun buralib chiqardi... Ertasiga kuni bilan hovlida ivirsib yurdi, u yoq-bu yoqni tartibga soldi. O‘tkinchilardan bitta-yarimtasi, o‘g‘ri xotinni nima qilding, deb so‘rab qolguday bo‘lsa, uni nima qilganimni yaqinda hammang bilib olasan, deb javob qilardi. Kechqurun qo‘zisini so‘ydi-da, qarilarni chaqirdi. Qozondagi go‘sht ishtahani qitiqlovchi hid taratib pishgunicha mehmonlar qarta o‘ynab o‘tirishdi, urush haqida, hosil to‘g‘risida, urushdan oldingi to‘qchilik xususida gaplashishdi. Ular, go‘yo shunchaki bir to‘yib go‘sht yegani to‘planishganga o‘xshardi. Go‘sht yeb bo‘linganidan va o‘smir bola qo‘lida sochiq bilan hammaning qo‘liga iliq suv quyib chiqqanidan keyin, mezbon o‘rnidan turdi-da, mehmonlarga murojaat qildi:

— Maslahatli to‘y tarqamas, deyishadi. Xudo menga bir ayolni yetkazdi. Uning na bola-chaqasi, na eri, na boshpanasi bor. Urush tufayli tirikchilik dardida u qayerlarda bo‘lmagan, bir burda non

deb qayerlarni kezmagan. Uning qoni ham, dini ham boshqa. Lekin o'zi ko'ngilchan, sog'lom ayol, undan farzand ko'rsam, o'zi uyimga bekalik qilsa, menga shuning o'zi kifoya. Aka-ukalar, agar shu gapimga yo'q demasalaring, uni menga udumimiz bo'yicha nikohlab beringlar. Bilasizlar, zamon og'ir. Urush tugadi-yu, lekin bevalar qoralarini hali ham yechganlari yo'q, ko'z yoshlarimiz hali quriganicha yo'q, hali hech kim qorni to'yib ovqat yegani yo'q. Bugun bitta-yu bitta qo'zimni so'ydim. Vaqti kelib, mening ham foydam tegar, qarzdor bo'lib qolmasman, hali har bir uyda to'y bo'ladi, bola tug'iladi.

Hamma jim edi. Tashtan hukmni kutardi. Nihoyat, keksalarning eng qarisi — sakson yashar To'qay boshini ko'tardi.

— Ukam, — deb gap boshladi chol, — birinchi boylik — bu sog'lik, ikkinchi boylik — bu uy bekasi. Er-xotin umri misoli bir ertak, uni hech kim oxirigacha aytib berolmaydi. Tangri senga shu ayolni yuborgan ekan, u senga yoqqan ekan, ko'ngling buyurganini qil. U so'qqabosh, boshpanasi yo'q, deyapsan, demak, bu ishing — xayrli ish. G'arib bir ayolga shunchalik muruvvat qilibsanmi, uni ixlos bilan uyingga olib kelibsanmi, sira kam bo'lmaysan, xudo seni yorlaqaydi. Qoni boshqa, dini boshqa bo'lsa — uni muloyim kelin qilish sening qo'lingda. Tangri oldida hamma teng. Agar nasl-nasabi yaxshi bo'lsa, bu yog'i oson ko'chadi. U kelganlarni qo'li ko'ksida kutib olib, oldiga dasturxon yozsa, xotirjam yashaysan, biz ham xursand bo'lamiz. Biz bo'lsak, sizlarga baxt tilab, qo'limizdan kelgancha yordam berib turamiz. Sen halol mirobsan. Ishingdan qarindosh-urug'laring ham, boshliqlar ham xursand, hech kim sendan yordamini ayamaydi. Ikkoving qo'sha qaringlar, shu ayol senga baxt va omad keltirsin! Omin! — keksa To'qay qo'llarini yuziga tortdi, o'tirganlarning hammasi ham fotiha o'qishdi.

Kelinning boshiga katta oq ro'mol tashlashdi, oq piyolalarga tiniq buloq suvidan quyishdi, domla hisobida yurgan, lekin qur'onni chala-chulpa biladigan, bironta ham arab so'zini bilmaydigan keksalardan bittasi nikoh o'qidi, ikkala tomonning ham roziligini so'rab, piyoladagi suvni kelin-kuyovning boshlari atrofida aylantirdi, xullas, nikoh o'qildi. To'g'ri, "domla" kelinning otini sira

aytolmadi, uning oti Margarita edi, domla bo‘lsa, nuqul Maripat, derdi. Maripat katta qora ko‘zlarini o‘ynatib xo‘mrayib qarar, yirik oq tishlarini ko‘rsatib iljayardi.

To‘yga uzoq tayyorgarlik ko‘rishmadi. Qarindosh-urug‘lar ko‘plashib uch qo‘y va bir qop tariq olishdi. Kolxoz pravleniyesi bir qop un ajratdi. Bo‘za solishdi. Non yopishdi va ikki qop bo‘g‘irsoq qilishdi. Kimdir bir mesh qimiz olib keldi, obro‘-e’tiborli mehmonlar kelib qolishsa, deb uni darrov karavot tagiga yashirib qo‘yishdi. Kolxozning hamma yilqisini frontga jo‘natganlaridan buyon qimizni dori o‘rnida ichishardi.

To‘yda ovqat mo‘l bo‘ldi, demak, o‘yin-kulgi ham joyida edi. Egniga yangi oq satin ko‘ylak, oyog‘iga mahsi-kalish kiyib olgan kelin chimildiq ichida yoshlar davrasida o‘tirardi, u ko‘rgani kirgan odamga egilib salom berardi. Kampirlar uning boshini silab, peshanasidan o‘pishardi:

— Voy, aylanay! Xuddi o‘zimiznikiga o‘xshaydi-yu, ko‘zlari ham qop-qora, sochlari ham qop-qora, sochiniyam bizning qizlarga o‘xshab taragan! Ilohim serfarzand, serdavlat bo‘lgin!

Tashtanning og‘aynilari dastlabki kunlari unga rosa tegajaklik qilishdi, uylanish haqida u bilan qanday kelishding, oralaringda hech gap bo‘lgani yo‘qmi, kechalari qaysi tilda gaplashasizlar, Issiqko‘l atrofida piyoda kezib fol ochish, tovuq, ot o‘g‘irlash niyating yo‘qmi, shular haqida gapirib bergin, deb uni hol-joniga qo‘yishmasdi. Mirobning jahli chiqmas, ularning qaltis hazil-mutoyibalariga u ham boplab javob qilardi, gap bilan juda tuzlardi, shuning uchun ham hademay askiyalarning keti uzilib qoldi. Nega endi kelib-kelib, shu xotinga uylanganini aslida o‘zi ham bilmasdi. Balki shunchaki — muruvvat yuzasidandir, ehtimol, Margarita u shu vaqtgacha ko‘rib-bilib kelgan xotinlarga sira o‘xshamaganligi uchundir, xullas, sababini bilmasdi. Margarita yangi hayotga tezda ko‘nikib ketdi: non yopishni, sigir sog‘ishni o‘rgandi, kampirlar va bolalar bilan har xil imo-ishoralarni ishga solib, amal-taqal qilib gaplashadigan bo‘ldi.

Yoz tugadi. Kuz kelib, oxiri qish kirdi. Mirob muz parchalash uchun daryo bo‘yiga kamdan kam borardi. Yo‘l-yo‘lakay u sovxozga kirib, xotiniga shirinliklar olib kelardi. U kechalari o‘choq

oldida uzoq o'tirishni yaxshi ko'rardi, Margarita bo'lsa tushunib bo'lmaydigan, mungli qo'shiqlarni xirgoyi qilardi...

Tashtan bir kuni doyaligi bilan nom chiqargan qarindoshining oldiga bordi-da, xotinining og'iroyoqligini aytdi.

— Ko'ngli nimani tusaydi? — deb so'radi doya xotin.

— Doim jigar qovurib bergin, deydi.

— Demak, o'g'il tug'arkan.

Shu-shu Tashtan o'g'il ko'rishiga juda ishonib qoldi. U o'zida yo'q xursand edi. Nazarida, uning tortgan azob-uqubatini, nihoyat, xudo ham payqagan-u, shu ayolni unga ato etgandek edi, endi butun orzu-umidi shu xotinidan edi. Tashtan o'sha yorug' kunni, bir parcha tirik jonni o'z kaftida ko'tarib turadigan o'sha totli daqiqani sabrsizlik bilan kutardi, kechalari uxlab yotgan Margaritaning yuziga uzoq tikilib o'tirardi, uyg'otib yubormaslik uchun qornini sekin, ehtiyotlik bilan silardi, qorniga qulog'ini tutib ko'rardi, chunki u doyalar bolalarning egiz tug'ilishini mana shunday qilib aniqlasharkan, deb eshitgandi.

— Bu nima qilganing? — deb so'rardi xotini uyqu aralash.

— Balki u yoqda ikkitasi...

— Ho, yoqmay qolsin! — derdi xotini va boshqa tomoniga o'girilib olardi.

— Uxlayver... uxlayver... o'zim shunday... — deb uzr so'rardi u va olisdagi yulduzlar jimirlab ko'ringan moviy derazaga tikilib qolardi, o'zicha kulimsirab, bu yorug' dunyoda yashash qanday yaxshi-ya, deb o'ylardi.

"Bu dunyoning ishi qiziq ekan, — deb o'ylardi u. — Otam yashadi, mening tug'ilishimni kutdi, keyin o'sib-ulg'ayib, odam bo'lishimni kutdi; mana endi men o'g'limning tug'ilishi-yu, o'sib katta bo'lishini kutaman, keyin o'g'lim o'z o'g'lining tug'ilishini kutadi, bu mangu davom etadi. Nasl-nasabim mangu yashaydi! Qonim ham asrlardan asrlarga o'tadi! Binobarin, men ham mangu yashayman..." Har xil sevinch-u tashvishlar, muhtojliklar bilan o'tgan burungi umri go'yo ulkan bir bayramga hozirlik ko'rganday bir gap edi. Tashtan uyidan chiqib ketayotib, har gal xotiniga, og'ir narsa ko'tarma, o'zingni urintirma, deb qattiq tayinlardi. Lekin xotini uning cho'chiganidan kulib qo'yar va o'zi bilganini qilar-

di: uyni yig‘ishtirar, suv olib kelar, un tortar, xamir oshirib, non yopar edi. Tashtan manqalda yopilgan issiq nonni yaxshi ko‘rardi. Keyin qo‘lbola tamakini yo‘g‘on qilib o‘rab chekardi. Ba’zida Tashtan, agar Oyimxon homilador bo‘lsa, o‘zini qanday tutardi-ya, deb tasavvur etmoqchi bo‘lardi. U Tashtanning har bir gapiga quloq solgan, hamma iltimoslarini so‘zsiz bajargan bo‘lardi, albatta. Lekin Margarita butunlay boshqa ayol edi. Uning nasl-nasabi boshqa bo‘lib, o‘zini boshqacha tutardi. Tashtan esa unga bir nima, deb e’tiroz bildirolmasdi — u bu ayoldan faqat bitta narsani — sog‘lom bola tug‘ib berishini kutardi.

Kutilmaganda falokat yuz berdi. Mirob odaticha tong saharlab turdi-da, qari axta otini egarladi (Tuyg‘un sog‘ayib ketib, tog‘ etagidagi yaylovlarda gijinglab yurardi), qo‘nji uzun rezina etigini kiydi, ketmonini oldi-da, ariqlarga suv tarash uchun soy bo‘yiga ketdi. Bu yil bahor quruq keldi, ekinlar suvsirab qolgandi. U uyiga tushlikka qaytib kelmoqchi edi, iloji bo‘lmadi, suv kam edi, soy bo‘yida esa brakonyerlar izg‘ib yurishardi, ular bitta-ikkita baliq deb, suvni bo‘g‘ib qo‘yishlari mumkin edi. Kartoshkaning qonib suv ichishini kutish kerak edi, kechasi suvni bug‘doyzorga qo‘yib yubormoqchi bo‘ldi.

U bug‘doyzorga suv qo‘ydi-da, dovon oshib uyiga yo‘l oldi. Tepaga ko‘tarilganida, beixtiyor otining jilovini tortib to‘xtatdi-da, tevarak-atrofga zavqlanib qaradi. Qirmizi quyosh tog‘lar ortiga botib borardi.

Ko‘z oldida vodiy yastanib yotardi. Suv yer bag‘irlab xotirjam taralar va xuddi qizil simobday yaltirardi. Ot ustidagi mirobning soyasi juda bahaybat, ulug‘vor ko‘rinardi.

U qishloq magazini oldiga kelganida qosh qorayib qolgan edi. Tashtan ko‘k ko‘zli to‘g‘nag‘ich (xotini yaltiroq buyumlarni yaxshi ko‘rardi) oldi-da, qorong‘i tushgunicha uyga yetib olay deb otiga ustma-ust qamchi urdi.

U hovliga kirib qarasa, sigir qozondan suv ichyapti, qorni shishib ketgan, arqoni bo‘ynida qolgan buzoq esa dumini likillatib turibdi. Tashtan xavotirlanib uyga chopib kirdi. Xotini yo‘q edi. Qo‘shnilarnikiga chiqib surishtirdi. Uni hech kim ko‘rmagandi.

Yana uyga qaytib keldi. Dumaloq stol ustida xat yotardi. Avval nega payqamadi ekan! Unda bolalarcha yozilgan ikki og'iz qirg'izcha so'z ko'rinardi: "Yaxshiliging uchun rahmat!" U Qochqinboyning oldiga yugurdi. Uning qizi uyida yo'q, qayerlardadir o'ynab yurardi. Uni topgunlaricha qorong'i ham tushdi. Qizcha, Rita yangam meni tushda oldiga chaqirib, qand berdi-da, shu ikki so'zni yozib berishimni iltimos qildi, dedi. U boshqa hech nima bilmasdi.

Xo'sh, qanday voqea sodir bo'lganikin?

Ehtimol, u o'z g'am-tashvishlaridan qutulib, biroz o'ziga kelganidan keyin, burungi erkinligini qo'msab qolgandir? Ertasini o'ylamay, faqat bugungi kuni bilan yashashga ko'nikib qolgan, lash-lushlarini olib, yalangoyoq yurishga, kechqurun esa gulxan atrofida ashula aytish, o'yinga tushishga o'rganib qolgan bu ayol, ehtimol, o'zining avvalgi beg'alva, betashvish hayotiga qaytishni istab qolgandir? Bola esa uning oyoq-qo'liga tushov bo'lardi, bir joyda muqim yashashga majbur etardi. Shuning uchun ham u boladan qutulmoqchi bo'ldimi? Unday ekan, erga tegib nima qilardi? Balki qamalishdan qo'rqib tekkandir? Xullas, na Tashtanning o'zi, na boshqa biror odam bu ayolning Tashtanning uyiga nima uchun kelganini o'z vaqtida tushuntirib bera olmaganiday, nima uchun ketganini ham tushuntirib berolmasdi. U bu tomonlarga qanday kelib qolgan? Nega endi u ko'cha-ko'ylarda masxarabozlik qilishdan, iflos, mishiqi bolalardan, qo'pol, mijg'ov kampirlardan, bozorma-bozor yurib o'z qismatini sinab ko'rmoqchi bo'lgan sodda, go'l odamlarni o'z tuzog'iga ilintirish payida bo'ladigan dugonalaridan voz kechishga jazm qildi?

Tashtan shularni o'ylab, qattiq ezilardi. Birovlar unga achinar, boshqalar esa (asosan, xotin-xalajlar) ajab bo'pti, deb ichida xursand bo'lishardi, qishloqda qanchadan qancha tuppa-tuzuk beva ayol va qizlar turganida uyiga bir sayoq ayolni boshlab kelib nima qilardi, deb uni qoralashardi.

U tevarak-atrofdagi qishloqlarning hammasini aylanib chiqdi, har yakshanba bozorga tushib, uning baxtini, zurriyotini qornida olib ketgan o'sha o'g'ri ayolni qidirardi. Militsiya bo'linmasida, uni topib bo'lmaydi, umid qilmang, deyishdi. Birinchidan, hech kim uning ism-familiyasini bilmasdi, na biron hujjati, na surati bor

edi, ikkinchidan, instruksiyaga binoan uni qidirmaslik kerak: chunki u eri bilan aloqani uzish uchun ataylab qochib ketgan hisoblanadi. Ehtimol, u qayerdadir yashayotgan qarindosh-urug'larining oldiga ketgandir, ko'zi yorishi bilan qaytib kelar? Mana, kuz ham kirdi, lekin u qaytib kelmadi...

Mirob juda odamovi bo'lib qoldi, soqol-mo'ylovini olmay qo'ydi, uyida ovqat pishirmaydigan ham bo'ldi. Atrofida qarindosh-urug'lari, yaqinlari, tug'ishgan opa-singil, aka-ukalari bo'la turib, o'zini yakka-yolg'iz his etardi. Ertalabdan anhor bo'yiga ketar, suv taqsimlardi, uyga allamahalda kelardi. Ketayotib eshigiga qulf solmasdi, yo'qligimda kelib qolsa uyga kirolmay o'tirmasin, deb cho'chirdi. Uyga kelib, stol ustidagi Qochqinboyning bolalari qo'yib ketgan tovoqdagi ovqatga ko'zi tushardi. Kechalari sovuq o'rinda yotib Oyimxonni o'ylab ketardi. Nega endi ajralishga rozi bo'ldi, unga javob berdi-ya? Balki shu ishi uchun xudoning qahriga uchragandir?

Aytishlaricha, u hali ham ota-onasinikida emish, unga sovchilar kelayotganmish-u, lekin Oyimxon ko'nmayotganmish...

Bir kuni ishdan kelsa, uyida qarindoshlarining xotinlari o'tirishibdi. Ular uyni yig'ishtirishibdi, eski-tuski narsalarining hammasini olib chiqib tashlashibdi, ko'rpa-yostiqlarni, kigizlarni oftobga yoyishibdi, idish-tovoqlarni tozalab, ust-boshlarini yuvib, yamab-yasqab, kechqurun kelishiga ovqat ham pishirib qo'yishibdi.

— Qani, mirob, endi bizlar bilan birpas o'tirgin! — deb buyurdi cho'tir Iris yanga. U Tashtanni mirob deb chaqirdi, chunki yangalar erining yaqinlarini otini atab chaqirolmas edi. — Yaxshi kunlarda qarindosh-urug'ingni yordamga chaqiruvding, boshingga kulfat tushganda bizni unutib qo'yding, — deya gap boshladi u. — Chaqirishingni kutdik. Sendan darak bo'lmagach, yaxshi niyatda mana o'zimiz keldik. Bitta xotinni deb shunchalik kuyib-pishgani uyalmaysanmi? Ota-bobolaring mardi maydon odamlar edi, ba'zida butun urug'-aymog'idan judo bo'lishsa ham bo'shashmagan, o'zlarini tetik tutishgan. Sen erkaksan, uylanaman desang xotin deganing to'lib yotibdi. Nahotki o'sha sayoq xotinni ko'nglingdan chiqarib tashlayolmasang, uni deb qarindosh-urug'ingdan, xalqingdan yuz o'girsang?

— E, men uni o‘ylayotganim yo‘q... bola, — deb gap boshladi Tashtan.

— E! Bilamiz! Bilamiz! — deb uning gapini bo‘ldi Iris yanga. — Chinorning shox-butoqlari sinishi mumkin, lekin uning ildizi sog‘ bo‘lsa, bahorda yangi butoqlar qanot yozadi. Bunchalik noumid bo‘lma, hali hech nima ko‘rmaganday bo‘lib ketasan. Mana biz bormiz, ayt, tengingni topib beramiz.

Tashtan anchagacha indamay o‘tirdi, keyin boshini ko‘tardi.

— Akam urushda o‘lib ketdi. Undan bola qolmadi. Men ham bu dunyodan bola ko‘rmay o‘tib ketaman shekilli. Otamiz urug‘i o‘zidan ko‘paymadi. Lekin shunisiga xursandmanki, qarindosh-urug‘larim, yaqinlarim bor, ular yiqilsam, suyanchig‘im bo‘ladi, oqsasam, qo‘ltig‘imga kiradi, kunim bitib o‘lsam, ona yer qo‘yniga qo‘yishadi. Rahmat sizlarga. Xalqqa rahmat. O‘la-o‘lgunimcha sizlarga, ona yerimga suv beraman, har yili bola tug‘asizlar, yer yangi-yangi hosil beradi. Mana shularni ko‘rib, ko‘nglim taskin topadi. Agar menga yaxshilik tilasanglar, Oyimxonni qayta olib kelinglar. U bilan yigirma yil umr ko‘rdim, taqdir ekan, bu yog‘iga ham birga bo‘lamiz-da.

Ayollar yo‘q deyishmadi — mirob ko‘nglidagini ochiq aytdi.

Oradan ko‘p o‘tmay Tashtan va uning yaqin qarindoshlari Oyimxonning ota-onasinikiga borishdi. Tashtan, o‘la-o‘lgunimcha, oxiratgacha, agar qiyomat-qoyim bo‘lsayam, u bilan birga bo‘laman, deb ont ichdi.

Xotini uyga qaytib kelganidan keyin ular yana yaxshi turib ketishdi. Tashtanning o‘g‘il ko‘rish xususidagi o‘rinsiz gaplarini eslamaslikka harakat qilishardi, o‘zlarini go‘yo hech gap bo‘lmaganday, bularning hammasini shunchaki bir tushda ko‘rgandek tutishardi.

Mirob har kuni ertalab suv taqsimlagani anhor bo‘yiga borar, kech qaytib kelardi, horib-charchasa ham xursand edi, suv masalasida brigadir bilan olishganini, brakonyerlarni qamchisi bilan savalaganini kuyib-pishib gapirib berardi. Havo aynigan kunlarda o‘choqda o‘t yoqib, bo‘g‘imlarini ishqalab, belini uqalab qo‘yishni iltimos qilardi.

— Ha, qarib qolding! Boshqa ishga o‘tsang bo‘lardi! Bod kasali bilan hazillashib bo‘ladimi. Ertadan kechgacha tizzanggacha muzday suv kechib yursang, — deb maslahat berardi xotini.

— Ketolmayman! — derdi mirob. — Men bo‘lmasam, boshqasi suv kechib yuradi. Bod — mirobning azaliy hamrohi. Suv esa mirishkor odamni yaxshi ko‘radi! — derdi u ihrab-sihrab oyog‘ini olovga tutarkan.

Oradan yillar o‘tdi. Mirob juda qarib qolgan, endi uyida o‘tiradi. Haliyam bo‘lsa ishlardi-yu, lekin bo‘g‘inlari qaqshab og‘riydi, bir necha bor kurortga borib keldi, lekin dardi yengillashmadi. Har holda sakson yosh ham oz emas-da. Ayniqsa kuzda, yomg‘irli kunlarda qiynalardi. Bunday paytlarda keksa Tashtan o‘rnidan deyarli turmasdi, keksa Oyimxon bo‘lsa, uning yonida o‘tirib jun paypoq to‘qirdi.

— Oyim! — deb chaqirib qoldi bir kuni Tashtan.

— Nima deysan, chol?

— Bugun nechanchi chislo?

— Birinchi yanvar.

— Tanga soldingmi?

— Ha, soldim.

— Bu yoqqa olib kelgin, — deb iltimos qildi u.

Kampir charm xaltachani olib keldi.

— Sanagin-chi!

— Yigirma besh dona, — dedi kampiri bir so‘mlik kumush tangalarni sanab chiqib.

— Demak, u bu yil yigirma beshga kirarkan... U kelganida shu pulni berish esingdan chiqmasin. Men yaxshi tush ko‘rdim. U albatta qaytib keladi...

CHAPAY HALOK BO‘LGANIDA

Boris Andreyevich Babochkinga

— Jim, grajdan o‘rtoqlar! Chapay... o‘y o‘ylayapti! — O‘q ovozi yangradi, lekin g‘ovur-g‘uvur bosilmadi.

— Sizlarga aytyapman. Chapay o‘y o‘ylayapti! — deb yanayam qattiqroq qichqirdi Petka, lekin boyagi o‘q ovozi eshitilmadi. Petka shoshib qoldi. U gugurt cho‘plaridan qirib olingan, oltingugurt o‘ralgan bir parcha qog‘ozni tosh ustiga qo‘ydi-da, yana bir urdi. Chirs etgan tovush eshitildi. Petka qog‘ozning yonib bo‘lganini, oltingugurtning yarmi portlamaganini ko‘rdi.

— Chapay! Porox nam! — dedi Petka qaddini rostlab.

— Nega endi nam?! —deb so‘radi Chapay jahli chiqib va uning ko‘zlariga tikildi.

— Gugurtlar nam tortib qolibdi, qattiqroq portlasin, deb ularni kerosinga botirib oldim.

— Quruq porox topinglar! — deb buyurdi komandir.

— Bu yoqqa ber! Uni men sindirib oldim-ku! — deb baqirdi lo‘ppi yuz Bekjon, kimningdir qo‘lidan uzun xivichni tortib olarkan.

— Urishishni bas qilinglar! — deb baqirdi Chapay va o‘rnidan turdi. U boshiga onasining modadan chiqib qolgan mo‘yna telpagini kiyib olgandi. Yelkasiga tashlab olgan yengil paltoni tomog‘ining tagidan qadalgan bitta-yu bitta tugma tutib turardi. Bu burka edi. Chapay sirtiga konserva bankalarining tunukasi qoplangan yog‘och qilichiga tayanganicha qo‘shiniga ko‘zlarini qisib qaradi, uning kuchini o‘zicha chamalab ko‘rdi, bo‘lajak jang rejalarini tuzdi, pulemyotni kimga ishonib topshirish to‘g‘risida o‘yladi, chunki doimiy pulemyotchi Anka (Svetka Sorokina) bugun ertalab pioner lageriga ketgandi.

Avgust quyoshi tunuka tomlarni shunday qizdirib yuborgandiki, hatto kaptarlar ham yurishga yuragi betlamay, cherdakda, soyada hurpayishib o‘tirishardi. Lekin Yusuf na telpagini, na burkasini yechdi, axir, bularsiz Chapayev bo‘lib qayoqqa bordi!

— O‘rtoq komandir, ular otni sindirib qo‘yishdi! — dedi Petka.

— Kim sindirdi?

— Bekjanka.

— Otib tashlanglar!

— Ho! Axir, bu kinoda yo‘q edi-yu! — deb e’tiroz bildirdi lo‘ppi yuz Bekjon.

— Jim bo‘l! — deb baqirdi Chapay.

Petka bilan ikki jangchi Bekjonni daraxt oldiga olib borishdi, uch qadam orqaga tisarilishdi-da, uni nishonga olishdi.

— Ogon! — deb komanda berdi Petka.

— Kx! — soldatlar o‘q uzishdi.

Jinoyatchi yengil chayqaldi, ko‘zlarini yumdi, kalta, yo‘g‘on tilining uchini tishladi-da, yerga sekin yiqildi.

— Olib ketinglar! — buyurdi komandir.

— Olib ketinglar! — deb takrorladi Petka, bolalar otib o‘ldirilgan Bekjonni skameyka oldiga olib borishdi, lekin u sovir-sovimas, bolalarning qo‘lidan yulqinib chiqib ketdi.

— Men endi kim bo‘laman? — dedi u cho‘zib.

— Josus! — dedi shartta Chapay.

— Fi-i! Unday bo‘lsa o‘ynamayman! — dedi Bekjon lab-lunji osilib va bir chekkaga chiqib turdi.

— Hoy, nega xafa bo‘lasan-a? — deb so‘radi Petka.

— Otishganlari uchun xafa bo‘layotganim yo‘q... Boshqalar nima qilishsayam, ularga indamaysizlar, meni sal narsagayoq darrov... — Bekjonning ko‘zlarida yosh ko‘rindi. — Josus bo‘lishni istamayman.

— Yana bir marta otinglar! — deb buyurdi Chapay, lekin lo‘ppi yuz bola yarimta otini sudraganicha uyiga qarab ketdi.

— Mayli, ketsa ketaversin! Petka, oziq-ovqatni taqsimla! — deb buyurdi Chapay.

Petka nonni olti bo‘lakka bo‘lib, eng katta burdasini komandirga uzatdi.

— Chapay non yemaydi. U konfet yeydi! — dedi komandir g‘urur bilan, qo‘ynidan mototsikl shaklidagi qizil obakidandonni

oldi-da, mototsiklchiga qo‘shib, uning oldingi g‘ildiragini qirs etkazib tishladi.

Bolalar nonlarini chaynashib, Yusufga qarab turishardi, u bo‘lsa telpagini orqaga surib qo‘yib, shishaday qattiq obakidandonni qirsillatib tishlarkan, ularga g‘urur bilan boqardi.

Dushman esa sergak edi...

Qo‘shni hovlida o‘zlarining Chapayi bor edi, mana ikki yildirki, ikki hovli bolalari o‘rtasida shafqatsiz jang borardi. Ular o‘zlarini qizillar, bularni esa oqlar deb hisoblashardi, bular esa buning aksini isbotlamoqchi bo‘lishardi.

Ikki hovlini bir-biridan ajratib turgan devor olib tashlanganidan buyon jang-jadallar, to‘qnashuvlar bot-bot bo‘lib turadigan bo‘ldi. Quruvchilar eski devorni qulatishdi-da, g‘ishtdan devor ura boshlashdi, yerdan yarim metrcha ko‘tarishdi-da, keyin negadir tashlab qo‘yishdi, ikki hovlida turadiganlar bir-birlarinikiga osongina kirib chiqaverishardi, bu kichkina to‘siq ular uchun hech gap bo‘lmay qoldi.

Chala qolgan devor bolalar uchun bir muqaddas chegara bo‘ldi. Bordi-yu, bitta-yarimtasi chegaradan o‘tib qolguday bo‘lsa, holiga voy edi. Uni ushlab olishlari, oyoq-qo‘llarini bog‘lab, saroyga qamab qo‘yishlari, bolani olib ketgani onasi yoki kattalardan bitta-yarimtasi kelmaguncha qo‘yib yubormasliklari mumkin edi.

Ularning ham, bularning ham qo‘shinlardan yig‘ib olingan pullari bor edi. Mablag‘ ma’lum miqdorga yetganidan keyin bolalar to‘planishib, kinoga, “Chapayev”ga tushishardi. Balki ular, qizil otliqlar jasur komandirni qutqarishadi, deb chindan ham ishonishar, umid qilishar? Lekin bu safar ham Chapay halok bo‘lardi. Ular kinodan chiqishganlaridan keyin boshlarini xam qilib ketishardi. Gapirishmasdi. Mana, hozirgina Chapay daryoga cho‘kib o‘ldi, hozirgina jasur Petka shunday Ural daryosi sohilida chalqancha yiqilib tushdi, muzday daryo suvi uni g‘arq qildi. Bolalar qichqirishar, qiyqirishar, hushtak chalishardi, ularni shoshirishardi, lekin biznikilar kech qolishdi, ulgurisholmadi.

Faqat bolalardan bittasi — sakkiz yashar Maratgina Chapayning halok bo‘lganiga ishonmasdi. Bolalar uni ishontirishmoqchi bo‘li-

shar, film mazmunini, uning ishtirokchilarini batafsil, birma-bir gapirib berishardi. Lekin Marat ishonmasdi. U, Chapayev qutulib ketdi, biznikilarni chaqirdi, ular oqlarni tor-mor qildi, deb nuqul o'zinikini ma'qullardi. Yo'q, Chapayning halok bo'lishi mumkinmas!

Marat doimo Chapay bo'ladigan Yusufni yaxshi ko'rar, unga astoydil qoyil qolib yurardi. Birinchidan, Yusuf hammadan katta edi, to'rtinchi sinfda o'qirdi, doimo besh olardi, oyisi to'rt olsayam urishardi. Ularning uyida pianino bor edi, Yusuf qoyilmaqom qilib chalardi.

Ba'zida Yusuf anchagacha ko'chaga chiqmasdi, o'shanda bolalar ularning uyi oldiga kelishib chaqirishardi:

— Yusuf, Chapay! Chiqqin! Oqlar bostirib kelishyapti!

Ostonada Yusufning onasi — egniga yenglari keng, uzun, yaltiroq xalat kiyib olgan chiroyli yosh ayol paydo bo'lardi.

— Nega qichqirasizlar, bolalar?

— Yusuf kerak edi! Dushman bostirib kelyapti.

— Yusuf ovqat yeyapti. Keyin dadasi bilan konsertga boradi.

— Bizga otini berib tursin...

— Ot dam olishi kerag-u... — u qip-qizil qilib bo'yalgan lablarini ochib kulimsirardi-da, uyga kirib ketardi.

Bolalar Yusuflarning uyi oldidan istar-istamas ketishardi-da, kichkintoylar g'imirlashib yurgan qum ustiga kelib o'tirishardi, allanimalar to'g'risida talashib-tortishishardi yoki tennis koptogida futbol o'ynagani voleybol maydonchasiga borishardi.

— Ha! Qo'rqdilaring-a! — deb qichqirishardi narigi hovlidan. — Qo'rqdilaring! Qo'rqdilaring! Xe-e-e!

Lekin bolalar javob berishmasdi.

Marat o'zicha, men hecham Yusufday Chapay bo'lolmasdim, bolalar ham menga bo'ysunishmasdi, deb o'ylardi. Lekin uning o'z orzusi bor edi: aqalli bir o'yinga bo'lsa ham Petka bo'lishni istardi. Lekin negadir uni hech qachon tayinlashmasdi. Alik Petrov yoki epchil Andash doimo Petka bo'lardi, bu Chapayning xohishi edi: u ordinaresni o'z bilganicha tanlardi. Lekin bir necha kun burun birinchi nomerli Petka, uning dublyori qizamiq bilan og'rib qolib, nihoyat Maratni Petka qilib tayinlashdi.

U bugun ertalabdanoq o‘zini Petka deb his etdi — har qanday jangovar topshiriqni so‘zsiz, aniq qilib bajarardi.

Chapay mototsikl-obakidandonning orqa g‘ildiragini bagajnikka qo‘shib og‘ziga soldi. Xuddi shu payt oyog‘i tagiga “granata” — bir bo‘lak kesak qars etib tushdi.

— Jangga! — deb qichqirdi Chapay. — Petka, pulemyotga bor!

Bolalar snaryadlarga tashlanishib, javob o‘qi ochishdi. Jang boshlanib ketdi. Dushman pana joydan turib o‘qqa tutardi, aftidan, qo‘qqisdan hujum qilmoqchi shekilli. Granatalar devorga tap-tap etib urilardi, pulemyot o‘rnatilgan faner to‘siqqa to‘qillab tegardi.

Kesak bo‘laklari Maratning boshiga, yoqasiga kelib tushar, yuziga tegib achishtirardi, lekin u hech nimani ko‘rmas, his etmasdi. O‘yin unga chinakam jangday bo‘lib tuyulardi.

— Ha, qo‘rqdilaringmi! — deb qichqirardi u, ustma-ust kesak otarkan, berilib jang qilganidan o‘q-dori tugayotganini ham sezmay qoldi.

Dushman tobora siqib kelar, har daqiqa hujumga o‘tishi, istehkomni buzib, faner to‘siqlarni olib ketib qolishi mumkin edi.

Lekin Chapay o‘zini yo‘qotmadi.

— Petka! Bu yoqqa kel! — deb qichqirdi u.

Marat yomg‘irdek yog‘ib turgan o‘qlar ostida orqasiga qarab emaklab borishga majbur edi.

— Granatalarni olib, ko‘chaga emaklab chiqqin! — buyurdi Chapay.

Petka telpagiga o‘ntacha granata solib olib, uylar o‘rtasidagi ochiq joyga qarab emaklab ketdi. O‘q-dori solingan telpak unga xalaqit berardi, uni tishida tishlab borishga to‘g‘ri keldi.

Yusuf uyiga chopib ketdi, derazadan ko‘chaga sakrab tushdi-da, Maratning oldiga emaklab keldi.

Dushman qo‘shin komandirsiz qolganini ko‘rdi-yu, darrov hujumga o‘tdi.

Qamaldagilar hovlining ichkarisiga qarab chekina boshladilar.

Chapay:

— Ketdik! — deb komanda berdi. So‘ng: — Ura! — deb pistirmadan qichqirib chiqdi-da, o‘t ochdi.

Petka o‘zini chinakam jangda yurgandek his etardi. U tishlarini qisib, xotirjam, mo‘ljalga aniq olar, nishonga tekkizardi. Mana, u kimningdir orqasiga tekkizdi, yumshoq loy sachrab ketdi, bolaning ikki yelkasi orasida dog‘ qoldi.

Dushman sarosimaga tushib qoldi, lekin yon tomondan faqat ikki kishi chiqqanini ko‘rishib, ularga qarata o‘t ocha boshladi. O‘q-dori tugab qolgandi, tevarak-atrofda tosh ko‘p edi-yu, lekin urush qoidasiga binoan ularni ishlatib bo‘lmasdi.

Birdan Chapay oh deb yubordi, uning sochida kulrang dog‘ paydo bo‘ldi.

Marat Yusufning yuzini bujmaytirib, yerdan tosh olib, devorga yaqinlashayotganini ko‘rdi.

— Chapay! Chapay! Toshni tashla! Tosh otish mumkinmas! — deb baqirdi Petka. Lekin Chapay uning gapini eshitmayotganday edi.

— Yusuf! Kerakmas! Kerakmas! — deb baqirardi Marat o‘t ochib, uni himoya qilishga urinarkan.

Yusuf devor oldiga keldi-da, qo‘lidagi toshni uloqtirdi. Deraza oynasining jaranglab singani eshitildi.

— Ha, razillar! Tosh ota boshladilaringmi? Shunaqami? — deb baqirib-chaqirishdi dushmanlar va hammalari ko‘chaga chopib chiqishdi. Ular kamida o‘n kishi edi.

— Qochdik! — deb qichqirdi Yusuf va orqa-oldiga qaramay tiraqaylab qochdi.

Marat avvaliga uning orqasidan chopdi, lekin keyin qutulib ketolmasligiga ko‘zi yetdi: dushman ikki uyning orasidan yorib chiqib, uning yo‘lini to‘sishi mumkin edi.

Marat orqasidan oyoqyalang chopib kelayotgan bir to‘da bolalarning dupur-dupurini eshitdi. U shartta to‘xtadi-da, ta’qib qilib kelayotganlarga o‘girilib, ular tomonga yura boshladi.

Ular sarosimaga tushib, to‘xtab qolishdi. Petka ham to‘xtadi-yu, lekin keyin orqasiga asta-sekin tisarila boshladi. Unga yana bu o‘yin emas, chinakam jangdek tuyuldi, u rostakamiga qo‘rqib ketdi.

Ta’qib qiluvchilar yaqinlashib kelardi.

— Qo‘lingdagi toshingni tashla! — dedi begona Petka.

— Tosh emas! — deb javob berdi Marat.

— Taslim bo'l! — deb buyurdi begona Petka.

— Yo'q! — deb baqirdi Marat, qo'lidagi granatasini otdi-da, uylarning orasidagi ochiq joyga qarab chopdi. Orqasidan kesaklar yog'ildi.

Bittasi yelkasiga, boshqasi oyog'iga tegdi, bolalar uni quvib ketishdi.

— Uringlar! — deb baqirdi begona Chapay.

Marat boshini egganicha, uylar orasidagi ochiq joydan sekin borardi; u tezroq yurishi ham mumkin edi-yu, lekin qadamini jo'rttaga sekinlatardi. Vaqtdan yutish, Chapayni qutqarish kerak edi, Chapay bizlarnikiga yetib olib, ularni to'plab, dushmanning yon tomonidan aylanib o'tishi kerak. Kesaklar orqasiga, yelkasiga tapillab urilardi. Petka tishini-tishiga qo'yib chidardi. Biroq Chapaydan hamon darak yo'q, odatdagi "ura" sadolari ham eshitilmasdi, granatalar hamon yomg'irday yog'ilardi.

— Uni nega uryapsizlar? A? — deb baqirdi bir ayol.

Bolalar har tomonga tarqab ketishdi. Urush tugadi.

Hamma yog'i loy bo'lgan Petka uylar orasidan sekin chiqib keldi, qo'llarini arang qimirlatib, boshini qumdan tozaladi. O'ng tizzasining sidirilgan joyidan qon sizib oqardi.

Hovli bo'm-bo'sh edi. Chapay ko'rinmasdi.

Bu payt Yusuf vannaga kirib olib, shimidagi dog'ni yuvardi.

— Chapa-ay! — deb chaqirdi Petka yig'i aralash.

Qandaydir tushunib bo'lmaydigan, murakkab tuyg'u uning yuragini ezardi. Ho'ngrab-ho'ngrab yig'lagisi, qattiq depsingisi kelardi. Oyisi singlisini o'zi bilan birga olib ketmasa, singlisi ana shunday yig'lardi.

Yelkalari, oyoqlari zirqirardi, yuragining allaqayeri ham og'rib, a'zoyi badani qaltirardi. Lekin Chapaydan hamon darak yo'q. Bolalar ham ko'rinmasdi. Aftidan, ular Yusufning derazani sindirganini ko'rishib, o'zlari ham uy-uylariga kirib yashirinib olishgan-u, Petkaning yolg'iz ushlanib qolganini ko'rishmagan. Lekin Chapay hammasini ko'rdi-yu... Ko'rdi? Marat oyim ko'z yoshimni ko'rmasin, deb iflos kafti bilan ko'zlarini ishqalardi.

Dadasi kechasi qayoqqadir jo‘nab ketganidan buyon oyisi uning karavoti oldiga o‘tirib olib, tez-tez yig‘laydigan bo‘lib qolgandi. Marat o‘zini uxlaganga solib, indamasdan yotardi, onasining nega yig‘layotganiga sira tushunolmasdi.

— Voy, xudoyim! Bu nimasi? Cho‘chqalar bilan cho‘mildingmi? — dedi oyisi qo‘llarini yozib, Marat uyga kirib kelganida, — bor, hoziroq yuvinib olgin!

Kechga borib bolaning isitmasi ko‘tarildi. Vrach chaqirishga to‘g‘ri keldi.

Keksa odam kelib, uning u yoq-bu yog‘ini ko‘ra boshlaganida Marat uyg‘oq edi, lekin ko‘zlarini ocholmasdi, o‘zini hecham uxlab yotgan qilib ko‘rsatmoqchi emasdi.

— Balki qizamiqdir, Valeriy Danilovich? — deb so‘radi oyisi sekin.

— Yo‘q, xavotir olmang. Shunchaki issig‘i bor. Menimcha, yarim kechaga borib tushadi... Unga ozgina aspirin bilan anor suvidan bering.

— Xo‘p... O‘g‘lingiz qalay, tuzalib ketdimi?

— Hozircha tuzuk... O‘pkasining mazasi yo‘q... — dedi doktor o‘ychan. — O‘g‘lingiz judayam sho‘x, sizni qiynab qo‘yayotgandir?

— Ha... Gapga kirmay qo‘ydi... ertadan kechgacha ko‘chadan kelmaydi. Yaqinda uydan qochib ketib, parkka borib allaqanday konsert ko‘ribdi. Militsioner uni devordan tushirib olib, uyga olib kelsa bo‘ladimi...

Keyin ular yana allanimalar to‘g‘risida sekin shivirlashib gaplashishdi, so‘ngra doktor ketdi.

Maratning yana yig‘lagisi keldi, lekin hademay uxlab qoldi.

— Oyijon! Oyi! — deb chaqirib qoldi yarim kechada.

Onasi oldiga chopib bordi. Bola alahsirardi.

— Oyi! Chapayni o‘ldirishdi! Mening Chapayimni o‘ldirishdi! — deb qichqirdi u, boshini onasining qaynoq ko‘ksiga qo‘ydi-da, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

— Senga nima bo‘ldi, bo‘talog‘im? Kimni o‘ldirishdi?

Lekin bola boshqa hech nima demadi, faqat piq-piq yig‘lar, dag‘-dag‘ titrardi.

— Yonimdan ketmang, — dedi u.

— Xo‘p, jonim, oppog‘im, ketmayman. Yoningdan hech qachon ketmayman, oppog‘im. Sen yig‘lama. Mana, ko‘rdingmi, sen kasal yotganingda men yana bir soldatingni topib qo‘ydim. Endi ular oltita bo‘lishdi, hademay boshqalari ham topiladi, yana o‘nta bo‘lishadi, ko‘rdingmi...

Deraza tokchasida qalay soldatchalar tizilishib, o‘z boshliqlarining yig‘layotganini ko‘rib turishardi.

Lekin Petka mag‘lubiyat alamini birinchi bor tortayotganini, o‘z Chapayining o‘lganiga astoydil ishonganini na boshi tepasida turgan ayol, na soldatlar tushungandi.

Ayol uning onasi edi.

Soldatlar esa qalaydan yasalgan edi.

JINOYAT VA JAZO
YOXUD QIZIL QULOQLAR

Ovulimizda hech qachon yong‘in bo‘lmagandi. Yana kim biladi, har holda keksalar shunday deyishadi, ha, ular ko‘p narsani bilishadi. Gap bu yerda o‘t bilan o‘ynashmaganlarida emas, balki yonadigan narsaning o‘zi yo‘qligida edi. Odamlar ko‘rimsiz guvala uylarda turishardi. Yer esa, ma’lumki, odatdagi olovdan yonmaydi.

Guvala uylar cho‘kib, davr yuki ostida qulab tugadi. Ularning o‘rnida usti shifer bilan yopilgan, atrofi devor bilan o‘ralgan, darvozalari katta, ayvonli muhtasham g‘ishtin uylar qad ko‘tara boshladi. O‘t toshqindan ham dahshatli ofat bo‘lib qoldi. Ovuldagilar har ehtimolga qarshi to‘pchilar ishlatadigan durbin sotib olishdi, qishloqning chetiga yog‘och vishka o‘rnatishdi. Qochqinboy amakini esa o‘t o‘chiruvchi qilib saylashdi.

Tong saharda tevarak-atrofni mollarning ma’rashi, itlarning akillashi tutib ketgandi. O‘tkinchi amaki “xix-xix”lab bir quloqli eshagida poda ketidan shoshmay borayotgan bir paytda Qochqinboy amaki unga peshvoz chiqardi, qirchang‘i otida gerdayib o‘tirgancha, xuddi tankday mollar to‘dasini yorib borarkan, podachi bilan iliq salomlashardi.

U ish joyiga yetib borganidan keyin, arg‘umog‘ini o‘z holiga qo‘yib yuborardi, bir mesh qimiz, “Pomir” sigaretalari solingan xurjunni yelkasiga tashlardi-da, vishka ustiga chiqib, yaxshilab o‘rnashib olardi. Keyin qimizdan ichib, sigareta chekib, ko‘m-ko‘k tog‘larga, doribop ko‘knori ekilgan dalalarga qarab o‘tirardi, hech nimani o‘ylamasdi, dalalarda esa rang-barang ko‘ylakdagi xotin-qizlarning qomati, erkaklarning qoramtir sharpasi ko‘zga tashlanardi. O‘t o‘chiruvchiga havasim kelardi. U balandda o‘tirib olib, kichkinagina ovulimizni halqaday o‘rab olgan ko‘m-ko‘k tog‘lar ortida nimalar bo‘layotganini ko‘rib-bilib turardi. Ba’zida vishkaning oldiga sezdirmasdan kelardik-da, ikki-uch kishi bo‘lishib, vishkaning ustunlaridan bittasini chayqata boshlardik, u bo‘lsa te-

pada o‘tirganicha bizni ruschalab bilsa-bilmasa bo‘ralab so‘kardi. (Qochqinboy amaki rasmiy vazifani egallab turgani uchun rasmiy gaplashish kerak, deb o‘ylardi.) Bisotidagi bor ruscha haqoratli so‘zlarni ishlatib bo‘lganidan keyin qirg‘izchaga o‘tardi, ota-onalarimizga ham til tekkizardi. Ana shundan keyingina biz butalar orasiga kirib, g‘oyib bo‘lardik.

Qochqinboy amaki ishdan qosh qorayganda qaytardi.

— Hech ish qilmay oftobda yotasan-u, mehnat kuni yozilaveradimi? — deb so‘rardi otam. Dadamning bod kasali bo‘lib, doim darvoza oldida o‘tirardi.

— Ha, yozilyapti, — deb ma’qullardi o‘t o‘chiruvchi.

— Ha, haromtomoqni o‘zisan, qani endi menga shunaqa ish bo‘lsa, — derdi otam havasi kelib. — Omading bor ekan, bir umr yaxshi ishda ishlab kelasan.

— Ha, shoshmay tur hali, uyingga o‘t tushsin, ana shunda ko‘rasan, — derdi Qochqinboy amaki.

— Tushmaydi.

— Ha, ko‘ramiz, bir kun emas, bir kun yonadi, — deb ishontirmoqchi bo‘lardi o‘t o‘chiruvchi.

Chindanam o‘t tushdi!..

Biz ukam ikkovimiz popishak tutib, qanotidan yelpig‘ich qilmoqchi edik. Popishak ola-bula kokilchalarini yozganicha, hovlimizda gerdayib yurardi. U qo‘shni uyning bo‘g‘otiga uchib kirib, chiyillagan ovoz eshitilganidan keyin narvonni ko‘tarib, olib keldik. Qo‘limni uyaga tiqishim bilanoq, o‘sha tomondan qo‘lansa hid keldi, bunday qarasam, uyning derazasidan buruqsab qora tutun chiqyapti. Eshiklar qulf edi.

Men o‘t o‘chirish vishkasiga qarab chopdim. Bolalarning menga qanchalik havasi kelishini bilardim, chunki yong‘inni men birinchi ko‘rgandim-da, Qochqinboy amaki esa, hoynahoy yoniga chiqishimga, durbindan qarashimga ruxsat berar, ana shunda ko‘m-ko‘k tog‘lar ortida nimalar bo‘layotganini ko‘raman.

— Qochqinboy amaki! O‘t ketdi! — deb qichqirdim.

O‘t o‘chiruvchi mudrab yotardi.

— Yana qayerga o‘t ketdi? — u tirsagida ko‘tarildi.

— Uy yonyapti!

— Otang qani?
— Uxlayapti. Kecha qo‘shnimiznikida to‘y bo‘luvdi.
— Oying-chi?
— Dalada.
— Qo‘shning-chi?
— Uxlayapti. Axir, kecha o‘shalarnikida to‘y bo‘lgandi-da.
— Demak, uxlashyapti, degin? — deb so‘radi u.
— Uxlashyapti, — deb tasdiqladim men.

Qochqinboy amaki telpagini oldi-da, tepakal boshini qashib qo‘ydi, lekin u hech nimani ko‘rmadi, payqamadi — bolaligidan uzoqni ko‘rolmasdi, lekin buni o‘zi bilmasdi, chunki gazetalarning yo‘g‘on harflar bilan terilgan sarlavhalaridan bo‘lak narsani o‘qimasdi, o‘zini katta odam hisoblab, mayda-chuyda narsalarga e’tibor bermasdi.

— Demak, yonyapti degin?
— Yonyapti.
— Balki hademay boshqa uylarga ham o‘t tushar?
— O‘t tushadi.
— Hammasi yonib ketadimi?
— Yonib ketadi...

U pochasi keng shimini kiydi-da, vishkadan pastga tushdi, oldimga kelib qo‘lini ko‘tardi. O‘zimcha, u hozir katta iliq kafti bilan boshimni silasa kerak, deb o‘yladim-da, durbiniga qo‘limni cho‘zdim. U katta, iliq qo‘li bilan qulog‘imdan ushladi-da, siltadi.

— Boshqa uylarga o‘t tushmapti-yu! — deb baqirdi u menga.

Men og‘riqdan chiyillab, o‘tirib qoldim.

— Yana mana shunaqa vahima qilasanmi?

— Yo‘q, qi-i-mayman! — deb baqirib yubordim, chunki qulog‘im uzilib ketay degandi. U barmoqlarini bo‘shatdi-da, nam qo‘lini ishtoniga artdi.

— Seni qara-yu. Hamma yoqqa o‘t ketsa-yu, hamma uxlab yotsa-yu, bitta bu hushyor, sergak bo‘lsa. Buni senga maktabda o‘rgatishganmi?! — u yelkamga bir tushirdi-da, vishkaga chiqib ketdi.

Men piq-piq yig‘laganimcha nari ketdim, juda xo‘rligim keldi, quloqlarim lavlagiday qizarib ketgandi.

O‘t o‘chiruvchi poxol ichidan plugning siniq bo‘lagini topdi-da, teshigidan ip o‘tkazib xariga ilib qo‘ydi, keyin uni daranglatib chala boshladi, holbuki odamlar vahimali tutunni allaqachon sezishib, ovulga qarab chopib ketishgandi. Yong‘inni o‘chirishdi. Qurbonlar bo‘lmadi. Uy yonib kul bo‘ldi.

Ko‘m-ko‘k tog‘lar ortida nimalar bo‘layotganini men ko‘pdan beri bilaman. Lekin quloqlarimni nega cho‘zishganini, o‘lay agar, shu vaqtgacha bilmayman...

MENING NONIM

...Otam ham frontga jo‘nab ketdi. Oyim ikkovimiz uni Pishpak stansiyasigacha kuzatib qo ydik. Soldat shinelidagi odamlarga liq to‘la yuk poyezdi g‘ildiraklarini taraqa-turuq qilib, tuman qo‘ynida yo‘qoldi. Uyimiz bo‘m-bo‘sh va jimjit bo‘lib qoldi.

Birinchi qor yog‘di. Sovuqlar boshlandi. Men qandga bir necha soat navbatda turib, qulog‘imni sovuq oldirib qo‘ydim. Telpak olib bermoqchi bo‘lishdi. Oyim non payogining uch kunligini oldi-da, meni bozorga yubordi.

Nonni alohida ajratilgan joyda sotishardi. Nonchilar non bo‘laklarini likopchalarga qo‘yishib, stulchalarda o‘tirishardi. Men rosa bir soat turdim-u, lekin nonimning bir bo‘lagini ham sotolmadim; keyin hammasini bir aldamoqchi bo‘lib, bozorni aylanib yura boshladim...

Moy bo‘yoqda kleyonkaga solingan suratlar taxta devor yoqalab qo‘yib chiqilgandi: jimirlagan suv yuzida, nilufarlar orasida qorday oppoq oqqushlar suzib yurardi; ko‘krakdor, yonoqlarida kulgichi, baliqlarnikiday dumi bor suv parilari sohil bo‘yidagi xarsanglar ustida gitara chalib o‘tirishardi.

— Kimga non kerak? — deb so‘radim biroz tortinib.

Hech kim javob bermadi — odamlar “san’at asarlarini” tomosha qilish bilan band edi.

— Gazetalar! Kimga gazetalar? — Zinkaning chinqiroq ovozi eshitildi. U bozordagilarning hammasiga otning qashqasiday ta-

nish edi. Yoshi o‘n beshda bo‘lishiga qaramay, ko‘rinishidan barvasta xotinga o‘xshardi... Aytishlaricha, u Qrimning allaqayeridan kelgandi. Uning ota-onasi o‘lib ketgandi, qizchani soldatlarimiz o‘zlari bilan birga olib yurishib, keyin biz tomonlarga jo‘natishibdi; vrachlar asab kasali ta’sirida qizchada moddalar almashinishi buzilgan, deb topishdi.

— O‘ziyurar tuflilar! So‘nggi nusxasi! — deb baqirdi kimdir shunday yonimda. Olomonni yorib o‘tib, bunday qarasam, savdogarning qo‘lida oddiygina xonaki erkaklar tuflisi.

— Xo‘sh, qancha beray? — deb so‘radi galife kiygan mo‘ylovdor erkak.

— Ming.

— Nima, jinni bo‘ldingmi, amaki?

— Jinni bo‘lganmishman, — dedi tufli egasi. — Axir, ko‘rsangchi, ishigayam qaragin-da. Tagcharmi spirtlangan. Charmiyam toza! — U tagcharmini chertib qo‘ydi.

Mo‘ylovli kishi tuflini qo‘liga olib, go‘yo uning og‘irligini chamalab ko‘rmoqchi bo‘lgandek, uni osmonga otdi, keyin chertib, hidlab ko‘rdi, barmog‘ini ho‘llab, tuflining uchini ishqaladi, tagcharmini bukib ko‘rdi, so‘ng ko‘zlarini mug‘ambirona qisib:

— Qancha deyapsan? — deb so‘radi.

— Sakkiz yuzga beraman... — dedi egasi ishonchsizlik bilan.

— Tagcharmi — karton-u! Lak surtgansan! Qani yur, militsiyaga!

— Hoy, menga qara, botinkani ber! Bolalarim bor. Och o‘tirishibdi. Xotinim terlama bilan kasalxonada yotibdi.

— Yana terlamang nimasi?

— Ichak terlama-da. Yana qanaqa bo‘lardi? Epidemiya! Og‘ayni, eshityapsanmi? Bergin! Kechasi bilan uxlamay tikdim. Bergin!

— Qallobliging uchun kesilasan!

— Axir urush. Ocharchilik. Ochdan o‘lmaslik uchun...

Etikdo‘z galifedagi xaridor ketidan izma-iz borardi, go‘yo u buning bo‘yniga bo‘yinbog‘ solib olganday edi.

Qari tatar chol no‘xatda, lo‘li ayol kartalarda fol ochardi, ko‘r xotinning barmoqlari esa nuqtalari bo‘rtib chiqqan kulrang kitob

sahifalarida o‘rmalardi. Qora ko‘zoynakli soqolli erkak ichiga konvertlar solingan uzun yashikchani tizzasida olib o‘tirardi. Bu karomat qiluvchi odamning ko‘rsatkich barmog‘ida ko‘r sa’va qo‘nib o‘tirardi. Shunday yonida taxtacha osilgan bo‘lib, unga siyoh qalam bilan quyidagi so‘zlar yozilgandi:

“Grajdanlar!

Kim o‘z taqdiri yoki qarindoshlarining, erining, xotinining, bolalarining taqdirini bilmoqchi bo‘lsa, ro‘yxatdan savol topib, nomerni ayting va beozor qushcha Sizga to‘g‘risini aytadi.

Bahosi 10 (o‘n) so‘m.

Pul oldindan.

Men kar-soqovman!”

Keyin savollar ro‘yxati berilgandi:

“№ 1. Erim tirik qaytadimi?

№ 2. Nega xat kelmayapti?

№ 3. Xotinim bilan uchrashamanmi?

№ 4. O‘g‘lim tirikmikin?” va hokazo.

— Ga-zetalar! Gazetalar! — deb qichqirdi Zinka shu atrofda.

— Zina! Zinochka! Bu yoqqa kelgin, jonginam! — deb baland ovozda chaqirdi uni ko‘r folbin ayol boshini ko‘tarmasdan.

— Nima deysiz? — Zinka chopib keldi.

— Bor, jonginam, menga o‘pka-jigarli somsa bilan bir krujka shinni olib kelib bergin! — u o‘ttiz so‘m uzatdi.

Zinka pulni oldi-da, olomon ichida g‘oyib bo‘ldi. Zinkaga pulni ishonsa bo‘ladi, hali yosh bola, aldashga aqli yetmaydi, qochib ketadigan joyi yo‘q.

— Hoy bola, noning necha puldan? — deb so‘radi bir kishi.

— O‘n so‘mdan.

— Kel, to‘qqiz so‘mdan ber.

— Yo‘q, men telpak olishim kerak.

— Raskinulos more shiroko, — deb kuchli, bo‘g‘iq ovozda ashula ayta boshladi matroslarning yo‘l-yo‘l ich ko‘ylagini kiyib olgan kishi. Uning ko‘kragida “Za otvagu” medali yaraqlab turardi. U panjalari katta bahaybat qisqichbaqani eslatardi: oyoqlari o‘rnida qo‘lda yasalib, podshipniklarga o‘rnatilgan aravacha, u katta baquvvat qo‘llari bilan suvoqchining asbobiga o‘xshash yog‘och

tirgovuchga tayanardi. Yo‘g‘on, baquvvat bo‘yni zo‘riqishdan qizarib ketar, qon tomirlari bo‘rtib chiqardi. Unga pul berishsa, ashulasini kelgan joyida to‘xtatib, nari ketardi.

— Kampir o‘g‘lini behudaga kutyapti!

Rahmat, og‘ayni!

U ayolga aytishsa, ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘laydi.

Rahmat, otaxon!

To‘lqin yuguradi kema ketidan...

Rahmat, singlim!

Yuguradi, g‘oyib bo‘lar olisda!

Yo‘q, u sadaqa so‘ramasdi. U, boshiga kulfat tushgan paytda yordam berishlarini talab etardi. Dadam ham mana shunday majruh bo‘lib qaytsa-ya, qanday jang qilganliklari to‘g‘risida ashula aytsa, men orqasida yurib, odamlarning pulini olsam-a, degan o‘y keldi birdan xayolimga.

— O‘g‘lim, bu yoqqa kelgin! — deb bo‘g‘iq ovozda chaqirdi dengizchi.

Men oldiga bordim.

— Qorin och, chidab bo‘lmayapti, pulim esa yetmayapti; balki sakkiz so‘mga berarsan? — deb so‘radi u.

Men unga non solingan kosani uzatdim.

— Rahmat, o‘g‘lim.

Unga hamma nonimni bepul bergim keldi-yu, lekin oyimni, telpaksiz sovuq yeyishimni vaqtida eslab qoldim...

— O‘g‘lim, balki yana ikki bo‘lagini sakkiz so‘mdan berarsan? Qorin qurg‘ur to‘ymayapti, — deb yalinib-yolvordi dengizchi.

U nonni qo‘yniga soldi-da, yonidan pulini ola boshladi. Bizlarni bekorchilar o‘rab olishdi. Kimdir, menga azamat yigit ekansan, dedi. Boshqasi mening roziligimsiz bir bo‘lak nonni oldi-da, kosaga sakkiz so‘m tashladi; men pulni sanab bo‘lgunimcha yana ikki bo‘lagini ilib ketishdi.

— Qani, bolani o‘z holiga qo‘yinglar! — deb baqirdi ularga dengizchi, keyin qolgan non bo‘laklarini qo‘yniga yashirdi-da, tangalardan o‘ttiz ikki so‘m sanab berdi.

Uning qolgan non bo‘laklarini ham sakkiz so‘mdan olganini hadeganda fahmladim. G‘alati bo‘lib ketdim.

— Pionermisan? — deb so‘radi u sal sarosimaga tushganimni payqab.

— Ha, — deb javob berdim.

— Barakalla! — dedi u va katta, qizil kafti bilan qo‘limga urib qo‘ydi.

Shundan so‘ng biroz yengil tortdim-u, lekin baribir oyimdan gap eshitishimni bilardim.

Cho‘ntaklarim tangaga to‘lib ketgandi. Har qadam tashlaganimda tangalar jarang-jurung qilardi. Kamarim bo‘shab qolgandi, shuning uchun shimimni qo‘lim bilan ushlab yurishga to‘g‘ri keldi; to‘pponcha, xo‘roz va boshqa har xil hayvonlar shaklidagi obakidandon sotiladigan bozorga qanday qilib kelib qolganimni o‘zim ham bilmay qoldim. Ilgarilari otam bilan bu yerga tez-tez kelib turardik, har xilidan istagancha olardim! To‘g‘ri, u paytlardagi obakidandonlar ancha shirin, qip-qizil, silliq edi. Hozirgilari qandaydir qo‘ng‘ir rangda, g‘adir-budur, ta’mi ham nordon, buning ustiga o‘n baravar qimmat. Sotuvchilar meni o‘rab olishib, har biri o‘zinikini tavsiya qilardi.

— Traktorlar, bolakay! Tuyalar! Bir o‘rkachli! Ikki o‘rkachli!

— Fillar, bolakay! To‘pponchalar! Mototsikllar!

Ko‘zlarim javdirab, har biriga bir qarardim, lekin uyga mo‘ljaldagidan o‘n sakkiz so‘m kam pul olib ketayotganimni esladim-u, go‘yo hech nima xarid qilmaydigan odamday so‘lagimni yutib, nari ketdim.

— Non! Nondan olinglar, grajdanlar, — shu atrofda tanish bo‘g‘iq ovozni eshitdim. Serrayib qoldim — invalid mening nonimni sotardi. Yerga yozilgan gazeta ustida olti bo‘lak non yotardi.

— Qani, kelinglar. O‘n so‘m bering-u, olib ketavering! — derdi u. Men yaqinroq bordim. U meni ko‘rdi-yu, indamay qoldi. Lekin keyin boshim osha qayoqqadir qaradi-da, chakaklarini qattiq qisib, yana takrorladi:

— Non! Kimga non? Bir bo‘lagi o‘n so‘m.

Men nari ketdim, yig‘lagim kelardi. Meni har tomondan turtishar, itarishar, iflos kavushlari bilan oyoqlarimni bosishardi. Nazarimda, allaqanday qora daryo meni yerosti saltanatida g‘ira-shira soyalar orasida qayoqqadir olib ketayotganday bo‘lardi.

— Bir o‘rkachli tuyalar! Ikki o‘rkachli!

Men yana o‘sha obakidandonlar oldiga qanday borib qolganimni sezmay qoldim. Tilimni yalab, qayta-qayta yutinardim: “Bir so‘mdan ikkita xo‘rozdand olaman. Yeb qo‘yaman. Oyimga, o‘n bo‘lak nonning hammasini sakkiz so‘mdan sotdim, deyman. Invalidga. Aldayapmanmi? Yo‘q, hecham aldayotganim yo‘q. Har kim qo‘lidan kelganicha yashaydi. Urush. Ikkita xo‘rozcha sotib oldim. Bittasini o‘sha zahotiyoq tinchitdim-u, bozor darvozasi tomon yurdim. Obakidandon tishlarim orasida xuddi chinnidek qirsillardi. Odamlar orasidan o‘tib, ko‘chaga chiqqunimcha ikkinchi xo‘rozni ham yeb bo‘ldim. Yana yegim keldi. Organizm shirinlik talab qilardi. “To‘pponchasidan olaman. Besh so‘mga. Oyimga: “Pulimni yo‘qotib qo‘ydim”, deyman. Fil sotib olaman! Saroyga berkitib qo‘yaman, keyin maktabga olib boraman-da, kuni bilan so‘rib yuraman. Pulimni o‘g‘irlab ketishdi. Gap tamom! O‘g‘irlab ketishdi, yana bu yetmaganday kaltaklashdi...”

Bozorga qaytib kirdim. “Tuyani olaman. Bir o‘rkachlisini ham, ikki o‘rkachlisini ham. Beshtasini olaman. Berkitib qo‘yaman. Har kuni bittadan tuya yeyman. Axir bezorilar pulimning hammasini tortib olib qo‘yishlari mumkin-ku. Shartta tortib olishdi-yu, qochib ketishdi. Ularning bozorda urug‘i ko‘p, izg‘ib yurishardi. Pulimning hammasiga olaman! Tortib olishib, yelkamga bir tushirishdi. Yo‘talaman. Meniyam tuyanikiday o‘rkachim bo‘ladi!”

Oldimda odamlar halqa bo‘lib turishibdi, yelkalarini ko‘raman, xolos. Ular churq etishmasdi. Mening shirinlik yegim, tomosha ko‘rgim kelardi. Olomonni yorib o‘tdim-u, birdan to‘xtab, orqamga tisarildim. Davra o‘rtasida, charm quti ichida odam o‘tirardi, to‘g‘rirog‘i, odamdan qolgan tananing o‘zi; uning qo‘llari ham, oyoqlari ham yo‘q edi. Faqat g‘o‘lasimon tana-yu, ofitser furajkasini kiygan kattakon bosh. Egnida oq ko‘ylak, bo‘ynida qora galstuk. Shunday yonginasida invalid aravachasi turardi. Bozorda gapirishlaricha, bu aravachalarni shaxsan Ruzveltning o‘zi ixtiro qilganmish.

Daroz erkak majruhning oldiga keldi, katta qorako‘l telpagini oldi-da, engashib aravachaga qizil o‘ttiz so‘mlikni qo‘ydi. Kishi olmayman, deganday bosh chayqadi.

— U olmaydi! — dedi kimdir to‘da orasidan.

— Uni xafa qilish kerakmas, — dedi eski boston palto kiygan ayol, u pulni oldi-da, egasiga qaytarib berdi. Ayol baland bo‘yli, qaddi-basti kelishgan, xushbichim edi. U xarid qilgan narsalari solingan sumkasini aravachaga qo‘ydi.

— Xotini, — dedi atrofda turganlardan biri.

Haligi kishi miq etmay, o‘zini har tomondan o‘rab olgan odamlarga qarardi, ko‘zlarida shunday bir dard bor ediki, uni so‘z bilan ham, qo‘shiq bilan ham ifoda etib bo‘lmasdi, har qanday dahshatli ertakda ham hikoya qilib bo‘lmasdi. Ikki kuragim orasi muzlaganini his etdim. Nazarimda, go‘yo shu o‘tirgan odam mening otam-u, uni odamlar o‘rab olishganday edi. U Ruzvelt ixtiro qilgan aravachada qimir etmay o‘tirar, men esam uni xuddi rikshaday shahardan shaharga, qishloqdan qishloqqa eltaman, jahon bo‘ylab olib yuraman, u esa bo‘g‘iq ovozda qanday jang qilgani to‘g‘risida ashula aytadi.

Men olomon orasidan sekin chiqdim-da, uyga ketdim. Nonimni invalidga sakkiz so‘mdan sotganimni, ikki so‘miga xo‘rozqand olib yeganimni oyimga gapirib bermoqchi edim.

SULUV

— Meni sevmaysan, menga achinmaysan, — dedi xotinim ostona hatlab uyga kirishim bilan.

Yuvindi chelakni ushlaganimcha turib qoldim.

Men shu zahoti eshikni narigi tomonidan shartta yopib, ketib qolmoqchi edim-u, lekin xotinim allaqachon paltomning yoqasidan mahkam ushlab olgandi. Ho‘l pol latta uning qo‘lida tahlikali titrardi.

— Meni sevmaysan, menga achinmaysan, — deb yana takrorladi.

Tavba, u Yeseninni qayoqdan biladi-ya? Yo‘q. U Yeseninni bilmaydi. U butunlay boshqa so‘zlarni aytardi-yu, lekin uzundan uzun monologining ma’nosi mana shu to‘rt so‘zdan iborat edi: “Meni sevmaysan, menga achinmaysan”.

— Kir yuvadigan mashina ishlamayapti!
— Gaz tamom bo‘ldi!
— Bolaning ichi buzildi!
— Xolodilnik ishlamayapti!
— Ayna elektr samovarni buzib qo‘yibdi.
— Yotoqda radiatordan suv oqyapti!

“Voy, xudoyim, hamma yoqni mashina bosib ketibdi-ku”, dedim vahimaga tushib.

— Sen bo‘lsang ishdan keyin qayerlardadir sanqib yurasan. Aqalli yordam qilsang bo‘lmaydimi. Bolalar ertalabdan beri och. Aynani ming chaqirsam ham kirmayapti, Doniyorning bo‘lsa, ichi ketyapti. Oyog‘ingni artsang-chi, qayoqqa ketyapsan? Odam degan ham shunchalik pala-partish bo‘ladimi? Bolaga qarasang-chi, bir soatdan beri yig‘layverib ichagi uzilib ketdi-yu!

Men botinkamni yechdim-da, oyoq uchida yurib oshxonaga kirdim, ikki yashar o‘g‘limni qo‘limga olib, ho‘l ishtonini yechib tashladim, keyin qo‘limda chayqab, aftimni burishtirdim. Lekin bola sharfimni changallab olib, hamon chinqirib yig‘lardi. Ostonada xotinim ko‘rindi.

— E, xudo! Qanaqa odamsan o‘zi? Paltongni yechsang-chi, yuzini shilib yuborasan-u! Qo‘llaringni iflosligini qara!

Palto bilan sharfim gorchitsami yo boshqa biror narsa tegibmi, allaqachon iflos bo‘lgandi. Men noiloj tishimni tishimga qo‘ydim.

— Voy, seni nima qilsam bo‘ladi-a? — U yana o‘sha to‘rt so‘zdan iborat monologini ustma-ust takrorlashga, javrashga tushdi: “Meni sevmaysan, menga achinmaysan”.

Faqat mening xotinimgina mana shunday aniq, lo‘nda-lo‘nda qilib gapira olardi.

— Ha, bo‘ldi, bo‘ldi... Hozir hammasini to‘g‘rilaymiz, — deb g‘o‘ldiradim.

— “To‘g‘rilaymiz emish”. Qara, uyning ahvolini ko‘rgin, senga faqat gap sotish bo‘lsa. Oylikni yana, hoynahoy, kech berishar-a?

“Kelib-kelib, shunday xotinga uylanamanmi? O‘, yigirma yashar yuvosh, beozor qizning yetti yildan keyin shunday alvastiga aylanishini o‘shanda bilganimda edi!”

— Xo‘sh, nega serrayib turibsan? Paltongni yechsang-chi, tozalab beray! Bor, oshxonaga kir! Kasha tagiga olmasin! Bolani qoldir! Bechoraning yana qo‘lini kuydirib olasan!

“Uh! Xudoyimni menga atagani shu bo‘ldimi-a!”

Oshxonani tutun bosib ketgandi — kasha allaqachon kuyib bo‘lgandi. Men chaqqon kastrulga suv quydim, uni yuvib, qaytadan kasha pishirish kerak. Lekin kashaning tagi olganidan kastrulga yopishib qolgandi, pichoq bilan qira boshladim, bunday qarasam, sirining bir bo‘lagini ko‘chirib yuboribman, ko‘rdim-u esim chiqib ketdi.

— Hoy, nimani qiryapsan? Eshikni ochgin. Ayna keldi! — qichqirdi xotinim.

Buni radiotexnikada distansion boshqaruv deyishadi shekilli...

Eshikni ochdim — ostonada qizim turibdi. Egnidagi po‘stini jiqqa ho‘l, botinkalari iflos.

— Dada! Dada! Nega kambala shapaloqqa o‘xshaydi? A, dada? — deb so‘raydi qizim hayajonlanib.

— Jim! Hozir bilasan, — deyman unga.

Ayna indamay qoladi. Qizim ham menga o‘xshab juda ziyrak, sezgir, biror ko‘ngilsizlik bo‘lishini oldindan sezadi. Uning po‘stinini yechaman, to‘zg‘igan sochlarini silayman. Qizim tizzalarimni quchoqlaydi:

— Dada, dada! Vovka Jukov plastilin yedi!

— Jim... Sekinroq...

— Dada... siz plastilinni nonsiz yeya olasizmi? — deb shivirlab so‘raydi Aynaxon.

— Kasha nima bo‘ldi? — xotinimning ovozi keladi uzoqdan.

— Hozir.

Yana oshxonaga chopib kiraman, kastrulkani yashirib qo‘yaman, plitkaga katta krujkani qo‘yib, sut quyaman, keyin mannaya krupani qidiraman. Lekin yo‘q, qolmabdi, tamom bo‘libdi.

Oshxonadan aralash-quralash uch ovoz keladi: xotinim baqirib-chaqiradi, o‘g‘lim entikib-entikib yig‘laydi, Ayna bitta ohangni hadeb cho‘zadi: e-e-e... — u shapaloqning kambalaga unchalik o‘xshamasligini tushundi shekilli.

Quloqlarimga paxta tiqib olaman. E, xudoyim! Nega endi hayotimni bu qadar barvaqt barbod qildim-a? Uylanish kerak, albatta, lekin bolani bunchalik ko'paytirishning nima keragi bor edi — besh yilda ikkita-ya, bu ketishda kelasi besh yillikning oxiriga borib qancha bo'ladi?

Sut qaynadi, qo'llarimni kuydirib krujkani olib chiqaman.

— Kasha qani?

— Kasha yo'q.

— Yeb qo'ydingmi?

— Kuyib ketdi... Ha, bo'ldi, ko'p kuyib-pishaverma, Suluv...

Men uni yetti yil muqaddam shunday deb chaqirardim, endi bu so'zni do'ppi tor kelib qolgan paytlarda ishlataman, chunki "suluv" — qirg'izchada chiroyli degani. Saliya va Suluv degan so'zlar qandaydir bir-biriga ohangdosh, to'g'rirog'i, yetti yil muqaddam, bo'm-bo'sh ko'chalarda ertalabgacha yurgan, ko'prik ustida poyezdning ketidan soatlab qarab turgan paytlarda, u muloyimgina qiz bo'lgan paytlarda bu so'zlar hamohang edi... xullas, bu gaplar bir zamonlar...

— Xo'sh, nima Suluv? Shu bitta gapni topib olgansan! — deydi u cho'rt kesib, lekin men uning jahlidan tushganini sezib turaman. "Suluv" so'zining sehrli ta'siri bor-u, lekin baribir uzoqqa bormaydi. Saliya qoshiqdagi sutni puflab, o'g'lining burni tagida u yoqdan bu yoqqa chayqaydi. Bola palaponday og'zini ochib, qoshiqdan ko'zini uzmaydi, kutadi. Lekin bir qultum ichishi bilan uyni boshiga ko'tarib yig'laydi, ilondek to'lg'anadi, yerga tushaman, deb talpinadi. Fe'l-atvori onasiga tortgan... Saliya sutni ichib ko'radi, uning ovozi jangovar nidoday yangraydi:

— Shu sutmi-a?!

— Ha, sut...

— Axir, bu qimiz-ku!

— Axir, qimiz ham sut-da, faqat biyaning suti, — deb sovuqqina e'tiroz bildirmoqchi bo'laman.

— Sen o'zing biyasan, axir sal bo'lsa bolani zaharlarding-ku!

Ha, endi uyam haddidan oshib ketdi. Hech qachon meni bunchalik haqorat qilmagandi. U bilan orani ochiq qilishga ahd qilaman.

“O‘lguday qo‘pol-da, yana meni sevmaysan, menga achinmaysan, deb xafa bo‘ladi-ya!”

Boshqa xonaga chiqib ketaman-da, “Ogonyok” jurnalini olib, krossvordni yechishga tushaman.

Xotinim yana anchagacha javraydi, bolalar yig‘isi tinmaydi, idish-tovoqlarning qasira-qusuri eshitilib turadi, lekin asta-sekin shovqin tinadi; men mudray boshlayman. Xonaga qizim chopib kiradi.

— Dada, yuring ovqatga. Oyim qo‘llaringni yuvinglar, dedi.

Men istar-istamas o‘rnimdan turaman, yelkamni qashiyman, Saliyani ko‘rgim yo‘q.

— Dada, yursangiz-chi, ovqat sovib qoladi-yu, — deb qizim qo‘limdan tortadi.

— Oying-chi, oying sovidimi? — deb so‘rayman kinoya aralash.

— Voy, oyim sho‘rva emaslar-ku, — deydi Ayna hayron bo‘lib.

Indamay ovqatlanamiz. Sezib turibman, xona ichi yog‘ tushsa yalaguday qilib supurib-sidirib chiqilgan.

— Aynaxon, bor, choynakka suv quyib, olovga qo‘ygin, — deydi Saliya besh yashar qiziga. Lekin, aslida, bu gapni menga aytyapti. Aynaxonning bo‘yi kranga ham, plitaga ham yetmaydi. Men qoshig‘imni bo‘sh tarelkaga taq etkazib tashlayman-da, choy qo‘ygani chiqib ketaman.

Keyin televizor qo‘yaman: ekranda “Soldat haqida qissa”. Xotinim idish-tovoqlarni taqir-tuqur qilib, stolni yig‘ishtiradi.

— Oyi, chiroqni o‘chirib qo‘ying. Kino, — deydi qizim.

Saliya chiroqni o‘chiradi. “Soldat haqida qissa”ni ko‘rgandim, lekin bu dunyo tashvishlarini, hozirgi damni, kishi kayfiyatini bir pul qilishga suyagi yo‘q xotinimni unutib, o‘y-fikrlarim bilan o‘zga olamda kezish uchun bu filmni yana ko‘rgim keladi. Ha. Aslida men uni sevamanmi? Kecha sevardim shekilli, uyga kelayotganimda ham sevgandim shekilli. Hozir-chi?.. Unchalik ishonmayman... Qaysi daqiqadan boshlab uni sevmay qo‘ydim-a? Ha, bo‘ldi, esladim! Shu arzimagan sutni deb menga to‘nglik qilganidan buyon. Axir, sut deb qimizni qaynatayotganimni qayoqdan bilay?

Ha, bu orada film ko‘ryapmiz. Xotinim orqamda o‘tiribdi, miq etmaydi. Doniyorjon tizzasida uxlab qolgan. Aynaxon polda, yo‘l-yo‘l poyandoz ustida yotibdi (u filmni yotib ko‘rishni yoqtiradi), o‘qtin-o‘qtin burnini tortib qo‘yadi, u ham indamaydi. U hozir juda jiddiy, aftidan, hamma narsaga aqli yetib turibdi.

Hammamiz jim o‘tiribmiz.

Ekranda kadrlar jimir-jimir qilib qoldi — texnik nosozlik, lekin biz churq etmaymiz, filmning davomini kutamiz.

Ha, to‘g‘ri bo‘ldi.

Soldat, ovoziyam bolalarnikiday xirillagan, hali juda g‘o‘r, yosh bola yo‘lda uchratib qolgan qizi bilan xayrlashadi... Ular umrlarida birinchi bor uchrashishib, manguga ajralishadi.

Birdan orqamda piq-piq yig‘i tovushi eshitiladi, xotinim yig‘lab o‘tiribdi. Menimcha, u alamidan, xo‘rligi kelib yig‘layapti, axir, u bilan gaplashmayapman-da.

Aynaxon boshini ko‘taradi. Uning qop-qora, javdiragan ko‘zlarini ko‘rib turibman.

— Oy-i-i, yig‘lamang. Nega yig‘laysiz-a? — deydi u cho‘zib-cho‘zib. — Axir, uni hali o‘ldirishgani yo‘q-ku.

— Uni o‘ldirishadi, — deb jiddiy javob beradi Saliya.

— O‘ldirishmaydi, siz qayoqdan bilasiz?

— Bir kishi menga, uni o‘ldirishadi, dedi, — sekin javob beradi Saliya.

Qizimga tikilaman, uning boshini silayman, qorong‘ida ko‘zlarining oqi yiltiraydi, har yonog‘ida yirik ko‘z yoshi (oyisining yig‘isini ko‘tarolmaydi). Keyin u menga qaraydi. Tomog‘imga bir nima tiqilganday bo‘ladi.

Filmning so‘nggi epizodlari.

Ekranda qora ro‘molli, o‘rta yoshlardagi ayol biz tomon kelyapti, bizga tikilgan ko‘zlarida ona dardi, g‘am-g‘ussasi... Film tugadi. U bir yarim soatcha ketadi, biz vaqtning qanday o‘tganini bilmay qolibmiz.

Jim o‘tiribmiz. Uxlab yotgan o‘g‘limga qarayman. U do‘mboq qo‘lchalarini ikki tomonga tashlab uxlaydi, shu yotishida Saliyaga juda-juda o‘xshab ketadi. O‘g‘limga uxlab yotganida tikilishni

yaxshi ko‘raman. Uning uyqusi, oromi buzilmasa deyman, buning uchun joni jahonimni berishga tayyorman. Axir, otam shularni deb qurbon bo‘ldi-da, unga nevaralarini ko‘rish, boshlarini silash nasib etmadi. Televizorni o‘chiraman. Oiladagi mayda-chuyda gaplar, mojarolar meshchanlikka xos juda arzimas, bema’ni, ortiqcha narsadek tuyuldi menga. E, xudoyim! Qimmatli vaqtimizni nimalarga sarf etamiz-a? O‘zimizni, asablarimizni nega ayamaymiz-a? Bu hammasi Saliyaning ishi-da! Xo‘sh, nega u hozir gapirmayapti? Unga o‘girilib qarayman. Saliya yerga qaraydi. U hozir nimalarni o‘ylayapti? Saliya boshini ko‘tardi, ko‘zlarimiz uchrashdi.

— Meni sevasan-a?

— Ha.

— Menga achinasan-a?

— Ha.

Uning dag‘al, iliq kaftlarini qo‘llarim orasiga olaman.

— Suluvim...

MURZA G‘APAROV



MURG‘OBLIKLAR

Qissa

Kechqurun yana yotoqxonaga qaytib keldim. Bir oydan buyon ta’mirlanayotgan uch qavatli yotoqxonaning birorta ham derazasidan yilt etgan shu’la ko‘rinmaydi. Lekin dahliz yorug‘ edi. U yerda dam olishga ketgan eshik og‘asining divanida komendant yotibdi. Ko‘zida ko‘zoynak, og‘zida papiros, qo‘lida gazeta. Bu kishi xotini va bo‘yiga yetib qolgan qizi bilan binoning bir kunjida istiqomat qilishadi. Hozir xotini uxlab yotgan bo‘lsa kerak, qizi esa so‘zsiz shaharga chiqib ketgan chog‘i, yo‘qsa komendant tun yarmigacha bu yerda yotmas edi. U qizini kutib yotibdi. Qizi esa shunaqa — hamisha kech keladi. Shaddodroq, arzanda qiz.

Men eshikning oynagini chertdim. Komendant qayrilib qaramasa ham, men ekanligimni bilishi shubhasiz, chunki, qizi kelsa menga o‘xshab oynakni chertkilab o‘tirmay, eshikni tepkilay boshlaydi.

Komendant ohista qarshimga kelib:

— Yo‘q, — dedi boshini chayqab, — ochmayman.

— Yana bir kungagina, — dedim men, shahodat barmog‘imni ko‘rsatib.

— Sening “bir kuningga” bir oy bo‘lib qoldi.

— Men bugun joy topib keldim, ertaga ko‘chib ketaman.

— Topganing rost bo‘lsa, bugunoq ko‘chib ket. O‘sha jomadon degan matohingni hozir keltirib beraman.

— Bugun kech bo‘lib qoldi. Topgan hujram uzoqda, Bishkekda edi-da.

— Yetar, og‘ayni, izzating bitdi, — deb komendant yuz o‘girib ketdi.

— Amaki... — dedim, iltijo bilan, lekin, komendant qiyo boqmay divanga borib o‘tirib, o‘chib qolgan papirosini o‘rniga yangisini o‘t oldirib cheka boshladi.

Ensam qotib, noiloj, eski, sinashta usulni qo‘llashga to‘g‘ri keldi — derazadan baqamti qo‘yilgan temir shoti orqali xonamga

kirib oldim. Mening bu "hiylam" komendantga ham ko'pdan ma'lum edi. To'rtta karavot, to'rtta javonchadan iborat bu bo'lmada hozir faqat bir o'zimman. Karavotlarning uchtasi yaydoq, to'rtinchisida faqat bittagina to'shak bor. Yaydoq karavotlarning egalari bir oy avval cho'ntaklariga diplomlarini solishib, ko'kraklariga bittadan belgilarini taqishib, bu karavotlar bilan birato'la xayrlashib ketishgan. Anavi karavotda o'n kun avval to'shakdan tashqari ko'rpa, oppoq choyshab-u par bolishlar ham bor edi. O'n kun ilgari hozirgidek kechasi kelsam, birgina to'shak qolibdi. Shunisiga ham Xudoga shukur dedim.

Men chiroq yondirmadim, shundog'am joyimni topaman, yechinsam bas. Aslida ham bu yerga faqat tunash uchungina kelardim. Endigina bo'yinbog'imni yechganimda yo'lakdan oyoq sharpasi eshitilib qoldi.

Eshikdan mo'ralasam, qorong'i yo'lak bo'ylab papirosning cho'g'i hayinchalakdek uchib kelardi. Darhol yo'lakdan o'tib, uchinchi qavat zinapoyasiga bekindim. Komendant baribir sharpamni sezib qolibdi.

— Qochma, Oxun, — dedi u. — Baribir bugun seni bu yerga qo'ymayman.

Men nes bo'lib, o'rnimda turib qoldim. Komendant mening xonamga kirib, matrasni ham yig'ishtirib oldi-da, yo'lga tushdi. Quruq karavotda yotishning o'zi bo'lmaydi. Noiloj ortidan ergashdim.

— Amaki, buguncha yo'q demang.

Komendant go'yo eshitmagandek, birinchi qavatga tushib, xuddi men olib qochib ketadiganday to'shakni divanga to'shab, ustiga yotib oldi.

Atayin meni "unutdi-qo'ydi". Men shalog'i chiqqan kresloga borib, boshimni xam qilganimcha o'tirib qoldim.

— Men ish topdim, — dedim nihoyat zora diydasini yumshatsam degan ilinjda. Bu sinashta usul bir necha marta kor kelgan edi. — Radioga muharrirlikka taklif etishdi.

— Iya, gazeta bilan xayr-ma'zur qildingmi? — dedi komendant istehzo bilan. — Esiz, muxbirligingga ikki kungina bo'luvdi-ya!

Jin ursin "muxbir bo'lganim"ni unutib qo'yibman-da.

— Unisiyam to‘g‘ri edi, — dedim. — Lekin radioga borsam, bizga aynan talantli yoshlar kerak, bizga kelaver, deyishganidan, ularga va’da berib qo‘ydim.

— Sayra-ya, sayra, — dedi komendant. — Ro‘parangda nima desang laqqa tushaveradigan ovsar turibdi-da.

Men mulzam bo‘lib, indamay qoldim. Ayni shu damda eshik taqqillay boshladi. Eshikning oynagidan qarasam, komendantning qizi — Oysha. Menga ko‘zi tushgan qiz (ramziy) o‘pich hadya qildi. Men unga peshvoz chiqmoqchi bo‘lganimda, otasi g‘imirlab qoldi. Komendant — oltmishni qoralab qolgan, burama mo‘ylov, bo‘tqa bet, semiz kimsa, shoh tashlab borib eshikni ochdi.

— Qizim, bemahalda yurma, deb necha marta aytganman senga, — deya odatdagi diydiyosini takrorladi. — Hozir bezorilar ko‘p, birortasining changaliga tushib qolsang, nima bo‘ladi?

— Mendan xavotirlanmang, ota, meni olib kelib qo‘yishadi, — dedi qiz, ichkari kirayotib.

Menga ko‘zi tushgach:

— Yaxshimisan, Oxun, ishlaring qanday? — deb so‘radi.

Men ko‘rib turibsan-ku, deganday yelkamni qisib qo‘ydim.

— U bugun gazetadan bo‘shab, radioga ishga kirib kelibdi, — dedi komendant.

— Odamlar ish topolmay yursa, bunga kun ora yangisi.

Eski dahmazamizni tushungan qiz, hazin jilmayib qo‘ydi. Cholning qizi menga yoqardi. Suluv, aql-hushdan ham xudo bergan. Divandagi to‘shakni unga ishora qilib qo‘ydim.

— Oralaringizdan yana qora mushuk o‘tdimi? — deb so‘radi qiz otasidan.

— Ketsin! — dedi otasi. — Menga bo‘lmasa ham, besh yil shu yotoqxonadan tekin joy berib, o‘qitgan hukumatga rahmat desin-da, ketaversin. Izzati bitdi.

— Sizdan nima ketyapti, ota? Shu uvada to‘shakning nimasini qizg‘anasiz? Imkoni bo‘lganda ketadi-da. Oysha to‘shakni yumaloqlab, kelib menga quchoqlatib qo‘ydi.

Ko‘zining oq-u qorasi bo‘lgan qizini komendant jonidan ham yaxshi ko‘rardi.

— Mayli, yana bir kechaga, — dedi menga aynan "kechaga" so'zini takrorlab. — Ammo, aytib qo'yayin, bola, ertaga yana keladigan bo'lsang, Oyshangga ham ishonma, shundoq yelkangdan ushlayman — o'zingni hovlida ko'rasan. Yur!

U qizini oldiga solib, o'zlarining yotog'i tomon ketdi. Yo'l-yo'lakay Oysha menga do'stona ko'z qisib qo'ydi.

Men to'shagimni karavotimga to'shab, uyquga yotdim. Kun bo'yi ko'p yurganimdan, tezda uyquga ketibman. Bir mahal yuzimga birovning muzdek lablari tekkanini sezdim. Bu, shubhasiz, Oysha edi. Men ko'zimni ochmasdan, uni quchoqlab, mahkam bag'rimga bosdim. Egniga xalat kiyib olibdi. Biz bir lahza yalab-yulqashib oldik. Qizdan o'ta xushbo'y atir va shampan vinosining hidi burqirardi.

— Xo'sh, malikam, ayting-chi, bugun qayerlarda, kimlar bilan bo'lib, nima ishlar qilib keldingiz? — deb so'radim undan.

Oysha mendan hech narsani yashirmasdi.

— Tushgacha kir yuvdim, tushdan keyin kinoga bordim, — dedi u.

— Kim bilan bording?

— Kandidat bilan.

— Keyin-chi?

— Keyin restoranga, restorandan so'ng uning uyiga bordik.

— Oh-ho-o! Ilgari ham borganmiding uyiga?

— Yo'q, borsam aytmasmidim. Hozir ham bormas edim, tanishganimizga bir oy bo'lsa ham sen mening uyimni ko'rganing yo'q deb, yelimdek yopishib oldi. Uyida esa ko'rishga arzigulik narsasi ham yo'q ekan. Qo'ydi-chiqdidan tekkani: bir javon, bir stol, televizor, ikki kishilik eski karavot, xolos.

— Keyin-chi? Keyin nima dedi?

— Nima deyishini uyiga bormay turib ham bilar edim. Nima der edi, karavotga yur deydi-da. E, hozir erkak zoti bilan samimiy, insoniy izzat-hurmat bilan do'stlasha olmaysan. Birinchi kuni — "siz", "biz". Ikkinchi kuni o'pishsa, uchinchi kuni karavotga yotishingni talab qilishadi. Hammasi buzilgan! Hammasi! Faqat sen buzilganingcha yo'q. Sening or-nomusing bor. Men senga ishonaman. Men seni besh yildan beri bilaman, sen biror

marta quyushqondan chiqib, qo'lingni belimdan pastga tushirganing yo'q...

...Ha, bunisi haq gap edi. Oysha, deyarli mening ko'z o'ngimda voyaga yetdi. Bundan besh yil muqaddam men o'zim, o'n sakkizdagi bo'z bola edim, komendant aytgan o'sha yomon jomadonimni ko'tarib shu dargohning ostonasiga kelganimda, Oysha o'n uchdagi yoshgina qiz edi. Ayvon sahnida abituriyent qizlar bilan to'p o'ynayotgan shu qizchadan birinchi yotoqxonani so'raganimda, ko'rsatib beribgina qolmay, komendantning qayerda turishigacha aytib bergan. Keyin bu qiz komentdantning qizi va mening qo'shnilarimdan biri ekanligini bildim.

Biz xuddi aka-singillardek apoq-chapoq bo'lib ketdik. O'tgan yilgacha mening nazdimda u hamon mishiqi qizchaydi. O'tgan yili ilk bor, to'satdan uni go'zal, ketvorgan bo'lib yetilib qolganini payqadim. O'sha kuni bizning filfakning yangi yil kechasi bo'lgandi. Oysha kunduzi mening oldimga kelib: "Oxun, kechalaringizga bitta taklifnoma topib ber", — deb qoldi. "E, ha-a, yigit topib olibsiz-da-a, oyimcha", — deb hazillashdim men. "E-e, jinni, mening o'zimga", — dedi Oysha. "Sen chiptasiz ham kiraverasan. Seni butun universitet biladi", dedim. "Buning to'g'riku-ya, lekin, men birovga yolvorib emas, maxsus taklifnoma bilan kirishni xohlayman", dedi jahli chiqqan Oysha. "Topib bermasang qo'y, o'zim topib olaman", — deb burilib ketayotganda shosha-pisha o'zimning chiptamni qo'liga tutqazdim. U "Rahmat" deb, mamnun jilmayib, yugurib ketdi. Oysha to shu kungacha bizning har qanday marosimlarimizga hech takallufsiz aralashib yurardi. Bugun esa... Uning bugungi "dimog'-firog'i" menga jumboq, mo'jizadek tuyuldi. Haqiqatan ham "mo'jiza" tunda yuz berdi: bal rosa avjiga chiqqan payti. Men ham kursdosh qiz bilan raqs tushardim. To'satdan malikamga ko'zim tushib qoldi. Bir chetda, tanho o'zi. E, voh, o'shanda bir ko'rsangiz edi uni! Sochini kattalardek qiyomiga keltiribdi. Bari naq to'pig'ini o'pib, navnihol, nozik qomatini ko'z-ko'z qilgan bejirim ko'ylak egnida. Oyog'ida chiroyli tufli. Xushbichim quloqlarida nozik isirg'a, oppoq bo'ynida marjon, barmoqlarida qimmatbaho uzuklar yalt-yulti... Avvallari bunaqangi kechalarga kelsa, ko'pkaridagi chavondozdek galaga urib ketavera-

digan shaddod qizcha, bugun go‘yo, o‘z husn-u malohatidan o‘zi gunohkordek, iymanib qovushmay turibdi. Ammo, ayni damda, xuddi o‘zining birinchi baliga kelgan Natasha Rostovaga o‘xshab, ko‘zlari porlab, hayajon bilan raqsga talpinib turganday... Men shu kungacha uni bunday qiyofada ko‘rmagan edim. Hozir qarshimda birdaniga bo‘yiga yetib qolgan ilohiy sohibjamol turardi. Ushbu lahzalarda qalbimning qayeridadir nozik bir rishta “chirt” etib uzilganday bo‘ldi...

Biz raqsga tushayotgan kuy tezroq tugasa ekan deb jonim halak. Raqsimiz tugaguncha uning nigohini bir marta to‘qnashtirib, ko‘zimni qisib qo‘ydim. Qizning chehrasida sevinch alomati ko‘rinib, ibo bilan jilmayib, boshini sarak-sarak qilib qo‘ydi. Kuy tugashi bilan men qizning oldiga borib, uni yangi boshlangan raqsga yetakladim. Bu mening Oysha bilan birinchi raqsim edi.

Raqs tugagach, go‘yo birov mendan tortib olib qo‘yadigandek, uni yuqori qavatga yetaklab chiqib ketdim. Shu yerda, qorong‘i yo‘lakda, sirtda yog‘ayotgan qorning epkini kelib turgan ochiq deraza oldida birinchi bor uni o‘pdim...

— Oh, qanday maza? — dedi qiz.

— Nima maza? — deb so‘radim, merovlanib.

— Sening bo‘sang, — dedi qizi tushmagur.

Keyinroq bilsam, bu parivash o‘n to‘rt yoshdan beri tengqur yigitchalar bilan “lab urishtirib” kelar ekan... O‘n sakkizga hatlab, o‘ninchi sinfni bitirib, universitetga o‘tmay qoldi. Mana shunaqa bizning bu Suluv...

— Sen nima deding, kandidatning bu taklifiga? — deb so‘radim men.

— Rad etdim, albatta. Men kursida o‘tirib ham dam olaveraman, karavotga ZAGSdan keyin borib yotaman, dedim.

— U-chi?

— Qo‘limga pasportini berib, ishonmasang, mana, ertagayoq borib, ro‘yxatdan o‘tib kelamiz. Karavotga esa bugun yotaveraylik, dedi. Yo‘q, karavot — ZAGSdan so‘ng... Avval ZAGS, keyin — karavot... Hafsalasi pir bo‘lgach, taksi chaqirib, jo‘natib yubordi.

— Barakalla, hamisha shunday bo‘lgin, — dedim men.

— Bo‘lmasam-chi, unga aldanadigan ahmoq bormi?!

— Yana taklif qilsa boraverasanmi?

— Qaydam... Uning va'dalariga hech ishongim kelmaydi. Bilsang, Oxun, shunchalar baxtsizmanki...

— Ovsar, — dedim men, uning manglayidan o'pib. — Baxt nimaligini qayoqdanam bilarding hozir.

— Oxun, menga uylan-chi. Men senga binoyidek xotin bo'laman.

— Yo'q. Aytgandim-ku, qirq yoshimda uylanaman deb.

Yoshlik ekan-da, haqiqatan ham shunaqa e'tiqodim bor edi.

— Unda men seni qirqqa chiqquningcha kutaman, maylimi?

Men qah-qah otib yuborishdan o'zimni tiyib qololmadim:

— Kuta olmaysan, — dedim.

— Yo'qsa, men ungacha bir erga tegib chiqsam, nima deysan?

— Bunisiyam muammo. Men qirqqa chiqquncha, sen besh bolaning onasi bo'lib qolasan. Besh boladan voz kechish mumkin emas.

— Ha, mayli meni olmasang, olma. Baribir seni sevaman. Mana ko'rasan, kimga tegmayin, seni o'ynash qilib olaman.

— Tentak.

— Hoziroq o'ynash qilib olar edim-u, lekin, birinchi erga bokiraliging bilan borishing kerak-da.

— To'g'ri. Birinchi erga iffating bilan borishing kerak.

Oysha meni o'pib qo'ydi.

— Mening oqilim, — dedi u. — Mening nasihatgo'yim. Bilsang, seni otam bilan onam ham yaxshi ko'rishadi.

— Be-e, qo'ysang-chi...

— Yolg'on aytsam til tortmay o'lay. Tunov kuni dasturxon ustida sening "hasrating"ni qilishdi.

— Unda nega otangning meni ko'rgani ko'zi yo'q.

— Otam ikkalamizdan shubha qilib qolibdi. Rost-da, kun ora hojat bahona gumdon bo'lib ketsam... Falokat yuz bermasa deb qo'rqadi. Quruq karavotni "qizg'angani" shundan.

Shu chog' yo'lakning bosh tomonidan otasining tahdidli ovozi kelib qoldi:

— Oysha! Hoy, Oysha! Ho'-o' yer yutgur...

Ikkalamiz ham qo‘rqib ketdik. Oysha meni “cho‘lp-cho‘lp” o‘pib oldi-da, xonadan “uchib” chiqib ketdi. Hoynahoy mening bo‘lmamning ro‘parasidagi hojatxonaga kirsa kerak. Men yolg‘ondakam uyquga ketdim. Komendant xonaga kirib lampochkani yondirdi.

— Ha-ya, uxlayapsanmi? — dedi kesatib. — Oysha qani?

Men ko‘zimni ochmadim. Ayni damda hojatxona tomondan suvning qattiq sharillagani eshitildi. Komendant chiroqni o‘chirmasdan chiqib ketdi.

Yo‘lakdan uning: — Shu yerda ekanligingni bilardim! — degan sasi eshitildi. — Nega ayollarniki qolib erkaklarning hojatxonasiga kirding?

— Ayollarning hojatxonasiga suv kelmay qolibdi, — dedi Oysha.

— Qasam ichma! Men hozir o‘sha yerdan keldim.

— Demak, keyin ishlab qolgan-da.

— He-e, yashshamagur seni...

— Voy-voy-voy, — degan Oyshaning chinqirig‘i eshitildi. Chamasi, otasi uning qulog‘idan cho‘zdi.

Ota-bolaning qadam tovushlari eshitilmay qolgach, ko‘nglim joyiga tushib, uxlashga harakat qildim. Lekin ko‘p o‘tmay komendant yana xonamga kirib keldi. Chiroq hamon yonib turardi. Men ko‘zimni yumib, hurrak torta boshladim.

— Yana hurrak otganiga o‘laymi, buni! — dedi komendant. — Hoy bola, o‘rningdan turgin-u, ko‘zimdan daf bo‘l! Yo‘qsa, hozir seni...

Men ko‘zimni ochib, hayron bo‘lgandek tikildim unga:

— E-e, sizmi bu... Tinchlikmi?

— Ho-o, shunaqami, — dedi darg‘azab komendant. — He, otangni arvohiga seni... — U urinib-surinib, karavot tagidan mening jomadonimni tortib oldi-da, ochiq turgan derazadan tashqariga uloqtirdi. — Endi tushundingmi nima bo‘lganini? Qani, jo‘na?

Komendant mening tagimdagi to‘shakni sug‘urib olib, xonadan chiqib ketdi. Men ich kiyimda muzdek karavot ustida qolaverdim. Biroq, sim karavot ustida ko‘p o‘tirish mumkin emasdi. O‘rnimdan turib, kiyina boshladim. Bu yerdan ketmasam bo‘lmay qoldi.

Lekin, qayoqqa?! Besh yilning badalida bu shaharda birorta xonadondan tanish-bilish orttirgan emasdim. Baribir ketish kerak degan qarorga keldim.

Chiroqni o'chirib, uzun yo'lakka chiqdim. Quturgan komendantning turqini ko'rgim kelmay, boyagi shoti bilan jomadonim oldiga tushib bordim.

Bechora jomadonim. Aza tutsang arziydigan ahvolga kelib qolibdi. Besh yillik sodiq hamrohim. Besh yilning ichida besh marta olis Novqatdagi o'rik va shaftolilarga burkangan shinam qishloqqa borib kelgan. Qishloq xo'jalik yumushlariga borganimda, boshimga bolish bo'lgan. Yozsang bir hikoyaga "masalliq" bo'lguday tarjimayi holi bor.

Men jomadonimni olib, uyqudagi shaharning kimsasiz ko'chasi bo'ylab yurib ketdim. Biz jomadonim ikkimiz universitetni shunday tamomlab, shu tarzda xayrlashdik. Bizni besh yil tekin o'qitib, besh yil bepul yotoqxona bilan ta'minlagan hukumatga rahmat. Komendantga ham...

* * *

Men shu ketgancha to'g'ri shaharning oliymaqom mehmonxonasiga kirib bordim. Mehmonxonaning yo'lagida "Cho'ponlarning slyoti ishtirokchilariga alangali salom!" degan lavha osib qo'yilibdi. Odatda, bunaqa paytlarda bo'sh joy topilishi mushkulroq bo'lguvchi edi. Noumid shayton, zora, omad kulib boqsa.

Ko'zoynak taqqan, istarasi issiq ma'mur qirg'iz ayol bilan salom-alik qilgach, joy bormi, deb so'radim. Ayol boshi bilan tasdiq ishorasini qildi. Men shosha-pisha pasportimni uzatgach, shaxsiy "ishkalimni" bayon qilishga kirishdim: (Pasportimda hamon shahar fuqarosi maqomiga ega edim. Shaharda yashovchilarga esa, mehmonxonalardan joy berilmasdi.)

— Opajon, men o'zim shaharda yashayman, — deb boshladim, gunohkorona ohangda. — Uy-joyim bor. Lekin, kutilmaganda qishloqdan ota-onamlar kelishib qoldi. Sig'ishmasdan, noiloj bu yerga keldim. Bir kechaga yo'q demaysiz.

— Ikkitagina odam kelib, uyingga sig'may qoldingmi? — dedi ayol pasportimni varaqlarkan.

— Bilsangiz, uyim bir xonadan iborat. O‘zimiz esa to‘rt jonmiz. Xotinim, ikkita bolam bor.

— Pasportingda bola-chaqang yozilmabdi-ku.

Odatda, pasportning tegishli joyida oila a’zolaringizni umumiy ro‘yxati qayd etilgan bo‘ladi. Bu yog‘iga men “qovun tushirgan” edim.

— Biz hali oilaviy ro‘yxatdan o‘tganimizcha yo‘q edik, — dedim.

— Ikki bolali bo‘lguncha-ya? Unda bolalaring kimning nomida?

— Xotinimning nomida.

Ayol ishonqiramay bir qarab olib:

— Mayli, faqat bir kechaga ruxsat, — dedi.

Yelkamdan tog‘ qulaganday bo‘ldi. Qo‘limga ruxsat qog‘ozini berguncha ayolni rahmat-u tashakkurga belab tashladim.

Xona ikki kishilik ekan. Karavotlarning birida egnida kiyimi bilan bir qishloqi yigit yotibdi. Yoshi o‘ttizlar chamasida, o‘rta bo‘yli, taram-taram beti tovoqday. Qo‘lida “Chalqan” jurnali. Kulgining zo‘ridan bu dunyoni unutgan edi. Salom bersam ham sezmadi. Men bo‘sh karavotga borib yechina boshladim. Birpasdan so‘ng yigit jurnalni tushirib yubordimi yo o‘zi yerga tashladimi, kulganicha o‘rnidan turdi.

— O‘ta qiziq ekanmi, — deb so‘radim.

— Asti so‘rama, — dedi yigit. — Tavba, ichaklarim uzilib ketdi. Vaha-ha-ha... Bir odam xotinimni o‘g‘irlab ketishdi, topishga yordam beringlar, deb yozibdi. Jinni bo‘lmasa, bitta xotinni eplay olmay, o‘g‘irlatib yuboradimi? Mening bobomning uchta chiroyli xotini bo‘lgan, uchalasiga ham gard qo‘ndirmagan, azamat. Bu-chi, he-e, landavur...

— Issiq suv bormi? — deb so‘radim yigitdan.

— Nima? Ha-a, suvmi... Bilmadim, men sovuq suvga o‘rganganman.

Men nochor jilmayib qo‘ydim.

— Qayerdan kelyapsan? — deb so‘radi u.

— Moskvadan, — deb qo‘ydim.

— Moskvadan? Iya, o‘sha yoqda yashaysanmi?

— Hovva.

— Unda nega men seni u yoqlarda ko‘rmadim? Men bu yil Moskvada bo‘ldim.

Men sochiqni olib dushga jo‘navordim. Bir lahza lol bo‘lib turgach, kulib yubordim.

— Moskvaga nima yumush bilan borgan eding? — so‘radim undan.

— Yig‘ilishga, — yigit kursidagi pidjagini olib, unga qadalgan medalni ko‘rsatdi. — O‘zaro tajriba almashdik.

— O‘h-ho‘, do‘stim, sen hazilakam odam emas ekansan-ku, — dedim unga tan berib.

— Men haqimda gazetalarda yozishgan. O‘qigandirsan: ismim Maman, familiyam Sulaymonov.

— O‘qimabman. Lekin, senga qoyilman, Maman.

— Men bilan hamma yerda hisoblashishadi.

— Hisoblashmay ko‘rishsin-chi, hokimiyatning vakili bo‘lsang...

Dushning bo‘sag‘asiga yetganimda, xayolimdan bir narsa “yalt” etib o‘tdi:

— E-e, o‘lma, Maman, balki menga sening yordaming tegib qolar...

— Qanday, ayt-chi, qanday yordam kerak senga?

— Moskvada yashayman, deb, senga yolg‘on gapirdim.

— O‘zimam shundoq deb o‘ylovdim. Rost bo‘lganida seni u yoqlarda ko‘rardim-da.

— Xuddi shunday. Men universitetni bitirdim. Pomirda Murg‘ob degan bir qirg‘iz tumani bor ekan, o‘sha yoqqa o‘qituvchi bo‘lib borasan deyishuvdi, ko‘nmadim. Bu yerda esa ishning iloji bo‘lmayapti. Sen men uchun bir harakat qilib ko‘rmaysanmi?

— Yo‘q. Mening qo‘lim bu yerlarga yetmaydi. Men — Tojikistonning fuqarosiman. Bu yerga yig‘ilishga vakil bo‘lib kelganman.

— Shunday degin.

Men yana dushga yuzlanganimda:

— Hoy, to‘xta-chi, nega Pomirga bormading, — deb so‘rab qoldi Maman.

— Qo‘yatur-chi, buning tarixi uzun, — dedim. Rost-da, dabdurustdan obi-diyda qilish ham yaxshi emas.

— Bekor qilibsan, — dedi u.

— Nega? — dedim men hayron bo‘lib.

— Bizning yerlarimiz ajoyib, senga so‘zsiz yoqardi.

— Qiziq, sen o‘zing Pomirlikmisan?

— Ha-da, sen aytgan o‘sha qirg‘iz rayonidanman. Xo‘p desang, seni birga olib ketay.

Men jilmayib:

— Ko‘ramiz. Avval dushga tushib olayin-chi, sizlarda dush ham bo‘lmasa kerak, to‘g‘rimi? — dedim.

Men dushga kirib, yechinib ulgurmasimdan, Maman ostonaga kelib turib oldi. Uning oldida yechinishga uyaldim.

— Bacha, sen bekor qipsan, — dedi Maman. “Bacha” degan so‘zning ma’nosini keyinroq bilsam, pomirlik qirg‘izlarning shevasida “do‘st”, “og‘ayni” degani ekan. — Bizning tuman maktablarida o‘qituvchilar yetishmaydi. Shuning uchun ham shahar bedarvoza — podachisi ham muallimlikka da’vo qilaverishadi. Senga o‘xshagan oliy ma’lumotlilar esa, borishmaydi. Borishsa ham, bir yilgina ishlab, xayr-ma’zurni nasiya qilishadi. Yerimiz binoyidek, elimiz yaxshi. Birgina qusurimiz — shahardan yiroqmiz. O‘zing ayt-chi, o‘qituvchi bo‘ldim deganlarning bari shaharda qolaversa, qishloqdagi bolalarni kim o‘qitadi? — Maman mendan javob kutganday jimib qoldi. Men indamadim. — Men-ku, qo‘yimni boqib yuraveraman, bolalarga uvol bo‘ldi. Bolalar qoloq...

Maman so‘zlashdan to‘xtadi. Men ham nimadir deyishim kerak edi.

Men beixtiyor: — Pomirda odamlar tutakdan o‘lib turadi, deyishadi, shu rostmi? Havosi siyrak-da, — deb yuboribman.

— O-o-la, rosa laqma ekansan-ku, — dedi Maman. — Tutakdan odam o‘laversa, Pomir allaqachon huvullab qolmasmidi? Oldi-qochdilarga ishonaverma. Undan ko‘ra, o‘zing borib, yashab ko‘r. Agar tutak yoqangdan oladigan bo‘lsa, menga ayt, hokimning qora “Volga”sida Qirg‘izistoningga kuzatib qo‘yaman.

Men jilmayib qo‘ydim. Buni ko‘rib Maman yanada jonlandi.

— Rostdan ham, bacha, bir borib ko‘rmaysanmi? — dedi u. — Yoqsa ishlab qolasan, yoqmasa, zorimiz bor, zo‘rimiz yo‘q. U yerda ham hokimiyat bor, bir yil ishlagach, ketaverasan. Qalay, ma’qulmi?

— O‘ylanib ko‘rayin, — dedim men. Rostdan ham o‘ylab ko‘radigan taklif edi.

— Mayli, — dedi Maman. — Men seni zo‘rlamayman. Ertaga ketaman. Manzilimni qoldiraman. Agar, borging kelsa, shu yerga to‘g‘ri boraverasan. Men u yerdagilarning hammasiga tayinlab qo‘yaman.

— Juda yaxshi, men yuvinib chiqqunimcha manzilni yozib tur.

Maman eshikni yopib, joyiga ketdi...

Yaxshi bo‘lgan ekan. Shaharda yana bir haftacha turib, Pomirga ravona bo‘ldim.

* * *

Men qishloqqa qanday kirib kelganimizni bilmay qoldim. Yo‘lda uxlab qolibman. Haydovchi uyg‘otdi. O‘n sakkiz yoshlardagi bola. Uning bilan tuman markazi — Murg‘obdayoq tanishib oldim. Ismi Sharip ekan.

Men kabinadan chiqib, qishloqni ko‘zdan kechirdim. Bu qishloqni tasavvur qilishingiz uchun, to‘rt fasl cho‘qqisidan qor arimaydigan, yelkalari yaydoq, xo‘mraygan, ayqash-uyqash tog‘larni ko‘z oldingizga keltirishingiz kerak. Tog‘larning orasida son-sanoqsiz daralar, jilg‘alar mavjud. Ilgari bir Olaylik oqin pomirlik qirg‘izlarning turmush manzarasini: “Har jilg‘ada uyi bor, har bir uyda biyi bor”, deb she’rga solgan ekan. O‘sha oqin aytganday, bu qishloqlarning barchasi yil o‘n ikki oy mazkur daralar va jilg‘alarda umrguzaronlik qilishar ekan. Men kelgan qishloq ham bir necha jilg‘alarning kindigi — torgina darada edi. Darada hatto bittagina to‘rg‘ay qo‘nadigan birorta nihol yo‘q. Darani ikkiga bo‘lib o‘tadigan katta daryoning suvi sutdek oppoq. Sohilning bir tomoni cho‘gina yam-yashil oroldan iborat. Orolda so‘ppaygan bittagina uy. Qishloqdagilar hazillashib “Tayvan” deb atashadigan ushbu oroldagi yolg‘iz uyda o‘n to‘qqiz yashar qizi bilan To‘liboy degan mergan yashar ekan. Sohilning ikkinchi yuzi baland, tuprog‘i bil-

qillagan bo‘z daladan iborat. Qishloq mana shu yerga joylashgan bo‘lib, o‘ttiz chog‘li xonadonga ega. Uylarning yigirma beshtachasi yakkash bo‘z rangda, qolgan besh-oltitasi katta-katta, oqlangan imoratlar. Oqlanganlari — kolxozning idorasi, klubi, maktabi, magazini, mehmonxonasi, bittasi esa qishloq raisining uyi. Uylar bari gavjum, lekin tartibsiz joylashgan. Eng chekkadagi uydan besh yuz odimcha narida ko‘rimsizgina qabriston. U yerdagi qabrlarning soni, qishloqdagi uylarnikidan uch-to‘rt hissa ko‘proq edi. Qabristonda pishiq g‘ishtdan urilgan, tepasiga qo‘tosning dumidan tug‘ qadalgan bittagina sag‘ana bor. Qo‘tosning dumi tinimsiz esadigan shamolda hilpirab turadi. Bu sag‘anani qishloq raisi men kelmasimdan ikki yil burun otasining qabri ustiga ko‘tartirgan ekan.

— Pomir deganlari shu ekan-da, — dedim men qishloqni tomosha qila turib. Ichimda bu yerga kelganimga afsuslandim.

— Siz boshqacha tasavvurda edingizmi? — deb so‘radi Sharip, jomadonimni mening yonimga qo‘yar ekan. Past ohangdagi kesatiq emas, shunchaki qiziqish bor edi.

— Maktablaring qaysi? — deb so‘radim uning savoliga ataylab.

— Ho‘, anavisi, — dedi Sharip, oqlangan uylarning birini ko‘rsatib. Keyin men bir qarorga kelmasimdan, mashinasiga o‘tirib, chang to‘zg‘itganicha, jo‘nab ketdi.

Qayoqqa borishimni bilmay, anchagacha turib qoldim. Atrofda biror kimsaning qorasi ko‘rinmaydi. Oqlangan uylar o‘rtasidagi yalanglikda egar-jabduqli yolg‘iz qo‘tos mudramoqda. Har qaysi uyning devoriga navbat bilan choptirib, qora Bo‘ynoq dikanglab yuribdi. Qishloq sukunat og‘ushida. Bir mahal maktab binosining ichidan bolg‘aning “to‘q-to‘q” degan ovozi eshitilib qoldi. Men jomadonimni joyida qoldirib, o‘sha tomonga yurdim. Maktab ta’miri hali tugallanmagan ekan. Qorong‘i yo‘lakda partalar, sinf doskalari, mashhur kishilarning portretlari sochilib yotibdi. Eshigi ochiq xonalardan ohak bilan bo‘yoq hidi anqiydi. Lekin, biror kimsa ko‘rinmaydi. Xayriyat, boyagi “”to‘q-to‘q” yana eshitilib qolib, mushkulimni oson qildi.

Xonalarning birida bir kishi parta tuzatish bilan ovora ekan. Yoshi qirqlarda, novcha, egnida qora chiybahmaldan jomakor, oyog‘ida qayish etik, boshida tumoq.

— Assalomu alaykum, — deb, o‘zimning kelganimdan darak berdim.

U kishi meni ko‘rib, bolg‘asini tashlab:

— Vaalaykum assalom, — dedi, samimiyat bilan qo‘l uzatib. — Xush kelibsiz!

— Xushvaqt bo‘ling. Men Bishkekdan keldim, o‘qituvchiman, — dedim. — Menga maktabning direktori yoki ilmiy mudiri kerak.

— E-ha-a, Maman aytgan yigit siz ekansiz-da, — dedi u quvonch bilan.

— Topdingiz, — dedim men. — Mamanning o‘zi qayoqda bo‘ldi ekan?

— Mamanmi? Kecha viloyatga majlisga ketgandi. Indinlarga kelib qoladi. Zap kelibsiz-da. Qani, bir tanishib olaylik-chi. Mening ismim Mamit. Shu maktabning ilmiy mudiriman.

Men xijolat tortib:

— Uzr, men sizni usta ekan deb o‘ylabman.

— Hechqisi yo‘q, — dedi u. — Ustachilik ham qilaveramiz. Biz maktabimizni har yili o‘z kuchimiz bilan ta’mirdan chiqaramiz. Ko‘ch-ko‘roningiz qayoqda?

— Tashqarida.

— Unda, yuring, men sizni, sizga atalgan uyga eltib qo‘yay.

Biz maktabdan chiqib, jomadonim sari borar ekanmiz:

— Bu deyman, nega qishlog‘ingizda suv quygandek jimjitlik? Hamqishloqlaringiz qayoqda? — deb so‘radim undan avvalgi jimjitlikni ko‘rib.

Ilmiy mudir kulib:

— Bizning turmushimiz shunaqa, erta bahordan, to kech kuzgacha manavi uylarda hech kim yashamaydi. Hammasi yaylovda bo‘lishadi.

— Demak, bu yerda yil davomida uch-to‘rt oygina yashashar ekan-da?

— Ha. Shundayam barcha to‘kis ko‘chib kelmaydi, ko‘pchiligi yil bo‘yi yaylov bilan qishloqlarda qolib ketishadi.

— Nega endi?

— Mol boqishadi.

— O‘qituvchilar, o‘quvchilar-chi, ular qayoqda?

— O‘quvchilar ta’tilni ota-onalari bilan o‘tkazishadi. O‘qituvchilarimiz o‘quv boshlanadigan kunga o‘quvchilarni yig‘ib kelgani ketishgan.

Shu mahal bizga yaqin yerdagi uydan bolaning yig‘isi eshitilib, unga boshqalari ham jo‘r bo‘la boshladi.

— Bu qanaqa “xor” bo‘ldi? — so‘radim men, hayrat bilan.

— Birinchi sinfning o‘quvchilari, — dedi ilmiy mudir. — Bugun yaylovdan kelishgan. Tanishasizmi?

Biz o‘sha yoqqa burildik. Bir necha eshikli uzun uy. Ochiq turgan eshik tomon yurdik.

— Bizning xo‘jaligimiz shu uyda, — dedi ilmiy mudir odatdagidek jilmayib. — Yotoqxonamiz ham, omborimiz ham, oshxonamiz ham shu.

Ochiq turgan eshik — bir dahliz, bir katta bo‘lmadan iborat oshxona ekan. Dahlizda bir ayol kuymalanib yuribdi. Katta bo‘lmada ustiga yelim mato yopilgan uzun stol. Uning ikki tarafiga bittadan uzun o‘rindiq qo‘yilgan. O‘rindiqlarda simdagi qaldirg‘ochlardek tizilishib, yetti-sakkiz yoshlardagi o‘g‘il-qizlar o‘tirishibdi. Bolalar oldilaridagi bo‘tqaga qaramay, yig‘iga zo‘r berishardi. Stolning bir boshida chorpahildan kelgan, kirza etik, tumoq, fufayka kiygan bir erkak, ikkinchi boshida yigirma, yigirma besh yoshlardagi, novcha, chiroyli kelin turardi. Ikkalasi ham bolalarni ovutib, ovqat yedira olmay halak.

Bizni birinchi bo‘lib kelin kutib oldi. U hayron bo‘lib, menga qaradi.

— Yaxshimisizlar, — dedim men kelinga.

— Shukur, keling, keling, — dedi u, sipogina.

Erkak ohista istiqbolimizga yurdi. U yoshi o‘ttizlarda, zahil yuzli, ko‘zlari qiyiq, sovuq nigohli kimsa edi.

— Maman aytgan muallim shu yigit ekan, — deb tanishtirdi meni.

— Saqtan, — dedi erkak menga qo‘l berib. — Saqtan Qachibekov. Matematika muallimiman. Men siz bilan elatdoshman.

Men ham o‘zimni tanishtirib o‘tdim.

— Bu kelinning ismi Roqiya, — shu bolalarning muallimasi, — dedi Mamit.

— Mening xotinim, — deb izohladi Saqtan.

Uning husnbuzarday bu qistirmasi: "Esingdan chiqarmay, qadamingni bilib bos", deganday menga erish tuyuldi.

Men kelinga ta'zim qilib qo'ydim. Kelin avvalgidek sipogina jilmayib, boshini biroz egib qo'ydi.

— Nega yig'layapsizlar? — dedi Mamit bolalarga yuzlanib.

Uning bu gapidan so'ng, biz kirganda alahsib, jimib qolgan bolalarning chehrasida yotsirash va qo'rquv paydo bo'ldi. Kutilmaganda bir bola "avj pardadan olvordi-yu", qolganlari ham yoppasiga unga jo'r bo'la boshlashdi.

— Bo'ldi! Bas qilinglar! — dedi Roqiya po'pisa aralash.

— Tog'ning bolalari shunaqa yovvoyi bo'ladi, — dedi Saqtan, go'yo sayyohlarga sharhlovchilik qilayotgan yo'riqchilardek.

Mamit eshikka chiqib ketdi. Er-u xotin bilan xayrlashib, men ham unga ergashdim. Jomadonimni olib, yana bir uzun uyga keldik.

Bu uy avvalgidan ham ancha uzun edi. Yaxshilab razm solsam, bitta deganim yetti xonali uy bo'lib chiqdi. Xuddi nimadandir qo'rqqanday, bir-birining "pinjiga kirgan" bu uylarning sonini, ularning tomidan bildim — biriniki past, biriniki baland. Mamit birinchi uyga kelib, eshikka bog'langan simni yechdi. Biz dahlizga kirdik. Dahlizda ko'mir qoldig'i, ayollarning bir juft paypog'i, yozuv bitilgan daftarlar bor ekan.

Ichkarigi xona katta va yorug' edi. Xonaga yorug'lik esa shiftga qurilgan novsimon derazadan tushib turardi. Unda pechka, stol, temir karavot.

— O'tgan yili bu uyda Dushanbedan kelgan o'ris muallima yashab ketgan, — dedi Mamit. — Uch-to'rt yildan beri rus tilidan mutaxassisimiz yo'q edi, u kelganida boshimiz ko'kka yetgandi. Lekin, ikki oydan keyin bechora bezib, darslarni direktorga tashlab, ketib qoldi. O'shandan beri bu uyda hech kim yashamaydi.

— O'zlaringiz-chi, o'zlaringiz bezmaysizlarmi? — albatta, savolim o'rinsiz edi. O'z savolimdan o'zim uyalib ketdim.

— Bezsak, bu yerlarda yashamas edik. Xo'p, men borib sizga, ko'rpa-to'shak yuborayin. Biror soatdan keyin kelaman, biznikiga borib, tamaddi qilamiz.

— Rahmat, — dedim minnatdorchilik bildirib.

Mamit chiqib ketgandan so‘ng, o‘zimni karavotga tashlab, xayolga cho‘mdim...

* * *

Birozdan so‘ng, tish cho‘tka xarid qilgani qishloq magaziniga bordim. Magazinda uch kishi bor ekan. Qirq, qirqlardan oshgan, sariqqa moyil uzun mo‘ylovli, ko‘zlari qiyig‘i peshtaxta ortida nimadir yozish bilan mashg‘ul. Ikkitasi unli qoplarning ustida o‘tirishibdi. Biri oltmishlarda, sariq yuzli, ko‘sa edi. Ikkinchisi undan keksaroq, baqaloq kishi. Bu ikki ulfatning baqalog‘i meni ko‘rib, arag‘ini yashirdi.

Uchalasining ham nigohida “bu kim bo‘ldi?” degan ajabsinish zohir edi.

— Assalomu alaykum, — yoppasiga salom berdim men.

Ular xushlamaygina alik olishdi.

— Menga bitta tish cho‘tka bersangiz, — iltimos qildim, xat yozib o‘tirganidan.

U indamay pulimni oldi-da, bitta tish cho‘tkani peshtaxta ustiga qo‘ydi. Men xaridimni olib, eshikka yo‘naldim.

— Inim, bu, sizni tanimadik-ku? — deb qoldi, ko‘sa yuzlisi ortimdan.

— Men sizlarning maktabingizga muallim bo‘lib keldim. Ismim Oxun.

Uchalasida ham o‘zgarish yuz berdi.

— E, ha-a! — dedi ko‘sa yuzlisi. — Maman aytgan muallim siz ekansiz-da? Bizda besh muallimning o‘rni bo‘sh. Qani, tanishib olaylik. Mening ismim Toshmat, maktab direktoriman. Manovi yumaloq esa mening do‘stim. Ismi To‘luboy, o‘zi mergan. Anovi, Maymunni esa Turat deb qo‘yamiz, u ham mening do‘stim. Araq ichmaydi. Ammo, bersangiz qo‘lingizni qaytarmaydi: qadahni olib, peshtaxtasining tagiga yashirib ketganingizdan keyin boshqalarga pullaydi.

— Hoy-hoy, Toshmat aka, mehmonning oldida odamni qoralamang-da, — dedi magazinchi, miriqib kulib.

— Qani, mehmon, endi biz bilan o‘tiring, qittak-qittak olaylik, — deb direktor, keyin sherigiga buyurdi: — Aroqni ol bu yoqqa.

Mergan shishani chiqarib:

— Og‘ay, uzr, biz sizni tumandan kelgan kattalardan ekan deb, qo‘rqib ketdik, — dedi.

— Yo‘g‘e-e, men kattalarga o‘xshaymanmi? — dedim men.

— Hozir kazo-kazolar yoshlardan chiqyapti-da, — dedi direktor do‘stining gapini ma’qullab. — Qani, o‘tir, uka.

— Rahmat, — dedim men. — Hozircha uzr, uzoq yo‘l yurib, charchab keldim. Boshqa safar icharmiz.

Direktor bilan mergan bir-biriga qarab qo‘yishdi.

— Ha, mayli, — dedi direktor. — Ammo, keyingisida yo‘q demaysan...

* * *

O‘sha kuni oqshomda, Mamitning uyidan kelayotib, merganga duch kelib qoldim. Magazinning oldidan o‘tib ketayotsam, qorong‘ida kimdir:

— Og‘ay, bu yoqqa kel! — dedi.

Qarasam, magazinning ostonasida mergan o‘tiribdi. Magazin yopiq. Oldiga borsam:

— Bacha, men mast bo‘lib qoldim, uyimga eltib qo‘y, — deb qoldi.

Rad etishga uyalib, rozi bo‘ldim. Boz ustiga merganning orolda yashashini hali bilmas edim. Qishloqdan chiqib qabriston tomonga burilganimizda xavotirlanib:

— Uyingiz qayerda? — deb so‘radim.

— Narigi betda, bacha, — dedi mergan. — Orolda.

Men rozi bo‘lganimga o‘kindim, lekin endi bo‘lar ish bo‘lgandi.

Go‘ristonga yetganimizda, tog‘ ortidan barkashday bo‘lib oy mo‘raladi. Uning nuri tog‘lar, cho‘qqilarni yoritgani bilan, voha-yu daralar hamon qorong‘ilik og‘ushida.

Biz go‘ristonni kesib o‘tgan so‘qmoqqa burildik.

Qo‘ltiqlashib olganimiz uchun, so‘qmoq torlik qilib, qabrlarni ham tepalab ketib borardik. Mergan odatlanib qolgan bo‘lsa kerak, beparvo. Meni esa, xuddi murdalarni bosib borayotgandek hissiyot qiynab, badanim jimirlaydi.

— Bu go‘riston, — dedi mergan, go‘yo men buni payqamagandek. Yo, o‘zi uchun aytdimi, qaydam. — Hayot so‘qmog‘i shu yerga kelganda tugaydi... Qayg‘u, alaming ham, shod-u xurramliging ham.

To‘satdan, oldimizdan bir narsa chopib o‘tdi. Men qo‘rquvdan seskanib ketdim. Buni sezgan mergan:

— Quyon, — dedi hiqichoq aralash. — Go‘ristonda yolg‘iz shu quyon bor. Men ba’zan unga: “Hoy uzunquloq, mendan uzoqroq yursang-chi, bir kuni sho‘ringga sho‘rva to‘kilib qolmasin”, deb hazillashib qo‘yaman. Yashayversin, bechora. Balki men ham bu yerga kelib yotganimda ustimda raqs tushib yurar, — dedi.

Go‘riston tugab, so‘qmoq tik qirg‘oqdan qiyalab, daryoga olib tusha boshladi. Pastga tushish ikkalamizga ham mashaqqatli edi. Ammo, bu merganning to‘pig‘iga ham kelmay, o‘z urug‘iga mansub qirg‘izlarning ohangida xonish boshladi:

— E-e-ey, qator-qator nor haydab,
Qiyolarda yurmadim.
Qiyomatlik juft bo‘lib,
Siz-man o‘ynab, kulmadim...
— Og‘ay, qo‘llab tursang?

Men hayron bo‘lib:

— Qanaqasiga? — deb so‘radim.

— Qanaqasiga deydi-ya! Birov xirgoyi qilganda, ting‘ir-ping‘ir deb, jo‘rovoz bo‘lib turiladi-da.

Ha, gap bu yoqda ekan-da.

— Mening “ting‘ir-ping‘irga” rag‘batim yo‘q, oqsoqol, — dedim, ijirg‘anib.

Tavba-a, ortmoqlab borayotganim kamlik qilganday, ashulasini ham aytishim kerak ekan-da!

Mergan xirgoyisini bas qildi. Biz qirg‘oqqa tushdik. Bungacha oy havolanib, chor taraf xiyla yorishib qolgandi.

— Shu atrofda osma ko‘prik bor, izlab ko‘r-chi, og‘ay, — dedi mergan.

O‘ng-u so‘limga razm solsam, daryoning ustiga tortilgan ikkita yo‘g‘on sim arqon ko‘rindi. Sim arqonlarning biz tomondagi uchi-

da sandiqsimon bir narsa osilib turardi. Osma ko‘prigi shu bo‘lsa kerak deb, merganni o‘sha sandiqqa olib bordim. Aslida, bu ko‘prik degani suvo‘lchagich qurilma ekan.

— Bu narsa bilan qanday qilib u yoqqa o‘tamiz? — deb so‘radim mergandan.

— Manavi kajavaga avval meni tushir, keyin o‘zing tush, — dedi mergan.

Men uning aytganidek qildim. Kajava degani qirg‘oqdagi temir ustunchalarga bog‘langan edi. Mergan iplarni yechgan edi, kajava xiyla yergacha o‘zi siljib borib, keyin to‘xtab qoldi.

— Endi, bacha, sim arqonning birini ushlab, o‘zingga qarab tortaver, — dedi mergan. — Mana menga o‘xshab.

Ikkalamiz sim arqonni birdan ushlab olib, o‘zimizga tortib, oldinga jila boshladik. Bu qiyin ish ekan. Bir zumda qo‘llarim achishib, charchab qoldim. Pomirning siyrak havosi ko‘nikmagan odamni tez charchatib, damini qaytarib, hatto, hushdan ketkizib qo‘yishi hali menga ma’lum emasdi. Mergan esa, parvoyi falak, yana ashulasini boshladi:

Qator, qator nor haydab,
Qiyolarda yurmadim.
Qiyomatlik juft bo‘lib,
Siz-man o‘ynab, kulmadim.

— Sen ham qo‘shilsang, bacha.

— E-e, qo‘ysang-chi, oqsoqol! — dedim, bu safar battar jahlim chiqib.

— Ana, mening qizim ham kutib turibdi, — dedi mergan, mening so‘zimga e’tibor bermay.

Haqiqatan ham qirg‘oqda bir qiz turardi. Qizning nariyog‘ida to‘rtta it va bir eshak ham bor edi. Biz ming mashaqqat bilan qirg‘oqqa yetganimizda, qiz sim arqonlar bog‘langan temir ustunchalar yoniga kelib, kajavani tutib, ustunchalarga bog‘lashga kirishdi.

— Qorasoch, mana bu og‘aying bilan tanishib ol, bugun Bishkekdan keldi, — dedi mergan.

Qiz: — xush kelibsiz, — dedi-da, keyin jimgina otasini tushira boshladi.

Meni qizning salomiga alik olgani ham majolim kelmay, bosh irg‘ab qo‘ydim. Qiz buni payqamadi ham. Mergan yerga tushgandan so‘ng, men kajavani yecha boshladim. Buni ko‘rgan qiz, negadir, otasiga savol nazari bilan qaradi.

— Ey, bacha, nima qilayapsan? — dedi mergan, taajjub bilan.

— Endi men qaytib ketayin, — dedim.

— E, og‘ay, qo‘y. Bahonada bir kelib qolding, mehmon bo‘lib ketasan. Tush kajavadan.

— Rahmat! — dedim.

— Yo‘q, bacha, qolmasang bo‘lmaydi, — dedi mergan, endi qat’iyroq ohangda. — Ketsang, birinchidan, qizim ikkalamiz xafa bo‘lamiz, ikkinchidan, kajavamizni narigi qirg‘oqqa bog‘lab ketsang, bizni shu yagona ko‘prigimizdan mahrum qilasan.

— Ob-bo, bu yog‘ini xudo urgan ekan-ku, dedim ichimda. Qaysi go‘rdan bu nahsga duch keldim, — deb ranjidim. Ammo, shunchalik horib-charchaganimdan, turgan joyimdayoq uzala tushgim kelib turardi. Boz ustiga, bu kecha qayerda tunaganimning farqi yo‘q-ku, degan xayolda, taqdirga tan berdim.

Qiz otasini eshakka mingazdi. Eshak yo‘rg‘asiga solib, manziliga jo‘nadi. Ortidan to‘rt tozi va qiz ikkimiz ergashdik. Ko‘p o‘tmay mergan yana xirgoyisini boshladi:

— E-e-ey, qator-qator nor haydab...

Uyga yetgunimizcha qiz ikkimizdan ham sado chiqmadi. Uyga yetgach, qiz otasini eshakdan tushirib, uchovlon uyga kirdik.

Merganning uyi ham, boyagi mening uyimdek bir dahliz, bir katta xonadan iborat edi. Xonalarni chiroqlar va derazadan tushgan oy nuri yoritib turardi. Dahlizda idish-oyoq, sandiq, qop, miltiq, qopqon kabi qaqir-ququrlar. Ichkari xonada ko‘rpa-to‘shakdan boshqa hech vaqo yo‘q.

Qorasoch chaqqonlik bilan to‘rdagi to‘shaklar ustiga to‘shak yangiladi.

— Qani, og‘ay, to‘rga o‘ting, — dedi mezbon. — Qizim, ovqating pishgan bo‘lsa, olib kel. Bo‘zangdan bormi?

— Bo‘za bugun ichilgani yo‘q, — deb, qiz dahlizga chiqib ketdi.

— Ichilmagan bo‘lsa, juda soz, mana endi ichamiz-da, — dedi mergan.

Hayallamay dasturxon yozilib, ikki yog‘och kosada sho‘rva, katta mis tog‘oroda go‘sht, yana bir katta yog‘och tog‘orada bo‘za keldi. Uyning ichini sho‘rva, go‘sht va bo‘zaning yoqimli hidi tutib, shiftdagi novsimon deraza oynalari issiq taomlardan chiqqan bug‘dan terladi. Mergan bir zumda go‘shtni taqsimlab yubordi.

— Qani, mehmon, go‘shtga qara. Kiyikning go‘shti. Qizim, bo‘zadan quy.

Qornim to‘q bo‘lsa ham kiyikning go‘shti deganidan, hazilakam tanovul qilmadim. Go‘sht jonivor juda ham lazzatli ekan. Bo‘zani ham ikkovlon rosa oldik. Xullas, binoyidek mast bo‘lib qoldim. Endi Pomir ko‘zimga o‘zgacha qiyofada ko‘rinib, ovloqdagi xilvat uyda, mergan va uning qizi bilan hamxona bo‘lib, tansiq go‘shtga to‘yib, bo‘za kayfini surib o‘tirganimdan, o‘zimni arshi a’loda his qila boshladim. Merganning o‘zi ham, uning lo‘ppi yuzli, yuvosh, mo‘min qizi ham yoqib qoldi.

— Aytmoqchi, o‘zing asli qayerdansan? — deb, so‘rab qoldi mezbon.

— Novqatdanman.

— Voh-ho! — deb xitob qildi mergan. — Sen menga tog‘a bo‘lar ekansan-ku! Rahmatli onam novqatlik bo‘laman, derdi. Qarasang, tomirimiz bir ekan-da. Qani, bacha, go‘shtdan olaver. Qizim, tog‘angga bo‘zadan quy.

— Novqatda ham bo‘za solishadimi, tog‘a?

— Solishadi.

— Ovchilik ham qilib turishadimi?

— Ha.

— O‘zing hech ovchilik qilganmisan?

Bolaligimda tengqurlarim bilan it ergashtirib, tayoq bilan ancha-muncha kaklik, chil, quyon ovlagan paytlarimiz bo‘lgan. Biroq, hozir bunday katta ovchining oldida unaqangi bachki narsalarni aytgani uyalib:

— Yo‘q, — deb qo‘ya qoldim. — Lekin, ovchilikka ishtiyoqim zo‘r.

— Unda men seni ovchi qilaman, — dedi mergan. — Mana ko‘rasan. Kiyik, ayiq, hatto, yo‘lbars ottiraman. Besh kunlik umrda tog‘a-jiyan bir miriqaylik…

Men jilmayib qo‘ydim. Merganning va’dalari meni ham junbushga keltira boshladi.

— Unda qachon chiqamiz, ovga? — deb yubordim.

— Xohlasang, ertagayoq, — dedi mergan. — Erta tongda, kiyiklar o‘tlagani tushganda, tappa bosamiz. Qizim, biz ilk sahar, yulduzlar botmasidan ovga jo‘naymiz. Kerakli narsalarning barini taxt qilib qo‘ygin. Eshakka yemdan ko‘proq ber. Itlarga ovqat berma — qantarish kerak. To‘q bo‘lsa, ertaga ovga yaramaydi. Senga bir ajoyib tomosha ko‘rsatayin, tog‘a! Bo‘zadan quy, qizim.

— Endi siz quyib turing, ota, men qozon-tovog‘imni yuvib olay, — deb qizi bo‘zali tog‘orani otasiga jildirdi.

— Mayli, qizim, mayli, borib ishingni qilaver, — dedi mergan. Qorasoch bo‘shagan idishlarni olib, dahlizga chiqib ketdi.

— Qizim, esli bo‘ldi, — dedi mergan. — rahmatli onasiga tortgan. Xudo xohlasa, birorta amaldorga uzatsam degan orzum bor. Cho‘pon-cho‘liqqa tegsa, xor bo‘ladi, yolg‘izim... Sen uylanganmisan?

Men bosh chayqab, yo‘q ishorasini qildim.

Mergan yana qadrdon xirgoyisini eslab qoldi:

— E-e-ey, qator-qator nor haydab,

Qiyolarda yurmadim...

— E-e-ey!

Bu gal men ham unga jo‘r bo‘ldim...

Qachon yotganimizni bilmayman. Ertasiga ko‘zimni ochsam, shiftdagi derazadan tushib turgan quyosh nuridan xona ichi charog‘on edi. Yonimda barala hurrak otib mergan yotibdi. Uning bosh yog‘ida, devorda miltiq, o‘qdon, durbin osig‘liq turardi. Merganning tungi va’dasini eslab, ov barbod bo‘lganini tushundim.

Ov masalasi keyin ham ko‘p marta takrorlandi. Mergan meni tez-tez uyiga taklif qilib: “Tog‘a, kechqurun biznikiga kelib yotasan, ertaga azonlab ovga jo‘naymiz. Aytmoqchi, haligidan birorta ola kelgin, bo‘zaga qo‘shib, ermak qilib o‘tiramiz”, deydi. Men “haligisidan” bittani olib uyiga boraman. Keyin allamahalgacha shakarguftorlik qilib o‘tiramiz. Bechora Qorasoch har gal ov anjomlarimizni taxt qilib, eshakni yemlab, itlarni qantarib, tayyorlab qo‘yadi. Lekin, ertasi uyg‘onsak, yana choshgoh bo‘lib qolgan bo‘ladi...

Haytovur, bir gal ovga borish nasib etdi. O‘sha kuni havo aynib, qor shunchaki elab turardi. Biz endigina tong yorishayotganda o‘rnimizdan turib, apil-tapil bir kosadan bo‘zani simirib, yo‘lga otlandik. Mergan mening bir qo‘limga xalacho‘p berib, bir qo‘limga beshta itning yetovini tutqizib, o‘zi yalpayib eshagiga minib oldi. Agar, ovga bo‘lgan ishtiyoq shunchalik jigarimdan urmaganida, bu xo‘rlikka chidamagan bo‘lardim.

Pomirda kiyik ovlash uchun uzoqqa borib o‘tirmaysiz. Ikki burilishdan o‘tib, bir keng jilg‘aga yetganimizda, mergan eshagini to‘xtatib, durbinni ishga soldi. Buni ko‘rib, yetovimdagi itlar ham bezovtalanib, quloqlarini dikkaytirib, egasining har bir harakatini diqqat bilan kuzata boshlashdi. Qari, bo‘z eshak esa o‘z holicha, mudragannamo katta shuvoqning tagini ho‘llay boshladi.

— O‘n chog‘li taka yuribdi, — dedi mergan kutilmaganda.

— Qani? — deb merganning qo‘lidan durbinni yulib oldim.

Qarasam, rostdan ham, novvosday-novvosday keladigan o‘nta taka bamaylixotir o‘tlab yuribdi. Meni hayajon bosdi.

— Endi nima qilishimiz kerak? — dedim, ko‘zimni durbindan olmay.

Mergan mening savolimga javob bermasdan, eshagidan tushib, itlarini yecha boshladi. Itlar hali takalarni ko‘rmagan bo‘lsa-da, bo‘lajak ovning zavqini tuyushib, biri olib-biri qo‘yib g‘ing‘ishlashib, ko‘zlari olma-kesak terib, chor tarafga alanglashardi. Mergan hammasini yechib bo‘lib, kerakli tomonni qo‘li bilan ko‘rsatib qo‘ydi. Itlar yelib ketishdi. Ammo, uzoqqa bormay, keskin burilishib, takalar qolib, tamoman teskari tomonga chopib ketishdi.

— Itlaringiz jinni bo‘lganmi? — dedim men, hafsalam pir bo‘lib.

— Ular takalarni ko‘rishdi, — dedi mergan. — Aylanib borib, orqasidan chiqishadi.

— Unda biz nima qilib turibmiz, bu yerda? Biz ham ortidan bormaymizmi?

— Bizning u yoqda keragimiz yo‘q. Itlar o‘zlari haydab kelishib, huv anavi qoyaga qamab berishadi. Undan ko‘ra ustingdagi to‘ningni yechib, yengillanib tur.

Men merganning aytganini qildim. Bu orada itlar ovozi eshitilib qoldi. Qarasam, to‘rt it bir takaning ortidan quvlab, boyagi mergan ko‘rsatgan qoyaga chiqib borishardi. Taka itlardan yuz metrcha oldinda, bechoraning joni ko‘ziga ko‘rinib, bor kuch-quvvatini, chopqirligini ishga solgandi. U itlarga nisbatan ancha chopqir, boz ustiga, qoyaga yetganda uning ustunligi yanada orta boshladi. Shu zayilda qochaversa, qutulib ketardi. Lekin, taka bu imkoniyatdan foydalanish o‘rniga, ta’qibchilarning vahimali vovullashidan qo‘rqib, keskin burilib, devordek silliq yuza bo‘ylab, qoyaning o‘rtasigacha qiyalab chopib bordi-da, kaftdekkina yerda hansirab turib qoldi. Shubhasiz, u tin olgan yerga it zoti chiqa olmasdi. Merganning itlari ham, u yerga intilish o‘rniga, qoyani qurshab oldi. Ularga shugina kerak edi. Bechora taka endi qutuldim, deb o‘ylagandir, balki. Itlarning ortidan miltiqli odam kelishini u qayoqdan bilsin.

— Mana, endi jo‘na, — dedi mergan. — Naq boshiga otgin!

Men qoyani ko‘zlab yugurdim. Biroq Pomirda uzoqqa yugura olmaymiz. Tutak degani bor, oyog‘ingizga kishan uradi-qo‘yadi. Bu yerda o‘r-u qirga ohista yurib, burningiz qonamay chiqib borsangiz, o‘pka, yuragim sog‘lom ekan deb, faxrlansangiz arziydi.

Men qoyaga eltuvchi qirning qulayroq, takaga ko‘rinmaydigan tomoni bilan yurib, yarim soat deganda, qoyaning bir tomonini to‘sib turgan itning yoniga yetdim. It bilan kiyikning oralig‘i ellik metrcha kelardi. Shu yerdan turib otishga qaror qildim. Katta toshning biqinini panalab, miltiqni o‘qladim. Miltiq pomirliklar tili bilan aytganda — “pirsildoq” degan turidan edi. To‘luboy merganning aytishicha, buning o‘qi kiyikka tekkanda “to‘p” degan, tegmaganda “chaq” degan tovush chiqar emish. Otib ko‘raylik-chi...

Miltiqning masofa o‘lchagichini yetmish besh metrga qo‘yib, mo‘ljalga ola boshladim. Lekin, halloslab kelganimdan, o‘pkamni bosa olmay, qo‘llarim qaltirab, miltiqning mo‘ljal cho‘pi bir joyda turmasdi. Boshimni ko‘tarib, bir-ikki daqiqa kiyikni tomosha qilib turib qoldim. Kiyik nihoyatda katta, chiroyli edi. Uyuridan ajralgan bechora, betinim hurib turgan itlarning qurshovida qo‘rqib, qaltirab, o‘ta ayanchli ahvolda edi.

Men tepkini bosib yubordim. “To‘p” degan aks sado eshitildi, tegdi chamasi. Lekin, taka qochish tugul, o‘rnidan ham jilmadi. Faqat, ulkan gavdasi bir silkinib, ohista burilib, menga orqasini o‘girib oldi. Men shosha-pisha ikkinchi o‘qni uzdim. Yana boyagi “to‘p” degan tovush eshitildi. Taka yana qochish o‘rniga, bir aylanib, men tomonga qarab oldi. Yana otdim. Bu gal yovvoyi taka avvalgidek burilmasdan, og‘ir gavdasi bilan qulochdek keladigan shoxlarini qoyaga tirab turib qoldi. Shunda men uning bu fojiali ahvolini ko‘rib, ich-ichimdan zil ketdim. Ishonsangiz, kiyikdan uyaldim. Qochib borayotganda otib olsam ham, bir navi edi.

Aksincha, o‘zimdan ellik odim nariga mixlab qo‘yib, go‘yo jonsiz nishonga otgandek o‘q yog‘dirishim insofdan emasdi. Men takani, chorasiz taslim bo‘lgan pahlavonga, o‘zimni esa, uni hayotdan mahrum etgan bag‘ritosh, qo‘rqoq qotilga o‘xshatdim. O‘zimni bunday noxush hissiyotlardan, kiyikni esa, og‘ir azob-uqubatdan xalos etish uchun apil-tapil yana o‘q uzdim. Takaning gavdasi chiyralib, yana aylanmoqchi bo‘ldi-yu, lekin, aylana olmasdan, baland zovdan pastga qarab uchib ketdi. Kiyik xiyla yergacha havolanib borib, qoyaning etagidagi oppoq, mayda yalanglikka tushdi. Mayda toshlardan ko‘chki hosil bo‘lib, kiyikning sulaygan jonsiz (ehtimol, hali joni bordir?) tanasini to‘ppa-to‘g‘ri To‘liboy mergan tomonga surib ketdi.

Men shoshmay tepadan tushib kelgunimcha, mergan kiyikni bo‘g‘izlab, ichak-chavog‘ini itlariga xomtalash qilib bergandi.

— Kelishgan takani otibsan, bacha, — terisini Mamitga beramiz, muzeyga tulum qilib olsin.

— U qanaqa muzey?

— Sen hali uning muzeyini ko‘rganing yo‘qmi? O‘quvchilariga qoyilmaqom muzey yasab bergan. Men unga ko‘maklashib turaman. Muzeydagi tulum qilingan jonivorlarning barini men otib berganman.

— Shunday deng...

Biz kiyikni eshakka yoppa tashlab, yo‘lga ravona bo‘ldik. Ushbu ov mening ruhiyatimni qarama-qarshi hislar girdobiga g‘arq qilgandi...

* * *

Ertasi kuni maktabda birinchi qo'ng'iroq chalindi. Men bir jurnalni qo'ltig'imga qisib, o'qituvchilar bilan xonadan chiqib, yo'lakning oxiridagi "VIII sinf" degan yozuvi bor eshik tomon yurdim. Bu mening sinfim edi. O'quvchilarim bilan tanishadigan kun — birinchi darsimga eng yaxshi kastumimni kiyib, eng yaxshi bo'yinbog'imni taqib, ko'kragimga universitetning ko'krak nishonini qadab kelgandim. Shuning uchun odatdagi ust-boshlari bilan kelgan mahalliy o'qituvchilarning oldida, men xuddi, estrada sahnasidagi olifta xonandaning o'zi bo'lib qolgandim. Bu qusurim uchun ancha vaqtga qadar uyalib yurdim. Yo'lakning oxirigacha Roqiya bilan birga bordim. Uning sinfi meniki bilan yonma-yon edi.

— Birinchi darsingizga omad, — dedi u jilmayib, o'z sinfiga kirayotib.

Uning bu samimiyati biroz erish tuyulsa-da:

— Rahmat! — deb, bo'yinbog'imni to'g'rilab eshikni ochdim.

Sinf xonasi kattagina edi. Biroq, xonada sakkizta parta bo'lib, har bir partada bittadan o'quvchi o'tirardi. O'quvchilar o'zaro qizg'in suhbatga berilishib, kulib-yayrab o'tirishgan pallada meni ko'rishib, hammasi o'rinlaridan turishdi.

— Salom, bolalar! — dedim, men ularga.

— Salom, og'ay! — deyishdi ular bir ovozdan.

Shu asnoda oxirgi partadagi o'quvchi ruxsatsiz joyiga o'tirib olgan ekan, mening nigohimni ko'rib, darrov o'rnidan tura qoldi. Bu o'quvchining yoshi sinfdagilardan kattaroq bo'lib, o'n sakkizlar chamasida, savlati menikidan kam emas. Uning bu sinfda o'tirishi menga g'alati tuyuldi.

— O'tiringlar, bolalar! — deb, o'zim ham o'tirdim. — Bugungi darsimiz tanishuv darsi bo'la qolsin. Mening ismim — Oxun, familiyam — Matxoliqov. Men sizlarning sinf rahbaringiz, shuningdek, qirg'iz tili va adabiyotidan muallimingiz bo'laman. Endi, men ham sizlarning ism-familiyalaringizni bilib olsam. — Men jurnalni ochib, ro'yxatni batartib o'qiy boshladim:

— Turotov Toshboy kim?

— Men, og‘ay, — deb tovoqbet, olako‘z bola o‘rnidan turdi.

— O‘tir. To‘qto‘boyev Sodiq?

— Men! — qichqirdi birinchi partada o‘tirgan to‘rg‘aydekkina bolakay.

— Botirova Sora?

Sinfdagi uch qizdan biri jimgina o‘rnidan turdi.

— Do‘o‘lo‘tova Unsin?

Ikkinchi qiz ham indamay o‘rnidan turdi.

— To‘ychiyev Payiz?

Oxirgi partadagi katta bola o‘rnidan turib: — Men, — dedi beso‘naqay ovozda.

— Yoshing qanchada? — deb so‘radim undan.

— O‘n sakkizda, — dedi bola xijolat bo‘lib.

— Nega shu yoshingda sakkizinchi sinfda o‘tiribsan?

Payiz indamadi.

— Og‘ay, bu bola har bir sinfda ikki yil o‘qishni yaxshi ko‘radi, — dedi uning o‘rniga Sodiq.

O‘quvchilar kulib yuborishdi. Payiz Sodiqqa bir yovqarash qilib qo‘ydi.

— O‘tir, — dedim men uni xijolatdan chiqarib. — Mamitova Adolat?

Sinfdagi uchinchi qiz o‘rnidan turdi...

— Esenov Ermek?

Bu ukkiko‘z, burni o‘roqday bolani, keyin bilsam, onasi badaxshonlik tojiklardan ekan.

Men jurnalni yopdim.

— Mana, biz tanishib ham oldik, — dedim, o‘rnimdan turib.

— Endi sizlar ta’tilni qanday o‘tkazganingizni bilmoqchiman.

— Ta’tilimiz yaxshi o‘tdi, og‘ay, — dedi bir necha bola baravariga.

— Hech qanday yaxshi-paxshi o‘tgani yo‘q! — deb, Sodiq ularnikini rad etdi. — Og‘ay, biz ta’til qanday o‘tganini sezmay ham qoldik. Hammamiz xo‘jalikda ishladik. Qizlar qo‘tos sog‘ishdi, bolalar pichan o‘rishdi, jun qirqishdi. Buning nimasi ta’til?

— Hoy, noshukur, — dedi Adolat. — Seningcha, ta’tilda biz nima qilishimiz kerak?

— Dam olib, o‘ynab-kulishimiz kerak, — dedi Sodiq, so‘zini ma’qullab. — Misol uchun shaharlik o‘quvchilarni olib ko‘raylik, ta’tilni qanday o‘tkazisharkin? Ularga hamma narsa muhayyo — maxsus lagerlar tashkil etilgan. To‘g‘rimi, og‘ay?

Men bolaning savoliga javob bermasdan, deraza yoniga bordim. U yerdan idora, maktab, magazin, klub — bu imoratlarning qurshovidagi katta maydon kaftdagidek ko‘rinib turardi. Maydonning o‘rtasida tuproqqa belanib, oftobqoqi bo‘lib, to‘qimi bilan ho‘v o‘sha qo‘tos yotibdi.

Shu payt, kutilmaganda, magazinning yonidan bir yangi qora “Volga” yelib chiqdi-da, negadir, maydonda bir doira yasab, qo‘tosning oldiga borib to‘xtadi. Mashinadan esa, mening deputatim tushib, qo‘tosning manglayini silab-siypab qo‘yib, shaxdam yurib magazinga kirib ketdi. Lekin magazinda uzoq turmay qaytib chiqib, maktab tomon kela boshladi.

— Hoy, qaranglar, Maman akaning “Volga”si kelibdi! — deb qichqirdi bir bola.

Shu zahotiyoq yoppasiga derazaga kelib “Volga”ni tomosha qilib qolishdi.

— Qani, joy-joylaringga o‘tiringlar! — dedim men. — “Volga” ko‘rmaganmisizlar?!

Bolalar negadir, mening so‘zlarimga hayron bo‘lishganday, bir-biriga qarashdi. Shu payt, kutilmaganda qo‘ng‘iroq chalinib qoldi. Men hayron bo‘lib, soatimga qarasam, dars tugashiga hali yigirma minut bor ekan. Bolalar birdaniga, mening ruxsatimni ham kutishmay, eshikka yopirilishdi.

— Qayoqqa! Qayoqqa?! Joylaringga o‘tiringlar! — deb qichqirdim jahlim chiqib.

Ammo, o‘quvchilarning birortasi ham quloq solishmadi. Sinfda yolg‘iz o‘zim qoldim. O‘quvchilarimning o‘zboshimchaligidan, bemavrid qo‘ng‘iroq chalgan kimsadan darg‘azab bo‘lib, o‘qituvchilar xonasiga jo‘nadim. Yo‘lakka chiqsam, maktabdagi jamiki o‘quvchilar to‘s-to‘polon bilan tashqariga chiqib ketishayotgan ekan.

Xonaga yetmasimdan, bir to‘da o‘qituvchilar qurshovida kelayotgan deputat meni ko‘rib:

— Oxun! — deb, quvonchli xitob bilan kelib, meni bag‘riga bosdi. — Rahmat! Kelganing yaxshi bo‘pti. Qalay, qishlog‘imiz yoqdimi?

— Shoshmay tur, picha vaqt o‘tsin, keyin aytarman, — dedim. So‘ngra mudirga murojaat qildim. — Qo‘ng‘iroq nega buncha erta chalindi?

U, o‘z navbatida, istihola bilan deputatga qaradi.

— Qo‘ng‘iroqni men chaldirdim, — dedi deputat.

— Sen? Nima uchun?

— Bolalar “Volga”ni bir tomosha qilib olishsin. Hozir uni tumanga qaytarib yuboraman.

Men hech narsaga tushunmadim.

— Bu nimasi? Bolalar hech “Volga” ko‘rishmaganmi?

— Ko‘rishgan. Ikki martagina. Ikkalasida ham men o‘zim haydab kelganman. — Deputat meni qo‘ltiqlab, maydonga olib chiqdi. Bolalar qurshovida “Volga” ko‘rinmas edi. — Bizning tumanda, bacha, shu birgina “Volga” bor. Bu asli hokimga tegishli bo‘lib, u viloyat markaziga — Xorogga borgandagina minadi. Xo‘jaliklarning yo‘llari yomon, ichki ehtiyojlariga eski “Villis”ini ishlatadi.

— Nega endi senga mashinasini berib qo‘ydi?

— Mengami? Axir men deputatman-ku...

Hamqishloq muallimlarga yuzlanib: — Menga bermay ko‘rsinchi? — dedi.

Men kulib yubordim. Hammamiz mashina yoniga bordik.

— Qani, tomosha tugadimi? — deb so‘radi deputat bolalardan.

— Yana ozgina qo‘yaturing, Maman aka, — deyishdi bolalar.

— Tuman markaziga yuz kilometr masofa, shofyor ham ertaroq yetib olsin. Qani, yo‘l beringlar.

Maman mashinadan jomadonini olib, Payizga uzatib: — Qo‘tosning qanjig‘asiga bog‘la, — dedi. So‘ngra mo‘ylovli shofyorga, Endi sen ketaver, Usenboy, deb buyurdi.

Usenboy mashinaga o‘tirib, chang to‘zg‘itgancha yelib ketdi.

— Yana biroz qo‘yaturganingizda, — dedi Sodiq o‘kinch bilan.

— Xafa bo‘lma, bacha, — dedi deputat unga. — Maman akang omon bo‘lsa, bu mashinani ko‘p marta ko‘rasan. Endi qorong‘uga

qolmay, men ham yo‘lga tushay, bundan nariyog‘iga ham bir kunlik yo‘l.

— Unday bo‘lsa, boyagi “Volga” bilan yetib olsang bo‘lmasmidi? — so‘radim men.

— E-e, bacha, men boradigan yerga “Volga” emas, tanking ham bora olmaydi, — dedi Maman. — Payiz, mening qo‘tosimni keltir. Payiz bir yonboshiga jomadon bog‘langan qo‘tosni keltirdi. Maman qo‘tosga minib:

— Yaxshi qolinglar, — dedi.

— Yaxshi boring! — deyishdi bolalar.

— Uyingga omon-eson yetib ol! — oq yo‘l tilashdi kattalar.

— Xayr endi, Oxun, — dedi Maman.

— Xayr, — dedim men ham bosh irg‘ab.

— Toshmat aka! Mamit aka! — xitob qildi deputat, direktor bilan mudirga qarab. — Oxunni xafa qila ko‘rmanglar!

— O‘libmizmi, xafa qilib! — dedi direktor. — Nima desa, biz tayyor. Jamiki qirg‘iz tili va adabiyoti darsini berdik. Oz desa, yana beramiz. Bizda chet tili muallimi yo‘q, ashula darsi ham egasiz yotibdi. Xohlasa, ularniyam olsin.

— Ularniyam beringlar, — dedi Maman.

Men kulib yubordim.

— Rahmat, shundog‘am keragidan ortiqcha, — dedim.

— O‘zing bilasan, — dedi deputat. — Ishqilib, bizdan xafa bo‘lmasang bo‘ldi. Xo‘p, endi men boray. Qani, Payiz, tizginni ber. Aytmoqchi, Oxun, Payiz mening jiyanim bo‘ladi. Yaxshilab o‘qitaver. Eplab, bu yil sakkizni bitirib olsa, Dushanbega olib borib mol do‘xtirligi o‘qishiga kirgizib qo‘yaman. O‘qib, odam bo‘lsin. Chu, jonivor...

Maman qo‘tosning biqiniga niqtab, lo‘killatganicha yo‘lga ravona bo‘ldi. Shu zahoti, qo‘ng‘iroq chalinib, o‘qituvchilar-u o‘quvchilar maktabga oshiqdi.

Shu asnoda: — E-e-ey, tog‘a! — degan ovoz qulog‘imga chalindi.

Qarasam, To‘luboy mergan. Qizi ikkalasi magazindan chiqib kelishayotgan ekan. Mergan sarxushroq, qizi yetaklab olibdi. Qizning qo‘ltig‘ida bo‘xchasi ham bor.

— Assalomu alaykum, — merganga salom berdim. — Horma, Qorasoch.

— Bor bo'ling.

— Tog'a, sen bugun kechqurun biznikiga borib yot, — dedi mergan. — Ertaga ovga boramiz.

— Rahmat, ertaga darslarim bor, bora olmayman.

— Unda darsing yo'q kuni bor. Maylimi?

— Mayli.

— Mana ko'rasan, men seni mergan qilaman. Kiyik otasan, ayiq otasan, yo'lbars otasan...

Qorasoch menga qarab jilmayib qo'ydi.

Uning nega jilmayganini anglab yetmasam ham, men ham jilmayib qo'ydim. Lekin, qizning nigohi boshqa tomonda ekanligini ko'rib, ortimga qarasam, o'quvchilardan ortda qolgan Payizni ko'rdim. U qizga qo'llari bilan duduqlarcha nimalarnidir ishora qilardi. Qorasochning kimga jilmayganini endi tushundim. Bu o'sallikning alamini Payizdan oldim:

— Sen nima qilib turibsan, bu yerda?! — deb jerkidim uni. — Yo qo'ng'iroqni uqqaning yo'qmi?

Payiz shoshib jo'nab qoldi. Mergan eski ashulasini xirgoyi qilib yo'lga tushdi:

— E-e-ey, qator-qator nor haydab...

* * *

Dam olish kuni bekor o'tirmayin deb, uyimni oqlay boshladim. Uyim qishloqdagi aksariyat uylar singari, biror marta ham ohak ko'rmagan. Shuning uchun, ohak durustroq yopishmasdi. Shunday bo'lsa ham, bir navi deb, ohaklay berdim.

Bir mahal uyga yoshi elliklardan oshgan, o'rta bo'yli, to'ladan kelgan, og'irkarvon bir kishi kirib keldi.

— Assalomu alaykum, og'ay, — dedi u, qo'l uzatib. — Kelganingizni eshitganimga ancha bo'lsa-da, bir kelib tanishib ketishga imkon topmadim. Men shu xo'jalikning raisiman. Ismim Jaqip.

— Yaxshi, rahmat, — dedim men. — Mening ismim Oxun.

— Savob ish qilibsiz. Shuncha uzoq joydan kelib, bolalarimizni o'qitayotganingiz uchun rahmat. Biz tomonlarga sizdaqangi

o‘qimishli yoshlar kam kelishadi, o‘zimizda esa kadrlar yetishmaydi. Kelganingiz uchun minnatdormiz.

Bu maqtovlarga loyiq biror so‘z deyishga tilim aylanmadi.

— Uy oqlayapsiz ekan-da. Buningiz ham biz uchun yangilik. Mayli, siz oqlay bering-chi, agar, yaxshi chiqsa, bizga ham o‘rnak bo‘lsa ajab emas, — dedi rais kulib. Unga qo‘shilib men ham kuldim. — O‘rda otib o‘rganganmisiz, og‘ay? — deb so‘rab qoldi rais, qo‘lidagi oshiqni kaftida aylantirib.

— Yo‘q, o‘rganmaganman, — dedim, ajablanib.

— O‘rganmagan bo‘lsangiz, o‘rgatamiz. Yuring, birpas ermak qilamiz.

— Rahmat, boshqa kuni o‘ynarmiz. Bugun uyimni oqlab olay.

— Ha, mayli. Unda o‘zimiz o‘ynaymiz.

Rais chiqib ketdi. Men ortidan kulib qolaverdim.

Keyin bilsam, o‘rda — bu qishloqning yagona ermagi ekan. Turli marosim va bayramlarda sovrin tikilib, ko‘pkari uyushtirishar ekanlar. Lekin, bunday imkoniyat hamisha ham bo‘lavermaydi. Biroq, asosan, pomirlik qirg‘izlarning joniga ora bo‘ladigan birgina narsa shu o‘rda otish o‘yini ekan. Qishloq ahlining qo‘li mehnatdan ozgina bo‘shadi deguncha, erkaklar ikkiga bo‘linib, o‘rdani boshlashadi. Aksariyat dehqon bilan o‘qituvchilar bir-biriga raqib bo‘ladilar. Odatda, dovga bir qo‘y tikiladi. O‘yin boshidayoq, qo‘y bechoraning boshi olinib, go‘shti bir xonadonning qozonida qaynay boshlaydi. Yana allaqancha shisha ichimligiyam bo‘ladi. O‘yin tugagandan so‘ng, o‘rda otuvchilarning bari o‘sha uyga borishib, miriqib kayf-safo qilishadi-da, chiqimning xarajati o‘yinni boy bergan tomonning gardaniga tushadi.

Rais Jaqip o‘rdaning mutaassib ishqibozi ekan. U xo‘jalikning tashvishlari bilan bo‘lib, kunlar, haftalar davomida qishloqda bo‘lmaydi-da, kelishi bilan darhol o‘rdaning payiga tushadi. Ostona hatlar-hatlamas, birinchi sinfda o‘qiydigan o‘g‘liga: “Abdusamad, bor, og‘aylaringga ayt, o‘rda otamiz”, — deydi.

Xiyol o‘tmay, magazin qarshisidagi maydonga o‘qituvchilar birin-sirin kela boshlashadi. Ularni ko‘rib, idoradan qishloq faollari chiqishadi. Magazinchi Turat vazifasini mening sinfimda o‘qiydigan o‘g‘li Toshboyga yuklaydi. Kimdir birov, do‘nglikka

chiqib, hovlisida g‘imirlab yurgan To‘luboy merganga imo-ishora qiladi... Zaruriyat bilan uzoq-yaqindan kelgan cho‘pon-cho‘liqlar bo‘lsa, ular ham shu yerda hozir. Tomoshabinlarni qo‘yaverasiz. Ko‘p o‘tmay bir xalta oshig‘ini ko‘tarib rais keladi-yu, o‘yin boshlanib ketadi.

Ba’zan tap bosdi uchun raisga birorta ham harif topilmay qoladi. Muallimlarning darsi bor, qishloq faollarining ham vaqti ziq, magazinchi Turat savdoning sustligidan shikoyat qiladi; mergan tog‘ga chiqib ketgan bo‘ladi. Qisqasi, raisning bozori kasod. Bunaqangi paytlarda, rais xaltasini qo‘ltiqlab idora, magazin va maktab o‘rtasida tanda qo‘ya-qo‘ya, taqdirga tan berib, uyiga ravona bo‘ladi.

Bir gal shunaqangi vaziyatda o‘quvchim Payizni chaqirib olib, kechgacha u bilan o‘rda otishgan. Lekin, Payiz o‘rda otolmasdi. Rais uni yuta-yuta, hafsalasi pir bo‘lib, bolani so‘kib-so‘kib, haydab yuborgan. Yana bir kuni hatto Payizni ham topa olmay, atrofni tuman bosib, qor elab tursa ham, qosh qorayib, oshiqlar ko‘rinmay qolguncha, o‘zi bilan o‘zi o‘ynab, nihoyat, maydonni tark etgan. Mana shunday fidoyi ishqiboz bu raisi tushmagur.

Men xonalarning ichini oqlab bo‘lib, sirtga chiqdim. Oftobli kun edi. Maktab binosining orqa tomonidagi yalanglikda bolalar to‘p o‘ynashmoqda. Odatdagi maydonda esa, o‘rdachilarning shovqin-suroni avjida. Devorga suyanib o‘ltirib, ularni picha tomosha qildim-da, ishimni davom ettirdim. Dastavval, tikkasiga chiziq tortib, uzun devordan o‘z uyimning chegarasini belgilab oldim. Keyin chelakni kursi ustiga qo‘yib olib, bafurja ohaklay boshladim. Lekin, ko‘p o‘tmay, suvi qochib, ohagim devorga yuqmay qoldi. Bitta bo‘sh chelak topib, suvga jo‘nadim.

Daryoga tik qirg‘oqdagi qiyalama so‘qmoq orqali tushiladi. Arava yo‘li ham bor, lekin, unisi aylanish — uzoqlik qiladi. Suvni obkash, ot-ulov bilan, hammomga o‘t yoqilgan kunlari arava bilan tashiladi.

Qiyalikka yetganimda, obkashda suv ko‘tarib kelayotgan Roqiyaga duch keldim.

— Yaxshimisiz, Roqiya? — deb, unga yo‘l bo‘shatdim.

Roqiya alik olgach:

— Bu deyman, Oxun, birato‘la pomirlik bo‘lish niyatingiz bor chamasi? — dedi. — Anavi “og‘ilxonangizni” oqlayotganingizga aytaman-da.

— Endi... Besh kun bo‘lsa ham, “og‘ilxonadan” farqlanib tursin-da.

Roqiya kulimsirab, boshi bilan “ma’qul!” ishorasini qilib o‘tib ketdi.

Sohilga, tushganimda bir gala yovvoyi o‘rdak mendan hurkib, havoga ko‘tarildi. Bularni ko‘rib, daryoning o‘rtasidagi orolchadan, ikki sohildagi baland jarlarning tubidan, nariroqdagi manzil ortidan, o‘nlab, yuzlab g‘oz va o‘rdaklar ko‘kka o‘rladi. Osmonni tutgan “g‘at-g‘ut”lardan daryoning shovqini ham eshitilmay qoldi. Men ularning shovqin-suroni-yu parvoziga mahliyo bo‘lib, ko‘pga qadar turib qoldim. To‘luboy merganning aytishicha, bular mehmon qushlar bo‘lib, issiq o‘lkalarga ketish mavsumi boshlanib qolgandi. Ularning o‘tish davri yana biror oy davom etib, keyin, kelgusi yilning ilk bahorida qaytib kelisharkan. “Shu qushlarning ichida bitta oq g‘oz bor, o‘sha g‘oz birinchi bo‘lib qaytib kelishi bilan, Pomir zaminida bahor boshlanadi”, degan edi To‘luboy. Mergan shunday degandan buyon, men bu ilvasinlar galasidan o‘sha oq g‘ozni ko‘p izladim...

Nihoyat, qushlar olislab ketishdi. Men daryo labiga keldim. Darvoqe, bu daryoning nomi ham, tumanning nomidek Murg‘ob deb ataladi. Aniqrog‘i — tumanning nomi daryodan olingan. “Murg‘ob” tojikchasiga “murg‘ — o‘rdak”, “ob — suv” ya’ni o‘rdakli soy degani ekan.

Chelagimni endigina suvga botirganimda, faqat shunaqangi pokiza suvlardagina yashaydigan, mudrab yotgan bir gala gulmohi balig‘i tiraqaylab qochishdi. Bu yerlarning balig‘i juda yuvosh tabiatli. Yosh bolalar to‘g‘nag‘ichdan qo‘lbola qarmoq yasab, nonning kuyigini xo‘rak qilib ovlashar ekan. Agar, To‘luboy merganning gaplari rost bo‘lsa, suvga kelgan qiz-juvonlar ham baliqlarni cho‘mich bilan qirg‘oqqa irg‘itib olar emish. Buning sababi — baliqlarning kamdan kam bezovta qilinishidadir. Pomirlik qirg‘izlar baliq go‘shtini go‘sht o‘rnida ko‘rishmaydi. Meni baliq oviga ketayotganimni ko‘rishganda, ajablanib qarab qolishardi. Birortasiga

o‘ljamdan ko‘z haqi bersam, “qo‘y-chi, bacha, buningni kim tozalaydi?” deb, olishmaydi. Albatta, bunday yerning balig‘i bayov bo‘ladi-da!

Suvni olib, o‘rnimdan turganimda, narigi qirg‘oqda ketayotgan qiz bilan yigitga ko‘zim tushib qoldi. Qo‘ltiqlarida bir tutamdangina quvrayi bor. Ikkovi bir-biriga erkalanishib, bot-bot o‘pishib ketishmoqda. Sinchiklab qarasam, qiz merganning qizi, yigit esa, mening Payizim ekan...

Hayrat bilan: — Qoyil-e-e, — dedim-u, maboda, meni ko‘rib qolishsa, xijolat bo‘lishmasin deb, burilib ketdim.

Peshingacha ishimni bitirib, kunning qolgan qismini o‘z o‘quvchilarim bilan o‘tkazdim. O‘qituvchilar galma-gal internatda navbatchi bo‘lib turishadi. Ya’ni internat bolalarining ovqati, o‘zlashtirishi-yu, yotib turishigacha mutasaddilik qilishadi. Bugun mening navbatim edi. Uyimni oqlab, oshxonaga kelsam, oshpaz ayol kechki ovqat pishirishga o‘tin yo‘q deb qoldi. Men darhol bolalarga birdan qop oldirib, qishloqning u yoq-bu yog‘idan tezak terdira boshladim. Tezak terish asnosida to‘satdan Unsin:

— Qaranglar! Oxun og‘ayning uyi oq paravozga o‘xshab qolibdi! — deb qiyqirdi, bolalarcha quvnoqlik bilan.

Biz do‘nglikda bo‘lganimiz uchun qishloqning uylari pastlikda yastanib yotardi. Qarasam, mening oqlangan uyim, darhaqiqat o‘zining rangi bilan yondosh uylardan farqli o‘laroq, bir necha ko‘rksiz, g‘aribona vagonlarni shatakka olgan paravozga o‘xshab qolibdi.

— Ha-ha! Xuddi o‘zi! — deb chuvullashdi bolalar.

Faqat Sodiqqina aftini burishtirib, Unsinga:

— Hoy, dovdir, parovoz ham oq bo‘lar ekanmi? — dedi.

— O‘zing dovdirsan, men misol uchun aytyapman! — dedi Unsin jahli chiqib.

— Rostdan ham qanday chiroyli parovoz, — dedi Sora, ularning bahsiga e’tibor bermay.

Sorani boshqalar ham quvvatlashdi.

— Qiziq, qayoqqa ketyapti, bu parovoz?

— Hech qayoqqa ketayotgani yo‘q, vokzalda turibdi.

— Yo‘q, qayoqqadir ketyapti.

— Hammang jinnisan! — dedi Sodiq norozi ohangda.

Bolalar o‘z xayoliy tasavvurlari zavqiga botib, miriqib kulishardi.

— To‘xtanglar! — dedi Adolat, — rostdan ham Oxun og‘ayning uyi parovozga aylanib, berigi uylar tirkalgan vagonlar bo‘lib qolsa, biz nima qilar edik?

Endi Sodiq ham qo‘shildi ularga:

— Unda men unga tushib olib, ketib qolardim.

— Qayoqqa? — deb so‘rashdi bolalar.

— Qayoqqaligining farqi yo‘q. Maktabi yo‘q yer bo‘lsa, bo‘lgani...

— Jinnisan, — dedi Sora unga.

— Men, — deb qoldi Ermek, — Afrikaga borardim.

— Oho-ho-o! — deyishdi bolalar baravar.

Bittasi hushtak ham chalib yubordi.

— Afrikada aslo qish bo‘lmaydi, — deb davom etdi Ermek, ularning masxaralashiga parvo qilmay. — Odamlar doim yalang‘och yurishadi.

Bolalar yana kulishdi.

— Qasamxo‘r! — dedi Unsin. — Yo‘q, deganda tursi kiyib yurishadi desang!

— Qanday farqi bor? — dedi Ermek.

— Men esa meva-chevalari ko‘p tomonlarga ketardim, — dedi Toshboy.

— Mechkay! — dedi hamma bir ovozdan.

— Sen-chi, sen qayoqqa borar eding? — deb so‘radi Adolat, dugonasi Unsindan.

— Menmi? Men... Men... E, baribir oyim meni hech qayoqqa yubormaydi, — dedi Unsin.

Bunga ham kulishdik.

— Sen o‘zing-chi? — deb so‘radi Unsin.

— Bilasizlarmi, men qayoqqa borardim? — deb Adolat xiyol o‘ylanib turgach. — Bishkekka borardim. Borib o‘zimga shaharlik qizlar kiyadigan liboslardan ko‘plab sotib olib, kun sayin kinoga, teatrga borardim.

— Oh-oh! — dedi Unsin havas bilan.

— Sen-chi, Payiz? — deb so‘rab qolishdi to‘satdan, odamovi Payizdan.

Payiz nima deb javob berishini bilmay, tirjayib, qizarib-bo‘zarib turib qoldi.

— Payiz hech yoqqa ketolmaydi, — deb uning o‘rniga Sodiq javob berdi. — Agar u ketib qolsa, To‘luboy merganning qizi bir umrga ersiz qolmaydimi?

Yana bolalarning umumiy kulgusi yangradi. Payiz darg‘azab bo‘lib, Sodiqqa qo‘l ko‘targan edi, Sodiq vaqtida chap berib qoldi.

— Og‘ay, siz nima qilar edingiz? — deb, so‘rab qoldi Adolat kutilmaganda.

Mening ham nimadir deyishimga to‘g‘ri kelib qoldi.

— Menmi? Men... Men bir kichkinagina yog‘och uychada o‘tirib olib, sizlarga bilet ulashib turardim. Chunki, biletsiz hech kimni poyezdga qo‘yishmaydi-da.

Mening javobimni ham bolalar quvnoq kulgi bilan ma’qullashdi. Shunchaki hazil bilan boshlangan bahs ko‘nglimizni ko‘tarib, ruhiyatimizga ajib bir musaffolik baxsh etdi. Chunki, arzimasdek bo‘lib tuyulgan, mazkur bahslar zamirida ulkan hayotiy mantiq mujassam bo‘ladi.

* * *

Bugun havoning avzoyi buzuq. Kuchli shamol esib, o‘rda o‘ynaladigan maydonda quyunlar raqsi hukmron.

Men beshinchi sinfda, direktorning darsida o‘tiribman. Ertalabdan beri geografiya va tarix fanlaridan o‘tgan ikki darsda ishtirok etdim. Endi, uchinchisi — rus tilidamiz. O‘qituvchilarning bunday ish uslubini “tajriba almashish” deb qo‘yamiz. Ammo, rostini aytsam, direktor ikkimizning “almashadigan” hech vaqoyimiz yo‘q ekan. Menga uning ikkala darsi ham yoqmadi. Geografiya darsida u butun sinfdan: “Sholi nima degani?” deb so‘rab chiqdi. (Sholi — o‘tmishdagi jazo usullaridan biri bo‘lib, tuyaning xom terisidan tayyorlangan “kallapo‘sh” gunohkorning boshiga kiygizib qo‘yilgan. Teri qurib, qotgan sari, mahkumni mudhish azobga giriftor qilgan. 1965-yilgi “Qirg‘izcha-ruscha lug‘at”ning 404-betdagi “kook”, 899-betdagi “sholi”ga qarab, izohga hukm chiqarish sizga

havola, taqsir. Direktorning ushbu savoli oddiygina "sholi", ya'ni oqlanmagan gurunch bo'lishi mumkinligini hech mantiqqa "sig'dirolmadim"...) Sinf bo'yicha bittagina boladan tashqari, "sholi" nimaligini bilmaganlar "ikki bahoga sazovor" bo'lishdi. Bilgan bola esa, shu "beshinchida" ikkinchi yil o'qiyotgan bola bo'lib, o'tgan yili aynan shu savolga javob berolmay, imtihondan yiqilgan ekan. (Keyinchalik, buni menga o'sha bolaning o'zi aytib berdi.) U dars oxirigacha men aytaman deb, qo'l ko'tarib turdi. Yonidagi bolalarning bizga ham aytib qo'ysang, degan yolvorishlariga parvo qilmadi. Nihoyat, direktor undan so'ragach, bola to'g'ri javob berdi. Ammo, direktor "bilganingni boshqalarga aytmaganing uchun" deb, unga ham "ikki" qo'ydi. Buni ko'rgan, "alamzada" bolalarning boshi ko'kka yetgandek bo'ldi. Bunday uslubning mohiyatiga men aslo tushunmadim.

Tarix darsi hammasidan g'aroyib bo'ldi. Direktorning "guldurgup o'yini" degan uslubi bor ekan. Bu uslub ta'limning yo'rig'iga binoan, u taxtani to'ldirib savollarni yozib, so'ngra sinfni ro'yxat bo'yicha chaqira boshladi. O'quvchilar doskaga chiqib, savollar qarshisiga bilgan javoblarini jimgina yozishib, qaytib joyiga o'tirishardi. Har gal chiqqan o'quvchi, o'zidan oldingi chiqqan o'quvchining xatosini tuzatardi. Nihoyat, "guldurgup"dan zerikkan bolalar "yeng ichida" kartani boshlab yuborishdi. O'yinga berilib ketgan bittasi, kutilmaganda: "Dama!" deb qichqirib yubordi. Bu qichqiriq "guldurgup o'yini"ning qoidasini buzdi. Direktor doskaga Payizni chiqarib, unga javobni yozmasdan, og'zaki ayta qolishini so'radi. (Chamasi, o'zi ham "guldurgup"dan bezgandi.) Payiz yolchitib javob berolmagach, direktor doskaga Sodiqni chaqirdi. Sodiq chiqib, yaxshi javob bergach, direktor unga baho qo'yib bo'lib, "Qani, endi, Sodiq mana buning yuziga tarsaki tushir" deb, Payizga ishora qildi. Buyruq sinfga ham yoqa tushdi — o'quvchilar barala kulishib, buyruqning ijrosini kuta boshlashdi. Biroq, Sodiq, "og'ay" deb ikkilanib, yuragi dov bermasdi. "Ur! Ur!" deb qiyqirdi direktor. Bolalar ham uning buyrug'ini takrorlashardi. Bechora Payiz, bu uning hamishalik qismati bo'lsa kerak, taqdirga tan berib, ikki ko'zini lo'q qilib tura berdi. Faqat, bir martagina iltijo bilan menga qarab oldi. Men ojizona boshimni quyi soldim. Bu orada

“tars!” etgan ovoz eshitilib, gurra kulgi ko‘tarildi. Qarasam, Payiz chap yuzini siypalaganicha, alamli nigohini deraza tomonga o‘girdi. Derazaning nariyog‘ida esa, shamol uvullab, o‘rda o‘ynaladigan maydonda hamon quyunning raqsi davom etardi…

— Abdusamatov! — deb qichqirdi direktor.

— Qaysi birimiz, og‘ay? — deb so‘radi bir o‘quvchi.

— Sen emas, Qo‘ychumon, chiq!

Doskaga chorpahi, sap-sariq bola chiqdi.

— Gde ti stoish?! — deb o‘dag‘ayladi direktor unga.

Qo‘ychumon ruscha savolga tushunmay, o‘rtoqlariga mo‘ltilladi.

— Doskaga yaqinroq tur, deyapti, — deb tarjima qilib berdi bir bola.

Qo‘ychumon doska tomonga bir qadam jildi-da, burnini shilqillatib tortib olgach, savolni ham kutmasdan boshlab yubordi:

— Beleyet parus odinokiy

V tumane morya golubom.

Chto ishet… Chto ishet…

deb borib, duduqlanib turib qoldi. Direktor unga g‘azabnok tikilib, menga ham bir yonaki qarash qilib qo‘ydi…

Avvalgi ikki darsini picha muhokama qilganimizda, men salbiy baho bergan edim. O‘zi: “Xolis gapiraver, hamisha dangalchi bo‘lishimiz kerak”, dedi. Ehtimol, mendan maqtov kutgandir? Uning darslarini hamisha maqtasharkan. Rayondagi yig‘inlarda ham uni namuna qilib ko‘rsatisharmish. Murabbiylik qilgan yillari chindan ham ibratga arziydi. Yigirma to‘rt yillik umri maktabda o‘tgan. Shundanmi, mening ters bahoyim og‘ir botib, hazilakam “irg‘ishlamadi”. Bizning munozaramizni eshitib turgan boshqa muallimlar ham o‘zlaricha o‘ng‘aysizlanib mo‘tabar kimsaning oldida men uchun xijolat chekishayotgandek edilar…

— Dumay, dumay, — dedi direktor Qo‘ychumonga. Darsi ruscha-qirg‘izcha aralash olaquroq edi. Begona kimsa bo‘lmasa, darsni qirg‘iz tilidayoq “qoyilmaqom” qilib qo‘yadigan siyohi bor. Qo‘ychumon izlaganini topmay, madad kutib, sinfga javdirardi. O‘rtoqlaridan biri unga shiftni imo qilib qo‘ydi. U darrov shiftga qaradi. Shiftning vassajuftlari enli-enli taxtalardan iborat edi. Qa-

rasam, har bir taxtaning yuzasi qalam, siyoh va bo‘r bilan turli fanlarga taalluqli tayyor “shpargalka”ning o‘zginasi bitilgan ekan.

Qo‘ychumon “shpargalka”ni xiylagacha hijjalab, o‘qib turib, nihoyat:

— V glu-ibi-nu si-bir-skix rud ... deb entikib, qiroatini keltirib o‘qib berdi.

— Nima deb aljirayapsan?! — deb qichqirdi direktor fig‘oni falakka chiqib.

Men bostirib kelayotgan dahshatli kulgidan qo‘rqib, deraza tomonga burilib, shaytonga hay berdim. Tangrim qo‘llab, bu fojeiy vaziyatga qo‘ng‘iroq ovozi nuqta qo‘ydi. Men darrov eshikka shoshildim.

Yo‘lakka chiqsam, Payiz Sodiqning ikki qulog‘idan mahkam ushlab, bechorani devor suzdirtib, boyagi tarsakining hisob-kitobini qilayotgan ekan.

Men po‘pisa ohangida — “Hoy bola!!” deb qasoskorni shashtidan tushirdim. Payiz Sodiqni qo‘yib yuborib nari ketdi. Men o‘qituvchilar xonasiga kirdim. U yerda o‘tirishgan hamkasblarimning suhbati chortang, kulgi avjida edi. Kirishim bilan, suhbatga “darz ketdi”. Kaminaga qadalgan nigohlarida ilgarigi samimiyat o‘rniga sirli bir ifoda zuhur etardi. Bu men uchun jumboq edi.

— Ishqilib, tinchlikmi? — dedim ularga.

— Ha, shunchaki, o‘tgan bir hangoma tufayli kulishib o‘tiribmiz, — deb qo‘ydi ilmiy mudir.

Shu asnoda direktor kirib keldi.

— Xo‘-o‘-o‘sh, Oxun, — dedi u soxta samimiyat bilan. — Endi bu darsimga nima deysan?

Mening nimagadir g‘ayirligim keldi. Nimaligini o‘zim ham bilmayman.

— Bu safar ham boyagi-boyagi, Toshmat aka, — dedim. — O‘quvchilar darsingizni bilishmaydi.

Direktor jonli haykalga aylandi go‘yo, bir qizarib-bir bo‘zarib barchani nigohi bilan kuzatib chiqdi. Hech kimning tili kalimaga kelmasdi. Xayriyat mudir:

— Dars boshlandi, o‘rtoqlar, hamma darsga, — deb, jonimizga aro kirdi.

O‘qituvchilar jurnallarini olib xonani tark etishdi. Direktor ikkimiz yolg‘iz qoldik. O‘rtaga noqulay jimlik cho‘kdi.

Nihoyat, jimlikni direktor buzdi:

— Unda, nima qil deysan menga?

— Bilmadim. Men o‘quvchilarga achinaman. Ularga uvol...

— Uvol bo‘lsa, men o‘qituvchilikka nuqta qo‘yaymi?!

— Bu sizning ishingiz.

— Hoy, bola! Bilasanmi, men qancha yildan beri shu kasbda ishlab kelyapman?! Yigirma to‘rt yildan beri!

Direktorning ko‘zlari chanog‘idan chiqib, g‘azabdan tili kalimaga kelmasdi. Mening ahvolim ham unikidan kam emasdi. Bu turishimizning oxiri xosiyatsiz edi. Men darsni bahona qilib, tashqariga yo‘naldim.

Yo‘lakda Roqiyaga duch keldim.

— Oxun, — dedi u mening ruhiyatimga e’tibor bermay. — Yangilikni eshitdingizmi?

— Qanday yangilik?

— To‘luboy merganning qizi homilador bo‘lib qolibdi.

U menga sinovchan tikilib turardi.

— Qiziq yangilik ekan, — dedim men, beparvo jilmayib. — Bolaning otasi kim ekan?

— Otasi savalasa ham, qizi aytmayotgan emish.

— Yoshlik-da, — dedim men hazil aralash.

— Lekin o‘qituvchilarning ko‘pchiligi sizdan shubha qilishyapti, — dedi u... Ko‘zlari esa, hamon sinovchan tikilib turardi.

Menga hamma narsa endi ravshan bo‘lgandi. Haligi, xonadagi kulgilarning ildizi ham shu yoqda ekan-da...

— Shunaqami? Bu tuhmat! — dedim. Alamli g‘azabdan tomog‘im bo‘g‘ilib, boshqa so‘zga kelolmay, jadal yurib ketdim.

* * *

Shu ketgancha uyimga borib, tappa tashlab, kun botarda tashqariga chiqdim. Tashqarida tuman tushib, hafsalasizlik bilan qor elamoqda. Unda-bunda bitta-yarimta kimsaning arvohdek sharpasi elas-elas ko‘rinib qoladi. Qishloqqa vazmin sukunat cho‘kkandi.

Men choy, qand uchun magazinga bordim. Magazinda Sodiq, direktor va mergan bor ekan. Magazinchi peshtaxta ortida, bir qo'lini iyagiga tirab bir qo'lida tishini kovlardi. Mergan bilan direktor bochkalar ustiga joylashib, o'rtaga bir shisha aroqni qo'yib olishgandi. Mergan mast shekilli, xuddi yosh boladek ming'irlab yig'lardi. Direktor aftidan mast emas, merganni koyib, nimalarnidir qulog'iga quyardi. Bu manzara meni hushyor torttirdi.

Baribir salom berish lozim: — Assalomu alaykum, — dedim omonatgina.

Hech kimdan sado chiqmadi. Mergan boshini ko'tarib:

— Haromining bolasi, — dedi, lablari titrab. — Seni tuppa-tuzuk odam ekan deb, kun ora, hafta sayin uyimga chorlab, topganimni oldingga qo'yib, siylab yursam, oqibating shumi, qariganimda elga sharmanda qilding. Uv-uv-uv... — Merganning yig'isi avvalgidan battar avjiga chiqdi.

Hamma narsa oldindan ma'lum bo'lgani uchun, "mushuk-sichqon" o'ynashning hojati yo'q edi.

— To'luboy aka, bu ishga mening hech qanday aloqam yo'q, — dedim jahlimni yutib.

— Aloqang bor! — deb qichqirdi mergan. — Sendan boshqa hech kim mening uyimga borgan emas!

Bu so'ziga men javob qaytarmadim.

— Oxun, — deb oraga suqildi direktor, — sen bilimli muallimsan, men esa bilimsizman. Sen bolalarga ko'proq bilim berasan, men esa ozroq. Biroq ikkalamiz ham pedagog degan nomga egamiz. Shundaymi? Shunday? Endi o'zing ayt-chi, sen qilgan ish taqdirlashga munosibmi?

"Johil" deb qo'ydim ichimda.

— Buni men qilganim yo'q.

— Seni jazolashimiz kerak.

— Kim?

— Direktor, o'zingga ma'lum — men direktorman. Men seni jazolayman. Jazong shu — bu kecha Pomirda tunaysan. Ertaga e-erta turib, jomadoningni ko'tarib, qorangni o'chirasan.

Bunisi suyagimdan o'tib ketdi.

— Mayli! — dedim, alam bilan qat'iy. — Men ketaman! Ammo...

— Yo'q! — deb qichqirdi mergan, mening so'zimni bo'lib, — bu jazo kamlik qiladi, Toshmat. Shuyam jazomi?! Mening qizimni homilador qilib qo'yib, meni butun Pomirga sharmanda qilib, silliqqina keta beradimi? Bunisi ketmaydi, sadag'ang ketaylar. Bu bola... uylanishi kerak mening qizimga!

— Mana bu — ayni haqiqat! — dedi hanuzgacha tishini kovlab, mum tishlab o'tirgan magazinchi. — O'shanda six ham kuymaydi, kabob ham.

— To'luboy, xotiring jam bo'lsin, sening qizingga kuyov topiladi, — dedi direktor. — Pomirlik yigitlarning bu kelgindidan o'lsa, o'ligi ortiq. Bu ketaversin.

Ha, xom sut emgan banda-ya!.. Ayni damda, menga eng alamli joyi — bu johil, chalasavod "murabbiyning" nega bunchalar jon kuydirib, Pomirning izzat-nafsini, g'ururini himoya qilayotgani, alamzada ota bilan, gumroh magazinchining yetti uxlasa ham tushiga kirmasdi. Direktor uchun, o'sha qizning or-nomusi emas, fursat g'animatda mendan o'ch olish, "shakkok", "g'ayripomir" bir kelgindining dumini tugish edi.

— Yo'q, Toshmat, bu uylanadi mening qizimga, — dedi mergan. U o'rnidan turib, men tomon yurdi. — Hoy, bola, sen uylanasan mening qizimga. Yo'qsa... — mergan giribonimdan olib, silkita boshladi, — seni o'zim jazolayman. Men seni xuddi Pomirning chiyabo'risini otganday, otib tashlayman!

— Oh-ho! — dedi shu damda, sirtdan kirib kelgan birov. Magazinning ichi qorong'ilashib qolganidan, kelgan kimsani darrov taniy olmadim. Uning ustida og'ir po'stin, tumog'ini bostirib kiyib olgandi. O'zi qorboboga o'xshab qolibdi. Men tugul, berigilar ham taniy olishmadi.

— Chirog'ingni yoq-chi, Turat aka! — dedi sabrsizlik bilan.

— Iya, Mamanmisan? — dedi magazinchi uni tanib. — Hozir, hozir... uka...

Mamanning kutilmagan tashrifi hammamiz uchun Ollohning inoyatiday bir gap edi. Mening ko'zimga esa, xuddi Iso Masihdek

bo‘lib ko‘rindi. Deputat engil-boshidagi qorlarni qoqdi. Chiroq yonib, ko‘z-ko‘zga tushgach:

— Qani, bu yerda kim kimni otmoqchi? — dedi hazil aralash. So‘ng hammamiz bilan jimgina qo‘l olishib chiqdi.

— E-e, uka, bizda falokat yuz berdi, — deb direktor otini qamchilab qoldi. — Oxun manavi sho‘rpeshananing qizini bo‘g‘oz qilib qo‘yibdi.

Deputat keskin burilib, menga hayrat bilan tikilib qoldi. Men birinchi bo‘lib uning gapirishini kutdim.

Direktorning so‘ziga laqqa tushgan deputat: — Biz sendan buni kutmagandik-ku, Oxun? — dedi barmog‘i bilan ko‘kragimga niqtab.

— Yolg‘on aytsam, yigit o‘layin, — dedim men, ishonarli chiqsin uchun, vazmin ohangda, — bolaning otasi men emasman.

O‘zimni oqlash uchun, qasam ichib, bularning oldida tuban ketib o‘tirganimdan o‘zimdan o‘zim nafratlandim. Lekin, busiz iloji ham yo‘q edi. Chunki ish chappasiga aylanib borayotgandi.

Deputat menga uzoq sinovchan tikilib turib, keyin ular tomonga burildi.

— Sen tonib ketaman deb o‘ylama, Oxun, — deb, yana boshladi direktor. — Undan ko‘ra, “Og‘aynilar, yoshlik qildim, shayton yo‘ldan urib, qizning boshini aylantiribman”, desang mana, Maman ham kelib qoldi, ko‘plashib bir chorasini topamiz. Eng osoni unga uylanib, hammani, jumladan, o‘zingni ham isnod botqog‘idan asrab qol. To‘g‘rimi, Maman?

Direktor so‘zini tugatguncha deputatning ko‘zidan ko‘zini uzmadi.

— Shoshmanglar-chi, — dedi deputat. — Menimcha, sizlar uni shunchaki gumon qilayotganga o‘xshaysizlar. Qiz o‘zi nima deydi?

— Juvonmarg, menga hech narsani aytmayapti, — dedi mergan, boyagidan xiyla shashtidan tushib. — Urdim, so‘kdim, qo‘rqitdim, natija chiqmadi.

— Unday bo‘lsa, bu mojaroni o‘rtoqlik sudida qilni qirq yorib, batafsil tekshirib, keyin hukm chiqaramiz. Oxun, sen qo‘rqma, sudning raisi o‘zimman. Oq bo‘lsang — oq, qora bo‘lsang — qora,

adolatli tarzda hal qilaman. Agar bola boshqadan bo'lsa, da'vogarlaringning soqoliga o't qo'yaman. Agar aksincha bo'lsa, bacha, mendan o'pkalama! Ha, shunday.

— Nima deysan?..

— Men hozir tuman markaziga shoshib turibman. Ertaga majlis bo'larkan. Xudo xohlasa, indinga, o'n ikkilarga kelib qolaman. O'shangacha qishloqdagilarni o'rtoqlik sudiga taxt qilib qo'yinglar. Uqdingizmi?

— Uqdik.

— To'luboy aka, siz qizingizni olib kelasiz, men o'zim so'roq qilaman. — Mergan bosh silkib, rozilik bildirdi. — Shunday bo'lsin. Turot aka, raisni ko'rmadingizmi?

— Hayronman. Boya Murg'obga boraman, deb yuruvdi.

— Murg'obga ikkalamiz bormoqchimiz. Mening kelishimga mashina tayyorlab qo'ymoqchiydi. Yaxshisi, uning uyiga borib ko'ray-chi...

Deputat chiqib ketdi. Magazinda yana to'rtovlon qolib, oraga noqulay jimlik cho'kdi. Nihoyat, men ham eshikka yuzlandim. Eshikka chiqqach, choy va qand uchun kelganligimni esladim. Biroq qaytib kirmadim.

Tashqarida hamon qor yog'moqda. Hech kimsa ko'rinmaydi. Mutlaq jimjitlik. Faqat o'rda otiladigan maydonda Mamanning qo'tosi turardi.

Maktabning oldidan o'tib ketayotsam, maktab muzeyining chirog'i yonib turibdi. Ho'v, mergan maqtagan muzey-da. Tan berish kerak — maqtovga loyiq muzey. Har qanday viloyatlardagi muzeylardan qolishmaydi. Derazasidan qarasam, oq xalatda, bir kiyikning tulumiga xas-xashak tiqayotgan mudir ko'rindi. Xiyol o'ylanib turib, uning oldiga kirib bordim.

Bu muzeyda Pomir hayvonot dunyosining jamiki namunalari, tosh-u tuprog'i, o'simliklarning alvon nusxalari mavjud. Qisqasi, bu mittigina Pomir chinakam muzey. Muzeyni muzey qilganlar esa, darhaqiqat, To'luboy mergan bilan Mamit aka. Biri tog'-u toshdan otib, termalab, qazib olib kelsa, ikkinchisi qoyilmaqom qilib, eksponat yasaydi. Ikkalasining mehnati ham beminnat, ixtiyoriy. Albatta, muzey Mamit akaga — ayni muddao: u zoologiya, bota-

nikadan dars beradi, To‘luboy mergannikini esa haqiqiy fidoyilik deyish mumkin. Koshki edi, mehnatiga maktab sariq chaqa to‘lab qo‘ysa?! Rosti gap do‘ppisi tor kelib qolgan paytlarda, Mamit aka o‘z hisobidan besh-o‘n so‘m pul, ba’zan araq quyib beradi, xolos. Bo‘lgani shu — vassalom. Ikkisini maqtab, rahmat degan biror kimsa yo‘q. Bular ham birovdan tama qilmaydi. Men muzeyga kirib, zich qo‘yilgan eksponatlar oralab o‘tib, Mamit akaning yoniga bordim.

— Assalomu alaykum, Mamit aka.

— E-e, senmisan, Oxun, — dedi Mamit aka jilmayib, — kel, o‘tir.

Men Mamit aka ko‘rsatgan eski yashik ustiga o‘tirdim.

— Sen otgan kiyik, — dedi Mamit aka, yasayotgan tulumini ko‘rsatib. — Chiroyli taka otibsan.

Qarasam, rostdan ham o‘sha taka ekan.

— Mamit aka, To‘luboy merganning qizi haqidagi mish-mishlarni eshitdingizmi? — deb so‘radim undan.

— Eshitdim, — dedi u.

Yana biror narsa dermikin desam, indamadi.

— Bu ishga mening zarracha aloqam yo‘q, — dedim uning diliga qo‘l solib ko‘rish uchun.

— Aloqang yo‘q bo‘lsa, yo‘q-da, — dedi u. — Sen sabr qilib tur. Ertami-kechmi, haqiqat yuzaga chiqadi. Mening bittasidan shubham bor.

— Kimdan?

Mamit aka qiynalib, anchadan keyin aytdi.

— Payizdan.

— Mening ham! — dedim deyarli qichqirib. — O‘sha bolaning oyoq olishidan gumonim bor edi-yu, lekin o‘z o‘quvchim haqida yomon o‘yga borishga istihola qildim.

— Qorasoch bilan Payizning munosabatlarini ko‘pdan bilaman. Ikkalasi maktabga birga kirishib, oltinchi sinfgacha bir partada o‘tirishdi. Oltinchi sinfdan Payiz aynidi, nochor o‘qib, sinfdan sinfga ko‘chmaydigan bo‘lib, o‘tgan yildan umuman o‘qimay qo‘ydi. Qorasoch esa o‘ninchini bitirib ketdi. Ammo, ular hali ham bir-birini yaxshi ko‘rishadi. Payizning o‘ziga qolsa, bugunoq maktabni tash-

lab, Qorasochga uylanib olardi. Menimchayam, shunisi tuzuk edi. Ko‘rib turibsan, u qariguncha o‘qisa ham, hech narsa chiqmaydi. Undan ko‘ra, oila qurib, xo‘jalikning bir koriga yaragani yaxshi.

— Shundoq ekan, uni maktabdan chiqarib yuborsak bo‘lmaydimi?

— Bu Mamanning istagi. Eplab, sakkizni tugatib bersangizlar, texnikumga kirgizib qo‘yaman, deydi. Uning yuzidan o‘ta olmay, sudrab yuribmiz.

Ikkalamiz ham xiyla jim qoldik.

— Shunday... — dedi mudir, — mening shubham shu boladan.

Men ketishga chog‘lanib:

— Xo‘p, xayr, — deb eshik tomon yurdim.

— Xotirjam bo‘laver, uka, buning tagiga yetmay qo‘ymaymiz.

Men uyimga kelib, chiroqni yoqdim. Pechkaning o‘ti o‘chib, uy ichi muzdekkina bo‘lib qolgan ekan, o‘t yoqdim. Hademay, sovuqdan huvullagan kulbamga fayz kirib, badanimga huzurbaxsh iliqlik yugurdi. Deputat bilan mudirning odamshavandaligi, bezovta ruhimga iliqlik olib kirgandi. Biroq, shunday bo‘lsa ham, ko‘nglimdagi g‘ubor to‘liq arimay, yolg‘izlik hissi qiynab, dilimni mavhum bir sog‘inch ezib, xayolim parishon edi. Zang bosgan eski karavotimni g‘ijirlatib, lopillab yog‘ayotgan laylakqorga derazam osha tikilib uzoq yotdim. Axiri yotishdan bezib, pechkaning oldiga kelib, mung‘ayib o‘tirsam, nogahon ko‘zim burchakdagi bir shisha araqqa tushib qoldi. Bu Merganning dasturxoniga atab olingan matoh edi. Sizga ilgari ham aytgan bo‘lsam kerak, merganning uyiga hech quruq qo‘l bilan bormasdim. Sababi, mergan meni ovga taklif qilganda, hamisha bir shisha shu “zormandaga” sha’ma qilib turardi.

Men araqni ko‘rib, xoh ishoning, xoh ishonmang sevinib ketdim. Hargiz yolg‘iz ichmagan jonim, shahd bilan borib, bir chog‘roq piyolaga to‘ldirib quydim-da, bir ko‘tarishda sipqordim. Go‘yo ichim yondi-yu, og‘zimdan tutuni chiqdi! Och qoringa darrov oldi. Bir zumda binoyidek mast bo‘lib qoldim. Biroq, yuragimdagi asorat hamon turardi. To‘satdan bir yaxshi ulfat bilan yoki bir dilbar ayol zoti bo‘lsa, o‘sha bilan hislarimga erk berishni qo‘msab qoldim. Mo‘jiza — kutilmaganda komendantning

qizi yodimga tushdi! Darhol unga maktub yoza boshladim. Xatim taxminan quyidagicha boshlangan edi: "Oydinim, men seni behad sog'indim. Ushbu xat qo'lingga tegar zahoti, yo'lga otlan. Yostig'imiz bitta bo'ladi", degan mazmundaydi.

Xatni konvertga solib, manzilini yozib o'tirsam, Payiz kirib keldi. Mening bor vujudim xatda bo'lib, Payiz bilan merganning qizi xususida bir og'iz so'z ham demabman. Aksincha, salom-alikni ham unutib, uning qo'liga konvertni tutqazib: — Ma! Pochtachiga borib ayt, xatni bugun kechasiyoq jo'natsin!

— Og'ay, mening sizda ikki og'iz gapim bor edi, — dedi Payiz.

— Keyin! Keyin gaplashamiz! Hozir chop! — deb qichqirdim men.

— Pochtachi bugun kechasi jo'nata olmaydi, — dedi Payiz. — Undan ko'ra, hozir Maman tog'am rayonga jo'nayapti, o'shandan berib yuboraymi?

— Berib yubor! — dedim.

Payiz chopib chiqib ketdi.

* * *

Ikki kundan keyin, dam olish kuni o'quvchilarning daftarini tekshirib o'tirsam, beshinchida o'qiydigan Qo'ychumon degan bola halloslab kirib kelib:

— Og'ay, Maman aka keldi, sizni kelsin, o'rtoqlik sudini boshlaymiz deyapti, — dedi.

Qishloq ahli ertalabdan beri mening ustimdan bo'ladigan ushbu sudni sabrsizlik bilan kutishardi. Men sudning xotimasidan qo'rqmasdim, albatta. Lekin "o'rtoqlik sudi" degan ushbu tomoshadagi "bosh qahramonning roli" boshimni qotirardi... Nachora, kiyinib olib yo'lga tushdim.

O'rda otiladigan maydonda tanish qora "Volga" turibdi. Uni o'quvchilar-u hangomatalablar o'rab olibdi. Deputatning yonida turgan direktor meni ko'rib:

— Qani, hamma klubga! — deb xitob qildi.

To'planganlar yoppasiga klubga tomon oqdi. Voqeadan bexabar kimsa bularning chehrasidagi shodlik va quvonch alomatlarini ko'rib, klubda o'rtoqlik sudi emas, noyob tomosha bor ekan deb

o‘ylashi shubhasiz edi. Bularga ham qiyin — bir qolipdagi, zerikarli hayotning psixologiyasi edi bu!

— Yosh bolalarga nima bor bu yerda?! — dedim jahlim chiqib, klubga birinchi bo‘lib kirib ketayotgan o‘quvchilarni ko‘rib.

— Bizning o‘rtoqlik sudimizga, hamma birdek ishtirok etadi, — dedi direktor.

— Qo‘rqma, — dedi deputat kulib yelkamga qoqib. — Oq bo‘lsang — oqqa, qora bo‘lsang — qoraga hukm chiqaraman.

Deputatimning ushbu so‘zlari bu gal menga yoqmadi, aksincha, jig‘imga tegdi. Tomoshaga rejissorlik mavqeyi shu insonning qo‘lida edi.

— Usenboy! — deb qichqirdi Maman qora “Volga”ning haydovchisiga. — Endi sen ketaver.

— Qo‘ya tur, bacha, - dedi Esonboy “Volga”sining eshigini yopib. — Sizlarning tomoshangizni ko‘rib ketayin. Bunaqasi bizda ham kam bo‘ladi.

— Ha mayli, ko‘ra qol, — dedi Maman. — Borgach, boshqalarga hikoya qilib berarsan.

Men klubga oxirgi bo‘lib kirdim. Klubning ichida igna tashlasang, yerga tushmaydi. Kelganimdan beri bu klubda besh-olti marta kino ko‘rsatildi, bir marta xo‘jalik majlisi bo‘ldi, lekin unda bunchalik el to‘planmagandi. Kirishim bilan hamma go‘yo meni birinchi marta ko‘rayotgandek, qarab qolishdi. Men jimgina borib, oldingi qatordagi o‘rindiqdan bir o‘quvchini turg‘izib, o‘rniga o‘tirdim.

— Oxun, sening joying bu yoqda, — deb qoldi Maman.

Prezidiumda undan boshqa yana ikki kishi — direktor bilan mudir bor edi. Direktor menga old tomondagi, o‘zining ro‘parasiga qo‘yilgan yolg‘iz kursini ko‘rsatdi. Men g‘ijinib borib o‘sha kursiga o‘tirdim. Endi orqa tomonimdan butun zal, ro‘paramda hay’at a’zolari. Deputat o‘rnidan turib, stoldagi qo‘ng‘iroqni olib, zalni tartibga chaqirdi. G‘ala-g‘ovur bosilgach, qo‘ng‘iroqni qo‘yib, grafindan stakanga suv quyib bir ho‘plam ichdi-da:

— O‘rtoqlar! — deb zalga murojaat qildi. — O‘zingizga ma’lum, o‘tgan yildan beri bizda o‘rtoqlik sudi bo‘lgani yo‘q. Biroq, bunga men aybdor emasman. Sud bo‘lishi uchun unga dalil kerak, bizga esa shu kungacha da’vo tushgani yo‘q.

Maman so‘zdan to‘xtab, yana grafinga qo‘l cho‘zdi. Men derazaga qaradim. Derazadan o‘rda maydoni ko‘rindi. Maydonda to‘qim urilgan Mamanning qo‘tosi bilan qora “Volga”dan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi. Qo‘tos “mudrab yotgan” qora “Volga”ning “ko‘zoynagi”ni betinim yalardi.

— Mana, o‘rtoqlar, endi bizga ariza tushdi, — dedi o‘rtoqlik sudining raisi. — Bugun biz o‘qituvchi Matxoliqov Oxunning ishini ko‘ramiz. — Deputat men tomonga bir qarab oldi. Zaldagilar ham menga qarab, shivir-shivir boshlandi. — O‘rtoqlar, jim! — Deputat qo‘ng‘iroqni yana jiringlatib qo‘ydi. — Endi, o‘rtoqlar, sudimizning navbatdagi majlisini ochiq deb e’lon qilaman! — Maman bosh bo‘lib zaldagilar bir sidra qarsak chalib qo‘yishdi. Sud raisi joyiga o‘tirib, yana suvdan bir ho‘plab, ikki yonidagi maslahatchilari bilan shivirlashib oldi. — Qani, o‘rtoq Matxoliqov, o‘rningizdan turing-chi, — deb menga “siz” deya murojaat qildi.

— G‘o‘ddayib turishim shartmi?! — dedim men.

— Ha, — dedi rais. — Qoidasi shunaqa. — Men o‘rnimdan turdim. — O‘rtoq kotib aybnomani o‘qib eshittiring.

Kotib maktab direktori edi. U o‘rnidan turib, tomoq qirib, qog‘ozni qo‘liga oldi. Ayni shu pallada zaldan:

— To‘xtang! — degan xitob eshitilib, kotibga xalal berdi.

Bu To‘luboy merganning qizi edi. Ko‘p yig‘laganidan bo‘lsa kerak, qovoqlari shishib ketibdi. Qiz o‘rnidan turib, zaldan kimnidir axtara boshladi.

— Payiz! — deb qichqirdi u. — Ayt endi! Turmaysanmi, Payiz?!

Hammaning hayratli nigohi qizda, o‘zaro shivir-shivir boshlandi.

— Ana, aytganim to‘g‘ri keldimi?! — dedi Sodiq atrofidagi sinfdoshlariga.

— E-e, tinchlaninglar! — deb qichqirdi direktor. — To‘luboyning qizi, sen tartibni buzmay joyingga o‘tir! Bu yerga biz senga qayishib kelib o‘tiribmiz.

— Toshmat aka, qo‘ya turing-chi, — dedi Maman bir narsani sezganday. — Qorasoch, Payizga nega unaqa deyapsan? Payiz nimani aytishi kerak?

— Maman aka... — dedi qiz, yig‘lamsirab, — Oxun og‘ayda hech qanday ayb yo‘q...

Xudoga shukur, dedim ichimda. Zalda g‘ala-g‘ovur boshlanib, bari menga qarab qolishdi. Aslida shunday bo‘lishini ko‘nglim sezib turardi. Maman menga qarab olib, yana Qorasochga yuzlandi:

— Unda kim aybdor?! — deb so‘radi.

Qiz unga javob bermasdan, yana zalga qarab:

— Payiz! Sen o‘zim aytaman degan eding-ku?! — deb qichqirdi.

Shu mahal zalning oxiridagi burchakdan Payiz otilib chiqib, o‘zini eshikka urdi. Hamma uning ortidan qarab qolaverdi.

— Shumidi?! — deb qichqirdi mergan qizining yoniga yugurib kelib. Qiz javob berish o‘rniga yig‘lab yubordi-da, asta joyiga cho‘kdi. — Ayt, yash-sh-shamagur! — mergan qizining sochidan burab tortdi. Qorasoch boshini sarak-sarak qilib tasdiq ishorasini qildi. Mergan nes bo‘lib turib qoldi. Xaloyiq esa biri olib-biri qo‘yib klubni boshiga ko‘tarishardi. Payizning sha’niga kulgi aralash latifa, kesatik “bolalay” boshladi. “Tomosha”da mening “rolim” tugagan edi! Ko‘zlarim Mamanning ayanchli nigohi bilan to‘qnashdi. U ko‘zini olib qochib, o‘rnidan turdi-da, qo‘ng‘irog‘ini ishga soldi. Shovqin-suronning dami kesildi.

— O‘rtoqlar, o‘rtoqlik sudining navbatdagi majlisini yopiq deb e’lon qilaman. O‘qituvchilardan boshqa hammaga ruxsat, To‘luboy aka, siz qizingiz bilan qoling.

Hangomatalablar g‘ala-g‘ovur, tapir-tupur qilishib, to‘da-to‘da bo‘lib chiqib ketishdi. So‘nggi so‘z Mamanda qolgandi! U uzoq sukutdan so‘ng nihoyat tilga kirdi:

— Men Payizni yolg‘iz opamning bolasi deb o‘qitib, odam qilayin degan niyatda edim, — dedi u. — Bo‘lmadi. U o‘qib bo‘ldi. Endi uni menga bering, og‘aylar. Endi uni o‘zim o‘qitaman. To‘luboy aka! Siz ko‘p koyimang. Bo‘lar ish bo‘ldi. Nachora, ikkovi ham ahmoqlik qilishibdi. Endi ularning boshini qovushtirib qo‘yaylik. Yo‘q demasangiz, men bularni o‘zim bilan olib ketaman. Nima deysiz?

— To‘y-po‘ysiz, quruqqinami? — dedi mergan. U oriyat uchun shunday degani bilan ishning bu tarzda silliq ko‘chganidan, ichida quvonchda ekanligi sezilib turardi.

— To‘yni, xudo xohlasa, bahorda qilamiz, — dedi Maman. — Hozir qish, ish qizg‘in. To‘y qilishga mening ham imkoniyatim yo‘q, to‘y-to‘ylashga elning ham fursati yo‘q. Yaxshi bo‘ldi, bir qo‘ra qo‘yga cho‘pon yetishmayovtuvdi. Qorasoch! Bor singlim, Payizni topib, olib kel. Qo‘rqmay kelaversin, urmayman.

Qorasoch otasiga bir qarab olib, shaxdam yurib tashqariga chiqib ketdi.

— Oxun, — dedi deputat, — bacha, kechir bizni, seni behuda gunohkor qilibmiz. Toshmat aka, soqolingizni bittalab yulsa bo‘lardi-yu, yoshingizni hurmat qilaman-da.

— E-e, manavi-da, — deb aybni merganga ag‘dardi direktor.

— Imoningni yutma! — dedi mergan. — Men boshdayoq Oxundan zarracha shubha qilgan emasman. Bo‘lgani, senga dardimni yorgandim, xolos. Sen darrov: “Bu Oxunning ishi! O‘shani mahkam ushla!” deding.

— O‘tgan ishga salavot, — dedi Maman, o‘rnidan turib. — Endi, og‘aynilar, ketaylik. Men ham uyimga barvaqt yetib olay...

Hammamiz tashqariga chiqdik. Odamlar hali ketishmagan ekan. To‘da-to‘da bo‘lib olishib, bugungi bosh mavzuni muhokama qilishardi. Qora “Volga” ketib, qo‘tos bir o‘zi qolibdi. Maman qo‘tosning to‘qim-terligini o‘nglab, ayilini tortib, shay qilib qo‘ydi. Bu orada Payiz bilan Qorasoch kelib bir chetda shumshayib turib qoldilar. Ularni ko‘rgan el yana “g‘imirlab” qolishdi.

— Balo ekansan, Payiz! — dedi bir yigit.

— Sen, bacha, suyunaver endi. Bizdan kaltak yeyishdan qutulding, — dedi sinfdoshi Sodiq. — Eh, sening o‘rningda men bo‘lib qolsam-chi!

— Esh-shak! — dedi Maman Payizga g‘ijinib. — O‘qib odam bo‘lar desa, buning hunarini ko‘r... Mana, ushla buni! — Maman unga qo‘tosning jilovini uzatdi. Payiz kutilmagan mushtdan xavfsirab, jilovga qo‘lini cho‘zdi.

— Kel, min, — deb Maman Qorasochni qo‘ltiqdan olib, qo‘tosga mingiza boshladi.

— Kiyim-kechagimni olsam bo‘lardi... — deb ikkilandi qiz.

— Kiyim-kechagingni ortingdan berib yuborishadi, — dedi Maman. — Hoy, To‘luboy aka, qizingizni qaqir-ququrlarini tanishlar orqali berib yuboring.

— Berib yuboraman, berib yuboraman, — dedi mergan. — Boraver, qizim.

— Jo‘na! — dedi Maman Payizga.

Payiz qo‘tosni yetaklab yo‘lga tushdi.

— Qani, shu ikki yoshga fotiha berib qo‘yaylik, — dedi mergan qo‘lini duoga ko‘tarib. — Iloho, qo‘sha qaringlar, etagingiz bolaga, og‘ilingiz molga to‘lsin. Ollohu akbar.

— Ollohu akbar! — dedi hamma, kimdir yurakdan chiqarib, kimdir til uchida.

— Lalaygan sho‘rpeshana, — dedi Maman merganga qarab, — shu bitta qizini ham eplay olmadi.

— Unaqa dema, Maman! — dedi mergan. — Sal o‘ylab gapir. Gunoh faqat mening qizimdami?

— G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi.

Hamma kulib yubordi. Ayniqsa, bolalarga xudo berdi.

— Bolalar eshitdinglarmi? — deb qichqirdi Sodiq. — G‘unajin ko‘zini suzmasa, buqacha ipini uzmas ekan. Xoh-xohoho-o! G‘unajin ko‘zini suzmasa...

Maman menga qo‘lini uzatdi:

— Xayr, Oxun!

— Xayr! — dedim men.

Maman nariroq borib, ortiga qayrildi.

— Aytganday, sening xatingni o‘z qo‘lim bilan pochtaga tashladim.

— Qanaqa xat? — dedim hayron bo‘lib.

— Payizdan berib yuborgan xatingni-da...

— Ha, endi esimga tushdi...

Maman “mashhur” kelin-kuyovlar ortidan yo‘lga tushdi. Xat... Nimalar deb yozdim ekan? Jin ursin!

* * *

Tor va uzun daryo yoqalab ketgan ilang-bilang yo‘l. Yo‘lning ikki tomonida tog‘lar ortimizdan ergashib kelmoqda. Chor taraf

pokiza, oppoq qorga burkangan. Qor sahnida beg'ubor yanvar quyoshining nurlari jilvalanadi.

Qalin qorda mashinamiz arang o'rmalaydi. Borliqdagi ulug'vor oqlikka boqib, xayol daryosiga cho'mgandim. Shofyor Sharipning ikki ko'zi yo'lda. Esingizdami, meni birinchi marta ovulga olib kelgan bola.

Bir mahal kuzovdagi bolalarning qiy-chuvi eshitilib qoldi.

— Ana, arxarlar! — dedi Sharip.

Ellik chog'li arxar qarshimizdan chopib o'tdi.

— Arxarlar... — dedim men ham ularning ortidan zavq bilan.

— Eh, hozir miltiq bo'lgandami! — dedi Sharip.

Qorning qalinligidan arxarlar qiynalib chopishardi. Ko'p o'tmay ular qirga o'rlashdi.

Arxarlardan keyin ko'pga qadar gap-so'zga kelmadik. Bir mahal Sharip:

— Og'ay, sizdan bir narsa so'rasam bo'ladimi? — deb qoldi.

— Nega bo'lmasin?

— Shaharda, Bishkekda sizning sevgan qizingiz bormi?

Men jilmayib ikkilanib turib:

— Bor, — dedim.

— Chiroylimi?

— Chiroyli.

— O'ta chiroylimi?

— O'ta chiroyli.

— Manavi qizchalik bormi? — deb, Sharip oynaga yopishtirilgan chiroyli qizning fotoportretini ko'rsatdi.

E'tibor bermagan ekanman, kabinaning ichi shunaqangi suratlar bilan to'la ekan. Suratlar har xil jurnallardan qirqib olingan bo'lib, qizlar turli millatdan, bari yosh va go'zal edi.

Men kulib:

— Yo'q, mening qizim bundan chiroyli, umuman, bu qizlaringni baridan suluv, — dedim.

— Eh! — dedi Sharip ushkirib. — Siz qanday baxtiyorsiz!

Xiyol o'tgach u yana:

— Aytmoqchi, siz manavi qizni taniysizmi? — deb, boyagi suratni ko'rsatdi. — U Bishkekda yashaydi.

— Bu qiznimi? — deb, go‘yo eslamoqchi bo‘ldim. — Ko‘zimga issiq ko‘rinadi... Shoshma-chi... Yo‘q, tanimas ekanman.

— Medinstitutda o‘qiydi. A’lochi. Faqat “beshga” o‘qiydi. Faollardan, har xil to‘garaklarga qatnashadi. Bekorga jurnalga suratini bosishmaydi-da.

— Sen buni qayoqdan bilasan? Jurnaldan o‘qidingmi?

— Yo‘q. Jurnalda suratgina berilgan. Qolganlarini o‘zi yozib turadi.

— U qiz bilan xat olishib turasanmi?

— Ha. U juda yaxshi qiz.

— Qolganlari-chi? Ular bilan ham xat yozishib turasanmi?

— Yozgandim. Ammo ular javob qaytarishmadi.

— Ismi nima?

— Oygul. Yaxshi ism-a? Institutni tugatgach, sizlarning Pomiringizga do‘xtir bo‘lib boraman, deydi. Men esa biz tomonlarni havas qila ko‘rma, deyman.

— Nega?

— Bu yerga kelib nima qiladi? Bu yerning nimasi yaxshi? Shu tog‘larmi? Bishkekdek katta shaharda yashasa. Eh, yaxshida sizlarning shaharlaringizda, og‘ay...

— Nimasi yaxshi?

— Bari narsa yaxshi. Masalan, u yerda har kuni kinoga, teatrga, tansaga borasan. Yaxshi kiyinasan, karavotda uxlaysan. Ha, u yoqda hayot umuman bo‘lakcha.

— O‘zing Bishkekda bo‘lganmisan?

— Yo‘q.

— Nega bormaysan?

— Boraman. Birato‘la ketaman. Oygul ham kel deyapti. Faqat, opam ko‘nmay turibdi. Tepadan kabinani taqirlatib qolishdi. Sharip mashinani to‘xtatib, boshini chiqarib:

— Nima bo‘ldi? — deb so‘radi.

Ungacha ro‘paramga oltinchi sinfning bir o‘quvchisi kelib:

— Og‘ay, men shu yerda qolaman, — dedi.

— Yetib keldingmi?

Bola boshi bilan “ha” ishorasini qildi. Atrofga qarasam, birorta uy ko‘rinmaydi.

— Uying qayerda? Bu yerda hech narsa yo‘q-ku?

— Bularniki narigi jilg‘ada, — dedi Sharip. — Huv, anov ikki qo‘tos o‘tlab yurgan yerda. Ko‘rdingizmi?

— Yaxshi qol, — dedim bolaga. — Esingda bo‘lsin, o‘n ikkinchi yanvarga — mening kelishimga tayyor bo‘lib turgin.

— O‘n ikkinchi kuni shu yerga kelib, mashinani kutib turgin, tushundingmi? — dedi Sharip ham.

Bola ma’qul ishorasini qilib, qo‘toslar o‘tlab yurgan tomonga ketdi. Men uning yelkasidagi bo‘r bilan yozilgan “jinni” degan yozuvni o‘qib, kulib qo‘ydim.

Mashina o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Ilgarilaganimiz sari qor qalinlay berdi. Bir qiyalikka kelib mashinamiz umuman yurmay qoldi. Hammamiz yerga tushib, qum, tosh, qo‘lga nima ilinsa, shuni g‘ildiraklar tagiga tashlab o‘tirib, arang do‘nglikka chiqib oldik-da, yana mashinaga o‘tirdik. Yerda faqat Sodiq qolibdi.

— Sen nega chiqmading? — so‘radim undan.

— Men uyimga kelib qoldim, og‘ay, — dedi Sodiq boshi bilan ishora qilib. Men Sodiq ishora qilgan tomonga qarab, olisda, jilg‘aning quymasidagi uch o‘tovni ko‘rdim. O‘tovning oldida boylovdagi ot va bir necha qo‘y ko‘rindi.

— Yaxshi, boraver, — dedim.

Keyin etigimning qorini qoqib, kabinaga kirdim.

— Og‘ay, biznikiga borib, choy ichib keting, — dedi Sodiq.

— Rahmat. Boshqa safar.

Biz jo‘nab, Sodiq joyida qoldi. Kuzovdagi o‘rtoqlari bilan qo‘l silkib xayrlashdi-da, o‘tovlar tomon ketdi. Kabina oynasidan uning qalin qorda mashaqqat bilan ketishini kuzatib borardim. Kutilmaganda o‘tovlarning biridan ayol kishi chiqib, bolaga qarab yurdi. Ayol qorning qalinligiga qaramasdan, deyarli yugurib kelardi.

— Sodiqning onasi, — dedi Sharip.

Men ham shunday fikrda edim. Biz yiroqlashgan sari ona-bola bir-biriga yaqinlashardi. Bora-bora ularning qorasi kichrayib, oppoq biyday dalada ikkita to‘p bir-biriga qarab yumalab kelayotganga o‘xshardi. Ko‘p o‘tmay dalaning o‘rtasida ikki to‘p bir-

lashib, yagona to‘pga aylandi. Ayni damda mashina keskin burilib, yagona to‘p ham ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi...

Qosh qorayganda bir do‘nglikka chiqdik. Poyimizda keng vodiy yastanib yotardi. Vodiydagi do‘ngliklar va vodiyni o‘rab turgan tog‘larning cho‘qqilarigina ko‘zga ko‘rinadi. Osmonda unda-bunda yulduzlar miltillab, tog‘ ortidan oyning shu’lasi mo‘ralay boshladi.

Yo‘l butunlay qorga singib, mashina arang jila boshladi.

— Bu qarg‘ish tekkan vodiyga qor hamisha qalin tushadi, — dedi Sharip.

Nihoyat mashinamiz qorga butunlay tiqilib qoldi. Sharip qayta-qayta gaz berib, hech narsa qila olmay so‘kinardi.

U kabinadan tushib, mashinani bir aylanib chiqib:

— Og‘ay, mashina bundan nari bora olmaydi, — dedi.

— Endi nima qilamiz?

— Yayov ketamiz. Cho‘ponning o‘tovigacha uch-to‘rt kilometrcha qoldi.

Men kabinadan tushib, kuzovning ortiga o‘tdim. Kuzovda birgina Qo‘ychumon qolgandi.

— Qo‘ychumon! Abdusamatov!

Qo‘ychumondan javob bo‘lmadi.

Sharip motorni o‘chirib, kuzovga chiqdi.

— Hoy bola, tirikmisan?

— A-a, ha, — degan Qo‘ychumonning ovozi keldi.

— Tush yerga, bu yog‘iga piyoda ketamiz.

Qo‘ychumon yerga tushdi, Sharip kuzovdan eski to‘shak olib, motorni o‘rab-chirmadi.

— Qanday, sovqotmadingmi? — so‘radim Qo‘ychumondan.

— Yo‘q, og‘ay, pichanga ko‘milib oldim.

Oy tog‘dan ko‘tarilib, uning sovuq nurlari o‘r-u qirga birdek to‘shalgandi. Sharip oldinda, yo‘lga tushdik.

Jimgina ketib borardik, to‘satdan Qo‘ychumon:

— Qaranglar, bo‘ri! — deb qoldi.

Qarasak, nariroqda bir narsa ketayotibdi.

— Bu bo‘ri emas, bolakay, tulki, — dedi Sharip.

Keyin tulkiga qarab qichqirib, hushtak chaldi. Tulki xiyla yergacha beparvo yo'rtib borgach, to'xtab, bizga qarab turib qoldi.

* * *

Biz yetib kelgan manzil katta do'nglikning tagida ekan. Oy nurida to'dalashgan qo'y va qo'toslar hamda to'rt-besh o'tovning qorasi ko'rindi. Mezbonlar hali yotishmagan ekan, o'tovlarning tundugidan uchqun sachrab, tutuni ko'kka o'rlaydi. Bizni vovullashib itlar qarshi oldi.

— Sizlarniki qaysi? — deb so'radim Qo'ychumondan.

— Mana bu, chetdagisi, — deb boladan burun javob berdi Sharip.

— Yo'q, — dedi Qo'ychumon. — Uyimiz manavi yerdaydi. Endi yo'q-ku, — deb, doirasimon o'tov o'rnini ko'rsatdi.

Shu payt chetki o'tovdan past bo'yli kishi chiqib:

— Kimsizlar? — dedi.

— Bizmiz, pochcha, — dedi Sharip. Keyin menga tushuntira ketdi. — Bu ferma mudiri tug'ishgan opamning kuyovi.

— E-e, bu Oxun og'ay-ku? — dedi ferma mudiri ovozimdan tanib. — Qanday shamol uchurdi?

— Ta'tilga chiqdik, — dedim uning issiq qo'lini olib. — O'quvchilarni ota-onalariga topshirib yuribmiz.

— Shunday sovuqda sizga nima? — dedi u. — Bolalar o'zlari ham eplashardi. Iya, bu senmi, Qo'ychumon? Kecha senikilarni Belga ko'chirib keldim. Qo'zilatish boshlanib, odam yetishmay qoldi. Endi sen u yerga yeta olmaysan, mashina borolmaydi, otulov yo'q. Hechqisi yo'q, sen ta'tilni biznikida o'tkazib, qaytib ketaverasan. Qani, uyga kiringlar.

Men etigimning qorini tozalab, xiyol engashib ichkariga kirdim.

Uyda o'ttiz yoshlardagi istarasi issiq, mo'mingina ayol to'shak solish bilan ovora.

— Hormang, — dedim yengil ta'zim bilan.

— Bor bo'ling, — dedi ayol, bilaguzuklar to'la ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib tabassum bilan. — Keling. To'rga o'ting.

Men oyog'imga qaradim.

— Hechqisi yo‘q, o‘tavering, — dedi u.

Men to‘rga o‘tib o‘tirdim. Yonimdan Sharip joy oldi. U oyoqlarini uzatib, taxmonga yo‘landi. Keyin Qo‘ychumon kirdi.

— Hormang, — dedi u kattalardek.

— Bor bo‘l, aylanay, — dedi ayol, uning peshanasidan o‘pib. — Yuqoriga o‘t.

— Qani, omin! — dedi mezbon qo‘lini ochib.

Hammamiz fotiha qildik.

— Xush kelibsizlar, — dedi uy bekasi.

— Xushvaqt bo‘ling, — dedim men.

Keyin ayol eshikka chiqib ketdi.

Men uy ichiga ko‘z yugurtirdim. O‘tovning ichi Pomirdagi hamma o‘tovlardagidek bir xil. To‘rda taxmon, qibla tomonda usti kashtali sochiq bilan yopilgan sandiq, sandiqning ustida kosa, piyolalar, tranzistor, soat va chiroq joylashgan. Eshikdan kiraverishdagi kichkina to‘sma ichida o‘n chog‘li qo‘zi, qo‘zilarning oldida bir tutam xashak.

— Xo‘sh, men aytgan narsa nima bo‘ldi? — deb so‘radi mezbon Sharipdan.

— Men tuman matbuot jamiyatiga bordim, hozircha bittasiyam sotilmabdi.

— Og‘zingga shakar!

— Ammo, talabgor ko‘p ekan, Qorako‘lning raisi, Rangko‘ldagi magazin mudiri, Murg‘obdagi choyxonachi... Biroq, mutasaddilar, avvalo, ilg‘or cho‘ponlarga, qahramon onalarga, deputatlarga sotamiz, o‘shalardan ortsagina boshqalarga sotiladi, deyayotgan emish.

— E, Xudo, — dedi ferma mudiri kaftlarini bir-biriga ishqab. — Menga ham rahmingiz kelib, meni ham bir qo‘llab yuborsangiz... Og‘ay, siz gap nimadaligini sezdingizmi?

— Qaydam...

— Ish bunday, — dedi Berdi. — Tumanimizga beshta “Ural” mototsikli kelgan. Shularning bittasini sotib olmoqchiman. Lekin, hozir eshitganingizdek, bizga o‘xshaganlarga sotishmayapti. Shuning uchun men bir hiyla o‘ylab qo‘ydim. Xo‘jaligimizda O‘smon

degan cho‘pon bor. Uning xotini shu oyda o‘ninchi bolasiga ko‘zi yoriydi, ya’ni qahramon ona bo‘ladi. Men shu xotinning nomiga olmoqchiman. Tushundingizmi?

— Tushunarli...

Eshikdan tezak ko‘tarib kirgan xotini:

— Sizni Qoliq buva chaqiryapti, — dedi eriga.

— Boyvuchcha, O‘smonning bolalariga choy, qand deganday, u-bu narsalar tayyorlab qo‘y-chi, ertaga bir xabar olib kelay, — dedi Berdi xotinining so‘zlariga e’tibor bermay.

— Voy o‘lay, kechagina borib kelgan edingiz-ku, — dedi xotini norozi ohangda.

— Borsam nima qilibdi? — dedi eri qo‘polroq qilib. — Buyam ko‘z og‘riqday narsa, xohlagan paytda tug‘ib qo‘yishi mumkin. To‘g‘rimi, og‘ay?

Men indamadim.

Ferma mudiri o‘rnidan turib, eshikka yo‘naldi.

* * *

Men tashqariga chiqqanimda quyoshning zarrin nurlari oppoq qorda g‘ujg‘on o‘ynardi. Qo‘y-qo‘zilar ma’rab, xotin-xalaj baqirib-chaqirgan palla.

Uyning yonida otni egarlayotgan Berdi yo‘l tomonga qarab:

— Ho-oy, Qo‘ychumon! Qayt orqangga! — deb qichqirdi. — Qarang, og‘ay, anavi bola uyiga jo‘navordi.

Qo‘ychumon qalin qordagi yolg‘izoyoq yo‘lda ohista ketib borardi.

— Buni qaysarligini ko‘ringlar! — dedi qo‘ylar orasida qo‘zi emizib yurgan bir ayol.

— Otasiga tortgan-da, — dedi ikkinchisi.

— Ho-o-oy, bola! — deb yana qichqirdi Berdi. — U Belga bugun yeta olmaysan!

Bola qaytmadi. Mening esa bunga ko‘nglim chidamasdi.

— Otingizni berib turmaysizmi, shu bolani ota-onasiga topshirib kelayin, — dedim Berdiga.

Ferma mudiri menga hayron qolib tikildi.

— Jonim bilan berar edim-u — dedi u, xijolat aralash, — lekin haligi ko'p bolali ayolga borishim kerak. Boshqa ishlar ham keragidan ortiqcha, o'zingiz bilasiz, hozir qo'zilatish mavsumi... Ulovsiz esa uydan eshikka chiqish ham qiyin.

Men boshqa hech narsa demay, Qo'ychumonning ortidan jo'nadim.

Hamma ortimdan hayrat bilan qarab qoldi.

O'sha kuni o'quvchim ikkimiz kechgacha yo'l yurdik. Tushgacha havo ochiq bo'lib, yo'l azobi uncha sezilmagandi. Tush og'ib, horib-charchagan paytimizda, osmonni bulut qoplab, sovuq shamol esib, ona sutimiz og'zimizga keldi. Kechga yaqin o'ta qalin tuman tushib, yo'ldan adashib qoldik. Meni vahima bosa boshladi. Lekin buni yosh bolaga sezdirmasligim kerak. Baraka topkur Qo'ychumon, haqiqiy Pomirning bolasi ekan. Qorni och bo'lsa ham sir boy bermaydi. Meni bosgan vahima — qahraton qish tunida, kimsasiz dalada adashib qolib ketish qo'rqinchi uning chehrasidan bilinmasdi. Aksincha, bolaning bu fazilati menga kuch-quvvat baxsh etardi.

Goh tepaga chiqib, goh pastga tushib ilgarilamoqdamiz. Yo'l boshlovchi — Qo'ychumon.

— Hoy bola, qayoqqa ketyotganimizni bilasanmi o'zi? — so'radim jahlim chiqib.

— Menimcha to'g'ri ketayapmiz, og'ay, — dedi Qo'ychumon. Buni meni ovutish uchun aytdimi, yo o'zini oqlash uchunmi, bilolmadim.

— To'g'ri ketayotganimizni sen qayoqdan bilasan, to'rt odim naridagi tuya ko'rinmasa?

— Og'ay, uy! — deb qichqirdi Qo'ychumon menga javob berish o'rniga.

Qarasam, rostdan ham shundoq qarshimizda o'tov turibdi. Suyunganimdan nafasim bo'g'zimga tiqildi. Darrov uyning eshigini topib, ichkariga mo'raladim. Ko'zimga yigirma chog'li qo'zi va usti yopiq ikki beshik ko'rindi. Hech kimsa yo'q. Men Qo'ychumonga savol nazari bilan qaradim.

— Yana boshqa uy bo'lishi kerak, — dedi Qo'ychumon.

Ikki yog'imizga alanglab nari yurdik.

— Hech kim yo‘q, — dedim men.

Shu payt tuman ichidan:

— Kimsizlar? — degan ayol kishining ovozi keldi.

Qarasam, yon tomonimizda oltmishlarga borib qolgan, novcha, oriq ayol turibdi. Ayol g‘amgin ko‘rinardi. U negadir chilvir sudrab olgan bo‘lib, chilvirning ikkinchi uchi ko‘rinmas edi.

— Men o‘qituvchiman, — dedim. — Bu bola mening o‘quvchim. Biz Belga ketyapmiz.

— Belga bugun yeta olmaysizlar, — dedi ayol. — Yuringlar.

Biz unga ergashdik.

— Bu yerda shu bittagina uy bormi? — so‘radim ayoldan.

— Nega bitta bo‘lar ekan? O‘nta, — dedi u. Ayol hamon chilvirni sudrab borardi.

Ko‘p o‘tmay ikkinchi uyga duch keldik. Ayol o‘tovning eshigini ko‘tarib, ichkariga mo‘raladi. Men ham uning yelkasi osha ichkariga qarab, to‘rda o‘tirishgan uch-to‘rt yoshlardagi ikki qizchani ko‘rdim. Qizlar ko‘kraklarigacha to‘shakka o‘ralib olishgan edi.

— Patma opa, opam qachon keladi? — deb so‘radi bittasi yig‘lamsiragan ovozda.

— Hozir keladi, — dedi-da ayol eshikni yopib qo‘ydi.

Yana nari yurdik. Galdagi uyda yetti yoshlardagi qizcha beshik tebratib o‘tiribdi.

— Uxlagani yo‘qmi? — deb so‘radi undan haligi ayol.

Qizcha boshini chayqadi. Patma opa eshikni yopdi.

— Bu qizlarning ota-onalari qayerda?

— Qo‘y izlab yurishibdi. Bugun tunda qo‘ylarimiz qo‘radan chiqib ketibdi.

Navbatdagi o‘tovni Patma opa tezda topa olmadi. Nari bordi, beri keldi. To‘xtab, uyoq-bu yoqqa quloq solib ko‘rdi. Bo‘lmagach, ovoz berdi:

— Berdi! Ho, Berdi!

Tuman ichidan yosh bolaning:

— Ha-a! — degan uni eshitildi.

— O‘tiraver. Uydan chiqmagin!

— Patma opa, pechkaga o‘t yoqib olaymi? — deb so‘radi bola.

— Jo‘n o‘tirgin! O‘tin yo‘q, — dedi opa.

Bola yana nimadir deganday bo‘ldi, lekin ayol unga quloq solmadi. Endi ayol qo‘lidagi arqonni turmaklab, qisqargan sari arqonga ergashib keta boshladi. Gap nimada ekanligiga fahmi yetgan Qo‘ychumon ayolning oldiga tushib, ipni “quvlab”, tumanga singib ketdi.

Arqon obdan uzun bo‘lib, oxiriga yetgunimizcha ikki yuz metrcha yo‘l bosdik. Ikkinchi uchi bir o‘tovning eshigiga bog‘lab qo‘yilgan ekan. Ayol o‘tovning eshigini ko‘tarib:

— Qani, kir! — dedi menga.

Men ichkari kirdim. Qo‘ychumon allaqachon pechkaning oldidan joy olgandi. O‘tov ichida uch beshik, bir nechta qo‘zilar ham bor ekan.

— To‘rga o‘t, — dedi ayol menga. Keyin pechkaga qapishib o‘tirgan Qo‘ychumonga: — Sen ham yuqoriga o‘t. E-e, o‘t yo‘q, pechkaga yopishganing bilan! Kechadan beri o‘t yoqilmagan. O‘tin tugab qoldi.

Ayol arqonni yerga tashlab, pechkaning eshigini ochdi. Pechka ichida, bo‘lgani bir tutam quvray, quvrayning tagida gazeta parchasi bor ekan. Ayol bizga bir qur qarab qo‘ydi. Sovuqdan yuzlarimiz ko‘karib, lablarimiz gezarib ketgandi.

Ayol bir ushkirib, cho‘ntagidan gugurt olib, pechkadagi gazetaga o‘t qo‘ydi...

* * *

Men itning vovullashidan uyg‘onib ketdim. O‘tov ichi xiyla ilib qolibdi. Chiroq yonib turibdi. Qo‘ychumon uxlab yotibdi. Beshikdagi buvaklar ham uyquda. Tundagi ayol esa ko‘rinmaydi. To‘satdan poygahda uyulib yotgan tanish arqon ilondek eshilib tashqariga “o‘rmalay” boshladi.

O‘rnimdan turib, tashqariga chiqdim. Qorong‘i tushib qolibdi. (Demak, biz deyarli bir sutka uxlabmiz.) Hamon quyuq tuman. Qor sevalab turibdi.

Ostonada birpas turgach, yerda bilanglab borayotgan arqonni qo‘limga olib unga ergashdim. Ko‘p o‘tmay, arqon meni tundagi ayolning oldiga olib keldi. Arqonning adog‘i uning belida ekan.

Ayolning qo‘lida uzun mash’ala. Do‘ngda turib olib, olisda kimgadir mash’ala bilan nimanidir ishora qilardi...

Mana, odatda, suruvning rahnamosi — serkaning bo‘ynida bo‘ladigan qo‘ng‘iroqning nozik “jiring-jiringi”, qo‘ylarning ma’ragani-yu odamlarning gangir-gungur so‘zlari quloqqa chalinib, mash’alalar oqimi biz tomon kela boshladi. Ko‘p o‘tmay, ayol ikkimiz qo‘ylarning o‘rtasida qoldik. Mash’alalar yog‘dusida kishilarning qorasi ko‘rinib, gap-so‘zlari oydinlasha boshladi.

— Biznikiga kirib, isinib olinglar! — dedi ayol ularga.

O‘zi ularning oldiga tushib, uyiga qarab yurdi. Uning ortidan mash’alalar ergashdi. O‘tovga yetishgach, hamma mash’alalarini yerga tashlab, o‘zlari ichkariga oshiqdi. Faqat ikki-uchta mash’ala qo‘ylarning ustida nari-beri borib kelardi.

Men anchagacha qor ustida uyulib yotgan mash’alalarga qarab turib, sovuq yegach, ichkariga kirdim.

O‘tovning ichi tirband. O‘tirgani joy yo‘q, bo‘sag‘ada turib qoldim. Meni hech kim sezmadi ham. Hamma sukutda, boshlari xam. Ko‘rinishlari ayanchli, horib-charchab sillasi qurigan, sovuqda qotishgan. Olaquroq jafokashlar: qarisi bor, yoshi bor, erkagi bor, ayoli bor... Kutilmaganda ularning orasida eski tanishlarim — Payiz, Qorasoch va Mamanni ko‘rib suyunib ketdim. Barchasi aftodahol. Jafokashlarim...

— Voy o‘lmasam, mehmon bo‘sag‘ada turib qolibdi! — dedi pechkadagi o‘t bilan ovora bo‘lgan Patma opa meni payqab qolib. — Qani, mehmonga joy beringlar!

Hammasi endi e’tibor berishdi.

— Oxun! — deb xitob qildi mening deputatim.

— Og‘ay, to‘rga o‘ting, — deyishdi Payiz bilan Qorasoch. O‘tirganlar yo‘l berishdi. Men deputatning yoniga borib o‘tirdim.

— Yo‘l bo‘lsin?! — dedi Maman. — Nima qilib yuribsan bu yoqlarda.

— Ta’til boshlandi, o‘quvchilarni uylariga topshirib yuribman, — dedim dunyodan bexabar uxlab yotgan Qo‘ychumonni ko‘rsatib.

— Ha-a, Abdusamat cholning o‘g‘li bu, — dedi deputat bolani tanib.

— Buning ota-onasi hozir Belda, — dedi Payiz. — Bu ahvolda belga yetib bora olmaysizlar, og‘ay.

— Nega?

— Belgacha bir dovon bor. Hozir dovondan oshmoqning iloji yo‘q.

— Hechqisi yo‘q, — dedi Maman. — Ta’tilni biznikida o‘tkazib, keyin ketaverasizlar. Kelganing ulug‘ ish bo‘libdi. Oyi! — Deputat Patma opaga murojaat qildi. — Qozoningni osib yubor-chi?! — Otasi soqol-mo‘ylovi oppoq, daroz chol bo‘lib, tasbeh o‘girib o‘tirardi. — Bu yigit Bishkekdan kelgan o‘qituvchi. Men olib kelganman.

Otasi menga qarab, boshini arang qimirlatib qo‘ydi.

Deputat belidagi katta pichog‘ini olib, etigining qo‘njidan qayroq chiqarib, pichoqni qayray boshladi. Hozirgina shalpayib o‘tirgan Mamandan asar ham qolmagan edi.

— Xo‘-o‘sh, turmush-tirikchiliging qanday?! — so‘radi Maman.

— Rahmat, yomon emas, — dedim shuncha odam turib faqat men suhbat mavzusi bo‘layotganimdan andak xijolatda.

— Hech kim xafa qilayotgani yo‘qmi? Unaqasi bo‘lsa menga aytib qo‘y, o‘zim gaplashib qo‘yaman. Pomirda men bilan hammasi hisoblashadi...

Shu chog‘ mehmonlar chiqib keta boshlashdi.

— Hay, hay! Bu nimasi?! Men qo‘y so‘ygani turibman, og‘iz tegib ketinglar.

— Rahmat, Maman, uylarimizga boraylik-chi, — dedi bittasi. — Bola-chaqalar qay ahvolda...

— Mayli, lekin go‘sht pishganda chaqirtiraman, kelinglar.

— Xo‘p, og‘ay, yaxshi tush ko‘rib yoting. Ertalab biznikidan ham choy ichib keting, — dedi Payiz.

— Yana shunday ketavermang, — kuyovini quvvatladi Qorasoch.

— Sizlar qayoqqa? — dedi Maman ularga. — Yo sizlarning ham yig‘laydigan bolalaringiz bormi? Qolib, dastyorlik qilib turinglar. Qorasoch, sen yangangga qarashib yubor. Hoy, tur endi,

beshigingni o‘mrovlab o‘tira bermay! — dedi u bolasini emizayotgan xotiniga. — Payiz, men bilan yur.

Ikkovlon chiqib ketishdi. Patma opa pechkaga qozon osib, olovni ko‘tardi. Mamanning xotini xamirga unnay boshladi. Qorasoch ikki paqirni olib tashqariga jo‘nadi. Xonada so‘ppayib, mudrab o‘tirgan chol-u men qoldik.

Birozdan so‘ng Qorasoch ikki paqir qor olib kirib, qozonni qorga to‘ldirdi.

* * *

Tun yarmida meni kimdir turtkilab, uyg‘ota boshladi:

— Hoy, tur, tur...

Ko‘zimni ochsam, qarshimda Maman turibdi.

— Ha, nima bo‘ldi?

— Tis-is-s! — dedi u barmog‘ini labiga bosib. — Sekinroq gapir, chol uyg‘onib ketmasin. Tur...

Men o‘rnimdan turdim. Uydagilarning ko‘pchiligi uyquda ekan. O‘ng tomonimda chol bilan kampir. Chap tomonimda — Qo‘ychumon. Uning nariyog‘ida Mamanning xotini beshigini quchoqlaganicha mudrardi.

— Nega uyg‘otding? — ohista so‘radim hech narsaga tushunmay.

— Araq ichamiz, — dedi Maman.

— Topgan vaqtini qara-yu... — dedim-da qayta yotmoqchi bo‘lsam, Maman kiftimdan ushlab qoldi.

— Qo‘y, yotma. Men seni bir mehmon qilayin deb tursam...

— Ertaga icharmiz...

— Ertaga boboy ichirmaydi.

Noiloj egnimga choponimni yelvagay tashlab, ko‘rpaning ustiga o‘tirdim.

— Qani, haligi araqni ber-chi, — dedi xotiniga.

Xotini turmoqchi bo‘luvdi, bolasi yig‘lab qoldi.

— O‘zingiz ola qoling, — dedi eriga.

— Qayerga yashirgansan?

— Junning ichida.

Maman asta otasi bilan onasining ustidan hatlab o‘tib, qopdagi junning ichidan bir shisha araq olib keldi.

— Ko‘pdan beri asrab yurgandim, senga nasib qilgan ekan, — dedi jilmayib.

U pechkaning oldiga dasturxon yozib, go‘sht to‘g‘radi. Keyin ikkita piyolaga limmo-lim araq quydi-da, bittasini menga uzatdi.

— Qani, omonchilik uchun!

— Buncha ko‘p quymasang?

— Qo‘yaver. Qani oldik!

Ikkalamiz baravariga ko‘tardik. Mening nafasim qaytdi. Mamanni jin ham urmadi.

— Isitmasi tushgani yo‘qmi? — deb so‘radi xotinidan go‘shtdan gazak qilar ekan.

— Tushmayapti, — dedi xotini.

— Issiqroq o‘ra, ertalabgacha pasayib qolar... Endi sen o‘tira tur, bacha, men bir qo‘ylarimni ko‘zdan kechirib kelay.

U poygah tomonda ilinib turgan fonusni olib chiqib ketdi.

Ohista beshik tebratib, nimuyquda o‘tirgan ayolning oldida yolg‘iz qoldim.

Bir piyola araq meni tez sarxush qilib qo‘ydi. Ko‘nglim suhbatdosh qo‘msab qoldi. Mamandan esa darak yo‘q. Kuta-kuta, kira bermagach, chala-chulpa kiyinib tashqariga chiqdim. Chiqdim-u, sanjob bo‘lib turgan qo‘ylarga munkib ketdim. Qo‘ylarning ustida u yon-bu yonga chayqalib yurgan fonus ko‘rindi.

Men qo‘ylarni yorib, urunib-surunib Mamanning yoniga bordim. Shu payt Maman hozirgina tug‘ilgan qo‘zichoqni topib olib, uni shilta-shalabbosidan tozalay boshladi. Men uning yonida xiylagacha indamay turdim. Keyin:

— Hoy, Maman, nega shu qarg‘ish tekkan Pomirni tashlab, boshqa yoqqa ko‘chib ketmaysizlar? — dedim.

Deputat ishdan to‘xtab, menga angrayib qarab qoldi.

— Pomirni tashlab? Nega endi Pomirni tashlab?...

— B-b... Bir yaxshiroq, muqim yashaydigan uy-joy qurib, ekintikin ekib, bog‘-rog‘ qiladigan yerga borib o‘troqlamaysizlarmi?

Deputat ilgari bunaqa gapni sira eshitmagan bo‘lsa kerak, hamon menga angrayib qarab turardi. Nihoyat:

— Qiziq gap bo‘ldi-yu, nima, sening-cha bizning turmushimiz yomon ekanmi?

— Bunaqa yashashning nimasi yaxshi? Yil o‘n ikki oy o‘tovda...

— Nima, senga o‘tovdagisi yoqmaydimi? Tavba-a... — Deputat qo‘zini emiza boshladi. — O‘tovdan hazar qilgan qirg‘izni birinchi marta ko‘rishim?

— Men ham... — dedim. Go‘yo gapimni birov bo‘lib qo‘yadigandek, shoshib so‘zlaganimdan nafasim yetmay qolardi. — Men ham o‘tovini maqtamagan birorta qirg‘izni ko‘rganimcha yo‘q. Qirg‘iz hamisha o‘tovini maqtaydi, o‘tovi bilan faxrlanadi. Hamisha. Asrlar davomida shunday. Boshqa xalqlar uylarini yog‘ochdan, toshdan, marmardan qurishadi. Qirg‘izlar esa almisoqda o‘tov deganni kashf etishgan ekan, shundan buyon unga mehr qo‘yib, me’dasiga tegmabdi...

Maman:

— Ovsar, — dedi hazin jilmayib.

— Ayt-chi, — deb davom etdim, — sizlarni bu yerlarning nimasi ushlab turibdi?!

Maman kiftini uchirib qo‘ydi.

— Bilmadim... Lekin nega bu yerlarni tashlab ketishimiz kerak ekanligini o‘zim ham bilmayman...

Birpasdan keyin Maman qo‘zichoqni qo‘ltiqlab o‘rnidan turdi. — Yur, endi uyga kiraylik.

Men tarvuzim qo‘ltig‘imdan tushib, unga ergashdim...

* * *

Biz, Qo‘ychumon ikkalamiz, oldindan bashorat qilinganidek, Belga yeta olmadik. Keyingi kuni ertalab Maman bizni bir tuyaga mingashtirib, ortimizga qarab haydadi. Biroq tuyaning kafolati Berdining o‘tovida tugar edi. Mamanning ko‘rsatmasiga binoan ferma mudiri bizga boshqa ulov topib berib, tuyani ortiga qaytarishi kerak. Chunki tuya Mamanning ovulidagi ro‘zg‘orining yagona dastyori edi. Aksiga olib ferma mudiri uyida yo‘q ekan, u bugun ham, ho‘v o‘sha, ko‘p bolali ayolning ko‘z yorishini poylab ketgan ekan.

Shunday qilib, tuyani Berdining qo‘rasiga tashlab, nariyog‘iga yayov ketdik.

...Qishloqqa kun botganda kirib keldik. Ko‘cha-ko‘yda birorta zog‘ ko‘rinmaydi. Qo‘ychumonni yotog‘iga tashlab, uyimga qarab ketdim.

Uyimda meni ajoyib bir yangilik kutib turgan ekan: uyning eshigi ochiq, tokchadagi chiroq yonib turibdi. Pechkada olov gurullab, ustida choy qaynamoqda. Uy ichi yog‘ tushsa yalagudek. Ashqol-dashqollarim batartib — joy-joyida. Eng qizig‘i — mening g‘arib jomadonim yonida ohori to‘kilmagan yana bitta jomadon paydo bo‘lib qolibdi. Hayratdan lol bo‘lib qolgandim. Bir zumda ming bir ko‘chaga kirib chiqdim, baribir yangi jomadonning ta’birini topmadim. Kutilmaganda ilmiy mudirning kirib kelishi, meni boshi berk ko‘chadan olib chiqdi:

— Hayron bo‘lib turibsizmi? — dedi Mamit aka kulimsirab.

— Nimasini aytasiz...

— Sizni yo‘qlab Bishkekdan bir qiz keldi.

— Oysha! — deb qichqirib yubordim. — Qayoqqa ketdi o‘zi?

— Hozirgina magazin tomonga ketayotuvdi.

Men boshqa so‘zga kelmay, uydan uchib chiqib magazinga qarab chopdim. O‘rda o‘ynaladigan maydonga yetganimda birovning qorasi ko‘rindi. Qarasam, Oysha ekan. Quchog‘i to‘la qog‘ozga o‘ralgan u-bu narsalar. He yo‘q-be yo‘q belidan olib ko‘tardim-da, chirpirak qilib aylantira boshladim.

— Oxun! — deb qichqirdi Oysha quvonch bilan. — To‘xtab tur, jinni, hammasini sochib yubording!

Rostdan ham quchog‘idagi narsalar yerda sochilib yotardi.

— Oydinim, — dedim uni yerga qo‘yib, manglayidan o‘pib, — Oydinim!

Oysha ham meni bir o‘pib oldi-da, yerda sochilib yotgan choy, qand, pecheniy va konservalarni tera ketdi. Men ham unga yordamlasha boshladim. Ayni damda meni faqat sevinch hissi qamrab olgan edi. Oysha bu yerga nega keldi, endi bu yog‘iga ikkalamiz nima qilamiz, bu haqda o‘ylash xayolimga ham kelmasdi. Qalbimda faqat sevinch hokim. Pomirga kelganimdan beri yolg‘izlik, qal-

bimga yaqin kimsaga bo'lgan intizorlik meni ezib kelayotganini endi aniq his etdim.

— Uyat ish bo'ldi-da, anov kishilar qarab turishibdi, — dedi Oysha.

Qarasam, magazinning yorug' ayvonida direktor, magazinchi va mergan uchalasi bizni jimgina tomosha qilib turishardi.

Men atay, ularga basma-basiga Oyshani yana bir bor o'pib qo'ydim.

OYDINIM!..

HIKOYALAR

BOYCHECHAK

Telefon uzoq jiringladi.

Kiyaz uning ovozini anchagacha eshitib yotib, arang ko‘zini ochdi.

Xona ichi qorong‘i. Qay mahal bo‘lgani: kechqurunmi, tun o‘rtasimi, saharmi, bilinmaydi. Aeroportdan samolyotlarning gurullagani eshitiladi. Ular kecha-kunduz uchib turishadi...

“Bemahalda kim telefon qilyapti ekan? Shahardan emasligi aniq: telefonning ovozi uzun-uzun jiringlayapti”.

— Ey, telefon jiringlab yotibdi, — dedi ayolini turtib.

Lekin ayoli uyg‘onavermadi. Turishga to‘g‘ri keldi. Stol-stullarga turtinib borib trubkani ko‘tardi.

— Allo...

— Bu Isoqovning uyimi?

— Ha.

— Novqot bilan gaplashing.

Novqot tug‘ilib-o‘sgan tumani. U yoqda ko‘p qarindosh-urug‘lari yashaydi: otasi, onasi, og‘a-inilari, amma-xolalari, yangalari... enasi. Lekin ularning hech qaysi biri bunday bemahalda telefon qilishmasdi. Nima bo‘ldi ekan?

Novqot tomondan:

— Allo, — degan erkak kishining ovozi eshitildi.

Kiyaz ovoz egasini tanimadi.

— Kimsiz? — deb so‘radi.

— Menman, Kiyaz, — dedi novqotlik. — Yo‘ldoshman.

— Qaysi Yo‘ldosh?

Kiyazning Novqotdan ketganiga o‘n sakkiz yil bo‘ldi. Hozir u yerga yilda bir borib, ikki-uch kun turib, qaytib keladi. Bora-bora eldan, tug‘ilgan yeridan uzoqlashib, ba’zi yurtdoshlarini unutib ham qo‘yayapti.

— Qaysi Yo‘ldosh?

Haligi odam uning hayallab qolganining sababini tushundi shekilli:

— Yo‘ldosh — pochtachiman, — deb qo‘shib qo‘ydi.

— A-a-a, Yo‘ldosh aka... — dedi Kiyaz buni eshitib. Ularning qishlog‘ida shunday odam bor edi, lekin u kishining bularga hech qanday tegishli joyi, yaqinligi yo‘q edi. Shuning uchun uning telefon qilishi, ayniqsa yarim tunda qo‘ng‘iroq qilishi yana ham g‘alati tuyuldi.

— Xo‘-o‘sh, nechun telefon qilyapsiz?

— Kiyaz, ovulga bir kelib ketgin, uka. Enang betob bo‘lib qoldi.

Enasining avvallari ham tobi qochib turardi, keksayib qolgan-da. Biroq bu haqda bunday tarzda xabar berib, uning tinchini buzishmagandi. Demak, bir gap bo‘lganga o‘xshaydi...

— Nima bo‘ldi, ahvoli og‘irmi? — deb so‘radi Kiyaz to‘liqroq ma’lumot olmoqchi bo‘lib.

— Ancha og‘ir, — dedi Yo‘ldosh pochtachi. — Kelishing kerak.

Demak, bir hodisa bo‘lgan, deb o‘yladi Kiyaz. Biroq anig‘ini bilib olishi zarur: shunchaki tobi qochib qolgan bo‘lsa, borolmaydi — kelgusi jumagacha avtoreferatini topshirishi kerak, oyning oxirida dissertatsiyasini himoya qiladi; to‘satdan kampirga bir nima bo‘lib qolgan bo‘lsa, borishiga to‘g‘ri keladi. Lekin buni qanday aniqlaydi. To‘g‘ridan to‘g‘ri “o‘ldimi?” deb so‘ragani odamning tili bormaydi. Haligi odam “og‘zi-burnini qiyshaytirib, buning so‘raganini qara”, deb yomon ko‘rib qolishi mumkin. Qishloqning odami-da.

— Nima qilsam ekan? — Kiyaz o‘ylanib qoldi, lekin xayolidan o‘tgani og‘zidan chiqib ketdi. — Ishlarimni nima qilaman?

— Ishlaringni ikki-uch kunga qo‘ya turasan-da, — dedi pochtachi. — Kelmasang, bo‘lmaydi. Kampirning ko‘ngli og‘riydi.

Kiyazning xayoli bo‘lindi. Yo‘q, kampir ancha o‘salga o‘xshaydi yoki unga nimadir bo‘lgan. Ochig‘ini aytib qo‘yavermaydimi, gapni aylantirmay.

— Shunday qilaman, boshqa ilojim yo‘q.

— Tezroq yetib kel, uka. Bandalik-da...

Obbo, bu odamning mulohazakorligi haddan oshdi! Gapni pardalamay, o‘lgan bo‘lsa, o‘ldi demaysanmi, musulmon.

— Boraman. Tushgacha yetib boraman...

Uyning ichi yorishib, ayolining yuzi, yalang'och ko'kragi oqarib ko'rina boshladi. Endigina turmush qurib, hali o'yin-kulgi bilan ovora bo'lib yurgan paytlari edi. Shuning uchun xotiniga birpas suqlanib qarab turib, shu zahotiyoq uning qo'yniga kirib yotgisi keldi, lekin samolyotlarning ovozi boradigan joyi olis ekanligini eslatgani uchun o'zini tutdi. Ayolini uyg'otib, telefonda eshitgan gaplari va o'zining qarorini aytdi.

— Men ham birga boraymi? — deb esnab qo'ydi xotini.

— Keragi yo'q, — dedi Kiyaz, — kampir hali o'lgani yo'q. Buning ustiga sen uni ko'rmagansan ham. Undan ko'ra, tinchgina yotib uxlayver, oydinim.

— Yaxshi borib kel. Chiqayotganingda eshikni qattiqroq yopib qo'y...

Kiyaz uning aytganini qildi.

Aeroportga yetib kelsa, tushgacha bo'ladigan reyslarga chipta yo'q ekan. Yolg'on gapirishiga to'g'ri keldi.

— O'lik ko'mgani boryapman, — dedi mung'ayib.

Yolg'onni osongina ayta olganiga o'zi ham hayron bo'ldi, lekin shu zahoti balki bu yolg'on emasdir, chindan ham enam o'lib qolgandir deb o'ylab, o'zini oqladi.

— Gapingizni tasdiqlaydigan biror nimangiz bormi? — deb so'radi kassir ayol.

Kiyaz bu qayg'uli xabarni telefon orqali eshitganini aytdi. Kassir unga ishonib-ishonmay qarab turdi-da, yaqinda uchadigan samolyotga chipta yozib berdi.

Samolyot bor-yo'g'i ellik daqiqa uchishi kerak. Kiyaz yo'l bo'yi oynadan tashqariga qarab ketdi. Bir yildan beri Frunzedan chetga chiqmadi. Mana, endi shahar, undagi o'zining mashaqqatli hayotini ortda, yerda qoldirib, o'zini erkin va yengil his qila boshladi. Yoz manzaralari kayfiyatini ko'tardi. Ayniqsa, shimol bilan janubni ajratib turgan tog'lardan o'tayotganda yuragi to'lqinlanib ketdi.

Tog'lardan qor ketmabdi. Yaqin orada ketadigan ham emas. Bir-biri bilan tutashgan tog'lar past-balandligi ham bilinmay, oppoq kenglikka aylanib, osoyishta yaltiraydi. Osmonda uzuq-yuluq bulutlar qalqib yuribdi...

Kiyaz samolyotdan tushib, taksiga o‘tirdi. Mashina uni to‘g‘ri qishlog‘iga yetkazib qo‘ydi. Enasi o‘libdi. Otasining eshigida to‘plangan odamlarni ko‘rib, buni tushundi. Ko‘pchilik o‘girilib mashinaga qaradi. Birov shoshilib uyga kirib ketdi, shu zahoti jimlik cho‘kkan uydan yig‘i tovushi eshitildi. Kimdir izdahom orasidan ajralib, Kiyazga peshvoz chiqdi. Yo‘ldosh pochtachi ekan.

— Keldingmi, uka? — dedi pochtachi unga nari-beri qo‘l uzatib.

— Endi nima qilay? — Kiyazning tiliga boshqa kalima kelmadi.

U birdaniga gangib qoldi. Biroq kuyganidan emas, hali kuymoq nimaligini bilmasdi, yoshi o‘ttiz beshga chiqib, o‘lim-yitimni ko‘rmaganligi uchun esankirab qoldi. Axir, enasi o‘lib yotibdi. Nima qilmog‘i lozim?

— Yig‘lab, ortimdan ergash, — dedi pochtachi.

Kiyaz unga ergashdi, lekin yig‘lashga hali tayyor emas edi. Umrida o‘lgan odam uchun yig‘lamagandi. O‘ziga qarab turgan odamlarni chamalab, shipillab borayotgan pochtachining ortidan qadam tashlab ketaverdi.

— Yig‘la, yig‘lamaysanmi? — deya pichirladi pochtachi yarim o‘girilib. Uning so‘zlari ta’naga o‘xshab eshitildi.

Kiyaz tavakkal qilib:

— Enam-ey, enam-ey, — deb yubordi.

Bu so‘zlarni shunchaki emas, balki biroz ohangga solib, cho‘zib, mungli qilib aytdi. Lekin diydasiga yosh kelmadi. Odamlardan ko‘zini yashirish uchun plashining cho‘ntagiga qo‘lini suqib, dastro‘molini izladi. Qo‘l solgan cho‘ntagida ro‘molchasi yo‘q ekan. Uning maqsadini tushundimi, kimdir yugurib kelib qo‘lidan portfelini oldi. Kiyaz bo‘shagan qo‘li bilan boshqa cho‘ntagidan dastro‘molni topib, ko‘ziga tutdi...

Pochtachiga ergashib yig‘i eshitilayotgan uyga kirdi. Avval dahliz, keyin to‘rdagi xonaga o‘tishdi. Xona ichi qorong‘iroq ekan. Kiyaz ostonaga to‘qinib, pochtachining yelkasiga turtinib ketdi. Yuz-ko‘zidan dastro‘molini olib, yig‘layotganlarni g‘ira-shira ko‘rib qoldi. Ularning hammasi o‘zining qarindoshlari bo‘lib chiqdi: otasi, onasi, og‘a-inilari, amma-xolalari, yangalari... Ular bir

kishilik yog‘och so‘rining atrofida tik turgan holda yig‘lashmoqda. So‘rida enasi yotibdi. Sog‘ligida bukchayib yuradigan jussasi kichik qora kampir endi oyoqlarini uzatib, bo‘yi uzayib qolibdi. Ustiga qora baxmal yopilgani uchun uning hech qayeri ko‘rinmaydi. Kiyaz enasining yuzini ochib ko‘rishi kerakmi, yo‘qmi, bilolmay qoldi. Urf-odat qandayligini bilmasdi. Shuning uchun enasidan ikki qadam berida to‘xtab, boshqalarning safiga qo‘shilib:

— Enam-ey, enam-ey, — deb ovoz soldi.

Ko‘ziga tag‘in yosh kelmadi. Uyning ichida uvvos solib turganlar ham, enasining jonsiz yotishi ham, uning yuragini eritolmadi. Bunga o‘zi ham ajablandi.

Bir payt kimdir kelib ko‘ksiga boshini qo‘ydi. Onasi ekan. Onasining ohangga solib aytayotgan yo‘qlovidagi so‘zlar Kiyazga tegishliday tuyuldi. U biroz to‘xtab, onasining nima deyayotganiga qiziqsindi. Lekin shovqin-suron ichidan uning “Enangdan ayrilib qoldik...” degan so‘zlarini zo‘rg‘a ilg‘ay oldi.

Ha, enamdan ayrildik, dedi Kiyaz ham ichida. Mana, enasi o‘lib yotibdi. Har bir kishining bitta enasi bo‘ladi. Ena degani — onasining onasi. Demak, juda ham yaqin. Albatta, Kiyaz buni biladi, lekin aqli bilan tushunib tursa ham, yuragiga yetkazolmay turibdi.

— Enam-ey, enam-ey...

Onasidan keyin boshqa qarindoshlari ham bir-bir kelib, uning bo‘yniga osilib yig‘lab, g‘am-alamlarini u bilan teng baham ko‘rmoq bo‘lishdi. Lekin ularning hammasi bir bo‘lib ham g‘ussa va ko‘z yoshlarini Kiyazga yuqtira olishmadi. Uning botini suvsiz qorong‘i quduqqa o‘xshab qolganday edi.

— Enam-ey, enam-ey...

Kiyaz boshqalarning nazarida o‘zini bo‘zlayotganday ko‘rsatib, qurib qolgan qudug‘idan suv chiqarishga urindi. Ataylab bo‘lsa ham, qalbini yumshatgisi kelib, enasini, uning fe’l-atvorini esladi. Enasi umrida birovga qattiq gapirmagan, o‘zi ham boshqalardan yomon gap eshitmagan, juda aqlli va mehribon ayol edi. Bolalarim, bolalarimning bolalari deb yurib, oxiri mana bunday qilib dunyodan o‘tdi. Kiyazni yaxshi ko‘rardi. Har gal nabirasi qishloqqa kelganida, uni ko‘zida yosh bilan kutib olib, atrofidan aylanib-o‘rgilardi.

“Bolalaringni beshigini tebratib, keyin o‘lsam armonim qolmasdi”, — derdi doimo...

Xotiralar ham Kiyazning yuragini ilitmadi. U avvalgiday ko‘z yosh to‘kmay, ovoz solib turaverdi.

— Enam-ey, enam-ey...

Kampirni tashqariga olib chiqib, o‘rtaga qo‘yishdi. Salla o‘ragan bir chol janoza o‘qidi. Keyin kampirni qabristonga olib jo‘nashdi.

Urf-odatga binoan, go‘ristonga faqat erkaklar boradi. Xotin-xalaj dod-faryod urib qolaverdi. Albatta, hovlidan chiqishlari bilan o‘zini kampirga qarindosh deb bilgan erkaklar ham yo‘l bo‘yi yig‘lab borishdi. Bu ham Kiyaz uchun katta sinov bo‘ldi, lekin u bundan ham o‘ta olmadi. Ko‘ksidagi quduq hali ham suvsiz edi.

Qabristonda ko‘p ovora bo‘lishmadi, joy tayyor ekan, mayitni darrov qabrga qo‘yishdi. Kiyaz enasini oxirgi marta ko‘rib qolgisi keldi, lekin armonda qoldi: kampirni oq kafanga o‘rab, bosh-oyog‘ini bog‘lab qo‘yishibdi.

Kampirni qabrga tushirishayotgan paytda bir o‘spirin qattiq bo‘zlab yig‘ladi. Qarasa, akasining kenja o‘g‘li. Bola shu qadar to‘liqib, shu qadar kuyinib yig‘ladiki, Kiyaz unga hayrat va havas bilan tikildi.

Bu bolaning go‘dakligida u shaharga ketgandi. Shundan buyon o‘n sakkiz yil o‘tibdi. Agar enasi o‘n sakkiz yil ilgari o‘lganida, balki u ham shu bolaga o‘xshab yig‘larmidi...

Go‘rga tuproq torta boshlashdi. Bola battar baqirib yig‘ladi.

Tuyqusdan osmonda to‘rg‘ay sayrab yubordi.

Kiyaz anchadan buyon to‘rg‘ayning ovozini eshitmagandi. Yalt etib osmonga qaradi. O‘zining qayerda ekanligi yodiga tushgach, xijolat bo‘ldi. Darhol birovning ketmonini olib, enasining qabriga tuproq torta boshladi...

To‘rg‘ay sayrayverdi.

Bola bo‘zlayverdi.

Bir payt Kiyazning ketmoni bir boychechakni uzib ketdi. Boychechak tuproqqa aralashdi. Kiyaz o‘ylanib o‘tirmay, uni qo‘liga oldi-yu, biror kishi ko‘rib qolmadimikin degan xayolda shoshib cho‘ntagiga soldi.

Bola bo‘zlayverdi.

To‘rg‘ay sayrayverdi.

Kampirni ko‘mib bo‘lgan odamlar qabristondan chiqa boshlashdi.

Yangi qabr yonida bo‘zlayotgan bolagina qoldi.

Kiyaz ortiga qaytib, uning qo‘ltig‘idan tutdi:

— Yur endi...

Enasini yangi manzilga qo‘yib qaytishdi.

Qishloqqa qaytgan el birin-ketin tarqaldi.

Kechqurun uyda olis-yaqin qarindoshlargina qolishdi.

O‘t yoqilgan issiq o‘choq yonida kampir haqida gaplashib o‘tirishdi.

— Bechora enam Kiyazni chaqiringlar, uni bir ko‘rib o‘lsam, armonim qolmasdi deb jon berdi, — dedi otasi.

Onasi bir xaltacha o‘rik mag‘zini olib kelib, Kiyazning oldiga to‘kdi.

— O‘zi yig‘ib-terib, o‘zi chaqib, kelsa beraman deb, senga ilinib yurgandi, — dedi ko‘ziga yosh olib.

Kiyaz hamma gaplarni jimgina eshitib o‘tirdi.

Ertasi kuni kampirning ruh-arvohiga bag‘ishlab osh berishdi.

Oshdan keyin Kiyaz o‘zining avtoreferati, dissertatsiyasini tezroq bitkazishi lozimligini aytib, ota-onasidan ketishga ruxsat so‘radi.

— O‘zing bilasan, — dedi onasi chuqur xo‘rsinib.

— Zarur bo‘lsa, qaytaver, — dedi otasi. — Baribir kampirni tiriltirib ololmaymiz...

U shaharga uchib ketdi.

Ikki kun ichida tog‘larning ko‘rinishi hech ham o‘zgarmabdi.

Pastda hali ham oppoq va keng maydon jimirlab yotibdi...

Lekin bu gal tog‘lar ham, daryolar ham, bulutlar ham Kiyazda qiziqish uyg‘otmadi. Bag‘ri g‘amga to‘lib, ko‘ngli cho‘kdi. Bir nima ichgisi keldi, lekin ichgani hech narsa topilmadi. Tamaki chekkisi kelib, cho‘ntagiga qo‘lini suqdi, lekin tamaki o‘rniga yumshoq, muzdekkina bir narsa qo‘liga ilindi. Olib qarasa, boychechak ekan. Boychechak so‘lib qolibdi.

Kiyaz uni istab-istamay ushlab turib, holsizlanib o‘tirdi. Qabristonni esladi. Bir zumda ikki yuzi qizarib, nafasi tiqildi. U jirkanib boshini chayqadi.

— Qanday yovvoyilik... — deb shivirladi o‘ziga o‘zi. — Qanday yovvoyilik... Qanday yovvoyilik...

O‘zining shunday holga tushib qolganiga achindi. O‘ziga o‘zi ayanchli ko‘rinib, o‘ziga rahmi keldi. Birdaniga ko‘ziga yosh qalqidi. Ko‘z yoshi oqib, yuzlarini yuvib tusha boshladi...

Kiyaz anchagacha yum-yum yig‘ladi. Yig‘lagan sayin qalbi muloyimlashib, ko‘ksidagi tuman tarqab, o‘zini yengil his qila boshladi. Uch kun deganda zoriqtirib kelgan bu ko‘z yoshidan g‘oyat sevindi. Qurib qolgan qudug‘i ochilib, unda yana suv paydo bo‘layotganday edi.

Demak, hali kech emas ekan.

IKKI MAHAL GULLAYDIGAN OLMALAR

Uy ichi tor bo'lgani uchun bola butun qish davomida pechka ostidagi burchakda mushukday g'ujanak bo'lib, rangi unnuqqan polning ustida yotib chiqdi. Havo ilib, ochiq osmon ostida yashasa bo'ladigan payt kelishi bilan yog'och omboridan yashirib olib kelgan va shaxtadan chiqqan chiqindilarning orasidan topgan yaroqsiz taxtalarni qurashtirib, o'tinxonaning yoniga kichkinagina so'ri yasab oldi-da, shahardagilar orasida birinchi bo'lib tashqarida yashay boshladi. Ustiga soya tushmaydigan so'rida peshin mahali uxlab, dam olish qiyin bo'lgani uchun, o'gay otasidan haddan tashqari qo'rqsa ham, uning bugun soat uchda kelishini bilsa ham, onasining zorlanib qarshilik ko'rsatganiga qaramay, tavakkal qilib uyga kirib karavotga yotib oldi. Yotganda ham kiyim-piyimi bilan yotdi.

O'gay otasi uning oriq yelkasidan turtib uyg'otdi.

— Ey, oshga yuk, boshga yuk, yaqin orada sen meni o'z uyimdan ham quvib chiqaradiganga o'xshaysan-a?!

G'ijinib turgan otasining jun qoplagan keng ko'kragi, yo'l-yo'l chiziqlar tushgan do'ng peshanasi, quyuq qoshlarining ostidan zahar sochayotgan ko'zlari va do'rdoq lablariga nafrat bilan bir sidra qarab chiqqan bola karavotdan sekin tushib, tashqariga yo'naldi. Dahlizga chiqadigan ostonada hammasini ko'rib, eshitib, yig'laguday bo'lib lablari titrab turgan onasi yonidan o'tib borayotgan bolaning orqa kuragiga shap etib bir tushirdi. Bola yig'lab qochishning o'rniga, onasining yosh to'kishga tayyor turgan ko'zlariga "Bu tag'in nimasi?" deganday tik qarab, indamay tashqariga chiqib, o'zining quyoshda qizib yotgan yozgi so'risiga bordi. Devor ostidagi primusga qo'yilgan kichik tunuka tovoqdagi sarg'ish tusli sho'rvaning bilqillab qaynashiga qarab, bir muddat o'ylanib o'tirdi. Keyin o'rnidan ilkis turib, ikki qadam naridagi torgina xiyo-

bonga o‘tdi. Anchadan keyin o‘ng tomonga burilib, temir yo‘lni kesib o‘tib asfalt yo‘lga tushdi. Ko‘p o‘tmay shahar hududi tugab, bug‘doy ekilgan keng dala boshlandi. Bola bug‘doyzor ichini oralab o‘tgan yo‘lga burildi.

Ko‘pdan beri hech kim yurmagan ovloq yo‘lda yomg‘irli bahor kunlarini eslatuvchi ot-arava, sigir-buzoq va yo‘lovchilarning loyga botgan eski izlari ko‘rindi. Izlarning har joy-har joyida bug‘doy unib chiqib pishib qolibdi.

Bola bir zumda bug‘doyzorga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Shu payt orqa tomondan onasining tanish va yoqimli ovozini eshitdi.

— Sar-da-al! — ovoz bo‘g‘iq va ayanchli edi. Bola ortiga o‘girilib, olisdan sap-sariq bug‘doyzorni oralab kelayotgan onasining qop-qora boshini, yuqori ko‘tarilgan qo‘lida hilpiragan ro‘molni ko‘rib o‘rnidan turdi.

Onasi ancha joygacha yugurib keldi, lekin oxiri o‘pkasi og‘ziga tiqilib, og‘ir-og‘ir nafas ola boshladi.

— Qayt, Sardal!

Bola onasining niyatini tushunib, ortiga o‘girilmay qocha boshladi. Ona bilan bola o‘rtasida quvlashmachoq boshlandi.

— Sar-da-al, qayt! — Sar-da-al!

Ayol holsizlanib orqada qola boshladi.

— Sar-da-al!..

Bu gal onasining ovozi uzoqdan eshitilganini bilgan bola to‘xtab, orqasiga qaradi.

Onasi ancha olisda, yo‘lning o‘rtasida to‘xtab qolibdi. O‘g‘lining joyidan qo‘zg‘almay turganini ko‘rib, bir oz ishonib-ishonmay, ikkilanib yura boshladi. Bolaning yana qochib ketishini kutib, undan ko‘zini uzmasdan qadamini tezlatdi. Qattiq shoshilganidan bir marta qoqilib, yerga yuztuban yiqildi. Ust-boshi, yuz-ko‘zi chang-tuproqqa belandi, lekin egnini qoqmay, hurpaygan sochlarini tuzatmasdan, go‘rdan chiqqanday g‘alati ahvolda yurib boraverdi.

Bu bolaga ta’sir etdi. Yuragi achishib, tomog‘iga nimadir tiqildi. O‘zi sezmagan holda asta-sekin qadam tashlab onasi tomon yurdi. Onasining tuproq tekkan quyuq qoshlarining ostidan boqib turgan qop-qora ko‘zlarini ko‘rgach:

— Oyi! — deb qichqirib yugurdi. Ayol ham bor kuchini yig'ib, ikki qo'lini cho'zib, unga talpindi.

Keyin boshlaridagi osmon singari keng bug'doyzor o'rtasidagi maysa qoplagan eski yo'lda ona-bola bir-birovini mahkam quchoqlab, bir-birining qalb harorati, yoqimli va tanish hididan hayajonlanib, anchagacha indamay turishdi. Bir-biridan nigohlarini yashirib, ko'z yosh to'kishdi.

— Endi... — dedi bir mahal onasi bolaning boshini ko'ksidan bo'shatmay, — shunday ahd qilgan bo'lsang, mayli... Lekin otangning oldiga borgach, men haqimda gapirmay qo'yaqol, maylimi?

— Yo'q, — dedi o'g'li onasining quchog'idan chiqib, — aytaman. Hammasini aytaman. Yerto'laga o'xshagan uyingni, kambag'al va nochorligingni, turmushing yomonligini, kiyimlaring yupunligini, ishing og'irligini, non bo'lmay qolgan paytlarda talabalarning kiyimini yuvib pul topishingni, yolg'izligingni, kasalxonada birga ishlaydigan kir yuvuvchi xotinlardan boshqa hech kim seni tanimasligini, shu holingga qaramay, ering bor puliga ichib kelib, rahm qilmasdan seni savalashini — hamma-hammasini aytaman.

Diydagiryon ayol o'zini xotirjam tutishga urindi.

— Bunday qilsang, menga ko'maging tegmaydi-da, Sardal.

— Shunday bo'lsa ham...

— Polvonim, sen hali ko'p narsani tushunmaysan. Bilsang, kattalar ham yanglishadi. Eng yomoni, ularning har bir xatosi juda qimmatga tushadi...

— Eh, oyijon! — dedi bola boshini qaytadan onasining ko'ksiga bosib. — Bir paytlar qanday baxtli edik... O'z otam bilan... O'z uyimiz, qo'rg'onimiz, bog'imiz bor edi... Ikki tup olmamiz kuzda qayta gulga kirardi. Esingdami, oyi?

— Albatta, — dedi onasi beixtiyor jilmayib, — lekin bu olmalarning mevasi pishmay qolardi. Sovuq kuzning ortidan qish kelib...

Ko'zidagi yoshni bolasiga ko'rsatmaslik uchun boshini baland ko'tarib, olis-olislarga qaradi. Kiprigida miltiragan tomchida quyosh nurlari, oppoq bulutlar, sarg'aygan osmon aks etdi.

— Opa, esingdami, otam bilan uchovimiz shaharga borib, menga velosiped sotib olgandik. U hozir ham otxonada turibdi. Sening oldingga kelsam, otamning oldiga jo‘natmay qo‘yishingni bilganimda, velosipedimni shaharga olib kelgan bo‘lardim. — Bola biroz o‘yga botib, jim bo‘lib qoldi. Keyin chuqur xo‘rsindi. — Oyijon, o‘shanda nimaga janjal qildinglar?.. Hammasini sen qilding... Keyin yarashib olsangiz ham bo‘lardi. Bechora otam sendan qayta-qayta kechirim so‘radi. Erga tekkaningdan keyin ham kelib yurdi. Shu yilning o‘zida ham kelib ketdi-ku! Sen bo‘lsang...

— Sardal, yur, — dedi ayol nafasini rostlab, — seni kuzatib qo‘ymoqchiman.

Ikkisi bir-biriga suyanib, jimgina qadam bosishdi.

— Sardal... — dedi ayol bir necha qadam yurishgach, negadir qiynalib, — sen otangga ayt... Ertaga dam olish kuni... Sen bilan shaharga kelsin... Yangi velosipeding g‘ildiragiga yel bergan joyimizda, tolning ostidagi supada meni kutinglar, xo‘pmi?

— Oyi... — dedi o‘g‘li quvonchini yashirolmay.

— Bor, bor endi... — Onasi to‘xtadi.

Bola onasidan ko‘zini uzolmasdan besh-olti qadam yurib, keyin ortiga tez-tez qarab, undan uzoqlasha boshladi.

Ayol yo‘lning o‘rtasida dovdirab, o‘g‘li sap-sariq bug‘doyzorning orasiga tamoman singib ketguncha undan ko‘zini uzmay qarab turaverdi...

Bola onasining boshi qop-qora nuqtaga o‘xshab, uning yurayotgani yoki to‘xtab turgani bilinmay qolguncha yurib, keyin botinkalarini yechib, ularni bir-biriga bog‘lab yelkasiga ilib, shimining pochasini tizzasigacha qaytarib oldi-da, ildamlab ketdi.

Ko‘ngli o‘sgan bola yo‘l bo‘yi irg‘ishlab o‘ynab, shataloq otib yugurib, dam olgan paytlarida chigirtkalarni urishtirib, bug‘doy ichidan kapalak va chirildoq quvalab, yo‘ldan adashib qolguncha ketaverdi. Kun botar mahali bug‘doyzor tugagach, bola o‘ziga tanish qiyoq-qamishlar o‘sgan botqoqlikka yetdi. Shu yerda bug‘doyzor ichidagi yo‘l boshqa tomonga burildi, bola esa qamishzor yaqinidagi yolg‘izoyoq yo‘lga tushdi. Qorong‘ilik tusha boshlagach, qamishzor ichidagi yovvoyi o‘rdaklar qo‘noq izlab, nari-beri ucha

boshladi. Bola uch-to'rt daqiqadan keyin botqoqlikdan o'tib, kolxozchilarning tomorqalariga duch keldi. Avval ekinzorlarni, keyin qishloq bog'larini, uylarni oralab yurib, o'zlarining qo'rg'oniga yetib keldi.

Negadir darvoza ichidan berk ekan. Bola tirqishdan qarab, olma ostida o'tirgan kampirni, o'choqqa o't qalayotgan yoshgina juvonni, velosipedining g'ildiragiga yel berayotgan o'ziga tengdosh bolani ko'rdi. Umrida ko'rmagan begona kishilar uni haddan tashqari hayron qoldirdi. Bir muddat nima qilishini bilmay, garangsib turdi-da, keyin shimining pochasini tushirib, botinkalarini kiyib, kichik mushti bilan darvozani qoqdi. Shu zahoti qo'rg'on ichidan kalishning "shirp-shurp" ovozi eshitilib, ko'p o'tmay darvozaning og'ir zanjiri shaldirab, ro'parasida istarasi issiq yosh juvon paydo bo'ldi.

— Hormangiz... — dedi bola ayoldan biroz tortinib.

— Bor bo'l, kel.

— Keldim... Jaqip aka uydami? — U negadir "otam" degisi kelmadi.

— Yo'q. Ekinlarni sug'orishga ketgan. Nima ishing bor edi?.. Aytaver, men uning xotiniman.

Bola juvonga angrayib tikilib qoldi. Shu chog' ayolning yoniga velosipedini yetaklagan bola keldi.

Sardal bolaning yuziga qaramay turib, velosipedga ko'z qirini tashladi. Velosipedning biroz mayishgan rulidan uning o'ziniki ekanligini bilib, qo'y ko'zlariga to'lgan yoshni yetti yot begonalarga ko'rsatmaslik uchun ortiga qaytdi.

Uy egalari hayron bo'lib qarab qolishdi.

Sardalning kayfiyati buzilib, qo'rg'ondan uzoqlasha boshladi. Muyulishga yetganida ko'cha boshidan dupurlab kelayotgan sigirlarni, ularning ortidan tuproq ko'chani boshiga ko'tarib o'tayotgan bolalarni ko'rib to'xtadi. Sigirlarni ham, ularning egalarini ham tanib, shu zahoti o'zini qorong'ilikka urib, devor panasida yashirinib turdi. O'zining eski do'stlari oldida suvga irg'itilgan kuchukday ayanchli holda shalvirab turgisi kelmadi.

O'tloqdan to'ygan qorinlarini arang ko'tarib, sut isi kelib turgan yelinlarini osiltirib, o'z turmushidan rozi bo'lib, yursammi-

yurmasammi deganday sigirlar o‘ta boshladi. Bolalar Sardalni payqashmadi. Ular quyosh chiqqanda qo‘ziqorin chiqish-chiqmasligi borasidagi bahsga alahsib o‘tib ketishdi.

Bolalar ko‘zdan yo‘qolguncha, Sardal o‘rnidan jilmadi. Birdan qulog‘iga bulbulning “chik-ak” degan ayanchli tovushi eshitildi.

Bola yuqoriga qarab, halidan beri e’tibor bermagan, mevalarining og‘irligidan yerga egilib turgan olma shoxlarini ko‘rdi. Bu olmalar o‘zgacha, har yili ikki marta gullaydigan ikki tup olmaning shoxlari edi... Bola olmalarning har bir novdasini, har bir yaprog‘ini sog‘inch bilan kuzatdi. Tuyqusdan bir necha shoxda tonggi yulduzlarga o‘xshagan gullar ko‘rindi.

Bolaning ko‘ziga qaytadan yosh to‘ldi. Endi bu gullar buloq ostidan chiqib, olis-olislarga uchib borgach, bir-biriga qo‘shilib, bulutga aylanib ketishdi...

Bola ko‘zlarini artib yo‘lga tushdi. U qishloq uylarini, bog‘larni, ekinzorlarni ortda qoldirib, qamish o‘sgan botqoqlikka yaqinlashdi. Shu yerda unga bir it yo‘liqdi. It yo‘lning chetida o‘sgan o‘tlar orasida yugurib, qo‘ng‘iz tutib yeb yurgandi.

Sardal avvaliga unchalik e’tibor bermadi, keyin tanib qoldi: bu o‘zlarining iti edi. It bolani payqamadi. Bola uni chaqirib, o‘zining kichiklik paytidagiday bo‘ynidan quchoqlagisi keldi, lekin ergashib qolishidan cho‘chib indamadi, chunki bolaning ortidan borsa, shaharda yashashi qiyin bo‘ladi.

Bolaga itning hech narsadan xabarsiz, erkin yurishi yoqdi. “Sen juda ham baxtlisan...” — dedi itdan ko‘zini uzmay borayotib.

Birdaniga it uni sezib qoldi. O‘sha zahoti yugurib kelib suykalib, bolaning yuz-ko‘zi, qo‘llarini iskab, atrofida aylandi.

Buni ko‘rib bolaning yuragi hapriqib ketdi. Birpas itning manglayini silab turib:

— Men bilan ketasanmi-a? Ketasanmi? — deb so‘radi.

It uning qo‘lini yalab, dumini qimirlatdi.

— Unday bo‘lsa, yur!

It bolaga ergashdi. Ikkisi qamishzor ichiga kirishdi. Bu yer keng, g‘or singari qorong‘i va tinch ekan.

Bola oyog‘i bilan tusmollab yo‘lni topib, yuz-ko‘zini qiyoq-qamishlardan to‘sib, qo‘llarini yuqori ko‘tarib, bug‘doyzor yonidan

chiqdi. Shoshmasdan shimining pochasini qayirib, botinkasini yelkasiga ildi. Qarshisidagi dengiz singari yastangan dalaga bir qarab qo'ydi-da, charchoqdan zirqirab og'riy boshlagan oyoqlarini arang ko'tarib, bug'doyzorning ichiga kirib ketdi.

It uning ortidan qolmadi. Shu payt bolaning ro'parasidagi olis tog'lar yorishib, chaqmoq chaqildi. Qoraygan osmondan bug'doyzordagi chigirtkalarday tovush chiqarib, dastlabki tomchilar toma boshladi.

MEHMON

Begona tuflilar

Men odatdagiday sigirni sog‘dirgani uni choshgohda uyga haydab keldim-da, har doimgiday o‘z o‘rniga — qo‘raning ichidagi qartaygan o‘rikning tagiga bog‘ladim. So‘ngra uyga qarab yuz burdim. Biroq dahlizning ostonasini hatlab ulgurmasimdanoq, har kungidan boshqacharoq manzaraga duch kelib, beixtiyor to‘xtab qoldim.

Dahlizning yarqiratib yuvilgan ostonasida ikki juft tufli turibdi. Albatta, baland poshnali, qizil tusdagi, kattarog‘i yangamniki edi. Biroq jajji, kulrang rangdagisi kimniki ekanini bilolmay qoldim. Tufli o‘g‘il bolaniki ekan. U anchagina kiyilganga o‘xshaydi, ammo rangi yarqiragan, top-toza.

Bizning qishloq bolalariniki emas. Bundan bizning ovul bolalarining tuflilari mutlaqo yo‘q demangiz. Kenneshning, Mo‘munning, Erkinning, mening ham (albatta, meniki brezent, ustiga-ustak o‘ta eski) tuflilarimiz bor. Ammo bizning tuflilarimiz mana bu mening oldimda turgan notanish tufliga o‘xshab, muz kabi yaltirab turmaydi. Ular bizning qo‘lga tekkandan buyon biron marta ham yog‘ bilan shyotka ko‘rmagan.

Men uzoq o‘ylanib, tuflining egasini bila olmadim. Nihoyat bu tuflilar biznikiga kelgan qandaydir mehmonniki bo‘lsa kerak, degan xulosaga keldim. Biroq u qanday mehmon? Biz, akam ikkovimizning bizga qo‘shni “Madaniyat” nomli kolxozda, o‘z uylarida eson-omon (onam har doim shunday deydi) yashab turishgan qarigan ota-onamizdan boshqa mehmon bo‘lib keladigan hech qanday qarindosh-urug‘imiz yo‘q edi. Yangamning urug‘-aymog‘i O‘shda, shaharda. Uning qanday tug‘ishganlari bor ekanini bilmayman ham. Birgina Sapar degan inisi bor ekanini yangamning o‘zi aytgan. Bu tugul bir safar undan kelgan xatni ham o‘qigan edim. Ehtimol, biznikiga o‘sha Sapar kelgandir? Biroq u biznikiga boraman deb hech bir yozmagan edi-ku?!

Nima bo‘lganda ham, biznikida mehmon bor ekan. Buni men o‘z ko‘zim bilan ko‘rib bildim.

Oshxona deb ataluvchi xonamizning eshigiga yaqin kelganimda, derazaning tagiga qo‘yilgan stolda ovqat ichib o‘tirgan, ko‘zlari yangamnikiga o‘xshash katta-katta, lablari qalin notanish bolani ko‘rdim. Bolaning ustida kinodagi qilichlarning tig‘iday tekis dazmollangan qora shim, tozaligi bilan ko‘zni qamashtiradigan oq ko‘ylak, unga shu qadar yarashib turgan qizil galstuk. U stolning bir chetiga do‘ppisini olib qo‘yib (men bunday qilmas edim), o‘zi astagina ovqatlanib o‘tiribdi. Nima qilishimni bilmay, tortinganicha ostonada to‘xtab qoldim. Bola ham meni ko‘riboq, og‘ziga olib borgan qoshig‘ini qaytadan kosaga solib qo‘ydi. Ehtimol, bu paytda idish-tovoqlar bilan ovora bo‘lib yurgan yangam yordamga kelmagan bo‘lganida, ikkimizning o‘rtamizda noqulaylik paydo bo‘lar edi.

— Nega qarab turasan, Kimsan? Mehmon bilan tanishib ol, bu Sapar. Ta’tilni biznikida o‘tkazgani kelibdi,— dedi yangam.

U bizning ismlarimizni aytib, o‘ziyoq tanishtirib qo‘ydi. Endi bizga katta odamlarga o‘xshab qo‘l olishib qo‘yish qoldi. Men yurib borib, mehmonga qo‘limni cho‘zdim. Mehmon o‘rnidan apil-tapil turib (silliqligini ko‘r), mening qo‘limni qisdi-da, so‘ngra nimagadir men uzra ko‘zini oshirib ostonaga ko‘z qiri bilan qarab qo‘ydi. Men o‘zimcha shubhalanib, ortimga qarab, yangigina yuvilgan ostonaga tushgan eski tuflilarimning izlarini ko‘rdim. Mehmonning o‘yini tushundim-da, nihoyatda uyalib ketdim. Balki, betlarim qizarib ham ketgandir, biroq buni sezdirmadim. Ichimdan Saparni yomon ko‘rib qoldim. Agarda boshqa bola, misol uchun Kengesh yoki Mo‘mun, yoki Erkin bo‘lsa men unga: “Ko‘rib turibman, ostonani chang qilibman. Bu bilan nima bo‘libdi? Qani, ayt-chi, nima bo‘libdi? Yoki sen poyabzalimni yechmay to‘rga o‘tganimni birinchi marta deb o‘ylayapsanmi?”— degan bo‘lardim. Biroq mening oldimda Kengesh ham, Mo‘mun ham, Erkin ham emas, mehmon turibdi-ku, mehmon! Ichimdan jim bo‘lib, bo‘sh o‘ringa o‘tirib oldim. Biroq anavi mehmondan ko‘ra avval o‘tirib olganimni sezib qolib, o‘sha zahoti qaytib turib ketdim.

— O‘tirmaysizmi? O‘tir, — dedim men o‘z xatomni tuzatishga harakat qilib.

— Rahmat.

U o‘tirib taomini ichishni davom ettirdi. Yangam menga ham sho‘rva olib keldi. Icha boshladim. Endi men ehtiyot bo‘lishga harakat qildim. O‘zining ko‘z qiri bilan yana bir narsa uchun ogohlantirish berib yurmasin deb tiladim. Biroq mening tilagim amalga oshmadi. Mehmon ovqatni ichishimga razm soldi. Men shoshapisha kamchiligimni izladim. Topolmadim. Asta mehmonning o‘zini kuzatdim. Qarasam, u menga o‘xshab qoshiqning uchi bilan ichmasdan, yonboshidan ichar ekan. Bu osongina edi, darrov qoshiqni yangicha ushladim. Anavi ushbu qilig‘imni payqab, jilmayib qo‘ydi. Yana qanday ogohlantirish bo‘lar ekan? Mehmonning oldidagi bu noqulay holatim, taomni ichib bo‘lgunimga qadar cho‘zildi. Qiyin ahvolda qolgan ekanman. Umuman bu qayerdan kelib qoldi! Uning botindan menga qilgan eslatmalarini yoqtirmadim. Buning uchun undan o‘ch olgim keldi. Bunisi uchun o‘zimning qandaydir ustunligimni ko‘rsatishim kerak edi. U qanday ustunlik? Balkim suvda suzib... Men suvda hammadan yaxshi suzaman. Bizning qishloqdagi bolalarning birontasi ham bu borada menga teng kela olishmaydi. Saparga aynan mana shu qobiliyatimni ko‘rsataman-da, uni yengib olaman, deb o‘yladim.

Baxtimga yangam sigirni sog‘ib bo‘lgandan keyin, bizning oldimizga kirdi-da:

— Kimsan, mol boqqan yeringga Saparni ham olib bor, sizlar bilan ko‘ngil yozib kelsin, — dedi.

Ichimdan suyunib ketdim. Mehmonga qarasam, u ham jilmayib qo‘ydi. Demak, u ham borishni xohlab turibdi.

Yeyilmay qolgan qovunlar

Biz o‘zimizning haybatli, lekin qartaygan kulrang molimizni oldimizga solib olib, dalani ko‘zlab yo‘l oldik. Qishloqning chetiga chiqqanimizda mollarini o‘tga haydab qo‘yishib, meni kutib o‘ti-

rishgan Kengesh, Mo‘mun, Erkinlarni ko‘rdim. Sapar ikkovimiz ularning yoniga keldik. Mening eski do‘stlarim yonimdagi begona bolaga tangirqab-sangirkab qaray boshlashdi. Ularning ko‘z qarashlaridan Saparning kiyimlarining tozaligiga ham lol-u hayron, ham suqlanib qarashayotganini payqadim. Ichimda Sapar mening mehmonim ekanligidan faxrlandim.

— Nega qarab turibsizlar? Tanishib olinglar, bu mening mehmonim! — dedim men xuddi yangamga taqlid qilib. Ular tanisha ketishdi.

— Sapar.

— Kengesh.

— Mo‘mun.

— Erkin.

Ular tanishib bo‘lganlaridan keyin, nima qilishlarini bilmay, o‘ta qiyin ahvolda qolishdi. Biron nima demaysanmi deyishganday, menga savolomuz qarashadi.

— Endi molinglarni haydanglar, anhorga ketdik, — dedim men unimni xursand chiqarib.

— Nima uchun? — deb so‘rab, Kengesh oriq qornini qashlab qo‘ydi. U bizning ichimizdagi kattamiz edi. Biroq menga bosh egardi. Qisqasi, mening o‘rtoqlarimning barchasi mendan qo‘rqishardi.

— Nega taajjublanasan? Anhorda nima qilar edik? — deyman unga kesatib. Ko‘z qirim bilan Saparga qarab qo‘yaman: “Ko‘rdingmi, bolalarni qanday boshqaraman!”. Sapar bir menga, bir Kengeshga qaraydi. “Shoshmay tur, ko‘rganingdan ko‘ra, ko‘rmaganing ko‘p”, deyman ichimda.

— Qani ayt-chi, anhorda nima qilardik?— men so‘zimni qayta takrorladim.

— Sho‘ng‘iymiz! Sho‘ng‘iymiz! — deb qiyqirdi Erkin, o‘zining toparmanligidan o‘zi quvonib.

Erkin bizning ichimizdagi eng kenjamiz edi. Biz uni Erkin qiyshiq deymiz. Sababi uning ko‘zlari ayyor bo‘lgani bois, odamga ko‘z qiri bilan qarardi. Biz mollarni anhorning bo‘yiga haydab kelib qo‘ydik-da, o‘zimiz suvga tushish uchun yechina boshladik. Sapar ham yechindi. “Mana, endi mening navbatim keldi”, deb

qo‘yaman ichimda, unga qarab. Bu tugul Kengesh bilan Mo‘mun, Erkinning qulog‘iga:

— Sizlar qarab turinglar, shaharlikka qanday suzishimni ko‘rsataman, — deb shivirlab ham qo‘ydim.

Yechinib bo‘lgandan keyin hammamiz suvga sakrashga tayyorlandik. Bizning anhor chuqur hamda eni yigirma metrcha. Biroq oqimi tinch bo‘lganidan suzishga o‘ta qulay. Shu boisdan men bir qirg‘og‘idan ikkinchisiga to‘xtovsiz suzib o‘ta olardim.

— Chuqurmi? — deb so‘radi Sapar.

“O-ho‘, qo‘rqyapti”, — deb o‘yladim. So‘ngra ovozimni chiqarib shunday dedim:

— Albatta chuqur, agarda suza olmasang, cho‘kib ketasan.

Mehmon indamadi. Men sho‘ng‘iydigan bo‘ldim.

— Bir! Ikki! Uch! O-u-uh!

Suvga boshim bilan sho‘ng‘idim-da, keyin qo‘limni eshkak o‘rnida ishlatib, qayiqmisol suza boshladim. Bir zumda anhorning narigi sohiliga chiqib keldim. Berigi qirg‘oqdagilarning barchasi menga qarab turishibdi. Men katta jasorat ko‘rsatganday, baqrayib qarab qoldim. Mendan keyin Kengesh, Mo‘mun, Erkinlar suvga tushishdi. Birgina Sapar qirg‘oqda qoldi.

“I-ii, shunday bo‘ladi, shaharligim, qo‘rqib turibsan-ku”, deyman xumorim qonib. Lekin vaqt o‘tmasdanoq, kutmagan joydan Sapar baliqday biltiq etib sakrab suvga tushdi-da, qulochini kerib-kerib tashlab mening izimdan suzib ketdi.

Men biroz cho‘chib qoldim. Ko‘zimni Sapardan uzmay qarab turdim. U qirg‘oqqa yetdi-yu, endi suvdan chiqib keladi degan mening o‘yimga qarshi, to‘satdan zudlik bilan burilib, ortga qarab suzib ketdi. Nihoyatda hayron qoldim. “Bo‘lishi mumkin emas? Qanday qilib qaytadan suzib chiqib keta oladi?” degan o‘ylar bilan halak bo‘ldim. Lekin Sapar narigi sohilga osongina o‘tib ketishiga ko‘zim yetib qoldi. Sapar charchamagan ham edi. Buni uning shoshilmasdan, ishonch bilan suzib borayotganidan ko‘rib turdim.

Ish bitdi. Sapar suzib chiqib ketdi. Mening kayfiyatim tushib, narigi betda menga o‘xshab og‘izlarini ochib, Saparga tikilib turgan do‘stlarimni ko‘rdim. Termilishlariga qaraganda, ularning menga rahmi kelib turishganday sezildi.

Eh, hammasi vayron bo'ldi. Suvga ham tushgim kelmay qoldi. Baribir endi foydasiz-da.

Narigi qirg'oqqa yaqingina joydagi katta ko'prik bilan o'tib bordim. Mening borayotganimga Sapardan boshqasi (u qumga yotib olgan edi) termilib qarab turishdi. Men shu damda o'zimni ringdan tushib kelayotgan, yengilib qolgan bokschiday sezdim. Biroq bu ahvolim o'zimni bir yondan xafa qilsa, bir yondan faxrga to'ldirardi. Men o'zimni mag'rur ko'rsatishga tirishdim. O'rtoqlarimning oldida qovog'imni solib qoldim. Sapardan boshqasi menga yo'l bo'shatib berishdi-yu, mendan ko'zlarini uzmay har bir harakatimni kuzatib turishdi. Tobora o'zimni mahkam ushladim. Sapardan nariroq joyga yotib, hech kim bilan gaplashmaslikka, hech kimga qaramaslikka harakat qildim. Do'stlarim ham menga yaqin kelib yotishdi. Bir lahzada Saparni ajratib qo'yganday bo'ldim. Bir payt berigi uchalasi, hozirgina bo'lib o'tgan suzish haqida gapira ketishdi.

— Kengesh, ayt-chi, Sapar rekordchi bo'ldi, a? — dedi kichkina Erkin.

— Tek...

O'sha zahotiyoq ikkinchisi uning og'zini tiyib qo'ydi. Mening kuymagan joyim kul bo'ldi (onam doimo shunday deydi). Boshimni ko'tardim-da, uchalasiga teng ko'zimni olaytirib, zahrimni sochdim. Ular qisilib qolishdi. Men ham o'zimning atamanlik kuchim yo'qolib ulgurmaganiga ishonib, ichimdan quvonib qo'ydim. Ammo... ammo hali o'zimdan o'zim rozi emasman. Hap! Saparga bir sinoat ko'rsatishim kerak-da. Nima qilsam ekan?

Bir payt boshimga bir ajoyib o'y yalt etib keldi-da, quvonib o'rnimdan irg'ib turdim.

— Bolalar chirmoviqni darrov yulib, meni tipratikan qilinglar! — deb buyruq berdim.

Uch o'rtog'imning og'izlari ochilib qoldi.

— Nima uchun?

— Sen nima, osmondan tushganmisan, bilmaganday?! Yoki shahardan keldingmi?!

Gapirayotib Saparga bir qarab oldim. Biroq mening so'zim unga ta'sir etmadi. Bexabar yotibdi.

— A-a, bildim! Bildim! Kimsan Qaliq akaning qovuniga o‘g‘irlikka kiradi, — deb qiyqirdi Erkin. Shu asnoda uning so‘zidan keyin Saparga jon kirdi.

— Qovun o‘g‘irlab? — deya lol qolib so‘radi u.

“Shoshma, hali ko‘rganingdan ko‘rmaganing ko‘p”, — deb g‘udrandim ichimda.

— Ha, — Mo‘mun jon dili bilan tushuntira ketdi Saparga, — bilasanmi, Kimsan butun tanasini cho‘plar bilan o‘rab, tipratikanga o‘xshab oladi-da, so‘ngra qovun o‘g‘irlagani boradi. Bilasanmi, ko‘plab cho‘plarni qovunning poyalaridan mutlaqo ajrata olmaydi kishi. Bilasanmi...

Sapar Mo‘munning so‘zini bundan nari tinglamasdan, qumga qaytib yotib oldi. Mo‘mun biroz arazlaganday bo‘ldi. Hechqisi yo‘q. Baribir biz unga hozir mo‘jiza ko‘rsatamiz.

Meni bolalar birpasda chirmoviq bilan chirmab tashlashdi. Alpozim tipratikanga qaraganda hayvonot bog‘idagi maymunga ko‘proq o‘xshab qoldi. Sapar ham noiloj kulib yubordi. Uning qahqahasidan barchamizning dilimiz yorishib ketdi.

— Xayr bo‘lmasa! — dedim men faxrlangan kuyi o‘zimni ayg‘oqchilikka ketayotgan askarday sezib. Ichkarida qolgan o‘rtoqlarim bir ovozdan:

— Muvaffaqiyating bilan kutamiz, o‘rtoq serjant, — deyishdi. Bu o‘yinni biz ko‘p marta o‘ynab, bolalar meni “serjant” deyishga ko‘nib qolishgan edi. Qaliq cholning qovuni olis bo‘lmagan joyda, anhorning bo‘yida edi. Shu boisdan ortimda qolganlar, mening qovunlarga qanday kirganimni, qanday uzganimni, qayta qanday chiqishmni ko‘rib turishadigan bo‘lgan. Biroq buni o‘zining ko‘rimsiz kapasida uxlab yotgan Qaliq akagina ko‘ra olmas edi. Qaliq otaning odati — kunduzi qovunlarga hech kim tegmaydi deb, ertadan kechgacha uxlar edi-da, tunda qovunini qo‘riqlab uxlamay chiqardi. Shu tufayli sudralib borib ikki-uchta qovunni uzib qaytish menga o‘yinday ko‘rinar edi. Men qovunning poyasiga qadar suvi yo‘q ariqning ichi bilan borib, polizning ichiga ohista sudralib kirdim. Qo‘llarimga ikkita katta qovun urildi. Uchinchisi quchog‘imga sig‘maganligidan, ikkitasi bilan izimga qaytdim.

Men o‘ljalarim bilan qaytib keldim. Bolalar xursand bo‘lib qarshi olishdi.

— Qancha asir olib kelding? — dedi Erkin qo‘limda qancha qovun turganini ko‘rib tursa ham.

— Albatta, ikkita, ko‘rmayapsanmi?

— Xo‘sh, bularni hoziroq so‘roq qilamizmi?

Erkinning navbatdagi savoliga javob berish o‘rniga Saparga ko‘z qiri bilan qarab oldim. Sapar... Sapar meni negadir yoqtirmaganday qarab turibdi.

— Qani, kimda pichoq bor?

Kimning pichog‘i bor ekanini bilsam ham shunday deya so‘radim.

Kengesh pichog‘ini berdi.

— Uzun tilik qilib so‘yaymi yoki qisqami?

— Uzun, uzun.

— Uzun tilik qil.

O‘rtoqlarimning aytganlarini bajo keltirdim. Qovuning bittasini uzun tilik qilib so‘yib qo‘ydim.

— Qani bo‘lmasa, kelinglar yeylik, — dedim.

Sapar bir menga, bir qovunga razm soldi-da, to‘satdan:

— Rahmat, men yemayman, — deya kesatib gapirdi.

Biz hayron qolib, bir-birimizga qaradik.

— Nima uchun? Biz seni mehmon qilib siylayapmiz.

Mening so‘zimga Sapar nima uchundir achchiqlandi.

— Mehmon debmi, a? — dedi u. — Sizlar mehmonni o‘g‘irlik qilib siylaysizlarmi? Oldimizdagi o‘g‘irlangan qovunlar. Birovniki.

Uning so‘zlari otilgan to‘pponchaning sadosiday keskin chiqdi. Mening qo‘limdan qovun tiligi tushib ketdi. Anavilar bo‘lsa olgan tiliklarini qaytadan qo‘yib, o‘rinlaridan tura boshlashdi. Men ham turdim. Sapar bo‘lsa... u ham... O‘rtamizda qiyin ahvol hukm surdi. Agar shu asnoda Kengesh qo‘qqisdan gapirib yubormaganida, bilmayman bu holat qachongacha cho‘zilar edi.

— Hoy, mollar g‘o‘zalarga yetib qolibdi, — deb yubordi Kengesh.

Temiryo‘lning nariyog‘ida kolxozning paxta dalasi bor edi. Qarasam, mollar o‘shalarga yetib qolibdi.

— Ketdik, — dedim.

Barchamiz mollarga qarab yugurib ketdik. Ortimizdan... Sapar ham jo‘nadi. Ko‘p o‘tmay bo‘zarib oftob ham botdi. Havo salqinlab qoldi. Kunning qo‘ng‘ir nurlari g‘o‘zalarga tushib, ular qizg‘ish jilo bergan ko‘zgularga o‘xshab qoldi. Anhorda qurbaqalar qurullab, dalalarda chigirtkalar chirilladi. Biz kun sayin bunday mahalda uylarimizga qaytar edik. Mollarimizni haydab, qishloqni ko‘zlab ketdik. Yo‘lda ketib borayotib biz Sapar bilan hech suhbatlashmadik. Yeyilmay qolgan qovundan keyin Sapar bilan mening o‘rtamda ulkan bo‘linish paydo bo‘ldi. Buni Saparning o‘zi ham payqab qoldi chamasi. Qishloqqa yaqinlashgan kezimizda u bizdan ajralib ketib qoldi.

— Arazlab qoldi, shekilli, — dedi Mo‘mun.

— Arazlasa, arazlayversin, — dedim men. — Nima, undan qo‘rqadigan joyim bormi? Agar ertaga birga boraman desa ham, men endi uni ergashtirmayman.

Uyga kelib, har kungiday sigirni o‘rniga bog‘lab, o‘zim uyga yuz burdim. Biroq dahlizga kelib yana to‘xtadim. Bo‘sag‘ada endi uch juft tufli turibdi: demak, akam daladan kelibdi. Men hadeganda hammasiga qo‘l siltab uyga kirib ketmoqchi bo‘ldim. Ammo mehmon bolaning yana mening izlarimga ko‘z qirini tashlashidan qo‘rqib, yomon tuflimni yechishga majbur bo‘ldim.

Uydagilar choy ichib o‘tirishibdi. Akam mening poyabzalsiz oyog‘imni ko‘rib tan qoldi.

— O‘h-ho‘! Kimsan, sen poyabzalingni yechib kirdingmi? — dedi u kinoya qilib. Yangam bilan Sapar jilmayib qo‘yishdi. Mening bo‘lsa achchig‘im keldi. Akam buni payqadi chamasi, gapni boshqa yoqqa burib yubordi.

— Endi ayt-chi, Kimsan, mehmonni yaxshilab o‘ynatib keldingmi?

Bu savoldan badanim junjikib ketdi. Albatta, unga beradigan javobim yo‘q edi-da. Sapar qovun haqida aytib qo‘yib yurmasin degan o‘yga keldim. Agar aytsa, ishning bitgani o‘sha.

Men har narsalardan shubhalanib, hech narsa deyolmay turaverdim. Meni mehmon bolaning oldida uyalyapti dedi chog‘i, akam qaynisiga yuzlandi.

— Bo‘lmasa Sapar o‘zi aytadi. Qani, Sapash, qanday, ko‘ngil yozib keldingmi? Bizning bolalar yoqdimi senga?

Hammasi vayron bo‘ldi deb turibman. Endi Sapar barchasini aytib beradi. Sapar to‘satdan:

— Yoqdi, — deb yubordi, — hammasi yoqdi. Bular yuvosh bolalar ekan... Kimsan bo‘lsa... — Sapar menga tikilib qolganda yuragim “shuv” etib ketdi.

— Suvda yaxshi suzar ekan.

Men uning so‘zlariga og‘zimni ochib, hayron-u lol qoldim. Nega u meni maqtayapti? Biz uni arazlatib qo‘ygan edik-ku? Ayni damda Saparni shunchalik yaxshi ko‘rib ketdim. Unga ichim og‘ridi: “U yolg‘on aytyapti. Biz uni arazlattirdik”, degim keldi. Lekin bu so‘zlarimdan keyin o‘zimga ham o‘ng bo‘lmasini o‘ylab, indamadim.

— Demak, senga yoqqanga o‘xshaydi-a, ey Sapar? Ertaga yana borasanmi? — deb so‘radi akam qaytadan. Sapar nimagadir menga tikilib qolib, kalovlana boshladi.

— Agar Kimsan olib borsa. . . — dedi keyin u.

— Nega olib bormas ekan? Olib boradi-da, — akam menga yuzlandi. — Kimsan, Saparni ertaga yana o‘zing bilan olib ketasan, shundaymi?

Men boshimnigina silkidim. Tomog‘im bo‘g‘ilib qolgan edi.

Tong saharda

Qiziq! Juda ham qiziq. Jajjigina tuflilar... ko‘kish moy surtilgan top-toza tuflilar. Men ularning kimniki ekanligini tanib qoldim. Mana ular kutmagan joydan anhor bo‘yidagi ikki qovunning yoniga yugurib borishdi. Qovunning biri so‘yilgan, biri so‘yilmagan. Ko‘kish tuflilar ularga hayron bo‘lib qarab qolishdi. Shu asnoda qovunning yoniga eski brezent tuflilar yugurib keldi. “Voy, mening tuflilarim-ku!” — degan o‘zimning ovozimni eshitdim. Lekin o‘zimning qayerda turganimni bilolmay qoldim. Ko‘p vaqt o‘tmay, qovunlarning yoniga yana bir talay tuflilar kela boshlashdi. Men ularning ichidan teshilgan yeriga paxtadan tiqib qo‘ygan Kengesh-

ning tuflisini, so‘kilib ketgan Mo‘munnikini, toshlarga tegib yurib, o‘nggi o‘chib, tulab ketgan Erkinning tuflilarinigina tanib qoldim. Tuflilarning barchasi qovunga yaqinlashib kirib borishdi. Biroq ushbu asnoda so‘yilmagan qovun nimagadir bizning usti shifer bilan yopilgan uyimizday kattalashib ketdi-da, tuflilarning barchasi undan cho‘chib, chetga chiqishdi. Shugina deysizmi? Qovunda ulkan eshik paydo bo‘lib, undan mushtdek bo‘lgan, beli bukri, yuzlarini tirish bosgan, oppoq soqoli ko‘kragiga tushgan Qaliq aka chiqib keldi. U tuflilarga, aylanasiga bir tikilib oldi-da, keyin bor jahli bilan:

— Yo‘qolinglar, o‘g‘rilar! Hap, sizlarni, sizlarni! — deb qiyqirib yubordi. Tuflilar qumursqaday tarqab, chor tarafga qochib ketishdi. Nima bo‘layotganini bilmay, men ham o‘sha tobda tuflilarga aralashib qoldim. Biroq men olisga qocha olmadim. Chopqilab borayotib yiqilib qoldim.

— Turmaysanmi endi, kun choshgohga kelib qoldi! — deb qiyqirdi mening naq ustimda.

Cho‘chib ko‘zimni ochsam, karavotimning boshida akam o‘tiribdi.

Men cho‘zilib, kerisha boshladim.

— Sen mutlaqo o‘zing turib o‘rganmading-da, — deb akam norozi bo‘lgan kuyi uydan chiqib ketdi.

Ushbu asnoda derazaning tagidan, so‘nadan qochgan molday yugurib, kimdir birov o‘tib ketdi. Bo‘ynimni cho‘zib derazadan qarab, hayron qolarli voqeani ko‘rdim. Sapar ichki kiyimchan bo‘lib olib qo‘radagi o‘riklarning shoxlariga Tarzan misoli osilib, o‘ynab yuribdi. Men shundagina bizning uyimizda Sapar yurganini esimga tushirib, xona to‘ridagi u yotgan karavotga qaradim. Karavotning ustidagi ko‘rpachalar kishini suqlantiradigan darajada tartibga keltirilibdi. Shoyi to‘shak, adyol, oq choyshablarning barchasi o‘z o‘rnida saranjomlashtirilgan. Saparning o‘zining galstugi oq ko‘ylagiga juda mos kelgan, yarashgan, yoqimli.

Albatta, bu karavotda dastlab akam yotib yurgan kezda ham ko‘rpalar har doim yig‘ilib turilardi. Ammo bu qadar sarishta bo‘lmas edi. Yo‘q!

Sapar bu ishni qanday qilib bajardi ekan? Derazadan Saparga qarayman. U endi o'riklarning shoxlariga osilishni qo'yib, har xil jismoniy tarbiya mashqlarini bajarayotir. Mening derazadan qarab turganimni ko'rib:

— Hoy, yaxshimisan? Qanday uxlading? — dedi.

Menga uning salomlashgani yot ko'rinishday tuyuldi. U nega so'rashadi? Biz bittagina xonada yotdik, uxlab qolib birgina tunda ko'rishmadik. Shunga ham hol-ahvol so'raydimi? Qolaversa, qanday uxlading degani taajjubga soladi. Odam odatdagiday uxlaydi-da. Bu haqda so'rash uchun hech qanday sabab ham yo'q. Ajab, Saparning fe'li allaqanday edi...

— Kelmaysanmi, mashqlarni birga bajaramiz, — dedi Sapar takroran.

Jinni bo'libmanmi.

— Yo'q, xohlamayman.

Karavotdan tushib ketdim. Keyin sochiqni olib yuvingani jo'nadim. Ostonaga yetganda negadir Saparning karavotiga qaragim keldi. Qaradim. Juda chiroyli. Meniki...

Men umrimda o'z yotog'imni o'zim yig'ishtirgan emasman... Dastlab o'z kolxozimizda ekanimda, oilamizning boshqa a'zolari qatori so'rida yotardim-da, ko'rpa-to'shaklarimni onam yig'ishtirardi. Keyin mana shu Ikrom akam institutni bitirib, mana shu "O'ruktu" kolxoziga agronom bo'lib tayinlandi. O'zi bilan birga shahardayoq otam bilan onamning ruxsatisiz (shuning uchun onamlar akamni yoqtirishmaydi) uylanib olgan Sayra yangamni birga olib kelib, mana shu kolxozda turib qolishdi. Mana shulardan keyingina men oq choyshab to'shalgan karavotda yotishga mumkinchilik oldim. Bu ham bo'lsa akamning sharofati bilan. Bir kuni o'ynab yurgan yerimdan onam uyga chaqirib oldi-da, kimdir birovga achchiqlanib shunday dedi:

— Kimsanjon, bizni Olloh taolo sendan ham ajratadi, shekilli.

Keyin onam yig'lab yubordi-da, o'zining sochiga taqqan mayda qo'ng'iroqchalarni jaranglatib burilib, oq ro'molining uchi bilan ko'z yoshini artdi. Men hech nimani tushunmay turaverdim.

— Qo'zim, — dedi onam takroran, — anavi "O'ruktu"dagi o'ris akang (Ikrom akam soch qo'yib, ruslarning furajkasini ki-

yib olgani uchun onam uni shunday deydi) xotini ikkovi birikib topgan puliga uy olishibdi. Endi ularga xizmatkor kerak emish. Aks holda haligi cho'loq ko'ylak xotini (Sayra yangamni aytyapti) kolxoz kasalxonasida bo'lib, o'zining dala ishlaridan qo'li bo'shamas emish. O'ris akang molini boqtirishga seni so'rayapti. Bo'lmasa deydi o'sha akang, uy ichinglar bilan ko'chib kelinglar, birga yashaymiz deydi. O', dalada qolgur, men endi o'sha cho'loq ko'ylak kelinning qo'liga borib yumushini qilaymi qariganda. Uning uyini yelkamning chuquri ko'rsin. Sen esa bor, oldingda ketayinim. Bormasang u o'ris akang arazlaydi-da, bizga mutlaqo qaramay qo'yadi. Bor, aylanay.

Onam g'iybat gapirganidan charchab ketdi chamasi, so'lakayini yutinib, damini oldi.

— Keyin, — dedi onam birozdan keyin, — sen akangga ayt, seni oltin xotini yaxshi qarasin. To'shagingni yig'sin, ust-boshingni yuvsin. Agar senga yaxshi qarashmasa, qaytib qochib kelaver, uqdingmi?

— Uqdim, — dedim men ichimdan o'ta quvonib.

Ertasigayoq "O'ruktu"ga ketib borayotgan aravaning ortiga ilashib olib, akamlarnikiga keldim. Meni ana shu Sayra yangam nihoyatda yaxshi kutib oldi. Birinchi kuniyoq yangam menga yoqib qoldi. Onamning Sayra yangamni "Cho'loq ko'ylak" degani mutlaqo yolg'on ekan.

Shunday qilib akamning uyidaman. Kelgan kunimoq yangam menga hozirgi yotib yurgan karavotga joy solib berdi. O'shanda birinchi marta oq choyshablar to'shalgan karavotga yotdim. Ertasi kuni ertalab yangam oldimga kirib, meni uyqudan uyg'otdi.

— Tur, erka. Tura qol, to'shaklaringni tartibga keltirib qo'y.

Uning so'zlari qulog'imga yot so'zlarday eshitildi. O'sha zahotiyoq unga onamning qo'ygan shartini aytib qo'ydim. Sayra yangam hang-u mang bo'lib, tashqaridan kirib kelgan kuyoviga termilib qoldi.

— Qari kishi-da, — dedi akam sochiq bilan o'zining uzun burnini, beso'no'qay quloqlarini artib.

— U o'z bilganini qiladi. U aytganday bo'la qolsin. Ko'rpa-to'shagini sen o'zing yig'ishtirib yur.

— Biroq... bolaning o‘ziga yaxshi bo‘lar edi-ku? Tarbiya... — yangamning so‘zini akam bo‘ldi.

— Bilaman, Sayrash. Biroq kampir bilan ma’qul bo‘lmasak bo‘lmaydi-da. Bo‘lmasa uning bu bolasi ham gajir. Chindan ham qochib ketishi mumkin.

Akam topib gapirdi.

— Mayli bo‘lmasa, — dedi yangam umidsizlanib, — sen aytganday bo‘la qolsin.

Ammo yangamning norozi ekanligi shundoq bilinib turardi. Bunday qilgani bilan baribir men suyundim, menga yaxshi bo‘ldi. O‘shandan buyon menga hech kim o‘z to‘shagimni o‘zimga yig‘dirgani yo‘q. Bu, albatta, yaxshi.

Lekin... Voy, Sapar qanday chiroyli yig‘ishtirgan! Balkim unga o‘rgatishgandir. Bo‘lmasa, agar menga ko‘rsatishsa, men ham o‘shanday chiroyli tartibga keltira olaman. Ohista o‘zimning karavotim yoniga yurib bordim. Ammo shu dam tashqaridan Sapar kirib kelib, barcha rejamni buzib yubordi. Cho‘chib ketdim. Choyshabga uzatilgan qo‘limni tortib olib eshikka yuzlandim.

— Avvalo to‘shaklaringni tartibga keltirib qo‘ymaysanmi, — dedi Sapar to‘satdan.

— Menikini yangam yig‘ishtiradi...

— Yangam? Qanday qilib? O‘zing-chi?

Sapar juda hayron qoldi.

— Bilmayman... qo‘ysang-chi endi katta ketavermay...

Mening achchig‘im kelib ketdi. Biroq ichimdan Sapar qilganni qila olmaganim uchun juda o‘kindim. Sapar mening so‘zimdan arazlagani yo‘q. U odaticha hech qanday o‘zgarishsiz qoldi, so‘ngra mening karavotimga qarab yuzlandi.

— Xohlaysanmi... men o‘rgatib qo‘yaman?

Bu mehmon o‘zi ancha usta ekan-da.

Mo‘mun oromgohga boradi

Molini kim haydaydi?

Oh, bizning maskanga oftob tegar ekan-da. Hali choshgoh bo‘lmay turib jimgina vujudingga oro kiradi. Quyoshning bunday

issiq tegishi, albatta, yaxshi. Anhorning suviga tushib chiqqandan keyin, qumga yotib olib toblanasan. Ammo buning ziyon joyi ham bor. Kun issig'ida mollar tez chichanglaydi. Ayniqsa, Mo'munning Targ'il moli issiqda hech tinch yura olmaydi. Kun choshgohga kelganida, o'zingiz bilasiz, mollarning qorni to'ymay turib, kun qizdiradigan payt boshlanadi. Biroq Mo'munning Targ'iliga baribir. U o'z qornining to'ymagani bilan ishi bo'lmaydi. Ishqilib uzun, bulg'angan dumini ostiga so'na yoki pashsha qo'nsa ham — ishning bitgani. Hadeganda lik etib boshini ko'taradi. Keyin bo'ynini burib, dum tarafini poylaydi: chindan ham dumimga bir narsa qo'ndimi, yo'qmi deb. Agar qo'ngani rost bo'lsa, Targ'il bulg'angan dumini baland ko'taradi-da, o'zining quvligini ko'rsatayotganday jini kelib nari-beri yugura boshlaydi. Shu asnoda uning dumi ostidan so'na yoki pashsha uchib ketishi kerak. Bo'lmasa Targ'il birato'la qutulish uchun o'ziga ont berganday dalani tashlab ketadi. Albatta, Targ'il o'zining dushmanlaridan qutuladi. Bu tugul tezgina, qishloqqa yetmasdanoq, haligi ilashgan so'na yoki pashsha undan ajrab qolishadi. Targ'il bo'lsa joni orom olib yo'l bo'yidagi ekinlarning birontasidan taom totish uchun buriladi. Birgina uning ortidan sargardon yugurgan Mo'munning sho'ri. Targ'il mol ko'rgilikni ko'rsatadi boyoqishga. Biroq Mo'mungagina deysanmi? Yo'q!

Qachon Targ'il so'na xavfi tushib jinnilik qila boshlaganda, mening qartang molim ham, Erkinning tik shoxli sarig'i ham, Kengeshning qashqasi ham beparvo qolishmaydi. Targ'ilni ko'rishib, ular ham saqlana boshlashadi. O'rinlarida tipirchilashadi, quyruqlari bilan yonboshlariga urishadi. Ammo bizning mollarimizning bir yaxshi yeri Targ'ilga o'xshab chivin-pashshaga ham chichanglayverishmaydi. Shu tufayli ko'p paytlarda ular Targ'ilning qiliqlarini ko'rishib: "E-e, bemaza, nega uyalmaysan, huda-behuda tipirchilayverasanmi? So'nadan bo'lak pashsha-chivinlar hech nima qilishmaydi, bilsang. Undan ko'ra kun obdan isib ketguncha, qorningni to'ydirib olsang bo'lardi!", deyishganday bo'lar edi norozilik bilan ko'zlarini suzib. Ammo buni orsiz Targ'il tushunadi deysizmi? Yo'q, u bir moxov mol-da. Boyoqish Mo'mun peshanasiga bitgan bu chipqon moldan qutu-

lish uchun qandaygina tilaklarni tilamaydi. U talay marta onasiga Targ‘ilni sotib, o‘rniga bo‘lak mol olib ber, deb janjal ham ko‘targan. Lekin Oyim eja uning aytganlarini uqarmidi?

“Iqboli yo‘g‘-ey! Bizning Targ‘ilchalik sutli, qaymog‘i quyuq sigir butun O‘shni qidirsang topilarmikan?!” deydi u. Ehtimol, topilmasdir. Ammo bizga o‘xshagan molchilar uchun Targ‘il moxov mol.

Mana o‘sha moxov Targ‘il kunlarning birida, aniqroq aytganda, bugun dalaga chiqmay qoldi. Quyosh kichik choshgoh qolib, katta choshgohga bormoqda. Targ‘il bilan Mo‘mundan esa haligacha darak yo‘q. Biz Targ‘ilning yo‘qligidan obdan quvonsak-da, uning nima uchun yo‘qligidan tang qolib turardik. O‘qtin-o‘qtin Targ‘il bilan Mo‘mun keluvchi yo‘lni, qishloq tarafni qarab qo‘yib, anhorning bo‘yida o‘tiramiz.

— Ehtimol, Targ‘ilni sotgani bozorga olib ketishgandir? — dedi Erkin g‘ilay ko‘zining uzun kipriklarini qoqib qo‘yib.

— Iye, bebozor kuni ham savdo bo‘laveradimi? — deb so‘radi Sapar hayron qolib. Uning bugun ikkinchi marta dalaga chiqishi edi. Kechagi aytgan so‘zimda tura olmay, uni bugun qayta erchitib kelganimga Kengesh bilan Erkin menga savolomuz qarab qolishdi. Qarasa nima qilibdi, baribir men ulardan uyalmayman ham, qo‘rqmayman ham.

— Targ‘il kelyapti! — dedi Kengesh to‘satdan, — voy, Mo‘mun onasi bilan?

Chindan sigirining ortidan Mo‘munga qo‘shilib Oyim eja ham kelayotgan edi.

— Onasi nega kelyapti ekan? — deydi Erkin.

— Men qayoqdan bilayin. Qorni och Targ‘il uyiga yetgan zahoti zuqlik bilan o‘t yeyishga kirishib ketibdi. Mo‘mun bilan onasi kunning issig‘ida terlashib yudab qolishgandir.

— Eh, o‘lat, dalaning issig‘i-yey, — dedi Oyim eja Saparga yaqin o‘tirib olib.

Biz indamay o‘tirgan ko‘yi Mo‘munga savolomuz qaradik. Haligi bo‘lsa men uchun onam aytadi, gapirmaysanmi ona deganday, onasiga qarab qo‘ydi. Oyim eja manglayidagi teran tirishla-

rining ichiga turib qolgan terlarini ko‘ylagining uzun yengi bilan artdi-da, so‘ngra bizlarga bir marta ko‘z yugurtirib oldi.

— Erkalarim, sizlar bilasizlarmi men nima uchun kelganimni? Albatta bilmaymiz-da. Shuning uchun indaganimiz yo‘q. Bo‘lmasa men aytay, sizlarga bir darakni yetkazgani keldim. Mo‘mun oromgohga ketyapti.

Barchamiz qo‘zg‘alib ketdik.

— Oromgohga? — deb so‘radi Kengesh ishonmaganday.

— Ha-ha, bugun ertalab boshqaruvchi Seyit kelib yo‘llanma berib ketdi. “Mana, — dedi Seyit, — ol, yetim bolangni oromgohga yubor, dam olib kelsin, — deydi.”

Barchamiz suqlanib Mo‘munga qaradik. Mo‘mun jo‘ngina jilmayib qo‘ydi.

— Molini kim qaraydi? — deb yubordim men Targ‘il yodimga tushib ketib.

— Mana shu haqda sizlar bilan maslahatlashgani keldim, aylanaylar.

— Biz bilanmi? — men lol qolib qatorimda o‘tirgan Kengeshga qaradim. Kengesh bo‘lsa — Erkinga, Erkin — Oyim ejaga.

— Ha, kuchuklarim, — dedi Oyim eja qaytadan, — sizlar bo‘lmay, kim bilan bo‘lardi? Sizlar Mo‘munning do‘stisizlar. Bilaman, Mo‘munni obdan siylaysizlar. Ehtimol, hozir ham Mo‘mun oromgohga borib dam olib kelsin desangizlar, u kelguncha molini qarashib turarsizlar. Nima deysizlar, chiroqlarim?

Kutmagan joydan chiqib kelgan bu kulfat bizni qiyin ahvolga solib qo‘ydi. Men Kengesh bilan Erkinga qarasam, ular mendan javob kutishadi. Sapar, Mo‘mun va Oyim eja uchovi bo‘lsa bizning qanday qaror qabul qilishimizni kutib turishadi. Men boshimni quyi solaman.

— Qani, Kimsan, sen ayt-chi, qo‘zim, — dedi Oyim eja to‘g‘ridan to‘g‘ri menga yuzlanib, — sen Mo‘mun ikkovimizga yordamlasha olasanmi?

— Mening o‘zimning sigirim bor.

Men aranggina g‘udrandim.

— Nima qilibdi. Targ‘il ikkinchisi bo‘ladi. Ikki molni haydasa bo‘ladi-ku.

— Bilmayman...

— Hm-m...

Oyim eja mendan norozi bo‘lib savolini Kengeshga burdi:

— Sen-chi, Kengeshjon?

Kengesh hadeganda menga, keyin teshilgan joyiga paxta tiqib qo‘yilgan tuflisining uchiga qaradi. Undan so‘z chiqqani yo‘q. Savol Erkinga ag‘darildi. U ko‘z qirini menga tashlab, so‘ngra oppoq bo‘lib tulab ketgan tuflisiga egildi. Undan ham hech nima eshtilmadi. Oramizga sukunat cho‘kib, o‘ng‘aysizlik paydo bo‘ldi.

— O‘zinglar bilasizlar-ku, qoqilayinlarim, — Oyim eja yana o‘tina ketdi. — Mo‘mundan boshqa qaraydiganim yo‘q. Molni o‘zimgina boqay desam, kolxozning ishidan qolaman. Sizlar bo‘lsanglar o‘z yordaminglarni ayaysizlar.

Ushbu damda uning ahvoli nihoyatda ayanchli ko‘rindi. Unga ichim ham og‘rib ketdi. Ammo... bizdan un yo‘q... So‘z yo‘q...

— Bolalar, — Kimsan, Erkin, Kengesh, biron narsa desanglar-chi? — deb yubordi Sapar kutmagan yerdan. Uning so‘zini yoqtirmadim.

— Sen Targ‘ilning fe’lini bilmagandan keyin, jo‘n o‘tiravermaysanmi, — dedim men ham kesatib. — Bilasanmi, Targ‘il o‘taketgan yomon mol! Uni avval qaytarib ko‘r, keyin bilasan.

— Mo‘mun haydab-la yuribdi-ku?

— Mo‘mun... Mo‘munning o‘zining sigiri-da.

Mening so‘zimdan umidsizlikka tushgan Oyim eja afsuslanib oldi-da, o‘rnidan turdi.

— Mo‘munjon, endi nima qilamiz? — deb so‘radi u o‘g‘lidan.

— Ona, men oromgohga bormayman...

Biz, albatta, uyalganimizni sezibgina turdik.

— Mo‘mun! Yo‘llanma-chi? Yo‘llanma nima bo‘ladi? — deb Sapar qaytadan kuyib-pishdi. — E, hammasi bitta molning dastidan! — bolalar, — Kimsan, Kengesh, Erkin, — qanday qilib bitta molni o‘rtada qaray olmaysizlar?

— Shu mehmon bolam to‘g‘ri aytyapti, — dedi Oyim eja, jon kirib, ana, uchoving qaytaradigan bo‘lsang, hech qanchalik qiyinchilik bo‘lmaydi, erkalarim. Bittagina mol...

Men hamon nima qilarimni bilmay, Kengesh bilan Erkinga qaradim. Ular bo‘lsa mening so‘zimni kutib turishadi. Chor tarafdan menga javdirab tikilgan ko‘zlar. Eh, moxov Targ‘il. Hech bo‘lmasa ozroq chichanglasayding!..

— Kimsan, bilasan, — dedi Sapar tez-tez gapirib, — men hali sizlarnikida ko‘p bo‘laman-ku? Yordamlashaman. Rozi bo‘laversang.

Men atrofimga ko‘z yugurtirdim. Chor tarafdan menga javdirab tikilib turgan ko‘zlar... hammasi mendan umidvor... Nimagadir mana shu ahvolimdan faxrlanib ketdim.

— Rozimisan?

— ...E, bo‘pti, — rozi bo‘lib qo‘limni siltab yubordim. Birinchi bo‘lib, olaygan ko‘zlarini yayratib, so‘yloq tishlarini ko‘rsatib, Mo‘mun jilmaydi. Keyin onasi:

— Mana, kuchugim, boyagina shunday qilmaysanmi... Endi bo‘pti, qoqilayinlar biz ketaylik. Yur, Mo‘munjon.

Mo‘mun yana bir marta minnatdorchiligini bildirib jilmaydi-da, keyin onasiga erchib yo‘lga tushdi.

— Yaxshi dam olib kel, Mo‘mun! — qiyqirdi Sapar uning ortidan. Ona bilan bola dala yo‘li bo‘ylab qishloqni ko‘zlab ketishdi. — Endi yaxshi qildinglar, — dedi Sapar, bizga jilmayib, — shunday qilmasa bo‘lmas edi-da.

Targ‘il sigir hamda uning yangi boquvchisi

Bizning mol boqadigan dalamiz keng hamda o‘tli. U o‘zimizning qishloqdan boshlangandan tortib, bir cheti anhorga qadaladi. Ikkinchi cheti dalani kesib o‘tgan temiryo‘lgacha yastanib yotgan yashil o‘t-o‘lanli maskan. Bu yerda bizning mollarimiz hech to‘ymay qolmasdi. Ammo... Mana bu Sapar keldi-yu, allaqanday qiliqni boshladi. Biz mollarni o‘z erklariga qo‘yib, o‘zimiz “molim tug‘di” o‘ynab o‘tirganmiz. Kutmagan yerdan Sapar o‘rnidan turib ketib, ikki qo‘llab ko‘kat yulib ketdi. Albatta, biz hang-mang bo‘lib qoldik.

— Ularni nima qilasan, Sapar? — deb so‘radim.

— Targ‘ilga beraman, — dedi u, — uning bugun qorni och. Dalaga kech keldi-da.

Biz “qiqir-qiqir” kulib yubordik. Bu qilig‘imiz Saparga yoqmadi.

— Ee, buning nimasi kulgili ekan? — u ko‘kat yulishni to‘xtatib, bizning yonimizga kelib o‘tirib oldi.

— Bilasizlarmi, — dedi keyin astagina. — Men mol boqishni obdan yaxshi ko‘raman. Bizning sigirimiz yo‘q. Nega bizning molimiz yo‘q deb otamdan so‘rasam, bizning shaharda mol boqish uchun sharoit yo‘q, deydi. Mening bo‘lsa shu qadar mol boqqim keladiki... Sizlar bo‘lsanglar...

Mening Saparga rahmim keldi... Biroq unga bir narsa aytguncha... Mana, Targ‘ildi men moxov sigir demaganmidim?! Shu dam aytganim to‘g‘ri keldimi? Anavi quyrug‘ini baland ko‘tarib, jini kela boshladi.

— Ish bitdi, — dedi Kengesh qisqa burnini qashlab qo‘yib.

— Bular nega xohlaganlaricha yugurib yotishibdi? — deb so‘raydi Sapar og‘zini anqaytirib ochib.

Nima bo‘lar edi, so‘nadan jon saqlashmoqda. Bu asnoda Targ‘il qishloqqa qarab jo‘nadi, uning ortidan qolgan mollar ham.

Biz barchamiz ularni to‘xtatib qolishga oshiqdik.

— X-o‘-o‘sh! X-o‘-o‘sh! Qayt, Targ‘il!

Lekin Targ‘ilning qaytmasligini ham, o‘ziga hech kimni yetkazmasligini ham bilardim. Shu boisdan bunga ovora bo‘lmay qolgan mollarni to‘sib qoldik.

— Targ‘il-chi? Unga endi nima bo‘ladi? — dedi Sapar tinchsizlanib.

— Uyiga boradi, — dedi Kengesh.

— Nima uchun uni to‘smadingizlar? Uning hali qorni to‘ymagan edi-ku. Ustiga-ustak hali tushlik ham bo‘lgani yo‘q.

— Biz nima qilaylik? Baribir to‘stirmaydi, — dedim men.

— Qishloqdan qayta haydab kelsa bo‘ladi-ku?

— Ee, endi qishloqqa ham boraylikmi?

— Bo‘lmasam-chi? Unda biz nima uchun boqishib beramiz deb Oyim ejaga va’da berdik?

— O‘shanda ham sen targ‘ib qilmadingmi? — dedi Erkin ustki labigacha tushib qolgan burnining suvini qayta tortib, uning so‘zi menga yoqib tushdi.

— Ha-ha, o‘shanda ham sen xipchinlagansan, — men Erkinni qo‘llab ketdim, — bo‘lmasa biz olib qolmas edik.

Sapar barchamizni yoqtirmay qarab qoldi.

— Eh, sizlar! — deb qo‘lini silkitdi keyin. So‘ngra o‘sha zahotiyoq kutmagan yerdan qishloqni ko‘zlab jo‘nadi. Biz bir-birimizga termilib qolaverdik.

— Haqiqatan ham Targ‘ilga ketyaptimi? — deb so‘radi Kengesh.

— Qayerdan bilayin, — bo‘ynimni qisdim.

Yarim soatcha vaqt o‘tgandan keyin qishloq tarafdan ikkita sharpa chiqdi-da, biz tarafga qarab kela boshladi.

— Targ‘il bilan Sapar, — dedi Erkin.

Targ‘il kelsa, qaytadan chichanglay boshlab, mollarning tinchini oladi.

— Bilasizlarmi, — dedim men, Targ‘ilni o‘zimizning mollarimizga qo‘shmaymiz! Agar Saparning boqqisi kelsa, bizdan bo‘linib boqaversin. To‘g‘rimi?

— Uh, — deb Erkin qarsak chaldi-da, Kengesh jilmayib qo‘ydi.

— Erkin aytadi, — dedim men.

Erkinning g‘ilay ko‘zlari chaqchayib ketdi.

— Nega men aytaman ekan? Sen-chi?

— U mening mehmonim bo‘ladi. Menga uyat. Senga bo‘lsa hech nima emas. Ma’qulmi?

Shu asnoda Sapar ham kelib qoldi. U chunonam charchagan, terlagan. Yaltiroq tuflisini qo‘liga ushlab, shimining poychalarini tizzasigacha shimarib olibdi. Chamasi, bir joydan suv kechib o‘tganga o‘xshaydi. Yana... Nimagadir ko‘zlarida yosh bor. Tushunmadim...

— Nima bo‘ldi, Sapar? Nega yig‘lading? — U yerga o‘tirib oldi-da, poychalarini tushira boshladi.

— Yig‘lamay nima qilardim? — dedi u biroz arazlaganday bo‘lib, — borsam oyog‘i cho‘loq Bo‘ribay deganinglar Oyim ejani uyat so‘zlar bilan so‘kayotgan ekan.

— Voy, u kolxozning qorovuli-da! Nima, Targ‘il g‘o‘zaga tushgan ekanmi?! — dedim.

Biz Bo‘ribay akaning kimligini yaxshi bilardik. U nihoyatda achchig‘i tez, gajir kishi. Unga ko‘p marta mollarimizni qo‘liga tushirganmiz.

— Ha-ha, ikki tup g‘o‘zani yegan ekan, — dedi Sapar. — Shuning uchun Oyim ejaga shunchalar rahmim kelib ketdi... yig‘-ladim, bo‘lmasam-chi, qarigan kishi...

Erkin “aytaymi” deganday, Sapar tomonga bosh silkib, menga belgi berdi. Men Saparga qarab turib, ichim achishib ketdi. U nima gunoh qilgan edi bizga?

Mollarning yo‘qolishi yoki o‘g‘irlangan kamera

Mol boqishda ikki qiyinchilik mavjud. Birinchisi, mol so‘nadan chichanglab qochgan davr. Bu payt siz o‘z molingizni to‘sib qolaman deb uning ortidan yugurasiz. Charchaysiz, terlaysiz, kuyukasiz. Qisqasi, azob. Ikkkinchi holatni yengil deb turibsizmi? Bu ham azob. Bunda molingiz siz borib o‘yinga yoki suvga tushishga alahsib qolganingizda kolxozning ekiniga kirib ketadi. Bundan bizni foyda topadi deysizmi? Balonimi?.. Kolxoz qorovuli Bo‘ribay aka uni ekinzordan og‘iz tekkizmay yotiboq ko‘radi-da, birpasda jonivorini minib, yetib keladi. Mana shundan tortib azob boshlanadi. Bo‘ribay aka molingizni kolxozning molxonasiga olib borib qamaydi. Bu esa ana shu mol egalarining sho‘ri. Albatta, qamalgan mollarning ortidan siz borasiz. Sizni kolxoz idorasi oldida Bo‘rubay aka qarshi oladi. U chaqchaygan ko‘zlari bilan sizga tikilib olib, so‘ngra qahrli tarzda: “Mening ortimdan yur”, deydi. Siz yog‘och zinalar bilan chiqib borib, nihoyat chap qo‘li yo‘q, qovog‘i solingan yigitning oldiga kelib qolasiz. Bu kishi kolxozning hisobchisi Jusup aka. Jusup aka sizga boshdan oyoq bir qarab chiqadi. Keyin qovog‘ini undan ham battar solib, o‘zi o‘tirgan stolning tortmasida bu yil biz bitirgan “3-B”ning (siz qaysi sinfda o‘qishingizni bilmayman) sinf jurnaliga o‘xsha-

gan sirti ko‘k, qalin jurnalini sug‘urib chiqadi. Bu paytda haligi Bo‘rubay aka ham savolomuz qarab oladi. Bo‘rubay aka qanday rol o‘ynashini o‘sha yerda bilasiz.

“Falonchining moli” deydi u ko‘sa mo‘ylovini silab-silab. Albatta, qamalgan molni o‘zimniki deb yurganingiz bilan, bu yerda Bo‘rubay aka molni sizning otangizga, akangizga yoki jiyaningizga taalluqli qilib qo‘yadi. Sizdan biroz xafa bo‘lganday bo‘lib qoladi. Xafa bo‘lmang, baribir molni o‘zingiz boqasiz.

Bo‘rubay akaning so‘ziga ulab Jusup aka jurnalini varaqlab qo‘yib, bir narsalarni yozadi. Uning nimani yozganini siz bilmaysiz. Bundan keyin sizni Bo‘rubay aka molxonaga olib keladi-da, cho‘ntagidan ancha izlab, katta qora qulfning kalitini topib chiqarib, molingizni bo‘shatib beradi. Siz quvona-quvona molingizni haydab ketasiz. Eng qiyin azob sizni uyingizda kutib turadi. Albatta, uyingizdagilarga molingizni qamatganingizni sezdirmaslikka tirishasiz. Lekin bekorga ovora bo‘lasiz. Ular allaqachon barchasini bilib olgan bo‘lishadi. Uydagilaringizdan birov (masalan, Kengeshni pensioner otasi, Erkinni onasi, Mo‘munni Oyim eja, meni akam yoki yangam, sizni bo‘lsa... (men bilmayman) qarshingizdan to‘sib chiqadi-da, sazoyingizni qo‘lingizga beradi.

— Eh, tug‘mas xotin! — deydi misol uchun meni akam, — sen qachon odam bo‘lar ekansan, a?! Qachon? Qanday qilib bittagina molni yaxshilab qaray olmaysan? Nega? Sen bilasanmi, har safar molni qamatganingda mening besh kunlik mehnatimni qirqadi? O‘sha besh kunlik mehnat qanday bo‘lishini bilasanmi, kallavaram?!

Siz shundagina Jusup akaning o‘z jurnaliga nimani yozganini anglab yetasiz, shundagina oilangiz oldida gunohkor ekaningizni sezasiz. O‘sha kuni siz qozonning tagida qolgan sutning qirmochidan ham, quyuq qaymoqdan ham, nonning betiga surtib beriluvchi sariyog‘dan ham quruq qolasiz. Boisi uydagilaringizning sizga bo‘lgan achchig‘i tarqamagan bo‘ladi. Ey, Xudo, yuzini teskari qilsin (onam har doim shunday deydi) aytib o‘tirsa, bu — azobning azobi.

Mana, kunlardan bir kun, bugun bu azob menga hamda mening o‘rtoqlarimga qaytalandi. Mollar yana qamaldi. Bilasizmi, bu qan-

day bo‘ldi? Aytib beraman. Suvga tushib chiqqandan keyin anhorning bo‘yida nimani o‘ynashimizni bilmay o‘tirgan edik. Bir payt olis-olisdan poyezdning uni eshtilib qoldi. Siz o‘zingiz ham yaxshi bilsangiz kerak, bizning kolxozning yeridan temiryo‘li o‘tib, “Frunze—Jalolobod”, “Jalolobod—Frunze” poyezdlari qatnaydi. Hozir kelayotgan “Frunze—Jalolobod” poyezdi edi.

— Bolalar, — deb o‘rnimdan turib ketdim, — kimda yigirma tiyinlik bor?

— Xo‘sh, nima qilmoqchisan? — deb so‘radi Kengesh. Qolganlari tushunmay turib qolishdi.

— Nima qilishni bilmaysanmi?

— Eh, topdim, topdim! — Erkin chapak chalib yubordi. — Tiyinni relsga qo‘yib, g‘ildiraklarga debsatasan. Poyezd o‘tib ketgandan so‘ng olib qarasang, kichkinagina tanga yalpayib, o‘ta katta bo‘lib qoladi. Shundaymi, Kimsan? Men kimda tanga borligini bilaman. Kengeshda bor.

— Yolg‘on, — dedi Kengesh.

— Yo‘q, bor. Yigirma tiyinini qizg‘anyapti. Ishonmasang qarab ko‘r, shimining cho‘ntagida.

Men Kengesh tarafga yurdim.

— Ovora bo‘lma, mening o‘ng cho‘ntagim teshik, mana.

U chindan ham teshik ekan.

— Unda chap cho‘ntagida, — dedi Erkin.

— Eh, tentak? Nega menga buncha yopishib qolding? Chap cho‘tagimda ham yo‘q, bilmoqchi bo‘lsang!

Kengesh chap cho‘ntagini ko‘rsatdi. Unda ikki tosh soqqa hamda bitta o‘chirg‘ichdan bo‘lak hech vaqo yo‘q ekan.

Mening umidim puchga chiqdi. Biroq Sapar o‘ng cho‘ntagini kovlayotganini ko‘rib, qaytadan jonlana boshladim.

— O‘n tiyinlik bo‘lsa ham yaraydimi? — deb so‘radi u.

Albatta, yaraydi.

— Ber tezroq. Ketdik, poyezd kelib qoldi.

Anhorning bo‘yidan temiryo‘lgacha yer qiyalik. Yugurib bordik-da, tiyinni relsga qo‘ydik. Poyezd yaqin edi. Bizni ko‘rib paravozning kabinasidan boshini chiqarib mashinist achchiqlanib

qo‘lini bigiz qildi. Biroq biz qo‘rqqanimiz yo‘q, baribir u urolmas edi.

Chetga chiqib vagonlarga boqib turaverdik. Vagonlardagi kishilar ham bizga qarab o‘tib borishardi. Tamburda turgan qandaydir bir chechak bosgan bola bizga qarab tupurib yuborgan edi, mening betimga kelib sachradi. Achchig‘im kelib, yerdan kesak olib otdim. Biroq bolaga tegmadi. Jahli chiqqan chechak bosgan bola tugilgan mushtumini ko‘rsatib qo‘ydi. Bundan battar izza bo‘ldim. Kesak olib qaytadan otdim. Biroq bu safargisi keyingi vagonning tamburida turgan katta qizga tegdi-da, qiz qo‘li bilan yuzini bosib qoldi. Qizning yonida turgan uzun bo‘yli yigit o‘sha zahoti qizga burilib ketdi. Men o‘z qilmishimdan biroz cho‘chib tushdim. Biroq qo‘rqqanim yo‘q. Baribir ular meni jazolasha olishmas edi.

Uzun sostav o‘tib ketdi. Biz yugurib borib tiyinimizni topdik. O‘n tiyinlik, bilasizmi, qanchalik kattayibdi? Xuddi besh tiyinlik sariq chaqaday bo‘lib qolibdi! Biz uni bir-birimizdan talashib ko‘ra boshladik. Biroq bizning quvonchimiz uzoqqa cho‘zilmadi.

— Bolalar! Mollar yo‘q! — dedi Kengesh to‘satdan.

Chor atrofimizga qarab bironta ham molni topa olmadik. Yugurib anhorning bo‘yiga chiqdik. Anhorning bo‘yi do‘nglik yer bo‘lganidan, o‘ydim-chuqur yerlar yaxshi ko‘rinadi. Shunday bo‘lsa ham biz sigirlarimizni topa olmadik.

Mening o‘yimga Bo‘rubay aka kela qoldi. Ehtimol, mollar biz suvga tushayotgan kezdayoq kolxozning ekiniga kirgan ko‘rinadi, deb o‘yladim.

— Tushunarli, — dedim. Kengesh esa tushunolmadi.

— Nimasi tushunarli?

— Nima, nima deyapti?! Mollar yo‘qolgan bo‘lsa nima qilibdi?

— Ha-a, bildim. Bildim. Bo‘rubay aka haydab ketgan, — Erkin yana kaftlarini urishtira boshladi.

— Ey, tentak, nega quvonasan? — deb Kengeshning achchig‘i kelib uni turtib yubordi. Haligi qovog‘ini uydi.

— Endi nima bo‘ladi? Kimsan? — Saparning ko‘zlari javdirab, menga qaradi. Men o‘ylangan kishi bo‘lib turib, so‘ngra:

— Kolxozning idorasiga borish kerak. O‘sha yerda hammasi ayon bo‘ladi, — dedim.

Keyin o‘zim yo‘l boshladim. Yo‘lda borayotib idorada bizni o‘sha biz ko‘nikib qolgan odat, men sizlarga aytib bergan qoidalar kutib turadi, deb o‘yladim.

Ammo bu safargi jazoyimiz avvalgisidan bo‘lakcha boshlandi. Rost, bizni yana Bo‘rubay akaning o‘zi qabul qildi.

— Keldinglarmi, tentaklar? — dedi u qahrli ohangda chaqchaygan ko‘zlarini o‘ynatib. U idoraning oldidagi uzun o‘tirgichda o‘tirgan edi.

— O‘tiringlar, — dedi u o‘zining yonidan o‘rin ko‘rsatib, — hozir rais kelib, sizlar bilan o‘zi gaplashadi.

Rais haqida eshitib, bizning hushimiz chiqib ketayozdi. Bir-birimizga qaradik. O‘rindig‘iga o‘tirganimiz ham yo‘q. Qolaversa, o‘tirguday ahvolda ham emas edik.

Kutmagan joydan idoraning burchidan rais Seyit aka bilan haydovchi Abdirayim aka bir narsani talashib-tortishib chiqib kelishdi. Raisimiz bo‘yi qisqa, qorni katta, mo‘ylovlari Chapayevning mo‘yloviday uzun kishi. Lekin u Chapayev kabi boshiga papax kiyib, yoniga qilich taqinmaydi. Telpak o‘rniga qirg‘iz qalpoq, qilich o‘rnida esa enli qayish kamariga qistirib qo‘yilgan qamchisi bor.

— Yana aytaman, — dedi rais achchig‘i kelib uzun bo‘yli haydovchiga quyidan yuqoriga qarab, — men senga odam topib bera olmayman. Dorini o‘zing tushir.

Abdirayim aka raisga bir narsa demoqchi bo‘lgan edi, bizni ko‘rib qolib jo‘ngina shivirlay ketdi. Uning so‘zini uqib, Seyit aka bizga qarab, so‘ngra haydovchiga yomon ko‘z bilan boqdi. Ammo haligi raisning yelkasini qoqib, yana bir narsalarni aytib mardlashib ketganida, rais burilib biz tomonga yo‘l oldi.

— Ha-a, shumtakalar, — dedi Seyit aka bizga yaqin kelib. Qamalgan mollarning egasi sizlarmi? Shundaymi?

Indamadik.

— Yaxshi bo‘pti, — dedi Seyit aka, — hozircha anavi Abdirayimga boringlar-da, uning aytganini qilinglar. Keyin qaytib oldimga kelasizlar, sizlarga tegishli jazo qo‘llayman. Yoki molinglarni butunlay so‘yib (Yolg‘on. Uning mol so‘yganini hech

ko‘rgan emasmiz.), yoki sizlarni tartibsiz o‘quvchilar deb gazetaga chiqaraman.

Bunisi ham yolg‘on. Seyit akaning uyida bir narsa qilishga qo‘li mutlaqo bo‘shamas emish. Buni Seyit akaning biz bilan birga o‘qigan Sayrash degan qizi aytgan. Bu tugul shaharda o‘qigan katta qiziga xat yozishga ham vaqti yetmaydi. Sayrashga tayinlaydi. Bu haqda ham Sayrash o‘zi maqtangan. Shu boisdan raisning so‘ziga mutlaqo ishonmaymiz. Lekin berigilar ishonganga o‘xshaydi, nima qilamiz deganday menga qarab olishdi.

— Yuringlar bo‘lmasa, — dedi Abdirayim aka ro‘paradan chiqa solib.

— Endi sizlar mening qo‘l ostimdasizlar.

Biz indamay uning ortidan ergashdik.

— Ish ham unchalik ko‘p emas, — dedi haydovchi bizni superfosfat yuklangan mashinasining yoniga olib kelib, — mana bu kuzovdagi yukni 5-brigadaning shiyponiga olib borib tushirib kelamiz. Ma’qulmi? Shundan keyin bo‘shsizlar. Qani bo‘lmasa, kuzovga chiqinglar.

— Voy, chang ekan, — dedi Sapar kuzovga qarab turib. Men uning oq ko‘ylagiga, yaltiroq botinkasiga ko‘z yugurtirdim. Endi, shaharligim, boshingga tushganni ko‘raver.

— Unda sen kabinaga kel, — dedi shofyor Saparga.

Mening ichim kuyib ketdi. Biroq hechqisi yo‘q. Kuzovda yanada shamollab ikki tarafga qarab ketasan.

Birinchi bo‘lib kuzovga o‘zim chiqdim, superfosfatning ustida yotgan mashinaning kamerasiga sakradim. Ha-ha, kameraga... Mening ko‘zlarim olayib ketdi. Siz bilasizmi, kamerani nima qiladi? Voy, bu shunchaki qayiq emasmi! Hadeganda uni velosipedning nasosi bilan (u bizda yo‘q), yoki jo‘ngina puflab yelga to‘ldirasiz-da, keyin ko‘lga (bizda ko‘l o‘rniga anhor bor) tashlaysiz. Mana, qayiq degani shu, ustiga o‘tir-da, xohlaganingcha suzaver.

Mening yuragim dukkullab tez-tez urib yuborganday bo‘ldi. Ohista haydovchiga qaradim. Abdirayim aka bo‘lsa hech nimadan bexabar mashinani qo‘zg‘atdi. Men Kengesh bilan Erkinga ko‘z qisdim. Kengesh kamerani nari-beri qarab chiqdi-da, menga uning teshik joyini ko‘rsatdi.

— Eh, galvars, uni o‘rikning yelimi bilan yopishtirib qo‘yamiz.

— Qanday qilib o‘g‘irlaymiz?

— Shoshma, hozir mashina dalaga chiqadi.

Biz yo‘lini topdik. Abdirayim aka suvi yo‘q kichkina ariqdan o‘tib borayotgan damda men kamerani kuzovdan irg‘itdim. Baxtga yarasha, kamera o‘sib ketgan cho‘plarning orasiga tushdi. Ha-ha, baxtga yarasha...

O‘yindan o‘t chiqdi

O, men nima qilib qo‘ydim? Nima qilib? Aslida shuni xohlaganmidim? Shunday bo‘ladi deb o‘ylabmanmi? Yo‘q, yo‘q! Yo‘q!

Hammasi kameraning kasofatidan bo‘ldi. Biz uni yaxshi o‘yin bo‘ladi deb o‘ylaganmiz. Teshilgan joyini o‘rikning yelimi bilan chapladik. Barchamiz ichimiz ko‘pgancha puflab, yel bilan to‘ldirdik. Keyin bo‘lsa... keyin anhorga olib borib tashlab o‘ynadik. O‘yin barchamizga yoqdi. Ehtimol, hammasi joyida ketaverar edi, agar men...

Eh, hammasini qilgan men!

Bir kuni. Qayerdan boshimga kelganini o‘zim ham bilmayman, kameraning o‘rtasiga kirgim keldi.

— Bolalar! Sapar, Kengesh, kamerani tik qilib ushlab turinglar. Men uning o‘rtasiga kiraman, — dedim.

Hech biri tushuna olishmadi.

— Nima uchun, Kimsan! — dedi Kengesh.

Mening nimagadir achchig‘im kelib ketdi.

— Eh, sen doimo so‘rayverasan! Shuni ham bilmaysanmi?

— Qayerdan bilayin, agar ko‘rmasam...

Rost, u bilmas edi.

— Bo‘lmasa bunday, — dedim o‘z xatoyimni sezgandan keyin ovozimni pasaytirib, — men kameraning o‘rtasiga kirib joylashaman, sizlar bo‘lsa kamerani dumalatasizlar.

— Kameraning o‘rtasiga sig‘masang-chi? — dedi Erkin.

— Sig‘aman. Mana, qarab turasan, sig‘aman. Kamerani ushlab tur-chi.

Sapar bilan Kengesh kameraning ikki yog‘idan yo‘lab turishdi. Kameraga sig‘ish chindan ham qiyin kechdi. Hadeganda boshimni sig‘dirib, keyin oyoqlarimni yig‘ishtirdim. Ikki qo‘lim bo‘lsa oshib qoldi.

— Qo‘limni ortimga qilinglar, — dedim.

— Qayrilib qolmaydimi? — Sapar hayron bo‘ldi.

— Hechqisi yo‘q.

Erkin keldi-da, avval bir qo‘limni, so‘ngra ikkinchisini ortga qayirib, kamera bilan o‘z badanimning o‘rtasiga qistirib qo‘ydi. Mutlaqo qimirlay olmay qoldim. Endi mening ahvolim yangi chiqqan oyga yoki yoyga o‘xshab, yarimoyni tashkil qildi.

— Qisilib qolmadingmi? — deb so‘radi Kengesh.

Albatta, bo‘ynim qisilib, tiralib turgan oyoqlarim tolib, jimirlab borayotgan edi. Biroq nomus qilib berigilarga bildirganim yo‘q.

— Qani, dumalataveringlar! — deb buyruq berdim.

— Men dumalataman...

— Men, — deyishib talasha ketishdi, bolalar.

— Chug‘urlamanglar, barchangizga yetaman. Sapar, sen dumalat, — deb qo‘ydim. Yer tekis edi. Sapar dastlab asta-sekin, keyin tez-tez dumalata boshladi.

Mazzaning bari meniki bo‘ldi! Lekin ko‘p o‘tmasdanoq boshim aylanib ketdi.

— To‘xtat! — dedim.

Sapar kamerani ushlab qoldi.

— Qanday, yaxshi ekanmi? — bu savolni Erkin bergani bilan berigilarning ham bergisi kelib turardi.

— Albatta! — dedim o‘zimning o‘ylab topganimdan o‘zim faxrlanib.

— Biz-chi, qachon sening o‘rningda bo‘lamiz?

— Bo‘lasizlar. Barchanglarga yetadi. Endi bo‘lsa meni shu bo‘ydan anavi anhorning bo‘yiga olib chiqib, pastga qaratib dumalatib yuboringlar.

O‘ylab topganimni qarasangiz!

— Voy, u yer baland-ku? — dedi Sapar esi chiqib.

— Juda yaxshi, — dedim, — bilasanmi u yerdan qanday ajoyib dumalaydi? Tez-tez, tez...

— Unda qayerda to‘xtaydi?

— Temiryo‘lga yetaverishdagi yalanglikda.

— Qani, yuringlar.

Meni nari-beri turtishib anhorning bo‘yiga olib chiqishdi.

— Voy, men qo‘rqaman! — dedi Sapar.

— Nima uchun?

— Bilasanmi? Sen yalanglikka yetmayoq yiqilishing mumkin.

— Boshing ham aylanadi, — dedi Kengesh.

Men ularning aytganlarini to‘g‘ri topib, ozgina sabr qilib turdim. Ammo aylanib qulagan damdagi rohatni eslab barchasiga tavakkal qildim.

— Hechqisi yo‘q, mana ko‘rasizlar, hech nima bo‘lmayman.

Bu so‘zlarim bilan o‘rtoqlarimni ham, o‘zimni ham yupatganday bo‘ldim.

— Hozir birdan uchgacha sanayman, uchinchisida qo‘yib yubo rasizlar. Ma’qulmi? — dedim. — Biroq tekis qo‘yib yuboringlar. Yiqilsa ham tekislikka yetib yiqilsin. Qani, tayyorlaninglar!

Shunday dedim-da, keyin nimagadir qo‘rqib ketdim. Lekin uyaldim.

— Bir! Ikki! Uch!

Kamerani qo‘yib yuborishdi. U dastlab ohista, keyin tobora tezlay boshladi. Tez orada jadallasha boshladi. Ko‘zlarimga hech narsa ilashmay qoldi, boshim aylanib ketdi, o‘zimni qo‘rquv bosdi. Kamerani eplab qulatgim keldi. Ammo yerga qattiq tegishimni o‘ylab, undan battar qo‘rqib, qaytadan o‘zimni mahkam tutishga harakat qildim. Pirildoq! Pirildoq! Pirildoq! Men o‘zimni boshqara olmay qoldim. Qo‘rqib qiyqirib yubordim. Oxirida badanim qalt-qalt etib seskanib oldi-da, keyin to‘xtab qoldi. Boshim qattiq narsaga urilganday bo‘ldi. Ko‘zimni ochsam, yer ostin-ustun bo‘lib turibdi. Ko‘zimga ikki-uch kunchalik yerda turgan uch kishining sharpasi, xuddi mening o‘zimga kelib taqalgan egri-bugri temir yo‘llar urildi. Biroq ular bir joyda turmay, ko‘zga ilashmay, aylanib turishardi. To‘satdan qulog‘im poyezdning yer ostidan chiqqan ovozini uqdi. Yarim jon bo‘lib yotganim bilan, qo‘rqinchni sezib, yuragim halqumimga kelib qolganday bo‘ldi. Jonimning boricha

intilib ko‘rdim. Biroz siljiganday bo‘ldim. Sababi jag‘im muzdek temirga tegdi. Relsda yotganimni aniqroq angladim. Yana intildim. Ammo bu safar hech narsaga quvvatim yetmadi. Qo‘l-oyog‘im jonsizday sezildi.

Poyezdning hayqirig‘i yana eshitildi. Bu safar uning ovozi o‘ta qattiq chiqdi. A’zoyi badanim jimirlab ketdi. Qo‘rqib ketib ko‘zimni yumdim. Shu asnoda birov meni yerdan ko‘targanday bo‘ldi. Nima bo‘lganini o‘ylagunimcha, vujudim boz lo‘qqillay boshlab, boshim yana aylanib ketdi. Bundan keyingisini bilmayman. Bir payt sergaklanib qoldim. Uyqusirayotganday ko‘zimni ochib, hadeganda ichiga suv quyilgan Erkinning yirtiq do‘ppisini, keyin bu do‘ppini labimga taqab turgan, har doimgi qora yuzi oqarib ketgan akamni ko‘rdim. Birozdan so‘ng yelkamdan yo‘lab turgan yumshoq qo‘llarni sezdim. Burulib qarasam — Kengesh ekan. O‘zimning qaysi yerda ekanimni bilishga ham harakat qildim. Men shundagina boshimdan o‘tkazgan voqeani eslay boshladim. Kun botib, kech tushay deb qolibdi. Alanglab ikki tomonimga qaray boshladim. To‘satdan balandroqda temiryo‘lni, uning yonida turgan Abdirayim akaning mashinasini, dupurlagan ko‘plab odamlarni ko‘rdim. Hayron bo‘lib qoldim. Nima uchun mashina? Shuncha ko‘p odamlar nimaga kelishgan. Yuragim qandaydir bir yomonlikni sezdi. Tinchsizlanib akamga qaradim.

— Nima qilib qo‘yding? Nima qilib? — dedi akam asta, biroq o‘ta qahrli tarzda, — sen bir borib ko‘r-chi, nima ish bo‘lib o‘tdi ekan? Shumshuk, qachon odam bo‘lar ekansan?!

Men tushuna olmadim. Yuragim esa hamon yomonlikni sezib yotardi. Akam mening qo‘llarimdan mijiqlab ushlab, tikka turg‘izdi-da, temiryo‘lga qarab sudrab jo‘nadi. Kengesh mening qo‘ltig‘imdan yo‘lab oldi. Voy, oyijon! Men o‘z ko‘zimga o‘zim ishonmay ketdim! Qaysi yerdan to‘planishganini bilmayman, bu yerda qo‘ltiqtayoqchan Bo‘rubay aka, ko‘ylagini sudragan Oyim eja, qamchisini yonboshiga qistirib olgan Seyit aka, yalangbosh Erkin hamda bizning qishloqning kampir-chollari, bola-chaqalarning barchasi yurishadi. Ular negadir bir narsani o‘rtaga olib, o‘rab turishadi.

Biz yaqin kelganimizda (hayron qolarli) nimagadir odamlar ortga chekinib yo'l berishdi. Men botinolmay to'pga kirdim. Ko'zim tinib ketdi. Abdirayim akam bilan oq xalatchan yangam allanimalarnidir shivirlashib, kuymanishib turishibdi. Yangam negadir ho'ngrab yig'laydi. Yerda bo'lsa... yerda sulayib Sapar yotibdi. Uning ko'zlari arang yaltiraydi... Rangi oqarib ketgan. O'ng oyog'ining oshig'idan quyi qismi yo'q... Qip-qizil go'sht... Qora-qo'ng'ir qon... Chidab tura olmadim. Ko'zimni yumib, bor kuchim bilan qiyqirib yubordim. Qulog'imga Bo'rubay akamning so'zi eshitildi.

— "O'yindan o't chiqadi", degani mana shu bo'ladi.

Yig'lagim keladi

— Qachon odam bo'lar ekansan? — deydi akam, bir so'zini ming bor qaytalab, — qachon?

Sapar yotib yurgan karavotga o'tirib olib, u meni ham so'kib, ham menga nasihat qilar edi. Men uning manglayida, derazaning tagidagi o'z karavotimda o'tiraman. Akamning pand-nasihati allaqachon bezor qilgan. Shu tufayli uning so'zlarini eshitsam eshitaman, eshitmasam eshitmay ro'paramda ilinib turgan ko'zguda rang-ro'yimga qarayman. Bugungi bo'lib o'tgan kulfatlar oqibatida, oriq jag'larim shishib semirib qolibdi. Sap-sariq tuki bor manglayim yorilib, qonning dog'i qorayib turadi. Uzun burnimning uchi bilan tarvaqaylagan qulog'im ham sog' qolmasa kerak, egri-bugri chizilgan izlar ko'rinadi. O'zimning bu ayanchli ahvolim, Saparning halokatga uchrashi mening yuragimni o'yib, qayg'uga botiradi. O'zimdan o'zim yig'lagim keladi. Akamga sezdirmaslik uchun deraza tarafga burilib olaman.

Qo'ra qop-qorong'u hamda tinch. Bir payt darvoza g'iyq etib, qo'raning o'rtasida yangamning sumbati ko'rindi. U Saparni tuman kasalxonasiga olib borib qaytib kelgan. Uyga kirib, hech kimimizga e'tibor bermasdan, asta yurib borib bo'sh o'rindiqqa o'tirib oldi. Boyoqish yangam charchagan, xafa.

— Qanday, Sayrash? — akam Sapar haqida so'radi.

— Durust, operatsiya qilishdi.

Yangam ko‘ngli to‘q aytdi-da, lekin o‘sha zahoti ko‘zlaridan yosh quyilib ketdi. Mening unga termilgim kelmadi. Yuragim qisildi. Yig‘lagim kelardi... O‘zimni tutib turolmasligimni bildim-da, yugurib eshikka chiqdim. Nima bo‘lganda ham tashqari yaxshi. Emin-erkin. Tinch.

Men qorong‘i ko‘chaga yuzlanib, maqsadsiz qadam tashladim. Boshimdan Sapar haqidagi o‘ylar arimaydi. Qanday qilib u... meni o‘limdan qutqarib, o‘zi poyezdning ostida qoldi ekan? Men bu haqida haligacha hech nimani eshitganim yo‘q. Hammasini bilgim keladi...

To‘satdan qandaydir g‘o‘dranib gaplashgan ovozlar eshitildi. Burilib qarab, Oyim ejaning darvozasi oldida turishgan Kengesh bilan Erkinning savlatini tanidim. Lol qoldim. Nega bu yerda turishibdi?

— Kirgandan keyin, sen ayt, — dedi Kengesh.

— Yo‘q, o‘zing ayt.

Bu ovoz Erkinniki edi.

Men ularga yaqin borib, nima haqida so‘z qilishayotganini bilmoqchi bo‘ldim. Biroq endigina mana shunday deya o‘ylaganimda, ikkalasi Oyim ejaning qo‘rg‘oniga kirib ketishdi. O‘rnimda turib qoldim. Ko‘p vaqt o‘tmay, qo‘rg‘ondan Oyim ejaning hayqirig‘i eshitildi.

— Nima?! — dedi Oyim eja nimagadir, — molingizni bering deysizlarmi?! Nega? Yo‘qolinglar, haromtomoqlar! Yo‘qolinglar deyapman, ko‘zimga ko‘rinmay! Boqilmasa boqilmay, ochdan o‘lsin o‘sha mol! Bu molni boqib berishni xohlagan odam sog‘ oyog‘idan ajradi. Sizlar aybdorsizlar bunga...

— Nega biz?! — degan Kengeshning ovozi eshitildi. — Kimsangina gunohkor. O‘shani qutqarib olaman deb...

— Qani, yo‘qol, eshitishni ham xohlamayman! — oyim eja yana qiyqirdi. — Kimsaninglarni bilmayman. Barchanglar birday iflossizlar. Sizlarga o‘xshagan yugansiz beadablarga qo‘shilgan bola qanday qilib sog‘ qolsin?! Qani, qo‘radan chiqinglar! Qoranglarni ko‘rmayin!

Birozdan keyin Kengesh bilan Erkin ko‘chaga chiqishdi. Bu so‘zlarni eshitib, men turgan joyimda qotib qoldim.

— Mana, ko‘rdingmi, — dedi Erkin qorong‘ida, — bular ishonishmaydi. Bizni ham gunohkor deyishadi. Aslida hammasini qilgan Kimsan.

— Eh, Kimsan, Kimsan! Agarda u bo‘lmaganida...

Undan bu yog‘ini eshita olmadim. Hanuz o‘rnimdan jilolmayman. Yig‘lagimgina kelardi.

Sapar ketib boryapti

Bir necha haftalar o‘tdi. Bu vaqtning ichida Mo‘mun oromgohdan keldi. Saparning oyog‘i ham tuzaldi. Bugun yangam bilan akam Saparning bizning uyda qolgan kichkina jomadonini olishib, uydan jo‘nab ketishdi. Bo‘sag‘aga yetganda yangam menga yuzlanib shunday dedi:

— Sigirni sog‘ib qo‘ydim, kunning tobi qaytgandan keyin, bizga ayttirmasdanoq, dalaga haydab chiq. Biz Saparni uyiga kuzatgani ketyapmiz.

Men Sapar haqida endigina eshitib turibman. Albatta, boshida yangam bilan akam kasalxonaga borib-kelib turishdi. Ammo Sapar to‘g‘risida hech nima deyishmas edi. Men o‘zim bo‘lsa Sapardan hech xabar olganim yo‘q.

Bir marta Kengesh, Erkin hamda Mo‘munlar Saparning yoniga borib kelishganini eshitib ichim achishdi. “Ular borishganda men nega bora olganim yo‘q. Ularning yuzi yorug‘, mening yuzim bo‘lsa shuvut” deb o‘yladim.

So‘ngra o‘zimga o‘zim: “Bugun Saparning yoniga boraman. Boraman-da, undan kechirim so‘rayman. Hammasi uchun kechirim so‘rayman”, deb ont berdim. Baxtga qarshi bu maqsadim amalga oshmay qoldi.

— Sigirni boq, — dedi akam menga kesatib, — Sapar seni unchalik ham sog‘ingani yo‘q.

Shunday qilib, Saparning yoniga borish haqida bo‘lak og‘iz ochmadim. Bugun bo‘lsa Sapar ketib qolyapti... Bizning uyimiz-

ga kelmay ketib qolyapti. Nima qilish kerak? Shunday qilib men kechirim so‘ramasdan qolaveramanmi? Negadir uyaldim. O‘zingiz ham o‘ylab ko‘ring-chi: uyingizga mehmon keldi. Odobli, aqlli bola. Hech qanday yomonligi yo‘q. Mening aybim bilan u oyog‘idan ayrildi. Men bo‘lsam buning uchun undan kechirim so‘ramay, rahmat ham aytmay, sog‘ligini ham bilmay qolib ketyapman. Yo‘q! Nimadir qilish kerak...

Tushlik payti edi. Mol qo‘raga bog‘langan. Uni qaysi vaqt bo‘lsa ham haydab chiqsam bo‘laveradi, ochidan o‘lmaydi. Saparni tumanga yaqin yerdagi razyezdda poyezdga o‘tqazishlarini bilaman. Boisi Sapar kelganda ham o‘sha razyezdgacha poyezdda kelib, keyin biznikini surishtirib topib kelgan. Buni Sapar o‘zi ham aytgan. Bu razyezd bo‘lsa bizga yaqin. Ko‘p bo‘lsa yarim soat yuguraman. Oxir-oqibatda shu qarorga keldim. Xonalarning barchasini qulfladim-da, razyezd tarafga qarab yugurib ketdim. Yo‘lda borayotib, yetib borgunimcha poyezd ketib qolishidan qo‘rqdim. Biroq bu safar ishim o‘ngidan keldi.

Razyezd tuman markazi chetidagi paxta dalasida edi. Men to‘xtab turgan poyezdni, to‘plangan odamlarni olisdan ko‘rdim. Yaqin kelgandan keyin u kishilarning barchasi o‘zimiznikilar ekanini angladim. Bu yerdagilar haligi Sapar falokatga uchragan paytdagi odamlar edi. Biroq raisning o‘rnida hozir Mo‘mun yuribdi. Meni odamlar ko‘rgan zahoti barchasi burilib, tikilib qolishdi.

— Yugur, yugur tezroq! — dedi Bo‘rubay aka menga.

Boshqalar indashgani yo‘q. Men yaqin kelib, Saparni izlay boshladim.

— Sapar ana, tamburda turibdi, — dedi haydovchi Abdirayim aka.

Men Saparni ko‘rdim... U tamburda turibdi. Uning avvalgi ko‘rinishi yo‘q. Ikki qo‘lida o‘ziga loyiq yasalgan ikkita qo‘ltiqtayoq. Oq doka bilan tang‘ib qo‘yilgan o‘ng oyog‘i yerga yetmay turibdi. Rangi ozgan, oppoq. Mehmon... Biznikiga dam olgani kelgan mehmon...

Sapar meni allaqchon ko‘rib turgan ekan. Uning qalin lablari biroz achchiqli, mening kelishimdan lol qolib turganday. Yuzida bo‘lsa hech qanday achchiqning, kekning belgisi yo‘q. Men... tosh-

baqa misoli, ohista unga qarab jildim. Ortimda qolganlar bizga jimgina qarab turishardi.

Yaqin keldim. Nima qilishimni bilmay qoldim. Qo'l uzatay desam, bo'yim yetmaydi. Xayrlashuvni unutib qo'ydim.

— Sapar.. meni kechir... — dedim bo'g'ilgan ko'yi.

— Voy... nega, Kimsan? — dedi Sapar, nimagadir uyalib, — men o'zim... Bilasan-u, ayb o'zimda. Sen bilasanmi qanday bo'lganini? Biz hammamiz seni temiryo'lga yetmasdanoq, tekislikda to'xtaydi, deb o'ylaganmiz... Sen bo'lsang naq temiryo'lga borib yiqilding. Keyin biz o'zing turib ketarmikinsan deb, biroz kutib turib qoldik. Sen bo'lsang mutlaqo junbushsizsan. Shu asnoda poyezd ham burilishdan chiqib kela qoldi. Men senga yugurdim. Bilasanmi, seni turg'izib, temiryo'ldan nariga qulatib yuborgandan keyin, o'zim ham chiqib ketar edim. Qo'qisdan oyog'im chalinib, yiqilib qoldim... So'ngra... qarasang, o'zimga o'zimgina qilib oldim. Bo'lmasa...

O'sha zahoti poyezd hayqirib yubordi.

— Bo'pti bo'lmasa, xayr, — dedi Sapar bir qo'li bilan temir tutqichni ushlab. — Kimsan... men sizlarnikiga yana kelaman.

Men bu so'zlarni uqib, bo'g'zimga yosh to'lib, hech nima deyolmay qoldim. Poyezd qo'zg'aldi. Odamlarning barchasi surilishib, izzi-chuv qilib, Sapar bilan xayrlasha boshlashdi. Unga har xil gaplarni aytib qiyqirishdi, qo'llarini chayqashdi. Men ham qo'limni chayqadim. Biroq Sapar ko'p kishilarning orasida qolgan meni ko'rmay qoldi. Men oldinga yugurib, odamlardan bo'lindim. Endi Sapar meni aniq ko'rib, mengagina taalluqli qilib jilmaydi. Men unga javob tariqasida ko'zimga yosh oldim.

Epilog

Dala. Kimsasiz dala. Kun chiqmasidanoq men doim shu yerda bo'laman. Albatta, o'zimning g'o'daygan, qarigan kulrang molim bilan. Salqinda mol yaxshi o'tlaydi. Shu boisdan sigirim o'tlovga kelar zahotiyoq o'z qornining g'amini yeydi. Men bo'lsam qo'limdagi uzun xipchin bilan yerni urib, kayfiyatsiz o'tiraveraman.

Kun ham chiqadi, ko‘tariladi. Bu asnoda olisdagi qishloq yoqdan kelayotgan mollar ko‘rinadi. Ularning ortidan Kengesh, Mo‘mun, Erkin. Men ulardan ko‘zimni uzmay qarab turaman. Yuragimda qandaydir umid paydo bo‘ladi: ehtimol, bular menga bir narsa deyisharmikin? Yo‘q...

Ularning uchalasi ham o‘z sigirlari bilan menga yaqin yerdan, menga har qaysisi zimdan qarab, bir narsalarni g‘udranishib o‘tib ketishadi. Sigirim ularning mollariga qarab bir marta cho‘zib “mo‘”laydi-da, so‘ngra menga: “Biz ham o‘shalarga qo‘shilaylik”, deganday boqadi. Men boshimni xam qilaman. Shunda beso‘naqay qari mol menga yaqin kelib, ko‘ylagimning yoqasini, boshimdagi eski gilam do‘ppimni, shalpang qulog‘imni hidlab, so‘ngra ertalabdan buyon yegan yemini kavshab, yonimda turib qoladi. Men bo‘lsam kechagina uyiga jo‘nab ketgan Sapar haqida o‘yga cho‘maman.

Sapar yaxshi bola. Oyim eja uni, menimcha, hech qachon esidan chiqarmaydi. “Odobli bola” deb maqtaydi. Meni bo‘lsa: “Beadab Kimsan”, deydi.

Sapar yaxshi bola. Uni Bo‘rubay aka: “Azamat bola, odam bo‘ladi” deydi. Meni bo‘lsa u: “Agar sen shu bo‘yi ketsang, ko‘cha changituvchi sayoq bo‘lasan”, deydi.

Sapar yaxshi bola. U haqida Oyim eja o‘z bolasi hamda Erkin bilan Kengeshga shunday deydi: “Saparga o‘xshaganlar bilan do‘st bo‘linglar. Undaylar o‘z sheriklarini o‘limdan saqlaydi. Kimsanga o‘xshaganlar bilan do‘st bo‘lmanglar. Undaylar odamni azob-uqubatgagina giriftor qiladi. Nega shunday?! Nega?! Nima uchun Sapar odobli, tartibli? Nima uchun men beadab tartibsizman? Odob yoki tartiblilikni qayerdan o‘rganishadi? Bilmayman... Nega Sapar odam bo‘ladi? Nega men sayoq bo‘laman? Yoki Sapar shaharda, men qishloqda yashaganimiz uchunmi? Bilmayman! Shu boisdan yig‘lagim keladi. Yerga uzala tushib, o‘ksib-o‘ksib yig‘lab kiraman. G‘o‘daygan qari kulrang molning yo‘g‘on tanasi meni issiq kundan, quyrug‘i bilan chivin-pashshadan himoya qilib turadi.

MUNDARIJA

Qirg‘iz elining ikki ulug‘ adibi. *(Abduqayum Yo‘ldosh)* 3

MAR BOYJIYEV

Qissalar

Kuz yomg‘iri. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 10
So‘qmoq. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 42
Birovning baxti. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 95

Hikoyalar

Mening oltin baliqcham. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 140
Tabassum. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 154
O‘g‘ri xotin. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 170
Chapay halok bo‘lganida. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 192
Jinoyat va jazo yoxud qizil quloqlar. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 201
Mening nonim. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 204
Suluv. *Husan Ro‘zimatov tarjimasi* 210

MURZA G‘APAROV

Qissa

Murg‘obliklar. *Qurbon Sattor va Tursunboy Adashboyev tarjimasi* ... 218

Hikoyalar

Boychechak. *Avliyoxon Eshon tarjimasi* 290
Ikki mahal gullaydigan olmalar. *Avliyoxon Eshon tarjimasi* 298
Mehmon. *Rahim Karim tarjimasi* 305

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

MAR BOYJIYEV

MURZA G‘APAROV

87-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Anvar Zulpixarov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Zulfiya G‘ulomova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 21,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 20,26
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 153-1/22 Buyurtma raqami № 22-370

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

M 26 Mar Boyjiyev, Murza G‘aparov [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Mansur Jumayev. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 344 b.
ISBN 978-9943-8571-4-8

UO‘K 821.512.154-3
KBK 84(5Qir)